Ўйинли фаолиятни мотиватциялаш ўйин характерининг мусобақалашиш шартлари, шахснинг ўзини намоён қила олиши, ўз имкониятларини амалга ошириш эҳтиёжларини қондиришдан келиб чиқади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. П. Юсупова. «Мактабгача тарбия педагогика» «Ўқитувчи» Т- 1993й.

2. «Илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйилган Давлат талаблари».- Тошкент 2018й

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR TASVIRIY FAOLIYATI

Bozorova Maxmuda Xasanboevna,
Chust tuman 64- MTT tarbiyachisi
Tel:+998 99 970 19 67

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotlari guruhlarida tasviriy faoliyat mashg’ulotlarini tashkil etish va o`tkazish usullari masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tasviriy faoliyat, jarayon, bolalar, rassom, sensor tarbiya

Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikasiya-bu tasviriy faoliyat turlari bo’lib, ularning asosiy vazifasi-tevarak atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi. Masalan: yozuvchining she’ri va rassomning asari. Tasviriy faoliyat maktab yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy faoliyat bolalarni ongli tomondan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, uni shakli, katta-kichikligini, qismlarning joylanishi, rangipi bilish kerak bo’ladi. Bu jarayonida ko’rish, sezish, qo’l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi. Bolalar predmet va xodisalarni kuzatish va ko’rib chiqish jarayonida bolalar predmetni katta-kichik guruxlarga bo’lish, uni shaklini o’zgartirish, rangini turli-tumanliti bilan tasvirlaydilar. SHuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli xil material (qog’oz, mel, bo’yoqlar) bilan ularning o’ziga hos xususiyatlari, ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa bolalarni aqlan o’sishiga sabab bo’ladi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalardda fikr yuritish operasiyalari (taxlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish) ni rivojlanishga imkon beradi, bu o’z navbatida bolalarni oqilona o’sishiga olib keladi. Bu jarayonida bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatining ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog’lanadilar, ularning o’ziga hos sifatlari, shakli, rangi bilan, katta-kichikligi bilan tapishadilar, ularni farqini, o’xshashligini aniqlaydilar, bu esa bolalarni sensor tarbiyalashga, ko’rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni ahloqiy tarbiyalaydi. Chunki, bolalar o’z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bo’layotgan voqea-xodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo’ladilar, hayajonlanadilar.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo’yib, o’shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o’rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoaviy ish yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlari tarbiyalanadi. Bolalar, ishni baholash jarayonida, bolalarni o’rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo’lish to’g’ri baholash, o’z ishidan va o’rtoqlarining ishidan xursand bulish kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat-bu bolalarni o’z oldiga qo’ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat xisoblanadi. Bolalarda mehnat ko’nikmalarini o’stirish,tar6iyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba’zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy, vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgini bo’laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi-bu rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog’liqdir. Bolalar rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, yoki aks etsa u shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo’ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba’zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishga o’rganadilar. Ularda tasviriy san’at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg’uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy ijodiy o’stirishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o’sishi-bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo’lgan malaka, ko’nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan: tabiatga yoki istirohat bog’iga sayr, ko’z faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak atrofni ko’zatiishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg’u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to’g’ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin. Bolalarni o’z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ular ko’rganda quvonadigan qilib yaratish-bu badiiy, axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi.

Rasm, loy, qurish materialllari bo’yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat

darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo’ladi. Ularni o’quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uniig ko’rsatmalarini bajarishga o’rgatadi. Oldiga qo’yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yullarini-izlab topish bu o’quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o’z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarida ham rolь o’ynaydi. SHuningdek bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Maktabda: qiziqishga hohish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug’ullanish va shu kabilar.. SHunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni maktab hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo’ladi. O’z navbatida boshqa ta’lim–tarbiyaviy ish bo’lishlarining vazifalari bilan chambarchas bog’liq. Tasviriy faoliyat mashg’ulotlarini o’tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilimlarga tayanadi. Bolalar tasvirlamoqchi bo’lgan predmet xaqida tasavurga ega bo’lsalar, rasm, loy, applikasiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin. Tasviriy faoliyat turlarining bolalar o’yini bilan bog’liqligi. O’yin bola xayotida katta o’rin egallaydi.

Foydalanish adabiyotlar ro’yxati:

1. Sulaymonov A. va boshq. Tasviriy faoliyat. – T.: 2016.
2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotsining Davlat o’quv dasturi. T.: 2018.

BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHI UCHUN ZARUR BO‘LGAN SHART-SHAROITLAR

Mo’ydinova Nigora Nozimjon qizi,
To’raqo’rg’on tuman 2- KTIMTT tarbiyachisi
Tel: +998 99 970 19 67

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bola ta’limi va rivojlanishi uchun kattalar tajribasini ahamiyati, maktabgacha yoshdagi bola shaxsining shakllanishida kattlarning o`rni, bola ta’limi va rivojlanishida ota-ona ta’sirining ahamiyati usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xulq-atvor, maktabgacha yosh, shaxs, jamiya, idrok, yangi, bolalar

Bola rivojlanib borar ekan yangi psixik sifatlarni va xulq-atvor ko‘rinishlarini o`zlashtiradi. Shu tariqa u shaxsga, jamiyatning kichik bir a’zosiga aylanadi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bola butunlay shakllanib ulgurmagan va keyinchalik kamol topishga qodir bo‘lgan shaxs hisoblanadi, lekin bunga qaramay bolada nisbatan barqaror ichki dunyo shakllanadi-ki, u bolani ilk bora shaxs deb atashga asos bo‘la oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sharoitlari avvalgi yosh bosqichidan jiddiy farq qiladi. Kattalar tomonidan bolaning xulqiga bo‘lgan talablar sezilarli darajada oshadi. Jamiyatda barcha uchun majburiy bo‘lgan axloq qoidalariga, ijtimoiy odob normalariga amal qilish asosiy talabga aylanadi. Atrof-muhitni bilish imkoniyatlarining o‘sishi, bolani yaqinlari tashkil qilgan tor doiradan olib chiqadi va o`zaro munosabatlar shaklini ilk bora o`zlashtira boshlaydi. Bola o`zaro munosabatlar shaklini ilk bora kattalarning ta’lim, mehnat kabi asosiy faoliyati turlarida o`zlashtirib boradi. Bola tengdoshlari bilan birga o‘ynaydi, o`z harakatlarini tengdoshlarining harakatlari bilan muvofiqlashtirishni, o‘rtoqlarining qiziqishlari va fikrlari bilan hisoblashishni faoliyat jarayonida o‘rganadi. Maktabgacha bo‘lgan bolalik davri davomida bola harakatlarida o`zgarishlar va qiyinchiliklar ro‘y beradi. Ular bolaning idroki, fikrlashini, xotirasinigina emas, o`zining xulqini yo‘lga qo‘yishini ham talab qiladi. Shaxslararo munosabatlardagi axloq-odob namunalarini o`zlashtirish kattalar ta’siri ostida boshqariladi. Bu kattalarning bola shaxsini shakllanishiga ko‘rsatgan asosiy ta’siridir.

Bola shaxsining rivojlanishi ikki jihatni o`z ichiga oladi. Ulardan biri bolani atrof-muhitni asta-sekin anglab borishini va unda o`z o‘rnini his qilishini bildiradi. Bular sababli bola xulqida o`zgarishlar ro‘y beradi va ular ta’siri ostida bola u yoki bu harakatlarni sodir qiladi. Boshqa jihat esa his-tuyg‘u va irodani rivojlanishini taqozo etadi. Ular yuqorida aytilgan o`zgarishlar ta’sirini, xulq-atvorni mustahkamligini, uning tashqi sharoitlarga bog‘lanib qolmasligini ta’minlaydi. Bolalar uchun odob namunasi sifatida kattalarni o`zi avvalo ularning harakatlari, o`zaro munosabatlari xizmat qiladi. Bola atrofidagi yaqin insonlarning xulqi unga bevosita jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. U ularga taqlid qilishga, odatlarini o‘xshatishga, odamlarga, hodisalarga, narsalarga bo‘lgan fikrlarini o`zlashtirishga moyildir. Lekin yaqinlari bilan ish cheklanib qolmaydi. Maktabgacha yoshdagi bola kattalar hayoti bilan har xil yo‘llar orqali tanishadi: ularning mehnatini kuzatadi, hikoya, she’r va ertaklarni tinglaydi. Boshqalarning mehr, hurmat va maqtovlariga sazovor bo‘lgan odamlar bola uchun namuna vazifasini o‘taydi. Shu bilan birga bolalar guruhida ijobiy baholangan va mashhur bo‘lgan tengdoshlarining harakatlari ham u uchun namuna bo‘la oladi. Nihoyat, ertaklarda aks ettirilgan personajlarning harakatlari ham namunalikda katta ahamiyatga ega. Bunday personajlar u yoki bu odob fazilatlariga ega bo‘ladi. Bolaning yaqinlari doirasiga kirmaydigan, shunday bo‘lsa ham uning e’tiborini qozona olgan odamlar fikri uning namunali xulqni o`zlashtirishida katta ta’sir o‘tkazishi mumkin. Bola bu odamlarga qattiq bog‘lanib qolganligi sababli, ularning kattalarga, bolalarga, hikoya va ertak qahramonlariga bergan bahosi u uchun boshqalarnikidan ishonarli tuyiladi.Kichik va o‘rta yoshdagi bolalar axloq namunalariga katta qiziqish bildiradilar. Masalan, ertak yoki hikoya eshitayotib, ular kim yaxshi va kim yomon ekanligini aniqlashga tushadilar. Bu ma’noda noaniqlikka chiday olmaydilar va hattoki o`z nuqtayi nazarlaridan jonsiz predmetlarni ham baholamoqchi bo‘ladilar. O‘rmonda adashib qolgan va daraxt kesuvchi tomonidan qutqa rib qolingan bola haqidagi ertakni tinglab bo‘lgach besh yoshli bola: «Bolani topib olgan amaki yaxshi ekan, o‘rmon esa yomon, u bolani adashtirib qo‘ydi», dedi. To‘rt yoshli bola bo‘lsa, tentak haqidagi bir qator ertaklarni eshitib bo‘lgach: «Oyijon tentaklar yaxshi bo‘ladimi yo yomonmi?» – degan savolni berdi (Muxina tadqiqotlari). Bolalarning o`zi ham, atrofdagilar ulardan kutayotgan xulq haqidagi tasavvurdan kelib chiqqan holda, sekin-asta o`z harakatlarini baholay boshlaydilar.

Kichik va o‘rta yoshdagi bolalar madaniy-gigiyenik ko‘nikma qoidalarini, tartibga rioya qilish va o‘yinchoqlar bilan muomala qilish qoidalarini o`zlashtiradilar. Ular kattalar talablariga bo‘ysunish bilan birga, qoidalarga ham ega bo‘lishga harakat qiladilar. Tengdoshlari axloq qoidalarini buzganligi haqida bog‘cha tarbiyachisiga arz va shikoyat bilan murojaat qiladilar. Aksariyat hollarda bunday shikoyatlar chaqimchilik emas, balki o`ziga xos bo‘lgan iltimosni, qoidaga rioya qilish hamma uchun majburiy ekanligini bildiradi. Kichik va o‘rta yosh davrida boshqa bolalar bilan o`zaro munosabat qoidalarini o`zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ladi. Do‘stining fikrini, uning huquqlarini va xohishini hisobga olish majburiyati ko‘pincha bolalar faoliyatini murakkablashtiradi. O`zaro munosabat qoidalarini o`zlashtirish bolalar uchun oson kechmaydi, aniq bir holat xususiyatini tushunmay, bolalar bu qoidalarni dastlab rasman qabul qiladilar. Ular tomonidan muomala qoidalarining amalda o`zgartirilishi, buzi lishi va tiklanishi orqali bolalarda tajriba paydo bo‘ladi.

Kattalarning bolaga nisbatan «yaxshi bola»ga bo‘lgandek emotsional munosabat tug‘ilgandan va o`z jinsiga dastlabki ko‘nikishdan so‘ng, bolada yangi ijtimoiy muhit shakllanadi, ya’ni kattalar talablariga javob berishga va tan olinishga intilish paydo bo‘ladi. Ma’naviy his va vijdon hurmat qozonishga intilishning ijobiy tarafidir. Odamlarning kundalik munosabatlarida vijdon «kerak» so`zi bilan izohlanadi. Tarbiya orqali insoniyat ma’naviy madaniyatini yuqori yutug‘i bo‘lgan mukammallik tuyg‘usi aniq bir shaxsning yutug‘iga aylanadi. Shaxsning axloqiy shakllanishini bola egallayotgan bilimlar; atrofdagi odamlar bilan muloqot paytida o`zlashtirilgan axloqiy xulq odatlari, odamlar bilan o`zaro aloqa paytida yutuq va yo‘qotishlarni birga emotsional boshdan kechirishlar tashkil qiladi.

Foydalanish adabiyotlar ro’yxati:

1.“Shaxsga yo’naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish” metodik qo’llanmasi 2020 yil 30 iyun.

2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o’quv dasturi. T.: 2018.

BOLALAR O’YINLARI VA ULARNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Yusupova Maxfuza Mahmudjonovna,
To’raqo’rg’on tuman 2-KTIMTT tarbiyachisi
Tel:+998 99 970 19 67

Annotatsiya: Ushbu maqolada bola tarbiyasida o’yinning tutgan o’rni, o’yin bola tarbiyasining muxim vositasi, bolalar o’yinlari va ularning mazmuni va mohiyati, bolalar o’yinlarini o’ziga xos tomonlari, xaqidagi malumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O`yin, sujetli-rolli, ijtimoiy, bolalar, jarayon, muhim, bolalar

Ijodiy o`yinlar boshqa tur o`yinlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. o`yin mazmunining o`ziga xosligi.
2. Rollarning mavjudligi.
3. Xayoliy vaziyatning mavjudligi.

O`yin mazmunining o`ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Pedagog va psixologlarning tadqiqotlari shuni ko`rsatadiki, kattalarning ijtimoiy hayoti o`zining rang-barang ko`rinishlari bilan sujetli-rolli o`yinlarning mazmuni bo`lib xizmat qilar ekan. Ular bolalar kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turi o`yin ekanligini asoslab berdilar. Ijodiy o`yinlar sujetlari va mazmunining rang-barangligi, ularni tavsiflash zaruratini keltirib chiqaradi. Sujet o`yin faoliyati tizimida asosiy komponent sifatida o`z ichiga personajru, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini oladi. Ijodiy o`yinlarda xayoliy vaziyatning mavjud bo`lishi bolaning tafakkurini o`stirib, sujet va rollar o`yin mazmunini takomillashtiradi. Ijodiy sujetli-rolli o`yinlarning o`ziga xos sabablari mavjuddir. Buning eng asosiy sababi -bolalarning kattalar bilan birgalikda ijtimoiy hayot kechirishga intilishidir. Bu sabablar bolaning yoshiga qarab, o`yin mazmuniga qarab o`zgarib boradi. Kichik yoshdagi bolalarda asosiy sabab buyumlar bilan bajariladigan qiziqarli barakatlar bo`lsa, bola katta bo`lgan sari o`yindagi kattalar harakatlarini va munosabatlarini qayta aks ettirish asosiy sabab bo`lib xizmat qiladi. Shunga ko`ra, o`yinlarni sujeti, mazmuniga ko`ra 3 guruhga bo`lish mumkin:

1. Maishiy o`yinlar (oila, bolalar bog`chasi va boshqa voqelikni aks ettiradigan).
2. Mehnat mavzuyidagi o`yinlar (oila va kattalar mehnatida ishtirok etish, o`z-o`ziga xizmat va boshq.).
3. Ijtimoiy mavzudagi o`yinlar.

Bolalar rollarni tanlab o`ynaydilar. Sujetli-rolli o`yinlarda xatti-harakatlarni, qoidalarni egallash asosida, rolda mujassamlashtirilgan axloqiy qoidalar ham o`zlashtiriladi. o`yinda kishilar turmushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulq-atvor me’yor va qoidalariga ijobiy munosabat shakllantiriladi. Xuddi shu jarayonda o`yin muo-mala madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ham yuzaga keladi. Aqliy tarbiyaning asosiy vositalaridan biri sujetli o`yin hisoblanib, unda bola atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni aks ettirib, xayolan ularni qayta tiklaydi. o`yinning xayoliy vaziyati bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishiga doimo ta’sir ko`rsatadi. D.B. Elkonin sujetli-rolli o`yinni birgalikda o`ynaladigan o`yinda tasvirlanayotgan voqealarga, harakatlarga, buyumlarga nisbatan o`z nuqtayi nazarini boshqalar nuqtayi nazari bilan jamlash masalasi shakllanishi natijasida yalpi tafakkur bosqichiga o`tishga imkon beruvchi bilishga oid jarayon yuz berishini ta’kidlab o`tgan. O`yinning san’atga yaqinligi sujetli-rolli o`yinlardan estetik tarbiyada foydalanish imkonini yaratadi. Bola o`yinidagi ijodkorlik bilan bog`liq bo`lgan tuyg`ular estetik tuyg`ularga yaqin turadi. o`yinda bolaning katta harakat tajribasi shakllanadi. Turli harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun qulay sharoit yara-tiladi, bola rolga kiradi, o`z roliga oid xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun tasvirlayotgan rollarning o`ziga xos xususiyatlarini ongli ravishda ifodalaydi. Ikki yoshdagi bolalar hayotida sujetli o`yinchoqlar bilan juda oddiy o`yinlar o`tkaziladi. Bolalar bu o`yinchoqlarni qo`lda ushlab yuradilar, siqib ko`radilar, yerga tashlab ko`radilar, o`ymchoqlarni g`ildiratadilar, o`yinchoqda nima tasvirlanganligiga e’tibor bermaydilar. Bu yoshda kundalik hayotda tevarak-atrofdagi katta kishilar va bolalar harakatini kuzatib borishni, bu harakatlarni o`z o`yinlarida aks ettirishni o`rgatish lozim (masalan, qo`g`irchoqni ovqatlantirish, uyquga yotqizish va boshq.).

Bu yoshda buyumli o`yin bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqichda bolalar o`yinchoqlar bilan kattalar harakatlariga taqlid qiladilar.

2-bosqichda o`zlashtirgan harakatlarni mustaqil bajara boshlaydilar, so`ngra bu harakatlarni boshqa buyumlarga ko`chiradilar.

3-bosqichda tasviriy o`yin vujudga keladi, uning mazmunini shartli qurollar bilan bajariladigan harakatlar tashkil qiladi.

Bola kundalik hayotda kuzatgan buyumlar bilan bajariladigan harakatlarga taqlid qiladi (gazeta o`qiydi, yer chopadi, kir yuvadi), bularning hammasi sujetli-rolli o`yin uchun sharoit yaratadi. Uch yoshga qadam qo`ygan bolalar bilan suhbatlar, kuzatishlar o`tkazish, ularga hikoya va ertaklar o`qib berish, maslahat berish orqali o`yinlarga qiziqtirish kerak. o`yinda bolalarni katta ish-harakatning faqat tashqi tomonigagina taqlid qildirmay, balki ularni odamlarning, mehnatga bo`lgan munosabatlariga ham taqlid qildirish, bolalarda ahillik bilan o`ynay olish, rollarni taqsimlay bilish, ko`zlangan maqsadga erisha olish, ko`nikmalarini tarbiyalash, tortinchoq va uyatchan bolalarga loyiq rollarni taklif qilib, ularning o`yinga qo`shilishiga yordam berish kerak. Bolalarda xayol tasavvurlarini o`stirish ularda mustaqil biron yangi o`yinni ijod etish, bu o`yinga kerakli narsalarni tanlash, binolar qurish, ba’zi o`yin-choqlarni o`z qo`li bilan yasash, badiiy mashg`ulotlarda orttirgan malakalarini o`yinda qo`llash, qo`shiqlar aytish, she’r o`qish, chizgan rasmlaridan va yasagan narsalaridan foydalanish istagini uyg`otadi.

Jamoa o`yinining paydo bo`lishi uning mavzuyi va mazmunini ham, tuzilishini ham tez rivojlantirish va o`zlashtirish imkonini yaratadi. Bolalar o`yinlari mavzuyining o`zgarishida maishiy o`yinlardan mehnat, ishlab chiqarish sujetiga ega bo`lgan o`yinlarga, so`ng turli ijtimoiy voqea va hodisalar aks ettiriladigan o`yinlarga o`tiladi. O`yinning mazmuni ham rivojlanadi.

Foydalanish adabiyotlar ro’yxati:

1.“O’yin orqali ta’lim olish” metodik qo’llanmasi 2020 yil 30 iyun.

2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o’quv dasturi. T.: 2018.

БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИНГ РОЛИ

Азимова Нафиса Парда қизи
Қашқадарё вилояти, Яккабоғ тумани
85-сонли мактабнинг бошланғич синф ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада умумий ўрта таълим мактабларида бошланғич синф ўқувчиларига дарс бериш усуллари ҳамда методлар ҳақида тавсиялар берилган.

Калит сўзлар. Интерфаол дарс усул, инновация, мантиқий изчиллик, геометрик материаллар, (“Кўрганни эслаб қолиш”, “Жимжитлик”, “Нима ўзгарди?”, “Театр”, “Нарвонча”, “Зинама-зина”.

Пойдеворин қийшиқ қўяркан меъмор, қийшиқдир юз йиллар турса ҳам девор –деган экан, Шайх Саъдий Шерозий.

Бошланғич таълим – таълим иморатининг пойдевори, авлодни баркамолликка элтувчи бош бўғиндир. Таълим иморатининг пишиқ – пухталиги, кўркамлиги, салобати, аввало, бошланғич таълимнинг савиясига, бошланғич синф ўқитувчилари таркибига, уларнинг зарурий билим ва малакаларни, педагогик маҳоратни пухта эгаллаганлигига боғлиқ. Ўқитувчи қанчалик билимдон бўлса, ўз ишини севса, касб маҳоратини тинмай такомиллаштириб борса, янги самарали усулларни, тажрибаларни эгаллаш устида тинимсиз ишласа, янгиликлар ижод этиш учун изланса у берган таълимнинг самараси юқори бўлиши шак-шубҳасиздир.

Таълим самарадорлигини оширадиган омиллардан бири – таълим жараёнида илғор педагогик технологиялардан моҳирона фойдаланишдир. Бу бошланғич таълим учун ҳам тааллуқлидир. Инновацион технологиялар, интерфаол дарс усулларидан фойдаланиш имкониятлари бошланғич синфларда ҳам жуда кўп.

Маълумки, инновация янгилик яратиш, киритиш деган маъноларни билдиради. Таълим жараёнида ҳам инновация шу ёки шунга яқин маънода қўлланилади, ҳамда ўқувчиларни ёппасига фаоллаштирадиган, дарс жараёнида уларни пассив тингловчидан мустақил фикр юритувчи, хулоса чиқара олувчи фаол иштирокчига айлантиришда қўлланиладиган методлар мажмуи тушунилади.

Бироқ ҳеч бир янгилик ўз-ўзидан ёйилмагани сингари, инновацион дарс усуллари ҳам таълим жараёнига ўз-ўзидан кириб бормайди, балки уларни режа асосида ўқитувчиларга тинимсиз сингдириб боришни, шу йўналишда самарали усуллар қўллашни талаб этади.

“Бошланғич синфларда содда ва мураккаб масалалар ечишни ўргатиш усуллари”, “Бошланғич синфларда геометрик материалларни ўргатиш усуллари” мавзуларида тренинг машғулотларини олиб бораман. Машғулотларимнинг ҳамма тингловчилар учун таниш ва кўп учрайдиган ҳолатлардан келиб чиқиб ташкил этаман. Масалан, 3-4-синфларда мураккаб масалалар кўп учрайди. Шу масалаларни ечишда мантиқий изчилликка эътибор қаратиш лозим. Чунки, мантиқий изчиллик масалаларни ечишда хатоларга йўл қўйишдан асраши билан бирга ўқувчида мантиқий фикрлаш малакасини ўстиради. Шунингдек, геометрик материалларни ўргатишда назария билан амалиётни боғлаш, яъни ҳаётга боғлаб, амалий ёндашув йўлидан бориш ва мисолларни бевосита аудитория, мактаб биноси, ёки ҳаётда ҳар куни ва кўп учрайдиган предметлардан олишга ҳаракат қилиши керак.

Умуман олганда, ўқувчиларнинг мантиқий фикрлашини ривожлантирадиган педагогик технологиялар асосида ташкил этиладиган математика дарсларида қуйидагилар муҳим ўрин тутади:

1.Ҳар бир дарсда интерфаол усулларни қўллаш.

2. Ҳар бир масала ечимини топиш учун муаммоли вазият ярата олиш.

3.Замонавий педагогик технология асосида ташкил этилган дарсларни дидактик ўйинлардан ўринли фойдаланиш. (“Кўрганни эслаб қолиш”, “Жимжитлик”, “Нима ўзгарди?”, “Театр”, “Нарвонча”, “Зинама-зина” ва бошқалар)

4. Математика дарсларида масала ечиш жараёнида ўқувчилар масала таҳлилини мустақил равишда амалга ошириб, ечимини тўғри топа олишга эришишни таъминлаш.

5.Геометрик материалларни ўргатишда амалий ёндашувни таъминлаш.

6.Ўқувчи билимини баҳолашда тест синовларидан, рейтинг ва диагностик таҳлил

усулларидан фойдаланиш.

7.Ҳар бир дарс жараёнида ўқувчилардаги ёзма ва оғзаки ҳисоблаш уйғунлигини таъминлаб бориш.

Бошланғич мактабда математика таълими ўқувчиларнинг мантиқий фикрлаш қобилиятларини шакллантириш ва ривожлантиришга ўз фикрларини мустақил баён қила олишларига, эгаллаган билимларини ижтимоий фаолиятларида қўллашга ҳамда таълимнинг иккинчи босқичида ўқишни давом эттириш учун математик тайёргарликни таъминлашга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Тўгарак машғулотлари учун методик тавсиялар. Жумаева.М.Т.2017.

2.Ишмуҳамедов.Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. -Т.2004.

БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ШАКЛЛАНТИРИШ – МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ МАҚСАДИ

Тошмуродова Жамила Холмирзаевна,
Эргашева Саодат Мухаммадиева
Қашқадарё вилояти, Яккабоғ тумани
8-сонли мактаб ўқитувчилари

Аннотация. Мақолада баркамол авлодни шакллантиришда амалга оширилиши керак бўлган ғоялар, ўқувчиларни маънавий жиҳатдан мукаммал инсон қилиб тарбиялаш асослари ҳақида қарашлар берилган.

Калит сўзлар. Миллий ифтиҳор, умуминсоний қадриятлар, ижтимоий институтлар, оммавий ахборот воситалари, ташаббускорлик, ижодкорлик, омилкорлик.

Ҳар қандай жамият барқарор ривожланишга интилибгина қолмай, у ўзининг табиатига, моҳиятига мос шахсни ҳам вояга етказади. Унинг аҳлоқий, ҳуқуқий, эстетик, ижтимоий фаолияти шу мақсадга бўйсундирилади.

Мустақил Ўзбекистонимиз жаҳондаги энг илғор мамлакатлар сафидан ўрин олиб, барқарор ривожланиши учун, мустақиллик дунёқарашига эга бўлган, миллий ифтиҳор туйғуси билан қуролланган ҳур ва эркин фикрловчи, айни вақтда, фуқаролик масъулиятини чуқур ҳис эта оладиган, миллий ва умуминсоний қадриятларни ўз касб кори, ижтимоий муҳити талаб қиладиган даражада ўзлаштирадиган шахсни тарбиялаш лозим.

Бунинг учун жамиятда икки йўналишда иш олиб борилади. Биринчидан шахс камолоти учун объектив шарт-шароитлар яратилади.

Бу фикрдан хулоса чиқариб айтиш мумкинки, энг аввало, иқтисодий ва маданий имкониятлар моддий ва маънавий ишлаб чиқаришни кенгайтиради ҳамда ижтимоий муносабатлар тараққий топади, яъни тегишли қонунлар қабул қилинади, эски ижтимоий институтлар қайта кўриб чиқилади, заруратга қараб янгилари ташкил этилади. Иккинчидан эса муайян тарбиявий ишлар амалга оширилади. Жамият ўзига мос шахсни шакллантириш учун унга тарғибот, ташвиқот, таълим тарбия тизими ва бошқа мафкуравий институтлар, оммавий ахборот воситалари орқали маданий мерос, қадриятлар билан таништириш ва баҳо бериш орқали таъсир этади.

Мамлакатимиз миллий истиқлолга эришгандан кейин жамиятда ҳақиқий фуқароларни шакллантириш борасида жуда кўплаб ишлар амалга оширилмоқда, зеро Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг асл ва пировард мақсади инсонга қаратилган. Ш а х с вояга етиши ва камолга етиши учун биринчи навбатда унинг эҳтиёжлари қондирилиши лозим. Инсон ҳар сафар ўсиб бораётган талабларини тўлароқ қондирса ўзини тўлақонли шахс сифатида такрор ярата олади. Акс ҳолда, инсон камолотида турғунлик бошланади. Инсоннинг маънавий эҳтиёжлари қондирилмаса, у ҳатто шахс сифатида емирилиши ҳам мумкин.

Савол пайдо бўлади, нима сабабдан баъзи одамлар берилиб ишламайди, ўзларининг имкониятларидан тўлалигича фойдаланишга ҳаракат қилмайди ёки ўз имкониятларидан фойдаланиш йўлларини билмайди. Бу маънавий камбағаллик эмасми?

Маънавий етуклик бор жойда инсоф, диёнат, ҳиммат, олийжаноблик, мурувват билан бирга ташаббускорлик, ижодкорлик, омилкорлик ҳам кўзга ташланади. Маънавий етуклик чинакам инсонийлик белгисидир.

Ҳеч ким ўзини маънавий қашшоқ деб айтмайди, балким, ўзини етук, маънан етук одамман деб айтади, агар у маънавий қашшоқлигини тан олса эди, бу иллатдан қутулишга ҳаракат қилган бўлар эди. Бирон жойда кўрмаганмизки бирон бир инсон виждонсиз бўлса виждонсизман деб тан олганлигини. Чунки виждон тушунчаси унинг ақл идрокидан йироқда.

Маънавий қашшоқ одам жуда хавфли одам саналади, чунки бугун тўғри йўлдан бораётган бўлса эртага эгри йўл билан боради, бугун у дўст бўлса, эртага бирор муваффақиятга эришса душманга айланиши мумкин.

Маънавий етуклик эса бу шундай бир хазинаки, уни эгаллаган одам инсонийлик қадр-қимматини ҳамма нарсадан устун қўяди, ўз манфаатини ўзгалар манфаати билан қўша олади, ҳаёт – мамот масалалари ҳал бўлаётган даврда ақл идрок доирасидан чиқмайди.

Шахс маънавий тарбиясида дастлаб оила, кейинчалик боғча ва мактаб алоҳида ўрин эгаллайди.

Хусусан, мактабда жуда кўп мураббийлар тарбиявий соат ўтиш ёки кўча – куйда, мактаб ҳовлисида болага сен бундай қил, ёки бундай қилма деб танбеҳ бериши билан уни маънан баркамол қилиб тарбиялай олмайдилар. Балким, ҳар бир мураббий ҳар бир фаолиятида ёш авлодга таълим-тарбия бериб бормоғи зарурдир. Чунки таълим-тарбия ягона бир бутундир. Инсоннинг бирор аъзосини бир аъзосидан ажратиб бўлмаганидек, таълим – тарбияни ҳам бир-биридан ажратиб бўлмайди. Тарбиялаб туриб таълим бериш, таълим бера туриб тарбиялаш ҳар бир мураббийнинг энг асосий вазифаси бўлмоғи зарур.

Бу мақсадни амалга оширмоғи учун ўқитувчининг ўзи бой ва юксак маънавий оламга эга бўлиши, ўз фанини чуқур билиш, ҳар бир мавзуни болалар тарбиясига бўйсундириши, яъни мавзунинг бутун ички тартибини боланинг руҳига таъсир қиладиган, уни тарбиялашга бир мисқол бўлса ҳам ҳисса қўшадиган мисоллар асосида олиб бориши керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Бола тарбияси ўйинчоқ эмас. А.Тиловов. –Тошкент.2013.

2.Ишмуҳамедов.Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. -Т.2004.

ABDULLA QODIRIYNING BADIIY TASVIR MAHORATI

O’roqov Shaxboz Abdikarimovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika universiteti
konchilik ishi yo’nalishi 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada. Yoshlarni dunyoqarshini shakllantirishda, ularning ma’naviyatini yuksaltirishda bu asarlarning o’rni beqiyosdir. Buyuk adib va uning asarlari haqida juda ko’p gapirilgan , fikr – mulohazalar bayon etilgan deb yoritib beriladi.

Kalit so’zlar: ijot merosi , fikr – mulohazalar, daho sa’natkorligi, ma’naviyatini yuksaltirish.

Kitob - oftob. Zaminni, ona tabiatni oftob isitadi odam qalbini kitob ilitadi, nafaqat ilitadi balki yoritadi nurlantiradi .

Abdulla Qodiriyning ijot merosi ham xalqimizning ma’naviy ravnaqi uchun. Adibning o’tkan kunlar “mehrobdan chayon “ kabi o’lmas asarlari kirib bormagan biror xonadon yoki biror kitobxon ko’ngil tiopilmasa kerak yurtimizda. Yoshlarni dunyo qarshini shakllantirishda , ularning ma’naviyatini yuksaltirishda bu asarlarning o’rni beqiyosdir . Buyuk adib va uning asarlari haqida juda ko’p gapirilgan , fikr – mulohazalar bayon etilgan.

Abdulla Qodiriyning asarlarini o’qir ekansiz ,asar qahramonlari va undagi voqealarni bayon etishdagi adibning tasviriy mahoratiga qoyil qolasiz.

Adib asarlaridagi badiiy tasvirlarga ahamiyat bersangiz qahramonlar tasviri ham sizni befarq qoldirmaydi. Yozuvchi asar yozayotganda hech bir mayda narsalarni ham ko’zdan qochirmasligini ta’kidlab,shunday yozadi . “ Men bir asar yozishdan avval shu yozmoqchi bo’lgan narsam haqidagi matirallarni puxta o’rganib chiqaman”

Men biror joy to’g’risida asar yozmoqchi bo’lsam , o’sha joyni avval necha ko’rgan esam-da, yana borib tekshirib yaxshiroq o’rganib kelaman . Materallarni o’rganish mahalida eng mayda narsalarga (detallarga) ham ahamiyat beraman. Umuman, mayda detallar o’quvchida yozuvchisiga ishonch uyg’otadi. Yozuvchi bo’laman degan har bir kishi o’zida mana shunday , turmushning mayda – chuydalarigacha kuzata oladigan qobilyatni oshirish kerak.

Abdulla Qodiriyning bu sinchikovligiga , bu qobilyatiga har bir asar qahramoning badiiy tasviri shu qadar ustalik va mahorat bilan yozilganligiga,uni go’yo usta rassom ko’z o’ngingizda moy bo’yoqlarda ishlagan surati namoyon bo’lgandek his etganingizda yana bir bor amin bo’lasiz .

Adibning “O’tgan kunlar” asarini o’qir ekansiz asardagi har bir qahramon tasviridagi o’ziga xoslik, turfa detallar sizni o’ziga tortadi . Yozuvchi Otabekni tasvirlar ekan uning qiyofasi kitobxon ko’z o’ngida namoyon bo’ladi.

Og’ir tabiatlik , ulug’ gavadalik, ko’rkam va oq yuzlik, kelishkan,qora ko’zlik,mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabzi urgan bir yigit . Bu tasvirning o’zidayoq kitobxon Otabekning siyrati va surati naqadar ko’rkamligiga ishonadi .

Abdulla Qodiriy tomonidan tasvirlangan bir malak Kumushbibi tasviri esa kitobxonni tamomam lol qilib , o’z ortidan ergashtiradi.

Uyg’oq yotgan bizni ko’ramiz . Uning qora zulfi , par yostiqning turlikk tomoniga tartibsiz suratda to’zg’ib , quyuq jingilla kiprik ostidagi ostidagi ko’zlari bir nuqtaga tikilgan - da , nimadir bir narsani ko’rgan kabi….qop-qora kamon , o’tib ketgan nafis, qiyiq qoshlari chimirlaganda, nimadandir bir narsadan cho’chigan kabi to’lgan oydek g’uborsiz oq yuzi biroz qizilligg’a aylangan-da, kimdandir uyalg’an kabi shu vaqt ko’rpani qayirib ushlagan oq nozik qo’llari bilan latib burnining o’ng tomonida , tabiatning nihoyatda usta qo’li bilan qo’ndirilgan qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o’lturdi.

Bu tasvirlarni o’qigan har bir kitobxon ko’z o’ngida Kumushbibi siymosi, uning go’zalligi oldida bir oz hayajonga tushadi va satrlar ustida qayta-qayta ko’z yugurtiradi . Kitobxon asarni o’qir ekan, yozuvchining tasvir mahoratiga tan beradi. Chunki asarda voqealar rivoji yuksak mantiqiy izchillik bilan ko’rsatilganligiga qaramay , har bir obraz o’z tabiat mantig’iga mos harakatlarnigina qiladigan obrazlarning har biri o’z darajasiga mos keladigan til bilan ta’minlanganligiga, timsollar faoliyatida sun’iylikl zo’ravonlik sezilmasligi o’quvchini befarq qoldirmaydi .

Adibning buyukligi, daho sa’natkorligi shundaki, na asar voqeasi rivojida , na obrazlar xatti

harakatlari tasvirida, na muallif bayonida yasamalik , taxminga yo’l qo’ymaydi. Yozuvchining qalamidan to’kilgan tasvir hayotning o’zidagidan ham mukammalroq, tabiiyroq, asosliroqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. - Asar haqida, uning shu darajada sevimli va xalq qalbidan joy olishiga sabab asarning ommabopligidadir Bu haqida Abdulla Qodiriyning o’zi shunady deydi. “O’tkan kunlar’ni yozar ekanmiz doimo ko’z o’ngimda o’quvchi ommamiz turar edi”. Men bu asarni qayta-qayta o’qishni butun tengdoshlarimga , yoshlarga tavsiya etaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. J. O. Tolipova. “Pedagogik kvalimetriya”. T. 2015.
2. M.Mirsolieva., G.Ibragimova . Ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. T. 2015
3. S.Abdirasilov., N.Tolipov Dasgohli rangtasvir. “Iqtisod-moliya” T.: 2010

TA’LIM MUASSASALARI DARS JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Alimova Nodiraxon Mamatxonovna
Namangan viloyat To’raqo’rg’on tuman
53-maktab davlat va huquq asoslari fani o’qituvchisi
TEL 99 893 949 20 73

Annotattsiya
Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o’iga xos xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar berib o’tilgan
Kalit so’zlar: Ta’lim tizimi,ta’lim va tarbiya,texnologiya,pedagogik texnologiya,innovatsion texnologiya,interfaol metod.

Mustaqillik yillarida o’z mustaqil fikriga ega, har jihatdan yetuk jahon standartlariga mos keladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida o’ziga xos pedagogik texnologiyalar maktabi yaratildi. Hozirgi kunda ta’lim tizimida hal etilishi zarur muammolardan biri sobiq sho’rolar davridan qolgan mafkuraviy qarashlardan voz kechib, ta’lim tizimida uzviylikni ta’minlash, zamonaviy bilim va dunyoqarashga ega o’quvchilarni tayyorlash, ta’lim sifatini oshirish masalasidir. Chunki, jamiyat, yurtimiz kelajagi ko’p jihatdan o’quvchilarimizning ilmiy, axloqiy va ma’naviy saviyasiga bog’liq.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “...Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yukask intelektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz”,-degan fikrlari maqsadimizning tasdig’i sifatida biz, ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o’zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Endilikda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o’quv tarbiya jarayonida interfaol usullardan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko’tarishga bo’lgan qiziqish, ehtibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Innovatsion texnologiyaning afzalligi ta’lim jarayonini bir butunlikda ko’rib, ta’lim maqsadi uning mazmuni, bilim berish usuli, natijalari, ta’lim bosqichlarini loyihalab, uni nazarat qilish, natijalarini baholash kabi uzviy bog’lashdan iborat.

Innovatsion texnologiya ta’lim tizim sifatida o’quvchilarni bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish va amalga oshirishni nazarda tutadi.

O’qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab sinfdoshlari bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o’quv-tarbiya jarayonida o’quvchi harakat ishtirokchisiga aylanadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va ta’lim oluvchilar faoliyatiga yangilik, o’zgartirishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo’lib fikrlash va ishlashdir, yangi pedagogik ta’sir etish usullari bo’lib, ta’lim mazmuninin tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bu metodlarning o’ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o’qituvchilarning birgalikdpgi faoliyat ko’rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Interfaol metodlarning asosiy maqsadi o’qitish tizimida dars jarayonining markaziga o’qituvchi o’rniga o’quvchini olib chiqishdir. O’qituvchi interfaol metoddan foydalanar ekan, qaysi mavzuda qaysi metodda foydalanishni tanlay olishi juda muhimdir. O’qituvchi interfaol metodlardan avvalo oddiydan murakkabga o’tish nazariyasiga amal qilgan holda foydalanmog’i lozim. Interfaol darslarning tashkil etilishi natijasida quyidagilarga erishiladi:

-darsga nisbatan barcha o’quvchilarda yuqori darajada qiziqish uyg’otiladi;
-belgilangan o’quv materialini puxta o’zlashtirish imkoni yalatiladi;
-o’quvchilarda mustaqil fikrlash hamda hozirjavoblik qobiliyati shakllanadi;
-olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llash malakasi shakllanadi;
-barcha o’quvchilarning faolligi oshadi;
-muloqotga kirishish ko’nikmasining takomillashishi;

-muammolarni yechish ko’nikmalarini shakllantirilishi;
-o’quvchilar o’rtasida do’stona munosabatlar shakllanadi;

Hozirgi zamon ta’lim tizimidagi amaliy tajriba shuni ko’rsatadiki, oldindan puxta tayyorlangan innovatsion texnologiyalardan foydalanib o’tilgan dars, albatta o’qituvchi va o’quvchiga darsni qiziqarli bo’lishi, shuningdek, ijobiy natijaga erishishlariga imkoniyat yaratadi hamda darsning samaradorligini oshiradi.

Shunday ekan, u yoki bu texnologiyani o’quv jarayoniga qo’llashdan avval uning barcha xususiyatlari va imkoniyatlarini , nimaga yo’naltirilganligi, qanday maqsadlarda foydalanish, muayyan bir sharoitda qanday vazifalarni yechishga yordam berishini o’rganib chiqish, keyin uni qo’llash kerak.

Xulosa qilib aytsak, har qaysi pedagog, ozi oqitayotgan fanini chuqur bilishi, oquvchilarini shu predmetga qiziqtira olishi, dars jarayonlarida zamoviy pedagogik va innovatsion texnologiyalardan unumli va o’rinli foydalanishlari lozim, chunki, maktabda ta’lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib bo’lishi faqat o’qituvchiga. uning kasbiy mahoratiga bog’liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ш. Мирзиёев.”Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-халқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.Халқ сўзи. 2016 йил 8декабрь.243-сон.

2.Ishmuhamedov R.,Abduqodirov A.,Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: «Iste’dod» jamg’armasi, 2008. -180 b.

3.Choriev R. Yangi pedagogik texnologiyalar-ta’lim tarbiya sifat va samaradorligi omili “Xalq ta’limi” jurnali.2004.№4.

4.Республика илмий-амалий конференцияси материаллари.-Наманган,2013.Б-93.

MAKTABDA EKOLOGIYA VA UNI ASRASHNI O‘QUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISH

Asraliyeva Xurshidabonu Fayzullayevna
Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani
75-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Geografiya fani o‘qituvchisi
90-317-20-01

Annotatsiya: maqolada tabiatni asrash masalasi tabiatshunoslik fanining bosh vazifalaridan biri bo‘lib, u bolalarda tabiiy boyliklarni asrash va ko‘paytirishga intilishni tarbiyalashga yordam berishi, o‘quvchilar tabiatning biron-bir bo‘lagining halokati boshqalarining halokatga olib kelishi haqida tasavvuriga ega bo‘lishlari haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tabiatshunoslik, atrofimizdagi olam, tabiiy boyliklar, globus, yer shari, gullar,jonli burchak.

Tabiatshunoslik fani o‘z oldiga ekologik ta’lim va tarbiya maqsadlaridan kelib chiqib, o‘quvchilarni insonning tabiatga ta’sirini va tabiat boyliklarini bolalarga tushuntirish vazifasini qo‘yadi.

Tabiatni asrash masalasi tabiatshunoslik fanining bosh vazifalaridan biri bo‘lib, u bolalarda tabiiy boyliklarni asrash va ko‘paytirishga intilishni tarbiyalashga yordam beradi. O‘quvchilar tabiatning biron-bir bo‘lagining halokati boshqalarining halokatga olib kelishi haqida tasavvuriga ega bo‘ladi; ular o‘simliklarni o‘stirish, mahalladagi daraxtlarni parvarishlash, qushlarni boqish uchun o‘simliklar mevasini terish, maktab bog‘ida o‘stirish uchun gullar urug‘ini ekish, jonli tabiat burchagida ishlash kabi tabiatni asrash yumushlarida qatnashadi. Fan darslari, tajribalar, sayohatlar, amaliyot ko‘rinishidagi darsdan tashqari ishlar (dalada o‘tkaziladigan amaliyotlar) o‘quv mashg‘ulotlarning asosiy shakli hisoblanadi. Tabiatshunosliknio‘qitishda shu fanga xos bo‘lgan tabiatning o‘zidagi, sinfdagi, jonli tabiat burchagidagi ashyolar va voqelikni kuzatish, tabiiy obyektlar va ularning tasvirlarini darsda namoyish qilish, o‘quv eksperimenti o‘tkazish yetakchi o‘rin tutadi. Tabiatshunoslik darslari o‘quvchilarda kishilar mehnatini hurmat qilishni tarbiyalab, mehnat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘simlik va hayvonot dunyosini asraymiz bo‘limi o‘quvchilarning mavsumiy o‘zgarishlar haqida bilimlarini chuqurlashtirishni va bir paytning o‘zida o‘simlik hamda hayvonot dunyosi bilan kengroq tanishtirishni ko‘zda tutadi. Sog‘liqni saqlash mavzusi inson jonli tabiatning bir bo‘lagi ekanligi haqidagi fikrni shakllantirish, tana a’zolarining joylashuvi, ular bajaradigan vazifalar, ularga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kabi ma’lumotlarga to‘xtalinadi. Har bir bola o‘z oiganizmi, uning rivoji va sog‘lig‘ini saqlash uchun ularni bilishi lozimligi haqida umumiy bilimga ega bo‘lishi kerak. Shaxsiy va ijtimoiy gigiyena masalalariga, ayniqsa, bolalar o‘z sog‘liklarini saqlashi va mustahkamlashi uchun zarur bo‘lgan tadbirlarga alohida e’tibor bermoq lozim.

Ekologiya asoslari mavzusida ekologiya haqida umumiy taassurot beriladi. Jonli va jonsiz tabiat aloqasi, ekologik piramida, tabiatdagi organizmlarning o‘zaro aloqasi, ularning o‘z-o‘zini himoya qilishi, ekologik halokat kabilarga alohida e’tibor berilishi zarur. Atrofimizdagi tabiat mavzusida, birinchidan uchinchi sinfgacha olingan bilimlar umumlashtiriladi. Joyni aniqlash mavzusi o‘tilar ekan, o‘quvchilar ekskursiya va amaliy mashg‘ulotlar paytida gorizont chizig‘i bilan tanishadilar. Agar maktab atrofida tekis, yaydoq joy bo‘lmasa, o‘qi-tuvchi darsda jadvallardan yoki ko‘rgazmali qurollardan foydalanishi mumkin.

Joylarning rejasi, ularning shartli belgilari haqida tasavvurga ega bo‘lgan o‘quvchilar, xarita haqida oddiy bilimlarga ega bo‘ladilar, uning shartli belgilarini o‘qiydilar, undan, shuningdek, globusdan yurtimizning o‘rnini topadilar, uning yuzasini, tabiatining rang-barangligini, janubdan shimolga tomon tabiat o‘zgarib borishini tushunadilar. Foydali qazilmalar mavzusi 3- sinfda o‘rganilishi hisobga olinib, dasturda ular belgilari bo‘yicha quyidagicha guruhlarga bo‘lingan:

1) qurilish materiali sifatida foydalaniladigan foydali qazilmalar;
2) yoqilg‘i sifatida ishlatiladigan foydali qazilmalar;
3) madaniy o‘g‘itlar olish uchun foydalaniladigan qazilmalar;
4) O‘zbekiston metall qazilmalari.

Tabiatni asrash bo‘limi tabiatshunoslik fanini yakunlaydi, o‘quvchilar olgan bilimlarini

umumlashtiradi. Birinchi navbatda tabiatga ehtiyotlik bilan munosabatda bo‘lishda insonning roli ko‘rsatiladi. Inson yerni, tuproqni, o‘simliklarni, hayvonlarni, suv va havoni asrashi lozim ekanligi eslatiladi. O‘quvchilar o‘zbekiston Respublikasining tabiatini asrash bo‘yicha qonunchilik hujjatlari bilan tanishadilar.

Tabiatni asrash masalasini o‘rganish faqat shu mavzu bilan cheklanib qolmaydi. Bu masala tabiatshunoslik fanining asosiy mavzusi bo‘lib qolaveradi.

O‘quvchilar tabiatni asrash zarurligi haqidagi xulosa va umumlashmalarga keladi, bu o‘qituvchiga o‘zbekistonning tabiatini asrash to‘g‘risidagi qonunni kicbik yoshdagi o‘quvchilarning ongiga yetkazish imkonini beradi.

Ekologiya bo‘limini o‘rganish jarayonida 3- sinfda o‘tilgan ekologiya haqidagi tushuncha va bilimlar 4-sinfga kelib turli ko‘rgazmali qurollar orqali nazariy usuldan amaliy usulga o‘tkaziladi. Pedagoglar bolalarga faqat u yoki bu qoidaning mazmuni haqida hikoya qilinibgina qolmasdan, balki uni qanday bajarish kerakligini ham ko‘rsatishadi. Odamlarning har xil harakatlari (ish yuritishlari), ularning o‘zaro munosabatlari ko‘rsatilgan she’r va hikoyalarni sahnalashtirish xulq-atvor qoidalarini namoyish qilishning samarali uslubidir. Ular bolalarni tabiat hodisalari to‘g‘risidagi bilimlar bilan boyitishi, ularning insonparvarlik va estetik xislatlarini rivojlantirishi kerak. Boshlang‘ich sinflarda tabiatshunoslik fanlari barcha didaktik tamoyillar hamda o‘lkashunoslik tamoyillari asosida tuzilgan bo‘lib, bu materiallarni o‘quvchilarga yetkazish uchun barcha uslublardan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. Yormatova. Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi. T..”Aloqachi”, 2008
2. M. Nuritdinova.” Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi” Toshkent, O‘qituvchi 2005.
3. Mirzaxmatova SH., Pulatova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta ’lim-T.: “Yangi asr avlodi“,2011.

PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNING SAMARADORLIGI

Berdiyeva Shahnoza Normurodovna
Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani
9- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998 90 444 50 54

Annotatsiya
Ushbu maqolada yangi pedagogik innovatsiya ya’ni ta’lim va tarbiyaning samaradorligini oshirish maqsadida uning mazmuni, texnologiyasi hamda tashkil etish kesimiga kiritilgan yangiliklar haqida fikr yuritiladi. Pedagogik innovatsiya jarayoni ta’lim-tarbiyani tashkil etish va uning mazmunini o‘stirishga kiritilgan yangiliklarni o‘quv dasturiga kiritish va ularni amalda qo‘llashdan iboratdir.
Kalit so‘zlar: *adabiy ta’lim, emotsional holatlar, aqliy faoliyat, intellektual faollik, ilmiy tadqiqot, evristik metod, deduktiv metod*

Ta’lim jarayonini amalga oshiruvchi o‘quv ishlari, uning mazmuni, shakl va metodlarini zarur emotsiya bilan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hissiy holatlar hamisha ruhiy bezovtalik, ko‘ngil hayajonlari, o‘zgani tuyish, quvonch, nafrat, hayrat singari tuyg‘ular bilan bog‘liq. E’tibor qilish, eslab qolish, anglash jarayonlariga shaxsning chuqur ichki bezovtaligi, hayajoni qo‘shilganda u faollashadi, zaruriy intellektual marraning egallanishi ta’minlanadi. Insonning his-tuyg‘ulari ishtirokisiz haqiqatga intilish va erishish mumkin emas. Ayniqsa, adabiy ta’limda hamma narsaga erishish uchun his-tuyg‘u birinchi o‘rinda turadi. Gap faqat uni zarur shakl va miqyosda uyg‘ota bilishda. Hissiy bezovtaliklar, insonning ruhiy muvozanatdan chiqishi, asosan, hayrat orqali namoyon bo‘ladi. Badiiy asarda ifodalangan hodisa, asar qahramonlari tuyg‘ulari, ulardagi g‘ayrioddiylik, ruhiy kechinmalar ifodasining samimiyligidan hayratlanish o‘quvchida turli hissiyotlarni uyg‘otadi. O‘qish darslarida emotsional holatlarni vujudga keltirishda o‘qituvchi nutqining hissiyotga yo‘g‘rilganligi, tiniqligi, badiiyligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat bu holat o‘ta samimiy bo‘lishi kerak. Busiz o‘qituvchining nutqi foydali axborotgina bo‘lib, o‘quvchiga hissiy ta’sir ko‘rsatolmaydi. Shu bilan birga, darsning qiziqarliligini ta’minlashda bilishdan zavqlanish hissining ham o‘rni katta. Hissiyot o‘quvchini muammoning ichiga kirishga undaydi. Ko‘ngil ochish hislari bilan bilim olishdagi hislarning farqi shunda. O‘zlashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladigan ta’lim, uning fikricha, o’quvchidan tayyor bilimlarni xuddi o‘qituvchisi aytib berganday, bir tizimga solingan shaklda eslab qolishni talab qiladi. Bu holatda asosiy ish xotiraning zimmasiga tushadi. Bunday ta’limning natijasi u yoki bu bilimlarni esda saqlab qolishdangina iborat. Ta’limning o‘zlashtirish yo‘lida aqliy mehnat bilan bog‘liq o‘quv ko‘nikmalari kam shakllanadi. Qayta kashf etish yo‘lidan borilganda ta’lim jarayonini ilmiy tadqiqotlarga imkon qadar yaqinlashtirish nazarda tutiladi. O‘quv materialini his qilish orqali o‘zlashtirish ma’lum ijobiy xususiyatlarga ega. Unda bilimlar insonning ijodiy faoliyati orqali o‘zlashtiriladi. Hissiyot bilimni o‘quvchining ongiga mustahkam joylaydi. Bunda ta’limning tarbiyaviy ahamiyati ortadi. Chunki bu tadbirlar qanchalik darajada ta’limiy bo‘lsa, shunchalik tarbiyaviydir. Insonga o‘z xudbinligi, nafsini yengishga imkon beradigan ijobiy tuyg‘ularning rivojlanishi uning kamolotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi milliy tarbiyashunoslik tarixidan ham m a’lum. O‘quvchining intellektual faolligi biror o‘quv masalasini hal etishda aqliy faoliyatning mustaqil ravishda ishtirok etishi va o‘z-o‘zini nazorat qilishida ko‘zga tashlanadi. Bunday faollikni oshirish o‘qituvchi, darslik va boshqa o‘quv ashyolari ta’sirida bajariladigan faoliyatdan mustaqil ravishda savol-topshiriq qo‘yishga, ularning o‘quvchi tomonidan bajarilishida qoliplardan voz kechib, masalalarni o‘z bilimi va malakalariga tayanib, mustaqil hal etilishida ko‘riladi. O‘quvchi aqliy faoliyati mustaqilligi rivojlanishi masalaning muammolilik darajasiga bog‘liq. Metodlarni tasniflashda ular yordamida o‘quvchilarga tayyor bilimlarni zo‘rlab singdirishga emas, balki ularning tafakkur imkoniyatlarini hisobga olishi, fakt va tajribaga asoslanishiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bir qator pedagog va psixologlar tomonidan ta’lim metodlari orasidan: muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari umumdidaktik metodlarning samarali ekanligi ta’kidlangan. O‘qituvchining ta’lim metod va usullari haqidagi bilimi qanchalik chuqur, ularni ma’lum maqsad yo‘lida qo’llash imkoniyati qanchalik keng bo‘lsa, har bir darsni tashkil qilish oson, unumli, foydali va jonli bo‘ladi. Darsning o‘zlashtirilish darajasi uning ko‘rgazmaliligi, tashkiliy

jihatdan benuqsonligidan tashqari, o‘quvchilar mustaqil fikrlashini faollashtirish, ularning nazariy bilimlami amaliyotda qo‘llay olishini ham taqozo etadi. Agar dars avvaldan ma’lum bilimlarga asoslanib o‘tilsa, mantiqan yangi dalil va tushunchalarga tayanilmasa yoki o‘rganilayotgan mavzu avval o‘qilganlarning yangi bosqichiga aylanmasa, o‘qituvchi ta’limni qanchalik baland darajada, qanday ilg‘or metodlar bilan uyushtirmasin, muvaffaqiyat qozonolmaydi. Ta’lim metodlari faqat m a’lumotni qanday berishni belgilamaydi. Ular materialning tizimi va uni ayni shu yo‘l bilan ishlashga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Ya’ni u o‘quv materialiga singdirilgan bilimni o‘quvchi o‘zlashtira oladigan tarzda berishni, bolalarda bilim olish qobiliyatini rivojlantirishni ham qamrab olgan bo’lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda ta’limning yangi innovatsion metodlaridan maktab darslarida foydalanish adabiy ta’lim samaradorligi garovidir.

Adabiyotlar:

1. Tojiyev A. O‘qish darslarida suhbat. – Toshkent. « O‘qituvchi», 1997.
2. Uzviylashtirilgan davlat ta’lim standard va o ‘quv dasturi. Ona tili. O‘qish. O‘zbek tili.– Toshkent. RTM, 2010-yil
3. Azizxo‘jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: 2003

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHNING YANGI USULLARI

Botirova Gulbahor Ro‘zievna
Surxondaryo viloyati Denov tumani
9-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
boshlanrich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998-90-249-68-18

Annotatsiya

So‘nggi o‘n yilliklar mobaynida boshlang‘ich ta’limining mohiyatini, maqsadlarini va ustuvor qadriyatlarini o‘zgartirish tendentsiyasi aniq belgilangan. Davlat ta’lim standartining ommaviy boshlang‘ich maktabning sifatli yangi shaxsiy yo‘naltirilgan rivojlanish modelini yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Bugungi kunda bizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bir nechta o‘qitish usullari qo‘llanilmoqda.

Kalit so‘zlar: o‘quvchining shaxsini rivojlantirish, “Kutish daraxti”, “Aqlli barg”, o‘yin metodi.

Xalq ta’lim vazirligi tomonidan ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan har bir an’anaviy va rivojlanish dasturlari mavjud. Bir yoki bir nechta tizimda o‘qish, bola bitta ta’lim standartida ko‘rsatilganlardan kam bo‘lmagan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. An’anaviy ta’lim dasturlarida bolaning tabiiy rivojlanish printsipi-oddiydan murakkabgacha. Materiallar takroriy takrorlash va bir xil turdagi mashqlar bilan belgilanadi. Bola mexanik ravishda turli xil qoidalarni o‘rganadi, shu kabi muammolarni hal qiladi-ularni hal qilish usulini eslab qoladi. Ammo ma’lumki, bolalar tezda xuddi shu narsani qilishdan charchashadi, o‘rganishga qiziqish kamayadi, beparvolik va zerikish paydo bo‘ladi, natijada darsda xatti-harakatlar yomonlashadi. Bundan tashqari, an’anaviy ta’lim tizimining yetishmasligi, vazifalarni nostandart shaklda ifodalash bilan, bola mavjud bo‘lgan standart bilimlarni qo‘llay olmaydi. Shunga qaramay, ko‘p yillik amaliyot an’anaviy ta’lim tizimi umuman samarali ekanligini isbotlaydi. Ushbu texnika uchun umumiy qoidalar va bir xil turdagi vazifalarni odatiy yodlash yo‘q. Butun dastur bolalarning shaxsiy boshlanishini va ularning shaxsiyligini rivojlantirishga qaratilgan. Dasturlar bolaning mustaqil faoliyati, ish uchun ijodiy yondashuv va qiziqishni anglatadi. Bolaning g‘ayritabiiy fikrlashini rivojlantirish bu usullarning asosiy vazifasidir. Shu nuqtai nazardan, ta’limning rivojlanish funksiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi, bu esa quyidagilarni ta’minlashi kerak

- yosh o‘quvchining shaxsini shakllantirish,
- uning shaxsiy imkoniyatlarini oshkor qilish.

Men o‘z ishimda shaxsiy yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni, hamkorlik pedagogikasini, sog‘lom turmush tarzini, muammoli ta’limni qo‘llayman, muammoli vaziyatlarni, loyiha ishlarini, “Portfolio” texnologiyalarini yarataman. “Portfolio” texnologiyasidan foydalanish o‘quvchining shaxsiy taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi, uning kuchli va zaif tomonlarini tushunishga yordam beradi, nafaqat ta’lim, balki ijodiy va kommunikativ yutuqlarni ham hukm qilishga imkon beradi. Quyidagi usullardan foydalanaman:

Ta’lim faoliyati uchun kayfiyat berish juda katta ahamiyatga molik:

“Qo‘l-oyoq” o‘yini. Birinchidan, qisqa ko‘rsatma: “men bir marta qo‘llarimga urganimda, qo‘llarimga buyurtma beraman — ular ishlashi kerak (ko‘tariladi yoki tushadi). Men ikki marta urganimda — bu oyoqlarning buyrug‘i (egilish, ya’ni turish yoki o‘tirish)”. Shundan so‘ng, o‘qituvchi tez ritmik tarzda, tempni o‘zgartirib, ularning ketma-ketligini o‘zgartirib, bolalarning harakatlarini boshqaradi, ularni chalkashtirib yuboradi. Bolalar o‘yin va joy variantlari ko‘pligi yashirin murakkabligini kashf qiladi va ularni astoydil bajaradi. Ustozga qarab uning keyingi harakatlarini oldindan bilib olishga harakat qilishadi.

“Kutish daraxti”ni tayyorlash. Bolalarga oldindan kesilgan olma, limon rasmli tarqatmalarni tarqatadilar va bugungi darsdan nimani kutishlarini (qanday bilim olishni xohlashlarini) va o‘z daraxtlariga (Daraxt tayyor holatda mavjud bo‘ladi) yozish va biriktirishdan harakat qilishadi. Belgilangan maqsadlar, istaklar, tashvishlar tizimlashtirilib, sarhisob qilinadi.

O‘rganilgan materialni tekshirish yoki yangi mahsulotni tuzatish:

“Aqlli barg”ni qabul qilish. Oxirgi stoldan uchta satrda har bir o‘quvchi ma’lum bir mavzudan bitta tushunchani yozishi kerak bo‘lgan qog‘ozni oldinga suring. Yangi materialni xabar qilish

uchun operatsion tizimni tezroq va aniqroq boshqargan jamoa g‘alaba qozonadi.

“Info-Taxmin” ni qabul qilish. Darslikda dars mavzusi qayd etilgan. Darslikning qolgan qismi raqamlangan tarmoqlarga bo‘linadi, ammo hali to‘ldirilmaydi. O‘quvchilar mavzuning qaysi jihatlari haqida muhokama qilinishini o‘ylashlari kerak. Mavzu bilan ishlashda bolalar asosiy fikrlarni ajratib, sohalarga kiradilar. “Bo‘sh o‘rinlar” asta-sekin yo‘qoladi, ya’ni o‘quvchi tomonidan to‘ldiriladi.

“Miya bo‘roni”ni qabul qilish. O‘quvchi butun guruhning yuzi uning harakatlariga bog‘liqligini tushunadi. Muammoni aniq ifodalash muhim, keyin o‘qituvchi yoki 2-3 o‘quvchi sinfni muammoning mavjudligi haqida xabardor qiladi. Keyinchalik, amaliy maqsadga erishish mumkin bo‘lgan haqiqiy harakatlarga (yordam berish, tuzish) qaratilgan. So‘ngra muhokama qilish uchun vaqt beriladi (5-6 daqiqa) muhokama qilinganidan so‘ng, so‘z guruh vakillariga taqdim etiladi, umumiy natijalar o‘tkaziladi. Hech qanday tanqid yo‘q. Qanday kulgili bo‘lishidan qat’i nazar, har qanday takliflar qabul qilinadi. Fikr qanchalik g‘alati bo‘lsa, shuncha yaxshi bo‘ladi.

“Yong‘in chizig‘ida” o‘yini. Har bir jamoa o‘z loyihasini 2-3 taklif bilan himoya qiladi. Keyin savollar boshqa guruh a’zolari tomonidan so‘raladi va ular himoyalangan.

O‘qilgan yoki eshitilgan matn asosida o‘rganilgan hodisaning asosiy qoidalari va xususiyatlarini aks ettiruvchi qisqa she’rlar yaratish.

Bu materialni tekshirishning tez va qiziqarli usuli.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bakiyeva H. Boshlsng`ich sinflarda so`z ustida ishlash metodikasi. –T.: Istiqlol. 2013.

2. Ғуломова Х. Ўқувчиларнинг матн устида ишлаши.// Тил ва адабиёт таълими. 1994. №2-3.

TARBIYAVIY ISHLARDA MUHIM TAVSIYALAR VA ULARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Ernazarova Rushana Komilovna
Dusiyeva Flora Tura qizi
Qashqadaryo vioyati, Yakkabog’ tumani
8-umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchilari

Annotatsiya. Ushbu maqolada o’qituvchining ta’lim jarayonida o’quvchilarning tarbiyaviy jihatdan shakllantirish bo’yicha tavsiyalar misollar yordamida keltirilgan.

Kalit so’zlar. Tayyorgarlik, tashabbuskorlik, talabchanlik, kirishimlilik, majburiyatlarni taqsimlash mahorati, hukumat qarorlari.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirilayotgan davrning ijtimoiy vaziyati- tarbiyaviy ishlarni maqsadli ko‘zlash va loyihalashning muhim manbai hisonlanadi. Bu vaziyat mamlakat va dunyodagi ijtimoiy hodisalar, davlat bayramlari, yubiley sanalari, hukumat qarorlari, jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan g‘oyalar hamda mahalliy hayotga doir hodisalar bilan shartlangan bo‘ladi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o‘tkazishning ikkinchi manbai bo‘lib, tip sifatida shakllanayotgan shaxsning zaruriy fazilatlari va hislatlarini shaklllantirishning pedagogic tashxisi xizmat qiladi. Yana bir manba- o‘quv-tarbiyaviy muassasasi ma’lum muddatda belgilangan ishlarining umumiy yo‘nalishidir. Mazkur manbalarning mushtarak holati tarbiyaviy ishlarni hayotbaxsh kuch bilan to‘ldiradi. Ularning dolzarb ekanligini va muayyan maqsadga yo‘nalganligini bexato belgilab beradi.

Asosiy tarbiyaviy maqsad (ko‘pincha axloqiyt arbiya maqsadi) aniq ishlarga oid vazifalarni belgilab beradi. Har bir ishda asosiy g‘oya ajralib turadi va u tarbiya umumiy yo‘naishining (aqliy, jismoniy, mehnattarbiyasiva b.) biri bilan mos keladi.

Maqsadni ko‘zlash bosqichida tarbiyachining vazifasi – ijtimoiy vaziyatni baholash, o‘zining tarbiyaviy faoliyatini asosiy maqsadga bo‘ysundirish, tarbiyalanuvchilarning kelajakda muayyan tarbiyaviy ta’sirlarni qabul qilishga tayyorgarlik darajasiga tashxis qo‘yishdan iboratdir.

Tavsiyalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1.Tarbiyaviy ishlarning aniq vazifalarini chuqur anglash, uning samaradorligini oshirishning zarur shartidir. Mazkur vazifalar mahorat bilan talqin etilgan va tarbiyalanuvchilarga yetkazilgan bo‘lishi kerak. Tarbiyaviy ish tashkilotchilari o‘quvchilarga o‘z nuqtayi nazarlarini majburan o‘tkazmasdan, balki ularni zarur qarorlarni (go‘yoo‘zqarorlarisifatidaqabulqilinadigandek) ishontirib qabul qilishga o‘rgatishlari lozim.

2.Har qanday tarbiyaviy ish ishchan va majmuaviy yo‘nalish asosida loyihalashtiriladi. Birinchi yo‘nalish, yuqorida ta’kidlanganidek, tarbiyalanuvchilarning jonli, ijodiy, qiziquvchan faoliyatini talab etadi va zarur o‘rinlarda tirishqoqlikni, harakatchanishlarni tanlashga yo‘naltiradi. Ikkinchisi esa, tarbiyachiga bir vazifadan har tomonlama samara olishga imkon beradi.

3.Tarbiyaviy ishlar jarayonida hal qilinishi lozim bo‘lgan barcha vazilfalar turli ahamiyatga ega bo‘lishiga intilish shart emas, chunki tarbiya tizimini birdaniga bir necha mezonlar orqali muqobillashtirib bo‘lmaydi. Tarbiyaviyishda, har qanday ishdagi kabi bosh vazifa ajratib olinadi va shu orqali qolgan va zifalar hal etiladi.

4.Tarbiyaviy ishlar mazmunining vazifalari va amalga sharoitlari bian bog‘liq holda belgilab olish nihoyatda muhimdir. Material tanlanayotganda, u o‘quvchilarning tarbiyasiga ijobiy ta’sir etish tomonlariga e’tibor qaratish lozim. Tarbiyaviy ishlarda turli xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun tarbiyachi o‘quvchilarning qarashlari va qiziqishlarini bilgan holda ularni rivojlantirishi, shuningdek, ularga tayanib ish olib borishi kerak.

5.Maqsadga muvofiq uslublar, usullar va vositalar tarbiyaviy ishlarning har bir bosqichi uchun alohida loyihalanadi. Bunda uslublarning maksimal darajada faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik tamoyillarini ta’minlanishini nazarda tutilishi lozim.

6.Tarbiyaviy ishlarni tayyorlashda tashkillashtirishning yuqori darajadagi aniqligiga erishishiga harakat qilish lozim. Har qanday tarbiyaviy Ish tarbiyalanuvchilar uchun “tashkilotchilik maktabi”ga aylanishi kerak. Tayyorgarlik, tashabbuskorlik, talabchanlik, kirishimlilik, majburiyatlarni taqsimlash mahorati, vaziyatlarni tezda baholash kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Ishni tayyorlash va o‘tkazish jamoani jipslashtirishning to‘g‘ri yo‘lidir!

7.Tarbiyaviy ishlar nusxa ko‘chirishni yoqtirmaydi. O‘zgaruvchanlik va harakat doirasining kengligi tarbiyaviy ishlarning farqlovchi belgilaridir. Guruhlarning va o‘quvchilarning bir-biriga o‘xshamasligidan keng foydalanishga intilish yaxshi natija beradi. Tarbiyaviy ishlarni loyihalash chog‘ida, bir guruhda muvaffaqiyat keltirgan tajriba ikkinchisida aynan shunday natijani bermasligi mumkinlini esda tutish kerak.

8.Tarbiyaviy ishlar turli-tuman bo‘lishi kerak. Tarbiyalanuvchilar yorqin ishlarni uzoq eslab yuradilar, shu bois bunday ishlarni takrorlash maqsadga muvofiq emas, chunki u ahamiyatini yo‘qotishi mumkin. Tarbiyaviy ishlarni har doim yangisini topish qiyin, ammo ularni topishga harakat qilish zarur. Tarbiyaviy ishlar zahirasida ko‘plab qiziqarli tadqiqotlar mavjud va bu takrorlamaslikni, aksincha, aniq sharoitlar bilan mufofiqlashtirgan holda o‘quvchini rivojlntirishni kafolatlaydi.

9.Tarbiyaviy ishlar his-tuyg‘ularning qudratli katalizatori kabi loyihalashtiradi. Ma’lumki, hayajonga tushgan kishi nihoyatda ta’sirchan bo‘ladi. Har bir tarbiyaviy ishda tarbiyalanuvchiga yaqin, hamohang bo‘lgan jihatlarni toppish va unda ijobiy xarakter hislatlarin irivojlantirish, mustahkam hayot tarzini shakllantirish, tarbiyaviy ishlar madaniyatini oshirishning muhim yo‘llarida biri bo‘lgan o‘rab turgan dunyo haqiqatini to‘g‘rI tushunishga yordam beradigan qilib yetkazish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.To’garak mashg’ulotlari uchun metodik tavsiyalar. Jumayeva.M.2017.

2.Ishmuhammedov.J R.Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. -T.2004.

3.Ma’naviyat yulduzlari. T. 2005.

BOSHLANG ‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA QO ‘LLANILADIGAN METODLAR.

G.Davlatova
8-son umumta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998996240333
Elektron pochta:alijonovnaguloy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida qo‘llaniladigan metodlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, metodlar, dars samaradorligi, fikr – mulohaza, o‘yin – topshiriqlar, belgilarni izohlang, bo‘g‘in ustida ishlash, tez top.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limining samaradorligi o‘qitish metodini to‘g‘ri tanlash, “Ona tili” fanining amaliy yo‘nalishidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida ko‘proq o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga undovchi, o‘quv topshiriqlarini ishga solish, o‘quvchilarda bilish — o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltiradigan dars shakllaridan foydalanish dars samaradorligini oshirib, ijobiy natija beradi.. Ona tilidan tashkil etiladigan didaktik o‘yinlar o‘quvchini izlanishga, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, o‘rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini aniqlab, hukm va xulosalar chiqarishga undaydi. Ta’limiy o‘yinlar har bir o‘quvchiga o‘zini namoyish etish, o‘z fikr – mulohazalarini himoya qilish, topshiriqni shavqu — zavq bilan bajarish imkoniyatini beradi. Har bir shaxsda tarbiyalanishi zarur bo‘lgan ijobiy sifatlar: tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, hushyorlik, qat’iyatlik, bilimdonlik, mustaqillik, tadbirkorlik, ijodkorlik kabilar ko‘pincha ta’limiy o‘yinlar orqali tarkib toptiriladi. Dars mashg‘ulotlarida faqat bir xildagi o‘yin — topshiriqlar bilan cheklanib qolmay, balki ko‘proq ijodiylikka undovchi o‘yin – topshiriqlarga e’tiborni kuchaytirishga to‘g‘ri keladi. Zero, o‘quvchilarni fikrlashga, o‘ylashga, matn yaratishga o‘rgatmasak, hozirgi zamon darsiga qo ‘yilgan muhim talab shaxsning rivojlanishiga erishib bo‘lmaydi. 1.“Tez top” o‘yini. O‘qituvchi o‘quvchilarga xalq maqollaridan namunalar aytadi. O‘quvchilar esa tushungan va izohlab bera olgan o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiriladi.bunday maqollar qatorini davom ettiradi. Ulardan sanoq sonlarni aniqlaydilar hamda shu maqollarning ma ‘nolari ustida ish olib boradilar. Sonlarni o‘z ichiga olgan maqollarni belgilangan miqdorga yetkazib, ularning ma ‘nosini izohlab beradilar.

Namuna: “Bir bolaga etti mahalla ota-ona”, “Sanamay sakkiz dema”, “Bir yil tut ekkan kishi, yuz yil gavhar teradi”, “Bir kalla — kalla, ikki kalla tilla”… O ‘quvchilarning imlo savodxonligini oshirish maqsadida “To‘g‘ri yozgan g‘olib bo‘lar, yaxshi ilmu tolib bo‘lar” o‘yin – topshirig‘idan foydalansa bo ‘ladi. Bu o‘yinda o‘qituvchi ma’lum bir sonlarni raqam bilan taxtaga yozadi va ularni imlo qoidasiga muvofiq yozishni talab etadi. Masalan, 1-2, 3-4, 5, 10 ta, 15 ta, 40, 55, 60 ta, 70-80 ta, 90, 100, v.h. Raqamlar bilan ifodalangan sonlarni so‘zlar orqali to‘g‘ri yozgan o‘quvchilar o‘yin sharti asosida g‘oliblikni qo‘lga kiritishlari mumkin. Darsning noan’anaviy shakllaridan yana biri 2.“Topqirlar bellashuvi” darsidir. Bu darsni tashkil etish uchun sinf o ‘quvchilari avvalo ikki guruhga ajratiladi. Guruhlar o‘rganilgan 3-4 mavzu doirasida oldindan savol va topshiriqlar tuzadilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim saviyasini hisobga olib, bu topshiriqlar bevosita o‘qituvchi rahbarligida tuzilgani ma’qul. Bellashuvda birinchi guruh ikkinchi guruhga va ikkinchi guruh birinchi guruhga savol va topshiriqlar beradi. O‘qituvchi qaytarilgan javoblarni tahlil qiladi va har bir guruhga ballarini e ‘lon qiladi. Ko‘p ball to‘plagan guruh o‘yin g‘olibi sanaladi. “Topqirlar bellashuvi” darsini har xil shakllarda o ‘tkazish mumkin”, Masalan, “So‘zlar olamiga sayohat”, “Gaplar olamiga sayohat”, “To‘siqlarni yengib o‘taman” v.h. kabi. 3.“Belgilarini izohlang” o‘yini. O‘yinni o‘tkazishda o‘quvchilar uch guruhga ajratiladi. 1-guruh qovunning rang — tusini, 2-guruh esa shakl-hajmini, 3-guruh uning maza — ta’mini bildiruvchi sifatlarni topishadi. O‘qituvchi qovunning rasmini taxtaga ilib qo‘yadi-da, 1–guruhdan maza – ta’mini ifodalovchi, 2-guruhdan rang – tusni, 3–guruhdan shakli –hajmni bildiruvchi sifatlarni aniqlashni topshiradi. Shu uyaga kiruvchi barcha so‘zlarni yozib chiqqan o‘quvchilar o‘yin g‘olibi sanaladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida mustaqil ish metodi asosan o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jaravonida qo‘lianiladi. O‘quvchilar o‘qituvchining topshirig ‘i bilan mustaqil ishlarni og‘zaki yoki yozma shaklda bajaradilar.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta: a) fonetik bilimga asoslangan holda I sinf o‘quvchilari savod o‘rganish davrida o‘qishni va yozishni bilib oladilar; b) fonetik bilim so ‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish (tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, urg ‘uli bo‘g‘inni ajratish, orfoepik me’yorga rioya qilish) asosini tashkil etadi; v) fonetik bilim morfologik va so‘z yasalishiga oid bilimlar bilan birga o‘quvchilarda qator imloviy malakalar (jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi) shakllantirish uchun zamin bo‘ladi; g) fonetik bilim gapni ohangiga ko‘ra to‘g‘ri aytish, logik urg‘u va gap qurilishidagi to‘xtamlarga rioya qilish uchun zarur; d) so‘zning tovush tomonini bilish uning ma’nosini tushunish va nutqda ongli qo‘llash uchun muhimdir; hózir va hozúr, atlas va atlas so‘zlari ma’nosidagi farq faqat urg‘u orqali ajratiladi.

Bo‘g‘in ustida ishlash. Bo‘g‘in murakkab tushuncha bo‘lgani uchun boshlang‘ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. Dasturga ko‘ra, o‘quvchilarda so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi. O‘quvchilar so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lishda so‘zda nechta unli bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi, degan tushunchaga asoslanadilar. Bu tushunchani ular savod o‘rgatish davridayoq hosil qiladilar. Bolalar yozilgan so‘zdan dastlab unli harfni topadilar, keyin so‘zda nechta unli bo‘lsa, uni shuncha qism (bo‘g‘in)ga bo‘ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnolofiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
2. Abdullayeva Q., va boshqalar “Ona tili” T., “O‘qituvchi “1999 yil.
3. Bo‘ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnoloya-zamonaviy o‘zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA O’YINLI FAOLIYATNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Iskandarova Zuxra Zoir qizi
Termiz shahar 21-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi
normurodov.oibek@mail.ru
Sharipova Sitora
Termiz shahar 21-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi
normurodov.oibek@mail.ru
Uzoqova Olmosoy
Termiz shahar 21-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi
normurodov.oibek@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada logopedik o’gitlarni nutqi to’liq rivojlanmagan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaning o’z atrofidagi kishilar bilan muomala – aloqada bo’lish va nutq nuqsonlarining psixik faoliyatlarini korreksion rivojlantirishdagi muhim o’rni haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: interfaol uslublar, pedagogik, texnologiya, fizik hodisalarni, ilmiy, ta’lim, o’qitish texnologiyasi, dars, ko’nikma, ta’lim-tarbiya.

Hozirgi davrda, ya’ni jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish yuz berayotgan bir vaqtda Respublikamizning ravnaqini ko’zlash maqsadida asosiy e’tiborning yoshlarning aqliy, jismoniy barkamolligiga, demak, sog’lom har tomonlama yetuk komil avlodni shakllantirishga insonparvarlik na’munasidir.

Bolalar kamolati yo’lida ishlab chiqilayotgan turli o’yinlar nazariyasi ta’lim tarbiya uchun ham naqadar qimmatlidir. Jufa qadim zamondan boshlab ko’plab olimlar, tadqiqotchilar, ma’daniyat tarixchilari o’zlarining olib borgan tadqiqot ishlarida o’yinning o’ziga xosligi, uning nafaqat alohida shaxs hayoti balki jamiyat hayotida turgan o’rni va ahamiyati haqida fikrlar bildirganlar. Ular o’yinning qadrini uning shartliligini, uning bolalar xulqini shakllantirishdagi o’rnini, muomala-munosabati chog’idagi bolaning hatti harakatlarini aniqlab olishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar. Shunday qilib o’yinni “bolalikning hamrohi” deb atash mumkin.

O’yin ayniqsa maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmuni tashkil etadi, u mehnat va ta’lim bilan uzviy aloqada bo’lgan holda yetakchi faoliyati sifatida namoyon bo’ladi. Bola shug’ullanadigan ishlarning ko’pchiligi o’yin shaklida bo’ladi. O’yin chog’ida bolada mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok qiladi, o’ylaydi uning holati xotirasi ko’chli ishlaydi, ta’sirchanlik va iroda sifatlari namoyon bo’ladi. Maxsus ta’limda ham logopedik mashg’ulotlar jarayonida olib boriladigan logopedik o’yinlarning o’ziga hosligi va mohiyati ham alohida mazmun kasb etadi.

Logopedik o’yinlarning bola tarbiyasidagi o’rni va tutgan mavqei ham o’ziga hos sifatlarga ega. chunonchi logopedik o’yinlar o’zining tashkil etilishi va mazmuniga ko’ra, bolalarga ta’sir etish darajasiga ko’ra o’yinda qo’llaniladigan buyumlarning turlicha, kelib chiqishiga ko’ra turlichadir.

Ijodiy o’yinlar mazmunini bolalarning o’zlari o’ylab topadilar va o’z taasurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarini hamda shu o’yinga bo’lgan munosabatlarni aks ettiradilar. Qoidali o’yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar hayotiga olib kiritiladi. Qoidali o’yinlar o’z mazmuniga qarab, bolalar yoshiga mo’ljallanganligiga qarab belgilanadi. Qoidali o’yinlarning ko’pchiligi xalq o’yinlari asosida tashkil etiladi. Bunday qoidali o’yinlarning ko’plari avloddan-avlodga tayyor holda o’tib bizgacha yetib kelgan. O’yinlar o’z mazmuni va qoidalari, tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishga ko’ra shartli ravishda didaktik va musiqiy o’yinlarga bo’linadi.

Didaktik o’yinlarda bolalarning avvalo aqliy faoliyati rivojlanib boradi, ular bilimlari chuqurlashadi va kengayadi; harakatli o’yinlarda bolalarning turli hattiharakatlari takomillashadi: musiqali o’yinlarda esa musiqiy qobilyatlari rivojlanadi. Shuningdek,logopedik o’yinlar orasida ko’ngil asrlari, o’yin ovutmachoqlari ham bo’ladi. Demak har bir logopedik o’yinning o’ziga hos sifatlari mavjud, biroq ular bir qator umumiy xususiyatlarga ham egallar, ya’ni har qanday logopedik o’yinlarda maqsadning mavjudligi, o’yin sabablari, amalga oshirish vositalarning rejali harakatlar va natijaning mavjudligi kabilar xosdir.

Har qanday ko’rinishdagi logopediko’yinlar tushunib olingan. Va maqsadga qaratilgan faoliyat

tarzida kechadi. Boshqa faoliyat turlarida bo’lgani kabi o’yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati-psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti, ta’sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi; oyinda bola faol harakat qiladi, gapiradi va o’z bilimlarini o’yin davomida qo’llaydi. Nutqi to’liq rivojlanmagan maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalar uchun o’tkazilayotgan logopedik o’yinlarning o’ziga xos xususiyatlari bor. Ular orasida sabablarning o’ziga xosligi asosiy hisoblanadi. Bola o’yindagi maqsadiga erishish uchun o’ziga sheriklar tanlaydi. Rollarni tasdiqlaydi.

Hullas o’yin faoliyatini muayyan darajada rejalashtiradigan bo’ladi.semak shunga qarab o’yin rivojlanib boradi. Haqiqiy hayotda bola bolaligicha qoladi, u hech qanaqa mustaqillika ega bo’lmagan norasida, biroq o’yinda u boshqacha odam-u endi kamol topayotgan, u endi o’z kuchini sinab ko’ra oladigan va o’zi yaratgan narsasini mustaqil idora eta olasigan insonga aylanib boradi. Turli ko’rinishdagi o’yinlarda qoidalar ham turlicha bo’ladi. Masalan, rolli ijodiy o’yinlarda qoidalar ham turlicha bo’ladi. Masalan roli ijodiy o’yinlarda qoida o’yinmazmuning o’zida rolda, syujetda mujassam bo’ladi. Katta kishi roliga kirgan bola uning u yoki bu vaziyatdagi harakat mos harakat qiladi.

Yuqoridagi bolalar bo’limlarida kelishtirib o’tilgan fikrlarning barchasini xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Logopedik ugitlarni nutqi to’liq rivojlanmagan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaning o’z atrofidagi kishilar bilan muomala – aloqada bo’lishi, nutq nuqsonlarining psixik faoliyatlarini korreksion rivojlantirishda muhim o’rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli farmon. 2017-yil 30-sentabr.

2. Gulboyev A. Pedagogik tashxis vositasida o‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish. Avtoref. diss.p.f.n. Umumiy pedagogika, pedagogika va ta’lim tarixi. T., 2010.

3. Djurayeva B.R., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. – T.: O‘zPFITI, 2015. 112-b.

O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Jahongirova Sanobar Ibodullayevna
Surxondaryo viloyati Denov tumani
9-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
matematika fani o‘qituvchisi
+998 90 075 06 36

Annotatsiya

Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu maqolada matematika darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan interfaol metodlar haqida o‘qituvchilarga tavsiyalar berilgan.

***Kalit so‘zlar**: Interfaol metod, ta’lim, pedagogik texnologiyalar, “Kubik metodi”*

Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o‘tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o‘z isbotini topmoqda.Bu boradi ancha-muncha tajriba to‘plagan tadqiqotchilar pedagogik texnologiya darsining muvaffaqiyatlarini kafolotlavchi omil ekanligini ta’kidlab, pedagogik jarayonlarni ilmiy lohihalashtirish, uni amalga oshirish, loyihalashtirilgan ta’lim tarbiya jarayonini amaliyotga aniq va ketma-ket tatbiq qilish xususida o‘z fikr-mulohazalarini ommaning diqqat-e’tiboriga havola etamoqdalar.Yangi pedagogik texnologiyadan kutilgan maqsad nima, uning afzaliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga quyidagicha hosilalar asosida javob berish mumkin.

- Yangi pedagogik texnologiya eng qulay va sodda usul.
- Mustaqil fikrlashni o‘rgatadi.
- Ko‘p tarmoqli.
- Sodda, oson.
- Esda qolishi kuchli.
- Bilim boyligini oshiradi.
- Vaqtdan yutamiz.
- Qiziqarli o‘tadi.
- Darsning samaradorligini oshiradi.
- Dunyoqarashni oshiradi.
- Tafakkurni rivojlantiradi.
- O‘quvchilarning diqqat-e’tiborini tortadi.
- Har bir o‘quvchi bilan individual munosabat paydo bo‘ladi.
- Xotirani kuchaytiradi.
- Izlanishga chorlaydi.
- O‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga da’vat etadi.

Bizning ta’lim oluvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatimiz, sinf-dars tizimi doirasida, ta’limni tashkillashtirish shakllarining quyidagilarida o‘z ifodasini topadi:frontal ish barcha ta’lim oluvchilar bilan bir vaqtda ishlash;guruhlarda ishlash; statik juftliklarda ishlash; guruhlarda ishlash; guruhlararo ish; individual ishlash.

Interfaol usullarni amalda qo‘llash mashqlari.

“Kubik” metodi. “Kubik” metodidan darsni mustahkamlash vaqtida foydalansa yaxshi natija beradi. 1 qadam: o‘quvchilarga mavzu o‘tilgandan so‘ng unga biror tushuncha shakllanadi. Shakllangan tushunchani quyidagicha yozish taklif etiladi. 1. Tasvirlang . 2. Taqqoslang . 3. O‘xshating. 4. Tahlil qiling. 5. Ishlating. 6. Foydali va zararli tomonlari.

Masalan mavzu: “Prizma”

1. Asosi to‘g‘ri to‘rtburchak, qarama qarshi yoqlari o‘zaro teng va paralell bo‘lgan prizma

to‘g‘ri prizma deyiladi.

2.To‘g‘ri parallelopiped va to‘rtburchakli prizma.

3. Sinf xonasi, gugurt quttisi, yashik, shkaf.....

4. 2 ta asos, 4 ta yoq, 4 ta yon qirra, 12 ta umumiy qirra, 8 ta uchi bor.

5.Shkaf (kiyimlar saqlanadi), gugurt(gugurt donalari saqlanadi), xona (odam yashaydi)....

6. Gugurt- olov yoqish uchun foydali. Gugurt- bolalar uchun xavfli.

“Sinkveyn” metodi. Sinkveyn fransuzcha so‘z bo‘lib «besh» degan ma’noni bildiradi. o‘quvchilarga darsni mustahkamlash bosqichida biror fizik kattalik, asbob, hodisa nomi, fizik olimni quyidagicha besh qatorli misraga solishni taklif etish lozim. **Masalan mavzu: “Kesmaning yo‘nalishi. Vektor ”** 1. Vektor. 2. Erkin, nol nuqta. 3. Yasash, yo`naltirish, qabul qilish.

4. Agar vektorning boshi va oxiri ustma ust tushsa bunday vektor nol vektor deyiladi. 5. Nur (chegaralangan)

Sinkveyn metodidan foydalanish o‘quvchilarni chuqur mulohaza qilishga o‘rgatadi.

“**Davom ettir”**1-o‘quvchi matematik termin aytadi, 2-o‘quvchi uning oxirgi harfiga boshqa 1 matematik termin aytadi. O‘yin o‘quvchilar soni tugaguncha davom etadi. ***Masalan:****aylana-ayqash-shar-romb-besh-shart-to‘rt-teng-gramm-misol-metr-Rene-ellik-kub-binar-riyoziyot-tonna-al-Xorazmiy-yo‘l-lyambda-arifmetika-algebra-aksioma-algoritm-manfiy*-va hokazo.

Dars samaradorligini oshirishda interfaol metodlar va turli grafik organayzerlardan foydalanish juda foydalidir. Bunday darslarda o‘qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo‘yicha o‘quvchi izlanadi: mustaqil fikrlash, o‘z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelishni o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.L. Galiskiy va boshqalar. Algebra va matematik analiz kursini chuqur o’rganish. O’qituvchilar uchun qo’llanma.-T.: 1995 y.

2. M. Saxaev. Elementar matematikadan masalalar. I-qism. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1970

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA JISMONIY TARBIYANING O’RNI

Kamuna Burxanova,
Pop tuman 14-MTT tarbiyachisi
Tel: +998 99 970 19 67

Annotattsiya
Maqolada yoshlar va o’smirlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini yaratishda jismoniy tarbiya va sportni yuksaklik masalalari ko’rilgan.

Kalit so’zlar.
Sport, tarbiya, jismonan, ruhan, texnologiya.

Bolalar sportining rivoji kelajak yoshlarning jismonan, ruhan sog’lom tarbiyalanishining garovidir. Bu esa farzandlarimizning kelajakda har qanday zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bilimlarni o’zlashtirishda qarshiliklarga uchramasligini ta’minlaydi. Dunyo hamjamiyati bilan turli yo’nalishlarda hamkorlik qilish oldimizda turgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy masalalarni hal etish hamda jamiyatimizni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan takomillashtirish orqali xalqimiz faravonligini ta’minlash, fuqarolarimizning, oila va avlodning har tomonlama barkamol (ham jismonan, ham ma’naviy jihatdan sog’lom), dono, ilg’or fikrli va zakovatli bo’lishiga intilmoqdamiz. SHu o’rinda yoshlar va o’smirlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini yaratishda jismoniy tarbiya va sportni yuksakligini ta’kidlash joizdir.

Ko’p yillik tarixga ega bo’lgan turon zaminida yashab kelayotgan ajdodlarimiz ota-bobolarimiz ham asrlar davomida jismoniy tarbiya sport o’yinlari bilan shug’ullanib kelishgan. Buni biz xalq og’zaki ijodida “Alpomish”, “Go’r o’g’li”, “Avazbek” dostonlaridan bilamiz. SHu bois ajdodlarimiz ham jismonan baquvvat, ruhan sog’lom farzandlarni o’stirishgan va ulardan xalq qahramonlari mif va afsonalar yetishib chiqqan. Bugungi kunda ham yoshlarimizni shunday yetuk shaxs ya’ni komil inson tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning o’rni xususida izlanishlar olib borilmoqda. Ta’lim tizimi shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bu borada samarali faoliyatlar olib borilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan bolalar jismoniy tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

- sog’liqni mustahkalash va chiniqtirish, to’g’ri jismoniy rivojlanish va organizmning ish qobiliyatini oshirishga ko’maklashish;
- harakat ko’nikma va malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish, harakatning yangi turlarini o’rganish va ular bilan bog’liq bilimlarni berish;
- asosiy harakat- xislatlari (kuchlilik, tezlik, chaqqonlik, bardamlik va shu singari)ni rivojlanish;
- gigienik malaklarni singdirish, jismoniy mashg’ulotlar va chiniqish gigienasi sohasidagi bilimlardan xabardor qilish;
- iroda, dadillik, matonat, intizom, jamoatchilik, do’stlik va o’rtoqlik tuyg’ulari, madaniy xulq – atvor ko’nikmalari, mehnatga va ijtimoiy mulkka munosabat tuyg’ularini tinglash;
- muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug’ullanish odatini shakllantirish va bu mashg’ulotlarga barqaror qiziqish paydo qilish;
- tashkilotchilik malakalarini singdirish, jamoatchilik, jismoniy tarbiya aktivligini oshirish.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi va sog’lig’ini mustahkamlash uchun jismoniy tarbiya mashg’ulotlarida muntazam ravishda bajarilishi uchun turli usuldagi mashqlardan foydalanib ish olib boriladi. Bular: asosiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, irg’itish, ilib olish,emaklash, sirpanish), oyoq va tana uchun **umumrivojlantiruvchi mashqlar** turli buyumlar yordamida va ularsiz bajariladi, raqs mashqlari, saflanish va qayta saflanish, harakatli o’yinlar, turli sport o’yinlari-ning muhim hususiyatlarini egallash, sport mashqlari, velosipedda uchish, suzish va boshqalardan tashkil topgandir.

Hozirgi sharoitda ta’lim bilan tarbiya birligini, bolalarning g’oyaviy siyosiy, mehnat, axloqiy, estetik tarbiyasi va jismoniy rivojlanishiga alohida yondashish maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktablarning o’zbek xalqining hayoti va mehnati bilan mustahkamlash g’oyat muhim vazifadir.

Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi,uslubchisi va jismoniy tarbiya yo’riqchisidan katta ma’suliyat talab etadi. Buning uchun “ Ilk qadam ” Davlat o’quv dasturini yaxshi bilishi va pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo’lishi lozim.

Tarbiyachilar bolalarning yosh xususiyatlarini va individual xususiyatlarini to’g’ri xisobga olgan holda bolalarga jismoniy tarbiya berib borsa jismoniy tarbiya vazifalari muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etish, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari va “ Ilk qadam ” Davlat o’quv dasturi asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, bo’lg’usi mutaxassislar shaxsini tarbiyalash va rivojlantirishning har qanday yo’nalishi tizimlilikni - tarkibiy-mazmuniy asoslarni, jarayonning ba’zi esa tegishli shart-sharoitlarni taqozo etadi: bilimlar hissiy kechinmalarga, taassurotlarga, sezgiga, e’tiqodga, xulq-atvorga, xatti - harakatga aylanishi, pirovardida muayyan shaxsiy va kasbiy xislat fazilatlar shakllanishi kerak. Bo’lg’usi, pedagoglar tarbiyachisi bo’lgan ustoz faqat ertangi mutaxasislar shaxsini tarbiyalash va rivojlantirishning metodologiyasi, psixologiyasi, pedagogikasinigina emas, balki bu jarayonning qonuniyatlarini, birinchi galda tarbiyalash va rivojlanishning o’zaro muvofiqligi, nazariyaning amaliyot bilan uzviyligidan iborat bosh qonuniyatini ham bilmog’i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. “Ilk qadam ” Davlat o’quv dasturi. T., 2018 yil.
2. Usmonxujaev T. “Sog’lom bola – el boyligi”. T., “Yangi asr avlodi” nashriyoti-2005 yil.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQINI O‘STIRISH YO‘LLARI

Ismailova Muyassar Saparboyevna
7-son umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998995527728
Elektron pochta:misdrr.91@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirish usullari yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, og‘zaki va yozna nuqt, ichki va tashqi nutq, til me’yori va mezonlari, qiroat bilan o‘qish, hikoya, qarama-qarshi so‘zlar.

Nutq deganda so‘zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Aslida - chi, nutq – bu insonnning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.Nutqning tashqi va ichki, og‘zaki va yozma turlari bor. Tashqi nutq asosan aloqa bog‘lash maqsadlariga xizmat qiladi, shuning uchun u tinglovchilarga tushunarli qilib tuziladi.

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini me’yorlashda, ularning mutanosibligini ta’minlashda, milliy tilning tabiati va o‘ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya’ni qiroat bilan o‘qishning amaliy ahamiyatini o‘stirish, adabiy til me’yori va mezonlariga rioya qilish, o‘qish, o‘qish metodlarini takomillashhtirish yo ‘llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur.

Nutq ichki va tashqi ko‘rinishiga ega. Ichki nutq odamning o‘z ichiga gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikinchi kishining ishtirokini talab qilmaydi. Ichki nutq og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqlarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo‘lgan faol nutq bo‘lib, u og‘zaki va yozma ko‘rinishiga ega. Shuning uchun ham olimlar K.B. Barxin, B.I. Sokolov M.A. Ribnikova vaboshqalarning metodik asarlarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘zaro muvofiq holda o‘stirish masalalariga alohida e’tibor berilgan. Olimlar tomonidan maktabda o‘qitish jarayonida ro‘y berayotgan quyidagi kamchiliklar tanqid qilinadi:
1. O‘qituvchilarning ko‘pchiligi og‘zaki nutqning hayotiy ahamiyatini hali ham yetarli tushunmayaptilar. Shuning uchun ular maktab maxsus og‘zaki nutq o‘stirish mashqlari o‘tkazishga muhtoj emas, deb hisoblab xato qilmoqdalar.

2. O‘quvchilarning nutqi mazmun juhatdan nihoyatda kambag‘al va qator kamchiliklarga ega. Chunki yuqori sinflarda o‘qituvchi nutq masalasiga e’tibor bermaydi.

1. Har bir o‘qituvchi o‘quvchi nutqini o‘stirishga mo‘jallangan xilma – xil metodik shakl va usullarni foydalanishi.

2. O‘quvchilar uchun og‘zaki nutqini o‘stirishga mo‘jallangan mashqlar tizimini tashkil qilish.

3. O‘quvchilar og‘zaki nutqni o‘stirishga mo‘jallangan mashqlar tizimida monologik va dialogik nutq ko‘nikmasini hosil qilish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini individual shakllantirih metodikasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Boshlang ‘ich sinf o‘quvchilarida nutq rivojining tarbiyasi individual uslubining haqiqiy shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish va o‘quvchilar nutqining ravonligini rivojlantirish.

2. Nutqiy muomaladagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham toptirish yuzasidan qilingan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muomala uslubidagi salbiy holatlarni yengish.
3. Nutqda pedagog uchun muomalaning hissiy juhatdan qulay bo‘lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o‘z-o‘zini kuzatish ma’lumotlari bilan taqqoslash.

4.Nutqiy muomalada o‘z individual uslubiy pedagogik muomalaning tarkibiy qismlarini egallash sohasidagi ishlar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida o‘stirishda yod oldirish, so‘zlarning ma’nosini tushuntirish yoki qayta hikoya qildirish kabi usullardan foydalanibgina qolmay, balki ular uchun qiziqarli faoliyat bo ‘lgan o‘yinlardan foydalanish, ayniqsa, ko‘zlangan maqsad, yuqori natijalarni qo‘lga kiritishda katta yordam beradi.

Hikoya-O‘qituvchi xattaxtaga bir nechta so‘z yozib qo‘yadi. Masalan: Nafisa, soat, yomg‘ir, kitob kabi. O‘quvchilar mustaqil ravishda shu so‘zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Bunda ularning lug‘at boyligi oshishi bilan birga, gaplarni to‘g‘ri tuzish, tovushlarni to‘g‘ri tallaffuz qilish, ijodiy

va mustaqil fiklash qobiliyati shakllanadi. ***Qarama-qarshi so‘zlar-***Bu o‘yin mantiqiy tafakkurning hamda nutqnining rivojlanishiga yordam beradi . O‘yinni individual tarzda ham, guruh bilan ham o‘tkazish mumkin. O‘yin sharti quydagicha: o‘qituvchi bola yoki o‘quvchiga bir so‘zni aytadi, o ‘quvchi shu so ‘zning ma’nosiga qarama - qarshi bo‘lgan so‘zni topib aytishi kerak. Odatda bolalar o‘yin boshida biroz qiynalshadilar, aytilgan so‘zga javoban antonim so‘zni emas, sinonim so‘z bilan javob beradi.

O‘zaro bog‘liqlik-O‘quvchilarga rasmli kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o‘quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib beradi.

Masalan: bu olma. Olma bog‘da o‘sadi va mevalarga kiradi. Uni o‘quvchilar juda yaxshi ko ‘rishadi”. Keyin ikkinchi bola ham o‘zidagi predmet haqida gapiradi va o‘zidagi predmet bilan birinchi o‘quvchidagi predmetni o‘zaro bog‘liqligini aytishi kerak. ***Umumiylikni izlash-o***‘quvchilar aylana qurib o‘tiradilar. Olib boruvchi o‘quvchilardan biriga to‘pni otayotib, bir-biri bilan bog‘lanmagan 2 ta so‘zni aytadi. Masalan: maktab va o‘quvchi, kitob va javon, quyosh va gul va hokazo. To‘pni tutib olgan o‘quvchi so‘z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to‘pni qaytaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori», T., 1998-yil.
2. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi. 1985-yil.
3. Yangi tahrirdagi DTS - 2005-yil. Boshlang‘ich ta’lim jurnali, 5-son.
4. Sh.Rahmatullayev, A.Xojiyev. O‘zbek tilining imlo lug‘ati, 1995-yil

MORPHOLOGICAL WAY OF COMPARATIVE ADJECTIVE FORMATION

Mardononov Abdullo
Master`s degree student
Uzbekistan State World Languages University

Abstract: The article describes issues based on studying morphological way of comparative adjective formation and searches scientists opinions and views on this topic.

Key words: comparison, comparative constructions, more, than, degree, standard marker.

In any human language, there are various means of expressing comparison between entities (or properties), and structures traditionally referred to as comparatives constitute only a subset of these possibilities. Con-sider the following examples:

(1) a. Mary was indeed furious when she saw that you had broken her vase. But you should have seen her mother! b. Mary is tall but Susan is very tall. c. Mary is faster than Susan.

In (1a), comparison is only implied: the first sentence makes it explicit that Mary was furious to a certain degree but the second sentence con-tains no explicit reference to such a degree, yet it implies that the degree to which Mary’s mother was furious exceeds the degree to which Mary was furious. In (1b), both the degree to which Mary is tall and the de-gree to which Susan is tall are explicitly referred to: without any further specification, it is understood that on a scale of height, the degree to which Mary is tall is greater than what is contextually taken to be aver-age and that the degree to which Susan is tall is considerably greater than the average. Hence the degrees of tallness are explicitly referred to, even if they remain vague; however, the comparison between the two degrees is not made explicit, but the relation of the two degrees can be inferred. Finally, (1c) exhibits a true comparative structure, which ex-presses that the degree to which Mary is fast exceeds the degree to which Susan is fast.

The present dissertation aims at analysing syntactic comparative constructions, that is, the type represented by (1c) above. The sentence in (1c) shows the most important elements of comparative constructions: in this case, the degrees of speed of two entities are compared. The standard value of comparison (that is, to which something else is compared) is expressed by the subordinate clause (*than Susan*) and is introduced by the complementiser *than*, which also serves as the standard marker.

There are some important remarks to be made here. In (1c), the comparative degree marker is a bound morpheme that is attached to the gradable predicate; however, this is not an available option for all adjec-tives in English and very often the periphrastic structure is used, when the *-er* is present in the form of *more*:

(2) Mary is more pretentious than Susan.

Languages differ in terms of whether they allow both kinds of compara-tive degree marking and some languages (such as German) allow only the morphological way of comparative adjective formation, while others (such as Italian) have the periphrastic way by default. Second, in (1c) the standard value of comparison is introduced by the complementiser *than* and the string *than Susan* is a clause. This is explicitly shown by examples that contain a finite verb as well:

(3) Mary is faster than Susan is.

Since the clause can be recovered, comparatives formed with *than* are invariably clausal. However, languages also differ with respect to the distribution of whether they have clausal comparison and/or phrasal comparison. For instance, Hungarian has both clausal comparatives, introduced by *mint* ‘than/as’ and phrasal comparatives, where the stand-ard value is expressed by an inherently Case-marked DP:

Mary taller Susan-ADE

‘Mary is taller than Susan.’

In this case, the DP is inherently marked for adessive Case and hence there is no clause that could be recovered. As my primary concern in this dissertation is the structure of comparative subclauses, I will not be dealing with instances of phrasal comparison more than necessary: that is, I will briefly include them in the discussion when the arguments of the degree morpheme are considered and will relate them to subordinate clauses in this respect but apart from this, they fall out-side the scope of the present investigation.

It is also important to mention that degree constructions denote a larger set of structures than comparatives, and that comparatives them-selves fall into two major categories: ones expressing equality, as shown in (5a), and ones expressing inequality, as in (5b) and (5c):

(5) a. Mary is as diligent as Susan.

b. Mary is more diligent than Susan.

c. Mary is less diligent than Susan.

In (5a), the degree to which Mary is diligent is the same as the degree to which Susan is diligent; by contrast, in (5b) and (5c) the degrees are different, such that the degree to which Mary is diligent is higher in (5b) and lower in (5c). As can be seen, the comparative subclause is intro-duced by *as* in (5a) and by *than* in both (5b) and (5c). The structure adopted for degree expressions will be used when accounting for Comparative Deletion, which forms the core part of the dissertation and will be provided in Chapter 3. My aim here is to reduce the cross-linguistic differences attested in connection with Comparative Deletion to minimal differences in the relevant operators. I intend to show that Comparative Deletion does not have to be treated as a parameter distinguishing between languages.

References:

1. Treis, Yvonne this volume. Comparison in Kambaata: Superiority, equality and similarity.
2. Dixon, R.M.W. 2008. Comparative constructions: A cross-linguistic typology. *Studies in Language* 32, 4: 787-817.
3. Stassen, Leon 2013. Comparative constructions. In: Dryer, Matthew S. & Martin Haspelmath (eds.). *The World Atlas of Language Structures Online*

THE ROLE OF DISCOURSE IN LANGUAGE ACQUISITION

Mardononov Abdullo
Master`s degree student
Uzbekistan State World Languages University

Abstract: the article deals with the issues based on analyzing the role of discourse in language acquisition. As well as, deals with the scientific views of scholars on the notion of discourse and competence.

Key words: discourse, communicative competence, speech acts, conversational skill, perlocution, proto imperatives

In linguistics, the term “discourse” refers to a structural unit larger than the sentence. Of the many definitions for it in a standard dictionary, linguistics picks out length and coherence as criterial. Discourse minimally involves more than one sentence, and the sentences must be contingent. Just as every string of words is not a sentence, not every sequence of utterances is considered a “text.” For discourse, there are requirements of relevance in form and especially in meaning. Texts can be created by more than one participant, as in conversation, or in various forms of monologue, most notably narrative and exposition. The study of discourse is generally considered the province of Pragmatics in that it involves the uses of sentences, (the products of a syntax), when people attempt to communicate information. Analogous to “syntactic competence,” learners must also develop “communicative competence,” (Hymes, 1972) where utterances are judged less in terms of form than with respect to how well they meet the requirements of various speech situations. However, to the extent that there are formal dependencies across sentences, for example relationships of co-reference or structural mappings governing ellipsis, the study of discourse may fall under syntax; and the description of degrees of relevance or coherence between sentences places it within various semantic frameworks. (Poetry, a specialized form of discourse exploits sound patterns as well to create links between successive lines, but those phenomena are only rarely treated within phonology.) Research on the acquisition of pragmatics in first language learning focuses on four major aspects of communicative competence. Developing speech acts or the communicative functions of sentences in conversation. For example, using utterances to report events, to make statements (or declarations) about the world, to request information or action, or to prohibit action (Dore, 1975; Searle, 1969). 2. Emerging conversational skill in face-to-face verbal interaction. These include knowing when and how to take a turn in conversation; how to initiate, elaborate, or terminate a topic; and how to respond to a speaker in keeping with the pragmatic constraints set by the preceding utterance (e.g., direct question forms demand answers; indirect questions [“can you pass the salt?”] demand actions). They also include skills in detecting the presence and source of any breakdown in communication and knowing how to repair such breakdowns (Garvey, 1984; McTear, 1985). 3. Adjusting one’s language to fit the social context of the conversation in keeping with cultural conventions and social roles. These involve issues of politeness, formality, and the age or status of one’s listener in what have been called “styles” or “registers” of speech. 4. Taking an extended turn to tell a story (narration), explain an event, give directions for how to make something or how to get somewhere, or to persuade one’s listener in an argument (exposition). These are referred to as different “genres” of extended discourse and require the organization of utterances into coherent and cohesive messages.

Early pragmatics development A useful framework for understanding early pragmatics development derives from the theory of speech acts (Austin 1962, Searle, 1969). According to Austin, speaking is “doing things with words.” All sentences are speech acts, but the clearest illustration is the performance of those acts that can only be done with words, like promising or marrying. For example, the sentence “I now pronounce you husband and wife” is not a description of an event, but its utterance *is* the event. The marriage pact is not made until those words are spoken by a qualified person in the context of a wedding ceremony. In Austin’s view, sentences have three components: their intended function, “illocutionary force”; their form, “locution”; and their effect on the listener, or “perlocution.”

By moving speech into the sphere of action, Speech Act theory points to nonverbal behaviors as precursors to speaking. Using the framework of Speech Acts, Bates, Camaioni and Volterra (1975)

identified three phases in the earliest pragmatic development of children: the perlocutionary, illocutionary, and locutionary phases. For example, stretching for something out of reach, an infant might make an involuntary effort noise. If the noise alerted a helpful adult to the child’s activity, so she or he handed the object to the child, one could say that the child’s behavior had an effect, but not that the child intended to communicate. The act would be “perlocutionary,” but not “illocutionary.” A slightly older child might look intently at the adult and grab for a toy in her hand. Bates and her colleagues would ascribe intention to the action with the intent look that accompanied it and call it “illocutionary.” The final “locutionary” phase begins when the child has the intention to communicate and uses words to do so (whether or not the perlocution, or effect, is the same as the one intended). In this vein, Dore (1975) reports a child in the one-word stage, who used intonation to change the illocutionary force of a single locution: “mama” with a falling contour to name her, with a rising contour to make a question, and with an abrupt rise-fall to call her. As their linguistic repertory grows, children can move from “protoimperatives” (or “protodeclaratives”) to actual imperatives and assertions, and eventually to the whole range of functions that words make possible: requesting, prohibiting, greeting, cursing, promising, labeling, etc.

References:

1. Dixon, R.M.W. 2012. *Basic Linguistic Theory.* Volume 3. *Further Grammatical Topics.* Oxford: Oxford University Press.
2. Fraser, B. (2006), “Towards a theory of discourse markers”, Fisher, K. (ed.), *Approaches to Discourse Particles*, Amsterdam, Elsevier.
3. Hall, A. (2007), “Do discourse connectives encode procedures or concepts?”, *Lingua*, 117, 149-174.

MODERN TECHNIQUES AND METHODS OF TEACHING LISTENING

Nazarova Hafiza Zulfikarovna
Kashkadarya region Yakkabag district
Teacher of English at school №75
+998-97-145-26-84

Abstract

The process of listening to speech involves memorizing various types of texts, which improves memory and broadens horizons, develops the ability to listen and understand what is heard, and educates attentiveness to the interlocutor. Listening helps a person to understand what is being reported to him and to respond adequately to what is said, to state his answer to the interlocutor, which is the basis of oral speech.

Keywords: *teaching listening, communicative task, correctness, the ability to perceive*

In the foreign languages program, listening is defined as the ability to perceive a foreign language text by ear, to understand simple texts with different depths of penetration into their content, with selective understanding and full understanding of the text, depending on the communicative task and the functional type of the text. At the same time, it provides for the development of skills:

• to highlight the main idea in the text perceived by ear;
• choose the main facts;
• selectively understand the necessary information in pragmatic messages based on linguistic guesswork, context;
• ignore unfamiliar language material that is not essential for understanding;
• determine your attitude to facts, extract the necessary information from the audio text;

The content of the texts should correspond to the age characteristics and interests of the students, and have educational and educational value. The time of the text’s sound is up to 2 minutes.

In real communication, you have to listen a lot. The task of the teacher is to teach students to understand the spoken language.

In the 2nd grade, the teacher teaches children to understand the simplest phrases (commands): Open your books! Close your books! Sit down! Come to the blackboard! etc.

In grade 3, the list of phrases that the teacher uses in class increases, and in grade 4, new phrases and expressions are added to them.

The complex textbooks of the textbooks are built in such a way that each topic begins with listening to a new vocabulary. During the lesson, the teacher introduces students to a video presentation of a new vocabulary, and at home they have the opportunity to listen to an audio recording and fix new words.

Each topic also offers a dialogue with pictures to listen to. And if the student can’t understand everything, then a language guess is triggered and pictures are here to help.

The objectives of listening training are as follows:

• understanding the interlocutor’s utterance in various communication situations, including unfamiliar language means;
• understanding of educational and authentic texts with varying degrees and depth of penetration into their content;
• to form certain skills;
• develop certain learning skills;
• teach to understand the meaning of a single utterance;
• develop auditory memory;
• teach to highlight the main thing in the flow of information;
• memorize speech material

Methodologists propose to divide the work on the text into three stages:

• before listening,
• during listening,
• after listening.

These three stages can also be observed in the textbooks when reading a fairy tale at the end of each topic.

The first stage involves discussing questions/statements before listening. The correctness of the answer can be determined only after listening, but you can use a guess to guess what the text will be about. Exercises and questions not only ask for information but also carry it. Getting acquainted with them and discussing the answers, students hear the words that will then be used in the text.

At this stage, the following types of work are used:

1. Introduction of new words, their explanation.
2. Control the understanding of new words in sentences from audio text using visual clarity.
3. Working out the reading technique on the material of the most difficult audio presentation of sentences from the audio text.
4. Work with the most complex grammatical structures in sentences from the text.
5. Search for answers to pre-text questions.
6. Determination of the correctness (incorrectness) of statements.

The second stage is a guess based on the title /new words /possible illustrations.

When performing listening tasks, True or False tasks may be offered.

The third stage is a summary of the topic, an introduction to the problems of the text.

The task of the teacher, in my opinion, is to diversify the tasks, if they are not enough and pick up additional tasks to the text.

Reference:

1. Kama Einhorn. ESL Activities and Mini-Books for Every Classroom. Scholastic Publishing. New York. 2011
2. Stocker D. & Stocker J. Children’s ESL Curriculum: Learning English With Laughter. Longman. 2013

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ostonova Zilola Yo’ldoshevna
Buxoro viloyat Peshku tumani
5-umumiy o’rta ta’lim maktabi
Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion mashqlar ahamiyatini yoritish.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi shaxsi, fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar, mantiqiy fikrlash, ona tili, savodga o‘rgatish jarayoni.

Inson nutq yordamida o‘zining fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklaririni bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini anglab yetadi. Nutq og‘zaki va yozma bo‘ladi. Og‘zaki nutq odatdagi so‘zlashuv nutqi bo‘lib, bu nutq ko‘proq ohang va turli imlo-ishoralarga aloqadordir.

Unda murakkab grammatik qurilmalar qo‘shma gaplar deyarli qo‘llanmaydi. Yozma nutq tuzish esa murakkabroq jarajon bo‘lib, u o‘quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rinida to‘g‘ri qo‘llashni, imlo va tinish belgilariga rioya qilishni talab etadi.Avvalo shuni qayd qilish lozimki, maktabda o‘qitiladigan barcha o‘quv fanlari o‘quvchi nutqi ustida ishlashga qaratilgan bo‘ladi. Ona tili fani esa bular orasida eng asosiy va muhim sanaladi. O‘quvchining bilimi, dunyoqarashi rivojlana borgan sari, uning nutqi va tafakkuri ham muttasil o‘sib boradi. Ravon, ixcham, ta’sirli nutq tinglovchiga huzur bag‘ishlaydi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri o‘z o‘quvchilarini ana shunday so‘zlashga o‘rgatishdir. Maktab o‘qituvchilarining,birinchi navbatda, ona tili o‘qituvchisining vazifasi sintagmalarga rioya qilib, mantiqiy urg‘uni to‘g‘ri qo‘llab o‘qishi zarur.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda quyidagi amaliy tadbirlar qo‘llanadi:

1.Adabiiy talaffuzni har bir darsda o‘rganiladigan qoidalarga bog‘lab o‘rgatish.

2.Boshqa fanlarni o‘qitishda ham nutq o‘stirishga e’tibor berish.

3.O‘quvchi nutqidagi adabiiy tilga xos bo‘lmagan dalillarni tushuntira bilish.

4.Fonetika o‘qitishda aytilishi bilan yozilishi farq qiladigan tovushlar talaffuziga e’tibor berish.

5.Orfografik malakalarni mustahkamlashga oid darslar.

6.O‘quvchilarni turli tadbirlarda va yig‘inlarda chiqib so‘zlashga odatlantirish.

7.She’riy va nasriy asarlardan parchalar yod oldirib borish.

Maktabda yagona orfografiya va nutq rejimi maktab ma’muriyati va o‘qituvchilar jamoasi oldiga o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, ularning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish ishida faol ishtirok etish vazifasini qo‘yadi. Bunda savodxonlik va nutq madaniyatini o‘stirishda yagona talab amalga oshiriladi. o‘quvchilar nutqidagi nuqsonlarning oldini olib, nutqini sheva ta’siridan, har xil vulgar so‘zlar ta’siridan tozalash va adabiy til meyorlariga amal qilgan holda so‘zlashga o‘rgatishdir.

O‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Nutqning nutq sharoitiga mosligi. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so‘zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Masalan, so‘zlovchi bitta, tinglovchi ko‘p bo‘lsa, so‘zlovchining baland ovozda to‘xtam (pauza)larga rioya qilib, fikrni izchil va bir-biriga bog‘liq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o‘ziga xos ko‘rinishi o‘quvchining nazariy masalalarni yoritish yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida, ma’lum bir mavzuni sinfda, biror yig‘inda ochib berishdagi nutqida o‘z aksini topadi.

Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so‘zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishi hamdir.

2. Nutqning mazmundorligi. O‘quvchi nutqi nutq sharoitiga mos tushsa hamda uning o‘zi bilgan va xabardor bo‘lgan voqea-hodisalarni og‘zaki va yozma shakllarda bayon qilsagina mazmunli bo‘ladi.

Aniq dalillar, o‘quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari, his-tuyg‘ulari asosida yuritgan fikrlari o‘zgalar diqqatini o‘ziga tortadi.

3. Nutqning mantiqan to‘g‘ri, aniq va izchil bo‘lishi. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo‘lsagina, uning ta’sirchanligi ortadi. Bu har bir o‘quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik

bilan qarash, ularning har biriga tog‘ri baho bera olish, shu yo‘l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O‘quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to‘g‘ri bog‘lay olishi, mavzuga aloqador bo‘lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytarilgan takror fikrlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

4. Nutqning boy va rang-barang bo‘lishi. Nutqning boy va rang-barangligi, avvalo, fikrni bayon qilishda o‘zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma’nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, maqol va matallardan, ko‘chma ma’noli so‘zlardan, o‘xshatish, sifatlash kabi badiiy til vositalaridan keng va o‘rinli foydalanishda namoyon bo‘ladi.

5.Nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri qurilgan bo‘lishi. O‘quvchi so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog‘lash, kelishik va egalik qo‘shimchalarini o‘rinli qo‘llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda quyidagi amaliy tadbirlar qo‘llanadi:

1.Adabiiy talaffuzni har bir darsda o‘rganiladigan qoidalarga bog‘lab o‘rgatish.

2.Boshqa fanlarni o‘qitishda ham nutq o‘stirishga e’tibor berish.

3.O‘quvchi nutqidagi adabiiy tilga xos bo‘lmagan dalillarni tushuntira bilish.

4.Fonetika o‘qitishda aytilishi bilan yozilishi farq qiladigan tovushlar talaffuziga e’tibor berish.

5.Orfografik malakalarni mustahkamlashga oid darslar.

6.O‘quvchilarni turli tadbirlarda va yig‘inlarda chiqib so‘zlashga odatlantirish.

7.She’riy va nasriy asarlardan parchalar yod oldirib borish.

Maktabda yagona orfografiya va nutq rejimi maktab ma’muriyati va o‘qituvchilar jamoasi oldiga o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, ularning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish ishida faol ishtirok etish vazifasini qo‘yadi. Bunda savodxonlik va nutq madaniyatini o‘stirishda yagona talab amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Xayrullayev. O‘zbek pedagogik antologiyasi. T.: «O‘qituvchi» 1995 y

2.N.Ochilov. Muallim qalb mehmori. T.: «O‘qituvchi» 2001 y .

TARBIYA FANI O‘QITUVCHISINING TARIXIY BILIMLAR ASOSIDA O‘Z KOMPONENTLIGINI OSHIRIB BORISHI USULLARI

Ergashova Havasxon Yarashovna
Buxoro shahar 8-umumta’lim
maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +99897 305 69 34
Elektron pochta:havasxon1976 @gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktablarining Tarbiya faniga oid mavzularni o‘rganishda tarixiy bilimlar va uning pedagogik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: hozirgi tarixiy jarayonlar, o‘zbek davlatchiligi tarixi, milliy mentalitet, komil insonni tarbiyalash,

Yangi O‘zbekistonning rivojlantirish konsepsiyasiga ko‘ra yosh avlodni ongiga hozirgi tarixiy jarayonlarni tahlil qilish orqali kelajak istiqbollarini belgilash vazifalari dolzarb qilib qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning shaxsan tashabbuslari bilan maktab ta’limining strategik rejalar belgilab berilmoqda. Buning natijasida mumumta’lim maktablarida Tarbiya fani o‘tilishi boshlandi hamda bu fan mutaxassislari oldidagi vazifalar aniqlashtirilid berildi. Agar fan o‘qituvchisining tarixiy bilimi va tafakkuri kuchli bo‘lsa, dars mavzulari yanada samarali bo‘ladi. Shuning uchun mazkur maqolada Tarbiya fani o‘qituvchisining tarixiy bilimlar asosida o‘z komponentligini oshirib borishi usullarini tahlil qilish asosiy maqsad etib tanlandi.

“O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbottalab bo‘lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi kerak”[1], -deb fikr bildirgan edilar birinchi prezident I.A.Karimov. Demak, istiqlol tufayli tarixni o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Tarixdan judo bo‘lish, hayotdan judo bo‘lish” ekanligi isbot talab qilmaydigan shior bo‘lib qoldi. Ikkinchidan, o‘zbek davlatchiligi tarixi bosqichlarini ilmiy, asl manbalarga tayanilgan holda o‘rganish kun tartibiga qo‘yildi. Xolbuki, O‘zbekistonda siyosat, tarix, axloq, falsafa, xo‘jalik hayoti (dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq), adabiyot, san’at sohalariga qaratilgan yuz mingdan ortiq qo‘lyozma asarlar, manbalar turli kutubxonalarda, arxiv fondlarida saqlanayotgan ekan, ularni o‘rganish asnosida milliy mentalitet va xususiyatlarni hisobga olgan holda tarixiy asarlar yaratish zarurati hamon ham mavjud[2].

Tarixni bahs, munozara asosida o‘rganish orqali komil insonni tarbiyalash quroliga aylantirish, tarixiy xotirani shakllantirish asnosida qat’iyatli, mustahkam irodali,e’tiqodida sobitqadam turadigan shaxslarni tarbiyalash, odamlarimiz ongiga ma’naviy ildizlarimiz bo‘lgan sarchashmalarni singdirish kabilarni davr taqozo qiladi. Shunday ekan. Tarbiya fani o‘qituvchisi buni anglab har bir mashg‘ulotiga jaroiylantirishi zarur. Bu o‘rinda tariximizning turli bosqichlarida o‘tgan, xalq orasidan yetishib chiqqan davlat arboblari, harbiy sarkardalar, xalq qahramonlari, fan va madaniyat darg‘alariga ob’yektiv va xolisona baho berish, ularning hayot yo‘li ibrati bilan tarbiyalash, siyosiy va ijtimoiy hayotda hech qanday bo‘shliq bo‘lmasligiga erishish, xullas, “Kuch bilim va tafakkurda” degan qoidaga amal qilish tamoyilini shakllantirish tarix fani o‘qituvchisi oldiga dolzarb vazifalarni qo‘yadi.

Bugungi kunda Tarbiya fani o‘qituvchisiga qo‘yiladigan muhim talablar quyidagilar deb hisoblaymiz:

1. Tarbiya fani o‘qituvchisi o‘z tarixiy bilimlarinio‘ faqat o‘tmishda va hozirda kechayotgan shunchaki dalil va raqamlar hamda voqeliklar jarayonigina deb qarash emas, balki ma’naviy meros, hayot va yashash, istiqbol poydevori sifatida idrok etish salohiyatiga ega bo‘lish.
2. Tarbiya fani o‘qituvchisi O‘zbekiston va jahonda sodir bo‘layotgan voqeliklarini teran kuzatib borish, O‘zbekiston halqi ham umumjahon xalqlarining ajralmas bir qismi ekanligi, shuningdek, o‘ziga xos taraqqiyot xususiyatlariga egaligini ham nazardan qochirmasligi hamda o‘quvchilarga bu ma’lumotlarni berib borishi lozim.

1 Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998. –Б.5.

2 Ўрта аср Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференция материаллари (Самарқанд, 2014 йил 15 май) // Халқ сўзи. 2014 йил 17 май.

3. O‘z bilim va ko‘nikmalarini doimo takomillashtirib borishi, Tarbiya fanidan har bir o‘tiladigan mavzuni o‘z tarixiy va siyosiy bilimlari asosi bilan bog‘lab o‘quvchi ongiga singdirish uslubini qo‘llash.

4. O‘qituvchi ilm-fan va texnologiya sohasida yuz berayotgan intensiv o‘zgarishlarni ilg‘ay olishi, ommaviy-axborot vositalari, internet ma’lumotlarini, innovasiyalarni o‘tiladigan har bir dars jarayoniga olib kirishi, ta’limni samarali bo‘lishi uchun zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishi kerak.

5. O‘quvchi va talabalarni O‘zbekistonda, Markaziy Osiyo mintaqasida hamda jahonda kechayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlardan mutassil xabardor qilib turish uchun Tarbiya fani o‘qituvchisi doimiy o‘zini-o‘zi takomillashtirishga e’tibor qaratishi zarur.

Yevropadagi o‘rta asr gumanistlaridan biri Servantesning: “Tarix faoliyatimiz xazinasi, o‘tmish guvohi, bugungi kun uchun ibrat va o‘git, kelajak uchun ogohlantirishdir”[1],-degan fikrlarini qayd qilar ekanlar, biz bugungi kunda Tarbiya fani mutaxassislari yelkasida katta mas’uliyat turganligini hech qachon unutmaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998. –Б.5.

2. Zaripova G. Yangi pedagogik texnologiyalarning interfaol usullari //Pedagogik mahorat. 2007. -№3. - B.18-20

3. Xo‘jaev B. O‘qituvchining pedagogik texnikasi-yangi pedagogik texnologiyalar mexanizmi sifatida //Pedagogik mahorat, 2003. -№3.-B.13-14;

4.Ўрта аср Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференция материаллари (Самарқанд, 2014 йил 15 май) // Халқ сўзи. 2014 йил 17 май.

1 Ўша жойда.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARI UCHUN O’QITISHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI

Rizokulova Hafizaxon Mirzayevna
Mirishkor tumani 1-IDUM boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Toshtemirova Umidaxon Nabidjonovna
Mirishkor tumani 1-IDUM texnologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang’ich sinflarni o’qitishning samarali yo’llari va texnologilari haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so’zlar: yangicha ta’lim, pedagogik jarayon, obyektiv voqelik

Yangicha ta’lim tizimini qurish, pedagogik jarayonga Yangi ta’lim texnologiyalarini kiritish, o’quvchi-yoshlarni, talabalarni mustaqil, ijodiy ishlashga, erkin fikrlashga o’rgatish, pedagogik jarayonlarda noan’anaviy, qiziqarli, faol innovatsion usullarni qo’llashni hozirgi kun talabi taqozo qilmoqda. Xo’sh pedagogik jarayonlarda bu usullardan qanday foydalanish kerak? Noan’anaviy, qiziqarli, faol, innovatsion usullarning qanday turlari mavjud? Mazkur savollarga beriladigan javoblar ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga oid dolzarb muammolarni hal etishga yordam beradi.

O`quvchilar bilan yangi mavzuni o’rganishga kirishar ekan, boshlang`ich ta`lim o’qituvchisi oldida har doim savol tug’iladi: metod qanday tanlanadi, qaysi didaktik materiallardan foydalanish kerak, o’quv vazifalarini qaysi usullar bilan samarali yechish mumkin? Har bir mashg’ulot turining pedagogik maqsadlariga erishish uchun o’qituvchi o’zining intellektual salohiyatini safarbar etish, ilg’or pedagogik tajribadan foydalanishi va nihoyat, metodni tanlash haqiqiy ijodiy aktga aylanishi lozim.

Umumiy holda metodning tanlanishi ta’lim va tarbiyaning didaktik maqsadlari bilan aniqlanadi. Biroq turli xil pedagogik vaziyatlarda o’qituvchi va talabalar o’rtasida faoliyat turlari o’zgarib, o’zaro almashinib turadi .Tabiiyki, bu faoliyat turlariga mos holda o’qitish metodlari ham o’zaro chog’ishtiriladi. O’qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko’rishida metodlar va metodik usullarni tanlash – bu ularning o’zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo’yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida o`quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta’minlashga sharoit yaratiladi. To’g’ri qo’llanilgan metodlar obyektiv voqelikka oid bilimlarmi chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg’ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o’qitish metodlari ma’lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faoliyatni faollashtirishga olib keladi.

Pedagogikada an’anaviy metodlarni tanlash mezonlari katta miqdorda ishlab chiqilgan, keyingi yillarda didaktik olimlarning ishlarida ularning yigirmadan ortig’i keltiriladi.

Interfaol metodlarni tanlash mezoni – ularning ta’lim va tarbiyani rivojlantirish masalarni yechishga yuqori yo’nalganligidir . Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo’li bilan joriy etiladi , chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o’zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir .

Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezoni ularning ta’lim mazmuni xususiyatiga mos kelishdir.

Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi . Shu bousdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz . Bir metod yordamida mavzu mazmuni to’laroq ochib berilsa , boshqasi uni ijobiy o’zlashtirishga imkon tug’diradi .

Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezoni ularning talabalar o’quv imkoniyatlariga to’liq mos kelishi , ya’ni samarali o’quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart- sharoitlarining birligini ta’minlashdir .

Interfaol o’qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim.Bu pedagogning o’qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o’qitsh jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta’lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganllik darajasini hisobga oladi.Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi - ularning o’quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. Darvoqe, o’qitishning yalpi,guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi.Misol uchun debat metodi ikki talaba o’rtasidagi bahs hisoblansa, “aqliy hujumda” guruhdagi barcha talabalarning ishtiroki zarur

bo’ladi.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo’yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay ,qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o’quvchilarga yetkazib berish,ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko’nikma va malakalarni hosil qilish,shuningdek,o’quvchilar faoliyatini nazorat qilish,ular tomonidan egallangan bilim,ko’nikma,malaka darajasini baholash o’qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o’z mohiyatiga ko’ra subyektiv xususiyatiga ega, ya’ni, har bir pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini o’z imkoniyati,kasbiy mahoratidan kelib chiqib holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl,metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar pedagogik texnologiyalar:

O’qitish jarayonlarida noan’anaviy ta’lim usullaridan: «Konferensiya darsi», seminar darsi, «Aralash darslar», «O’yinchoqlar yordamida dars o’tish», «Kasbga bog’lab dars o’tish», «Badiiy adabiyotlarni o’rganish va tahlil qilish», «Evrika(o’ylab top)»; ta’limning qiziqarli faol usullaridan: «Kichik va katta guruhlarda ishlash», «Rolli o’yinlar», «Sahna ko’rinishi», «Krossvordlar yechish», «Zakovat savollari», «test sinov topshiriqlari».

BUYUK MUTAFAKKIRLARNING BOLA TARBIYASI HAQIDAGI PEDAGOGIK QARASHLARI

Rustamov Hasan Ravshan o‘g‘li,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
17-maktab Milliy istiqlol g‘oyasi va
ma’naviyat asoslari, huquqiy bilim
asoslari fani o‘qituvchisi
Telefon: 998 93 833 81 03
Xolmurodova Baxtigul Ismoilovna,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: 998 93 833 81 03

Annotatsiya: Maqolada o‘sib kelayotgan yosh avlod bilim salohiyati yuqori, yuksak ma’naviyatli, jismonan sog‘lom, tafakkur olami keng etib tarbiyalashda ulug’ ajdodlarimizning boy ilmiy va ma’naviy merosi muhim ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, umuminsoniy g`oya, barkamollik sari, tarbiyalash maktabi, axloqiy tushunchala, inson tabiati.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlod ong-u shuurida milliy g’oyaga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg’ularini, yuksak ma’naviy-axloqiy qarashlarni tarbiyalash dolzarb masalalardan biriga aylangan. Chunki jahonda axborot xuruji, ommaviy madaniyat niqobi ostida mafkuraviy-ma’naviy tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ma’naviyat mamlakatimiz va yoshlarimizga qarshi qaratilgan shunday mafkuraviy-ma’naviy xurujlardan himoya qilishda qudratli kuch sanaladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.

Shu muqaddas zaminimizda yashab o‘tgan ulug’ ajdodlarimiz bundan ko’p asrlar ilgari ham ta’lim-tarbiya masalalari umuminsoniy g`oya ekanligi haqida ibratli fikr-mulohazalarini o’rtaga tashlaydi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni bilim salohiyati yuqori, yuksak ma’naviyatli, jismonan sog‘lom, tafakkur olami keng etib tarbiyalashda ulug’ ajdodlarimizning boy ilmiy va ma’naviy merosi muhim ahamiyatga ega.

Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhamad ibn Muso al Xorazmiy, Mahmud Koshg‘oriy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy kabi buyuk allomalarning qator asarlarida bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari ko’rsatib berilgan.

Forobiy axloqiy barkamol inson timsolini o’zining “Fozil odamlar shahri” asarida hokimining fazilatlari tarzida bayon qiladi. Bu barkamollik sari yetaklovchi fazilatlar o’n ikkitasini tavsiflab beradi. Ulug‘ alloma inson tarbiyasida ilmiy yondashuvning ahamiyati katta ekanini alohida ta’kidlaydi. U to’g’risida ilm, o’lchash to’g’risidagi ilm, yulduzlar haqidagi ilm va musiqa ilmini pedagogik, ya’ni tarbiyalovchi ilmlar deb, ular orqali boshqa murakkab ilmlar tomon yo’l boshlanishi aytib o’tadi.

Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy “O’tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “E’tiqodlar va dinlar haqida” kabi ko’pgina asarlarida bolalarni axloqiy tarbiyasiga oid qimmatli fikrlarni yozadi. Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarni insonning tabiati bilan bog’laydi. Inson tabiati, avvalo oilada shakllanadi. Shunga ko’ra, bola tarbiyasida ota-ona ta’siri va namunasi benihoya kattadir.

Abu Rayhon Beruniy ta’lim va tarbiyani amalga oshirishda bolaning moyilligi, qobiliyatini hisobga olish zarurligining tub mohiyatini pedagogika-psixologiya fanlari tarixida ilk bor ko’rsatib bergan.

Ulug’ hakim Ibn Sinoning “Inshorat”, “Donishnoma”, “Xay ibn yaqzon”, “Salamon va ibsol”, “Tib qonunlari”, “Tadbir ul-manozil” kabi asarlarida tarbiyaning barcha shakllariga oid qarashlari

mavjud. Bu qarashlar yuz yillar davomida avlodlar uchun tarbiyalash maktabi bo’lib kelmoqda. Masalan, uning “Tadbir ul-manozil” nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalasiga bag’ishlangan. Alloma bola tarbiyasi yaxshi yo’lga qo’yilsa, oila baxtli bo’ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi, deb ta’kidlaydi.

Mutafakkir-shoir Yusuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig” asarida oilada bola tarbiyasida otaning mas’uliyatiga alohida e’tibor beradi: “Kimning o’g’il qizi erka bo’lsa, - deb yozadi u, unga shu kishining o’zi mungli bo’lib yig’laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo’ysa, bolada gunoh yo’q, barcha jafo otaning o’zida; o’g’il-qizning xulq-atvori yaramas bo’lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo’ladi”.

Ulug‘ shoir Ahmad Yugnakiy bilimli insonni qimatbaho dinorga, bilimsiz kishini esa qimmatsiz ilikka o’xshatib, er kishining ko’rki aql, deya ta’kidlaydi. Ilmli inson o’z ilmi bilan mashhur bo’lib, nomi o’chmagani holda, ilmsiz kishi garchi tirik bo’lsada, nomi o’lik ekanligini e’tirof etadi. Alloma bilim egallash kishini yuksaklarga ko’tarsa, ilmsizlik tubanlikka tomon yetaklashiga alohida urg’u beradi.

Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarning ilmiy va ma’naviy merosidan bunday misollarni adoqsiz davom ettirish mumkin. Buyuk mutafakkirlarning komil inson ta’lim-tarbiyasi xususidagi g’oyalaridan bugungi kun ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish ijobiy samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev: Yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardan.(uza.uz)
2.O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev,H.Homidov-Pedagogika tarixi.Toshkent.2004-yil
3. X.Ibragimov,SH.Abdullayeva-Pedagogika nazariyai.Toshkent.2008-yil
4. O’zbek pedagogikasi antologoyasi (Ikkinchi jild) Toshkent.1999-yil.

KOMIL INSON TA”LIM-TARBIYASIDA HUSAYN VOIZ KOSHIFIY QOMUSIY IJODINING AHAMIYATI

Salimov Bahriddin,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
90 -maktab fizika fan io‘qituvchisi
Telefon: 998 97 321 86 81
Mirzayeva Munisa,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
90 -maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Telefon: 998 93 431 55 49

Annotatsiya: Maqolada buyuk qomusiy talant sohibi Husayn Voiz Koshifiy turli fan sohalari bo‘yicha ijod qilganligi, asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar va uning axloqiy qarashlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Adib, 200 dan ortiq asar, meros, madrasa, axloq-odob, va’z, darslik, hikmat, falsafa, pandnoma janrida, futuvvat, ibrat maktabi,

XV asrning ikkinchi yarmida Xurosonda buyuk mutafakkir Alisher Navoiy atrofida to‘plangan alloma, shoir va donishmandlar orasida mashhur qomusiy talant egalaridan biri Husayn Voiz Koshifiydir. Adib umrining yarmini Hirotda o’tkazadi, ilm-u ma’rifat bilan odamlar qalbini yoritish yo’lida zahmat chekadi.

Koshifiy asarlarini o‘z davrining ilmiy tili – fors tilida yozgan bo‘lib, undan ko‘pgina ilmiy, badiiy tarjima asarlari ham meros qolgan. Manbalarda falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, tarix, kimyo, astronomiya, matematika, musiqa, voizlik, she’r san’ati, din tarixi, fiqh, tibbiyot kabi fanlarga oid 200 dan ortiq asar yozganligi keltirigan.

Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, “Risolai Hotamiya”, “Anvori Suxayliy”, “Futuvvatnomai Sultoniy”, “Tavsiri Husayniy”, “Javohirnoma” kabi o‘ndan ortiq asari arab, tatar, eski o‘zbek, urdu, turk, nemis, ingliz, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilingan. Jumladan, Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy” va “Axloqi Muhsiniy” asarlari Najmiddin Komilov tomonidan fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Husayn Voiz Koshifiy Hirot madrasalarida talabalarga ta’lim-tarbiya bergan, Xuroson shaharlarida axloq-odobdan va’z aytgan. Koshifiy o‘z asarlarida ijtimoiy-axloqiy hayot, ma’naviyat masalalariga katta o‘rin ajratadi, siyosat, davlatni boshqarish, shoh bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabat, jamoani idora etish, yetuk insonni tarbiyalash muammolari uning ijodida katta o‘rin egallaydi. Ularda insonparvarlik, xalqparvarlik, yuqori ma’naviyatga ega bo‘lish, madaniy yuksalish g‘oyalarini ilgari suradi. Uning “Axloqi Muhsiniy”, “Risolai Hotamiya”, “Anvori Sixayliy”, “Axloqi Karim”, “Javohirnoma”, “Lubbo ul-ma’naviy fi-intixobi masna’viy”, “Iskandar oynasi”, “Tafsiri Husayniy”, “Futuvvatnomai Sultoniy” kabi asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlardan Xuroson mamlakatida, Hirotda va boshqa shaharlardagi madrasalarda talabalar uchun darslik sifatida foydalanilgan. Mutafakkir bu asarlarida o‘zining hayotdan olgan saboqlari, tajribalari asosida xalqchillik, insonparvarlik, ijtimoiy hayot, adolat, halollik, sofdillik, poklik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik haqidagi fikrlarini o‘qimishli, qiziqarli hikoyatlar, rivoyatlar yordamida bayon etadi. Bu asarlar Koshifiy tili bilan aytganda “Hikmati amaliy” asosida yozilganligidan bugungi kunda ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Koshifiyning har bir asari olam-olam ma’noga ega bir xazinadir. Uning “Futuvvatnomai Sultoniy”, “ Axloqi Muhsiniy” asarlari besh yuz yil davomida axloq va odob dasturi sifatida qo’ldan qo’lga o’tib qiziqish bilan o’qib kelingan va bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega bo’lgan bebaho axloqiy merosdir.

“Futuvvatnomai Sultoniy”, “Axloqi Muhsiniy” pandnoma janridagi, o’git-nasihat mazmunidagi asarlardir. Adib bu asarlarida axloqiy g’oyalarni, fikrlarni qatorasiga bayon qilmaydi. Uning asarining fazilati shundaki, u jamiyatni, odamlarni tahlil etadi, hikmat va falsafa asosida mushohada yuritadi.

Bebaho axloqiy xazina bo‘lmish “Futuvvatnomai sultoniy” asari muqaddima va yetti bobdan iborat bo’lib, ular fasllarga ajratilib, har bir faslga nom berilgan holda fikr-mulohazalar ifodalangan. Jumladan, asarning muqaddimasi uch fasldan iborat bo’lib, 3-fasli “Futuvvatning mohiyati, uning

lug’aviy va ilohiy ma’nolari haqida” deb nomlanadi. Ushbu faslda futuvvatning mazmun-mohiyati haqidagi mulohazalarni o’qir ekansiz, komil insonga xos go’zal axloqiy sifatlar ko’z oldimizga keladi. Adib futuvvat haqida shunday deydi: “Shunday ekan, futuvvat nima? Futuvvat eldan yashirin bir ish qilmaslik, hamma odamlar bilan xushfe’llikda yashashdir.Chunki odamlarning mehr-u muhabbatini ezgu xulq bilan qozonish mumkin va aytganlaridek:

Xalqi jahonga xush xulqing ila mahbub bo’l,
Jannat bog’iga yo’l boshlovchi shudir, ey dil.

Adib futuvvat ahdiga vafo qilmoqlik, futuvvat barchani o’zidan afzal bilish, o’zini hech kimdan yuqori qo’ymaslikdir, deb ta’kidlaydi.

Bu asar juda katta hayotiy ibrat maktabidir. Asardan nafaqat axloq-odob haqida, unda Sharq mamlakatlari va hukmdorlari, ustoz va shogrdlik maqomi, dor o’yini, kurash, tosh otish, xalqqa tomosha ko’rsatuvchilar, hunarlar, ov qurollari va ish qurollarining qabzasi, palos va to’shakni qanday to’shash kerakligi, chiroq yoqish qoidalari va hokazolarga tavsif beradi.

Bugungi kunda ham Koshifiyning qomusiy ijodi insonlarining ma’naviy yuk- salishida, komil inson ta’lim-tarbiyasida muhim dasturilamal sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.J. Maxmudov. “Ma’naviyat yulduzlari”. T. 2001-yil.
2. Husayin Voiz Koshifiy. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2011.
3. A. Zunnunov.Pedagogika tarixi. Toshkent, 2004-y.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHISINING PSIXOLOGIYASI

Soqiyeva Gulxayoxon Muzaffar qizi
Oltiariq tumani, 16-maktab psixologi
Tel: 91-124-54-94

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchisining psixologiyasi haqida fikr yuritilgan. Unda keltirilgan faktlar mashhur psixologlarning kuzatishlari, fikr-mulohazalari asosida tahlil qilinib yozildi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, bola, ota-ona, tendensiya, oilaviy munosabat.

Boshlang’ich sinf yoshida kichik o’quvchining muhim munosabatlari tuzilishi o’zgaradi. Agar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng muhimi ota-onalar bo’lsa, maktab yoshida maktab o’quvchilari uchun eng muhimi o’qituvchidir. Kichik o’quvchi uchun o’qituvchi Kattalar dunyosining vakili bo’lib hisoblanadi. U Ideal Standart sifatlari bilan ta’minlangan bo’ladi. O’qituvchi oddiy odam sifatida emas, balki ideal katta odam sifatida qabul qilinadi. Demak, o’qituvchining baholari kichik maktab o’quvchisi tomonidan maktab o’quvchisining o’quv vazifalarini bajarishini baholash sifatida emas, balki shaxsning ajralmas bahosi sifatida qabul qilinadi.

Kichik yoshdagi o‘quvchi ongida o‘qituvchi oddiy insoniy fazilatlardan mahrum bo‘ladi – u uxlamaydi, ovqat yemaydi, uning xatti-harakati boshqa odamlarning, ota-onalarning xatti-harakatlaridan butunlay farq qiladi. O’qituvchi maktabdan tashqarida ham o’qituvchilikdan to’xtamaydi. Yosh o’quvchilar o’yin maydonchasida o’ynayotgan bolalar bilan yuzaga kelgan ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishda o’qituvchini jalb qilishga urinishlari odatiy hol emas, o’qituvchi ishdan qaytayotganda, shunchaki o’tib ketadi.

Ota-onalar ham o’qituvchiga nisbatan kamroq obro’li ko’rinadi. Agar uy vazifasini bajarish paytida ota-onalar o’qituvchi tomonidan belgilangan usulga mos kelmaydigan yechim taklif qilsalar, unda bu variant hech qanday sharoitda o’quvchi tomonidan qabul qilinmaydi.

Boshqa tomondan, ota-onalar bilan birga vaqt o’tkazishning boshqacha qadri bor. Yosh o’quvchilar uchun kattalar bilan mazmunli muloqot qilish muhimdir. Agar maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar faoliyatiga kiritilgan bo’lsa, unda boshlang’ich sinf yoshida ota-onalar allaqachon bolalar tomonidan taklif qilinadigan darslarga, o’yinlarga, musobaqalarga kiritilishi mumkin.

Ota-onalar uchun bolaning maktabga borishining boshlanishi ham oila hayotida juda qiyin davr bo’ladi. Birinchi marta tashqi baholash oila ichidagi munosabatlarga ta’sir qila boshlaydi. Maktab baholari ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan birinchi muassasasidir. Bolaning baholari va maktabdagi muvaffaqiyati ham ota-onalarning malakasini baholash hisoblanadi.

Kichkina o’quvchiga nisbatan ota-onalar o’zlarini maktab baholarini nazorat qiluvchi va ularni mustaqil ish, uy vazifalarini bajarishga majbur qiladigan nazoratchi lavozimida deb o’ylaydilar. Shunday qilib, ota-onalar va maktab o’quvchilarining psixologik yordamga murojaat qilishlari uchun eng ko’p uchraydigan sabablar nizolar, o’rganishni istamaslik, akademik muvaffaqiyatsizlik va o’rta maktab tashvishidir. Ota-onalar farzandining imkoniyatlariga mos keladigan bunday “reyting satrini” topishga yordam berishlari juda muhimdir.

Tengdoshlar bilan munosabatlar. Maktabgacha yoshdagi bolalikning oxirida bolalar har kuni maktabga chiroyli portfellar bilan boradigan, uy vazifalarini bajaradigan, maktab - kattalar - ishlarini muhokama qiladigan va umuman, butunlay boshqacha - kattalar hayot kechiradigan maktab o’quvchilariga hasad qilishni boshlaydilar. Yoshlarning ko’z o’ngida yangi yosh darajasiga ko’tarilish va kattalar bilan tenglashish imkoniyati maktab o’quvchisi sifatida o’ziga nisbatan alohida munosabatni yaratadi.

Tengdoshlar kichikroq o’quvchi tomonidan maktab hayoti orqali qabul qilinadi. Tengdoshni tavsiflashda eng muhim xususiyat uning akademik samaradorligidir. Yosh o’quvchilar yaxshi o’qigan bolalar bilan do’st bo’lishni afzal ko’radilar va yomon o’qiganlarni qoralaydilar. Maktabga borishdan oldin shakllangan do’stlik bir xil bo’lib qoladi, lekin yangi do’stlar maktabdagi natijalariga qarab baholanadi.

Boshlang’ich sinf darslardagi qiziqarli munosabatlar. Kichik yoshdagi o’quvchilarning munosabatini o’zgartirishning bir necha bosqichlari mavjud.

1. Sinfdoshlar bilan munosabatlar o’qituvchi orqali quriladi.

2. Sinfdoshlar bilan munosabatlar o’qituvchining munosabati va uning baholari mezonlariga ko’ra quriladi.

3. Munosabatlar umumiy manfaatlar asosida quriladi: obyektlarni yig’ish, fanning qaysidir bo’limiga (kosmos, tabiat, biologiya va boshqalar) ishtiyoq.

Faqat 10 yoshga kelib, munosabatlar o’qituvchining munosabati va umumiy sevimli mashg’ulotlaridan qat’i nazar, asta-sekin shaxsiy hamdardlik asosida qurila boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Прохоров А. О. Психология неравновесных состояний. – М., 2004
2. Габдрева Г. Ш. Основные аспекты проблемы тревожности в психологии // Тонус. – 2000. – №5.
3. Мосина Н.А. Особенности развития самосознания часто болеющего младшего школьника. – Красноярск, 2007.
4. https://findmykids.org/blog/ru/podrostkovyj-period
5. https://rdsh.education/psih_vozrast_osobennosti_ml_shkol/

PSIXOLOGIK MASLAHAT JARAYONIDA SHAXS SUB’EKTIV XOLATINI O‘RGANISH

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Xorazm viloyati XTXQTMOHM o‘qituvchisi
Abdullayeva Gulnoza Abdullayevna
Bog’ot tumani 16-son
Umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi.
+99891433-34-03
yibrat@inbox.ru

ANNOTATSIYA: Maqolada psixologik maslahat jarayonida shaxs sub’ektiv xolatini o‘rganish, shaxs emotsianal xolatini aniqlash va shu asosda korreksiya qilish haqida so‘z boradi.

KALIT SO’ZLAR: Shaxs, psixologik xizmat, psixologik maslahat, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini korreksiyalash.

Bugun jamiyatimizda uzliksiz ta’lim tizimini isloh qilishda asosiy e’tibor insonni ma’naviy-ahloqiy va intellektual jihatdan tarbiyalashga va shu orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi bejiz emas. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-ahloqiy va intelektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarish” vazifasi qo‘yilganligi ham buning isbotidir[1]. Bu esa avvalo inson ma’naviyati, ruxiyati va ijtimoiy komoloti bilan shug‘ullanuvchi psixologlar oldiga bir muncha jiddiy va mas’uliyatli vazifalarni qo‘yadi.

Har bir rivojlangan mustaqil davlat va jamiyatning istiqboli undagi fan-texnika yoki ixtirolar muvaffaqqiyati bilan uzviy bog’liq. Zero, bugungi kun mustaqil davlatimiz taqdiri va ravnaqi, hozirgi davr va kelajagi jamiyatimiz fanlarida erishilayotgan yangiliklar va yutuqlar orqali amalga oshayotganligi shubhasizdir. Bu esa har bir fan oldiga bir qator dolzarb-amaliy vazifa va nazariy masalalarni qo‘yadi. Shunday ekan, bu jarayon psixologiya fanini ham chetlab o‘tmaydi. Chunki, bugungi kunda psixologiya fani oldiga ham amaliy, ham nazariy talablar qo‘yilmoqda.

XX-asr bo‘sag‘asida psixologiya fani va uni ilg‘or vakillari o‘zlarining navbatdagi jaxonshumul ilmiy maqsadlari insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko‘rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jixatdan asoslab berishga muvaffaq bo‘ldilar.

Xozirgi kunda psixologik maslahat jarayoni ko‘pgina O‘zbekistonlik psixologlar Z.T.Nishonova, M.M.Umarova, Sh.R.Baratov, G.Tojieva kabi bir qator olimlar tomonidan psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘rganilgan.[2]

Yuqorida keltirib o‘tilgan olimlar bir-birlaridan farqli o‘laroq psixologik konsultatsiya jarayonida shaxsning subektiv xolatini o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Freyd o‘z izlanishlarida, bizning barcha kechinmalarimiz, istak va hohishlarimiz ongostida qoladi va bu tashqi dunyo bilan munosabatlarimizni belgilaydi, deb ta’kidlaydi. Z.Freyd bu masalaga ko‘proq klinik jihatdan yondashgan holda psixologik maslahat va psixoterapivtik yordam orqali mijozlari bilan shug’ullangan. U metodikalar texnikasi bilan emas, balki uning nazariy asosiga ko‘proq e’tibor qaratgan.[3]

Yuqoridagi barcha kelitirilgan olimlar qarashlari va kontsepsiyalari psixologik maslahat jarayonida shaxs sub’ektiv xolatini o‘rganishning asosini tashkil etadi va manba sifatida xizmat qiladi.

Psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlaridan biri psixologik maslahatdir. Psixologik maslahat –o‘quvchilar, tarbiyalanuvchilar, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillariga, pedagoglarga shaxsiy muammolar va ziddiyatli munosabatlarni konstruktiv xal etishida psixologik yordam ko‘rsatish, shaxsning ichki psixologik imkoniyatlarini safarbar qilish uchun shart-sharoitlar yaratishdir. Psixologik maslahat berish jarayonida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim.

- bolalarning boshlang’ich sinflardan o‘rta sinflarga o‘tishi, shuningdek, maktabni bitirish va bo‘lg’usi kasb-xunar xamda ta’lim muassasasini tanlash masalalarida o‘quvchilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarga maslahatalar berish;
- o‘smirlar va yoshlarga kattalar va tengdoshlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlar, oilaviy muammolar, xulq-atvordagi og‘ishlarni bartaraf etish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va rivojlantirish, shuningdek, xayotiy va kasbiy o‘zligini anglash masalalarida maslahatlar berish;
- maslahat berish jarayonida o‘quvchilar va tarbiyalanuvchilarda mustaqil ta’lim olish, o‘z-

o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini korreksiyalashga ijobiy munosabatlarni shakllantirish xamda ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tafsiyalar ishlab chiqishni talab qiladi.

Bundan tashqari:

Psixologik maslahat jarayonida shaxs sub’ektiv xolatini o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Psixologik maslahat natijasida shaxs emotsianal xolatini aniqlash va shu asosda korreksiya qilish jarayoni asosiy maqsadimizga aylanishi zarur. Masalani yechish psixologik maslahat mobaynida shaxs subektiv xolatiga konsultatning ta’sir qilish jarayonini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi vazifalar amaliyotga joriy qilinsa, shaxsni muayyan sharoitga moslashishi, (ko‘nikish)ga oid (adaptatsion) ishlarni olib borish, shaxslararo, etnik guruhlararo, millatlararo har xil ko‘rinishdagi ziddiyatlarni oldini olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. “Xalq so’zi”, 2019 yil 30 aprel.

2. Алешина Ю.Э. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. М.,2000.

3. Бондаренко А. Ф. Психологическая помощь: теория и практика. – М., 2000.

.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR

Xurramova Lola Ziyodullayevna
Surxondaryo viloyati Termiz shahar 11-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’qituvchisi.
Parmanova Dilnoza Choriyevna
Surxondaryo viloyati Termiz shahar 11-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada boshlang’ich sinflarda o‘qish darslarining vazifalari, o‘quvchilarning o‘qish malakasini takomillashtirish va o‘qish samaradorligini oshirishda qo‘llaniladigan metod va usullari haqida yoritilib ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Motivlar, metod, reproduktiv, voqea, so‘z, ibora, o‘qish, didaktika, tasavvur, nutq va tafakkur.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta’lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Chunki maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Insonning shakllanishi va ma’naviy yuksalishida ona tili va o‘qishning o‘rni beqiyosdir. Barcha bilim va tajribalar ushbu fanlar orqali shakllantiriladi. Shuning uchun ham birinchi sinfdanoq ona tili va o‘qish fanlarini o‘qitilishiga alohida e’tibor qaratmoq joizdir.

O‘quvchilarda ijobiy tasavvur, nutq va tafakkurni o‘stirish. Qadim-qadimdan ardoqlanib kelingan kitobga mehr-muhabbatni tarbiyalash, uni e’zozlashga o‘rgatish. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrlarini erkin bayon etishga o‘rgatish.

O‘qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O‘qishni bilmagan odamning ko‘zi ojiz kishidan farqi yo‘q. O‘qish faoliyati boshlang’ich sinflarda barcha fanlarda amalga oshiriladi, lekin o‘qishga o‘rgatish o‘qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagi o‘quvchini o‘qishga o‘rgatishda ularning umumiy rivojlanishi, psixologiyasini hisobga olish zarur. O‘quv materialining hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromdagi o‘qishni tashkil etish bolani o‘qish mashg’ulotidan beziradi. O‘quvchilarni qiziqarli topshiriqlar, didaktik o‘yinlar asosida o‘qitish o‘qishga o‘yin tusini beradi. Bola o‘ynab charchamagandek, o‘qib charchaganini sezmaydi. Didaktik jarayon uchta bir-biri bilan bog’liq komponentlardan iborat:

Motivlar, O‘quvchining o‘quv-bilish jarayoni, boshqarish Didaktik jarayonning samarali o‘tishida bu komponentlar muhim o‘rin tutadi.

1-sinfda o‘qish darslari bir qancha vazifalarni bajaradi:

O‘quvchilar asar mazmunini to‘g’ri idrok etishlari, bilimlarini mukammal egallashlari, hayot haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘lishlari zarur. Bo‘g’in tuzilishi murakkab bo‘lmagan so‘zlarni bo‘g’inlab to‘g’ri o‘qish. Bolalar hayoti bilan bog’liq bir bo‘g’inli, ikki bo‘g’inli so‘zlarni bir tekis o‘qishlariga erishish. Buning uchun o‘qituvchi o‘qiladigan asar matnini o‘rganish jarayonida o‘qilishi qiyin o‘rinlarni belgilashi va o‘qishni differensial usulda tashkil etishi, ya’ni o‘qilishi qiyinroq o‘rinlarni yaxshiroq o‘qiydigan o‘quvchilarga, oson o‘qiladigan o‘rinlarni o‘qish malakasi bo‘sh o‘quvchilarga o‘qitishni mo‘ljallashi lozim. Bog’in tuzilishi murakkab so‘zlarni kartonga solib yoki xattaxtaga bo‘g’inlarga bo‘lib yozish, jo‘r o‘qitish usulidan foydalanish, so‘z ma’nosini izohlash yo‘li bilan to‘g’ri o‘qishni amalga oshirish kerak.

1-sinflarda o‘qishning ovoz chiqarib, ba’zan shivirlab o‘qish turidan foydalanish talab etiladi. Chunki o‘qituvchi o‘quvchilarning to‘g’ri o‘qishini hisobga olish va to‘g’irlash imkoniyatiga ega

bo‘lishi lozim. O‘qish darslarida turli janrdagi asarlarni o‘rganishda ham o‘quvchilarning badiiy asarni chuqur o‘zlashtirishlarini, asarni tahlil qila olishlarini ta’minlashi kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e’tibor qaratildi.O‘qish darslarida izohli o‘qish, ijodiy o‘qish, yarim izlanishli, reproduktiv metodlardan foydalanish mumkin. Izohli o‘qish boshlang’ich sinf o‘quvchilarining yoshi va saviyasiga mos bo‘lgan, ularning asta-sekin o‘sishini ta’minlaydiga metod ekanligi uzoq yillik tajribalarda sinaldi. Izohli o‘qish ongli,tushunib o‘ylab o‘qishga o‘rgatadi. Izohli o‘qish tamoyillari:

Ijodiy o‘qish asar o‘qib berilgach, o‘quvchilarda hosil bo‘lgan tasavvurni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan suhbatda, hikoyalardagi lavhalarga sarlavha topishda reja tuzishda, asar ustida ijodiy xarakterdagi yozma ish yozishda o‘quvchilarni faollashtiradi.

Reproduktiv metodda asar matni qismlarga bo‘linadi, yozuvchining aytmoqchi bo‘lgan fikriga o‘quvchilar diqqatini tortib, uni aniqlab, yozuvchi voqeani ifodalashda foydalangan so‘z, ibora ifodalarni aniqlab ko‘rsatadi, ularga yuklatilgan ma’noni o‘quvchilar bilan birga aniqlaydi. Bular o‘quvchilar uchun bir ko‘rsatma vazifasini bajaradi.O‘qituvchining yo‘llovchi savollari yordamida bu vazifani o‘quvchilar o‘zlari mustaqil bajaradilar.

Xulosa qilib aytganda, o‘qish fanida bu metod va usullardan foydalanish o‘quvchining o‘qish malakasini takomillashtirib, mustaqil fikrlash va og’zaki bayon eta olish malakalarini shakllantirib rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarova R.G., Abdullayeva B.S . Boshlang’ich ta’lim konsepsiyasi.- Toshkent, 2019.
2. E. Shodmonov, G.Eshturdiyeva1-sinfi uchun darslik Toshkent — 2017yil.
3. https://www.pv.uz

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Yo‘ldosheva Feruza Abdixakimovna
Toshkent viloyati Ohangaron shahar
1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998 94 219-40-82

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim-tarbiya olish sifatini oshirish va samarali tashkil etish to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: yangi metodlar, oson o‘qish usullari, yozish ko‘nikmasi, so‘zlashuv, ravon nutq, grammatik vositalar.

Bola yosh bir nihol, unga suv quysangiz o‘sishini ko‘rasiz, suv quymasangiz borgan sari qurib boradi. Bolalarning sifatli bilim, ta’lim-tarbiya olishi ustuvordir. Sababi hech birimizga sir emaski, bugungi yoshlar ertamiz, kelajagimiz poydevori. Uni qanday o‘stirsak ertaga shuni olamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim olish jarayonini sifatli tashkil etish esa, ular o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ertaga o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lib chiqishidagi qadamini to‘g‘ri qo‘ydirishimizdir. Yoshligida o‘qishga qiziqqan bolalar kelajakda ham izlanishdan to‘xtamaydi. Talim olish jarayonini yengil amalga oshirishni yo‘lga qo‘yish kerak deb hisoblayman. Ya’ni o‘tilayotgan darslarni qiziq va interaktiv o‘yinlar bilan o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bola esida qoldiruvchi mashqlar orqali ko‘p narsalarni oson tushuntirish va o‘rgatish mumkin.

Masalan, bolalarning matematika fanini tezroq o‘rganishlarida quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. ***Tezlik o‘yinlari.*** Bu o‘yinlar sirasiga og‘zaki bajariladigan misollar kiradi. Misollarni tez va og‘zaki bajarish orqali bolaning aqliy faoliyatini va samarali ishlashga o‘rgatamiz.

2. ***Aniq hisoblash o‘yinlari.*** Bu o‘yinlarda o‘quvchilardan tezlikni emas aql bilan ishlashni talab etiladi. Bunday o‘yinlar sirasiga yozma masalalar kirishi mumkin. Yozma masalalarni yechishda yuqoridagi usuldan foydalanib, kundalik misollarni yechib borsa, bola yozma masalalarda ham qiynalmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o‘qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o‘qituvchi matematika o‘qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya’ni boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini egallagan bo‘lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak.

Ona tili fanini o‘rgatishda esa o‘quvchining faqat grammatikaga e’tiborini qaratish emas, balki og‘zaki nutqini rivojlantirish, yozma qobiliyatlarini shakllantirishga ham e’tibor qaratish kerak. Buning uchun o‘quvchilarga ko‘proq matn, hikoyalar bilan ishlashni o‘rgatish lozim. O‘quvchi darsga keldimi qaysidir mavzudagi hikoya yoki ertakni o‘qib kelsin va darsda o‘quvchilarga so‘zlab bersin. So‘ng ikkinchi o‘quvchi birinchi o‘quvchi so‘zlab bergan hikoyani yozma matn ko‘rinishiga keltirsin. Murakkab emas balki oddiy bola tilidan yozishga harakat qilsin. Ana shunda ham og‘zaki ham yozma nutqni rivojlanishiga sharoit yaratish mumkin.

Matematika boshlang‘ich ta’lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

Matematika o‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsadlarni asoslash. (nima uchun o‘qitiladi). Matematika o‘qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (ya’ni matematikadan qaysi material boshlangich sinflarda o‘rganilishi, nima uchun aynan shu material tanlanishi, boshlang‘ich sinflarda kursning har qaysi ayrim masalani umumlashtirishning qanday darajasida o‘rganilishi, mavzular qanday tartibda o‘rganilsa, eng ratsional bo‘lishi ko‘rsatiladi).

O‘qitish vositalarini - darsliklar, didaktik materiallar, ko‘rsatma - qo‘llanmalar va texnik vositalarni ishlab chiqish kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarni fanlardan bilimini oshirishga e’tibor qaratish bilan birgalikda uning muloqot jarayoniga kirishishiga ham imkon yaratish o‘rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B. Nafasova “Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitish metodikasi”

ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Гаппарова Дилафруз Каршыбоевна
Учитель русского языка

Двадцать первый век-век развития и распространения инновационных технологий. Новая организация общества, иное отношение к жизни, предъявляют новые требования и к сфере образования.

На сегодняшний день очень актуальна тема «Расширение инновационных технологий в образовании». Инновационное обучение (от английского innovation-нововведение) - новый современный подход к обучению, включающий в себя самостоятельный путь развития фантазии, создание творческих работ, при помощи использования различных новейших технологий. Благодаря развитию инновационных технологий, ученики и студенты способны раскрыть свой творческий потенциал, а также выработать чёткую направленность, влияющую на учебную деятельность. [1.]

В свою очередь, в ряд инновационного обучения входят определённо-значительные цели:

1) создание среды, при которой, учащийся и преподаватель будут совместно сотрудничать;
2) создание положительной мотивации к обучению;
3)отбор материала и способ его представления;
4) включение учащегося в креативную деятельность.

На уроках русского языка и литературы используются следующие инновационные приёмы:

1) ассоциативный ряд;
2) опорный конспект;
3) мозговая атака;
4) групповая дискуссия;
6) эссе;
7) ключевые термины;
8) перепутанные логические цепочки;
9)лингвистические карты;
10) лингвистические задачи;
11) исследование текста;
12)выполнение тестов;
13)нетрадиционные формы домашнего задания.

Описание нескольких типов уроков с участием инновационных технологий: - эссе раскрытие значения какой-либо литературной, философской, психологической, моральной или социальной проблемы, выражение собственной мысли. Особенно важным является метод проектов, который позволяет раскрыть исследовательские способности аудитории. Для учебных проектов важнейшей частью является:

- определение цели исследования практической деятельности;
- показать суждение, связанное со способами решения определённой задачи;
- подготовить анализ данного материала.

Нетрадиционные уроки литературы вырабатывают развитие лингвистической наблюдательности. Действенным и интересным методом является синквейн, это направление даёт возможность осмыслить новые понятия, то есть, стадия повторения ранее полученного материала. Выразить в первой строке тему — указать объект или лицо, о которых идет речь. Для этого использовать существительное. Описать предмет во второй строке: назвать два главных свойства описываемого предмета или человека. Сделать это с помощью прилагательных. Указать в третьей строке три главных действия, которые выполняет объект или которые можно совершить с ним. Глаголы в этом случае лучшие помощники. Сформулировать в четвертой строке, в чем уникальное предназначение описываемого предмета или лица. Эту цель достигнете, построив предложение. Резюмировать сказанное выше в пятой строке — раскрыть сущность описываемого предмета (указать видовую принадлежность). [2.]

Для того чтобы учащемуся избежать рутины и однообразия в обучении,

существуют нетрадиционные формы домашнего задания-творческие задания:
- рисование обложек для литературных произведений;
- выразительное чтение;
- создание сценки определённого произведения;
- продолжение финала неоконченных произведений,
- составление вопросов и опорных таблиц;
- подготовка иллюстрированных презентаций по пройденный теме.

Вследствие таких увлекательных занятий, учащийся может почувствовать себя в роли автора, художника, или даже преподавателя. Ученикам становится очень интересно принимать участие в процессе урока, изучать ошибки, находить ответы, раскрывать свои скрытые таланты и способности. В свою очередь значимой задачей учителя является, помочь ученику проявить себя на уроке, перевести его учебную деятельность на творческую

В заключении, очень важно выделить, что применение инновационных технологий, очень положительно влияет на процесс обучение, а именно делает его эффективным, продуктивным, разнообразным и познавательным.

Список использованной литературы

1. Брагина Г.В.,Мастерство учителя на уроке, Книга для учителей и студентов, 2001год.
2. Кубрушко П.Ф. Дидактическое проектирование, 2001год.
3. Кубрушко П.Ф Модуль технология модульного обучения, 2001год.
4. Лаврентьева Е.В. Занимательная риторика и этикет, 2001год.

БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА ХОРИЖИЙ ТИЛ ЎҚИТИШНИНГ МАЗМУНИ

Қобилова Феруза Холмуминовна
Қашқадарё вилояти, Яккабоғ тумани
85-сонли мактабнинг немис тили фани ўқитувчилари

Аннотация. Ушбу мақолада умумий ўрта таълим мактабларида хорижий тилларни ўқитиш, саводхонлик даражаси, эришиладиган ютуқлари тўғрисида тавсиялар берилган.

Калит сўзлар. Нутқий мавзулар, малака, кўникма, тил, талаффуз, грамматик ва лексик малакалар, тинглаб тушуниб, гапириш, ўқиш, ёзув кўникмаси.

Хорижий тил ўқитишнинг мазмуни ўқитиш мақсадларига боғлиқ бўлиб, у одатда мақсад мазмунини белгилайди. Мазмун таълим чоғида ўзлаштириладиган методик тушунча ёки категория бўлса, унинг маҳсули эришиладиган мақсадни акс эттиради. Ўқитиш мазмунига нутқий мавзулар, малака ва кўникмалар ҳамда тил материали киради. Ушбу учта таркибий қисм хорижий тилни ўрганишда яхлит ўзлаштирилишини тақозо этади.

Нутқ мавзулари ўқитиш мақсадларига асосланиб танланади. Умумий ўрта таълим мактабларида “Ўқувчи ва уни ўраб турган атроф-муҳит”, “Ватанимиз” ва “Тили ўрганиладиган мамлакатлар” каби мавзулар асосий нутқ мавзулари ҳисобланади. Ўқиш учун сиёсий, бадиий, фан, маънавият ва маданият ҳамда спортга оид материаллар танланади. Танлаб олинган мавзу ва унга оид матнлар ўқувчиларнинг ёши ҳамда қизиқишларига мос келиши керак.

Нутқий малакаларни шакллантириш ўқитиш мазмунининг яна бир компоненти ҳисобланади. Талаффуз, грамматик ва лексик малакаларсиз тинглаб тушуниб, гапириб, ўқиб ва ёзув кўникмаларини ривожлантириб бўлмайди.

Нутқ кўникмалари деганда, хорижий тилда нутқ фаолияти турлари (тинглаб тушуниш, гапириш, ўқиш ва ёзув) ни эгаллаш тушунилади. Кўникма ўқувчиларнинг хорижий тилни ўрганиш даврларида олган билим ва малакаларини амалий фаолиятда собитқадамлик билан мустақил равишда қўллай олиш қобилиятидир.

Нутқ кўникмалари тил материалини мулоқот пайтида қўллаш жараёнида ривожланади ва такомиллашади.

Умумий ўрта таълим мактабларида хорижий тилни ўқитишнинг асосий вазифаларидан бири, шу предмет бўйича маълум ҳажмдаги билимларни ўзлаштиришдан иборатдир. Ўзлаштирилиши лозим бўлган билимлар асосини ушбу дастурда кўрсатилган тил материали ташкил этади. Тил материали дастурда давлат таълим стандартига асосан, ҳар бир синф учун алоҳида берилади.

Тил материали фонетик, грамматик ва лексик ҳодисаларни ўз ичига олади.

Ўқув жараёнида фонетик, грамматик, лексик ва имло бирлиги каби тушунчаларни фарқлаш, дарслик ва қўлланмалар тузишда улардан ўз ўрнида фойдаланиш зарур, акс ҳолда, юқорида қайд этилган мақсадларга тўла эришиб бўлмайди.

Ушбу материаллар хорижий тилни ўқитаётган муаллимларга ҳамда хорижий тилни ўрганаётган ўқувчиларга йўриқнома бўлиб, у дарслик ва қўлланмаларни яратувчи муаллифлар учун ҳам асосий манбадир.

Фонетик материални ўзлаштириш бошқа тил материаллари билан ҳамоҳанг тарзда, асосан, биринчи босқич (I-IV синфлар) да амалга оширилади. Талаффузни такомиллаштириш, айниқса, оҳанг, урғу устида олиб бориладиган ишлар барча синфларда давом эттирилади. Талаффузни ўргатиш мазмуни, одатда, ўқувчилар онгида алоқага кирадиган тилларнинг фонетик системаларини қиёслаш, ўқувчиларнинг хатоларини ўрганиш натижасида аниқланади.

Тил бирлиги эса луғат, лексик, грамматик, фонетик ва орфография (имло) бирликларини ифодалайди.

Луғат бирлик – ўзак сўз ва ясама сўздан иборат бўлса, лексик бирлик – ўзак сўз, ясама сўз (унинг таркибидаги сўз ёки сўз ясовчи элементлар ажратиб ўрганилмаган тақдирда), сўз ясовчи аффикс, сўз бирикмаси, гап (оғзаки нутқнинг илгарилаши шароитида қисмларга бўлинмай ўргатиладиган) – типовой жумла, тайёр жумлалардан иборат бўлади.

Ушбу дастурда ўқувчилар эгаллайдиган фаол луғат бойлиги 1000-1100 та лексик бирликни ташкил этади. Биринчи ва иккинчи босқичларда қўшимча ўрганиладиган сўзлар пассив минимумга киради.

Хорижий тил грамматикасини ўргатиш мазмуни учта методик мезонга кўра, ўқувчининг она тили ва иккинчи тилдан тўпланган грамматик тажрибасини ҳисобга олиб, хорижий тилнинг ўзидан йиғиладиган тажрибага асосланиб ҳамда грамматик ҳодисалар тақдимоти тартибини назарга олиб танланади.

Ўқувчилар биринчи босқичда ўзлаштирган тил материаллари асосида ўз билимларини иккинчи босқичда янада оширадилар. Дастурда ҳар бир мавзуни ўргатиш жараёнида кўргазмали қуролларни қўллаш вақти ва ўқитиш усуллари берилмаган. Буларнинг ҳар бири дарсликдаги чораклик, ярим йиллик, йиллик режалар ва бошқа методик қўлланмаларда ўз ифодасини топади.

Хорижий тилни ўрганиш мураккаб жараёндир. Ўқувчиларга нутқ фаолияти турлари тинглаб тушуниш, гапириш, ўқиш, ёзувни ва тил материал-лексика, грамматика, фонетикани ўрганиш натижасида хорижий тилда ўзаро ахборот алмашиш кўникмаси вужудга келтирилади.

Хорижий тилни ўқитишдаги амалий, таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадлар, нутқ малакаларига қўйиладиган талаблар мажмуи таълим – тарбия жараёнининг барча ташкилий шакллари ҳамда турларида, айниқса, дарс ва дарсдан ташқари машғулотларда амалга оширилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Тўгарак машғулотлари учун методик тавсиялар. Жумаева.М.Т.2017.

2.Ишмуҳамедов.Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. -Т.2004. 3 бет.

IJTIMOIY PEDAGOGNING OILA BILAN ISH YURITISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH TIZIMLARI

D.Oxunova
FarDU o’qituvchi,
O.Sotvoldiyeva
FarDU talaba.
Telefon:+998901602032
dilnozaoxunova1@gmail.com

ANNOTATSIYA: Oilaviy munosabatlar va oiladagi muammolarni bartaraf etish bugungi kunda ijtimoiy pedago’g faoliyatining bir qismidir. Ushbu maqolada ijtimoiy pedago’gning oila bilan olib boradigan faoliyatining ba’zi bir tomonlari yoritilgan.

KALIT SO’ZLAR: Oila, pedagogik yordam, intervent, muammoli model, bolalikga olish.

Oila ijtimoiy jamiyatning kichik bir ko’rinishidir. Oilalar mustahkam va farovon bo’lsagina jamiyat rivojlanadi. Oilaviy munosabatlar va oiladagi muammolarni bartaraf etish bugungi kunda ijtimoiy pedago’g faoliyatining bir qismidir. Ijtimoiy pedagog faoliyati oilani o’rganishdan boshlanadi. Oiladagi munosabatlarni o’rganish pedagogga oilada bolaning holatini tasavvur qilish imkonini beradi. Oilani o’rgangandan keyin ijtimoiy pedagog oldida oilada yangi munosabatlarni o’rnatish vazifasi turadi. Bu muammoni oilani turli klublar, maslahatlar, maishiy birlashmalar, bog’ tamorqadagi ishga jalb qilish yo’li bilan hal qilsa bo’ladi. Bolaning oilada tutgan o’rni haqida tasavvurga ega bo’lgandan so’ng ijtimoiy pedagog oila bilan birgalikda u uchun reabilitatsion dastur variantlarini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy pedagog tomonidan “oila xaritasi”ni buzish amaliyoti ham mavjud. Unda oilaning har bir a’zosining tavsifi, tug’ilgan sanasi beriladi. Shuningdek oila maqomi, yashash sharoitlari, qo’shnichilik, oilaning diniy va milliy mansubligi aniqlanadi. “Xarita”ning ilovasida oilada bola tarbiyasini o’rganish deb nomlangan qismi ham mavjud, unda ota-onalar bola bilan qancha vaqt va qanday o’tkazishadi, ularning umumiy ishlari nimalardan iboratligi, vaqtni ota-onalar o’z farzandlari haqida nimalar bilishlari haqidagi ma’lumotlar o’z aksini topadi. Masalan-bola nimaga qiziqadi, nimalarni o’qiydi, kimlar bilan do’stlashgan, uning sog’ligi qanaqa va h.k. Shuningdek, bu jarayonda bolalarning ham ota-onalari haqida nima bilishlarini aniqlash juda muhimdir.

Bundan tashqari, ijtimoiy pedagog oiladagi barcha munosabatlar-kattalarning o’zaro munosabati, kattalar va bolalar o’rtasidagi munosabatlarni inobatga olishi muhim hisoblanadi. Oilada hamkorlik mavjudmi yoki barcha munosabatlar kattalarning buyrug’i asosida quriladimi. Agar bola birinchi sinfga qatnay boshlasa, ijtimoiy pedagog bolaning holatini, kim bilan sizlashishi, unga nima yoqishi-yoqmasligini aniqlashi lozim.

Ijtimoiy pedagog birinchi navbatda, muvaffaqiyatsiz oilalar bilan to’qnash keladi. Bularga bola doimiy ota-onalar janjallarida yashaydigan, ota-onasi giyohvand bo’lgan oilalar kiradi. Zamonaviy sharoitlar bularga ishsiz oilalarni ham kiritib qo’ydi. Ijtimoiy pedagog oilaning turli muammolari bilan duch keladi. Bular:

-kasal bolalar, nogiron bolalar,
-nogironlar, nafaqaxo’rlar, qariyalar,
-foxishabozlik,
-giyohvandlik,
-daydi bolalar,
-ota-onalarning ajralishlari.

Shubhasiz, ijtimoiy pedagogning oiladagi birinchi vazifasi bu inqirozli vaziyatlarni hal qilishdir. Ijtimoiy pedagog oila bilan ish yuritishda uch asosiy rolni o’ynaydi:

Maslahatchi-oilani ota-onalar va bolalarning o’zaro ta’sirining muhimligi haqida gapirib beradi, bola tarbiyasi bo’yicha pedagogik maslahatlar beradi.

Konsultant-oila qonunchiligi masalasi bo’yicha maslahat beradi, mavjud tarbiya metodlarini ma’lum qiladi, oilada bolaning me’yorida rivojlanishi va rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish usullarini tushuntirib beradi.

Himoyachi-bola ota-onalari shaxsiyati (giyohvand, aroqxo’r, bolalarga yomon munosabat)ning to’liq degratatsiyasiga duch kelganda bolani himoya qiladi.

Ijtimoiy pedagogning oiladagi faoliyati uch asosiy ijtimoiy pedagogik yordam-ta’lim, psixologik, vositachilik yordamlaridan iborat.

Pedagogik yordam- o’z ichiga ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ikki yo’nalishini oladi: ta’lim olishda va tarbiya olishda yordam.

Ta’lim olishda yordam oilada vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va otaonalarning pedagogik-madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Ijtimoiy pedagog faoliyati quyidagi masalalar bo’yicha ota-onalarning keng yoritishni ko’zda tutadi:

-ota-onalarning bo’lajak farzandlarini tarbiyalashlari uchun pedagogik va ijtimoiy-biologik tayyorgarligi;

-bolalarda tengdoshlariga nisbatan adekvant munosabatni shakllantirishda ota-onaning o’rni;

-bola tarbiyasida shaxsiy namuna va ota-ona obro’ e’tiborining ahamiyati,

-oilada turli avlodlarning o’zaro munosabati, bolalarga pedagogik ta’sir usullari, bolalar va kattalar orasida ijobiy munosabat shakllantirish.

Tarbiyada yordamlashish ijtimoiy pedagog tomonidan avvalo, ota-onalar bilan ularga maslahat berish orqali, shuningdek esa bola bilan maxsus tarbiyaviy holatlar yaratish orqali o’tkaziladi.

Ijtimoiy pedagogik yordamning psixologik yo’nalishi 2 komponentdan iborat: ijtimoiy psixologik qo’llab-quvvatlash va korreksiya (to’g’rilash).

Qo’llab-quvvatlash qisqa muddatli inqiroz davrida oilada yaxshi muhitni yaratishga qaratilgan turli shakldagi stress holatlarini boshdan kechirayotgan oilalarni psixologik qo’llab-quvvatlashni ijtimoiy pedagogning qo’shimcha psixologik ma’lumot bo’lganda amalga oshiriladi. Bundan tashqari bu ishni psixolog va psixoterapevtlar ham bajarishlari mumkin. Agar qo’llab-quvvatlash kompleks tarzida amalga oshirilsa nihoyatda foydali bo’ladi. Ijtimoiy pedagog oiladagi shaxslararo munosabatlarni, oilada bolaning tutgan o’rnini, oilaning jamiyat bilan aloqasini tahlil qilib muammoni o’rganadi, psixolog esa psixologik testlar va boshqa metodlar vositasida oila a’zolarining nizoga olib keluvchi ruhiy holatlarini aniqlaydi, psixiatr esa davolash bilan band bo’ladi.

Shaxslararo munosabatlarning korreksiyasi asosan oilada bolaga nisbatan ruhiy zo’rlik bo’lganda qo’llanadi. Ruhiy zo’rlik bola asab-ruhiy va jismoniy holatining buzilishiga olib keladi.

Ijtimoiy pedagog oiladagi munosabatlarni shunday korreksiyalashi lozimki, oilada tartib va intizomni ta’minlashga qaratilgan barcha choralar bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiya talablariga asoslanishi lozim. Ijobiy natijaga erishish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz.

Ijtimoiy pedagogik yordamning vositachilik yo’nalishi uch komponentdan iborat bo’lishi kerak: *tashkil qilishga* yordam, *tartibga solishga* yordam va *axborot berishga* yordam.

Tashkil qilishga yordam oilaviy dam olishni tashkil qilishga qaratiladi. Oilaviy dam olish o’z ichiga xayriya auksionlari o’tkazish, oilaviy bayramlar, tanlovlar, uy xo’jaligini yuritish bo’yicha kurslar tashkil qilishdan iborat.

Tartibga solishga yordam berish muayyan oilaning muammosini hal qilish bo’yicha turli muassasa va xizmatlarni faollashtirishdir. Bunday muammolarga:

1. Bolani tarbiyalash uchun boshqa oilaga topshirish,
2. Bolalikka olish,
3. Bolalarni bolalar uylariga joylashtirish kiradi.

Axborot berishga yordam oilani ijtimoiy himoya masalalari bo’yicha axborot bilan ta’minlashga qaratilgan va konsultatitsiya shaklida o’tkaziladi. Masalalar maishiy, oilaviy, mehnat, fuqorolik, nafaqa qonunchiligi, bolalar, ayollar, nogironlar huquqlari, shuningdek oilaviy nizolarga tegishli bo’lishi mumkin.

Qisqa shakllar ichidan olimlar o’zaro munosabatlarning *intervent* va *muammoli* modellarini ajratishadi.

Oila bilan ish yuritishning *intervent modeli* inqirozli holatda bevosita yordam ko’rsatishni ko’zda tutadi. Bu inqirozlar oila hayotidagi o’zgarishlar yoki tasodifiy noxush holatlarga bog’liq bo’lishi mumkin. Inqirozli holatga qaysi muammolar sabab bo’lganidan qat’iy nazar ijtimoiy pedagogning vazifasi bevosita emotsional yordam ko’rsatish orqali stress holatining ta’sirini yumshatish va oila kuchlarining inqirozini bartaraf etishga qaratishdir. Bu holatdagi yordam psixologik, axborot va vositachilik xarakteriga ega bo’lishi mumkin.

Muammoli model ham qisqa muddatli ish shakliga tegishli bo’lib, uning muddati to’rtoydan oshmaydi. Muammoli model oiladagi amaliy vazifalarni yechishga qaratiladi, ya’ni model markazida shunday talab turadiki, yordam ko’rsatuvchi mutaxassis shaxslar o’z harakatlarini

oiladagi muammolarini yechishga yo’naltirishlari kerak. Bu model muayyan holatlarda aksar muammolarni odamlarni o’zlari xal qilishlariga asoslanadi. Ijtimoiy pedagogning asosiy vazifasi aynan shunday holatlarni yaratishdir, muammoli modelning yetakchi metodi yordam ko’rsatuvchi ijtimoiy pedagog va oila o’rtasida shartnoma tuzilishidir. SHartnoma tuzilayotganda oilaning vazifasi oldinda turgan faoliyatning maqsad va vazifalarini aniqlashdir. Ijtimoiy pedagogning vazifasi esa bu maqsad va vazifalarning amalga oshishi uchun yetarli bo’lgan muddatni belgilash.

Xulosa: Shuni ta’kidlash joizki, ijtimoiy pedagog va oila o’rtasidagi shartnoma biznes yoki nikoh shartnomasiga o’xshamaydi. Bu holatda tomonlar moddiy emas, balki axloqiy majburiyatlarga ega bo’lishadi va bu rasmiy hujjat bilan tasdiqlanadi. Shunday qilib, zamonaviy sharoitlarda oila turli bilim sohalari: ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy ish, sog’liqni saqlash va boshqalarning markaziy ob’ektlaridan biriga aylanmoqda. Chunki har bir jamiyatning kelajagi o’sha jamiyatdagi oilalardagi muammolarni xal qilishga bog’liq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. N.Egamberdiyeva “Ijtimoiy pedagogika”
2. http://hozir.org/o-zbekiston-respublikasi-xalq-talimi-vazirligi-v2.html?page=116
3. https://ijtimoiy.uz/maqolalar/ijtimoiy-pedagogika

МАКТАБГАЧА БЎЛГАН ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ИНГИЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС МУАММОЛАРИ ВА ИЖОБИЙ ТОМОНЛАРИ

Романова Ирода Давлатяровна
Матниязова Юлдуз Комилжановна
Шовот тумани 8- мактабгача таълим
ташкилоти тарбиячилари

Аннотация: Сўнгги йилларда “Хорижий тиллар таълимин мактабёшдан бошлаган маъқулми, ёки олдинроқ ўргатиш керакми? деган баҳс мунозаралар кетмоқда. Бу борада турли қарашлар мавжуд. Ушбу мақола шу ҳақида.

Калит сўзлар: тахлил, анализ синтез, аудио видео дарслар, идрок қилиш**.**

Баъзилар бола хорижий тилни эгаллашдан олдин ўз она тилида нутқи ривожланган бўлиши керак, десалар бошқалар кўп тилни эгаллаган болалар она тилидаги сўзлардан фарқлай олмайдилар, деб такидлашади.

Бироқ, олимларнинг аниқлашларича, мактабгача, яъни 3 ёшдан чет тилини ўрганишни бошлаган болалар ижобий натижалар кўрсатганлар ва тил ўрганмаган тенгдошларга қараганда икки тилда ҳам эркин мулоқатга кириша оладилар.

Шунингдек, она тили ва хорижий тилн праллел равишда сўзлаштирган болаларда идрок этиш, тахлил (анализ ва синтез) килиш, тушуниш, киёслаш каби куникма-малакалар хосил бўлади. Бундан ташқари, бу ёшда боланинг мантиқий тафаккур қила олиш салоҳияти, ақлий ривожланиши, дунёқараши коммуникатив саводхонлиги ва ўз – ўзини англаш қобилятларини ривожлантиришга дастлабки пойдевор қўйилади. Бола бу ёшда моддий борлиқ гўзалликларини ҳис этиш, гўзаллик ҳамда нафосатдан завқлана олиш, миллий урф -одатларни ўзига сингдириш, ардоқлаш ҳамда риоя қилиш кўникмаларини ҳам шакллантира бошлайди.

Бу ёшдаги болалар катталарга тақлид қиладилар. Соғлом бола 7-9 ойлигиданоқ айрим тушунчалар моҳиятини англай бошлайди. 1 ёшга кирган бола 100га яқин сўзни тушунади ва айта олади. 2 ёшга етганда эса сўзлар миқдори 300 га етади. 3 ёшга тўлганда сўзлар миқдори 1200 ва 1300 тани ташкил этади. Энди у грам.матик қоидаларсиз, ўзи мустақил равишда сўзлар, гаплар ясай бошлайди, сўзлар мантиқан алоқага киритиб фикрини баён қилади. Бола бутун болалик даврида нутиқни жадал равшда эгаллаб бориб, нутқни ўзлаштириши маълум бир фаолиятга айлана боради. Мазкур ёшдаги болалр ўз идрокларининг аниқлиги, равонлиги, ўткирлиги билан бошқа ёш даврдаги инсонлардан кескин фарқ қилади.

Улар ҳар бир нарсага берилиб, ўта синчиковлик билан қарашлари сабабли идрокнинг муҳим хусусиятларини ўзлаштириш имкониятига эга бўладилар.

Психологларбола3ёшданбошлабжисмонийвапсихологикжиҳатданфаолривожланганлиги сабали, бу ёшда тил ўргатиш осон кечади, деган ғояни илгари сурадилар. Ваҳоланки, бу ёшда бола етарли сўз бойлигига эга бўлиб, унга хорижий тил ўрганишга имконият яратади. Бола предметларнинг ранги, ва катталигини, уларнинг маконда жойлашишини билиш билан бирга, уларни таққослай олади. Бу ёўда нормал ривожланаётган бола расм ва суратлар реал ҳаётга таққослаган ҳолда билишга ҳаракат қилади. Бола расмларда атроф – ҳаётдаги нарсаларни кичиклаштириб тасвирланганлигини англай билади. Бу тасвирлар болаларда эстетик ва бадий дидни ривожлантиради. Чунки бола шу расмлар орқали олам гўзаллигини, унинг турфа ранглардан иборат эканлигини англайди, ажратади ва ўз муносабатини билдира олади. Боланинг диққати хотира ва тасаввури мустақил тус ола бошлайди. Лекин одатдаги ҳолат ва вазиятларда болага ўз психик фукцияларини юқори даражада ташкил этиш хали бир мунча мураккаблик туғдиради. Мактабгача ёшдаги болаларни ўқитишда нафақат илмий балки ижодкорона ёндашиш талаб этилади. Дарс машғулотларини 30 дақиқага мўлжаллаш ва машғулот турларининг ранг -баранглигига (харакатли ўйинлар қўшиқ видео ва аудио воситалар) эътибор берилса мақсадга мувофиқ бўлади. Хусусан, боланинг индивидувал жихатларини, қизиқишларини ва кайфиятини хисобга олган ҳолда дарсларни ташкил этиш ижобий натижа беради.

Мактабгача ёшдаги болалар харакатли ўйинларни катта қизиқиш билан қабул қилганликлари сабабли, уларга бир неча марта сўзларни такрорлаб ёд олдиришдан кўра

харакатли ўйинлар ёки аудио -видео воситалар орқали намойиш этиш кўпроқ, самара беради. Бола тезда ўзи ёқтирган сўз ва ибораларни ёд олади ва нутқида қўллай олади. Мактабгача ёшдаги болаларда диққатни иродавий зўр бериш билан бошқариш ва вазиятга мослаш имконити яхши бўлмайди. Бунинг асосий сабаби, уларда ихтиёрий диққатнинг кучсизлиги ва беқарорлилигидадир. Болаларда ихтиёрсиз диққат кўпроқ ривожланган бўлади. Шунинг учун ҳам улар ўз диққатларини муаян нарсаларига қарата олмайдилар ва диққатларини объектлар устида узоқ ужлаб тура олмайдилар. Дарс машғулотларда ўқув материалларининг яққоллиги эркинлиги, жозибадорлиги болада беихтиёр хис -туйғулар уйғотади. Чет тилини ўрганувчи болаларнинг нутқи фаол ривожланади, сўз, луғат бойлиги ошади, грамматик жиҳатдан гапни тўғри тузиш кўникмасига эга буладилар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Тўрақулова М.М Мактабгача таълим муассасасида тарбиячининг вазифалари Т:.2018й
2. Ф.Қодирова, Ш.Тошпўлатова, М. Аъзамова Мактабгача педагогика Тошкент “Маънавият”2013
3. Тўхтаров Б. Мактабгача таълим илк қадам дастури Т. “Маънавият” 2015

ABAY – BUYUK QOZOQ SHOIRI VA MA’RIFATPARVARI.

Abdimuratova Aygul Tajibekovna
Zarafshon shahar 9-umumiy o’rta ta’lim maktabining
qozoq tili va adabiyoti o’qituvchisi
Toktayeva Sabira Nakipbekovna
Zarafshon shahar 9-umumiy o’rta ta’lim maktabining
qozoq tili va adabiyoti o’qituvchisi

Annotatsiya. Qaysi xalq, qaysi millat haqida so‘z bormasin, avvalo uning ziyolilari, yozuvchiyu shoirlari esga olinadi, milliy qahramonlarining xayrli ishlariga urg‘u beriladi. Qozoq mumtoz adabiyoti haqida gap ketganda, albatta, Abayni yodga olamiz. U mazkur adabiyotning asoschilaridan biri, buyuk shoir va ma’rifatparvar edi.

Kalit so’zlar. A. S. Pushkin, L. N. Tolstoy, M. Ye. Saltikov-Shchedrin, A. Firdavsiy, A. Navoiy, Nizomiy, Abay (Ibrohim) Qo‘nonboyev.

Abay (Ibrohim) Qo‘nonboyev 1845 yilda Qozog‘istonning Semipalatinsk uyezdiga qarashli Chingiztov hududida chorvador oilasida dunyoga kelgan. Uning oilasi mahalliy zodagonlardan edi. Bobosi O‘skenboy va katta buvasi Irg‘izboy o‘z urug‘iga boshchilik qilgan biylardan bo‘lgan. Ibrohim dastlab Semipalatinskdagi madrasada mulla Ahmad-Rizo qo‘lida savod chiqargan. Bu yerda u arab, fors tillarini o‘rganish bilan birga, rus maktabiga ham qatnab, rus tili va adabiyotini o‘rgandi. Besh yillik boshlang‘ich maktabni tugatar chog‘ida yosh Ibrohim she’rlar mashq qilishni boshlaydi. 13 yoshga to‘lganda otasi Qo‘nonboy uni urug‘ oqsoqollarining faoliyati bilan tanishtira boradi.Abay bir tomondan Sharq adabiyotining buyuk vakillari A. Firdavsiy, A. Navoiy, Nizomiy ijodi, ikkinchi tomondan, A. S. Pushkin, L. N. Tolstoy, M. Ye. Saltikov-Shchedrin asarlari bilan qiziqib, o‘z bilimini oshirdi. Uning ijodi she’r yozish va o‘lan aytishdan boshlangan. Abayning ko‘plab o‘lanlari xalq orasida mashhur. U o‘z davrining ilg‘or ziyolisi sifatida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etdi. Abay xalqni savodxon qilishga da’vat etdi. Xususan, xotin-qizlarga quldek munosabatda bo‘lish, ijtimoiy zulm va qoloqlikka qarshi isyoni ijodida ham o‘z aksini topgan.

Abayni novator shoir sifatida namoyon etuvchi “Bahor”, “Yoz”, “Kuz”, “Qish” she’rlari borki, ularda yaxshilikka intil va yomonlikka qarshi tur, degan g‘oya ilgari suriladi. “Masgud”, “Azim haqida rivoyat” dostonlarida esa Sharq mumtoz ohanglari asosiy o‘rin tutadi. “Iskandar” dostonida Aristotel shaxsidagi aql-idrok bilan Makedonskiy shaxsiyatidagi hirs-ochko‘zlik qarama-qarshi qo‘yiladi.Abay birinchi qozoq bastakori ham hisoblanadi. U o‘z she’rlariga xalq kuylari asosida kuy bastalagan. Uning o‘nlab kuylari bugun ham sevib tinglanadi. Ayniqsa, o‘zining “Ko‘zimning qorasi” she’riga bastalagan kuyi va shu asosida ijro etiladigan qo‘shiq xalqqa manzur bo‘lgan. Abay rus va Yevropa madaniyatini o‘z xalqiga tanitgan buyuk shoirdir. U A. S. Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asaridan parchalarni qozoq tiliga tarjima qildi. Uning 170 ta she’ri, 56 ta tarjimasi, dostonlari hamda “Nasihatlar”i bugungi davr kishisi uchun ham o‘qib-o‘rganiladigan katta maktabdir. Ayniqsa, nasihatlari har bir zamon yoshlari hayotida asqotadi: “Agar har bir harakating tufayli haqiqatga erisha oladigan bo‘lsang, o‘lsang ham bu yo‘ldan qaytma, mahkam tur! Axir, o‘zing shubha qilgan narsaga o‘zgalar qanday qilib ishonch bildirsin? O‘zing hurmat qilmagan narsani o‘zgalar nega hurmat qilsin?”(N. Fozilov tarjimasi).

Abayning “O‘lanlar” va “Abay Qo‘nonboyev” nomi ostida ayrim asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan.Shoir vatanparvarlik ruhidagi ijodi bilan qozoq milliy ziyolilari tug‘ilishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo‘lgan “Alash-O‘rda” harakati uni o‘zlarining ma’naviy rahnamosi deb bilgan. Bu kabi ma’lumotlar shoir tarjimai holini o‘rgangan birinchi biograf Alixon Bukeyxanovning 1905 yilda “Semipalatinsk varaqasi” gazetasida chop etilgan “Abay (Ibrohim) Qo‘nonboyev” – ta’ziyanomasida ham o‘z aksini topgan. Oradan ikki yil o‘tib, u Abay siymosini aks ettirgan yodnomasini rus tilidagi jurnalda bosib chiqaradi.Abay katta oila vakili bo‘lib, uning bobolari, ota-onasi, ukasi, to‘rt o‘g‘li haqida ma’lumotlar bor. Ukasi Shokarim ham shoir, yozuvchi, tarjimon, bastakor, tarixchi-filosof edi. Ikki katta o‘g‘li uzoq yashamagan, xastalik tufayli vafot etgan. Uchinchi o‘g‘li Mag‘aviya otasining xohishiga ko‘ra, dostonlar yozgan. Uning “Medgat-Qosim” dostoni ijodining salmoqli qismini tashkil qiladi. Mag‘aviyaning asli kasbi huquqshunos bo‘lib, umrining so‘nggigacha mahalliy sudya bo‘lgan. To‘rtinchi o‘g‘li To‘raqul esa “Alash-O‘rda” partiyasi vakili, jamoat arbobi edi. Uning ham shoir va yozuvchi

sifatida bir qator asarlari saqlanib qolgan, Yevropa va rus adabiyotidan tarjimalar qilgan.Ayni paytda Qozog‘istondagi ko‘plab maskanlar ushbu buyuk qozoq shoirining nomi bilan yuritiladi, pochta markalari, Qozog‘iston banknotida uning surati tushirilgan. Mamlakatimiz poytaxtidagi markaziy ko‘chalardan biriga Abay nomi berilgan. U 1904 yilda vafot etgan.

Muxtasar aytganda, Abay Qo‘nonboyev hayoti va ijodi o‘qib-o‘rganiladigan ulkan saboq maktabidir. Davlatimiz rahbarining joriy yil 13 martdagi “Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo‘nonboyev ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish to‘g‘risida”gi qarori esa bunga yanada keng yo‘l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Қаратаев М. Казакская литература. Москва.1960.
2. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2014 yil
3. www.ziyouz.com

METHODS OF TEACHING ENGLISH GRAMMAR IN SECOND LANGUAGE CLASSROOM

Abdullayeva Muqaddas G ‘ayrat qizi
Matyokubova Dilnoza Ahmed qizi.
English teachers of 32nd school of Khanka district.

Abstract: Teaching vocabulary to young learners is important because they have some characteristics that can make them easier to learn new words. Although they have those special characteristics, they need a teacher as a facilitator and good techniques that can motivate them in learning vocabulary. This article describes finding out young learners` achievement in learning vocabulary, techniques that can be employed to young learners and techniques that can work for young learners.

Key words: vocabulary, teaching, effective, young learners, pronunciation.

English has four aspects and skills that must be known by the learners. The four aspects are spelling, pronunciation, vocabulary and grammar. Meanwhile, the four skills namely listening, reading, writing and speaking.Those four aspects can develop the four skills in English. The vocabulary aspect can build the four skills in English. There are some reasons that make vocabulary is important to be learned. First it will be hard for the learners if they must study English with limited words in their mind. Thus, learning vocabulary can help the learners to enrich their words in English. If they know those words, they can express their thought through English but if they do not know words in English they cannot write, read,speak anything in English. Second, it is impossible to teach spelling, pronunciation and grammar for the beginners if they do not know words first. Developing vocabulary will be great if it can be started from a young age. They are great word learners. There is a lot to learn about vocabulary in terms of its range, the sheer number of words and phrases to learn, and the depth of knowledge students need to know about each vocabulary item. Materials can help students in two broad areas: First, they need to present and practice in natural contexts the vocabulary that is frequent, current, and appropriate to learners’ needs. Second, materials should help students become better learners of vocabulary by teaching different techniques and strategies they can use to continue learning outside the classroom. There is a vast amount of research into how learners learn best and how teachers might best teach. The next section presents some key principles that we can follow to help students learn vocabulary more effectively.

Organizing vocabulary in meaningful ways makes it easier to learn. Textbooks often present new vocabulary in thematic sets as an aid to memory, but there are other types of organization and these can be described under three broad headings: real-world groups, language-based groups, and personalized groups, examples of which are given below.

There are many different ways of practicing newly presented vocabulary in class, from repeating the words, controlled practice, or reacting to the content in some way, to using the vocabulary to say true things about oneself. For example, in learning the vocabulary of countries, students can: - Listen to the names of countries and repeat them. – Identify the countries they know in English, and add new ones. - Say which languages people speak in different countries. - Say which countries are near their own, or which they have personal connections with (I’m from . . . ; My brother lives in . . . , etc.), or which they would like to visit.

In conclusion, we need to repeat vocabulary often, because students must work with a word or a phrase many times before acquisition takes place, and we must offer variety to keep the exercises fresh and to cater to different learning styles. Finally, we need to help students understand that learning is a gradual process that takes place in small, manageable increments over time, and to encourage them to seek additional information on their own, personalizing the learning experience and tailoring it to their own specific needs.

References:

1. Armbruster, B., Lehr, F., & Osborn, J. (2001). Put reading first: The research building blocks for teaching children to read. Jessup, MD: National Institute for Literacy.
2. Beck, I., McKeown, M., & Kucan, L. (2002). Bringing words to life: Robust vocabulary instruction. New York, NY: Guilford Press.

BOSHLANG’ICH TA’LIM SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA O’QUV-TARBIYA JARAYONINI AKT ORQALI TASHKIL ETISH

Abdurahmonova Dilfuzaxon Muxtarovna
Andijon viloyati, Andijon tumani 44-umumta’lim
maktabi boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang’ich ta’limda axbarot texnologiyalarning o’rni haqida bayon etilgan.

Kalit so’zlar: o’quv-tarbiya, axbarot texnologiyalar, xalqaro baholash.

O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amaldagi tadbiqi bugungi kunda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va jahon andozalariga mos ravishda rivojlantira borishni taqozo etmoqda. Tabiiyki, ushbu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish ko’p jihatdan barcha turdagi ta’lim muassasalarida ta’limni zamonaviy axborot texnologiyalarining tadbiq etilishi va ulardan samarali foydalanishi bilan bog’liq.

Umumta’lim maktablari o’quv-tarbiya jarayonini kompyuterlashtirish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo’yicha vazifalami hal etish uchun 2019- yil 9-sentabrdagi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to’g’risida PF 5815 farmonida, shu bilan birga, iqtidorli yoshlar bilan ishlashning yagona va samarali tizimini yaratish, yosh avlodning iqtidori va salohiyatini ro’yobga chiqarish uchun bunday yoshlarning tashabbuslarni qo’llab-quvvatlash, yuqori darajada munosib ifoda eta oladigan talab yuqori bo’lgan yosh mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifamiz ekanligini ta’kidlab o’tdi. Demak, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning o’quv-tarbiyaviy jarayoniga ilg’or ta’lim shakllari, pedagogik texnologiyalar va axborot yangiliklarini joriy etish keng yo’lga qo’yildi. Shu qatorda umumiy o’rta ta’lim maktablarida ham ta’lim sifatini yaxshilash, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalangan holatda tashkil etishga hozirgi kunda astoydil e’tibor qaratilmoqda. O’quv-tarbiya jarayoniga elektron vositalarini tadbiq etish, kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish ishları respublikamizning umumiy o’rta ta’lim maktablarida sezilarli darajada ommalashib bormoqda. Chunki boshlang’ich sinflarning o’quv-tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalarning tadbiq etilishi o’quvchilarning o’qish savodxonligi bilan birga mantiqiy fikrlashini faol bilim olishini ta’minlaydi, ularning individual va intellektual salohiyatini rivojlantirishga imkon yaratadi. Buning uchun fan o’qituvchilari va har bir o’quvchiga barilgan vazifani bajarish uchun kompyuterdan foydalanilsa o’quvchi o’qiydi, ko’radi, eshitadi va matn bilan ishlashni uddalay olishi va o’quv predmetlarini kompyuter yordamida o’zlashtirish imkoniyatlariga ega bo’lishi talab etiladi.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida ko’pgina fanlami o’qitish jarayonida ko’rgazmali vositalarga asosiy e’tibor qaratiladi. Chunki o’quv materiallarining tabiiy, jonli va eng muhim qiziqarli namoyish etilishi e’tibor qaratiladi. Chunki o’quv materiallarining tabiiy, jonli va eng muhimi qiziqarli namoyish etilishi o’quvchining bilim olishini yengillashtiradi, o’rganilgan bilimni uzoq muddat xotirada saqlab qolish va amaliyotda foydalanishga imkon yaratadi.

Xalqaro baholash tizimiga faol qatnashish uchun bolaning matematik savodxonligini oshirishda elektron vositalardan unumli foydalanish ayniqsa boshlang’ich ta’lim dastlarining samarasini oshirishning dolzarb muammosi hisoblanadi. Chunki darslardagi barcha mavzularni to’liqroq yoritish uchun bir qancha, rasmli jadvallar, yoki slaydlar ega bo’lish talab etiladi. Lekin umumiy o’rta ta’lim maktablari boshlang’ich ta’limo’qituvchilarining bu borada imkoniyatlari cheklangan. Bundan tashqari har bir mashg’ulot uchun o’quv materiallari tayyorlash va ulardan dars jarayonida foydalanish ko’p mehnat va vaqtni talab etadi. O’quv jarayoni zamonaviy axborot vositalari yordamida tashkil etilishi o’quvchilarning o’quv predmetiga qiziqishini, ta’lim samarasini oshiradi. Bunday intilish o’qib, o‘rganayotgan o’quvchi yoshlarni yetuk, intelektual salohiyatli bo‘lib yetishishini ta’minlaydi.

Boshlang’ich ta’lim fanlarni o’qitish jarayonida texnik vositalar ancha ilgari foydalanib kelingan. Respublikamizning ko’pgina umumiy o’rta ta’lim maktablarida tajribali o’qituvchilar tomonidan texnik vositalarni tadbiq etishi orqali ta’limning samaradorligini oshirishga erishayotganligini ta’kidlab o’tish lozim. Lekin zamonaviy axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi

va texnik vositalarga talab va ehtiyojning ortib borishi bilan mazkur texnologik vositalarni ishlab chiqish va ulardan dars jarayonida foydalanish sifat jihatidan ancha orqada qolmoqda.

Ta’lim jarayonida elektron vositalardan foydalanish muammolarini tadqiq etish, ta’limning zamonaviy vositalarini yaratish, ularni ilmiy asoslab berish borasida bir qancha olimlarimiz muvaffaqiyatli ish olib borishmoqda. Nufuzli olimlarning tadqiqot ishlarida ta’limni yangi uslub va vositalar yordamida tashkil etish, uni texnologiyalashtirish va didaktik asoslarini ishlab chiqish to’g’risidagi fikr va mulohazalari o’z aksini topgan.

So’nggi yillarda fan texnikaning yanada rivojlanishi ta’sirida ta’lim tizimiga kompyuterlashgan texnologik vositalarni tadbiq etish, o’quv fanlarini bevosita informatika va axborot texnologiyasi elementlari bilan bog’lashga intilish tobora kuchayib bormoqda.

So’nggi yillarda yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish borasidagi ko’pchilik ilmiy izlanishlarning asosiy maqsadi ta’lim jarayonida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish orqali o’quv mashg’ulotlarining samaradorligini oshirishdan iborat.

Respublikamizdagi umumiy o’rta ta’lim maktablarining tajribali o’qituvchilari tomonidan ham o’quvchilar bilimini baholash va rag’batlantirishni kompyuter yordamida amalga oshirish borasida bir qancha materiallar tayyorlangan. Bu kabi materiallar o’quv mashg’ulotlarining samarasini oshirishi tabiiy albatta. Boshlang’ich ta’lim fanlarini kompyuter yordamida o’rganish, elektron vositalar orqali o’quvchilar bilimini baholash va rag’batlantirish ishlari to’g’ri yo’lga qo’yilmagan. Ishlab chiqilgan ko’pchilik elektron vositalar zamonaviy talablarga javob bermaydi. Bundan tashqari umumiy o’rta maktablarining ko’pchilik boshlang’ich ta’lim o’qituvchilari yetarli kompyuter savodxonligiga ega emaslar. Boshlang’ich ta’lim darslarida foydalanish uchun mo’ljallangan ko’pchilik elektron vositalar tizimga solinmagan, ularni yaratishda o’quvchilarning yoshi. tayyorgarlik darajasi, ta’limning uzviylik va boshqa psixologik va pedagogik omillar hisobga olinmagan, ulardan foydalanishning pedagogik va psixologik jihatlari ochib berilmagan.

Xulosa qilib aytganda, boshlang’ich sinflarda o’qish, matematika savodxonligini oshirish va xalqaro baholash darajasiga yetkazish uchun o’quv-tarbiya jarayonini kompyuterlash o’quvchilarning bilish faoliyatini ta’limning samarasini oshirish mumkin, agarda quyidagilarga amal qilinsa: mashg’ulotlarni rejalashtirish va ularga tayyorgarlik ko’rish davomida boshlang’ich ta’limda o’rganiladigan mavzularning mazmuni va xususiyatlarini bola mantiqiy fikirlashini e’tiborga olinsa;

- o’qitishning barcha pog’onasida boshlang’ich ta’lim darslari mavzulari mazmuniga mos keladigan fanlar bilan integratsiyalashtirilsa o‘qitishning texnik vositalardan foydalanilsa;
- fundamental mavzular bo’yicha kompyuterlashgan o’quv dasturlari yaratilsa;
- o’quv dasturlaridan foydalanishning eng maqbul metodlari, shakllari va usullari tajriba sinov orqali asoslab berilsa. Biz ko’zlagan maqsadga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 9- sentabrdagi PF-5815-son farmoni.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatinibaholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 997-sonli qarori.

3. N.Egamberdiyeva “Tarbiya texnologiyasi” Fan va texnologiyalar. 2016-yiln 3). “Maktab va hayot” 2018-iyul 4-son.

4. Mavlonova R., Abdurahimova D. “Pedagogik mahorat”. T:. Fan va texnologiyalar. 2012-yil.

MATEMATIKA DARSLARIDA KEYS-STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Abduraxmonov Umarxon Muxammadjonovich
Marg‘ilon shahar 1-IDUM o‘qituvchisi
Tel: 90-231-44-71
Turg‘unov Bobirmirzo Boqi o‘g‘li
Marg‘ilon shahar 19-maktab o‘qituvchisi
Tel: 90-630-26-42

Annotatsiya: Maqolada yuqori sinflarda matematika fanini o’qitishning keys-stadi uslubi to’g’risida fikr yuritilgan. Yangi pedagogik texnologiyalarda orqali yuqori sinf o’quvchilariga matematika fanini o’qitishdagi faol uslublar ochib berilgan.

Kalit so’zlar: interaktiv metod, yangi pedagogik texnologiya, o’yinli texnologiyalar, keys-stadi.

Ikkinchi avlod standartlarini qo’llab-quvvatlash bilan o’qituvchi mustaqil kognitiv faoliyatni faollashtirish, o’quvchilarning meta-mavzu bilim va ko’nikmalarini shakllantirish uchun darsni qayta qurishga to’g’ri keladi. Bularning barchasiga sinfda o’qitishning faol usullari va shakllari yordamida erishish mumkin. Ta’limning faol usullari va shakllari, jumladan, keys texnologiyasidan foydalanish orqali.

Keys texnologiyasi - bu tahlil usullari bo’lgan ta’lim texnologiyalarining umumiy nomi.

Keys texnologiyasidan foydalanishda o’qituvchining asosiy vazifasi o’quvchilarni tashabbuskorlik va mustaqillik ko’rsatishga undashdan iborat. U har kim o’z qobiliyati va qiziqishini ro’yobga chiqarishi mumkin bo’lgan o’quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil qilishi kerak. Darhaqiqat, bunda kognitiv faollikni rivojlantirish va o’quvchilarning kompetentsiyalarini shakllantirish amalga oshiriladigan sharoitlar, “rivojlanayotgan muhit” kelib chiqadi.

Ta’limda keys-stadi usulining paydo bo’lishi va tarqalishi tarixi o’tgan asrning 20-yillariga to’g’ri keladi. Adabiyotda ushbu usulning quyidagi nomlarini topish mumkin: “vaziyatlarni o’rganish usuli”, “ish voqealarini o’rganish usuli”, “hodisalar usuli”, oddiygina “holatlar usuli”.

Keys - bu real vaziyatning tavsifi bo’lib, Keys metodi - muayyan muammolarni - vaziyatlarni hal qilish orqali o’rganishga asoslangan faol muammoli-vaziyatli tahlil usuli hisoblanadi.

“Pifagor teoremasi yordam berdi.”

Maqsadlar: o’rganilgan materialni birlashtirish; Pifagor teoremasining hayotiy vaziyatda qo‘llanilishini ko‘rsatish.

Vaziyat:

Ushbu epizod haqiqiy tergov amaliyotidan olingan. O‘g‘irlik haqida xabar olgan tergovchi voqea joyiga jo‘nab ketadi. Arizachi jinoyatchi qimmatbaho buyumlar saqlanadigan xonaga deraza orqali kirganligini da’vo qilgan. Tekshiruv shuni ko’rsatdiki, deraza tokchasi yerdan 150 sm masofada joylashgan. Binoning devoridan 200 sm masofada joylashgan yer yuzasi zich o’simliklar bilan qoplangan bo’lib, unda shikastlanish belgilari yo’q edi. Tekshiruv davomida zinapoyalar kabi texnik vositalar topilmadi. Jinoyatchi xonaga deraza orqali kirib, qandaydir tarzda o’simliklarning cheti va deraza tokchasi orasidagi masofani bosib o’tgan degan taxmin bor edi. Bu Pifagor teoremasi yordamida aniqlandi. Tergovchi o’g’irlikni sahnalashtirish versiyasini ilgari surdi.

Keys savollar.

1. Vaziyatni tahlil qiling.
2. Pifagor teoremasini qo’llash imkoniyatini ko’rsatadigan nuqtalarni aniqlang.
3.Tergovchi qanday faktlarga asoslanib gumonlanuvchining aybsizligi haqidagi versiyani ilgari surdi? Javobingizni asoslang.
4. Pifagor teoremasidan foydalanib, gumonlanuvchining aybsizligi yoki aybdorligini isbotlang.
5. Agar siz tergovchi bo’lsangiz, qanday xulosalar chiqargan bo’lardingiz?

Keys usuli faol o’qitishning intensiv texnologiyalariga taalluqlidir, u interaktiv bo’lib, o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi hamkorlik va sheriklikka qaratilgan, chunki ish guruhlarda olib boriladi.

Usulning maqsadi: bir guruh o’quvchilarning birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan muayyan vaziyatda yuzaga keladigan vaziyatni tahlil qilish va amaliy yechimni ishlab chiqish.

Keys-usuli o’qitish va o’quv jarayonini faollashtirish shakli sifatida quyidagi natijalarga

erishishga qaratilgan:

1. O’quvchilarning intellektual rivojlanishi.
2. Kasbiy muammolar va hayotiy vaziyatlarning noaniqligini anglash.
3. Muqobil yechimlarni izlash va ishlab chiqishda tajriba orttirish.
4. Baholash va qaror qabul qilishga tayyorlikni shakllantirish.
5. Bilimlarni chuqurlashtirish va kamchiliklarni aniqlash orqali o‘zlashtirish sifatini oshirishni ta’minlash.
6. Muloqot ko’nikmalarini rivojlantirish.

Ushbu usulning tarbiyaviy ahamiyati quyidagilardan iborat:

- real hodisalar materiali bo‘yicha nazariy bilimlarni tasvirlash imkonini beradi;
- o‘quvchilarning bilim faolligini rag‘batlantiradi;
- o‘quvchilarning zarur kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi (manbalar bilan ishlash, muammolarni hal qilishda muqobil variantlarni izlash va h.k.);
- ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- ko‘rib chiqilayotgan masalani yechishda qo‘llanilishi kerak bo‘lgan bilimlar to‘plamini aktuallashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ziyomuhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya — zamonaviy o ‘zbek milliy modeli. — T.: «Lider Press», 2009.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O ‘quv uslubiy qo’llanma// Ta’limda innovatsion texnologiya seriyasi. — T.: 2010.
3. https://site.fs1servers.ru/Metodkopilka/metodichka.pdf

TENGLAMALAR VA ULARNING TARIXI

Akbaraliyeva Muslimaxon Xidiraliyevna
Qo‘qon shahar 22-maktab matematika fani o‘qituvchisi
Abdurahmonova Muhayyoxon Xidiraliyevna
O’zbekiston tumani 29-maktab matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada tenglamalar va ularning tarixi, ta’lim jarayonida tenglamalarni o‘qitish va tushuntirish to‘g‘risida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, tenglama,arifmetik masalalar, noma’lum qiymat

Tenglamalarning ilk yechimlari eramizdan 2000 yilcha oldin yozilgan Rhind papirusida yozilgan. Berilgan masalalar arifmetik masalalar bo‘lgan. Masalan, massa va uning 1/7 ning yig‘indisi 19 ga teng“ kabi masalar uchun tenglamalar yozilgan. Bunday masala uchun noma’lumni x deb belgilab, $x+1/7x$ kabi sodda tenglama yozilgan. Arifmetik masalalardan keyin ikki noma’lum qiymatli tenglamalar yuzaga kelgan. Yunonlar qo‘shaloq chiziqli tenglamalarni bilishgan. Arximedning „chorva masalasi“ kabi sistemalarda berilgan noaniq tenglamar Diofant bir necha shunaqa tenglamani ishlab ko‘rsatib bermagunicha jiddiy o‘rganilmagan. Kvadrat tenglamalar yunonlar proportsiyalarni o‘rganishayotganida mavjudaga kelgan. Ular kvadrat tenglamalarni geometrik usulda yechishgan. Ammo bu geometrik usulning hozirgi umumlashtirilgan algebraik geometriyaga aloqasi yo‘q. Algebraik geomotriyada grafiklar bilan tenglamalarni yoki aksincha, tenglamalarni grafiklar bilan ifodalash mumkin. Sodda kvadrat tenglama ikki a va b chiziqlari orasidagi o‘rtacha proportsional x ni aniqlashda yoki berilgan to‘rtburchakka teng kavdratni topishda kelib chiqqan. Ishlatilgan proportsiya $a:x = x:b$ ko‘rinishida bo‘lgan. Bu ifoda bo‘lsa $x^2 = ab$ ga tengdir. x^2+ax-a^2 ko‘rinishidagi umumiyroq tenglama berilgan biror-bir chiziq medianasinitopish kerak bo‘lgan masalaning algebraik ekvivalentidir. Diofantga kvadrat tenglamaning algebraik yechimi ma’lum bo‘lgan deb aytiladi. Ammo u faqat bitta ildizni payqagan. Rene Dekart tenglamalarni grafik figuralar qilib ifodalashni ko‘rsatib bergan. Sodda kub tenglama biri ikkinchisidan ikki marta uzun bo‘lgan ikki chiziq o‘rtasida x va yo‘rtacha proporsionallarni topish kerak bo‘lgan masalada berilgan. Buni $a:x=x:y=y:2a$ko‘rinishida ifodalash mumkin. Bu ifodadan $x^2 = ay$ va $xy = 2a^2$ kelib chiqadi. y ni yo‘q qilsak $x^3 = 2a^3$ sodda kub tenglama hosil bo‘ladi. Yunonlar bu tenglamani yecha olishmagan. Bu tenglama yana kubning dublikatini yasashda va burchakni chizg‘ich yoki sirkulbilan teng uchga bo‘lishda ham yuzga kelgan. Burchak bo‘lish uchun sissoida, konxoida va kvadratrisa kabi mexanik egri chiziqlardan foydalanishgan. Bunday yechimlarni arablartakomillashtirgan. Ular kub va bikvadrat tenglamalarni konus kesimlari bilan yechishgan. Diofant boshlagan va hundlar takomillashtirgan tenglamalarning taxminiy ildizlarini algebraik yo‘llarda yechish usullarini arablar yanada oldinga surishgan. Kub va bikvadrat tenglamalarning algebraik yechimlari 16-asrda S.Ferro, N.Tartaglia, H.Cardan va L.Ferrari tomonidan ishlab chiqilgan.Beshinchi darajali tenglamalarni yechishga ko‘p urinilgan. P.Ruffini va N.H.Abel buning iloji yo‘qligini isbotlashgan. C.Hermite va L.Kronecker elliptik funksiyalardan iborat yechimini ko‘rsatgan. F.Klein ham bu tenglamalarni yechishning yana bir boshqa yo‘lini taklif qilgan. Tenglamalarga geomotrik yondoshishda yunonlar va arablar ba’zi bir egri chiziqlar va figuralarning xossalaridan kelib chiqib xulosalar qilishgan. Proporsiyalardan foydalanib xususiy hollar uchun yechim topilgan, ammo umumiy hol uchun qoniqarli javob bo‘lmagan. Bu muammoni 17-asrda Rene Dekart bartaraf qilgan. U tenglamalarning grafik yechimlarini tushuntiruvchi umumiy teoremani ishlab chiqqan. Xususan, Dekart konik kesimlar ishlatilgan hollarni ko‘rsatib bergan. Bundan tashqari, Dekart har bir tenglama geometrik nuqtalar joylashishiga egaligini va har bir geometrik nuqtalar joylashashi tenglamaga egaligini ko‘rsatgan. Ikki x va y noma’lumli tenglamalarni ifodalash uchun Dekart bir-birga perpendikular ikki o‘qni olgan. x ni gorizontal o‘q bo‘ylab va y ni vertikal o‘q bo‘ylab o‘lchagan. Keyin u chiziqli tenglamato‘g‘ri chiziqni ifodalashini va kvadrat tenglama konik chiziqni ifodalashani ko‘rsatib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimov Sh. A. va boshqalar. Algebra va analiz asoslari, o`rta maktabning 10-11 sinflari uchun darslik. Toshkent, “O`qituvchi”, 1996- yil va keyingi nashrlari.
2. Kolmogorov A. N. tahriri ostida. Algebra va analiz asoslari. 10-11 sinflar uchun darslik. Toshkent, “O`qituvchi”, 1992-yil.
3. Vafoyev R. H. va boshqalar. Algebra va analiz asoslari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o`quv qo`llanma. Toshkent, “O`qituvchi”, 2001-yil.
4. Abduhamidov A. U. va boshqalar. Algebra va analiz asoslari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun sinov darsligi. Toshkent, “O`qituvchi”, 2001 yil.

BOSHLANG’ICH SINF DARSLARIDA INTERFAOL O’YINLARNING O’RNI VA AHAMIYATI

Asqarova Roxatoy Atabayevna
Xorazm viloyati Urganch shahar
17-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabining
Boshlang’ich sinf o’qituvchisi
Kadirova Malohat Komiljonovna
Xorazm viloyati Urganch shahar 19-sonli
IDUMning Boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang’ich sinf darslarida interfaol o’yinlarning o’rni va ahamiyati hamda ularni qo’llash va foydalanish o’quvchini ushbu o’yin orqali yozma va og’zaki nutqini rivojlanishi haqida yoritilgan.

Kalit so’zlar. Pedagogika texnologiya, ta’limiy o’yinlar, innavatsion ta’lim, interfaol metodlar, didaktik o’yinlari, muloqot o’yini, badiiy o’yinlar, harakatli o’yinlar, O’z – o’zini baholash va tafakkur o’yinlari.

Ilm o’qib, unga amal qilmagan, yerni shudgor qilib, urug’ sochmagan yoki urug’ sochib, hosil ola olmagan kishiga o’xshaydi.

Alisher Navoiy (mahbub – ul qulub) asaridan.

Interfaol metodlar

Boshlang’ich sinf darslarida interfaol metodlardan foydalanish o’quvchilarni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish,erkin fikrlay olish, o’zgalar fikrini anglash, o’z fikrini og’zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo’la olish ko’nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang’ich ta’limda interfaol o’yinlar vositasida darslarni tashkil qilish o’quvchilarni aqliy faoliyatiga tezroq kirishishlari adabtatsiya hosil qilishlariga ham ko’mak beradi.O’tilgan darsni mustahkamlashda yoki yangi darsni boshlanishida ta’limiy o’yinlardan foydalanib o’quvchilarni qiziqishlarini darsga yanada oshirish mumkin. Interfaol ta’limiy o’yinlarning ahamiyati boshlang’ich ta’limda qo’llash yaxshi samara beradi. Ta’limiy o’yin boshlang’ich sinf o’quvchilarida ma’lum sifatlarni shakllantirish uchun o’qituvchilar tomonidan qo’llaniladigan usuldir. O’yin vositasi bilan o’quvchilarning bilimlarini o’zlashtirish jarayoni mustahkamlanadi, shuningdek bolalarda muomala madaniyati shakllanadi. Boshlang’ich ta’lim umumta’lim maktablarning podevori bo’lgani sababli ana shu jarayonda o’quvchi shahsining mukammal rivojlanib borishiga ko’proq e’tibor qaratish lozim. Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining vazifasi ma’suliyatli cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo’ygan o’quvchilarni maktab hayotiga ko’niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo’l ochib beradilar. Bolalarning o’qishiga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang’ich sinf o’qituvchilarining vazifasi ma’suliyatli ekanligini ko’rsatadi. Interfaol texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o’ziga xosligi shundaki, ular o’qituvchi va o’quvchilarning birgalikda faoliyati orqali amalga oshiriladi. O’qitish jarayoni o’qituvchi va o’quvchilarni o’z ichiga oladi. O’qituvchining faoliyati materialini bayon qilish, o’quvchilarning fanfa bo’lgan qiziqishlarini ortirish, fikrni teranlashtirish va e’tiqodini shakllantirish, o’quvchilarni bilim ko’nikma malakalarini tekshirish va baholash,o’z vaqtida o’quvchini rag’batlantirib borishdan iborat.

“To’g’ri- noto’g’ri o’yini”

T/R	Misollar	To’g’ri	Noto’g’ri
1	81:9=9	+	
2	72:8=10		+
3	54:6=9	+	
4	42:6=7	+	
5	28:4=8		+
Jami; 5 bal			

So’zlar tahlili ta’limiy o’yin

So’zlar	Asos	So’z yasovchi qo’shimchalar	So’zlarni o’zaro bog’lovchi qo’shimchalar
Gulchidan	Gul	Chi	Dan
Bo’zchini	Bo’z	Chi	Ni
Terimchining	Terim	Chi	Ning
Jami _____bal			

Maqsad; “To’g’ri – noto’g’ri”, “So’zlar tahlili” ta’limiy o’yini pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo’lib, u talim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (so’z) lar erkin, ochiq o’ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

Qo’llanishi; mazkur metod turi xil g’oyalar o’rtasidagi aloqalar ,fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi“To’g’ri – noto’g’ri”, “So’zlar tahlili” ta’limiy o’yini aniq obyektga yo’naltirilgan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miyya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog’liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mazmunning ta’lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o’zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo’lishini ta’minlaydi.

Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki, yosh avlodning ta’lim – tarbiyasini to’g’ri tashkil etish bugun har doimgidan ham ustuvor masala. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham ta’lim tizimida ilg’or pedagogik tehnologiyalarini joriy qilish va o’zlashtirish zarurligi ta’kidlanadi.Pedagogik tehnologiya o’quv jarayonini tehnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriyadir. Shu boisdan ta’lim – tarbiya jarayonida o’quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy – psixologik va do’stona muhitni yaratishning pedagogik shatr – sharoitlari vujudga kelgach, mazkur muhitni yanada mustahkamlash maqsadida fan asoslarini o’qitishda pedagogik tehnologyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. O’quv jarayonini quyidagi metodlar asosida olib boorish o’quvchi uchun an’anaviy darsni tashkil etish uslublaridan ko’ra samaraliroq natijalarga erishish jihatdan foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ona tili – 2 – sinf. (O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma) “Toshkent – 2015
2. www.ziyonet.uz.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA TASHKIL QILISH

Asqarova Gulhayo Baxtiyor qizi
Farg’ona viloyati Yozyovon tumani
27-maktabBoshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda interfaol usulda matematika darslarini o’quvchilarga yetqazish hamda matematik masalalarni innovatsion usulda o’qitish haqida fikr boradi.

Kalit so’zlar: Matnli masalar, matematik tushunchalar, arifmetik amallar, sodda masalalar, o’quvchilarning fikrlash qobilyati.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi. Kichik guruhlarda ishlash orqali o`rganish - ma’lum muammoning yechimini topishga va o`quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan darsdagi ijodiy hamkorlikdagi ish. Bosqichlari: guruhlarga bo`lish, muammoni guruhlarda muxokama qilish, muammoning yechimlari taqdimoti, xulosalash. Kichik guruhlarda hamkorlikda o`qitish Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o`quvchidan tashkil topadi. O`qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so`ngra o`quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O`quvchilarga berilgan o`quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o`quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o`quvchi o`zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o`rtoqlarini o`qitadi, so`ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O`qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O`quvchilarning kichik guruhlardagi o`quv faoliyati o`yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi. 1976-yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko`proq o`quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e’tibor qaratiladi. O`quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o`rganish lozim bo`lgan o`quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o`quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o`quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o`z hissasini qo`shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o`tkaziladi. Guruh a’zolari birgalikda ma’ruza tayyorlaydi va sinf o`quvchilari o`rtasida o`z ijodiy izlanishlari natijasini e’lon qiladi. Kichik guruhlar o`rtasida o`tkazilgan o`quv bahsi, munozara o`quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo`lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o`quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarni, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo`llanib, yangi bilimlarning o`zlashtirishiga bog`liq bo`ladi.

Mavjud bilimlar va fikrlash qobiliyatlar tadbiq qilinishi jarayonida mustahkamlanib boradi. Masalalarni shakllantirishda aniq material bo’lgan holda nazariyani amaliyot bilan o’qitishni turmush bilan bog’lab olib borish imkonini beradi. O’quvchi masalalarni yechayotganda ko’p matematik tushunchalar aniq hayotda odamlarning tajribasida o’z ildizi ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Interfaol ta’lim o`z xususiyatiga ko`ra didaktik o`yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o`z ichiga oladi .

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta’lim o`z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o`qitish, masofadan o`qitish, internet tarmoqlari asosida o`qitish, media – ta’lim metodlaridan iborat.

Boshlang`ich ta’limda o`quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko`ra didaktik o`yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo`llanilmoqda. Agar o`qitish jarayonida har bir o`quvchi o`zining o`zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta’minlagan bo`lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta’lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta’lim

jarayonlarini didaktik o`yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz:

Interfaol o`yinli metodlar o`quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o`quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Interfaol o`yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqlli) va harakatli hamda aralash o`yinlardan iborat. Bular o`quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko`nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi

Mashg’ulot oxirida bolalarga topishmoq, hikoya va masalani qaytadan tuzish uchun nima qilish kerakligini o’ylash taklif etiladi. O’rgatishning bu bosqichida birinchi mashg’ulotda bolalar qo’shish hamda ayirishga oid masalalarni echadilar, qo’shish va ayirishga oid masalalar ketma-ket tuziladi. Javobni sonlar o’rtasidagi bog’lanishdan va munosabatlarni tushunchaga asoslanib topadilar.

Xulosa o’rnida aytish lozimki, boshlang’ich sinflarda o‘tiladigan matematika darslarida turli xil masalarga keng joy ajratilgan. Sababi, boshlang’ich sinf o’quvchilarida mantiqiy fikrlash qobilyati uning tushunchalarni tezda anglab olish ko’nikmasini sahkllantirishda masalalarning o’rni beqiyos sanaladi. O’qituvchi esa dars jarayonida o’tiladigan masalarni o’quvchiga to’g’ri va aniq yetkazib berishda yuksak pedagogik mahoratga ega bo’lmog’i hamda darslarni qiziqarli o’yinli texnologiyalar orqali tashkil etib o’quvchilarni darsga qiziqtira olishi muhim omil sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.

2. Tolipov O‘.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: “Fan”. 2005.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TA’LIM METODLARINING AHAMIYATI

Axmadjonova Kamolaxon Numonovna
Farg’ona viloyati O’zbekiston tumani
2-son kasb hunar maktabi direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim sifat samaradorligini oshirishda o‘quv jarayoniga zamonaviy ta’lim metodlarini qo’llashning ahamiyati va bunda o’quvchilarning bilim salohiyati oshishiga ko’rsatadigan ta’siri haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: ta’lim, sifat, metod, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, davra suhbati, interfaol metod, shakl.

Ta’lim oluvchilar bilimi, ko‘nikmasi va malakalari zamon talablariga javob beradigan darajada bo‘lishini ta’minlash maqsadida pedagog xodimlarga yuklangan vazifalar nihoyatda salmoqli va mas’uliyatlidir. Bu vazifani ado etish uchun o‘qituvchilar qaysi turdagi ta’lim muassasasida mehnat qilishidan qat’iy nazar doimiy ravishda o‘z ustilarida mustaqil ishlashlari, malakalarini oshirib borishlari va ilmiy ijodiy izlanishlari zarurdir. Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarish majburiyligi nuqtai nazaridan ham o‘qituvchining kasbiy kompetentlik darajasi davr talabiga mos kelishi muammo yechimini ijobiy hal etilishini ta’minlashi shubhasiz. Ana shu maqsadda o‘qituvchilar tomonidan ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlarini keng qo‘llash zarurati mavjuddir. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.

Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Zamonaviy tilda bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi esa butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy ta’lim metodlarining ahamiyati juda katta. Bu metodlar aynan o’quvchilarning o’zlarini bir birlari bilan ishlashiga, faol bo’lishlariga undaydi. Quyida darslarning sifat samaradorligini oshirishda keng qo’llaniladigan ayrim ta’lim metodlari bilan tanishamiz.

Aqliy hujum metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar.

Kichik guruhlarda ishlash metodi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari

quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha birbiriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

· o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
· muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
· vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
· barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi.

Davra suhbati metodi: “Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. Davra suhbati metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.A.Muslimov va boshqalar. Innovasion ta’lim texnologiyalari. T., 2015
2. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
3. cyberleninka.ru

6-7 YOSHLI BOLALARDA O‘QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISH

Axmedova Maxsuda Islomovna,
Xolboeva Aziza Rustamovna
Navoiy viloyat Xatirchi tumani 4-umumta’lim maktab
Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi

Bolalarni maktabga tayyorlash ularda maktabga nisbatan ijobiy munosabat va o‘quv motivlarini shakllantirish ota-onalar va maktabgacha ta’lim muassasasi pedagoglari oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisining faoliyati bolada maktabga qiziqishni oshirish uchun quyidagi asosiy vazifani bajarishga yo‘naltiriladi. Bolalarda o‘qish va maktab haqidagi tasavvurni to‘g‘ri shakllantirish. Maktabda o‘qishga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni shakllantirish. O‘quv faoliyati tajribasini shakllantirish. Yuqoridagi vazifalarni bajarishda turli usul va shakllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bolalar bilan maktabga saèhat uyushtirish, maktab haqida suhbatlashish, maktab hayotiga doir hikoya va she’rlarni aytib berish va yod oldirish samarali usullardan hisoblanadi. Maktab hayoti va faoliyati aks ettirilgan rasmni tomosha qilish va ular haqida suhbat uyushtirish, maktab rasmini chizish ham bolalarni o‘quv faoliyatiga kirishishlariga turtki bo‘ladi. Bolalarga aytib beriladigan maktab haqidagi hikoya va she’rlar shunday tanlanishi lozimki, unda maktab hayotining hamma jabhalari yoritilishi hamda ko‘rsatilishi kerak. (Masalan: maktabga borayotgan bolaning xursandligi; maktabda olinadigan bilimning muhimligi va ahamiyati; maktab ta’limining mazmuni; maktabda o‘rtoqlik va do‘stlik hurmatini yuqoriligi; sinfdosh va maktabdoshlarga yordam berish zarurligi; dars va maktabda xulq-odobga rioya qilish qoidalari). Bunda bolalarga ―yaxshi o‘quvchi va ―yomon o‘quvchi obrazini ko‘rsatish mumkin. Bolalar bilan ijobiy va salbiy odob-axloq me’yorlarini solishtirishga doir mavzularda suhbatlar o‘tkazish kerak. Katta va maktabga tayyorlov guruh bolalari mazmunan qiziqarli, kulgili hikoyalarni ishtiyoq bilan tinglaydilar. Maktabga uyushtirilgan ekskursiyadan so‘ng hosil bo‘lgan tasavvurni mustahkamlash, maktabga hissiy munosabatni shakllantirish uchun turli xil o‘yinlar tashkil etish, o‘yin mazmunini ―Bilmasvoy roli orqali ifodalash mumkin. Bunda ―Bilmasvoy‖ o‘qishni xohlamaydigan, hammaga halal beradigan, belgilangan qoidalarga rioya qilmaydigan holatlarni tasvirlab beradi. O‘yin yakunida tarbiyachi bolalar bilan o‘yin jarayonini tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi.

Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarda o‘quv motivlarini shakllantirish oilada yaratilgan sharoitga bevosita bog‘liqdir. Yangi bilim olishga intilish; kitoblar va turli xil mazmundagi jurnallarga qiziqish ko‘nikmasi; maktabda o‘qishning ahamiyatini anglash; o‘zining ―istayman‖, ―kerak so‘zlariga bo‘ysuna olishi; boshlagan ishning oxiriga etkazish va mehnat qilish istagini hosil bo‘lishi; o‘zining ishidan qoniqish, ish natijasini taqqoslay olish ko‘nikmasi; xatolarini ko‘ra olish; muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish va o‘zini adekvat baholash-bularning barchasi maktabda o‘qishning asosiy motivlari hisoblanadi. Keltirilgan omillarning barchasi oila degan muhim yacheykada tashkil etilgan tarbiya va e’tibor orqali amalga oshiriladi. Agar oiladagi tarbiya noto‘g‘ri tashkil qilinsa, maktabgacha ta’lim muassasasida erishilgan barcha ijobiy natijalarning o‘zi kifoya qilmaydi. Bolalarga beriladigan o‘quv topshiriqlari bola uchun ―shaxsiy fikr‖ni yuzaga keltirishi lozim. Buning uchun bola faoliyatga kirishish, yutuqlarga erishishni o‘zi aniqlashi kerak. Tarbiyachi bolani topshiriqni to‘g‘ri va xatosiz bajarishga harakat qilishiga undashi lozim. Bolalarda o‘quv vazifalarini bajarishda ikki xil vaziyat yuzaga keladi: 1. Tarbiyachi ko‘rsatmasiga ko‘ra berilgan topshiriqni bajarish istagi. o‘zi uchun ya’ni shaxsiy sifatlarni tahlil qilish, topshiriqni yaxshi tushunish va nima qilish kerakligi, vazifani bajargandan so‘ng qanday natijaga erishish mumkinligini anglash. Bunday vaziyatlarning asosiy sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin. - Bola vazifani qabul qiladi va tushunadi (topshiriqni bajarishni xoxlaydi va tushunadi, nima qilish kerakligini biladi). - Bola vazifani qabul qiladi, lekin tushunmaydi (topshiriqni bajarishni istaydi, biroq nima qilish kerakligini tushunmaydi). - Bola vazifani qabul qilmaydi, lekin tushunadi (vazifani qanday bajarish lozimligini biladi, biroq bajarishni xoxlamaydi). - Bola vazifani bajarishni xoxlamaydi, nima qilish kerakligini tushunmaydi. Bolalarda o‘quv vazifalarini bajarish istagini yuzaga kelmaslik sabablarini aniqlash uchun o‘quv motivlarini paydo bo‘lganligiga e’tibor qaratish kerak. Bolaga topshiriq berishda aniq vazifalarni belgilab berish kerak.

1. Nima qilish kerak? (maqsadni to‘g‘ri qo‘yish).
2. Qanday qilish kerak? (bajarish uchun ko‘rsatma beriladi).

3. Nimaga erishish zarur? (natijaga erishish mezonlari beriladi).

Topshiriqni bajarib boʻlgandan soʻng bola bilan birgalikda olingan natija berilgan vazifa etaloniga mos tushganligi, kattalar bergan koʻrsatmadan foydalanilganligi va bajarilgan ishga umumiy baho beriladi. Kattalar bergan vazifa bolaning faoliyatini boshqarishga èrdam berishi, harakatlarini nazorat qilish va oʻzini olingan natijaga koʻra toʻgʻri baholashga yoʻnaltirishi lozim. Bolalarni muvaffaqiyatli ta’lim olishlari ularda oʻquv elementlarini anglashlari va oʻquv faoliyatini toʻgʻri bajarishlariga bogʻliq. 6-7 èshdagi bolalarda quyida oʻquv elementlarini yuzaga keltirish kerak.

1. Bolalarda ogʻzaki soʻzlashish, harflarni bilish va oʻqiy olish, soʻzlarni boʻgʻinga boʻlish, gap tuza olish, soʻz boyligi va toʻgʻri talaffuz qilish koʻnikma va malakasini shakllantirish.

2. Matematik bilim va tasavvurlar: - 10 gacha toʻgʻri va teskari sanash; - Sonlar xosil qilish, matematik masalalarni echish; - Geometrik shakllarni farqlash (kvadrat, aylana, uchburchak, toʻgʻritoʻrtburchak, oval); - Fazoni idrok qila olish (yuqori, past, oʻng va chap).

3. Oʻquv faoliyati koʻnikmasi: - Partada toʻgʻri oʻtirish; - Yozuv malakasi; - Oʻqituvchi topshirigʻini tinglay olish va bajarish koʻnikmasi; - Darsda oʻquvchi qoidasiga rioya etish odobi. Yuqoridagi oʻquv motivlari bolalarda shakllanmasa oʻqishning birinchi kunidanoq qiyinchilik yuzaga keladi. Shuning uchun ham maktabgacha ta’lim muassasasida mashgʻulot jaraènida bolalarni muntazam ravishda kuzatib borish talab etiladi. Tarbiyachilar ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarda xulq-atvor sifatlarini rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Ya’ni bolalarni kattalarni diqqat bilan tinglashga, berilgan topshiriqni oxirigacha eshitib keyin bajarishga oʻrgatish. Kattalar koʻrsatmasiga koʻra aniq harakat qilish, vazifani bajarish vaqtida tushunmagan èki èdidan chiqqan narsalarni soʻrash, kattalar bilan ijobiy kayfiyatda muloqot qilish koʻnikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq deb oʻylaymiz.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati

1.L.S. Metlina “Bolalar bog’chasida matematika” Toshkent. «O’qituvchi». Qo’llanma-1981
2.Sh.Boltayeva.“O’ynaymiz, o’ylaymiz, aqlimizni charxlaymiz” UICC «Uzincomcenter» MTM tayyorlov guruhlari uchun tavsiya Toshkent- 2002 yil.

FUN WITH BOARD GAMES

Axmetova Aliya Bagdawletovna
Qoroqolpog’iston Respublikasi Kegeyli tumani
9-IDUM Ingliz tili fani o’qituvchisi
aliyaaxmetova@gmail.com

Annotation: This article focuses on origin of the benefits of using board games in English classroom.

Key words: board games, Kids English, learning styles, socialization, communication.

Every teacher wants to engage and motive students through different games and activities. Because games bring fun to the class, they have educational purpose and they engage students with different learning styles. We have a lot of board games in our textbooks mainly in Kids English grade 2, 3, and 4. However we seldom use them in our classroom. This article looks through some board games in our textbooks and the benefits of using board games are discussed.

Jackie Gerstein, Ed. D in his article “Benefits of Using Board Games in the Classroom” mentioned following benefits of using board games in classroom.

- Increased communication
- Building social negotiation that are required of playing games together
- Increased socialization
- Reading and understanding procedural directions
- Experiencing joy inherently involved in play
- Developing critical thinking skills

Every individual has unique learning style, some are kinesthetic, some visuals and some are auditory learners. Board games cam address to every learner of different learning styles. Because while playing board games students see, hear and speak at the same time. Board games can be very good community-builders for primary students. They learn how to create short communication on different topics. There are several board games in Kids English text book:



These are the board games “Snakes and ladders” from Kids English 3 and “You like/don’t like” from Kids English 2. They are used to review the materials leaned during the whole unit.

Board games and programs that use board games have positive effects on various outcomes, including educational knowledge, cognitive functions, physical activity, anxiety, [and] ADHD symptoms. Additionally, board games were shown to contribute to improving these variables, enhancing the interpersonal interactions and motivation of participants, and promoting learning from the article “The effectiveness of intervention with board games: a systematic review”.

References:

1. Jackie Gerstein, Ed. D “Benefits of Using Board Games in the Classroom”
2. “The effectiveness of intervention with board games: a systematic review” by Shota Noda, Kentaro Shirotsuki, Mutsuhiro Nakao

MILLIY MAKTABLARDA RUS TILI FANINI O’QITISH METODIKASI

Baxromova Nigora Urinbayevna
FDU akademik litsey o’qituvchisi

Annotatsiya; ushbu maqolada maktablarda rus tili o’qitish va uning ahamiyati tahlil etilgan bo’lib, umumiy- uslubiy tavsiyalar ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: metodika,rus tili, til, o’quvchi, fan, ta’lim, dars, o’qituvchi mahorati.

Metodika nazariy va amaliy fan bo’lib, unda o’qituvchining mahorati, umumiy uslubiy tavsiyalarni muayyan ta’lim sharoitlariga moslash qobiliyati doimo katta ahamiyatga ega bo’ladi. Rus tilini o’rganish metodologiyasi turli madaniyatlarga xos bo’lgan baholash tamoyillariga ega bo’lgan, rus tilini chet tili sifatida o’qitish jarayonida pedagogik aloqada bo’lgan kommunikativ ko’p tilli shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Ta’lim jarayonini amalga oshirish usullarini tanlashda shuni esda tutish kerakki, o’qitishning universal usullari va usullari mavjud emas. Uslubiy usullarning har biri o‘zining afzalliklari va kamchiliklariga ega ekanligini hisobga olib, o‘qituvchi ulardan biriga ustunlik bera olmaydi, ularni tizimli, o‘zaro bog‘langan holda qo‘llaydi, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishida, malakasini oshirishda eng yaxshi natijalarga erishishga intiladi. , aqliy faoliyatni rivojlantirish. Shu bilan birga, usullarning har biri nafaqat umumiy va alohida usullarni, balki individual (mualliflik) usullarini ham o’z ichiga oladi va o’qituvchi ishining samaradorligi ularni tizimli qo’llashning oqilonaligi bilan belgilanadi. Ta’lim muassasalarida rus tilini o’qitish metodikasini ishlab chiqishda darsning hissiy yukini, tanlangan materialning qiymatini, uning ta’lim funktsiyalarini hisobga olish kerak.

Rus tili darslarida kognitiv va amaliy o’qitish usullari alohida va bir-biri bilan uyg’un holda qo’llaniladi. Ularning bir yoki bir nechta kombinatsiyasini tanlash bir qator psixologik, pedagogik, uslubiy va lingvistik shartlarga bog’liq.

Maktabda rus tili darslarini tashkil etishdagi katta kamchiliklardan biri shundaki, grammatika, imlo, tinish belgilari, ba’zan uslublar bir-biridan ajratilgan, butunlay mustaqil bo’limlar sifatida o’rganiladi. Rus tilini o’rgatishda to’g’ri amalga oshirilgan fan va fanlararo aloqalar katta rol o’ynaydi. Imloning o’zlashtirilishi ko’p jihatdan o’quvchilarning grammatika bo’yicha bilimlari bilan belgilanadi, shuning uchun imlo va tinish belgilari grammatika bilan bir vaqtda, ularning o’zaro bog’liqligida o’rganiladi. Morfologiyani o’rganishni sintaksisdan butunlay ajratib bo’lmaydi, chunki morfologiyaning ko‘pgina hodisalari (gap bo‘laklari, o‘zgarmas qo‘shimchalar va boshqalar) ham ma’lum sintaktik xususiyatlarga ega bo‘lgan hodisalar sifatida qaralishi kerak. Nutqni rivojlantirish bo’yicha mashg’ulotlar grammatika, imlo, tinish belgilari bo’yicha mashg’ulotlar bilan bog’liq holda olib boriladi. Maktab o’quvchilari rus tilining barcha darslarida, ayniqsa fonetika bilan tanishganda va ifodali o’qishni o’rgatishda to’g’ri talaffuzni o’rganadilar. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, talabalarning so’z boyligini boyitish uchun deyarli barcha rus tili darslaridan, shu jumladan imlo va grammatika darslaridan, ayniqsa grammatik tahlil mashqlari bilan mashg’ulotlardan foydalanish mumkin.

Rus tili darslarida ham, adabiyot darslarida ham o‘quvchilar nutqi va so‘z qo‘llanilishini to‘g‘rilash ishlari olib boriladi. Ularda va boshqalarda o’quvchilarning o’qishning ifodaliligi bilan bog’liq xatolarni nazorat qilish va tizimli ravishda tuzatish maqsadga muvofiqdir. На этих уроках надо обучать правильным и многообразным интонациям, свойственным русскому языку, например: перечислительной интонации при однородных членах предложения (в том числе и распространенных), предупредительной интонации при двоеточии, учитывать повышение голоса в бессоюзном сложном предложении при тире (Крикнет - лес задрожит) va hokazo [1].

Bunday mashqlar bilan bog’liq holda o’quvchilar uchun qiyin bo’lgan bir qator tinish belgilarini takrorlash va mustahkamlash mumkin.

Barcha o‘quv fanlari yaxlit va har biri alohida o‘quvchilar nutqini boyitadi, imlo ko‘nikmalarini mustahkamlashga, ayniqsa, yangi so‘z va atamalarning imlosini o‘zlashtirishga yordam beradi. Og’zaki javoblar, suhbatlar, muhokamalar nafaqat rus tili, adabiyoti va tarixi darslarida, balki geografiya, matematika, fizika, tabiatshunoslik va boshqa asosiy fanlarni o’rganishda ham o’quvchilarning og’zaki nutqini rivojlantirish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. .

Rus tilining o’quv predmeti sifatida ahamiyati uzoq vaqtdan beri e’tirof etilgan, chunki til

odamlar o’rtasidagi aloqa, aloqa vositasi - ma’lum bir jamoa (odamlar) a’zolari bo’lib, ularsiz insonning ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyatini tasavvur qilib bo’lmaydi. Rus tilining akademik fan sifatidagi ahamiyati ham shundan iboratki, unda bilim va malaka o’quvchilarga maktabda o’qitiladigan barcha fanlar bo’yicha bilimlarni muvaffaqiyatli egallash imkonini beradi. Ma’lumki, til va tafakkur chambarchas bog’liq; til darslari fikrlashni rivojlantirishga hissa qo’shadi. Ushbu darslarda talabalar doimiy ravishda mantiqiy kategoriyalardan foydalanadilar (taqqoslash, taqqoslash, muhim xususiyatlarni, hodisalarni tanlash, turli mezonlarga ko’ra tasniflash, umumlashtirish, isbotlash, xulosa qilish, tahlil qilish va sintez qilish kabi semantik munosabatlarni aniqlash, maqsadlarni belgilash, sabab va oqibatlar, shartlar , qarama-qarshilikning tabiati va boshqalar) Bularning barchasi mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, o’quvchilarning fikrlarini tartibga soladi, og’zaki va yozma nutqda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan semantik xatolarning oldini oladi.

Rus tilidagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarga tilning grammatik tuzilishi, lug‘aviy tarkibi va hokazolar haqida ma’lum miqdordagi zarur bilimlarni beribgina qolmay, to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki muhim ta’lim vazifalarini ham hal qiladi. Rus tili fan sifatida boshqa fanlarga nisbatan o’ziga xos xususiyatlarga ega: - talabalarni asosiy aloqa vositalariga o’qitishni ta’minlaydi; - katta kognitiv ahamiyatga ega, chunki u talabalarga voqelikning eng muhim jihatlaridan biri - tilning tarixan shakllangan ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo’lishi va hayoti haqida bilim beradi; - o‘quv vazifalarini boshqa o‘quv fanlari bilan birgalikda bajaradi. IV-VIII sinflarda rus tilini o’qitish mazmuni ushbu fanni o’qitishning maqsad va vazifalari, uning o’ziga xos xususiyatlari, tilshunoslik fanining ma’lumotlari, o’quvchilarning boshlang’ich sinflarda egallagan bilim va ko’nikmalar darajasi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lvov M.R., Ramzaeva T.G., Svetlovskaya N.N. Boshlang’ich maktabda rus tilini o’qitish metodikasi. 2 -nashr, Qayta ko’rib chiqilgan - M.: Ta’lim, 1987.
2. Lvov M.R. Rus tili metodikasi bo’yicha lug’at-ma’lumotnoma. Darslik. talabalar uchun qo’llanma. in-tov maxsus. 2101-sonli “Rus. til. yoki T. “. - M.: Ta’lim, 1988

MAKTABLARDA BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI O`QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

Bekchanova Gulbahor Qurbondurdiyevna
Abduraxmonova Shoxida Yangiboyevna
Xonqa tumani 32-sonli maktabning
boshlang’ich ta’lim o’qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqola umumta`lim maktablarda boshlang’ich sinf o’quvchilarini o`qitishda interfaol metodlarning o`rni haqida bayon qiladi. Bunday metodlardan foydalanib dars jarayoni olib borilganda o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishi yanada oshadi va ko`proq samara beradi.

***Kalit so`zlar*:** interfaol metod, ona tili, adabiyot, o`quv jarayoni, innovatsiya.

Interfaol o’qitish – muloqotli o’qitish bo’lib, jarayonning borishida o’qituvchi va o’quvchi orasida o’zaro ta`sir amalga oshiriladi. Interfaol o’qitishning mohiyati o’quv jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, unda barcha o’quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo’lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo’ladilar.

Darslardagi interfaol faoliyat o’zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyati nazorat topshiriqlarini birgalikda yechishga olib keladigan muloqotli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko’zda tutadi.

Interfaol metodlardan foydalaniladigan o’quv jarayonida o’quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarini va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni echishga, alternativ fikrlarni chamalab ko’rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, bahslarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga o’rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o’yinlar, ijodiy ishlar qo’llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi.

Quyida bir qator interfaol metodikalarning tavsifi va mohiyatini keltiramiz:

“Aqliy xujum” metodi. Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo’llaniladigan metod sanalib, u mashg’ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o’z tasavvurlari va g’oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko’nikma hamda malakalarni xosil qilishga rag’batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg’ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug’iladi.

“Bumerang” texnologiyasi. Ushbu metod o‘quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotga ega bo‘lish hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

“Zinama-zina” texnologiyasi. Ushbu metod o‘quvchilarni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu metod o‘quvchilar bilan yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi va taqdimot qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’limda ko’plab innovatsion usullar samarali bo’lib, ayniqsa ta’limda aniq maqsad qo’yish yoki fanlararo bog’lash, aniq maqsadga erishish ko’p foydali xisoblanadi. «Maqsadli yondashuv» uslubi ta’limda o’quvchilarni ijodiy fikrlashga, fanning mazmun mohiyati va maqsadini o’rgatadi. U nafaqat o’quv-bilim faoliyatini tizimlashtiradi, jadallashtiradi, balki ta’lim oluvchilarning umumiy madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi, predmetlararo bog’lanish tufayli maqsadlar turli darajada namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farberman. B.L . “Ilg’or pedagogik texnologiyalar”. T: 2001 y.
2. Hasanboyev J., To’raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug’at. T.:Fan va texnologiya, 2009.-b.348.
3. R.Ikromov va boshqalar Ona tili 4-sinf,, T.:“O’qituvchi”, 2017-yil
4. Safo O. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. T.: O’qituvchi. 1997.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH JARAYONI

Bekmurodova Muhayo Bomurodovna
Navoiy viloyati Konimex tumani
16-son maktabning boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilariga savod o’rgatish jarayoni to’g’risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: alifbo, analitik-sintetik, tovush, yozuv, metod, ko’nikma, malaka, o’qish, yozish, davr, faoliyat.

Maktabda o’qitish elementar o’qish va yozishga o’rgatishdan boshlanadi.

“Alifbe”ga asoslangan holda qisqa muddatda o’quvchilar o’qish, yozishga o’rgatiladi, so’ng o’qish va yozish ko’nikmasi takomillashtiriladi, bora-bora malakaga aylantiriladi. O’qish va yozish malakasi nutq faoliyatining boshqa turlari bilan ham bog’liq. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha marta takrorlanishi mumkin.

Yozuvda o’quvchi tovushni harfga, o’qishda esa harfni tovushga aylantirishdek murakkab aqliy faoliyatni bajaradi. Bu faoliyat doimiy ravishda yuz berishini nazarda tutib, o’qish va yozish parallel olib boriladi.

O’zbek tili yozuvi uchun 1993-yil lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har tovushi uchun yozuv unga mos shakl qabul qilindi. O’qituvchi savod o’rgatish jarayonida o’quvchilarga tovushlar haqida ma’lumot berishda o’zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o’rgatish analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi. So’z bo’g’inga ajratiladi, bo’g’indan kerakli - o’rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o’rganilgan harf bilan sintezlanadi. Analitik-sintetik (tahlil- tarkib) tovush metodida savod o’rgatish jarayoni 4 oy davom etadi. Bu jarayon quyidagi 2 davrga bo’linadi:

a) alifbogacha tayyorgarlik davri (2 hafta);

b) alifbo davri (31 dekabrgacha davom etadi).

Alifbogacha tayyorgarlik davri. Bu davrning asosiy vazifasi o’quvchilarni maktab, sinf, tartib-intizom qoidalari va o’quv qurollari bilan tanishtirish, nutq o’stirishga oid mashqlar o’tkazib, fonematik eshitishni o’stirishdan iboratdir.

Alifbogacha tayyorgarlik davri, o’z navbatida, quyidagi 2 bosqichga bo’linadi: 1. Harf o’rganilmaydigan bosqich (1hafta).

2. Unli tovush va harf o’rganiladigan bosqich (1 hafta).

1-bosqichda o’quvchilarga og’zaki va yozma nutq haqida, gap, so’z, bo’g’in va tovushlar haqida, nutqning gaplardan, gaplarning so’zlardan tuzilishi, so’zlarning bo’g’inlarga bo’linishi, bo’g’inlarning tovushlardan tashkil topishi haqida ma’lumot beriladi, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o’rgatiladi, ulardan amaliy foydalana bilish ko’nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda maxsus nusxalar asosida o’quvchilarning bog’lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga “Alifbe” da berilgan rasmlar asosida hikoyalar tuzdirishdan tashqari, o’zlari bilan she’r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, xalq ashulalari, alla, qo’shiqlar, latifalardan ayttiriladi.

Tayanch so’zlar asosida gap tuzdirish, “Alifbe” sahifalaridagi so’zlarning talaffuzi, o’qilishi va ma’nolari ustida ishlash kabi ishlar uyushtiriladi (Bu tarzdagi ishlar har bir darsda mavzularga bog’liq ravishda izchil davom ettirib boriladi).

Bu bosqichdagi yozuv darslarida o’quvchilar yozuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtirib, harf elementlarini yozishga o’rgatiladi, ularda namunaga qarab grafik xatolarni aniqlash – o’z-o’zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish, chamalab yozish kabi ko’nikmalar hosil qilinadi.

2-bosqichda unli tovush-harflar o’rgatiladi. Bunda ularning quyidagi uch xususiyatini o’quvchilar amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim: a) talaffuzda (og’zida) to’siqqa uchramasligi; b) cho’zib aytilishi; d) faqat ovozdan tashkil topishi. Shuningdek, bu bosqichda tovush bilan harfni farqlashga o’rgatish ko’zda tutiladi. Ushbu bosqichdanoq tovush va harf o’rtasidagi chegaraga qat’iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush haqidagi ma’lumotlar kitob ochtirilmay beriladi. Tovushni ifodalovchi harf ko’rsatilgach, harf ustida ishlanadi. Tovush va harfga oid o’ziga xos xususiyatlar (tovushlarni talaffuz qilamiz, eshitamiz; harflarni yozamiz, ko’ramiz, o’qiymiz) ham izchil ravishda o’quvchilarning o’zlashtirishlarini hisobga olgan holda sekin-asta tushuntirila boriladi.

Alifbo davri. Bu davr 31-dekabrgacha davom etib, unda o’quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh-harflar bilan tanishtiriladi. Undoshlar osondan qiyinga tamoyili asosida joylashtiriladi. Oldin sonor tovushlar (n, m, l kabi), keyin esa sirg’aluvchi va boshqa undoshlar (ng, sh, ch), tovush bildirmaydigan tutuq belgisi (‘) bilan tanishtiriladi.

O’quvchilarni o’qishga o’rgatish bo’g’in asosida olib boriladi. O’qishning dastlabki bosqichida orfografik o’qishdan foydalanilsa sekin-asta orfoepik o’qish ko’nikmalari shakllantiriladi. Bo’g’inlab o’qishga o’rgatish uchun so’zni bo’g’inga bo’lish, bo’g’in hosil qiluvchi tovushni aniqlash, ochiq-yopiq bo’g’inlarni farqlashga o’rgatish muhim sanaladi.

O’qish ham yozish ham murakkab nutq faoliyati. U kichik yoshdagi o’quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi. O’qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o’quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkurini va nutqini o’stirishga katta e’tibor berish kerak.Savod o’rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o’stirish, to’g’ri va aniq talaffuz qilishga o’rgatish, tovushni ajratish ko’nikmasini o’stirish muhim sanaladi.

Yozuvga o’rgatish o’quvchilar ruchkani to’g’ri ushlash, daftarni to’g’ri qo’yish, harfni yozishda yozuv chiziqlari e’tibor bilan boshlanadi. Ular bo’ylab qo’lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga ulashi, qatorga sig’ish-sig’masligi mo’ljallanishi lozim. Bular o’quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, barmoq va yelka muskullari charchaydi, bular darsda ikki-uch marta fizkultura mashqlarini o’tkazishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o’qitish metodikasi.
2. Gaffarova T. va boshqalar. 1-sinfda o’qish darslari
3. Safarova R. va boshqalar. Savod o’rgatish.
4. X.Ibragimov va boshqalar. Pedagogik psixologiya.

MAKTABLARDA MATEMATIKA FANINING INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA O’QITILISHI

Berdimuratova Sevara Sultonboyevna
Xorazm viloyati Urganch shahar
19-IDUMning matematika fani o’qituvchisi
Miskinova Ro’za Shamurotovna
Xorazm viloyati Urganch shahar
19-sonli IDUMning matematika fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktablarda matematika fanining innovatsion yondashuv asosida o’qitilishi yoritilib berilgan.*
Kalit so’zlar: *Ta’lim maqsadlari, o’quv jarayonlari, matemaika.*

Matematikani o’qitish muammosi barcha davrlarda dolzarb bo’lib kelgan. Bugungi kunda ham, ayniqsa matematik savodxonlik layoqatini shakllantirish, matematik tafakkurni shakllantirish, fanlararo bog’liqliklarni ta’minlash dolzarbligicha qolmoqda. Bu muammolarni qanday qilib yechish mumkin, degan savolga albatta har bir darsni maqsadli tarzda soddadan hayotiylikka qarab harakatlantirish kerak. Biz bilamiz, matematika fanining o’rganadigan narsasi hayotimizdagi mavjud narsalarning fazoviy shakllari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir.

Matematikani o’rganish o’quvchilarning o’z ona tillarida xatosiz so’zlash, o’z fikrini aniq, ravon va lo’nda qilib bayon eta olish malakalarini o’zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so’z, o’quvchilarning har bir matematik tushuncha va qoidalarning ma’nolarini ona tillarida to’g’ri talqin qila olishlariga erishishdir. Shu bilan birga qoidalarning matematik ifodasini formulalar yordamida to’g’ri yoza olish qobilyatilarini shakllantirishga erishish kerakligini bildiradi.

O’quvchilarning ilmiy dunyo qarashlarini matematik tafakkurini, matematikaga bo’lgan qiziqishlarini hamda matematik madaniyatlarini shakllantirsh uchun, albatta matematika darslarida o’rganiladigan har bir matematik tushunchalar va ular orasidagi qonuniyatlarni atroflicha o’rgatish lozim bo’ladi. Matematika kursidagi har bir matematik xulosa qat’iyatlikni talab qiladi, bu esa o’z navbatida juda ko’p matematik tushuncha va qonuniyatlarni bosqichma –bosqich o’rganishlari davomida ilmiy mantiqiy tafakkur qilishlar rivojlanadi.

Matematika fanini o’qitish jarayonida masala va misollarning roli va o’rnini quyidagi uchta bosqichda olib boorish maqsadga muvofiqdir.

1) Matematika fanining nazariy qismlarini o’rganishni matematik masalalarni yechish orqali amalga oshirish.

2) Matematika fanini o’rgatishda matematika masalalarni yechish bilan birgalikda olib boorish.

3) Matematikani o’rganishni misol va masalani yechish orqali amalga oshirish. Shuni alohida qayd qilish kerakki, tanlangan masalalar sistemasi ma’lum metodik talablarni qanoatlantirish kerak; Barcha tanlangan masalalar sistemasi, shuningdek har bir masalaning aniq didaktik maqsadini aniqlashi; Murakkablashishning ketma-ketligi; Tanlangan masalalar sistemasi barcha ko’rinishdagi masalalarni (hisoblashga, yasashga, isbotlashga va tekshirishga oid) o’z ichiga olmog’i lozim. Bu esa bir masalani turli usullar bilan yechishga yordam beradi.

Masalan, mavzuni tushuntirishda misolning rolini, o’qituvchi ikki burchak yig’indi va ayirmasi sinuslari mavzusini tushuntirganda quyidagi ayniyatdan foydalanishi, o’quvchining mavzuni ongida yanada mastahkamlashidan ham ko’rishimiz mumkin. Matematika fanining o’rganadigan narsasi (ob’ekti) materiyadagi mavjud narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iborat.

Matematikani o’rganish jarayonida inson tafakkurining usul va metodlari qatoriga induktsiya va deduktsiya, umumlashtirish va aniqlashtirish, analiz va sintez, abstraktsiyalash, analogiya, tasniflash va sistemalashtirish kabilar qo’shiladi.

Matematikani o’rganishda o’quvchilar o’zlarining fikr, mulohazalarini aniq va tugal, lo’nda va mazmunli bayon qilishga, matematik yozuvlarni tushunarli, batartib, bajarish malakalarini egallaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005.
2. Фарберман Б.Л. Передовые педагогические технологии. -Т.: Фан, 2000.

MAKTABDA BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI O’QITISHDA FSMU YANGI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

Bobojonova Roziya Musayevna
Tojimurotova Xoljon Bekturdiyevna
Xonqa tuman 32- maktab
“Boshlang’ ich ta’ lim” o’ qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’quvchilarga ta’lim–tarbiya berishda kasbiy mahoratini, iste’dodi, tajribasi va madaniyati FSMU pedagogik texnologiyalarini qo’llashi, o’quvchilarni o’zaro faolikka olib kelishiga bog’liqligi haqida fikirlar keltirilgan.

Kalit so’z: interfaol, ta’lim, kasbiy, FSMU texnologiyasi ,o’quvchi, til.

Ta’lim sifatini oshirishda berilayotgan materialning eng so’nggi ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanganligi, har jihatdan tajribadan o’tkazilib amalga tadbiq etilganligi muhim, albatta. Lekin ta’lim sifati ushbu o’quv materialining qanchalik o’zlashtirilishi bilan belgilanishi ham tabiiy. O’quv materialini samarali o’zlashtirilishiga esa bir qator omillar ta’sir qiladi. Mazkur omillar qatorida ta’lim beruvchining pedagogik qobilyati, zamonaviy axborot vositalari ham pedagogik texnologiyalardan qay darajada foydalana olishi kabilarni ham sanab o’tish mumkin. SHuning uchun ham ta’lim jarayonidagi ishtirok etuvchi ta’lim beruvchilarni pedagogik qobilyatini doimiy ravishda sayqallab borish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini ta’lim jarayoniga yanada keng joriy etib borish tobora muhim ahahamiyatga ega bo’lib bormoqda.

FSMU texnologiyasi – 4 bosqichli yozilgan qog’oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda tarqatiladi.

Bunda:

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringiz bayoniga sabab ko’rsating.

M – ko’rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

O’qituvchi tinglovchilar bilan bahs mavzusini belgilab oladi.

Yakka tartibdagi ish tugagach, tinglovchilar kichik guruhlarga ajratiladi va o’qituvchi kichik guruhlarga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog’ozlarni tarqatadi.

Kichik guruhlarga har birlari yozgan qog’ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo’yicha yozishlari taklif etadi.

O’qituvchi kichik guruhlarning yozgan fikrlarini jamoa o’rtasida himoya qilishlarini so’raydi. “Sintaksis, ohang va tinish belgilari” mavzusi bo’yicha fikrlaringizni bayon qiling.

F – Sintaksis, ohang va tinish belgilari o’ziga xos grammatik xususiyatga ega.

S – Sintaksis, ohang va tinish belgilari mustaqil so‘z turkumlariga mansub bo‘ladi. Masalan, kitob o‘qimoq, maktabga bormoq. Lekin ukam uchun, telefon orqali birikuvlari ikkinchi so‘zlari mustaqil so‘z bo‘lmaganligi uchun so‘zlarning bog‘lanishiga misol bo‘la olmaydi;

M – Sintaksis, ohang va tinish belgilari bor so‘zlarning ma’nolari o‘zaro mos bo‘lishi lozim. Masalan, oyna so‘zining ma’nosi sinmoq so‘zining ma’nosiga mos. Ammo randalamoq, uzilmoq so‘zlariga mos emas. Shuning uchun nutqda ma’nosi mos bo‘lmagan so‘zlarni bog‘lash xato bo‘ladi;

U – Sintaksis, ohang va tinish belgilari bor so‘zlarni bog‘lovchi qo‘shimchalar ham o‘z o‘rnida bo‘lishi kerak. Masalan, Toshkentda yashayman, ukamning daftari birikmasida qo‘shimchalar to‘g‘ri qo‘llangan. Lekin Toshkentga yashayman, ukamni daftari birikmasida qo‘shimcha noto‘g‘ri qo‘llangan.

So‘zlarning gapdagi bog‘lanishi sintaktik aloqa, sintaktik aloqani o‘rganuvchi bo‘lim sintaksis deyiladi.

Tovushlardan so‘z va qo‘shimchalar, so‘z va qo‘shim-chalardan gap hosil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.A. G’ulomov, M. Qodirov “Ona tili o’qitish metodikasi”, Toshkent., 2001 yil.

2. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1998. –b. 57.

PUPILS ARE WORKING ON THE TEXT AND LEARNING DIFFERENT STRATEGIES IN ENGLISH LESSON

Boboqulova Madina Mirzohid qizi
Qo’qon universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich talabasi
m4563470@gmail.com

Annotation: The article is about how pupils knowing reading strategies in English language lessons. There are many strategies, students and pupils use them . When students or pupils are given a purpose for their reading, they are able to better comprehend and make meaning of the ideas in the text You can use this strategies skimming skinning and intensive reading and during this article pupils learning other ways.

Key words: skimming, skinning, intensive reading, multiple choice, matching headings, reading details, argumentative text, persuasive, instructive, narrative expository.

Nowadays learning any language is becoming popular among teenagers and adults. You know that:“Language is the dress of thought“. Only in some cases students come across difficulties with reading texts. In other words, improving our thoughts and learning reading strategies. Learning English devided into several parts:speaking, reading, writing, listening. All of skills are important for learning English but I more interested in reading. Books really are your best friends as you can rely on them when you are bored, upset, depressed, lonely or annoyed. A text can come in any form and any kind of writing. When reading something It helps to know why it has been written. According to the purpose of the text, we can differentiate the following types:descriptive texts create avivid picture of aperson; Narrative texts tell a story

Argumentative texts evaluate a problem Instructive texts tell you how to do something Informative texts prove information about something. A text may come in one of many different forms:an article, a story, a letter, an advertisement, a shopping list, etc. We can use different reading strategies to help you work with the text: Skimming is useful when we want to survey a text to get a general idea of what it is about. In skimming you ignore the details and look for the main idea. Scanning is used to find a particular piece of information. You run your eyes over the text looking for the specific piece of information you need like names, dates, years, name of places, time, etc. Intensive reading is used to extract specific information. It includes v ery close accurate reading for detail. Now we will check your knowledge you can find out reading strategies; A lesson timetable (scaning) A postcard(skimming) An English grammar book(Intensive reading). In some cases we can use this strategies matching headings to paragraphs or passeges. Matching headings is a task based on skimming (understanding the main idea of a text). Common problems with this kind of task are: It seems that there is too much information to get through and not enough time; Some text takes try to match a word or words from the heading to a word or words in the text; Don‘t forget my dear pupils you are not expected to read every word of the text. This will take too long and you don‘t have time for this. In this kind of questions, you are only expected to understand the main idea of each paragraph. Use skimming strategies to quickly get the main idea of each paragraph. If you find a word you don‘t understand ignore it you are looking for meaning of paragraph, not words. However, don‘t go too quickly this may lead to you not understanding most of the text and making mistakes. It is better to do this a little slower and actually understand what is in front of you. Be aware of synonyms. Many test takers look for words that match exactly with words in the passages and ignore synonyms for example, a keyword in the heading might be ―Beautiful‖, however the word you‘re looking for could be many different synonyms of ―beautiful‖- ―attractive‖, ―pretty‖, ―lovely‖, ‖stunning‖ ―very‖-―extremely‖, ―truly‖, ―greatly‖, ―notably‖, ―profoundly‖ ―also‖- ―in addition to‖, ―besides‖, ―moreover‖, ―as well as‖, ―furthermore‖ and ect. If there are two or three headings that look similar, write them beside the paragraph and try to find out the difference between the headings, look for words that are special to that heading. If you still can‘t decide which one suits best, move on and come back to it later. Multiple choice – as the name suggests these have three or four possible answers, and you have to choose the correct one. Sometimes it is a direct question, sometimes it is an incomplete statement, like in the example below:

According to the writer, ―bridge‖ jobs
A tent to attract people in middle-salary ranges.
B are better paid than some full-time jobs.
C originated in the United States.
D appeal to distinct groups of older workers.

When answering multiple-choice questions, it‘s better to focus just on the question at first, without looking at the options, and try to find the answer yourself by looking at the text. Then, you can compare the answer you‘ve found with the options and choose the one that you think is closest. If it‘s an incomplete statement, like in the example above, it‘s a good idea to turn it into a question. So‘according to the writer, ‘bridge jobs‘‘? Doing this can make it easier to find the answer. To sum up many pupils and students use this notes every day. Implementing these strategies can make a tremendous difference for readers and those who are committed to improving reading outcomes. Skills need to be integrated in all instruction as the goal is for our students to utilize their learning in the real world.

LIST OF AUTHORS

1 Teaching and learning strategies
2 Resourse Library/Teaching Strategies; English teacher
3 Exam skills for learners of English Komil Djalilov Abdullayeva M;2016

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INNOVATSION YONDASHUVNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Boboqulova Madina Mirzohid qizi
Qo’qon universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich talabasi
m4563470@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda innavatsion yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘quvchilarini darsga qiziqtirish maqsadida interfaol metodlarda foydalanish,zamonaviy dunyoqarashni rivojlantirish muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Davlat ta’lim standartlari, ta’lim sifati va samaradorligi,innavatsion usullar.

Bugun boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga nisbatan qiziqish ortgan.Kasbiy maxoratini davomiy oshirish natijasida ko‘pchilik o‘qituvchilar dars jarayonida turli pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishadi.Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘quv jarayonida kompyuterdan foydalanib quyidagilarga erishishi mumkin:

- ta’lim samarasini oshirish, o‘quv materialini o‘zlashtirish sifatini ko‘tarish, turli o‘zlashtirish darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish,
- turli qobiliyat va imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan bir vaqtda muloqot qilish, shuningdek axborot texnologiyalarining yo‘nalishlaridan unumli foydalanish ta’lim sifatining oshishida juda qo‘l kelmoqda. Kelajak ustunlari bo‘lgan yosh avlodni vataniga mehr-muhabbat,xalqiga sadoqat, oilaparvar, kuchli-baquvvat, ziyoli, go‘zal xulqli qilib tarbiyalash va ilm berishda biz pedagoglar bor kuchimiz va mehnatimizni ayamaymiz zero,boshlang‘ich ta’lim-kelajak ostonasidir.Umumta’lim maktablarida interfaol usullarni qo‘llash,ta’lim sifati va samaradorligini ko‘tarish,darslarda o‘quvchilar faolligini oshirish,takomillashtirilgan standart va moderinizatsiya qilingan dasturlarni o‘zlashtirishni kafolatlash, o‘quvchini faollikka, erkiṇfikr yuritishga o‘rgatish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga erishtirish uchun nima qilmoq, qanday choralar ko‘rmoq kerak?

Faollik o‘zi nima?

Faollik- bir maqsad yo‘lida aqliy, jismoniy va boshqa harakatlarni tez va unumli amalga oshirishga intilish.

Muammolarni hal qilish uchun o‘qituvchi faoliyatini innovatsion asosda qayta ko‘rib chiqish hamda interfaol ta’limni yo‘lga qo‘yish dolzarb bo‘lib qolmoqda.Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo‘nalish-pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash,g‘oyalarining paydo bo‘lishi natijasida o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo‘nalish paydo bo‘ldi. Davlat ta’lim standartlarining to‘la o‘zlashtirilishini kafolatlash shu kundagi eng dolzarb,kechiktirib bo‘lmas vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.O‘yinlar bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo‘lish, jasur, qat’iyatli bo‘lish,qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatlarning tarkib topishida yordam beradi.O‘yin orqali bola jamoani tushunadi.Biz o‘qituvchilar buni hisobga olib, darslarga o‘yin elementlarini kiritishimiz va undan ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanishimiz lozim:

-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darsga qiziqishini oshiradi;
- ta’limda ko‘rgazmalilikni eng asosii hisoblanadi;
- o‘quvchi bir paytda ko‘radi,eshitadi ,o‘quvchiga kengroq hajmdagi materiallarni tezroq qiziqarliroq qilib bayon eta oladi;
-o‘quvchining taffakkur faoliyatini tobora yaxshilaydi;
-dars jarayonini jonli va muloqotli olib borish imkoniyatini yaratadi;
-o‘quvchida mustaqiḷfikrlashni rivojlantiradi;
-tanqidiy fikrlashni o‘rgatadi;

Navoiy shahridagi 19-sonli maktabning 2-”a”sinḟo‘quvchilarini o‘qitishda turli innovatsion usullardan foydalanib, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda darsni turli fanlar bilan birga bog‘lab olib boriladi.Masalan:dars boshida ingliz tilidagi oddiy so‘zlar orqali suhbat uyushtiriladi. O‘qish darsida yangi mavzuni nomini aniqlash uchun “Sonlar tilsimi” metodida misollarni javobi orqali alifbo tartibida joylashtirilgan harflarni topib yangi mavzuni nomini keltirib chiqaramiz. O‘quvchilarni tabiatga mehr uyg‘otish maqsadida o‘quvchilari asalarii

shoxchalarini kiyib olib guruhlarga bo‘linib, har bir guruh o‘z inlariga asal top’lashi kerak bo‘ladi. Dars yanada qiziqarli bo‘lishi uchun o‘qituvchi Ona asalari bo‘lib dars o‘tishi o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.O‘quvchilarni baholashda ularni yosh xususiyatlarini xisobga olgan holda rag‘bat gullaridan foydalanib “Onamga tabriknoma yasayman” metodi orqali baholash ham o‘quvchilarni tengdoshlari orasida o‘zini namoyish qilishga undaydi.O‘quvchilar uchun o‘z tengdoshlari oldida o‘zini ko‘rsatish, nimalarga qodirligini isbotlay qolish juda muhim qirra hisoblanadi.Buning uchun ularga imkoniyatlar yaratish zarur.Har oyning oxirgi haftasida “Yutuqlar kuni” ham e’lon qilinib, o‘quvchilar oy davomida erishgan yutuqlariva ijodiy ishlari namoyish qilinadi va rag‘batlantirib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1.Boshlang‘ich ta’limda innavatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari.43070 library ziyonet.uz.Toshkent, 2012.

2.Boshlang‘ich ta’lim jurnali 2018-2019-yillar.

TARBIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Boboxonova Muyassar Ro’zimurodovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 6-sonli
umumta’lim maktabi tarbiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Tavsiyada tarbiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati bo‘yicha ayrim tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiyalar, uslublar, mezonlar, interfaol metodlar..

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g‘oyasi Respublika Konstitutsiyasida e’tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko‘tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o‘rin egallashga yo‘naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo‘lishi eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o‘rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, jismoniy, ma’naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog‘liqdir.

O‘qituvchilar o‘qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, mashg‘ulotlar o‘tkazishga tayyorlanishi, turli o‘quv qurollaridan samarali foydalanishi hamda o‘quv rejasi va dasturlarini metodologiyasini ochib berishi lozim. Biroq, shuni unutmaslik lozimki, o‘qitish va o‘rgatish jarayonlarini boshqarish, mavjud o‘quv vositalaridan samarali foydalanish va o‘quv mashg‘ulotarida o‘quvchilarga imkon qadar manfaatli bo‘lishini ta’minlash va shu kabi boshqa ko‘pgina vazifalar o‘qituvchining zimmasiga to‘liq yuklatiladi. Hozirgi kunda barcha pedagoglar singari tarbiya o‘qituvchilariga ham darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarni tarbiyasi va bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Tarbiya o‘qituvchisi o‘quvchilarning muayyan shart-sharoitlari darajasini bilsagina, ularning bilish va o‘rganish faolligini oshirishga erisha oladi.

Buning uchun o‘quvchilarning interfaol o‘quv mashg‘ulotga tayyorlash, o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirib olishlari, hamda o‘quv mashg‘ulotiga tayyorlanib kelishlari, dars jarayonida o‘qilgan yoki tinglangan matn yuzasidan muhokamalar o‘tkaza bilishlari, ijodiy , amaliy xarakterdagi topshiriqlarni osonlikcha bajarishlari zarur. Ta’lim jarayoni faqat o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan jarayon emas, u o‘quvchilar faoliyati bilan ham chambarchas bog‘langan. O‘quvchining o‘z-o‘zini boshqarishi natijasida o‘quv jarayoni faollashadi. 1.O‘quvchilarni mavzularni chuqur o‘zlashtirilishi;

2.O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni nazorat qilishning qulayligi

3.O‘quvchilarni qisqa vaqt ichida ko‘proq malumot olishi

4. O‘quvchilarni ko‘nikma va malakalarini maksimal rivojlanishi ,

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalari rivojlanadi, o‘quvchilar orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma.

2.Internet saytlari va darsliklar.

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARGA BO’LADIGAN MA’NAVIY HUJUMLARNI OLDINI OLISH

Karimjonova Shaxnoza Malikovna
Farg’ona viloyati Yozyovon tumani
27-maktab Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Globallashuv davrida yoshlarning ongini egallashga amalga oshirilayotgan ma’naviy, axborot hujumlaridan bolalarimizni himiya qilish hamda ularni ma’nan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazishda ota-onalarning o’rni haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so’zlar: Globallashuv, ma’naviy hurujlar, axborot, “Tik-tok” , “Like”, “Facebook”, “Telegramm”, “Ommaviy madaniyat”, Qozoqboy Yuldashev.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlar masalasi, yoshlarning ongi va shuurini egallash uchun tinmay kurashlar avj olmoqda. Darhaqiqat, XXI asr axborot asri, shunday ekan biz istalgan ma’lumot va axborotlarni internet tarmoqlari orqali olishimiz mumkin. Bu axborot hoh ijobiy bo’lsin, hoh salbiy. Axborotni izlash esa inson madaniyati hamda uning dunyoqarashiga bog’liq bo’ladi.

E’tibor berib qaraydigan bo’lsak, bugungi yoshlar, ko’p hollarda endigina rivojlanayotgan maktab yoshidagi bolalarda ushbu jarayonning aksini ko’rishimiz mumkin. Masalan, hozirda yoshlar orasida keng ommalashib borayotgan ijtimoiy tarmoqlar, xususan, “Tik-tok” , “Like”, “Facebook”, “Telegramm” va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda ko’pincha kichkina bolalarning faolroq ekani gapimizning isboti bo’la oladi. Darhaqiqat, ota-onalarimiz bolalarining “jim o’tirishi”, kamroq savol berishi, ishlashi, halal bermasligi uchun “osongina” bolalarining qo’llariga “Eng katta dushman” bo’lgan, mobil aloqa vositalarini berib qo’yishadi. Natijada esa, endigina rivojlanayotgan bola “Ijtimoiy tarmoqlarning changaliga tushib qoladi”. Bundan tashqari, kuni bilan ota - onalar ishda bo’ladilar yoki ular ham ijtimoiy tarmoqlar bilan band bo’ladi. Natijada, bolalarimiz zangori ekran qarshisida o’z yoshlariga to’g’ri kelmaydigan teleko’rsatuvlarni tomosha qilishi natijasida, bola ruhiyatida turli salbiy jarayonlar sodir bo’ladi. Ko’p hollarda hozirda shiddat bilan rivojlanayotgan “Ommaviy madaniyat”ning qurboni bo’lib qolishayotgani ham sir emas. Professor olim Qozoqboy Yuldoshev tug’ri e’tirof etganidek, uni hech kim o’zbek yoshlarini yo’ldan urish uchun maxsus o’ylab topgani va tarqatayotgani yo’q. Uni ma’naviy taxdidlar va mafkuraviy kurashdan farqlash lozim. U hozirgi zamon sivilizatsiyasining ijtimoiy hayotda voqe bo’lishining, faoliyat ko’rsatishining asosiy shaklidir. Radio, TV, internet, zamonaviy axborot vositalari, muloqot, aloqa, hisob-kitob qulayliklari va x-k. va x-k. barchasi zamonaviy ommaviy madaniyatga daxldor”[1].

Xususan, amerikalik psixologlarning ta’kidlashicha, “teleko‘rsatuv va multfilmlarni ortiqcha ko‘rish bolada hadik va hayajonni yuzaga keltiradi. Bolani shaxs sifatida rivojlanishini, ayniqsa, mustaqil fikrlash qobiliyatini tormozlaydi. Bolalar eng ta’sirchan va himoyalanmagan tomoshabin bo‘lib, agar ota-onalar 9 oylik bolani o‘zlari bilan bo‘ladigan jonli muloqotni televizor bilan bo‘ladigan muloqotga almashtirishsa, 20% bolada rivojlanish ortda qolar ekan. Agar teleko‘rsatuvlarni ko‘rish shu tarzda davom etaversa, 3 yoshga yetganda rivojlanishda o‘z tengdoshlariga nisbatan 1 yilga ortda qolib ketar ekan. Bundan tashqari, 12 yoshga borganda bolalar televizor orqali 100 mingta zo‘ravonlik va qotilliklar guvohiga aylanib qolar ekan. Shuningdek, psixologik kuzatuvlardan ko‘rinadiki, hozirgi davrda 4 yoshdagi bolalarning 25 % da nutqida nuqsonlar kuzatilmoqda. Taqqoslash uchun ushbu faktga murojaat qilish o‘rinli: XX asrning 70-yillarida nutqida nuqson kichik yoshdagi bolalarning faqatgina 4 % da kuzatilgan ekan”[2]. Demak, oddiygina ko’rinadigan bolalarimizning kompyuterdan foydalanishi, yoxud televizor qarshisida soatlab o’tirishi, bolalarimizning ma’nan qashshoqlashib borishi sari qo’yilayotgan qadamlardan bo’lib borayotganini har bir ota onalar anglashi lozim. Endigina rivojlanayotgan bolalarimizning Ba’zi hollarda jizzaki, odamovi yoki o’z fikriga ega bo’lolmay odamlardan ajralib qolayotganiga e’tiborli bo’lishimiz lozim. Doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotgan bola o’z tengdoshlaridan anchayin ortda qolishi kuzatiladi. Bunga har bir ota ona hamda ustoz murabbiylarimiz e’tiborli bo’lishi lozim. Zero, bolalar yangi unib o’sayotgan nihol kabi bo’ladi. Niholga ham boshidan parvarishlanib, e’tibor berilsagina uni insonlarga foydasi tegadigan bir daraxt bo’lib yetishadi. Bolalarimiz ham aynan shunday. Bolalarimizning kelajagiga befarq

bo’lmagan holda, bolalarimizning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishlarida quyidagilarga e’tiborli bo’lishimiz lozim.

1. Farzandingiz tarmoqdan foydalanmoqchi bo‘lganida uni nazoratdan chetda qoldirmang;
2. Farzandingizning tarmoqqa birinchi qadamlaridanoq, Internetda faqatgina “yaxshi” emas, balki “yomon” axborotlarni ham uchratishi mumkinligini tushuntiring;
3. Internetdan biror manbani saqlab olishda e’tibor qaratish zarur bo‘lgan qoidalarni tushuntiring;
4. Farzandingizga tarmoqda ham haqiqiy hayotdagi kabi tartib-intizom qoidalarini unutmaslik zarurligini ta’kidlang;
5. Farzandingizning Internetdan foydalanishida ba’zi hollarda cheklovlarni o‘rnating;
6. Har kuni farzandingiz muloqotlarini kuzatib borishni o‘zingizga odat qiling;
7. Farzandingiz va o‘zingizning kompyuter savodxonligingizni muntazam rivojlantirib boring. O‘z bilimlaringiz bilan o‘rtoqlashing. Internet xavfsizligi sizning bu boradagi bilim va malakangizga ham bog‘liq ekanligini unutmang.

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki, ertamiz egalari bo’lgan bolalarimizga vaqtida e’tibor bermasligimiz natijasida ular kimlarning changaliga tushib qolmoqda? Ular haqiqiy manqurtlarga aylanib qolmayaptimi? Agar hozir o’rnida farzandlarimizga e’tibor bermasak ertaga kech bo’lishini unutmasligimiz lozim deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахдм эркаев “Маънавиятшунослик” 1-китоб тошкент «маънавият» 2018. 229-bet
2. https://daryo.uz/2019/12/13/salbiy-axborotlar-bolalar-psixologiyasiga-qanday-tasir-korsatadi/?fb_comment_id=2855649687788058_2855727491113611

MAKTABLARDA O`QISH VA ADABIYOT FANIDAN SHE`RIYAT TO`GARAKLARINI TASHKIL ETISH BO`YICHA TAVSIYALAR

Bozorova Nargiza Sayidovna
Navoiy viloyati, Navoiy shahar
5-IDUM ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi
Tosheva Nargiza Abdumajitovna
boshlang`ich ta’lim o`qituvchisi

Annotatsiya: maktablar she`riyat to`garaklarini tashkil etish, mashg`ulotlarda qo`llaniladigan interfaol usullar bo`yicha tavsiyalar ushbu maqolada o`z aksini topgan.

**Kalit so`zlar:** adabiy talaffuz, axloqiy tarbiya, she`riyat, ifodalio`qish, so`z qo`llash, “Sandiqni durga to`ldir”, “Qora quti” usullari…..

Ma’naviy boy, barkamol shaxsni shakllantirishda she’riyatning ahamiyati katta. Amaliy ko’nikmalarga ega, o’z fikrlarini, his-tuyg’ularini yetkazib bera oladigan shaxni tarbiyalashda adabiy to`garaklar, xususan she`riyat to`garaklarining o`rni beqiyosdir. Maktabning boshlang`ich va yuqori sinf o`quvchilari uchun tashkil etilgan bunday to`garakda o`quvchilar adabiy talaffuz me’yorlariga rioya qilgan holda o‘z mualliflik pozitsiyasini ko‘rsatishni, she’rlarni ifodali o‘qishni o‘rganishlari kerak. To‘garak a’zolari maktab miqyosida o‘tkaziladigan tadbirlarning faol ishtirokchisiga aylanishlari, ijodiy faollikni oshirishlari, maktab va shahar o‘qish tanlovlari, nazm yo`nalishidagi tanlovlarda ishtirok etishlari, shahar tanlovlariga ijodiy ishlarini taqdim etishlari kerak.

Adabiy - she`riyat to‘garakning, umuman, adabiy ta’limning maqsadi insonning ma’naviy dunyosini rivojlantirish, shaxsning doimiy takomillashtirishga bo‘lgan ichki ehtiyojini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Shubilanbirga, o’quvchimahoratini, erkinvajonlinutqini ham rivojlantiradi ,albatta.

Adabiyotni so‘z san’ati sifatida o‘rganish badiiy asarlarni tizimli o‘qishni nazarda tutadi. Kitob bilan muloqot qilish zarurati faqat o’z ona yurti, mintaqasi va dunyo adabiyoti va san’atining boshqa turlari bilan keng va mohirona yo’naltirilgan tanishish, o’quvchilar tomonidan matnni hissiy idrok etishga doimiy e’tiborda bo’lish, ular haqida fikr yuritish bilan rivojlanishi mumkin.

Zamonaviy dunyo haqiqati shundan iboratki, butun dunyoda she’riyatga bo’lgan qiziqish tobora kamayib borayotganini aytishimiz kerak. Shaxs she’riyatni tushunish va sevish uchun bor narsaning ma’nosi haqida o‘ylashi, boshqa birovning his-tuyg‘ularini ifodalovchi so‘z musiqasini tinglashi kerak.

She’riy matnlar bilan ishlash faqat o’qish, tahlil qilish, ko’rgazmali va ifodali vositalarni izlash bilan cheklanmaydi. Faoliyatning amaliy yo’nalishi nafaqat she’riyatning an’anaviy ixlosmandlari – qizlarni qiziqtirishi, balki o’g’il bolalarning o’z iste’dodlarini namoyon etishiga imkon berishi shubhasiz. Faoliyat jarayonida to‘garak a’zolari adabiy-badiiy to‘plam chiqarish uchun o‘zlari yaratgan she’rlarni tanlab olishlari, o‘zlari tanlaganlarini bahslashishlari, tasvirlashlari, she’rlarni ifodali o‘qishni o‘rganishlari, omma oldida chiqishlari kerak bo‘ladi.



Adabiy rivojlantirish va axloqiy tarbiyani shakllantiruvchi to‘garak mashg‘ulotini tashkil etishda ”Zinama-zina”, ”Zakovatli zukko”, “O‘z so‘zim bor”,“Hikmat bo‘stoni” „Chala xat”,“Sandiqni durga to‘ldir”, “Qora quti”,”Beshinchisi ortiqcha”, “Yumaloqlangan qor o‘yini”,“Zararli odatlar muzeyi”, “Qarama-qarshi munosabat”, “Davra suhbati”,“Tasavvur kengligi”,“Sen to‘xta, men gapiray”kabi usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu usullardan ayrimlarini qo‘llash jarayonini ko`rib o`tamiz.

Biror bir mavzuni tanlab aynan shu mavzuga xos bo`lgan atamalar – so`zlarni qog`ozga yozib, sirli qutiga solish va shu so`zlardan foydalanib, she`r yozishga kirishish usuli - **“Sandiqni durga to‘ldir” usuli** ahamiyatli usuldir. Bu usulda o‘quvchilar mavzuga mos bo`lgan so`zlarni o`ylab, tafakur qilib yozishadi va kichik sandiqchaga solishadi. O‘qituvchi tomonidan qo‘shimcha lug`atlar yozilib umumlashtiriladi va shu ushbu lug`atlar ishtirokida to`rtlik yozish o`quvchilarga topshiriladi.

Qora quti” usuli ham mavzuni o‘quvchilarga mavzuni o‘zlashtirishi uchun juda samarali usuldir. Ushbu usul vositasida juftlik asosida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: o‘quvchilar navbat bilan boshqaruvchi rolini bajaradilar. Sinf taxtasiga mashg‘ulotda o‘rganilgan she`r turi yuzasidan savollar yoziladi, dastlab boshqaruvchi rolini bajarayotgan o‘quvchi qayd etilgan savollarga asosiy tushunchalar kiritilganligini tekshiradi. So‘ngra o‘quvchilardan sinf taxtasida yozilgan savollarga javob so‘raydi, to‘g‘ri javob bera olgan o‘quvchi boshqaruvchi lavozimini bajaradi. O‘quvchilarda boshqaruvchilik qobiliyatini oshirish va sinfda boshqaruvchi bo‘lish uchun qora qutiga tushmaslik, ya’ni, savollarga to‘liq javob berishga intilish, mavzuni diqqat bilan tinglash va mustaqil ishlash ko`nikmalarini shakllantirish ushun bu usul samaralidir.

O‘quvchilarning adabiy dunyoqarashini kengaytirish, she’riy asarlarni tahlil qilish, ijodiy topshiriqlar va yozma tadqiqot ishlarini bajarish, mustaqil she’r yozish ko‘nikmalarini egallash - o‘quvchilarni mustaqil ishlarga jalb etish, o‘z fikrini topish, taxmin qilish, isbotlash, solishtirish, ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.To`garakda ishlash natijasida o`quvchilarning so`z boyligi boyib boradi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi.

O`quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish , mustaqil fikrli, keng tafakkur egalari qilib tarbiyalash – biz boshlang`ich ta`lim hamda ona tili va adabiyot fani o`qituvchilari oldida turgan vazifa ekan , buyo`lda birlashib, hamjihatlikda faoliyat yuritsak albatta oldimizga qo`ygan vazifamizga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.“O`qituvchi nimalarnibilishikerak?” (O`quv-metodikqo`llanma Toshkent – 2016)
2.”Sinfdan tashqariishlarnitashkiletishmetodikasi” Toshkent – 2020
3. ziyonet.uz . 4.kitob.uz

UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Nargiza Choriyeva To‘laganovna
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani
26 umumta’lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi
Himmataliyeva Shahnoza Eshmo‘minovna
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani
26 umumta’lim maktabining boshlang’ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda yoshlarga nisbatan davlat siyosati asosan yosh avlodni keng fikrli, jamiyat ravnaqi uchun munosib hissasini qo’sha oladigan, har tomonlama kuchli, bilimli qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bu jarayon esa bevosita ta’lim bilan bog’liq bo’ladi. Ushbu maqolada ham ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo’llash va uning samarasi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, pedagogika, pedagogik texnologiya, metod, interfaol metod, dars, mashg’ulot, tarbiya.

Bugungi kun ta’limida an’anaviy mashg`ulotlar olib borish asta sekin o’z o’rnini yangi pedagogik va interfaol metodlarga, noan’anaviy dars o’tish shakllariga bo’shatib bermoqda. Ta’lim - tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki uni amalga oshirmay turib qo’llangan har qanday texnologiya kutilgan samarani bermaydi. Ta’lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashib borishi dars berish jarayonida qo’llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning turli yo’nalish va maqsadlarda qo’llanilayotganligiga bog’liq. Har bir pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi pirovard natijaga erishish yo’llarini bandma-band aniqlash va unga so’zsiz erishishdan iborat.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o’qituvchi va o’quvchi-o’quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalarga bog’liq deb hisoblaymiz, ya’ni o’qitish jarayonida, maqsad bo’yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo’llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o’quv jarayonida o’quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o’zlari xulosa chiqara olsalar, o’zlariga, guruhga, guruh esa ularga baxo bera olsa, o’qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o’qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Har bir dars, mavzu, o’quv predmetining o’ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o’quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo’lib, u o’quvchi-o’quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo’naltirilgan, oldindan loyixalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Shunday ekan har bir pedagog o`z darslarini o`tishdan oldin o`z oldiga maqsad qo`yib olmog`i lozim, zero bu kelajak avlod vatanimiz rivojiga hissa qo`shadigan barkamol bo`lib yetishishi shart.

Har bir fan o`qituvchisi oldidagi burch bu barkamol avlodni bilimli qilib tarbiyalash darslarni mazmunli tashkil etish hisoblanadi. Hamma fan darslarida pedagogik texnologiyalarning o`rni beqiyos. 45 daqiqada mavzuni har bir o`quvchidan so`rash imkoni yo`q, bunda biz pedagoglar turli metodlardan foydalanishimiz va bu orqali o`quvchining mavzuni qay darajada tushunganliklarini biz bilib olishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati shundaki, o’quv jarayonida barcha o’quvchilar bilim olish jarayoniga jalb qilinadi. Qisqa vaqt ichida ular ro’y berayotgan hamma narsani tushunib olishlari, tegishli qaror qabul qilishlari, murakkab muammolarni yechish, muqobil fikrlarni solishtirish, o’ylagan qarorlarini qabul qilish hamda ularning muloqot madaniyatlari shakllanadi.

Dars jarayonida o’quvchilarni diqqatini jalb qilish, darslikdan to’g’ri va maqsadli foydalanish, har bir o’tilayotgan yangi mavzu yuzasidan berilgan tushuncha va ta’riflarni o’zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Metodlar asosida o’tilgan dars an’anaviy darslardan ko’ra yaxshi samara beradi. O’quvchilar ongida saqlanib qoladi, hamda ularni musatqil fikrlashga undaydi.

Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Zamonaviy tilda bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi.

Dars jarayonlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati shundaki, o’quv jarayonida barcha o’quvchilar bilim olish jarayoniga jalb qilinadi. Qisqa vaqt ichida ular ro’y berayotgan hamma narsani tushunib olishlari, tegishli qaror qabul qilishlari, murakkab muammolarni yechish, muqobil fikrlarni solishtirish, o’ylagan qarorlarini qabul qilish hamda ularning muloqot madaniyatlari shakllanadi. Shuning uchun umumta’lim maktablarida noan’anaviy darslar va ta’limning interfaol metodlarni qo’llashning muhim tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o’quvchida yashirinib turgan qobiliyat va iste’dodlarini ro’yobga chiqaradi, hamda ularda o’z imkoniyatlariga ishonch bilan yondoshishni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo’ldoshev J.G’. Pedagogik texnologiya asoslari. T. O’qituvchi. 2004.y.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf. 2000
3. Jo’raev N. Mustaqillik ma`rifati.//Muloqot. -1993.
4. Jo’raev R., Samatov B, Qarshiboev Q. Zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiyalar asosida tabiiy fanlarni o’qitish.//Xalq ta`limi. – 2002
5. Sayidaxmedov.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T. O’zMU. 2005

BOSHLANG‘ICH TA’LIM MATEMATIKA DARSLARI SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN O‘YIN TEXNOLOGIYALARI

Dayupova Xursanoy Tursunboyevna
Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani
43-son maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda matematika fanini o’qitish, o’quvchilar bilimi sifat samaradorligini oshirishda turli o’yin usullaridan foydalanishning ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so’zlar: matematika, boshlang‘ich ta‘lim, o’yin, pedagogik jarayon, o’yin texnologiyasi, masala, qoida.

Boshlang’ich ta‘lim umumiy o’rta ta‘limning asosiy poydevori, o’quvchilarning kelajakda komil inson bo’lib voyaga yetishini ta‘minlovchi muhim bosqich hisoblanadi. Boshlang‘ich matematika kursi, bolalar tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang‘ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan, zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

6-10 yoshli bolalarning fikrlash qobiliyatlarining shakllanishida mas‘ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Shu sababli boshlang‘ich ta‘lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang‘ich ta‘lim metodikasining vazifalaridan biri o‘qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta‘minlashda o‘qitishni bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta‘sirlarini jadallashtirishdan iborat. Matematikadan boshlang‘ich ta‘lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o‘qitish nazariyasini (matematik didaktikasini)o‘z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o‘zi yetarli emas. O‘qitishning ma‘lum mazmuni va o‘qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta‘sirlanadigan u yoki bu o‘quv yo‘nalishi uchun eng samarali usullarni qo‘llay bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o‘zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur. Shunday vaziyatlarda o’yin texnologiyalari ushbu vazifalarning hal etilishida salmoqli hissa qo’shadi.

O’yin texnologiyasida didaktik maqsad o’quvchilarga o’yin vazifasi shaklida qo’yiladi va o’quv materiallari uning vositasi sifatida ishlatiladi. O’yin an’anaviy o’qitish shakllari va usullarini to’liq almashtirmaydi, bu ularni oqilona to’ldiradi, bu ma’lum bir darsning va butun o’quv jarayonining maqsad va vazifalariga yanada samarali erishishga imkon beradi. O’yin uning ishtirokchilari va o’qituvchilari o’rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi, chunki o’yin shovqinlari norasmiy aloqani ta’minlaydi va shaxsiy xususiyatlarini va xarakterining eng yaxshi tomonlarini ochishga imkon beradi, o’z-o’zini hurmat qilishni oshiradi.

O’yin yordamida psixologik charchoqni olib tashlashingiz mumkin, undan o’quvchilarning aqliy harakatlarini safarbar qilish, ulardagi tashkiliy ko’nikmalarni rivojlantirish, o’z-o’zini tarbiyalash ko’nikmalarini shakllantirish, sinfda quvonch muhitini yaratish uchun foydalanish mumkin. O’yin o’quvchilar o’rtasida hissiy kayfiyatni yaratishga yordam beradi, bajarilgan ishlarga ijobiy munosabatni uyg’otadi, umumiy ish faoliyatini yaxshilaydi, bitta materialni monoton va zerikishsiz takrorlash imkonini beradi. O’yin texnologiyasida ba’zi qoidalar mavjud:

1. O’yin ko’rgazmali qurollardan foydalangan holda muntazam mashq bo’lmasligi kerak.
2. O’yin qoidalarini tanlashda bolalarning xususiyatlarini hisobga olish kerak.
3. Asosiy shart - bu o’yin darsning umumiy maqsadlaridan chetga chiqmasligi va ularni amalga oshirishga hissa qo’shishi.
4. O’yin natijalarini sarhisob qilish, ya’ni g’olibni aniqlash kerak.

O’rganilgan mavzular to’plamini sarhisob qilish va takrorlashda “Eng aqlli” yoki “Brain” musobaqalar o’yinidan foydalanish mumkin. Bunday o’yinlarni o’tkazish uchun qisqa javob talab qiladigan savollarni oldindan tanlab olish kerak.

Har qanday darsga o’yin elementlarini qo’shish mumkin. Masalan, mustahkamlash darslarida bir sinf o’quvchilari bir nechta jamoalarga bo’linib, musobaqalar o’tkazishlari kerak. Ko’proq muammolarni hal qilgan jamoa yaxshi baholar bilan rag’batlantiriladi. An’anaviy so’rov o’rniga, siz blits musobaqasini tashkil qilishingiz mumkin, unda bolalar o’qituvchining so’zlarini tezda tugatadilar.

O’rganilgan materialni mustahkamlashda ham o’yin elementlari bilan amalga oshirilishi mumkin. Masalan, ,,Eng yaxshi hisobchi” o’yini. Bunda o`quvchilardan biri oldinga chiqib hisobchi bo`ladi. O`quvchilar hisobchiga misollar beradilar. U misollarni og`zaki yechadi. Agar hisobchi bironta misolni yecha olmasa yoki noto`g`ri hisoblasa uning o`rniga bu misolni bergan bola turadi. O`quvchilardan qaysi biri hamma misolni yechsa shu o`quvchi ,,Eng yaxshi hisobchi” bo`ladi.

,,Zinacha” o`yini. O`qituvchi doskaga yoki kartonga zina ko`rinishida bir necha misol yozadi. Misollar pastdan yuqoriga qarab ishlanadi. Doskaga ikki o’quvchi chiqadi. Zinani ikki chetidan turib, misollarni yechadilar. Kim zinaning cho`qqisiga birinchi chiqsa u g’olib hisoblanadi.

,,Xato qilma” o`yini. Misollar doskaga yozib qo`yiladi. Bu o`yinda hamma o`quvchilar qatnashadilar. O`quvchilar daftarlariga misollarni faqat javobini yozadilar. Kim xatosiz bajargan bo`lsa, o`sha o`quvchilar qatnashadilar va rag`batlantiriladi. 1, 2, 3-o`rinni olgan o`quvchilar g`olib deb topiladi. O`qituvchi ishlash yo`llarini ko`rsatadi. O`quvchilar ovoz chiqarmay daftarga ishlaydilar, so`ng qo`l ko`taradilar.

,,Kim tezroq” o`yini. O`yin mazmuni: doskaga uchta misol yozilgan bo`ladi Har qaysi qatordan bittadan o`quvchi chiqariladi, ular o`qituvchining ishorasi bilan yig`indilarni hisoblashga kirishadilar va ularni doskaga yozadilar. Qolganlar esa kuzatib turishadi. Birinchi bo`lib to`g`ri yozgan o`quvchi g`olib hisoblanadi.

O’yin shakllari, faol o’rganish usullari sifatida, bilish har doim ham zerikarli ish emasligini isbotlab, bilish jarayoniga zavq bag’ishlaydi. O’yin faoliyati jarayonida o’quvchilar mavzuga qiziqish bildiradilar, passiv-idrok qiluvchi pozitsiyadan o’quvchi va o’qituvchi o’rtasidagi hamkorlik pozitsiyasiga bosqichma-bosqich o’tishni ta’minlaydigan, o’z-o’zini o’rganish va o’quvchining o’zini o’zi boshqarish ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan kognitiv jarayonlar rivojlanadi. Natijada malaka va ko’nikmalar shakllanadi, darslarda olingan bilimlar mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2003-y.
2. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. 2000-y.
3. Kovalenko V.G. Дидактические игры на уроках математики.М.,1990 y.
4. cyberleninka.ru

TECHNIQUES AND METHODS FOR IMPROVING READING SKILLS

Djamuratova Nasiba Uktamovna,
Rizakulova Gullola Axmatqul qizi
English language teacher of 5th school

Abstract: Many people who want to improve reading skills are already avid readers. One of the main objectives for these individuals is to have the ability to read faster who learning more information accurately.This is not a very easy task .Even the well -versed reader will admit taking in a lot of written information quickly does not usually result in comprehension call.

Keywords:visualaids, non-verbal, rephrase, practicing, Elicit,enrichment.

Teaching English language learners can be challenging, problems seem to arise from all directions. However, this challenge does not have to rub on to your students. The following are ideas and techniques to spice up your ESL classroom and make lessons more interesting and effective.

Teaching English to people who speak other languages is a rewarding thing, because there is great amount of people all over the world who are eager to teach English as a Second Language. While teaching English asasecondlanguagetheteachershouldfollowthenextdirectives:

Apply such non verbal cues as facial expressions, hand gesturesand othernon verbalcuestogetridofthelanguage barrier. If you are eager to explain the meaning of the word “tall”, raise your hand high into the air. If you are eager to explain the meaning of the word “cold ”, shiver and chatter your teeth.

Apply visual aids .A simple picture can replace along description and it is specially effective while teaching English as a second language. Visual aids are universal ,because they are applied to teach everything beginning from vocabulary and ending prepositions. Visual aid shave in structional benefits, they make lessons interesting, and they can maintain and activate the students’ interest. It is recommended to apply anover head orslide project or for the performance of effective presentations.

Divide students into groups. The teacher, who is always talking, doesnot give learners of English as a second language a possibility for practice and communication. Group work is an effective way of starting practicing a foreign language. The best numberofparticipantsingroupsis from2 to 5 people.If then umber of participantsismore,some learners will not Have a chance of a foreign language practice .It is effective to make up groups of students who have various first languages.

Apply bilingual materials .If the teacher and the students speak the same language(s) as ,the attitude to learning a foreign language will be different, it will be easier to teach and learn a foreign language. Frequently ,teachers do not speak the same language (s) as his/her students do .In such case , a teacher of English as could language can apply bilingual materials to draw on a student’s native language, because they speak their native language.

Repeatandrephrase.TeachersofEnglishasasecondlanguageshouldrepeateverythingatleastthreetimes.It is strongly recommended to change the wording of their remarks. A student may understand one set of vocabulary but do not understand another one—even when the topic of discussion is the same. After the first explanation of a word or word combination ,the student can be able to understand the new variationofaconceptoritsrepetition.Suchtechniqueisquiteeffective, because it enlarges the students’ vocabulary with new words and phrases.

Don’t correct to much. Teachers of English as a second language have a strong desire to correct student language errors immediately. If you correct them too much, students will be uncertain and reluctant to apply the language. They will be afraid that they will make many mistakes and will be corrected every time they speak. They will lose the wish to speak and, finally, the wish to learn the foreign language .It does not mean that the teacher should not correct language errors at all; there are appropriate times to correct language mistakes. An important aspect of teaching children to read is for them to develop an appreciation for reading — in essence, a desire to read. If a child successfully develop sprint and phono logical awarenessas the child’s verbal language develops, thechil dislikelytoestablishthefoundations for being a skilled reader. Children who do not develop these skills often have difficulty learning to read, and from this

often stems a lifelong dislike of reading. Some of the phonics skills presented in the activities of the activity portion may be familiar to the lessexperiencedreader, whileothersmaybeneworless familiar.Theinclusionofsomefamiliarphonicsskillsmay be helpful to increase the less experienced reader’s sense of knowledge, comfort, and/or accomplishment ,while the inclusion of some less familiar (or new)phonics skills will increase the less experienced reader’s actual knowledge and repertoire of reading skills. Additionally, and perhapses peciallyinthecase oflessexperienced or other developing readers, repetition of core reading skills ,including phonics skills ,may increase the less experienced reader’s familiarity, comfort, and abilities with respect to these skills and thereby promote further increases in the less experienced reader’s reading development.

Suzanne Collins's best seller

The American television writer and novelist Suzanne Collins was born on August 10, 1962 in Connecticut (USA). Collins' career began in 1991 as a writer for children's television shows. She worked on several television shows for Nickelodeon but she became famous worldwide for *The Hunger Games* trilogy: the novels are set in a dystopian future, where the totalitarian nation of Panem is divided into 12 districts and the Capitol. Each year two young representatives from each district are selected by lottery to participate in The Hunger Games. Part entertainment, part brutal retribution for a past rebellion, the televised games are broadcast throughout Panem. The 24 participants are forced to eliminate their competitors while the citizens of the Capitol watch the show. The 16-year-old Katniss is selected as District 12's female representative, together with her male counterpart, Peeta and they are forced to fight against bigger, stronger representatives, some of whom have trained for this their whole lives.

Read the text then choose the right option. Are the sentences 1-8 T(true), F (false) or NG (not given)?

1 . Suzanne Collins is British.	T	F	NG
2. She began her career writing for children TV programmes.	T	F	NG
3. She wrote a story called "Nickelodeon".	T	F	NG
4. Her books are best sellers in China and Russia.	T	F	NG
5. *The Hunger Games* is a fantasy trilogy.	T	F	NG
6. They draw lots to select the participants for the games.	T	F	NG
7. The participants fight with technological weapons.	T	F	NG
8. Peeta is from District 12.	T	F	NG

References:

1. KristinLems,LeahD.MillerandTenenaM.Soro,TeachingReadingtoEnglishLanguageLearners:InsightsfromLinguistics–2009
2. NancyN.Boyles,‘TeachingWrittenResponsetoText:ConstructingQualityAnswerstoOpen-EndedComprehensionQuestions’–2009

КИТОБНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЁШЛАРДА КИТОБХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Эргашева Сайёра, Муродова Ўғилой
Навоий вилоят Хатирчи тумани 4-умумтаълим мактаб
Бошланғич таълим фани ўқитувчиси

Инсон ҳаёти учун энг зарур нарсалар қаторида биринчи нон бўлса, иккинчиси китобдир. Нон инсоннинг моддий эҳтиёжини қондирса, китоб маънавий эҳтиёжини қондириб, ўзликни англашни энг муҳим инсоний тарбиянинг муҳим манбайи бўлиб хизмат қилади. Айнан тарбиявий омилининг китохонлик даражаси билан боғлиқлиги мутолаа ишининг ҳар қандай даврида ҳам давлат жамият учун асосий масала эканлигини англатади. Халқимиз маънавиятли, маърифатли, бўлиши учун авваломбор, ёшларда келажакнинг пойдевори, яратувчиси бўлган болажонларда китобхонликни шакллантириш, китоблар дунёсига кириши учун уларга йўл очишимиз керак. Чунки китоб инсонни комилликка етакловчи манба.

У инсонни инсон қилиб тарбиялайди, фикр доирамизни бойитади, сўз бойлигимизни ортиради. Маънавий озиқа беради, ҳаётда юз берадиган катта-кичик қийинчиликларда қоқилмасдан фақат ва фақат олдинги тамонга интилишимизга ундайди. Биз қанча кўп китоб ўқисак йиғлиб турган саволларга жавоб топа оламиз. Фикримизни тортинмасдан қўрқмасдан баён қила оламиз. Одамларнинг кўнглига йўл топа оламиз. У бизга дунёни, Ватанимизни севишни, мазмунли ҳаёт кечиришни, яшаётган ҳар бир кунимизни қадрига етишни, ўзимиздаги барча яхши фазилатларни юзага чиқаришимизни одоб, ахлоқ ҳаё, ибо катталарга кичикларга қандай муомала қилишни ўргатади. Ҳаётда мустаҳкам ўрин эгаллашда асосий восита бўлиб хизмат қилади. Масалан: Буюк рус ёзувчиси Горкийни олайлик у фақатгина бошланғич таълимни олган. Горкий асарларидф айтганки, “Умрим давомида нимага эршган бўлсам, китоб орқали, ўқиб эришганман. Китоб мени дунёга танитди, шон-шуҳрат,бойлик олиб келди”, деб таъкидлайди. Бир ёшдан китобхонликни шакиллантиришда биринчи ўринда оналарга мурожат қиламиз. Ҳомладорлик давридан бошлаб она кўпроқ китоблар, шеърлар, ибратли воқеаларни ўқиса, албатта, боланинг ривожланишига ижобий таъсир қилади. Гўдак бола ёзилмаган оқ қоғозга ўхшайди. Уни қайси тамонга йўналтирсак ўша томонга кетади. Агар она телевизор кўрса, вақтини беҳуда ўтказса болада ҳам шунга мойиллик уйғонади. Аксинча, китоб ўқиса,китобни севса болажонларда ҳам китобга бўлган меҳр пайдо бўлади. Боланинг ёшига қараб уларга эртак, шеърий, бадиий, илмий, дидактик китобларни мумтазам олиб бериб туриш ва уни ўқидими, ўқимадими назорат қилиб бориш керак. Бунинг учун улар билан бирга ўтириб китоб ўқишимиз ўқиб бўлгунча ўқиган китобимиз нима ҳақида, қандай воқеалар юз берган, нима тўғри, нима нотўғрилигини биргаликда савол-жавоблар орқали болажонлар фикрини ва муносабатини билишимиз керак. Ўзимизни ўқиган китобларимизга бўлган муносабатларимизни, хулосаларимизни ҳаётий тарзда, қизқарли, ибратли намуналардан фойдаланиб, айтиб бера олишимиз керак. Биз болажонларда китобхонликни шакиллантиршимиз учун ўзимиз биринчи ўринда китобхон бўлишимиз керак.

Инсон бошида китоб ўқишга қизқмаслиги мумкин, лекин ўз-ўзини маънавий озуқа олиш учун китоб ўқишга ундаш керак. Тўғри биз телевизор кўргимиз телеграм, интернитларга киргимиз келади, нимага бундай,нима деб ўйлайсиз. Балки бу одат тусига кириб қолганми, ўраганиб қолганимиз учун агар китоб ўқиш ҳам кунда такрорланаверса, китобга ҳам шундай боғланиб қолармидик. Ўтмишга назар ташлайдиган бўлсак, ота-боболаримиз китобларни ой ёруғларида, шам чироқларда ўқиган келажак авлодни маънавиятли, маърифатли тарбиялаш учун бепул мактаб, нашриётлар, театрлар очган. Лекин биз уларга муносиб авлод бўляпмизми, қилган меҳнатларини оқлаяпмизми? Бу саволларни ҳар биримиз ўзимизга беришимиз ва ўринли хулоса чиқаришимиз керак. Китоб ўқишга одатланишимиз ва китобхонликни шакиллантиришимиз учун бешта қоидага амал қилишимиз керак.

1.Мутолаа қилиш хоббиси билан бир неча ой, ёки йилда нималарга эршмоқчимиз. Бунинг учун ўқиб чиқмоқчи бўлган китобларни сони ва рўйхатини кўрамиз ҳар-куни кўз тушадиган жойларга қўйишимиз.

2.Китобларнинг жанрларини, машҳур ёзувчиларнинг асарлари билан қизиқиб кўриш.

3.Кичик ҳажимдаги китоблардан бошлаш керак ора-орадан кўпайтириб боришимиз

лозим.

4.Ўқиётган китобларимизни доим ўзимиз билан олиб юришимиз.

5.Ўз-ўзимизни рағбатлантириш ўқиган китобларимизни тамомлагач, ёқтирган ширинлигимизни олиб ейиш, ёки сайрга чиқиш.

Шу ўринда шуни айтишимиз лозимки, биз китоб деб ҳар қандай китобни ўқишимиз керак эмас, Ўқиётган китобимизни мағзини чақишимиз, тушуниб ўқишимиз керак. Ҳозирда электрон сайитларда балки кутубхоналаримизда ҳам инсоннинг ахлоқ тарбиясини бузадиган ёт ғояларга эга бўлган, китобларни ҳам учратиб турибмиз. Китобдаги юритилаётган фикрларга, маъно-мазмунга катта эътибор қаратшимиз шарт. Бугунги кунда китобларга жуда катта имкониятлар яратилмоқда Шавкат Мирзиёев Миромонивичнинг илгари сурган Беш ташаббуснинг тўртинчи ташаббусида ҳам китобхонликка алоҳида урғу берилган.Ёшлар маънавиятини юксалтириш улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган. Яна китоб савиясини, китобхонликни ошириш мақсадида турли хил танловларни ўтказиб борилмоқда. Бунинг ёрқин далили сифатида, “Адабиётга эътибор-маънавиятига, келажакка эътибор” шиори остида. “Мен севиб ўқиган китоб”, ва “Енг яхши китобхон” республика танловларимизни, “Китоб байрами”, ва “Болалар китоблари” ананавий ресбублика фестваллари мунтазам ўтказилмоқда. Бу танловларни ўтказишдан асосий мақсад инсонни бўш вақтини мазмунли, китоб билан ҳамоҳанг бўлиш режалаштирилган. Буюк мутафакирларимиз айтгандай китобдан яхши дўст йўқ.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TA’LIM JARAYONIDA QO’LLASH USULLARI

Eshchanova Maryam, Yuldosheva Venera
Xorazm viloyati Gurlan tumani XTB ga qarashli
7-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi boshlang’ich ta’lim o’qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnologiya va uni ta’lim jarayonida qo’llashning maqsad va vazifalari haqida mulohazalar yuritilgan.
Kalit so’zlar: ta’lim, pedagogik texnologiya, pedagogik tizim, dars, maktab, sifat.

Bugungi kunda pedagogik texnologiya tushunchasi o’qituvchilar ommasining ijodiy faoliyatining mahsulidir. Faqat pedagogik texnologiya tushunchasini to’liq ishlab chiqib, uning ilmiy mohiyatini fahmlab o’quv-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish lozim.

Hozirda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda zamonaviy axborot texnologiyalari keng imkoniyatlar yaratmoqda. Innovatsion texnologiyalar hamda zamonaviy uslublar ta’limning sifat va samaradorligini oshirib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning to‘g‘ri tashkil etilganligiga bog‘liqdir.

O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi kuchli va izchil siyosat, bir tomondan, jahon ta’lim standartlarining yuksak darajasiga erishishga qaratilgan, ikkinchi tomondan esa xalqimizning ma’naviy-madaniy qadriyatlari va o‘ziga xosligini hisobga oladi.

Pedagogik texnologiya izchil va ketma-ket amaliy faoliyatda, ta’lim tarbiya jarayonida avvalgi rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirishdir. Har qanday ta’lim-tarbiya jarayoni ma’lum pedagogik tizimda amalga oshadi. Pedagogik texnologiya ma’lum loyihani pedagogik tizimda amaliyotga qo’llashdir. Pedagogik tizim deganda biz bir-biriga bog’liq vosita, uslub va jarayonlarning inson shaxsining shakllanishiga ta’sir ko’rsatishini tushunamiz. Pedagogik tizimda 2 ta narsa muhimdir. Bu uning maqsad va vazifasi hamda bu maqsad va vazifani amalga oshirish texnologiyasi. Agar biz pedagogik texnologiyani ta’lim jarayonida, ya’ni didaktik tizim misolida ko’radigan bo’lsak, didaktik tizimda maqsad muhim bo’lib, unga erishish ma’lum sharoit va o’quvchi faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Har qanday didaktik vazifa unga mos texnologiyani amalga oshirish shakli, jarayoni va o’qituvchi mahoratining yaxlitligi oqibatida amalga oshiriladi.

Biz nega bugun pedagogik texnologiya to’g’risida fikr yuritmoqdamiz?

Birinchidan, pedagogik texnologiya yordamida ta’lim jarayonidagi xato-kamchiliklar, mavhumliklarning oldini olish va avvaldan ta’lim jarayonini loyihalashtirib, uni birin-ketin voqelikka aylantirish asosida takomillashtirish masalasi yechilishi kerak.

Ikkinchidan, uzoq vaqtdan beri qo’llanilib kelinayotgan har bir darsni oddiy uslubiy jihatga ko’ra ishlab chiqish o’rniga pedagogik texnologiya ta’lim jarayoniga yaxlit yondashib, uni avvaldan loyihalashtirish o’quvchi bilish faoliyatining tuzilishi va mazmunini belgilashga asos bo’ladi. Bu, ayniqsa, hozirgi yangi pedagogik axborot vositalari, dasturlashgan ta’lim, pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish maktablarimizga kirib kelayotgan sharoitda muhimdir.

Uchinchidan, pedagogik texnologiyaning muhim xususiyati maqsad qo’ya bilishidir. Avvallari bu masala ta’lim jarayonida uncha muhim emas edi. Hozir ta’lim jarayonini texnologiya darajasiga ko’tarishda taxminiy, bo’lar-bo’lmas natijadan ko’ra aniq maqsad qo’yish muhimdir. Bu masala ikki jihatdan zarurdir, diagnostik maqsad qo’yib o’quvchilarning o’quv materialini o’zlashtirishini to’g’ri nazorat qilish va o’quvchi shaxsining rivojlanishini ta’minlashdir.

To’rtinchidan, pedagogik texnologiya pedagogik tizimni loyihalashtirish sifatida ta’lim jarayonining yaxlitligini uning maqsad, vazifasi, amalga oshirish shakllarini, uslublarini hamda o’quvchilar faoliyatini boshqarish bilimining nazorati va tekshirishning uzviyligini ta’minlaydi. Ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiya sifatida qarash undagi formalizm, ayrim eskirgan shakl va uslublarga sajda qilmaslikka, yangilikka, ijodga intilishga zamin hozirlaydi. Shunday qilib, pedagogik texnologiya - ta’lim-tarbiya jarayonini mazmunli amalga oshirish texnikasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Zaripov Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari.
2. J.Yo’ldoshev Yangi pedagogik texnologiya.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI

Gulmirzayeva Gulmira, Boltabayeva Salomat
Xorazm viloyati Gurlan tumani XTB ga qarashli
7-umumiy o’rta ta’lim maktabining Boshlang’ich ta’lim o’qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang’ich ta’limda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning mohiyati, ular orqali o’quvchilar bilim malakasini oshirish zaruriyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang’ich ta’lim, integratsiya, dars, integratsiyalash, fanlararo aloqadorlik, fan, mavzu, uzviylik.

Bugungi kunda ta’limning asosiy maqsadi o’quvchilarning bilim salohiyatini oshirish, olgan bilimlarini hayotga tadbiq qilish, ertaga vatanimiz ravnaqiga hissa qo’shadigan kadrlar yetishtirishdan iborat. Bunda ularning qiziqishlarini oshirish uchun fanlararo uzviylikka asoslangan interfaol darslarda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan zarur.

Boshlang’ich sinflarda ona tili, o’qish, tabiiy fan, tasviriy san`at, musiqa, matematika, texnologiya, jismoniy tarbiya darslarining o’zaro integratsiyasini amalga oshirish zarur. Boshlang’ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o’zlashtirishga yordam beradi, bo’sh vaqt orttiriladi va to’garaklarga jalb etiladi. Boshlang’ich ta`limda darslarini quyidagicha integratsiyalash mumkin. Masalan:

1. “O’zbekiston mening Vatanim” mavzusini o’tishi uchun mavzu tushuntiriladi, tabiiy boyliklari va ularni qadriga yetish ko’rib chiqiladi va mavzu asosida rasm ham chiziladi. Bu esa bolani mavzuni yaxshi tushunib olishiga yordam beradi, kengroq va chuqurroq tushunishiga imkon ortadi, uzoq vaqt yodda saqlab qolishiga yordam beradi va dars samaradorligini oshiradi.

2. “Kuz” mavzusi o’tilsa, mavzu o’qiladi, tushuntiriladi, hosil yig’ib olishga doir masalalar yechiladi, texnologiya darslarida mevalarni yasash mumkin. Bu jarayonda o’quvchilar mevalar rasmini chizishlari mumkin. Bolalar bir darsning o’zida kuz haqida o’rgandi, mevalar haqida biladi va rasm chizadilar, kuz mevalari haqida masala yechadilar. Shunday qilib o’quvchilar birgina integratsiya darsida juda ko’p ma`lumotlarga ega bo’ladi va uzoq vaqt esda saqlab qoladilar.

Fanlarni integratsiya qilib dars o’tilganda quyidagilarga e`tibor berish kerak:

1. Boshlang’ich har bir dars muayyan maqsadga yo’naltirilgan bo’lishi kerak.

2. Boshlang’ich fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo’shimcha material o’tiladigan mavzu bilan bog’lanishi shart.

3. Boshlang’ich sinf o’quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo’llarini aniqlash mumkin. Dars faqat ta`limiy bo’lib qolmasdan, o’quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo’lishi kerak. 4. Mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar, o’quv, vatanimiz kelajagiga ishonch va e`tiqodni shakillantirishga qaratilgan bo’lishi kerak. Umuman olganda integratsiya darsi bir- biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo’lishi kerak.

Boshlang’ich maktablarda o’qitish va tarbiyalash integratsiyasi muammolari nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamon nuqtai nazardan juda muhim bo’lib, yangi ijtimoiy talablar asosida yanada dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o’zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta’limi oldiga yangi vazifalarni qo’ymoqda. Hozirgi zamon ilm berish sistemasi yuqori darajada fan asoslarini o’rnatishga, tafakkuri rivojlangan, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak atrofda bo’layotgan voqealarni to’g’ri anglashga, ularni mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo’naltirilgan.

Integrasiya- bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog’liqligidir. Integrasiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog’lash bosqichi bo’lib, o’zini yuqori ko’rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayt etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o’tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integrasiya fanlararo bog’liqlikdir. Fanlararo bog’liqlik asoslari tabiatni to’la holda o’quv darsliklarda ko’rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo’lgan. Hozirgi kunda lug’atlarda integratsiya so`zining uslubiy ma`nosi ko`rsatilmagan. Lekin hammaga ma`lum lotincha so`z “Integratio” - tiklanish, to`ldirish, “integrir” - bir butun ikki ma`noda foydalanishga qabul qilingan.

O‘quv fanlararo aloqadorlikning dolzarbligi quyidagilarda ko‘rinadi:
-bir dars doirasida o‘qitish shakllari va faoliyat turlarini almashtirish;
-o‘qituvchining darsga tayyorgarligini osonlashtirish;
-darsni ko‘rgazmali, illyustrativ tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish;
-o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik faoliyatlarini tashkil etish;
-o‘qituvchi va o‘quvchi uchun o‘rganiladigan materiallarni tayyorlashda qulaylik yaratish.

Dars jarayonini tashkil qilish va o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlarini takomillashtirishda o‘quv fanlararo aloqadorlikka muammoli yondashish zarur.

Ta’lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan dars davomida o‘quv va ijodiy masalalar hamda mavjud bilim, malakalar darajasi, o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi o‘rtasida vujudga keladigan foydali qarama-qarshiliklardan iborat.

Darslarni integratsion shaklda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va sermazmun o’tishini, balki o’quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. Fanlararo bog’liqlik, fanlararo falsafiy masalalarni shaxsan his etmay turib, o’quvchiga integratsion mashg’ulotni taqdim etmaslik to’g’ri bo’ladi, zero, anglanmagan integratsiya o’quvchi ongidagi bilish jarayonini mavhum holatga, u orqali chalkash xulosalarga taqab qo’yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boshlang’ich sinflarning darsliklari.
2. N.U.Bikbayeva va boshqalar ”Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi”- Toshkent.: O’qituvchi, 2007
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000.
4. A.A.Raxmatullaev va boshqalar. Interfaol metodlar ta’lim samaradorligining dinamikasi. (Metodik qo’llanma) –T: “Abu matbuot-konsalt”, 2015.

BOSHLANG’ICH SINFLARNI O’QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Hamroliyeva Marg’ubaxon Mahmudovna
Farg’ona viloyati Yozyovon tumani
27-maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi
Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda o’qitishning zamonaviy usullari hamda ularni dars jarayonida qo’llashning afzalliklari haqida fikr mulohazalar bildiriladi

Kalit so’zlar: hamkorlikdagi faoliyati, ilg’or pedagogic metodlar, zamonaviy ta’lim, innovatsion metod.

Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo’lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to’g’ri, aniq, o’rinli foydalanish ko’nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad asosida o’quvchilarda mustaqil fikrlash, og’zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma’naviy, g’oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o’rganish jarayonida xalqning madaniy-ahloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

“Juft barmoqchalar” metodi ona tili darslarida qo’llash mumkin bo’lgan samarali metodlardan biridir. Mazkur metodning nomi bolada uni bajarishga nisbatan qiziqish uyg’otadi. Metodni darsning turli bosqichlarida qo’llash mumkin. Masalan, ona tili darslarida son mavzusini uyga vazifa sifatida berishda foydalanish samaralidir. “Juft barmoqchalar” metodi ona tili va amaliy san’atning integratsiyasini o’zida aks ettiradi. Metodning qo’llanilishida o’quvchilarning barmoqlari ishlatiladi. Bunda, o’qituvchi tomonidan o’quvchilarga qo’l mehnati yordamida o’ng qo’l barmoqlariga sonlar va hisob so’zlarni yozishni tushuntiradi, chap qo’l barmoqlariga esa miqdori ko’rsatilgan shaxs-narsalarning rasmlarini chizish kerakligi va oxirgi bosqichda ikki qo’l barmoqlarini qovushtirganda, son va miqdori ko’rsatilgan narsa o’rtasida muvofiqlik hosil bo’lishi ta’kidlanadi. O’qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan “Juft barmoqchalar” namuna sifatida ko’rsatiladi va tasvir orqali tushuntiriladi: chap qo’l ko’rsatkich barmog’iga 2 soni hamda hisob so’z yozilgan qog’ozchalar yopishtirilgan, o’ng qo’l ko’rsatkich barmog’iga esa piyozning rasmi chizilgan. Ikki barmoqni juftlashtirganimizda “Ikki bosh piyoz” degan so’z hosil bo’ladi. Shunday davom etgan holda qolgan barmoqlarimizga ham rasmlarni chizamiz va sonlarni yozamiz.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topish, mustaqil o’rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishga o’rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Dars mashg’ulotlarida o’yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O’yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o’quvchilarining o’yin-topshiriqlarni bajarishga o’rgatilganlik darajasi, ularning bilimsaviyasi,mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi,

ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog’liq bo’lishi kerak. Ta’limda o’quvchi shaxsini fikrlashga, o’zgalar fikrini anglash va shu fikrni og’zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o’rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o’rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, innavatsion metodlarni rivojlanishi mamlakat ta`lim tizimini yanada rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bu esa, mamlakat iqtisodiyotini oshirishning eng to’g’ri yo’li hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, maktablarda boshlang’ich sinflardan o’rgatib borish har bir pedagog oldidagi eng yusak vazifalardan biri.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.

2. Axmedov M., Abduraxmonova N.Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “Turon-iqbol” 2008 yil., 160 bet

3. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI, Nilufar Mahamadjon, Qizi Qo’Chqorova,

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI DARSLARIDA O’ZLASHTIRILISHI QIYIN BO’LGAN MAVZULAR BILAN ISHLASH

Xamroxodjayev Qobiljon Toxirovich
Marg’ilon shahar 24-maktab o’qituvchisi
Tel: 90-230-56-37
Axmedov Alisher Muminovich
Marg’ilon shahar 1-IDUM o’qituvchisi
Tel: 91-675-46-02

Annotatsiya: Maqolada davlat va huquq asoslari darslarda pedagogik texnologiyalardan qanday foydalanish misollar yordamida keltirilgan. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llash qanchalik foydali ekanligi tushuntirib berilgan.

Kalit so’zlar: innovatsiya, yangi pedagogik texnologiya, didiktik o’yin, Xatolarni top didaktik o’yini, G’alvir metodi.

Yosh avlodaga ta’lim berishning asosiy vazifalaridan biri o’quv mashg’ulotlarini Davlat ta’lim standartlari hamda o’quv dasturlari asosida tashkil etishdir. DTS va o’quv dasturlarida belgilangan mana shunday vazifalar asosida so’nggi yillarda ta’lim muassasalarimizda Davlat va huquq asoslari fanini o’qitishda yangi pedagogik texnologiyalar qo’llanilib kelinmoqda. Darslarda ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o’rni va muhimligi yuqori. Chunki o’quv jarayoni ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilsa, o’quvchilarning erkin fikr yuritish qobiliyati shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qiladi.

“Davlat va huquq asoslari” fanini o‘qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo‘lib, yosh avlodning huquqiy bilimlari samaradorligini oshirish, huquqiy madaniyatini shakllantirish maqsadida “O‘zbekiston davlati va huquqi”, “Konstitutsiyaviy huquq” fanlarini o‘qitish jarayonini tadbiq etadi. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitish metodikasi asosiy maqsadlari o‘quvchilarga huquq fanlarini o‘qitish uchun zaruriy bilimlar berish, olingan bilimini hayotga tadbiq etish mahoratini egallash, ko‘nikma va malakalarini qo‘llay olishlari uchun zarurdir. Mazkur fanni o‘rganish o‘qitishning an’anaviy va ilg‘or uslublarini, jumladan, interaktiv usullar, test so‘rovlari, muammoli o‘qitish, texnik vositalarni qo‘llash, solishtirish va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi, ko‘rgazmali sxemalar, slaydlar video dasturlarini ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Agar o’qituvchi o’z ustida ish olib borsa, darslarda yangi pedagogik metod va usullardan foydalanishko’nikmasishakllanadi.Innovatsiyao’quvchilarnio’quvjarayoniningharakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi. Bu esa o’z navbatida, ta’lim jarayonida sifat va samaradorlikni ta’minlaydi.

Bunday darslarda foydalaniladigan metodlardam bir nechtasi keltiramiz. “Xatolarni top” didaktik o’yini. Bu o’yin mavzularni mustahkamlash va takrorlash vaqtida, yangi mavzuni o’rganishda qo’llash mumkin.Buning uchun avval o’quvchilar to’g’ri matn bilan tanishgan bo’lishlari kerak. O’quvchilarga mavzudagi matnni o’rganishga vaqt beriladi. So’ngra buzilgan matn beriladi. O’quvchilar yakka tartibda, juft bo’lib, yoki guruh bo’lgan holda ham ishlashlari mumkin. Kim yoki qaysi guruh belgilangan vaqtda ko’proq xatoni aniqlay olsa, o’sha o’quvchi yoki guruh g’olib hisoblanadi. Bu o’yinni O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalarini o’rganishda ham foydalanilsa bo’ladi.

“G’alvir” didaktik o’yini. Bu o’yin ham darsning mavzularni mustahkamlash qismida yoki takrorlash darslarida foydalanilsa bo’ladi. Masalan, 8-sinf “O’zbekiston Respublikasi qonun manbalari” mavzusining mustahkamlash qismida qonunlar, qarorlar, farmonlar va buyruqlar tartibsiz holda joylashtiriladi, guruh a’zolari qonunlar va qonunosti hujjatlarini to’g’ri joylashtirishlari kerak bo’ladi.

9-sinf Konstitutsiyaviy huquq darsida “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” bobini takrorlash darsida konstitutsiyaviy huquqlar tartibsiz joylashtiriladi va o’quvchilardan inson va fuqarolar huquqlarini guruhlab jadvalni to’ldirish topshirig’i beriladi. Darslarni “Mustahkamlash” qismida quyidagi interfaol metodlardan foydalanilsa ham bo’ladi. “Kategoriya“ metodi: Savollar murakkablik darajasiga qarab kategoriyalarga bo’linadi. 1-oson savollar 10 ballik, 2-o’rtacha murakkablikdagi savollar 25 balli, 3-murakkab savollar 50 ballik. Bu metod o’quvchilar qobiliyatini, o’zlashtirish darajasini aniqlashda qulay usul hisoblanadi. Bunda o’quvchilar savollarga javob berish vaqtida o’qituvchi kategoriyalangan savollarga

javob berayotgan o’quvchining qobiliyatini tekshiradi va tahlil qiladi. Afzalliklari: O’rtacha o’zlashtiruvchi o’quvchilar ham murakkab savollar olib o’z bilimini sinab ko’rish imkoniyatiga ega bo’ladilar. O’quvchilarning tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, guruhda va jamoada ishlash ko’nikmalari shakllanadi. Bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchilarning darsga qiziqishi va faolligi ortadi. Qisqa testusuli: (5-10 test savollari)bunda darsda faol qatnashmagan o’quvchilar jalb qilinadi. O’quvchilar test javoblarini belgilab bo’lgandan so’ng monitor ekranida ko’rsatilgan javoblardan o’zlarining javoblarini tekshiririb o’zlarini baholaydilar. Afzalliklari: Passiv o’quvchilarning faolligi oshadi, ularning bilimlarini sinash imkoniyati paydo bo’ladi. O’z-o’zini baholash malakasiga ega bo’ladilar. Darsning oxirida “Xulosa qilamiz” usulini qo’llash mumkin. Bu bosqichda o’quvchilarning mustaqil fikrini bayon etish layoqatini oshirishga qaratiladi. Bunda barcha guruhlarga muammoli savol tashlanib, muammoning yechimini topishda o’quvchilarning qarama-qarshi fikrlari tahlillar va taqqoslashlar orqali xulosalanadi. Afzalliklari: o’quvchini mantiqiy fikrlashga undaydi. Solishtirish va mustaqil qaror qilishga o’rgatadi. O’quvchida xulosa chiqarish, jamoa bo’lib ishlash tartibi ko’nikmalari shakllanadi, o’rganilgan mavzu yuzasidan malaka hosil bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. “Umumiy o’rta ta’lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta’lim muhiti” xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2020.

2. Safarova R., Yusupova F., Toshova N., va boshqalar.O‘quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini loyihalashning nazariyamaliy asoslari.T. Fan va texnologiya nashriyoti.2012 yil

3. http://feruza-idum.zn.uz/2017/04/12/davlat-va-huquq-asoslari-darslarida-ozlashtirilishi-qiyin-bolgan-mavzular-bilan-ishlashda-kompetensiyaviy-yondashuv/

BOSHLANG`ICH SINFLARDA GAP USTIDA ISHLASH METODIKASI

Hamroyeva Vohida Ismatovna
Buxoro viloyati G`ijduvon tumani
4-maktab boshlangich sinf o`qituvchisi
(+998919753239)

Annotatsiya: Gap ustida ishlash o’quvchilaming nutqini o’stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o’quvchilarni sintaktik jihatdan to‘g‘ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirishga o’rgatish hisoblanadi. Gap (grammatik jihatdan o’zaro bog’langan, tugallangan mazmun va tugallangan intonatsiyaga ega bo’lgan) nutq birligi bo’lib, aloqa maqsadiga xizmat qiladi.

**Kalit so`zlar:** Tarbiya, savodxonlik, uzviylik, didaktik talab, sintaksis, so`z birikmasi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun muhimi, birinchidan, gap nutq birligi ekanligidir. Shunday ekan, nutqqa oid mashqlarga qo’yilgan talablar gap ustida ishlash mashqlariga ham taalluqlidir; ikkinchidan, gap — grammatik tomondan to’g’ri tuzilgan birlik, shunday ekan, gap ustida ishlash grammatika bilan chambarchas bog’liq bo’lib, bu jarayonda gap qurilishi, gapda so’zlaming bog’lanishi va gapning turlari ustida ishlash juda muhimdir; uchinchidan, gap nutq va til birligi bo‘lib, tugallangan mazmunni bildiradi. Binobarin, gapning mazmuniy asosi, mazmun ottenkalari ustida ishlash va ularning gap tuzilishiga bog’liqligi ustida ishlash ham zarur; to’rtinchidan, gapning intonatsiyasi katta ahamiyatga ega, shuning uchun intonatsiya ustida ishlash, intonatsiyaning nazmun bilan bog’liqligini tushuntirish kerak. Boshlang’ich sinflar dasturining „Grammatika, imlo va nutq o ‘stirish“ bo’limida sintaksisdan beriladigan bilimlar aniq ko’rsatilgan. Bola boshlang’ich sinflarda beriladigan sintaktik materiallar hajmida faqat ona tili darslaridagina emas, balki boshqa darslarda va maktabdagi barcha mashg’ulotlar jarayonida gap tuzish, uni tahlil qilish va qayta tuzishga o’rgatib boriladi. Gap ustida ishlashga oid mashqlar juda xilma-xil bo’lib, analiz va sintezning ustunligiga hamda o’quvchilaming mustaqillik darajasiga ko’ra tasnif qilinadi.

Analiz yoki sintezning ustunligiga nisbatan gap ustida ishlash mashqlari ikkiga bo’linadi:

1) analitik mashqlar, ya ’ni tuzilgan tayyor matndan olingan gapni tahlil qilish;

2) sintetik mashqlar, ya ’ni mustaqil gap tuzishga qaratilgan mashqlar.

Analitik mashqlar sintetik mashqlarga zamin hozirlaydi. ular parallel holda yoki sintetik mashqdan so’ng analitik mashq o’tkaziladi. O’quvchilaming mustaqilligi va bilish jarayonining faollik darajasiga ko’ra gap ustida ishlash mashqlari uchga bo’linadi:

1 **)** namuna asosidagi mashqlar;

2 **)** konstruktiv mashqlar;

3) ijodiy mashqlar**.**

Namuna asosidagi mashq aniq, to’g’ri tuzilgan sintaktik qurilmalarni amaliy o’zlashtirishni, ularning ichki bog’lanishini, mazmunini tushunishni ko’zda tutadi. Bunday mashqlar ichida analitik mashqlarga, shuningdek, gapni kuzatish va eshitish, uni o’qishga muhim o’rin beriladi. Namuna asosidagi mashqlarga quyidagilar kiradi:

1. Gap ustida ishlashning eng oddiy, boshlang’ich, shu bilan birga, eng zaruriy shakli — namunani o’qish (yozish), intonatsiyasi, ifodaliligi ustida ishlash, gapning asosini va mazmunini tushuntirish, ba’zan esa gapni yodda saqlash, yodlash hisoblanadi. Gapni o’qish va kuzatish nutq o’stirishga katta yordam beradi.

Gap intonatsiyasi ustida ishlash gap mazmunini va bog’lanishini tushunishga, namunaga qarab, uni o’zlashtirish va yodda saqlashga, gap yordam beradi. Bu qurilishini yaxshi tushunishga jarayonda nutqdan gapni intonatsiyaga qarab ajratishga, intonatsion tugallanganlikni ifodalashga, darak, so’roq va his-hayajon gaplarning intonatsiyasiga, uyushiq bo’lakli gapiar va bog’lovchisiz qo’shma gaplardagi sanash ohanggiga, bog’langan qo’shma gap intonatsiyasiga e ’tibor berishbkerak.

2. Savol asosida gap tuzish. Bunda berilgan savol javob (gap tuzish) uchun asos bo’ladi va „namuna” vazifasini bajaradi. Savolda uning asosiy mazinunigina emas, balki barcha so’zlari va sintaktik qurilishining chizmasi ham beriladi. *Masalan:* Bolalar bog’da nima terdilar? (Bolalar bog’da olma terdilar).Savollar asta-sekin murakkablashtirib boriladi: bolalar oldin so’roq so’z o’rniga bir so’z qo’shib gap tuzgan bo’lsalar, keyinroq o’z so’zlarini ko’proq qo’shishga majbur

bo’ladilar: Bolalar bog’da nima qildilar? (Bolalar bog’da olma terdilar. Bolalar bog’da olma terdilar va uni savatlarga soldilar). Yoki „Bolalar qayerda bo’ldilar? Ular nima qildilar?” (Bolalar bog’da bo’ldilar. Ular olma terdilar va savatlarga soldilar Sen tipratikan haqida nimalarni bilasan ? Nega qushlar uyasini buzish mumkin emas? kabi.

Bolalar ko‘proq xatoga yo‘l qo’yadigan so’z birikmalarini yig’ib borish xatoning oldini olishga qaratilgan mashqlar tuzishga imkon yaratadi. So’z birikmasi ustida ishlash grammatik, imloviy va boshqa mashqlarni to’g’ri bajarishga xizmat qiladi. Shuning uchun so’z birikmasi ustida o’rni bilan maqsadga muvofiq ishlab borish orqali gap va bog’lanishli nutq tuzishga oid nutqiy mashqlarga o’tish lozim.

Xulosa: Boshlang`ich sinf o`quvchilari bilan faqatgina ona tili, o`qih darslarida emas balki barcha darslarda gap tuzish ustida ishlab boorish kerak. Chunki ona tili darslari barcha fanlar bilan uzviy bog`liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Qosimova|, S. Matchonov, X. G’ulomova va boshqalar ”Ona tili o`qitish metodikasi”
2. Internet ma`lumotlari.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA O‘QUVCHILARNI O‘QISHGA O‘RGATISH METODLARI

Haqberdiyeva Zamira Qudratullayevna,
Norqulova Qurbongul Mamarayimovna
Navoiy shahar 10-umumta’lim maktab
Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchilari

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligini oshirishda ularni o‘qishga o‘rgatish va savod o‘rgatish davrida nutq o‘stirishning ahamiyati, shu bilan birga bolalarni o‘qishga o‘rgatishning analiz-sintez metodlari va ularning ahamiyatiga alohida to‘xtalgan.*

Kalit so‘zlar: *savodxonlik, savod o‘rgatish, o‘qish, metodlar, og‘zaki nutq, analitik mashqlar, sintetik mashqlar.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatish ularning o‘qish va yozish savodxonligini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Chunki maktabgacha ta’limda bolaning kundalik og‘zaki nutqi rivojlantirilsa, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchining ta’limiy nutqini rivojlantirish ko‘zda tutiladi, bunda bola hayotining keyingi bosqichlarida yozma nutq bilan bog‘liq masalalar biroz bartaraf etilgan bo‘ladi. Shu o‘rinda boshlang‘ich ta’limda K.Qosimova, Q.Abdullayeva, K.Nazarov, Sh.Yo‘ldosheva, M.G‘ulomova, T.G‘afforova, X.G‘ulomova va boshqalarning o‘quvchilarga savod o‘rgatish hamda nutq o‘stirish metodikasi haqidagi qarashlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

O‘qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O‘qish faoliyati boshlang‘ich sinflarda barcha fanlarda amalga oshiriladi, lekin o‘qishga o‘rgatish o‘qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagi o‘quvchini o‘qishga o‘rgatishda ularning umumiy rivojlanishini, psixologiyasini hisobga olish zarur. O‘quv materialining hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromdagi o‘qishni tashkil etish bolani o‘qish mashg‘ulotidan bezdiradi. O‘quvchilarni qiziqarli topshiriqlar, didaktik o‘yinlar asosida o‘qitish o‘qishga o‘yin tusini beradi. Bola o‘ynab charchamaganidek, o‘qib charchaganini ham sezmaydi. Yaxshi o‘qishlik darajasi malakasini egallash maktabda o‘qitiladigan barcha predmetlardan muvaffaqiyatli o‘qishning muhim sharti hisoblanadi.

So‘zlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish usullari hozirgi kunda takomillashtirilib borilmoqda. Savod o‘rgatishda asosan, quyidagi metodlar amalda qo‘llanilmoqda:

I. **Analiz mashqlari.**

1. *Nutq (gap)dan so‘zni ajratish; so‘zni aniq talaffuz qilish;* bo‘g‘inlarga bo‘lish va bo‘g‘inlarni aniq talaffuz qilish, so‘zdan, bo‘g‘indan tovushni kuchli talaffuz qilib o‘qish, muayyan tovushni ajratgan holda so‘zni bo‘g‘inlab o‘qish (aaaa-na, nooon, iiin, sssa-na, kiyyyik, iiish).

2. *Darsda o‘rganiladigan yangi tovushni ajratish.* Bunday tovushni birinchi marta ajratishning bir necha usuli bor:

a) so‘zdan tovushni cho‘zib talaffuz qilish bilan ajratish: aaa-na, looo-la, booo-la;
b) undosh tovushni yopiq bo‘g‘indan ajratish: Usss-mon, O-limmm, A-minnn.
d) sirg‘aluvchi undoshni ochiq bo‘g‘indan ajratish: sssa-na, tu-yyya, zzzi-rak;
e) bo‘g‘in hosil qilgan bir unlini ajratish: o-na, u-num, o‘-tin, e-tik, i-pak;
f) o‘rganiladigan tovushni so‘z boshida kelgan so‘zlardan ajratish (so‘zni o‘qituvchi aytadi, birinchi tovushni esa o‘quvchi aytadi): pop, tok, olma;
g) rasm nomini ifodalovchi so‘zni aytish: o‘qituvchi nokning rasmini ko‘rsatib, noo deydi, o‘quvchilar K tovushini qo‘shib aytadilar: nok.

Bu jarayonda Omonashvili ishlab chiqqan usuldan ham foydalanish mumkin. Bunda tovush emas, harf asos qilib olinadi. O‘quvchilar o‘rganilgan harflar ichidan notanishini topadilar, so‘ng uning o‘qilishi va fonetik belgilari ustida ishlanadi:

Darsda yangi tovush birinchi marta ajratib, talaffuz qilingandan so‘ng, odatda, shu tovush so‘z boshida, o‘rtasida, oxirida kelgan va aniq talaffuz qilinadigan so‘zlar tanlanib, o‘quvchilarga talaffuz qildiriladi. Misol: L tovushi: laylak, olma, fil. O tovushi: olma, pop, Odob. D tovushi: don, Odil (so‘z oxirida jarangsizlashadigan ozod, obod kabi so‘zlarni tanlash tavsiya qilinmaydi).

3. *So‘zdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, bo‘g‘inlarni sanash:* Olma — ol-ma; o-l-m-a — to‘rtta tovush, to‘rtta harf, ikki unli tovush, ikki

undosh tovush, ikki bo‘g‘in... Bu usuldan o‘quv yilining ikkinchi yarmida va keyingi sinflarda ham fonetik tahlil sifatida foydalaniladi.

4. Jarangli va jarangsiz undoshli so‘zlarni amaliy taqqoslash: dil-til, Zira-sira kabi.

Savod o‘rgatishda analiz va sintez bir-biridan ajratilmaydi, chunki analiz o‘qish jarayonini egallash uchun zamin yaratadi, sintez esa ko‘proq o‘qish malakasini shakllantiradi.

II. Sintez mashqlari.

1. *Tovush tomonidan analiz qilingan so‘zni yoki bo‘g‘inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish);* shu so‘z yoki bo‘g‘inni o‘qish.
2. *O‘rganilgan undosh yoki unli bilan (na, ni, no; la, lo, li; ay, uy, oy,...) bo‘g‘in jadvalini tuzish; bo‘g‘in jadvalini kitobdan yoki matndan o‘qish;* kesma harflardan bo‘g‘in jadvalini tuzish.
3. *Bola-lola-tola, boy-soy-loy, baxt-taxt, ona-ota, mosh-bosh kabi bir undosh harf bilan farqlanadigan yoki ona-ana, ukki-ikki, osh-ish kabi bir unli harf bilan farqlanadigan so‘zlarni o‘qish (bunday so‘zlarni o‘quvchilarning o‘zlari topib o‘qishlari mumkin).*
4. So*‘zning boshiga yoki oxiriga bir harf qo‘shib, yangi so‘z hosil qilib o‘qish:* ola-lola, osh-bosh, oy-toy, boy, soy, by; o‘roq-so‘roq; ol-xol, sol; sava-savat; son-oson; ayiq-qayiq; oltioltin.
5. *So‘z o‘rtasiga harf qo‘shib, yangi so‘z hosil qilib o‘qish:* ko‘mak-ko‘lmak, zirakziyrak, tana-tashna, sila-siyla kabi.
6. *Bo‘g‘inlarni almashtirib yangi so‘z hosil qilish va o‘qish:* Gulnor-Norgul, asil-sila kabi.
7. *Tovushlarning o‘rnini almashtirib yangi so‘zni hosil qilish va o‘qish:* somon-osmon, tilak-kalit, qo‘y- yo‘q.
8. *Tovushni yoki bo‘g‘inni tushirib qoldirib, yangi so‘z hosil qilish va o‘qish:* anor-nor, gulnor-gul, yelkan-yelka, bog‘la-bola.
9. *Bo‘g‘in qo‘shib yangi so‘z hosil qilish va o‘qish:* bog‘-bog‘bon, gul-gulzor, paxtapaxtakor.

Umuman olganda, sintetik ishlarning bu usullari tovush ustida ishlashni harf ustida ishlash bilan birga qo‘shib olib borishni talab qiladi. Bu ish usullari qiziqarli bo‘lib, darsda yarim o‘yin holatini vujudga keltirishga imkon yaratadi. Boshlang‘ich ta’limdan o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish uning savodxonlik darajasini oshirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: «Noshir», 2009. – 352.
2. G‘afforova T., G‘ulomova X. O‘qish darslari. 1-sinf (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). – T.: «Tafakkur», 2011.
3. G‘afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O‘qish kitobi: 1-sinf uchun darslik. – T.: «Sharq», 2019. – 128 b.

BIOLOGIYA FANINI O’QITISHDA INNOVATSIYALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ibrahimova Sadoqat Shokirovna
Xorazm viloyati Bog’ot tumani
49-son maktabning Biologiya fani o’qituvchisi
Telefon:+998(99)570-8528
Raximova Iroda Xolmurotovna
Xorazm viloyati Bog’ot tumani
15-son maktabning Biologiya fani o’qituvchisi
Telefon:+998(99)702-88-06

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiyani o’qitishda reproduktiv moddalar bo’lgan, ko’rgazmali va amaliy metodlar bilan birgalikda, mantiqiy fikrlash orqali o’quvchilar egallagan bilim,ko’nikma va malakalarini shakllantirish orqali,o’qitishning interfaol metodlari o’quvchilarning tanqidiy fikrlash, mustaqil ishlash,vaziyat va sabablarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so’zlar: Kompetensiya,Innovatsiya,Insert, PISA,Kommunikatsiya, Savodxonlik, Intelektual.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida” 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta’lim standartlari qabul qilindi.Davlat ta’lim standartining maqsadi-umumiy o’rta ta’lim tizimini mamalakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg’or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Mamlakatimizda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta’lim standartlarining joriy etilishi o’rta maktab o’qituvchilari zimmasiga qator dolzarb vazifalarni qo’ymoqda.

Biologiya fanining o’qitilishi o’quvchi yoshlarning fanga bo’lgan qiziqishlarini oshirish, nazariy va amaliy bilimlar asosida o’quvchilarning shaxsiy ko’nikmalarini tarkib toptirish bu biologiya fani o’qituvchilarining ta’limda zamonaviy yondashuvlari va innovatsiyalarning mazmun mohiyatini to’laqonli bilishlari maqsadga muvofiqdir.Yagona maqsadimiz ,biologiya faninning zamonaviy metodologiyasidagi yondashuvlar va innovatsiyalarni qo’llash kompetensiyalarnirivojlantirish. Fanga oid chuqur bilimlarnining negizi innovatsiyalardan foydalanish uchun zarur bo’lgan bilim ko’nikmalarni shakllantirish, biologiya darslarida zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanish ,ko’nikmalarini rivojlantirish, kompetensiyalarga qo’yilgan talablarni bajarishdan iborat. Biologiya fanini o’qitishda qo’yiladigan hozirgi zamon talabi PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro tadqiqotlarida tabiiy fanlar savodxonligi yo’nalishida o’quvchilarning alohida fanlardan bilimi tekshirilmaydi. Balki hayotda zarur bo’lgan bilim va malakalarining holati o’rganiladi. PISA topshiriqlari komyuterda bajariladi, test topshiriqlari tayyor javobli bo’lib, ulardan to’g’risi tanlanadi, shuningdek javobsiz testlar ham bo’ladi, bunda o’quvchining to’liq yoki qisqa javob berishi so’raladi.O’qituvchi dars jarayonini tashkil etish va o’quvchilarni qo’yilgan dars maqsadlariga erishishiga yo’naltiruvchi vazifani bajaradi. O’qitishning interfaol metodlari o’quvchilarning tanqidiy fikrlash, mustaqil ishlash, vaziyat va sabablarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.Murakkab mavzularni o’zlashtirish “To’pgullar” mavzusini o’rganishni quyidagicha izohlaymiz.

Oddiy to’pgul	To’g’ri raqam				To’g’ri raqam	Murakkab to’pgul
A						A
B						B
C						C
D						D
1	2	3	4	5	6	7

Biologiyani o’qitishda reproduktiv moddalar bo’lgan ko’rgazmali va amaliy metodlar bilan birgalikda mantiqiy fikrlash muhim ahamiyatga ega.

Bolasining nomi quralay, kavsh qaytaruvchi juft tuyoqli hayvon.	-A -B -C -D
Eshitmasada barmoqlarning harakati bilan,boshini tebratadigan umurtqali hayvon.	-A -B -C -D

“Insert” metodi o’quv materialidagi asosiy g’oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo’llaniladi.Bunda o’quvchilar o’rganilayotganyangi mavzuni o’rganib jadval da berilgan savollarni maxsus simvollar orqali belgilaydilar.

	(V) bilaman	(+) maqullayman	(_) tushunmadim	(?) o’rganish lozim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.O.G’afurov.A.T. Biologiya ta’lim texnologiyalari “O’qituvchi” 2002.
2. Po’latov .Sh.Ta’lim menejmenti yoxud ta’lim muassasasini ilmiy- metodik boshqarish texnologiyasi. O’quvmetodik qo’llanma.Toshkent 2017.
3. O. Mavlonov Biologiya (Zoologiya) Toshkent 2017.

TA’ LIM MUASSASALARIDA SIMULYATSION MARKAZLARNI TASHKIL ETISH

Joraboyeva Dilorom Erkinovna
Quvasoy pedagogika kolleji

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta`lim muassasalarida simulyatsion markazlarni tashkil etish zaruriyati, shart-sharoitlari, imkoniyatlar hamda prinsiplari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: simulyatsion, o`qitish, modul, ta`lim, nazorat, kompetensiya.

KIRISH

Simulyatsion o‘qitishda standart o‘quv modulini yoki standart immitatsion modulini ta’lim jarayoniga kiritish va har biri yakuniy natijaga qaratilgan bo‘lishi va nazorat qilinishi taqazo etiladi. Shu modulga ajratilgan vaqt oralig‘ida amaliy ko‘nikma va konpetensiyalar ro‘yxatini shakllantirish. Bu modullarni trening yoki boshqa shakillarda o‘tkazish mumkin.

Bu modullar faqat amaliy bo‘lib, quyidagi tuzilmaga ega bo‘lishi mumkin[1]:

1. Tayyorgarlik darajasini tekshiruvchi kirish nazorati, instruktaj (yo‘riqnoma berish), maqsad va vazifalarni belgilash (butun vaqtning 20%).
2. O‘quv vazifasini bajarish.
3. Debrifing bajarilganligini tahlil etish.
4. Yakuniy bajarish (butun vaqtning 10%).

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Simulyatsion ta’limning prinsiplari (tamoyillari):

-Simulyatsion ta’limni amaldagi professional ta’limning barcha darajalari bilan integratsiyalash (uyg‘unlashtirish);

-Amaliy faoliyatni boshlashdan avval simulyatsion ta’limda o‘rganib tajriba orttirish talab etiladigan amaliy mashqlar ro’yxatini shakllantirib qonuniylashtirish;

-Qonuniylik mazkur yo‘nalish rivojlanib borishi bilan takomillashtirib borilishi maqsadida egiluvchan (moslashuvchan) bo‘lishi;

-Simulyatsion ta’lim yakunida o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha yetarli kompetensiyaga ega bo‘lganligi to‘g‘risida xulosa qilishga asos bo‘ladigan maxsus sinov (attestatsiya) natijalari asosida asosiy faoliyatga kirishishga ruxsat berish;

-Simulyatsion ta’limda baholash tartibining yagona tizimda amalga oshirilishi;

-Simulyatsion ta’lim ishtirokchilarinig faolligi monitoringini olib borish.

Simulyatsion o‘qitishda virtual trenajorlar, simulyatsion robotlar, turli hil ishbilarmonlik o‘yinlari, muammolarni yechishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar va boshqalardan unumli foydalaniladi. Simulyatsion o‘qitishda ta’lim oluvchining javobgarligiga katta urg‘u beriladi.

Simulyatsion o‘qitishda faoliyat natijasini baholashning yagona tizimi muhum rol o‘ynaydi. Demak, sifatli baholash uchun mezonlarni ishlab chiqish va amalda qo‘llash mexanizimi yaratilishi asosiga malaka talablarini olish mumkin. Masalan:

- Holatni baholash bo‘yicha qaratilgan harakatlar,
- Ba’zi funksiyalarni ta’minlashga qaratilgan harakatlar
- Xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan harakatlar
- O‘zaro hamkorlikka qaratilgan harakatlar va hakazo.

Ta’lim oluvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarni oldindan muhokama qilish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim beruvchi simulyatsion o‘qitishda tafakkur qilishga turli yechimlarni topishga diqqatini qaratishi lozim.

Debrifing- vazifani bajargandan keyingi muhokama, ijobiy salbiy holatni tahlil etish, egallangan tajribani muhokama qilish.

Bu faoliyat qaytar aloqani ta’minlaydi egallangan ko‘nikmalarni mustahkamlaydi, ta’lim oluvchilarda refleksiv tafakkurni rivojlantiradi. Debrifing ma’lum tuzilmaga ega bo‘lishi mumkin

1 Rakhmatov, Dilmurod. “Mobile technologies in the higher education system.” Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 2021.02 (2021): 182-196.

va ta’lim beruvchi o‘zaro ishonchga asoslanib, tahlil qilishi xato va kamchiliklarni xafa bo‘ladigan darajada ko‘rsatmaslik, tinglovchilarni diqqat bilan eshitishi, savollar yoki yo‘riqnomalar bilan tuzatishi, ochiq savollardan unumli foydalanishi mumkin. Masalan : “Agarda siz ana shunday vaziyatga yana tushib qolganingizda qanday samarali xarakatlarni amalga oshirgan bo‘lar edingiz”, “ushbu xollatda qanday harakat qilishligini tushundingiz-?”, “Bo‘lajak kasbiy faoliyatingizda egallangan ushbu tajribani qanday qo‘llagan bo‘lar edingiz” va hokazo[1].

XULOSA VA MUNOZARA

Simulyatsion professional ta’limda o‘quv soatlari shunday taqsimlanishi lozimki,o‘quvchining nazariy tayyorgarlik bilan amaliy faoliyatini amalga oshirish bir-biriga uzviy bog‘liqligi ta’minlanishi lozim. Bu jarayon oddiydan murakkabga va amaliyot bazasigacha ko‘p bosqichli ko‘nikmalar hosil qilish jarayonini o‘z ichiga oladi.

Simulyatsion ta’lim o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va qiyin sharoitlardan chiqib ketishni rejalashtirish maqsadiga qaratilgan. Bunda har bir kasbning mavzular ketma-ketligiga qarab ko‘nikmalar ro’yxati tuziladi va ularni o‘qitish uchun vaqt me’yorlari ishlab chiqiladi. Ko‘nikmalar ro’yxati ilm-fan va taraqqiyot rivojiga qarab o‘zgarib boradi. Har bir kasb bo‘yicha pedagog nazorati ostida amaliy ko‘nikmalar ro’yxati asosida professional kompetensiyani shakllantirish uchun sarflangan vaqt bitta modul hisoblanadi. Kunlik o‘tiladigan modullar uchun vaqt belgilanadi.

Simulyatsion ta’limni mulkchilikning turli hil shakllarida qo‘llash mumkin. Simulyatsion ta’lim dasturi, mazkur kasb tayyorgarligi dasturi bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim. Bunda ta’limning barcha shakllari (ma’ruza, onlayn-ma’lumotlar, mustaqil ishlash, oddiy simulyatsion darslar) qo‘llanilishi mumkin. Ishchi dasturda qaysi mavzular bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda imitatsion modullar o‘tilishi belgilangan bo‘lishi kerak. Imitatsion jihozlar amaliy topshiriqlarni bajarish uchun to‘liq mos kelishi kerak.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. J.G. Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T: “O’qituvchi”. 2018
2. Rakhmatov, Dilmurod. “Opportunities and pedagogical importance of using einformation educational resources in education.” Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.04 (2021): 430-437.
3. Yoldasheva G.I., Yuldasheva M.M.(2021) “Factors of informatization of the process of primary education”.Электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум». Выпуск №12(91) 689-692
4. Г.Йулдашева,М.Йўлдошева (2022). “Использования информационных технологий в организациях”. Scientific progress volume 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-160,477-480.
5.https://adti.uz/simulatsion-talimni-shakllantirish/

1 https://adti.uz/simulatsion-talimni-shakllantirish/

MAKTABDA O’QUVCHILAR VA O’QITUVCHILAR O’RTASIDAGI MUNOSABATLAR XUSUSIYATLARINI O’RGANISH HAQIDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

Jumaniyazova Barnoxon Aminboevna.
Xiva tumanidagi 6 -son maktabning
psixolog o’qituvchisi

Annotatsiya: Kishining faolligi ham ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida nomoyon bo`ladi. Odamning faolligi shakllari bilan hayvonning hatti harakatlari faolligi o`rtasidagi tafovutlar mavjud. Hayvonlar ehtiyojining qondirilishi jarayoni ularning muhitga yaxshiroq moslashuvini ta`minlaydi.

Kalit so’z: Hayot, o`yin faoliyati, ehtiyoj, bolala, hayvon, fe`l – atvor.

Hayotining birinchi yillaridayok bolada faoliyatning oddiy shakllarini o`zlashtirishi uchun dastlabki shart - sharoitlar tarkib topa boshlaydi. Ulardan birinchisi o`yin faoliyati hisoblanadi. Ma`lumki, o`yin faoliyatini hayvonlarning bolalarida ham kuzatiladi. Bu - ularning turli xildagi xarxashalaridan, urishishni taqlid qilishi, u yoqdan - buyoqqa chopishi va hokozolardan iboratdir. Hayvon bolalarining o`yin jarayonidagi kiligini avvalo ularning organizmidagi faoliyatga, jamlangan kuch - kuvvatni sarflashga bo`lgan ehtiyojni qondirishi deb qarash mumkin. Agar hayvon bir muncha vaqt mobaynidan o`ynaydigan sherigidan mahrum etib qo`yilsa, keyinchalik uning qo`zg`alishi va o`yin faoliyati keskin kuchayadi, ya`ni tegishli kuch quvvat to`plangani kabi hodisa ruy beradi. Bu hodisa “o`yinga to`ymaslik” deb ataladi.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, o`yin bolalarda ham o`z faolligini ro`yobga chiqarish shakli, hayot kechirish va faoliyat ko`rsatish shakli bo`lib xizmat qiladi. Bolaning o`yin harakatlari avval boshdanoq buyumlardan foydalanishning insoniy usullari va amaliy xulq - atvorining katta yoshdagilar bilan muloqot jarayonida va katta yoshdagilar raxbarligida o`zlashtirilib olinadigan insoniy shakllari zamirida rivojlanib boradi.

Bolaning “odamga aylanguncha” egallagan hamma narsani o`rganishdan, ya`ni tajribani o`zlashtirib olishdan iboratdir. Insonning hatti-harakatlari biologik tajriba bilan belgilanmaydi, balki sosial tajriba bilan belgilanadi. Lekin sosial tajribani biologik yo`l bilan berib bo`lmaydi. Sosial tajriba organizmning xususiyatlariga bog`liq bo`lmay, balki inson yashab turgan jamiyatning xususiyatlariga bog`liqdir.

Taraqqiyot davomida shunday vaqt keladiki, unda bolaning hayotiga alohida faoliyat turi kirib keladi. Bu faoliyatning shunday turiki, uning bevosita maqsadi ma`lum informatsiyalar, harakatlar va ish-harakatlar shakllarini o`zlashtirishdan iboratdir. Sub`ektning o`z maqsadi o`rganishdan iborat bo`lgan mana shunday maxsus faoliyatni TA`LIM (O`QUV) deb ataladi. Ta`lim faoliyati o`z tarkibiga quyidagilarni oladi:

a) ma`lum bir ideal va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyat bilan tashqil qilish uchun narsa va hodisalarning zarur xususiyatlari haqidagi informatsiyalarni o`zlashtirish (bu jarayonning mahsuloti bilimdir);

b) mana shu faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul va operatsiyalarni o`zlashtirish (bu jarayonlarning mahsuloti malakalardan iborat bo`ladi);

v) ko`zlangan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to`g`ri yo`l va operatsiya tanlash hamda nazorat qilish uchun ko`rsatilgan informatsiyalardan foydalanish usullarni egallash (bu jarayonning mahsuli - ko`nikmadan iborat bo`ladi).

Shunday qilib, insonning ma`lum bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishda ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta`lim bilan bog`liq bo`ladi. Ta`lim jarayoni insoniyatning ijtimoiy tajribasini o`zlashtirishga yo`naltirilgandir.

O`quv faoliyati o`quvchilarga, yoshlarga bilim berib qolmay, ularni o`z harakatlarini, operatsiyalari va malaka, tajribalarni, bilish jarayonlarini boshqarish o`rgatishga yo`naltirilgan. O`quv faoliyati odamni mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G`oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. T. 1997
2.G`oziev E. Psixologiya. T. 1994.
3. Karimova V. M., Akramova F. Psixologiya. Ma’ruzalar matni - T., 2000.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O’QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Jumanova Dildora Baxodirovna
Xorazm viloayti Shovot tumani
13 – maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda matematika fanini o’qitishda interfaol metodlardan foydalanish.

Kalit so’zlar: maktab, ta’lim – tarbiya, zamonaviy ta’lim.

Maktab, ta’lim – tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo’lishi asosiy qonunimizda belgilab qo’yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo’llab – quvvatlashini talab qiladigan umumiy masaladir. Hozirda har bir maktabda ta’lim – tarbiya saramadorligini oshirish jiddiy vazifa bo’lib turibdi. Buning uchun har bir o’qituvchi o’z fanini o’qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o’rganib borishi orqali o’z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi.

O’rta maktablarda matematika o’qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi: Matematika o’qitishning umumta’limiy maqsadi.

Matematika o’qitishning tarbiyaviy maqsadi.

Matematika o’qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o’qitishning umumta’limiy maqsadi o’z oldiga quyidagi vazifalarni qo’yadi: a) O’quvchilarga ma’lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to’g’risida o’quvchilarga yetarli darajada ma’lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo’limlarini o’rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o’quvchilar o’qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o’rganishlari, ya’ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak

O’quvchilarning og’zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o’rganish o’quvchilarning o’z ona tillarida xatosiz so’zlash, o’z fikrini aniq, ravshan va lo’nda qilib bayon eta bilish malakalarini o’zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so’z o’quvchilarning har bir matematik qoidani o’z ona tillarida to’g’ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to’g’ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir

O’quvchilami matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o’rgatish. Bu yerda o’quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko’zda tutiladi

Bunday bilim berish orqali o’quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy fiklashlari yanada rivojlanadi. Hozirda ta‘lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta‘lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iboratdir. Barcha fan o‘qituvchilari shu jumladan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ham dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol metodlardan borgan sari keng ko‘lamda foydalanmoqdalar.

Boshlang‘ich sinflarda qo‘llanadigan texnologiyalaridan foydalanishning maqsadi: O‘quvchilarda hozirjavoblik hissini rivojlantirish, bahs-munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakillantirishdan iborat. Hozirda keng qo‘llanib kelayotgan interfaol metodlar turlari juda ko‘p bo‘lib, ularning hammasi ham boshlangich ta‘limda qo‘llash uchun yaroqli emas. Bunga 1-navbatda boshlangich sinf o‘quvchisining o‘qish, yozish tezligining kichikligi va sinfda aksariyat hollarda 30 tadan ortiq o‘quvchi o‘qishi bo‘ladi. Interfaol metodlar nisbatan kichik auditoriyalarga (30 tagacha) va ko‘proq uzluksiz ta‘lim tizimining o‘rta va yuqori bo‘ginlariga mo‘ljallangan bo‘lib, boshlangich sinflarda qo‘llash tajribalari juda kam. Shuning uchun yangi texnologiyalarning faqat boshlangich sinf matematika darslarida qo‘llash mumkin bo‘lganlari haqida so‘z yuritamiz. Interfaol metod sinfda o‘tiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni muhokama qilishda -Aqliy hujum, -Adashgan zanjirlar, -Savol bering, -Insert, BBB, - Bahs – munozara, -Muammoli savollar, -Kichik guruhlarda ishlash, -Burchaklar metodi-, - Kubiklar metodlari asosida bahs, munozara orqali ularni yechimini topishda yaqindan yordam beradi. “Aqliy hujum”

texnologiyasini qo‘llash bir muammoni hal qilish yo‘lidan turlicha va iloji boricha ko‘proq taklif, fikr – mulohazalarni yig‘ishdan iborat. Avvaliga har qanday takliflar qabul qilinadi. Keyin esa, ularning ichidan eng ma‘qulini tanlab olinadi. Bu metodni qo‘llashda eng nozik tomoni hamma takliflarni - eslab qolishdir. Shuning uchun ularni yozib borish kerak bo‘ladi. O‘qituvchi ularni shartli belgilar va qisqartirishlar bilan doska yoki vatman qog‘ozga yozib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidaxmedov N.S. Oliy pedagogik ta`limda integral texnologiyalar.
2. 0chilov M. YAngi pedagogik texnologiyalar.
3. Yo’ldoshev J. Xorijda ta`lim. Integratsiyalashgan va maxsus kurslar.
4. O’.AsqarovaG. G.Egamberdieva Boshlang’ich ta`limda integratsiya.

TARIX VA HUQUQ FANLARINING O‘QITILISHI

Jurayeva Yulduz Obloberdiyevna
Zarafshon shahar 3-KBFCHO‘IDUM
tarix va huquq fani o‘qituvchisi
tel:93-314-81-65

Annotatsiya: maqolada tarix va huquq fanlrini o‘quvchilarga o‘qitilishi, maqsad va vazifalari haqida ayrim fikr-mulohazalar berilgan

Kalit so‘zlar: tarix, huquq, maqsad, vazifa, o‘quv fanlari

Bizga ma’lumki, o‘qituvchi fanni o‘qitish jarayonida, avvalo, o‘sha faning maqsad va vazifalarini chuqur bilishi lozim. Shu ma’noda, fanlarga qo‘yilgan maqsad va vazifalar haqida to‘xtalib o‘tamiz. Tarix fanining o‘qitilishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘quvchilarda tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko‘p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash, o‘quvchilarga davlatchiligimiz tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini anglatish, o‘quvchilarda tayanch va tarix faniga oid umumiy va kuchaytirilgan kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Tarix fanini o‘qitishning vazifalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘quvchilarga davlatchiligimiz tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini anglatish, ajdodlarimizning ma’naviy merosi va jasoratlaridan ibrat olishga, ularga munosib voris bo‘lishga o‘rgatish, o‘quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga yo‘naltirish orqali ularning o‘zligini anglash, shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradigan tushunchalar, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat.

Huquq fanining o‘qitilishidan maqsad esa, davlat va huquq asoslari fani o‘quvchilarga huquqiy bilimlar berish orqali ularda huquqiy ong va huquqiy tafakkurni shakllantirish, o‘quvchilarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Davlat va huquq asoslari va huquqshunoslik fanlarini o‘qitishning asosiy vazifasi esa, o‘quvchilarda konstitutsiyaviy burch, majburiyatlarni bilish va ularga rioya qilish ko‘nikmasini hosil qilish, o‘quvchilarda o‘z xatti-harakatlarini belgilangan me’yorlar doirasida tartibga solish va boshqara olishni tarbiyalashdan iborat. Bundan tashqari, o‘quvchilar huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, qonun, axloq, odob kabi huquqiy tushunchalarning mazmunini bila olishi, huquq va huquqqa zidlik haqida ma’lumot bera olishi, axloq va huquq qoidalarini bilishi, bola huquqlari, voyaga yetmaganlik, mehnat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi kabi tushunchalarning mazmunini bila olishi, jamiyat, davlat va huquqning paydo bo‘lishi, huquqbuzarlik va ularning belgilari haqida ma’lumot bera oladi; inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va burchlarini bilishi, hokimiyat va uning bo‘linish prinsiplari, belgilari, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va uning asoslarini tushuntira olishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarga O‘zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligida belgilangan voyaga yetmaganlarning huquqlarini o‘rgatishi va bu asosda huquq sohalari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi, huquqiy voqea va hodisalarni idrok qilishi, kundalik faoliyatida vujudga keladigan turli vaziyatlarni huquqiy jihatdan to‘g‘ri baholab, maqbul qaror qabul qila olishi, huquq manbalarini bilgan holda, voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslarini tushuntira olishi, huquqiy voqea va hodisalarni idrok qilishi, jamiyat, davlat, huquq, huquq sohalari, normativ-huquqiy hujjatlar mohiyati va belgilarini tushuntira olishi, xalqaro umume’tirof etilgan konvensiyalarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bera olishi muhimdir. Shu bilan birga, o‘qituvchi o‘quvchiga davlat organlari va muassasalariga murojaat qilish tartibi va qoidalarini o‘rgatishi va bu asosda o‘quvchilar tanlagan kasbining huquqiy asoslari haqida ma’lumot bera olishi, o‘z kasbiga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlashni bilishi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqlarini hurmat qilishi lozim. O‘quvchilar huquqiy masalalar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda kichik maishiy bitimlarni tuza olishni, voyaga yetmaganlarga oid qonunchilikda belgilangan me’yorlarga rioya etishni, o‘quvchilarning ongi va tafakkurida inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq,

burch va majburiyatlariga rioya qilishni, o‘z xatti-harakatlarini huquq talablariga moslashtirishni, qonunchilikda belgilangan tartibda o‘z huquq va manfaatlarini himoya qila olishni bilishlari shart.

O‘qituvchi o‘z faoliyatida davlat talablarini mukammal bilsa, o‘qitiladan fanining maqsad va vazifasini to‘la tushungan bo‘lsagina, o‘quvchilarga mazmum va bilim bera oladi. Ta’lim murakkab jarayon, uni soddalashtirish har bir o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UserFiles -> kadrlar kadrlar -> Informatika va axborot texnologiyalari fani O‘rta ta’lim (barcha ta’lim olish tillari bo‘yicha) ona tili fanini o‘qitish bosqichlari.

2. https://kompy.info/davlat-va-huquq-asoslari-huquqshunoslik-fani-v2.html

ТАЪЛИМ СИФАТИНИ БАҲОЛАШДА PIRLS ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ ТАЖРИБАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Казакова Сахиба,
Низомий номидаги ТДПУ,
“Тестология ва педагогик ўлчовларни баҳолаш”
мутахассислиги магистранти

Аннотация. *Мазкур мақоладахалқ таълими тизимида ўқувчиларни Халқаро баҳолаш дастурлари бўйича баҳолашнинг назарий жиҳатлари баён этилган. Жумладан, Халқаро баҳолаш дастури PIRLS талабларига асосан баҳолаш кўникмаларини шакллантириш бўйича тавсиялар ўз аксини топган.*

Калит сўзлар:*баҳолаш, матн, ўқиш,тушуниш, даража, аниқловчи, халқаро, тадқиқот.*

Ўзгаришлар даврида таълим тизими ижтимоий жараёнлардан келиб чиққан ҳолда шиддат билан ривожланишни тақозо этади. Таълим орқали жамиятда келажакдаги вазифаларни бажаришга қодир бўлган янги авлод шакллантирилади.

Шуни инобатга олган ҳолда таълим муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, ёш авлоднинг ҳар томонлама пухта билим олиши учун зарур шароитлар, имкониятлар яратиш ва бугунги таълимни халқаро стандартларга тўла мос келадиган миллий тизимини яратишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2018 йил 8 декабрдаги 997-сонли қарорида, умумтаълим мактаб ўқувчиларининг ўзлаштириш кўрсаткичларини назорат қилиш ва баҳолашни халқаро дастурлар асосида амалга ошириш ҳамда таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларда иштирок этиш вазифалари белгиланган[2] лиги сўзимизни исботидир.

Баҳолаш жараёни таълим тараққиётини белгиловчи муҳим мезони ҳисобланиб, Халқ таълими тизимида бундай қарорларнинг қабул қилиниши ҳозирги замон таълимида давлат ва жамият талаби, миллат манфаати йўлида келажак авлоднинг интелектуал салоҳиятни ошириш, бу орқали жамиятни ривожлантириш мақсади акс этади.

Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси бошлиғи Улуғбек Ташкенбаев ҳамда Таълим ютуқларини баҳолаш халқаро ассоциацияси (IEA – Intenational Association for the Evaluation of Educational Achiyevement)нинг Амстердамдаги директори Андреа Неттон(Andrea Netton) ўртасида Ўзбекистоннинг PIRLS(Progress in Intenational Reading and Literacy Study) - 2021 баҳолаш тизимида иштирок этиши юзасидан 2019 йил 25 январ куни илк расмий учрашув ташкил қилинди. 25 январдаги учрашувда PIRLS дастурининг 2021 йил учун мўлжалланган тадқиқотларида Ўзбекистоннинг иштирок этиши ташаббуси IEA ташкилоти томонидан катта олқишлар билан қарши олинди ва ташкилот томонидан барча керакли ёрдам ва тавсиялар берилиши таъкидланди.

Шунингдек, йиғилишда PIRLS – 2021 тадқиқотларида иштирок этиш билан боғлиқ ташкилий масалалар, яъни иштирок этиш шартлари, тадқиқотларни амалга ошириш босқичлари, тадқиқотларнинг самарали ташкил этилишига қаратилган йўриқномалар ва бошқа кўплаб вазифалар атрофлича муҳокама қилинди. Учрашув сўнгида IEA раҳбариятининг кенгайтирилган йиғилишида Ўзбекистон вакилларининг иштирокини таъминлаш ва расмий келишув имзолашга келишиб олинди.

Бундай халқаро таълим дастурлари фаолиятида Ўзбекистон Республикасининг иштирокини таъминлаш халқ таълими тизимида улкан ютуқлар заминини яратилишини кафолатлайди. Шу билан биргаликда нуфузли ташаббуслар ва ҳатти-харакатларни амалга ошириш халқ таълими тизими педагог ходимларидан улкан амалий тажриба ва маҳоратни талаб этади.

Халқ таълими вазирлиги ташаббуси билан умуммий ўрта таълим мактаби ўқувчилари билимларини баҳолаш бўйича халаро дастурларни амалиётга жорий этиш мақсадида самарали ишлар олиб борилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида халқ таълими тизимида ўқувчиларнинг билим даражасини баҳолашда таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро

дастурлар ва изланишлар (PISA, TIMSS, PIRLS ва бошқалар)да Ўзбекистон Республикасининг доимий иштироки таъминланиши қайд қилинган.

Хусусан, дунёда таълим сифати, савияси ва даражасини аниқлаб берувчи PISA (Ўқувчиларни таълимдаги ютуқларини баҳолаш халқаро дастури), PIRLS (Матнни ўқиш ва тушуниш даражасини аниқловчи халқаро тадқиқот), TIMSS (Мактабда математика ва аниқ фанлар сифатини тадқиқ қилувчи халқаро мониторинг) каби бир қатор халқаро дастурлар мавжуд бўлиб, улар ривожланган давлатлардаги таълим сифатини янада оширишдаги мезон сифатида кенг қўлланилиб келинмоқда.

PIRLS (Progress in Intenational Reading and Literacy Study) - халқаро ўқиш саводхонлигини ўрганишдаги юксалиш) - бу турли мамлакатларда бошланғич синфда таҳсил олувчи ўқувчи ёшларнинг матнни ўқиш ва тушуниш даражалари сифатини баҳолаб берувчи халқаро баҳолаш тизимидир. Ушбу синов тури ҳар 5 йилда бир марта ўтказишга мўлжалланган бўлиб, унинг охирги 2016 йилги тадқиқотлари натижаларига кўра Россия Федерацияси етакчилик қилмоқда.

Таълим ютуқларини баҳолаш халқаро ассоциацияси бутун дунё бўйлаб таълимни баҳолаш, тушуниш ва яхшилаш бўйича иш олиб борадиган миллий тадқиқот институтлари, тадқиқот агентликлари, олимлар ва таҳлилчиларнинг халқаро ҳамкоридир. Мазкур нотижорат ва мустақил ташкилот тармоғида 60 дан зиёд мамлакатлар ҳамда 100 дан ортиқ таълим муассасалари иштирок этмоқда. 1958 йилдан буён IEA ўқувчиларнинг математика, табиий фанлар ҳамда ўқиш салоҳияти бўйича саводхонликларини баҳолаш жараёнида таълим тизимидаги камчиликларни бартараф этиш бўйича чора-тадбирлар ҳамда мақбул тавсиялар яратиши билан бошқа халқаро ташкилотлардан ажралиб туради.

PIRLS - тадқиқотида 50 дан ортиқ давлатлар иштирок этиб келмоқда. Мазкур халқаро тадқиқотнинг мақсади турли хил таълим тизимидан иборат бўлган давлатлардаги бошланғич мактаб ўқувчиларининг матнни ўқиш ва қабул қилиш бўйича тайёргарлиги ҳамда ўқувчиларнинг ҳар хил ютуқларга эришишга сабаб бўлувчи таълим тизимидаги ўзига хос хусусиятларни аниқлаш ва баҳолашдан иборат. Албатта, бундай тадқиқот халқ таълими соҳасидаги ходимлар, олимлар, методистлар, ўқитувчилар, отаоналар ва жамоат вакиллари учун катта аҳамиятга эгадир.

PIRLS – тадқиқотлари доирасида турли таълим тизимига эга бўлган давлатлар 4синф битирувчиларининг ўқиш сифати ва ўқилган матнни тушуниш даражаси ўрганилади. Бу тадқиқотларда 4-синф ўқувчиларининг танланиши шу билан эътиборлики, айнан ўқишнинг тўртинчи йилида ўқувчилар ўқишнинг юқори даражасига эга бўлиши, уларнинг кейинги таълимда билимни эгаллаш қобилиятини шакллантириш ва шу орқали ҳозирги замонга муваффақиятли мослашувига ёрдам беради.

Ўқиш ва матнни тушиниш сифати текшириладиган ўқувчиларнинг ёши 10,5 ёшни ташкил этади. Шарқ мамлакатларида болалар 7 ёшдан ўқишни бошлаганлиги учун улардан 10,7-10,9 ёшдаги ўқувчилар тадқиқотда иштирок этади.

Ўзбекистонда илғор хорижий тажрибалар асосида ўқувчиларни билим даражаларини ривожлантириш, ўқувчилар билим кўрсаткичини ташхис қилишнинг мазмуни, шакл ва методларини таълим жараёнига татбиқ этиш борасида самарали ишлар амалга оширилмоқда.

Эслатиб ўтамиз, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш Давлат инспекцияси томонидан халқаро баҳолаш тадқиқотлар, жумладан, OECD ташкилоти билан PISA-2021 халқаро баҳолаш тадқиқотларида иштирок этиш бўйича ҳам келишувга эришилди. Таълим тарбия жараёнидаги бундай харакатлар келажакда ўз самарасини бериши муқаррар.

Бироқ мамлакатимизда халқаро баҳолаш дастурларини таълим тизимини баҳолаш ва мониторинг қилишдаги мақбул тизими тўлалигича яратилмаганлиги, ўқувчилар томонидан у ёки бу фанни ўзлаштириш даражасининг юқори даражада эмаслиги, соҳада амалга оширилиши лозим бўлган ишлар кўламини белгилашда муаммолар мавжудлигини кўрсатмоқда.

Бу эса халқаро баҳолаш дастурларини таълим тизимига жорий этиш бўйича қуйидаги тавсияларни амалга ошириш зарурлигини тақозо этади:

1. Халқ таълими тизими педагог ходимларида PIRLS дастури талаблари бўйича баҳолаш кўникмаларини шакллантириш;
2. Халқаро баҳолаш дастурлари бўйича таълим тизимини баҳолаш ва мониторинг

қилишнинг мақбул тизимини яратиш;

3. Халқ таълими тизими педагог ходимларида малака ошириш ва маҳорат дарслари жараёнида PIRLS дастури талаблари бўйича баҳолаш кўникмаларини услуксиз ривожлантириб бориш;

4. Мактабгача таълим ва умумий ўрта таълим муассасаларидаги гуруҳ ва синфларда халқаро тажрибада синалган шакл ва усуллардан келиб чиққан ҳолда ўқувчилар сонининг максимал ва минимал даражасини белгилаш;

5. Халқаро таълим сифатини баҳолаш дастурларини (PISA,TIMSS, PIRLS) таълим жараёнига татбиғини тезлаштириш;

6. Халқ таълими тизими педагог ходимларини PISA,PIRLS,TIMSS каби халқаро баҳолаш дастурлари бўйича билимларини ошириш учун методик таъминотни яратиш ва ундан самарали фойдаланиш кўникмаларини ривожлантириш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чоратадбирлари тўғрисида»ги 2018 йил 8 декабрдаги 997-сонли қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 – йилгача ривожлантириш концепцияси. – Тошкент, 2019 йил 29 апрел.

3. Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш Давлат инспекцияси матбуот хизмати электрон манзили:www.tdi.uz

DIKSIYA - IFODALI NUTQ ASOSI

Madaminjonzoda Muattarxon Nematjon qizi
Farg’ona viloyati Yozyovon tumani
27-maktab Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarida nutq va uning ahamiyati, nutqni o’stiruvchi vosita hamda mashqlar, bu jarayonda o’qituvchilarning tutgan o’rni haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

Kalit so’zlar: diksiya, nafasni to’g’ri olish, temp, emotsional ta’sir, pauza va logik urg’u,

Diksiya – lotincha “distio” so’zidan olingan bo’lib, so’zlarni aniq, burro talaffuz qilish degan ma’noni anglatadi. Badiiy asarni ifodali o’qishda nafas va ovoz kabi diksiyaning ham o’ziga xos o’rni bor. Badiiy asar o’qishda, mazmunning qayta hikoya qilishda va umuman, og’zaki nutqda diksiyaning qonun-qoidalariga rioya qilishda, nutqning emotsional ta’siri yana ham oshadi. Diksiya bolaga yoshligidan boshlab o’qitilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Chunki bu orqali bolada ravon nutq asoslari yaratiladi. Maktabning ilk kunlaridan boshlab diksiyaga katta e’tibor beriladi. Chunki diksiya bolaning nutqini tushunarli, sof, tiniq, jarangdor bo’lishiga erishishdir. O’quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonida nafasni to’g’ri olish va to’g’ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to’g’ri nafasni to’g’ri olish (burro gapirish) malakasini egallash.
3. Adabiy talaffuz me’yorlarini egallash

Bu shartlar faqat ifodali o’qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya’ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. Yani bolaga o’qib berilgan hikoya yoki ertakni qayta aytib berilishi so’raladi. Bunda o’quvchining har qanday og’zaki hikoyasi ifodali bo’lishi zarur. Ifodali o’qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog’lanadi. Shuning uchun o’qituvchi bolalaming ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o’z nafasini boshqara olish va ovozdan to’g’ri foydalanishga o’rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O’quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o’qish (gapirish)ga, nutqda tez, o’rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg’uni ifodalashga o’rganadilar. Ifodali o’qishga o’rgatishda o’quvchilar pauza va logik urg’u bilan ham tanishtiriladi. Bu orqali bolaning nutqini ta’sirchan qilishga erishish mumkin. Masalan: bola nutq jarayonida emotsiya va hissiyotga, nutqining ta’sirchan bo’lishiga harakat qiladi. Bu nutqdagi kelib chiqishi mumkin bo’lgan turli xato va kamchiliklarni oldini olish imkonini beradi

Ta’lim jarayonida o’quvchining nutqini o’stirish asosan o’qituvchi pedagokka, uning saviyasiga bog’liq bo’ladi. Dars jarayonida o’qituvchi ta’limning samaradorligini oshirish maqsadida turli usul va uslublardan foydalanishi mumkin. Nutqini o’stirish o’qituvchining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Aynan shu muamoni hal etish uchun quyidagicha mashq turlaridan foydalanish mumkin:

1. Baland talaffuzni mashq qilish: Masalan, sara-shira-sara-shira kabi so’zlarni ovozni to qichqiriqqacha balandlatib, so’ngra esa ovozni to shivirlashgacha pasaytirib talaffuz qilish.
2. Talaffuz tempini mashq qilish. Shu sara-shira kabi so’zlarni sekin talaffuz qilib, tempni asta tezlashtira borish.
3. Ayrim undosh tovushlarni, ayniqsa, o’quvchilar qiyinchilik bilan yoki noto’g’ri talaffuz qiladigan so’zlarni qayta talaffuz qilish mashqi.
4. Murakkab tovush birikmalarini talaffuz qilishni mashq qilish. Buning uchun tez aytishlardan foydalaniladi. Misol: Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish.

Bolalarni so’zlayotganda to’g’ri nafas olishga, tovushlami to’g’ri talaffuz qilishga o’rgatish zarur. Ba’zi tortinchoq bolalar tovushni talaffuz qilishga uyaladilar. Bunday vaqtda tovushni, so’zni xor bilan talaffuz qildirish, xor bilan o’qitish, tez aytishlarni xor bilan ayttirish foydalidir.

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki, nutq insonning hayotini ajralmas qismidir. Shunday ekan nutqni shakllantirish va rivojlantirish o’qituvchi pedagoklarning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Shuning uchun ham pedagoglardan talab qilinadigan birgina talab u ham bo’lsa o’z ustida ko’proq ishlash va saviyasini oshirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova|, Safo Matchonov, Xolida G’ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharoljon Sariyev “Ona tili o’qitish metodikasi” Toshkent “NOSIR”a nashriyoti 2009
2. www.ziyouz.com kutubxonasi

O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING ADABIY-ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISH

Mamadaliyeva Xurshida Adhamovna
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani
24- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada o‘qish darslarining ahamiyati, asarni o’rganish jarayoni va mazmunini anglash haqida fikr yuritilgan bo’lib, boshlang’ich sinf o’quvchilarida adabiy tahlil malakalarini shakllantirish usullari yoritilgan.

Kalit so’zlar: asar, matn, tahlil, sintez, mahorat, obraz, tafakkur.

Pedagogik nuqtai nazardan boshlang’ich sinflarda o’qish darslarida asarni o’rganish jarayonining mazmuni va tuzilishi ko’p jihatdan fanni o’qitishning maqsad va vazifalari bilan belgilanadi. O’qish darslarining maqsadi milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ma’naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borish.

O‘quvchining estetik zavqi va didini shakllantirishda badiiy adabiyot alohida o‘rin tutadi. Chunki badiiy asarni o‘qir ekanmiz, undagi voqelarga, personajlarga befarq qaray olmaymiz. Badiiy asarlar ta’sirida tug‘ilgan mana shunday tuyg‘ular estetik tuyg‘u deyiladi. Estetik tuyg‘u bizda yaxshi fazilatlarni parvarish qilib, har qanday yomonlik va razolatga qarshi nafrat, chinakam go‘zallikka nisbatan muhabbat hissini uyg‘otadi. Shu asosga ko‘ra, yosh kitobxonlar nazarida ijodkor – sehrgardir. Ko’rinadik, o’qish jarayonida badiiy kitob bilan qanday ishlashni biladigan malakali o’quvchini shakllantirish ham o’qish darslarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

O’qish darslarida quyidagi vazifalarni amalga oshirish mumkin:

1. To’liq o’qish ko’nikmalarini shakllantirish.
2. Badiiy asarlar va matnlar bilan ishlash ko’nikmalarini shakllantirish
3. O’quvchilarning axborot bilan ishlash ko’nikmalarini shakllantirish.
4. O’quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.

“O’qish” darsligidagi asarlar o’quvchining badiiy matnni idrok etish xususiyatlarini hisobga olgan holda asoslangan. Psixolog olimlarning fikriga tayansak: “Asarni to’la-to’kis idrok etish faqatgina uni anglash bilan cheklanmaydi. Bu unda tasvirlangan voqelik asosida munosabatlarning paydo bo’lishiga asoslangan aniq jarayonni o’z ichiga oladi”. Ko’rinadiki, badiiy asarni o’rganish jarayoni adabiy matnning badiiy xususiyatlarni hisobga olgan holda qurilishi kerak. Jumladan, adabiy asarning badiiy xususiyatlari: janr xususiyatlari, asar mavzusi, asar g’oyasi, asarning majoziy tizimi, badiiy obrazlarni yaratish vositalari, matnning syujeti va tarkibi va uning til xususiyatlari.

Asarni o’rganish jarayoni tuzilishi va tarkibi xususiyatlari bir necha bosqichni o’z ichiga oladi.

- matnni idrok qilish (muallif, uning ijodi, asarning yaratilish tarixi, asosiy voqealar va boshqalar haqida);
- matnda keltirilgan asosiy tushunchalarning ma’nosini tushuntirish;
- matnni idrok etish uchun hissiy tayyorgarlikni ta’minlash, bolalarni tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, ifodali o’qish hamda fikrni yozma bayon qilish, ijobiy motivatsion asosni yaratish;
- bolaning o’qish faoliyatini rivojlantirish.

Bunday paytlarda bolalarning hayotiy tajribasi asosida o’qituvchining tasvirlagan hikoyasi (muallif portreti bilan) fotosuratlar, illyustratsiyalar va boshqalar suhbatlar uyushtirish mumkin. Masalan, 2-sinflarda G’ani Abdullayevning “Zilol suv” hikoyasida tashqi belgilar bo’yicha - sarlavha, muallifning ism, familiyasi, kalit so’zlari, rasmlar va boshqalar suhbat uyushtiriladi. Matnni tahlil qilishda matn mavzusini syujetga hamda kompozitsiyaga(fikrni aniqlashtirish uchun) asosan tushuntirish. Suhbat matnga asoslangan bo’lishi kerak.

Matnlarni tahlil qilganda tahlili jarayonida quyidagi savollarni berish mumkin:

- Matn uchun rasmni ko’rib chiqing. U qaysi qismga mos keladi?
- Muallif qahramon portretini qanday tasvirlaydi? Toping va o’qing ...
- Ta’rif berishda muallif qaysi so’zni tanladi ....
- Matnda nechta qismni ajratib ko’rsatish mumkin? 1- qismini toping va o’qing.

Bundan tashqari matnni tahlil qilishda turli savollar va topshiriqlardan foydalaniladi:

- *matndagi sababiy munosabatlar* (- Nega? - Nima deb o’ylaysiz?),
- *baholovchi* (- Siz rozimisiz ...? - Qahramonlar o’rnida o’zingizni qanday tutgan bo’lardingiz? -Qanday baholaysiz ...?),
- *umumlashtirish* (- muallifning asosiy g’oyasi nima? - Qanday qilib uni tushunasizmi?) va hokazo.

Matnni tahlil qilish jarayonida quyidagi ish usullarini ham qo’llash mumkin:

leksik mashqlar, matnni tasvirlash, reja tuzish (hikoya, savol, rasm va boshqalar)

“Zilol suv” hikoyasi tahlilida quyidagi svollarni berish mumkin:

1. Hikoya qahramonlarini nomma-nom ayting.
2. Siz Tohirning o‘rnida bo’lsangiz, nima qilar edingiz.
3. Suvni asrash uchun nima qilish kerak?

Xulosa qilib aytganda, o’qish darslarida asarni o’rganish jarayoni va mazmuni o’qituvchidan mahorat va mas’uliyat talab etadi. Darslarning bunday tashkil etilishi o’quvchilarda badiiy asarlar va matnlar bilan ishlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumaboev M Bolalar adabiyoti.-T.: “O’qituvchi”,1994.
2.Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari.–T.O‘qituvchi, 1996.
3.Matjon Safo.Kitob o’qishni bilasizmi?-T.: “O’qituvchi”1993.
4.Matjon Safo. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar (O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma).-T.: “O’qituvchi”, 1996.

BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARI NUTQIGA QO`YILADIGAN TALABLAR.

Mardonova Mohigul Teshayevna
Buxoro viloyati G`ijduvon tumani
4-maktab boshlangich sinf o`qituvchisi
(+998919209120)

Annotatsiya: Nutq fikmi bayon etish vositasi bo’libgina qolmay, uni shakllantirishquroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi,uni o’stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o’stirish mumkin. Shuning uchun o’quvchilar nutqini o’stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo’naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

**Kalit so`zlar:** Nutq, bog`lanishli nutq, komptensiya, metod, mantiq, didaktika, pedagogik mahorat.

O’quvchilar nutqini o’stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:

1. O’quvchilar nutqi mazmundor bo’lsin. Hikoya yoki insho o’quvchilar uchun yaxshi ma’lum bo’lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko’rsatuvdan olgan ma’lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo’ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko’rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so’zlashga yo’l qo’yilsa, nutq mazmunsiz chiqadi.

Nutq o’stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya’ni material yig’ish, uni muhokama qilish, to’ldirish, asosiy mazmunni ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o’quvchilaming yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. Nutqda mantiqiylik bo’lsin. O’quvchilar nutqi mantiqan to’g’ri bo’lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o’rinlar tushirib qoldirilmasligi va o’rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo’lmagan ortiqchalikka yo’l qo’yilmasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyligi narsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, mantiqiy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o’ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taalluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar

ham mavjud.

3. Nutq aniq bo’lsin. O’quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o’rgansin.

4. Nutq til vositalariga boy bo’lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o‘quvchi nutqi til vositalariga boy bo‘lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko’nikmasiga ega bo’lishi zarur. Albatta, boshlang’ich sinf o‘quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo‘yib bo’lmaydi, ammo o’qituvchi o’quv ishlarida ularning so’z boyligini oshirib borishni har vaqt ko’zda tutishi kerak.

5. Nutq tushunarli bo’lsin Og’zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o’quvchiga tushunarli bo’lishi zarur. So’zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o’quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq ifodali bo’lsin. Agar nutq ifodali, ya’ni jonli, ishontiradigan bo’lsa, eshituvchiga yoki o’quvchiga ta’sir etadi. Og’zaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali ta’sir etsa, og’zaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va o’quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so’zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida ta’sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo’lishi har qanday shevagaxos va ortiqcha so’zlardan xoli bo’lishini taqozo etadi.

7. Nutq to’g’ri bo’lsin. Maktab o’quvchilari uchun nutqning adabiy til me’yorlariga mos va to’g’ri bo’lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og’zaki nutq esa orfoepik jihatdan to’g’ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to’g’ri bo’lishiuchun so’z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega.Yuqorida sanab o’tilgan talablar o’zaro bir-biri bilan uzviy bog’liq bo’lib, ta’lim tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Grammatika va to’g’ri yozuv darslarida tilni maxsus o’rganish bilan bolalar alohida tovush, bo’g’in, so’z va gaplarni eshitishga va talaffuz qilishishga o’rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko’pgina so’zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo’g’in, so’z, o’zak, qo’shimcha, so’z turkumi, ot, sifat, fe’l, son, olmosh, bog’lovchi, gap, gap bo’lagi, darak gap, so’roq gap, undov

gap singari juda ko’p yangi atamalarni bilib oladilar.

O’quvchilar nutqini o’stirishda o’qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O’qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg’ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta’sirli so’zlashi, shuningdek, har doim o’quvchi daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so’zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o’rgatadi, tilga sezgirlikni uyg’otadi.

Xulosa: Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo’lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib etiladi, yuzaga chiqadi.

Ikkinchi tomondan, nutqning o’sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Qosimova|, S. Matchonov, X. G’ulomova va boshqalar ”Ona tili o`qitish metodikasi”
2.Internet ma`lumotlari.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI TURLI KO’RINISHDAGI MASALALAR YECHISHGA O’RGATISH

Ibragimova Shoira Ròzmatovna
Masharipova Manzura Yòldoshovna
Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi
22- sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari
telefon:+ 998995282055
telefon:+ 998974572181

Annotatsiya: Boshalng’ich sinf o’quvchilariga masala yechishga o’rgatishning muhimligi shundan iboratki, o’qituvchi o’zining asosiy e’tiborini matnli masalalar mazmunini matematika tiliga ko’chirishga qaratmog’i lozim.

Kalit so‘zlar: matematika ,sodda masala, component, proportsional, struktura, arifmetik amallar.

Ma’lumki boshlang’ich sinf o’quvchilariga matematika darsligida juda ham ko’p uchraydigan masalalar va ularning yechimlarini topish haqidagi ma’lumotlarni biz 1-sinfdayoq ularga o’rgatib, ulardagi bilish va fikrlash qobiliyatini o’stirib borishimiz juda ham muhimdir.

Masalalar yechishdagi hisoblash ishlari sonli masalalarni yechish malakalarini shakllantirish mashq qilishga nisbatan kamroq vaqtni talab qiladi. Masalan, biz o’quvchilarga masalaning yechimlari haqida to’liq tushuncha berganimizdan so’ng, bu yechgan masalamizning o’quvchi tushunib yecha olishi uchun biz masalaning eng ratsional qismini aniqlab va shu usulda masala yechishga ko’proq o’quvchini jalb qilishimiz kerak. Matematik masalalar sodda va tarkibli masalalarga ajratiladi. Sodda masalalar bitta amal bilan yechish mumkin bo’lgan masalalar jumlasiga kiritiladi. Bundan tashqari, sodda masalalar orasidan bilvosita ifodalangan masalalar ajratiladi Masalan quyidagi masala shunday masalalar jumlasiga kiradi. „Stol ustida 7 ta qalam bor. Bular qutidagi qalamlardan 4 ta ortiq Qutida nechta qalam bor?” Bu masala shartida ortiq” deyilgan masala esa ayirish bilan yechiladi. (7-4-3).

1. Sodda masalalarning asosiy turlarini quyidagicha taqsimlash boshlang’ich maktablarida qo’llanish uchun qulay: Arifmetik amallar mazmunini ochishga doir masalalar yig’indini qoldiqni topishga doir masalalar, bir xil qo’shiluvchilar yig’indisini topishga doir masalalar, bo’lishga (mazmuniga ko’ra bo’lishga vat eng qismlarga bo’lishga) doir masalalar.
2. Amalning noma’lum komponentlarini (qo’shiluvchi, kamayuvchi, ayriluvchi, ko’paytuvchi, bo’linuvchi, bo’luvchi) topishga doir masalalar
3. Bir necha birlik (yoki bir necha marta) ortiq (yoki kam) munosabati bilan bog’liq masalalar sonni bir nechta birlik (yoki bir nechta marta) orttirish yoki kamaytirishga doir bevosita (yoki bilvosita) ifodalangan masalalar, sonlarni ayirmali (yoki karrali) taqqoslashga doir masalalar.
4. Kattaliklarning proportsional bog’lanishlari turidagi sodda masalalar o’quvchi uchun quyidagi maqsadlarda kerak bo’ladi:

1) Matematik masalalning strukturasi (tarkibi) bilan tanishish, ya’ni uning sharti berilganlari savoli izlanayotgan miqdorlari bilan masalaning yechimi, savoli, javobi, amal bilan shuningdek, va hk. atamalari bilan (bular matematik munosabatlarni ifodalaydi) tanishish
2) Bolalarda masala savoliga javob berish uchun bajarish kerak bo’lgan amallarni tanlashga ongli munosabatda bo’lishni tarbiyalash (masalalar, amallar mazmunini ochishga yordam beradi).
3) Shatrga kirgan kattaliklar orasidagi elementar funksional munosabatlarni birinchi marta ko’rish amallar komponentlar orasidagi bog’lanishlarni. tushuntirish.
4) Har xil matematik mashqlarni hayot bilan bog’lash bu bolalarni fanga bo’lgan qiziqishlarni orttiradi, ko’nikmalarni egallash jarayonini jonlantiradi.
5) Sodda masala tekstini o’zgartirish ustida ishlash o’quvchiga ko ‘proq obstrakt matematik tushunchalarni egallashga yordam beradi. Masalan, ushbu „Malika 7 ta daftar sotib oldi. Daftar 200 so’m turadi. Malika qancha pul to’lagan?” Masalaning turini, masalan, daftarning bahosi 200 so’m, 7 ta daftar qancha turishini biling, kabi abstrakt tushunchalarni kiritish bilan o’zgartirish mumkin.

O’quvchini har xil tarkibli masalalar yechishga tayyorlash , bola ongiga matematika asoslarini

joylash, uning bilim doirasini kengaytirish va tartibga solish, iroda va talabchanlikni tarbiyalash. Matematikani o’qitish sistemasida sodda masa lalar juda muhim rol o’ynaydi. Sodda masalalarni yechish yordamida matematika boshlang’ich kursining markaziy tushunchalaridan biri - arifmetik amallar haqidagi tushuncha va boshqa bir qator tushunchalar shakllanadi. Sodda masalalarni yecha olish o’quvi o’quvchilarning murakkab masalalarni yechish o’quvini egallashlarida tayyorgarlik bosqichi bo’ladi, chunki murakkab masalalarni yechish qator sodda masalalarni yechishga keltiriladi. To’plamlarni birlashtirish amali qo’shish amaliga, to’plamning qismini chiqarish esa ayirish amaliga muvofiq kelishini bolalar yaxshi o’zlashtirishlari lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak masalalarni yechishda o’quvchilar shu ko’rsa tilgan topshiriqlarni qatiy belgilangan tartibda ko’p marta bajarsalar, u holda ularda masala ustida topshiriqlarga muvofiq ravishda ishlash usuli sekin-asta shakllanadi. Bu esa kelgusida bolalar masalalarni mustaqil hal qila olishlariga imkon beradi . Dastlabki tayyor masalalarni yechayotganda bolalar masala va uning yechilishiga doir terminologiyani o’zlashtirishlari ustida ishlashi kerak. Shu sababli ham bosh lang’ich sinf matematika darslarida masalalar yechish usullarini to’g’ri tashkil etish, undan oqilona foydalanish, masalaning turli shakllarini tashkil etish va unda turli didaktik vositalardan imkon darajasida foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmog’i maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Alixonov S. “ Matematika o’qitish metodikasi “ Toshkent.: “O’qituvchi” 2001.

2.M.E.Jumayev, Z.G’.Tadjiyeva, O.Toshmetova, “Boshlang’ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni metodikasi Toshkent 2005.

3.Jumayev M.E. Matematika o’qitish metodikasidan praktikum” Toshkent.: O’qituvchi, 2004.

4.Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi -T.: “Ilm-Ziyo”,2005.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO’NALTIRISHDA TEXNOLOGIYA FANINING AHAMIYATI

Matyaqubova Nargisa Shamurotovna
Qo‘shko‘pir tumani 37- maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Bekchanova Dilbar Erkinovna
Qo‘shko‘pir tumani 37- maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

***Annotatsiya**: ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda texnologiya fanining ahamiyati va o’quvchilarning ijodiy qobilyatlarini rivojlantirishda buyuk ajdodlarimizning fikrKalit so’zlar lari keltirib o’tilgan.*

***Kalit so’zlar:** fazilatida, muvassar, tug‘ma.*

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to‘g‘risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta’lim – so‘z va ko‘nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish - harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb- hunarning chinakam shaydosi bo‘lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglashilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo‘lib kelgan. Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san’atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug‘ma emasdir, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug‘lik bo‘lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda podshohlar ham o‘zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo‘lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat ulug‘ tug‘ma fazilat va ulug‘ (kasb-hunar) fazilati odat – malaka bo‘lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo‘ladi, bunday odamlar cheksiz, juda kuchli tabiat va irodaga egadirlar.

Boshlang’ich sinflarda texnologiya faning asosiy maqsadlaridan biri, o’quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, shuningdek har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shuning uchun ham texnologiya darslarida deyarli 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan.

O’qituvchi o’quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste’dod nishonalarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin. Bolaning kasbiy muhim xislatlarini oldinroq anglash esa, keyinchlak unga o’z qobiliyati va xususiyatlariga qarab kasbni to’g’ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o’zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini beradi.

Ko’pgina olimlar o’tkazgan tadqiqot shuni ko’rsatadiki, maktab o’quvchilarining 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang’ich sinflardayoq shakllanar ekan. Bunda texnologiya fanining ahamiyati katta hisoblanadi. Bu fan orqali boladagi qiziqish qobiliyati uning boshlang’ich sinfidan shakllantirib boriladi.

Bolada ijodiy qobiliyatni shakllantirish, dunyo qarashini kengaytirish, uni dunyoning oq va qora jihatlarini tasavvur qila olishga, o’rgatishga aynan texnologiya, tasviriy san’at fanlari orqali amalga oshiriladi.

Jim kasbini qildi to joni bor,
Hunar o’rgandi onga ki imkoni bor.

X asrda yashab ijod etgan ulug‘ bobokalonimiz Abu Nasr al- Forobiy ham kishilarni halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chaqiradi. Forobiyning fikricha: «Inson ojiz banda, hech narsaga qodir bo’lmagan mavjudod emas, balki u eng oliy kamolot natijasi bo’lib o‘z aql-idrok ziyosiga ega, o‘zi ucluin zarur bodgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir». Forobiy mehnat va kasb-hunar ko’nikmalarini, axloqiy fazilatlarni hosil qilish lozimligini ta’kidlab: «Agar kasb-hunar fazilati tug’ma bo’lganda, podshohlar ham o‘zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muvassar bo’lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo’lib qolar edi. Kasb- hunar fazilati tug‘ma bo’lmas ekan, xalqlar va shahar ahllarida, odob-axloq, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilishi insondan zo‘r kuch va qudrat talab qiladi. Bu ikki yod bilan, ya’ni tadim va tarbiya vodi bilan hosil qilinadi. Ta’lim degan so‘z xalqlar va

shaharlar o’rtasida nazariy fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir», — degan edi.

Texnologiya fani o’qituvchisi nafaqat o’quvchilarni badiiy- ijodiy qobiliyatini o’sriradi, balki ularni to’g’ri kasb tanlashga tayyorlaydi. Maktablarda kasb-hunarga yo’naltirish ishlarini yo’lga qo’yishda an’anaviy amaliy mashg’ulot olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo’yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo’lgan farzandlarimizning munosib kamol topishida biz o’qituvchilardan kuchli bilim va iste’dodni talab qiladi. Biz shunday yuksak cho’qqilarga albatta erishamiz.

Foyalanilgan adabiyotlar

1. Inomova M. Ta’limga yangicha yondashuv. BoshlanG’ich ta’lim. 2000. 5- son, - 8- 13 betlar.
2. Yo’ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari.- T.: «O’qituvchi», 2004. – 176 bet.
3. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. - T.: «O’qituvchi». 2011. - 94 -112 b.
4. Mamatqulov E. Mehnat ta’limi samaradorligida interfaol usullar. Maktab va hayot. 2005. 1-son. – 15 -16 betlar

O’ZBEK TILI DARSLARIDA SO’Z TURKUMLARINI O’QITISHDA INTERFAOL USULLARNING AFZALLIKLARI

Maxmudova Surayyo Xamitovna
Qarshi shahar 12-son umumiy o’rta ta’lim
maktabining o’zbek tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada tilshunoslik bo’limlari haqida ilmiy ma‘lumotlar yoritilgan bo’lib, leksikologiya so’zning atash ma‘nosini, morfologiya esa uning grammatik ma‘nosini va bu ma‘nolar ifodalovchi vositalar haqida ma‘lumotlar berilgan.*

Kalit so’zlar: *pedagogik texnologiya, interfaol, metod, usul, morfologiya, Grammatik ma‘no*

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: ―Biz ta‘lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosidatakomillashtirishni o’zimizning birincha darajali vazifamiz deb bilamiz. Shu bois ham hozirda ta‘lim sohasi xodimlari zimmasiga juda katta mas‘uliyat yuklatilgan.

Chunki millatimiz, yurtimiz kelajagi va poydevori bo’lmish yoshlarni har tomonlama yetuk, ma‘naviy barkamol, aqlan puxta, iqtidorli, zamonaviy, yuksak did va ma‘naviyatga ega bo’lgan yoshlarni tarbiyalash ta‘lim sohasidagilar oldidagi ulkan vazifalardan sanaladi. Ta‘lim sohasida dars samaradorligini oshirish o’qituvchi va o’quvchi hamkorligiga bog’liq. Hozirgi iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi islohotlar ta‘limning sifat jihatdan yangi pog’onaga ko’tarilishini talab etmoqda. Bu o’rinda ta‘lim-tarbiya jarayonida yangi interfaol metodlar, samarali usullarni qo’llanilishi o’rinli bo’ladi.

O’qituvchi dars jarayoniga tayyorgarlik davomida har bir darsiga qanday interfaol metodlarni qo’llashni rejalashtiradi. O’qituvchi interfaol metodlardan, avvalo, oddiydan murakkabiga o’tish nazariyasiga amal qilgan holda foydalanmog’i lozim.Kichik guruhlarda ishlash, Juftliklarda ishlash,

Aqliy hujum, Klaster, Beshinchisi ortiqcha, SWOT- tahlil.

Umumiy o’rta ta‘lim maktablarida o’zbek tili fanining (7-sinf) morfologiya bo’limini o’qitish o’quvchilarda o’rgatishda interfaol usullardan mohirlik bilan foydalanish ancha samara beradi. Nutq talabi bilan so’zlar turli qo’shimchalarni qabul qiladi, o’zgaradi, turfa ma‘nolarni ifodalash uchun xoslanadi. Leksikologiya bilan morfologiya o’rtasida uzviy aloqa mavjud. Harikkisida so’z o’rganiladi. Ular so’zning qaysi tomoni o’rganishi bilan farqlanadi. An‘anaviy dars tuzilishidagi ―uy vazifani so’rab baholash bosqichiga to’g’ri keladi. Darsda o’tilgan mavzu bo’yicha savollar berilishi yoki ―Klassterdan foydalanish mumkin.

Chaqiriq bosqichida o’qituvchi ―Zanjir usulidan foydalanishi mumkin. Bu usul darslarda qo’llanganda o’quvchilarning hozirjavobligini shakllantiriladi.Bunda o’qituvchining o’z bilimini tezkorlik bilan namoyon etishi talab qilinadi.Shuni ta‘kidlash o’rinliki, eng yaxshi javoblar vaqt tig’iz bo’lganda tug’iladi. Masalan: ―So’zlarning tuzilishiga ko’ra turlari mavzusi bo’yicha o’qituvchi birorta misol (qo’shma so’z: gulqaychi) keltiradi. O’quvchilar qo’shma so’zlar zanjirini davom ettiradi. O’z misollarini navbatma- navbat qisqa vaqtda aytadilar va zanjirni bog’laydilar. Shartga amal qilmagan va qo’shma so’zni takror aytgano’quvchi zanjirni uzgan bo’ladi va u jarima oladi. Jarima olgan o’quvchi o’yin so’ngida o’qituvchining qo’shimcha savoliga javob beradi. Bu usul, ayniqsa, morfologiya bo’limi va quyidagi mavzularni o’rgatishda samarali usul sifatida tavsiya qilinishimumkin.

1. So’zning yasalishi.
2. Mustaqil so’z turkumlarida.
3. Yordamchi so’z turkumlarida

Yuqorida keltirilgan noan‘anaviy usullarning samara berishi o’qituvchining bilim darajasiga,o’quvchilar bilan ishlash mahoratiga bog’liq. Ilg’or pedagogik texnologiyalarni darsda qo’llash uchun o’qituvchi, pedagog xodim izlanuvchi, yaratuvchi,o’z faniga doir so’nggi yangiliklardan xabardor bo’lmog’i, zamon bilan hamnafas,o’ziga bo’lgan yuqori ko’nikma va malakaga ega bo’lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik
2. har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. T.: O’zbekiston. 2017.
3. 2. Hojiyev A.Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. – Toshkent, 2012.
4. 3.Jumaniyozova M., Ishmuhammedov R. Ta‘limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent: Iste‘dod, 2012.

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI OBRAZLAR VA HIKOYATLARNING BADIIY XUSUSIYATLARI

Mirsolihova Sanobar Akromovna,
Toshkent shahar Yangihayot tuman 32-maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Hayrat ul-abror” dostonidagi obrazlar va hikoyatlarning badiiy xususiyatlar, dostondagi yigirma bitta hikoyatdagi o’nlab so’fiylar, shayxlar, hukmdorlar, an’anaviy obrazlar va turli toifa kishilarining timsollari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Hayrat ul-abror” dostoni, so’fiylar, shayxlar, hukmdorlar, “sof” to’qima obrazlar*

“Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarda turli mavzular qalamga olinganidek, ulardagi obrazlar ham xilma-xildir.

Dostondagi yigirma bitta hikoyatda o’nlab so’fiylar, shayxlar, hukmdorlar, an’anaviy obrazlar va turli toifa kishilari timsollari uchraydi. Ularning asosini diniy tasavvufiy faoliyat bilan bog’liq shaxslar, shuningdek, shohlar, amir va hukmdorlar obrazlari tashkil etadi. Professor N.Mallayev Navoiyning turli asarlarida uchraydigan hikoyatlardagi obrazlar haqida quyidagilarni yozadi: “Navoiy hikoyatlarining qahramonlari tarixiy, yarim afsonaviy shaxslarning nomi bilan bog’lanadi, ularnig orasida “sof” to’qima obrazlar ham anchagina. Qadimgi shohlar, yunon olimlari, Faxriddin Roziy, Hotami Toyi, Ibrohim Adham, Xoja Porso, Boyazid Bistomiy va boshqalar Navoiy hikoyalarining qahramoni. Ammo, hikoyalardagi qahramonlar aynan tarixiy shaxslarning obrazi bo’lmay, balki ayrim jihatlarini saqlab qolishiga qaramay, badiiy fantaziya, ijobiy to’qima bilan yo’g’rilib, allaqachonlar an’anaviy adabiy obrazlarga aylanib ketgan edi: Anushervon, Jamshid, Iskandar va boshqalar – adolat, shoh-shavkat; Arastu, Aflotun, Luqmon, Faxriddin Roziy va boshqalar – aql va donolik; Hotam Toyi – saxovat ramzi va hokazo; Majnun, Shayx San’o, Vomiq va Uzro, Xusrav va Shirin – an’anaviy oshiq-ma’shuqlar. Bu an’anaviy obrazlar bilan birga biz Navoiyning ayrim hikoyalarida uning zamondoshlarini ham ko’ramiz. Masalan, “Hayrat ul-abror”dagi “Shoh G’oziy” hikoyasida Husayn Boyqaro (ideallashtirilgan shoh obrazi sifatida); shu dostondagi “Ikki vafoli yor” hikoyasida Amir Temur obrazlari berilgan”[1]

Birinchi hikoyatda Boyazid nomi tilga olinadi. Asarda u iymonli, insofli, shaxs sifatida namoyon bo’ladi. Ayrim tadqiqotchilar Boyazidning otasi Surushon islomni qabul qilgan, biroz vaqt mansabdor ham bo’lgan deyishadi. Boyazid Bistomiyning o’qish yillari haqidagi fikrlar har xil: ba’zilar u biron bir maktab yoki ustoz qo’lida tahsil ko’rmagan, barcha ilmlar unga Olloh tomonidan in’om etilgan deyishsa, bir guruh sharqshunoslar “Boyazid uch yuz donishmanddan dars olgan” deyishadi.

Ikkinchi hikoyatda Ibrohim Adham va Robiya Adviya nomi uchraydi. Ular ham o’zini islom yo’liga bag’ishlagan mashhur so’fiylardan.. Ibrohim Adham zodagon oilada dunyoga keladi. Yoshligida yaxshi bilim oladi, ilohiyotga qiziqib haq yo’liga kiradi. Biroz vaqt shahr hokimi vazifasida ishlaydi. U haqda ko’plab rivoyat va afsonalar yaratilgan. [2]

Robia Adviya (Adaviya) ham mashur so’fiy ayollardan. U taxminan 713-718-yillar oralig’ida Basrada donishmand Ismoil Adaviy Kaysi oilasida dunyoga kelgan. Qiz oilada to’rtinchi farzand bo’lgani uchun unga “Robia” deb nom qo’yishgan.

To’rtinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Abdulloh Ansoriy nomi uchraydi. Bu ham mashhur so’fiylardan. O’z davri va undan keyingi asrlarda ham Sharqda ulkan shoir va shayx sifatida shuhrat sohibi bo’lgan Abdulloh Muhammad Ansoriy 1006-yilda Hirotning Ko’handich mahallasida alloma Abuayub Ansoriy xonadonida tavallud topgan.

O’n birinchi maqolatga misol sifatida keltirilgan hikoyatda Imom Faxr Roziy nomi keltirilgan. “Faxriddin Roziy (to’liq ismi Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad bin Umar ibn al-Husay) mashhur kalom olimi va diniy falsafa namoyondasi.

O’n sakkizinchi maqolatda ilova qilingan hikoyatda Suhrovard va Yoqut obrazlari bor. Yoqut – arablar orasida shuhrat topgan kotib. Bag’dodda Abbosiy xalifa Musta’sim davrida yashagan.

1 Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. 185-186-betlar.
2 Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent, 2004. 20-22-betlar.

“Qur’onni ko’chirishda yagona hisoblangan. Shayx Suhrovard esa mashhur so’fiylardan. Yirik va mashhur tariqat arbobi, o’z davrining yagonasi, nurlar matla’i, sirlar manbai, tariqat rahbari, haqiqat tarjimoni, zohir va botin ilmlarida barcha ulug’ shayxlarning ustozi, oriflar yo’lboshchisidir.

Dostonda Ayyub obrazi ham bor. U Qur’onda nomi zikr etilgan yigirma besh payg’ambardan biri. Ayyub nomi va qissasi Tavrot, Injil hamda boshqa qadimiy kitoblarda ham keltirilgan. Ayyub har qanday musibatlarga, qiyinchiliklarga sabr-toqat qiluvchi, bardosh beruvchi inson timsoli sifatida tanilgan.

Hikoyatlarda hukmdorlar obrazi ham uchraydi. Ularning ayrimlari tarixiy shaxslar bo’lsa, ba’zilari afsonaviy shaxslar hisoblanadi. Uchinchi maqolatga “Shoh G’oziy” haqidagi hikoyat keltirilgan. Shoh G’oziy – bu Husayn Boyqaroning ideallashtirilgan obrazidir. Navoiy “Xamsa” dostonlarining ayrim boblarida Husayn Boyqaroni madh etadi. “Majolis un-nafois”ning sakkizinchi majlisini ham unga bag’ishlaydi. “Shoh G’oziy” hikoyatida esa uni adolatli hukmdor sifatida ko’rsatadi.

“Hayrat ul-abror”da “No’shirvon hayosi” bilan bog’liq hikoyat mavjud. Unda No’shirvon (Anushirvon) haqida gap boradi. “Sharq xalqlari kitobiy adabiyoti va folklorida juda keng tarqalgan an’anaviy obrazlardan biri No’shirvon (Anushervon)dir. Navoiy No’shirvon nomini odillik ramzi sifatida bot-bot zikr etish va tavsiflash bilan birga, uning to’g’risida bir necha hikoyat ham keltiradi. Bu hikoyatlar “Hayrat ul-abror” va “Tarixi muluki Ajam”dan o’rin olgan”.[1]

Dostondagi “Ikki vafoli yor” hikoyatida Amir Temur nomi keltirilgan. Amir Temurning kimligini yaxshi bilamiz. “Amir Temur tarixiy manbalarda Temur, Temurbek, Amir Temur va Sohibqiron nomlari bilan bir qatorda Amir Temur Ko’ragon, Sohibi jahon (olam egasi) hamda Sohibi adl (Adolat o’rnatuvchi) kabi qator ulug’ va qutlug’ nomlar bilan ham tilga olinadi.

O’n birinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Sulton Muhammad Xorazmshoh obrazi uchraydi. U Imom Faxr Roziyga qarshi tarzda keltirilgan. Ilm bilan shohlik qiyoslanib, ilmning abadiyligi ta’kidlanadi.

Dostondagi yana bir hikoyatda Iskandar nomi uchraydi. U ham shuhrat qozongan Aleksandr Makedonskiyning Sharqdagi ideallashtirilgan nomi. Iskandar, Iskandar Zulqarnayn – Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obraz. Iskandat Qur’onning surasida eslangan Zulqarnayndir. U Sharqdagi musulmon xalqlari orasida mashhur. Navoiy “Tarixi muluki Ajam”da Iskandar haqida afsona, rivoyat va tarixiy asarlardan kelib chiqib fikr yuritadi.

O’n to’qqizinchi maqolatdan so’ng keltirilgan hikoyatda Bahrom obrazi uchraydi. Bu obraz Navoiyning ko’pgina asarlarida, ayniqsa, “Xamsa”ning to’rtinchi dostoni – “Sab’ai sayyor”da keng tasvirlangan. “Bahrom Go’r yoki Varaxran V (shohlik yillari 421-438) – Eronda hukmronlik qilgan sosoniylardan Yazdigardning o’g’li. Yaman shohi No’mon va uning o’g’li Munzir tarbiyasida o’sgan. Nizomiyning “Haft paykar”, Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht” va Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonlarida Bahrom Go’r adolatli shoh, jasur sarkarda, ayni paytda maishatparast, xudbin shaxs sifatida tasvirlangan. Ma’lumotlarga ko’ra, Bahrom Go’r 63 yil (ba’zi manbalarda 70 yil) umr ko’rgan”.[2]

Umuman, hikoyatlardagi obrazlar ham rang-barang bo’lib ular tarixiy, afsonaviy, an’anaviy mashhur shaxslar nomi bilan bog’liq.

1 Mallayev N . Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti 195-bet.

2 O’zME. 1 tom. Toshkent, 2000. 669-670-betlar.

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA BOLA NUTQIDA SO’Z VA SO’Z BIRIKMALARNI RAVONLASHTIRISH.

Najmiddinova Gulira’no Muhammadamin qizi
Namangan Davlat Universiteti
Ta’lim tarbiya nazaryasi va metodikasi
maktabgacha ta’lim 1-kurs magistranti
950193707 gulira’no@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining nutqiy faoliyatida so’z va so’z iboralarni rivozlantirish usullari haqida keng ma’lumotlar yozilgan.

Kalit so’zlar: nutq, so’z, so’z birikmalari, bola, nutqiy faoliyatni rivojlantirish, murakkab bo’g’inlar, defektolog diqqat, grammatik bezash.

Nihol kabi beg’ubor bolajonlar va ularni nutqiy faoliyatini rivojlantirish maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyaschilarining oldiga qo’yilgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu holatlarda usulning asosiy vazifasi so‘z birikmalari, gaplami qaytarishga tayyorlashdan iborat. Bola ketidan alohida bo‘g‘inlami qaytarar ekanmiz, biz bolalami murakkab bo‘g‘inli so‘zlami, shuningdek, so‘z birikmalari va gaplardagi bogiiqligini o‘zlashtirishiga va qayta takrorlashga tayyorlaymiz. Boshqacha so‘z bilan aytganda, bo‘g‘inlar tizimining buzilishi va agrommatizmning oldini olish ishlarini olib boramiz. Mazkur usul bolalar faol nutqdan foydalana boshlaganlaridan so‘ng, ya’ni savolga birgina so‘z yoki so‘z birikmasi bilan javob bera olganliklaridan so‘ng ishda qoilaniladi. Biroq bunda bolalar katta qiyinchiliklar sezadilar va turli so‘z buzilishlariga yo’l qo‘yadilar. Bolalar javoblarini qaytarar ekan defektolog to‘g‘ri talaffuzni ham farqlaydi, bolalar diqqatini so‘zlarning to‘g‘ri tizim va grammatik bezashga qaratadi. Misol qilib bola noto‘g‘ri talaffuz etayotgan so‘zdan o ‘rinni alohida intonatsiya bilan ajratib ko‘rsatadi. Bolalar javoblarini qaytarish shu bilan foydaliki, defektolog kerakli so‘zni so‘z birikmasi yoki gapga kiritish mumkin. Buning yordamida defektolog bolalar keyinchalik foydalanadigan nutqning nisbatan murakkab namunalarini berish uchun sharoit yaratadi. Ta’limning keyingi bosqichlarida javoblarni qaytarishdan nafaqat propedevtik maqsadlarda, balki bolalarni so‘zlarning, so‘z birikmalari, gaplaming to‘g‘ri talaffuzini mashq qildirish maqsadida foydalanish mumkin. Agarda bola talab etilayotgn so‘zni takrorlashni istamasa, uni majburlash kerak emas, chunki bu negativ reaksiyani chaqirib, bolaning keyinchalik faol nutqdan uzoq vaqt foydalanmasligiga olib keladi. Bunday holatda yana bir bor bolaning ketidan to ‘g‘ri talaffuz eta olmaganlarini qaytarish ma’qulroq. Mazkur usul birinchi navbatda bolalar nutqini rivojlantiradi. Savol bolalami og‘zaki nutqdan foydalanishga undaydi. Nutqiy kommunikatsiyada ular bilim va ko‘nikmalarini tekshirish imkonini beradi. Savollar yordam ida bolalarda qaratilgan nutq mazmunini tinglash ko‘nikmasini rivojlantirish mumkin. Bu bolalaming savollaiga to‘g‘ri javob qaytarishga o‘rganishlari uchun lozim. Mazkur usulning qo‘llanilishi, shuningdek, bolalaming turli grammatik shakldagi so‘zlar, so‘z birikmalarini to‘g‘ri qo‘llash, gaplami qurishda mashq qilishlarini nazarda tutadi. Agarda ta’limning boshida balalarga ixtiyorsiz bayon etishga ruxsat berilsa, ularning ixtiyoriy nutqi taqiqlanmaydi, aksincha rag‘batlantiriladi va stimullanadi. Keyinchalik esa savollar ayniqsa shaxsiy savollar bolalar nutqi va faoliyatini boshqaradi hamda yo‘naltiradi. So‘zlashuv dialogik nutq uchun savollarga qisqa, shu qatorda bir so‘zli javoblami qoilash xarakterli. 0 ‘zaro so‘zlashayotganlaming birbirlarini tushunishlari uchun bu xalaqit bermaydi. Shuning uchun bolaning savol bilan mazmuniy birlikdagi bir so‘zli javobini to iiq gap sifatidagi javob ko‘rinishida qabul etish kerak. Shuning uchun, barcha bolalarga savol ko‘rinishidagi murojaatdan foydalanishga uni konkret bola nomini aytgan holda darhol aniqlashtirish kerak. Bolalar nutqiy muloqotining rivojlanishi uchun quyidagi savollar guruhi nisbatan oson va dolzarb: Bu kim? Bu nima? Qanday predmet? Predmet nima qilmoqda? Savollarning birinchi guruhi predmetlarning nomi va ularning qismlariga doir. Savollar bolalar predmetni kuzatishlari davomida beriladi.

“Bu nima?” — “Chana” — “Qo‘lqop”;
“Bu Kim?” - “Mushuk” —“Kuchuk”
“Bizga Sardor nimani ko‘rsatayapti?»
— “Nodiraning qo‘lida nima bor?”
—“Ushbu rasmda nima tasvirlangan?”.

Bir predmetni ko‘zdan kechirishda savollami quyidagi ketma-ketlikda berish mumkin:

“Bu nima?” — “Archa”

— “Bu archaning nimasi?” — “Tanasi”

— “Bu nima?” — “Shoxlari”

— “Archaning shoxlarida nima bor?” — “Ignalari”.

O‘zlarining javoblarida bolalar jonli va jonsiz predm etlarning nomlaridan foydalanadilar. Savollar turli kelishiklarda ko‘igazmali tayanch va u foydalaniladigan vaziyatning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda beriladi. Masalan, defektolog bolalarga archa g‘o‘dasini ko‘rsatadi. Bolalar predmet nomini takrorlaydilar, so‘ng defektolog bolalarga qo‘llarini orqalariga berkitishni taklif etadi. Ularning orqalaridan o‘tar ekan, bolalaming birining qo’liga olmani tutadi. So‘ng bolalar oldiga turib ulardan qo‘llarini ko‘rsatishni so’raydi (murojaat faqatgina individual):

“Sardor, senda olma bormi?” “Yo‘q” — deydi bola talimning boshida, chunki nisbatan keng nutq uning uchun murakkab. Kechroq u javob beradi: “olma yo‘q”. Yanada kechroq: “Menda olmaa yo‘q”. Savollaming ikkinchi guruhi predmetlaming nomi va sifatlaming nomlanishiga tegishli. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar taiim I jarayonida savollar konkret boiishi va belgini aniq ifodalash kerak. Ushbu savollar predmet shakli, uning bo‘yog‘i, tayyorlangan materiali, hajmi, ta’miga doir boiadi. Savollar: qanday, qanaqa so‘zlaridan boshlanadi. Masalan: “Olma qanday shaklda?” — “Sariq (qizil, yashil)” — ko‘rgazmali tayanchga bogiiq ravishda. Taiimning boshida “Qanday olma?” deb so‘rash mumkin emas. Ushbu umumiy savol bolalarga kerakli javobni topish imkonini bermaydi. Alohida e’tibomi predmetning fazoviy hajmini ifodalovchi belgilaiga qaratish lozim (o‘ng va chap, baland va past). Predmetning hajmiga doir savollarni kichik yoshdagi bolalarga aniq ifodalash kerak. Undan tashqari savolni hajm jihatidan sezilarli farqlanadigan ikkita predmet mavjud bo‘lgandagina berish mumkin. Bunda so‘zlarning mantiqiy ma’nosi bolalar tomonidan to‘g‘ri o‘zlashtiriladi. Agarda birgina predmet namoyish etilsa, hajmga doir savolni berish tavsiya etilmaydi. Natijada endilikda ikki emas, uchta predmet solishtiriladi (so‘ng undan ham ko‘proq) keyinchalik o‘rtaga so‘zi ko‘proq va kamroq so‘zlari bilan almashtiriladi. Qanday so‘zidan boshlanuvchi savolni berishdan avval bolalaming shakl, rang, hajm so‘zlarining ma’nosini to ‘g‘ri tushunishlariga amin bo‘lish kerak.

Xulosa qilib aytganda bunday usullar bolani nutqi faoliyatini o’stiradi va bu usulni qo‘llash davomida bolalar nutqni idrok etishni o‘rganadilar, so‘ng savollarga birgina so‘z, so‘z birikmasi va nihoyat gap bilan javob beradilar. Boshqa usullar singari, o‘yinchoq orqali bolalar bilan muloqot etish usulini turli-tuman mashg‘ulotlarda va ulardan tashqarida ham qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi M.P Xamidova , M.Y Ayupova Toshkent -2009
2. Maktabgacha ta’limda metodika fanlairni o’qitish N.N. Djamilova Toshkent -2018
3. www.ziyonet

PEDOGOGIK KASBI VA UNING KASBIY KOMPETENSIYALARI

Sobirova Nargiza Esanovna
Quvasoy pedagogika kolleji

Annotatsiya: Pedagogik kompetentlik o‘qituvchilik faoliyatini sifatli tashkil etilishini ta’minlovchi omil sifatida qaraladi. Bugunda o‘qituvchining kompetentligi qaysi mezonlar bilan belgilanishini o‘rganish muhim bo‘lmoqda. Maqolada kompetensiya va kompetentlik tushunchalari, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar ko‘rsatib berilgan. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarning turlari izohlangan. Pedagogik kompetentlik shakllanish bosqichlari tavsiflab berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kompetensiya, professionallik, strategiya, kasbiy pedagogik kompetensiyalar, etalonga mos mezonlar.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat ta’lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma’naviy va jismoniy soq’lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo‘ymoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish» vazifasi belgilandi[1]. Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug’iladi. Shu nuqtai nazardan «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir.

Har qanday o‘qituvchi ham «kompetentlik» nimani anglatishini va u «kompetensiya»dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. «Kompetentlik» tushunchasi pedagogning ma’lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma’lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o‘xshashdir. Kompetensiya bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarda mavjudligini anglasa, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetensiyalar ta’rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud:

- Amerikancha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning hulq-atvori namunasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi.
- Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya’ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko‘riladi[3].

Vazirlar Maqkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta’riflangan[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Professionallik va kompetentlik bir-biriga o‘hshash bo‘lsada, har- xil ma’noga ega bo‘lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma’lum bilimlar, balki mehnatga bo‘lgan munosabat, ishning o‘ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiharadi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo‘llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to‘liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo‘lavermaydi, sabab, ba’zilari bilimlarni amalda qanday qo‘llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo‘lib qolaveradi. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir:

- Maxsus pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lish. Bundan tashqari, pedagogning o‘z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o‘z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog’liq.
- Ijtimoiy pedagogik kompetensiya - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari

bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko‘nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik - bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan.

- Shaxsiy pedagogik kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo‘lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o‘sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasiga ega bo‘lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodirlar.

Kompetensiyaning har bir turi ko‘nikmalar, bilimlar, ko‘nikmalar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Pedagoglarda ular turli darajalarda namoyon bo‘ladi. Xizmat vazifalarini bajarishda uning xatti-harakatlari ko‘rsatkichlariga e’tibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin.

Kompetentlik qanday shakllanadi? O‘qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta’limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko‘nikmalar boshlang’ich kompetensiya darajasini to‘ldiradi.

Bularning barchasi formula shaklida taqdim etilishi mumkin: **Kompetentlik = Bilaman + Qila olaman + Istayman + Men qilaman.**

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan jarayondir. Uni quyidagi bosqichlarga bo‘lishimiz mumkin:

1. Maxsus ma’lumot olish.
2. Amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
3. Malaka oshirish, maxsus kurs va treninglardan o‘tish.
4. Kasbiy tajribaga ega bo‘lish.
5. O‘z sohasida professionallikka erishish.
6. Tajriba to‘plash, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan pedagogning kompetentligi yaxshilanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa shuki, kompetentlikni shakllantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayondir. U oliy ta’lim muassasasida boshlanadi va ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom etadi. Shuni unutmaslik kerakki, yuqori kasbiy kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki xodimning amaliy ko‘nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlari hamdir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi to‘g’risida” 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli farmoni.

2. Jabborova Onaxon Mannopovna, & Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, May). Optimization of primary education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *10*(5), 1229-1232.

3. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-qunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘qrisida O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017 yil 6 aprel, 187-son.

4. Тожибоева, Г. Р. (2020). Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов. *Science and World*, *1*(77), 32-33.

5. Avlaev Orif Umirovich, & Abdujalilova Shoira Abdumajitovna. (2020). The Role of Social Intelligence in Personality Maturity. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(4), 3983-3991.

6. Эрназарова Г. О., & Исламова М. Ш. (2019). Совершенствование подготовки к профессии учащихся профессиональных колледжей на основе акмеологического подхода. *Pedagogy & Psychology Theory and practice International Scientific Journal*, *6*(26), 52-55.

7. Золотых, Н. В., & Хайтметов, Р. К. (2020). Условия формирования компетентности будущего педагога в личностно-развивающей воспитательной деятельности. *Academic Research in Educational Sciences, 1*(2), 113-119.

8. Yuldasheva G. I., & Yo’ldosheva M.M. (2022).Factors of informatization of the process of primary education.Электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум». 12(91), 689-692.

O’QUVCHILARNING IMLOVIY MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

Nazarova Nodira Kushnazarovna
Xorazm viloyati Urganch shahar
19- IDUMning boshlang’ich ta’lim fani o’qituvchisi
Yakubova Rohatjon Raximovna
Xorazm viloyati Urganch shahar
19- sonli IDUMning boshlanġich
ta’lim fani òqituvchisi
Raxmatullayeva Zuxra Boltaboyevna
Xorazm viloyati Urganch shahar
19- IDUM ning boshlang’ich ta’lim
fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim sifati va samardorligini oshirishda zamon talablariga mos ravishda ilg’or pedagogik texnalogiyalarni ta’lim jarayonida joriy etish, shuninfdek maqolada boshlang’ich sinflarda o’quvchilarning imloviy malakalarini rivojlantirishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalt so’zlar: *grammatika, imloviy,lug’at ,bo’g’in ,chiroyli yozuv .*

Boshlang’ich maktabning muhim vazifalaridan biri kichik yoshdagi o’quvchilarning o’gzaki va yozma nutqini o’stirishdir. Shubhasiz, hamma fanlar o’quvchilarning lug’at boyligini o’stirishga, imlodan savodxonligini oshirish va nutq malaklarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tilini muvaffaqiyatli o’qitishning muhim sharti ta’limni o’quvchilarning hayotiy tajribasi bilan, ularning bevosita ko’rganlari,kitoblardan o’qib bilganlari bilan bog’lash hisoblanadi Ma’lumki ,o’qish darsliklaridagi matnlar turli manbalardan olinganligi aniq.Ona tili darsini o’qish bilan bog’lansa ,o’quvchilarning o’qish darsida o’qiganlari asosida olgan haqiqiy bilimlaridan foydalanishga imkon yaratiladi. Buning uchun o’quvchilarga mamlakatimizda,maktabda ,oilada sodir bo’lgan qiziq voqea-hodisalar haqida, tabiatdagi o’zgarishlar haqida o’qiganlaridan foydalanib gap tuzish, ayrim parchalarni kitobdan ko’chirib yozish, Grammatik tahlil kabi topshiriqlarni bajartirish maqsadga muvofqdir. Shuni ham aytib o’tish lozimki ,ona tili darsida o’qishdan beriladigan topshiriq o’ylanmasdan,moslamay berilsa, yaxshi natijaga erishib bo’lmaydi Ona tilidan ko’zlangan maqsadga erishish uchun :

birinchidan: ona tili darsida o’qishdan beriladigan topshiriq oldindan tayyorgarlik ko’rib,puxta o’ylab, so’ng berilishi:

ikkinchidan: ona tili darsida o’tilgan mavzuni mustahkamlashga imkon berishi hisobga olinishi:

uchinchidan : topshiriq (misol qaysi asardan olingan bo’lsa)berilgan asar g’oyasini yana ham mustahkamlashga yorlashishini hisobga olish kerak.

Ma’lumki ,grammatik bilim tilni ongli egallashni va savodli yozish malakasini shakllantirishning asosi hisoblanadi..Shuning uchun ham o’quvchilarning grammatikadan olgan bilimlari to’g’ri yozuv malakalarini shakllantirish bilan olib boriladi. To’g’ri yozuv malakasini rivojlantirishda imloviy mashq turlari :grammatik imloviy tahlil,matnni ko’chirib yozish ,ta’limiy diktant va bayondan mashq sifatida foydalanish masqadida muvofiqdir.Imloviy mashqlarni amalga oshirishda ona tili darsligi sahifalarida berilgan mashqlardan foydalanish bilan birga boshqa materiallardan faydalanish yaxshi natija beradi.Chunki o’quvchilar yangi materialga qiziqish bilan kirishadilar ,o’ylashga’fikrlashga harakat qiladilar.

2-sinfda ”Kishilarning ism va familyasida bosh harf”mavzusini o’tishda ”O’qish kitobi ”dan samarali foydalangan holda o’rgatish mumkin.Mavzuni mustahkamlashda mashqlardan birini ko’chirib yozish topshirig’i berilganda ,masalan ,”Inoqlikda gap katta”she’rning to’rtta :Satrni o’qib ,faqat kishilarning ismini xato qilmay ,chiroyli yozuv qoidalariga rioea qilib ko’chirib yozish topshiriladi .Topshiriq bajarilgach (ishni tekshirish uchun yig’ib olish munkin), uch-to’rt o’quvchining ishi o’qitilib,tahlil qilinadi.

3-sinfda “Bo’g’in “mavzusi takrorlanganda ,”O’qish kitobi”dan imlosi va o’qilishi (talaffuzi)Qiyin so’zlar uchraydigan gaplar tanlab olinib,ularni doskaga yozib,avval bo’g’inga bo’linmaydigan ,so’ng bo’g’inga bo’linadigan so’zlarni yozib,avval bo’g’inlab,so’ng sidirg’a o’qish mashq qilinsa ,o’qilishi va yozilishi qiyin bo’lgan so’zlarni to’g’ri o’qishni ,to’g’ri yozishni

bilib oladilar. Masalan ,”Shayx Mazididdin ot choptirish ,qilich urishtirish ,zarb berish bo’yicha ko’rikdan o’tishga shoshilardi” gapi sinf yozuv taxtasiga yoziladi.So’ng yozilgan gapdan avval bo’g’inga bo’linmaydigan ,so’ng bo’g’inga bo’linadigan so’zlarni tanlab yozish topshiriladi. “Ibn Sino shogirdlari “matmdan tubandagi parcha asqotishi mumkin.“Ibn Sino qoldirib ketayotgan zo’r tabiblarning biri tozalik,ikkinchisi –parhezdir.Uchinchisi badantarbiyadir va qolgan ikkitasi mijoz bilan kayfiyatdir”.So’zini bir vaqtda hamma yozadi.O’qituvchi o’quvchining izohini kuzatib,lozim bo’lsa ,zarur tuzatishlar kiritadi,ta-bib-lar-ning,ik-kin-chi-si ,par-hezdir,kay-fi-yat,mi-joz so’zlarini bo’g’inlab aytib yozdiradi. Lug’at diktant o’tkazishda bog’lanishli matn yoki gaplar emas ,balki o’rganishgan ayrim imlosi qiyin so’zlar aytib turib yozdiriladi va lug’atdan tekshiriladi.

4-sinfda “Otlarning kelishik qo’shimchalari bilan turlanishi “mavzusi o’rganilganda darsni mustahkamlash maqsadida saylanma diktant o’tkazilib ,”O’qish kitobi “dan olingan quydagi matn :Qanaqasiga sening iting bo’larkan ?-dedi Samad .-Bizning To’rtko’z bu ! Rasul ostonaga yaqin jayda xumday boshini ayoqlariga qo’yib yotgan itiga g’amgin tikildi. Itining holiga achindi. Lekin sir boy bermay, chegarachilarga imo qildi.“Otlarning kelishik qo’shimchalari bilan turlanishi “bo’yicha matndan qartqich ,jo’nalish va o’rin-payt kelishigi qo’shimchalari bilan turlangan otlar tanlab yoziladi va kelishik qo’shimchalariga tegishli belgi qo’ydiriladi. O’quvchilar ostonaga, joyda ,boshini,ustiga,bermaslikka so’zlarini yozib ,qo’shimchalar ustiga tegishli belgi qo’yadilar. Agarda, o’quvchilarda sening, bizning so’zlarini yozib qo’yish hollari uchrasa ,o’qituvchi alohida vaqt ajratib, shu o’quvchilar bilan yakkama-yakka ishlab “Olmosh “va “Ot”ning farqinitushuntiradi. “Gapning uyushiq bo’laklari “mavzusi o’tilganda mavzuni mustahkamlash maqsadida 4-sinf “O’qish kitobi”dan “Oltin fasl”matnida:”Ushushiq bo’laklar qatnashgan gap topib yozing va o’qilishini, yozilishini tushuntirib bering”, topshirig’I beriladi. O’quvchilardan quydagi misolni yozishlari kuzatiladi.“Issiqsevar qaldirg’ochlar, uzunqanotlar, ko’kqarg’alar birinchi bo’lib uchib ketishadi. O’quvchilar gapdagi uyushiq bo’laklar qaldirg’ochlar, uzunqanotlar, ko’kqarg’alarni o’qiydilar, ular sanash ohangi bilan bog’langan.Ular orasiga yozuvda vergul qo’yiladi,degan javobni beradilar. Demak ,boshlang’ich sinf ona tili darslarini o’qish faniga bog’lab olib borishda yuqoridagi usullardan foydalanish ona tili darslarining samaradorligini oshiradi.O’quvchilarning so’z boyligi ortadi,ayniqsa,yozma savodxonligi rivojlanadi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. T.G`afforova.Sh.Nurillayeva.O`qish kitobi.O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma.-Sharq.2012.
2. Tuzuvchi mualliflar:U.Masharipova,M.Umarova,D.Baynazarova, M.Nabiyeva. Ona tili. Oqituvchilar uchun metodik qo`llanma.-Sharq.2017.
3. Inson kamolotining omili. M.Aripova.Boshlang`ich ta`lim.1.01.2005 .

BOSHLANG’ICH SINFLARDA BADIIY ASARNI O’QISH VA TAHLIL QILISHNING AHAMIYATI

Niyazmetova Dildora Yuldashevna
Urganch shahar
19- sonli IDUMning boshlanĝich sinf òqituvchisi
Yoqubova Shohida Komilovna
Qòshkòpir tumani 15- son maktab boshlanĝich sinf òqituvchisi

Annotatsiya: *Turli janrdagi asarlar syujeti, uslubiy bo’yog’i,til vositalarning o’zoga xosligi jihatidan o’quvchilarga har xil ta’sir qiladi. Boshlang’ich sinflarda o’qituvchi o’rganilayotgan asarning janr xususiyatlarini inobatga olib,unga mos bo’lgan an’anaviy yoki noan’anaviy pedagogik usullardan foydalanish zarurligi ushbu maqolada yoritiladi.*

Kalit so’zlar: *Hikoya, epic, syujet, , obraz, motivatsiya, idrok.*

Boshlang’ich ta’limda hajm jihatidan ixcham bo’lgan badiiy asar janrlaridan hikoya, ertak, masal, she’r, rivoyat, dostondan parcha, xalq og’zaki ijod namunalari, maqollar o’qitiladi.

Hikoya – epik tur janrlaridan biri.Kichik hajmli bu badiiy asar kishi hayotidagi ma’lum bir voqeaning muhim tomonlarini umumlashtirib tasvirlaydi, lekin shu voqeaga qadar ro’y bergan yoki undan keyin yuzaga keladigan voqealar haqida batafsil bayon qilmaydi.Hikoyanavisning mohirligi shundaki,u qaynoq hayot qo’ynidan bir epizodni olib ,yashashning muhim ,tirik tomonlarini shu ixcham shaklga sig’diradi. Hikoyadagi ana shu ixchamlik ,obrazlar harakterning murakkab emasligi boshlang’ich ta’lim o’quvchilari uchun mos keladi.Kichik yoshdagi bolalar asar qahramonlarining ruhiy kechinmalarini tahlil qilishga emas,balki o’sha qahramon harakati,jasorati va nutqiga ko’proq qiziqadilar.Qiziqarli syujet asosiga qurilgan hikoya ularning diqqatini tezda o’ziga jalb etadi.

Boshlang’ich sinflarda hikoya janrini o’rgatishda hikoyani o’qitish, qayta hikoyalash,lug’atlar ustida ishlash ,savol-javob orqali hikoyadagi voqea-hodisalar bilan obrazlar xatti- harakatidagi ichki bog’lanishlardan foydalanib o’rganish maqsadga muvofiqdir. Hikoyani o’qishda mazmun tahlilidan tashqari o’quvchilar nutqini o’stirish ham muhimdir.Shuning uchun hikoya matni o’qilgach,uning g’oyaviy mazmunini oshishga daxldor bo’lgan savollar topib yoki darslik savollari va topshirig’idan foydalangan holda o’quvchilarni gapirishga,hikoya voqealariga ozlarining mustaqil munosabatini bildirishga, obrazlar taqqoslash va ularning xulq- atvoridagi yaxshi yoki yomon xususiyatlarni ajrata olishga undash zarur.

Asar mazmunini yoritishda o’quvchilar tuzgan savollardan foydalanish ham yaxshi natija beradi.U sinfda jonlanishni, motivatsiyani yuzaga keltiradi.Biroq maktab tajribasidan ma’lumki,o’quvchilarning qobiliyati,intelekt darajasi bir xil bo’lmaydi.Bu farq ularning o’quv faoliyatiga nisbatan motivatsiya hosil qilish bilan farqlanadi.Dars maqsadini amalga oshirish uchun o’quvchilarda qiziqish uyg’ota oladigan turli pedagogic usullardan foydalanish darkor. Ayniqsa,hikoya yuzasidan sahna variant yaratish ,obrazga kirib dialogik nutqni yodlash va uni jonli ijro etish asar ruhiyatini hayotiylashtiradi.Sinfdagi sust o’zlashtiradigan o’quvchilar ham jonli ijroga befarq qarashmaydi.O’rtoqlarining harakati va asar voqeasining ko’z o’ngida namoyon bo’layotgani ularni ta’sirlantiradi.Natijada,tafsilotlarda adashsalar ham asar g’oyasini to’g’ri anglashadi.

Hikoyani o’rganish uslubi haqidagi fikrlarni umumlashtirib,izohli o’qish darsining reja variantini metodik tavsiyalarga suyangan holda quyidagicha belgilash mumkin.Hikoyada tasvirlanuvchi voqea sodir bo’ladigan muhitga o’qituvchi tomonidan qizqacha tavsif beriladi. Hikoyani bir dasrga mo’ljallangan qismini o’qituvchi yoki suxandonligi chiroyli bo’lgan o’quvchi tomonidan o’qish topshiriladi. O’quvchilar hikoya mazmunini qay darajada idrok etayotganlarini bilish maqsadida suhbat o’tkaziladi.Tushunishda mavhumlik sezilgan so’z yoki iboralarni ,fanga doir atamalar ma’nosini izohlashadi. Hikoyaning sahna varianti o’qituvchi ko’rsatmasi asosida yaratish va obrazlar replikasini asar ruhida mos tarzda yodlatish zarur.Hikoyaning matnini qismlarga bo’lish

va har biriga sarlavha topib,alohida-alohida reja tuziladi.Hikoyaning ma’lum qismini ifodali o’qish va reja asosida qaytadan bayon qilinadi.Hikoyani o’qish va uning mazmunini o’zlashtirishdagi bu reja varianti qat’iy bo’lmay,noan’naviy dars usullari bilan boyitish mumkin.Biroq shu narsani e’tiborda tutish lozimki,hikoya o’qish darsida undagi asosiy maqsadni aniqlash bilan birga, asarning tarbiyaviy ahamiyatini va ma’naviy tasvirini nazardan qochirmaslik zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Savod o’rgatish metodikasi” Q. Abdullayeva ,K.Nazarov. T.,1996
2. “Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi” G’.Erknazarov.T.2013
3. Komil inson tarbiyasi.S.Nishonova .T.,2003

TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA KICHIK GURUHLARNING O’RNI VA ULAR BILAN ISHLASH ASOSLARI

Niyozova Fayoza Sodiqovna
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani
26 umumta’lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi
Abdurahmonova Feruza No‘monovna
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani
26 umumta’lim maktabining rus tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda kichik guruhlarni tashkil etish, o‘quvchilarning erkin fikr yuritishlari va hamkorlikda ishlashlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishga oid masalalar bo’yicha mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, kichik guruh, samara, uzluksiz, rasm, jamoa, imkoniyat, harakat, fikr, ruhiy holat.

O’zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish kelajakda yosh avlodni sog‘lom va ijtimoiy faol, hayotda mustaqil qatnasha olish, erkin fikr yuritish qobiliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bu esa o’quv jarayonini qiziqarli tashkil etish, o‘quvchilarning erkin fikr yuritishlari va hamkorlikda ishlashlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishni taqoza etadi.

Ta’limning guruhli shakli «ta’lim beruvchi- ta’lim oluvchi» dialogidan voz kechishni va «ta’lim beruvchi-guruh-ta’lim oluvchi» ko‘rinishidagi uch tomonlama o‘zaro munosabatga o‘tishni nazarda tutadi. O’quv guruhi tarkibi bo‘yicha harakatchan kichik guruhlarga bo‘linadi va ularning har-biri o‘zicha o‘quv materialini o‘zlashtiradi. O’qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o‘zida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi. Bunda:

-ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati tashkillashadi, bu esa o‘quv-bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko‘maklashadi; har bir ta’lim oluvchining potensial imkoniyatlarining rivojlanishi va amalga oshirilishi ta’minlanadi; o’quvchilarning bilimi o‘zaro hamkorlikda boyiydi, hamkorlikda muammolar yechiladi; guruhda ishlash atrofdagilarga bo‘lgan munosabatni o‘zgartiradi, «men va ular»dan «biz»ga o‘tishni ta’minlaydi va o‘zini guruhning bir bo‘lagi sifatida his qilish imkonini beradi.

Ta’lim oluvchilarni guruhlarga qay tarzda ajratish kerak? Endi ushbu savolga javob beramiz. Ta’lim oluvchilar guruhlarga quyidagi tarzda ajratiladi:

Belgilari bo‘yicha: ixtiyoriy yoki noformal belgilari bo‘yicha tuzilgan aralash guruhli; o‘quv darajasi yutuqlari bo‘yicha; psixologik jihatdan bir-biriga to‘g‘ri kelishi darajasi bo‘yicha.

Soni bo‘yicha: 2-dan 5 o‘quvchigacha- uncha katta bo‘lmagan vazifalarni bajarish uchun; 5 -dan 7 o‘quvchigacha- murakkab vazifalar uchun.

Vaqt bo‘yicha: Kichik guruhlar belgilangan vazifani bajarish uchun qancha vaqt ajratilgan bo‘lsa, shuncha vaqt faoliyat ko‘rsatadi.

Guruh sharoitida ishlaydigan birinchi mashg‘ulot hal qiluvchi hisoblanadi. Shuning uchun bunda quyidagi sharoitlarga rioya qilish muhim:

1. *O’qituvchi guruhni belgilaydi.*
2. *Qat’iy rahbarlik qilishi mumkin bo‘lgan faol va boshqa o‘quvchilar haqida o‘ylab ko‘ring.*
3. *Faol bo‘lgan o‘quvchilardan har bir guruhga kiritish lozim.*
4. *Faol bo‘lmagan o‘quvchilarni ham tanlab, har qaysi guruhga kirish orqali.*
5. *Guruh rahbarini guruh bilan oldindan uchrashtiring va ularning vazifasini tushuntiring.*
6. *Guruh vazifasini va rahbar vazifasini tushuntiring.*
7. *Har bir guruh doira shaklida o‘tirsin. Bir-birisini ko‘rib tursin.*
8. *Ish vaqtida har bir guruh atrofida yuring.*
9. *Muhokama oxirida o‘z kuzatuvingizni, ayniqsa, har bir guruhdagi yaxshi g‘oyaga etiborni qaratib, tushuntirib bering*.

Guruh sharoitida ishlashda turli interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Shunday usullardan ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Rasmlar usuli. Ushbu usul o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, turli rasmlardagi masalalarni hamkorlikda ishlashga hamda ular harakatlar orqali ko‘rsatib hal etishda, baxs- munozaralar

o‘tkazishda qo‘llanilishi mumkin, chunki bu usul o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, shu bilan bir qatorda o‘quvchilarning, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga o‘rgatadi. Ushbu usul o‘quvchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga tushirilgan rasmlar orqali o‘z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. Ushbu usul bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich. Kichik guruhlarda ish olib borilishi jamoa bo‘lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma’lumot beradi; mashg‘ulot davomida har bir o‘quvchi o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

2-bosqich. Har bir o‘quvchiga rasmlar tarqatiladi: har bir o‘quvchi yakka tartibda tarqatilgan qog’ozdagi rasmning holatiga qarab o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘ldiradi.

3 -bosqich. Har bir o‘quvchi o‘z qog‘ozlarini to‘ldirib bo‘lgach, o‘qituvchi ularni kichik guruhlarga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlarga bo‘lish usullaridan foydalangan holda o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib yuboradi: O’qituvchi har bir guruhga o‘quvchilarga berilgan rasmlarni katta formatdagisini tarqatadi; o’qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda yozishlari yoki rolli ko‘rsatib berishlarini taklif etadi.

4-bosqich. Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar.

5-bosqich. O’qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi.

Ta’limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo‘lishini va o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o‘qituvchilar kerak. Buning uchun fan o‘qituvchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni bilishi va olgan bilimlarini o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkamol avlod –O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent. Sharq. 1998 yil.

2. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanishi -nomli metodik qo‘llanma.-Toshkent, 2013-yil.

3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T., 2004

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATUVCHI MASHQLAR

Nosirova Nafisa Ahmadjonovna
Farg‘ona viloyati Buvayda tumani
7-maktab boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi

Annotatsiya: maqolada boshlang’ich ta’lim o’quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini o’stirishda mashqlarning ahamiyati va ularni o’rgatish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mashq, mustaqil fikr, savod o’rgatish, ijodiy mashq**.**

Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi - o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Boshlang‘ich ta’limda – o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash, adabiy nutq me’yorlariga og‘zaki va yozma nutqida rioya qilishni shakllantirish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Boshlang‘ich ta’lim mazmuni quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. Savod o‘rgatish va nutq o‘stirish.
2. Amaliy fonetika va grammatika, imlo va nutq o‘stirish.

Savodga o‘rgatish jarayoni ikki davrni: alifbegacha tayyorlov va alifbe davriga ajratiladi. Tayyorgarlik va alifbe davrida ta’lim savodga o‘rgatishning tahlil-tarkib tovush usulida amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar hisobiga boyitishga alohida e’tibor qaratiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi o‘quvchilarda nutqiy faoliyatning asosiy turlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun Ona tili o‘quv fani mazmunini nutq tovushlari, yozma nutqda tovushlarning ifodalanishi, so‘z turkumlari, ularning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi, so‘zlarning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi, so‘zlarning leksik-semantik guruhlari, imlo qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishiga doir bilimlar tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to’g’ri fikrlash usullarini o’rgatadi. O’quvchi maktabga kelganda, keng lug’at boyligiga ega bo’lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo’yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining ob’ekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so’zlar bo’lsa). Mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiysini ajratishga, so’z bilan aniq ifodalashga o’rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o’rgatish bilan bilimini material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o’stirish hisoblanadi.

Mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning so’z boyligi va tilining umumiy o’sishida katta ahamiyatga ega bo’lib, lug’at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog’lab olib boriladi. Masalan:

1. Narsalarning mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (*ko’ylak, kostyum*) va oyoq kiyimlar *(botinka, tufli)*; uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar *«Bu nima?»* so’rog’iga javob berishga o’rgatiladi: *Bu n i m a? - Avtobus. Avtobus nima? Mashina.*

2. Bir turdagi narsalarni sanab ko’rsatish va umumlashtiruvchi bir so’z bilan nomlash**.** Masalan, *stol, stul, shkaf* larni bir so’z bilan qanday nomlash mumkin? *(Mebel)*

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish. Masalan, *qalam, pero, chizg’ich, o’chirg’ich, stul* ko’rsatiladi, o’quvchilar o’quv qurollarini ajratadilar, *stul* o’quv quroliga kirmasligini, mebel ekanini aytadilar.

Bunday mashq o’yin tariqasida o’tkazilishi ham mumkin: ma’lum so’zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: *qaldirg’och, chumchuq, mushuk, musicha.*

4. Predmet nomlari va belgi bildirgan so’zlarni guruhlarga ajratish. Bunda so’zlar *choynak, tesha, bolta, piyola, arra, tarelka* kabi aralash beriladi. O’quvchilar guruhlab, *idishlar nomi:*

choynak, piyola, ... ; ish qurollari nomi: tesha, bolta, ... kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan so’zlar ham aralash beriladi, bolalar to’rt guruhga (rang, maza, shakl, xususiyat) ajratadilar.

5. Qarama-qarshi qo’yish bilan umumlashtirish: *qaldirg’och, chumchuq, bulbul* – qushlar, *tovuq, xo’roz, kurkalar-chi? (Parrandalar.)*

Mazkur mashqlar sermazmun bo’lishi, o’quvchilarning tajribasi bilan bog’lanishi, ularni to’g’ri fikrlashga o’rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishiga xizmat qilishi lozim.

Ijodiy mashqlarda o’quvchilar o’zlari erkin ravishda gap tuzadilar. Boshlang’ich sinflarda ijodiy mashqlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o’quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar: *«Quyoshli kunda», «Bizning uy» yoki «Quyon va tipratikan»* kabi.

2. Narsa rasmi yoki syujetli rasm beriladi, o’quvchilar rasm asosida bir yoki bir necha gap tuzadilar.

3. Ikki-uchta «tayanch» so’z beriladi, o’quvchilar shu so’zlarni qatnashtirib gap tuzadilar. Tayanch so’z sifatida bolalarning faol lug’atiga aylantirish zarur bo’lgan so’zlar olinadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to’g’ri fikrlash usullarini o’rgatadi. Mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning so’z boyligi va tilining umumiy o’sishida katta ahamiyatga ega bo’lib, lug’at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog’lab olib borilsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baratov Sh. O`quvchi shaxsini o`rganish usullari. Toshkent “O`qituvchi” nashriyoti 1995, 52.

2. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent “Noshir” nashriyoti, 2009, 351.

MAKTABGACHA TA`LIM YOSHIDAGI BOLALAR KITOBXONLIGI

Nuralieva Shirmonoy Ibragimovna
Quvasoy pedagogika kolleji

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar kitobxonligini shakllantirishning mazmuni haqida so’z borgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim olish, mustaqil ta‘lim olish, shaxsni shakllantirish, ijodiy qobiliyat, tasavvurni rivojlantirish, so‘z boyligi oshishi, teran fikr yuritish.

KIRISH

Barchamizga ma’lumki, XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlar, dunyoning g’oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o’zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu esa ta’lim tizimida tub islohotlar qilishni talab etayapti . Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yangicha zamonaviy qiyofasini ko’zlamoqda desak mubolag’a bo’lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvarda «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida»gi farmoyishi e‘lon qilindi. Bu barchamiz uchun juda quvonarli va faxrlanadigan yangilik bo‘ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bugungi kunda Respublikamizda 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazlari va tuman markazlari faoliyat olib bormoqdalar. Binobarin, hozirgi kunda kitoblarga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda[1]. Shu o‘rinda kitob o‘rnini hech nima bosolmasligini aniqlash qiyin emas. Aynan kitob mutolaasi orqali inson manaviy yuksaladi, bilimga ega bo‘ladi. O‘quvchilar undan bilim oladi, taassuroti boyidi, hayotni o‘zgacha nigoh bilan teran fikr yuritishga undaydi. Yuqorida qayd etilgan farmoyish mamlakatda ommaviy kitobxonlik sharoitini kuchaytirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish, matbuotda fikr almashinuvi o‘qiganlar to‘g‘risida bahslashuvni mutolaa nufuzini oshirishga xizmat qilishi tayin. Har bir insonning o‘z intellektual rivojlanishning asosiy vositasi-mutolaadir.

2017 yil 25 yanvarda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini barvaqt uyg‘otish, bolalar va ota-onalar hamda pedagog kadrlar uchun zarur bo‘lgan badiiy, ilmiy-uslubiy, uslubiy adabiyotlar bilan ta‘minlash maqsadida kichik kutubxonalar faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha

—Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida kichik kutubxonalar tashkil etish yo‘riqnomasi ishlab chiqilib, har bir maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida kichik kutubxonalar tashkil etilmoqda. Ushbu kichik kutubxonalarning maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat[2]:

- kichik kutubxona ishini axborot, o‘quv va madaniy markaz sifatida tashkil etish;
- kichik kutubxona foydalanuvchilariga axborot olishda tezlik, epchillik va qulaylik yaratish;
- ta‘lim olish, mustaqil ta‘lim olish, shaxsni shakllantirish, ijodiy qobiliyat va tasavvurni rivojlantirish jarayonlarida ota-onalarga yordam berish;
- foydalanuvchilarning axborot madaniyati va kitob o‘qish madaniyatini shakllantirish;
- aholi o‘rtasida kitobni va kitob o‘qishni yuqoriga ko‘tarish, kitob o‘qish faolligi darajasini oshirish.

Kichik kutubxona faoliyatini tashkil etishda uning foydalanuvchilari (maqsadli guruhlar) quyidagilar hisoblanadi[3]:

1 Musurmonova O. “Oila ma’naviyati – milliy g‘urur”. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019 y, 200-bet.

2 Musayev.N. Oilada bola tarbiyasining psixologik xususiyatlari. – Maktab va hayot jurnali, 2015 yil, №3, 18-19 betlar.

3 F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, N.A.A’zamova Maktabgacha pedagogika. Darslik, “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, Toshkent- 2018

1) maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi bolalar;
2) maktabgacha ta‘lim tizimiga qamrab olinmagan maktabgacha yoshdagi bolalar;
3) maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi bolalarning ota-onalari;
4) maktabgacha ta‘lim tizimiga qamrab olinmagan maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari;
5) maktabgacha ta‘lim tashkilotlari pedagoglari. Adabiyot ta‘lim-tarbiya jihatdan ancha qulay san‘at turi hisoblanadi.

Psixologlar o’z tadqiqotlarida bolaga kitob o‘qib berilganida unda[1]:

- so‘z boyligi oshishi;
- kitobga mehri paydo bo‘lishi;
- muomalasi chiroyli bo‘lishini aytishgan.

Badiiy adabiyotning ijodiy obazlari bolaga jamiyat va tabiat hayoti, insoniy his- tuyg‘ular va o‘zaro munosabatlarni ochadi va tushuntiradi. U hissiyotni jo‘sh urdiradi, tasavvurni tarbiyalaydi va maktabgacha yoshdagi bolaga adabiy tilning ajoyib namunasini beradi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotining kichik kutubxonasi va undagi pedagogik ishlar mazmuni bolalarning 5 yoshida yuz beradigan adabiy rivojlanishidagi o‘zgarishlar bilan aniqlanadi: katta guruhdagi maktabgacha yoshdagi bola uchun uning ma‘naviy hayotining ajralmas qismi bo‘lib qoladi, uning shaxsiy qiziqishlari ifodalangan adabiyotga ishtiyoq paydo bo‘ladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kitobda qanchalik mukammal so‘zlar mavjud bo‘lsa, kelajakda bolaga bu so‘zlarni o‘rganishi yanada oson bo‘lar ekan. Yangi tug‘ilgan chaqaloqqa 5 daqiqa davomida bo‘lsa ham kitob o‘qib berish, uning ham aqliy rivojlanishi uchun juda foydali ekan. Yana bir tadqiqotning ko‘rsatishicha, 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ko‘p kitob o‘qilsa, ularning chap miya yarimshari rivojlanar ekan. Bu degani, bolada suhbat qilish, tasavvur, tilga moyillik kabi xislatlar yuksaladi. Kitobni o‘qilishini ko‘p eshitgan bola buyum va so‘zlar orasida bog‘liqlikni ko‘p ko‘ra boshlaydi. Bu esa bolaning miyasini ilmiy, akademik yo‘nalishda rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Undan tashqari uyquga ketishdan oldin kitob o‘qilsa, bola oson uyquga ketadi va tinch uxlaydi, ota-ona va bola orasidagi ruhiy munosabat yanada mustahkamlanadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Musurmonova O. “Oila ma’naviyati – milliy g‘urur”. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019 y, 200-bet.
2. Musayev.N. Oilada bola tarbiyasining psixologik xususiyatlari. – Maktab va hayot jurnali, 2015 yil, №3, 18-19 betlar.
3. Xodjaeva Z. Olti yoshli bolaning maktab ta’limiga tayyorgarligi.- Maktab va hayot jurnali. 2015 y, №3, 15-bet.
4. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, N.A.A’zamova Maktabgacha pedagogika. Darslik, “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, Toshkent- 2018

1 Xodjaeva Z. Olti yoshli bolaning maktab ta’limiga tayyorgarligi.- Maktab va hayot jurnali. 2015 y, №3, 15-bet.

KARBON KISLOTALAR MAVZUSINI OQITISHDA YANGI INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O’QITISH USULLARI

Otenova Mexriban
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat
Pedagogika Instituti Aniq va tabiiy fanlarni
o’qitish metodikasi(kimyo) 1-kurs magistranti
Nuriya Mutagaliyevna Omarova
L.N.Gumilev nomidagi Yevraziya milliy
universiteti kimyo kafedrasi dotsenti.

Karbon kislotalar mavzusini o’qitish usullarini chumoli va sirka kislotalar misolida ancha batafsil ko‘rib chiqamiz

Vazifalari:

• Karbon kislotalarning olinishi usullarini o’rgatish;

• Kimyo sanoati korxonalarida faoliyat ko’rsatuvchi turli xil kasb egalari va ularning ishdagi vazifalarini bilish;

• O’quvchilarni faol bo’lishga, mustaqil izlanuvchan foliyat yuritishga tayyor

turishga tarbiyalash, kimyoviy texnologik jarayonlar misolida ulardagi ijodiy qobiliyatlarni ochib berish;

• Jamoaviy muhokama vaqtida va qarorlar qabul qilishda nutq munosabatlarining faol usullarini o’rgatish.

Imitatsion model: kengaytirilgan “direktor” oldi yig’ilishida reaktordan

chiqayotgan sirka kislota konsentratiyasining kamayiyishi masalasi muhokama qilinadi.

Jihozlar: Har xil konsentratsiyali sirka kislota eritmalari, areometrlar komlekti, jadvallar, sxemalar, laboratoriya idishlari.

Annotatsiya: Ushbu loyiha o’quvchilarning organik kimyo kursini o’rganishini

kengaytirishga va kasbga yo’naltirishga qaratilgan. Loyiha mahsuli: Ishbilarmonlik rolli o’yin.

Ishning bosqichlari:

Loyihaning mavzu va maqsadlarini aniqlash, muammolar qo’yish, loyiha ustida ishlashni rejalashtirish, rollarni taqsimlash, sirka kislota ishlab chiqarish jarayonining texnologiyasini o’rganish, adabiyotlar tanlash va ularni sharhlash, eksperiment o’tkazish, natijalarni shakllantirish va rasmiylashtirish, faoliyatlarni baholash.

Rollarning taqsimlanishi: Barcha o’yin ishtirokchilariga rol beriladi: “zavod direktori”, “bosh muhandis”, “iqtisodchilar”, “ilmiy bo’lim xodimlari”, “bosh energetika bo’lim xodimlari”, “amorf muhitni muhofaza qilish bo’yicha inspektorlar, sotish bo’limi xodimlari”, zavodning kimyoviy laboratoriyasi vakillari”.

O’ yin senariysi: O’qituvchi : kirish so’zida shu darsning mavzusini va maqsadini e’lon qiladi, ko’p miqdordagi sirka kislota sintez qilish zaruriyatini borish uchun so’z zavod direktoriga beriladi.

Zavod direktori. Hamkasblar kechagina tovarlarni nazorat qilish bo’limi xodimlaridan sirka kislota konsentratsiyasining 70% gacha kamayganligi haqida ma’lumot olinadi. Bugun biz konsentratsiyaning kamayib ketishi sababini aniqlash uchun yig’ildik. Analizga kirishishdan oldin, men so’zni bosh muhandisga bermoqchiman.

Bosh muhandis. Sirka kislota neft-kimyoviy mahsulotlarning asosiylaridan biri hisoblanadi va hozirgi kunda keng qo’llanish sohalariga ega. Suvli eritmasi oziq-ovqat sanoatida ta’m beruvchi va konservalovchi vosita sifatida ishlatiladi. Sirka kislotaning murakkab efirlari erituvchilar va xushbo’y hidli moddalar sifatida qo’llaniladi. Sirka kislota atsetat tola ishlab chiqarishda, bo’yoqlar va dorivor moddalar sintezida, shuningdek gerbitsitlar ishlab chiqarishda keng qo’llaniladi. Sirka kislotaning bunday keng miqyosda qo’llanilishi, uni ishlab chiqarishning dunyo miqyosida ko’payishiga olib keldi.

Fan va texnika bo’yicha direktor o’rinbosari. Sirka kislotani turli xil usullar bilan olish mumkin. Eng qadimiy usullaridan biri yog’ochni bakteriyalar yordamida haydash hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bakterial metod asosan oziq - ovqat sirkasi olish uchun qo’llaniladi. Texnik maqsadda keyingi ishlab chiqarishga sarflanadigan sirka kislotasi atsetaldegiddan olinadi. Atsetaldegid esa atsetilendan olinadi, atsetilenni esa ikkita usul bilan hosil qilish mumkin:

A) Metandan

B) Kalsiy karbiddan

kalsiy gidroksiddan qutilib, toza holda atsetilen olinadi. Toza atsetilen simob (II) ksid eritmasi orqali o’tkaziladi va 2000C gacha qizdiriladi. Bu yerda simob birikmasi katalizator hisoblanadi. Reaksiya natijasida sirka aldegid olinadi.Ushbu reaksiya atsetilenning gidratlanish reaksiyasi deb nomlanadi.Ushbu reaksiyani 1881- yilda rus organik kimyogari Mixail Grigorevich Kucherov kashf qildi, shu sababli u Kucherov reaksiyasi deb ataladi.

Mahsulotlar aralashmasi mis (II) sulfat eritmasi orqali o’tkaziladi. Bunda asoslab beradi. Yaratilgan vaziyatlarni muhokama qilishda qatnashishi uchun korxonanig turli xil bo’limlari xodimlari taklif qilinadi. Shu tariqa karbon kislotalrni olinishi muhokama qilinadi

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Z.Tilyabayev “O’zbek fanini dunyoga tanitgan olim”, “XXI asr texnologiyalari” ilmiy-texnikaviy jurnal, № 4(5), 2011, 32-b.

2. K.Ahmerov “O’zbekiston kimyogarlarining muvaffaqiyati”, Toshkent, “Fan”, 1987.

3. I.Asqarov, N.To’xtaboyev, K.G’opirov, “7-sinf kimyo darsligi” , Toshkent, 2009, 158-b.

4. X.Omonov “Kimyoviy eksperimentning ta’lim tizimidagi o’rni”, uzluksiz ta’lim jurnali, № 5, 2004, 42-45- betlar.

5. Yu.Amirjonova “Ta’lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarning samaradorligini ta’minlash omillari”, uzluksiz ta’lim jurnali, № 2, 2002, 112-b.

.

OLIY TA’LIM TALABALARINI IJODIY,ILMIY VA KREATIV KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI.

D.Oxunova
FarDU o’qituvchi,
S.Xakimova
FarDU talaba.
Telefon:+998901602032
dilnozaoxunova1@gmail.com

ANNOTATSIYA: Hozirgi kunda jamiyatning barcha sohalarida tubdan o’zgarishlar va yangiliklar bo’lmoqda. Bunday o’zgarishlar o’z navbatada yangi talablarni qo’yadi. Mazkur maqola mamlakatimizdagi ta’lim sohasidagi o’zgarishlar tufayli bo’lajak o’qituvchilardan talab qilinadigan sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish tizimini yoritib beradi.

KALIT SO’ZLAR: Kreativlik, kompetentlik, kasbiy, muammoli ta’lim, boshqaruvchanlik, texnologik, psixologik.

Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon o’qituvchisidan yuqori madaniyat, chuqur ma’naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas’uliyatlilik, chuqur bilimga ega bo’lishi, o’z o’quvchilarining ijodiy potensialini rivojlantirishga pedagogik qiziqishi, innovatsion faoliyatga, o’z ustida ishlashga, kasbiy faollikka qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi. Shu sababli, komil shaxsni tarbiyalash masalasi bilan bir qatorda yana bir asosiy masala, ya’ni mutaxassisning ijodiy,ilmiy va kreativ kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o’ta muhim hisoblanadi. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya’ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash – kompetentli yondoshuv deyiladi. Oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarini tayyorlash sifatini boshqarishning konseptual muhim usullaridan biri – kasbiy ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishdir.

Erkin va faol fikrlash, ta’lim-tarbiya jarayonini modellashtirish, ta’lim berish va tarbiyalashning yangi g’oya va texnologiyalarini ishlib chiqish va amalga oshirish qobiliyatlariga ega bo’lgan bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompetentlik darajasini oshirish muammosi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dolzarb hisoblanadi.

Kreativ kompetentli o’qituvchi birinchidan, o’quv-tarbiya jarayonida ijodkor ta’lim oluvchilarni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi, ikkinchidan, o’z kasbiy faoliyatida ijobiy natijalarga erisha oladi va uchinchidan, shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini amalga oshira oladi.

Oliy ta’lim tizimiga kompetentli yondoshuvning joriy etilishi ta’lim maqsadi, mazmuni, o’qitish shakli, o’qitish usullari, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o’rtasidagi munosabatlarida jiddiy o’zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Jumladan, «bilimli» yondoshuvida ta’lim maqsadi ta’lim oluvchidan har bir fandan alohida bilim, malaka va ko’nikmalarni shakllantirishga yo’naltiradigan bo’lsa, «kompetentli» yondoshuvda ta’lim oluvchida fanlar bo’yicha integrallashgan bilim, malaka va ko’nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Shunga ko’ra, oliy ta’lim muassasalarida ta’limni tashkil etishning mavjud shakllari bo’lgan ma’ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg’ulotlarini mazmun jihatidan o’zgartirish nazarda tutiladi.

- Ma’ruza darslarining *muammoli ta’lim* shaklida,
- seminar darslarni *kreativ tafakkurni*,
- amaliy mashg’ulotlarda *ijodiy, tadqiqotchilik* ko’nikmalarini

shakllantirishga qaratilgan bo’lishligi maqsadga muvofiq. Mustaqil ishlarni tashkil etishda individuallikka ahamiyat qaratish va ular hajmi jihatidan ko’proqni tashkil qilishi kerak.

Kompetentlikka yo’naltirilgan yondoshuv ta’limda qo’llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning ham o’zgartirilishini taqozo etadi. Bilimlarni berishda kreativ pedagogik texnologiyaga o’tish talab etiladi. Kreativ pedagogik texnologiyada o’qituvchi tomonidan taqdim etilayotgan turli individual topshiriqlar ijodiy faoliyatga qaratilgan bo’lishi va ta’lim oluvchilarda har bir topshiriqni bajarishga ijodiy yondoshuvni talab qilsin. Bu texnologiya o’qituvchi o’z o’quv fani yuzasidan doimiy ijodiy izlanishga, ta’lim oluvchini esa, topshiriqlarni bajarishda faqat o’z bilim va ko’nikmalariga tayanish kerakligini o’rgatadi.

Ta’lim mazmuni, shakli, pedagogik texnologiyalarning o’zgarishlari nazorat usullarini takomillashtirish kerakligini ham taqozo etadi. Jumladan, «bilimli» yondoshuv tizimida ta’lim oluvchini har bir fandan olgan bilim, malaka va ko’nikmalari nazorat qilinib, umumiy reyting bali o’zlashtirish ko’rsatkichi sifatida qo’llaniladi. Ta’lim oluvchining kompetentli darajasini aniqlashga qaratilgan «kompetentli» yondoshuvda, eng avvalo kompetentlikni aniqlash talab etilib, bu integrallashgan bilim, malaka va ko’nikmalarni aniqlash degani.

Ta’limda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishning yetakchi g’oyasi shundan iboratki, bitiruvchilarda kompetensiyalar majmuasini shakllantirish ular egallashi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar majmuasi bilan aniqlanuvchi oliy ta’lim muassasasiga an’anaviy bo’lgan maqsadga to’laqonli mos kelmaydi.

Bo’lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining shakllanishi nafaqat o’quv predmetlari ro’yxati, balki, fanni o’zlashtirish jarayonida shakllanadigan kasbiy ko’nikma va bilimlar, shuningdek, talabaning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagi faol o’rnidan iborat ta’lim mazmuni orqali amalga oshiriladi. Buning barchasi majmuaviy holda, bo’lajak pedagog shaxsini shunday tarbiyalaydiki, u o’z-o’zini rivojlantirish va o’z komilligi ustida ishlay olish usullariga ega bo’ladi, bu esa, o’z vaqtida pedagogga «inson-inson» tizimida kasb ustasi - sub’yekti sifatida samarali faoliyatni ta’minlaydi.

Ba’zi bir tadqiqotchilar pedagogning kompetentligi tashkilotchilik, javobgarlik, mehnatsevarlik, maqsadga erishish, o’ziga ishonish kabi shaxsiy sifatlarini o’z ichiga oladi - deb hisoblasa, boshqa birlari esa, kompetentlik tuzilmasiga motivatsion-qadriyatli sohani ham kiritish zarur, chunki bu soha bilimlarga egalik darajasini aniqlaydi - deb hisoblaydi. Shunday qilib, kompetentlikning qayd etilgan tashkil etuvchilari insonning kasbiy faoliyatida, kasbiy muloqotida, o’z kasbining ustasi sifatida shakllanib yetishganligini anglatadi.

Kompetentlik - insonning faoliyatli tavsifi, shuning uchun uning tasniflanishi eng avvalo, faoliyat tasnifiga mos bo’lishi kerak. Umumiy holda bular mehnat, o’quv, o’yin va kommunikativ kompetentliklar. Bularga yana quyidagilarni qo’shimcha qilish mumkin:

- kompetentlikni faoliyatning yo’naltirilgan ob’yekti bo’yicha tasniflash, u «inson-inson», «inson-texnika», «inson-badiiy obraz», «inson-tabiat», «inson-belgili tizim» sohalarida kompetentlikni beradi;
- kasblarning alohida sinflari va guruhlari sohasidagi kasbiy kompetentlik; - aniq faoliyat (mutaxassislik) dagi predmetli kompetentlik.

Jamiyatning turli sohalarida esa quyidagi maxsus kompetentliklar ham talab etiladi: *maishiy xizmat sohasida, san’at sohasida, sport sohasida va boshqalar*.

«Bilimlilik» tavsiflari ham kompetentlikka kiradi va ijtimoiy bilimlar sohasi (matematika, fizika, gumanitar fanlar, biologiya va boshqa fanlar sohasida kompetentlik), ishlab chiqarish sohalari (energetika, robotatexnika, transport, aloqa, mudofaa, qishloq xo’jaligi va boshqa sohalar) bo’yicha tasniflanadi.

Psixologik tavsif sifatida kompetentlik tushunchasi nafaqat kognitiv (bilimlar) va operasion-texnologik (faoliyatli), balki motivatsion-etik, ijtimoiy va ahloqiy tashkil etuvchilarni ham o’z ichiga oladi.

Kompetentlikning asosi qobiliyatlardan iborat bo’lganligi uchun ularning har biri o’z kompetentligiga mos kelishi kerak. Qobiliyatlar eng umumiy ko’rinishlari bilan kompetensiyaning jismoniy madaniyatdagi, aqliy sohadagi, umumo’quv, amaliy, ijrochilik, ijodiylik, badiiy, texnik, shu bilan birga pedagogik-psixologik, ijtimoiy va boshqa ko’nikmalariga mos keladi.

Ijtimoiy rivojlanishi va maqomi pog’onalari bo’yicha kompetentlikni quyidagi turlarga ajratish mumkin: *bolaning maktabga tayyorgarligi*; *bitiruvchining kompetentligi*; *yosh mutaxassisning kompetentligi*; *ish stajiga ega mutaxassisning kompetentligi.*

Mutaxassisning kompetentlik modeli, bitiruvchi modeli emas, chunki kompetentlik, talaba ta’lim muassasasida ta’lim olishi davomida kerakli hajmda egallay olmaydigan muvaffaqiyatli faoliyat tajribasi bilan uzluksiz bog’liq. Darslarda talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi, rolli, imitasion o’yinlarni ijodiy mustaqil ishlarda, rejalarni ishlab chiqishda qo’llashni kengaytirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bo’lajak pedagog kompetentligining muhim qadryatli-ma’noli komponentini shakllantirish zarur.

Tavsiyalar: talabalarning ijodiy, ilmiy, kreativ kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari quyidagilardan iborat:

1. Tashkiliy-boshqaruvchanlilik (o’quv reja, o’quv jarayoni grafigi, dars jadvalini tuzish,

kompetentlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish, ta’lim jarayonini moddiy-texnik ta’minlash);

2. O’quv-uslubiy (mashg’ulotlar mazmunini tanlash, turli kurslarning integrasiyasi, yetakchi g’oyalarni ajratish);

3. Texnologik (nazorat-baholash, o’qitishning faol shakllarini tashkil etish, kompetentlikka kiruvchi bilimlar guruhlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo’llash);

4. Psixologik-pedagogik (talabalarning rivojlanish tashxisini amalga oshirish, o’qitishga motivatsiyani rag’batlantirish, kompetentlikning mezonini aniqlash, talabalarni hamkorlikda ishlashga yo’llash).

Bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning pedagogik ko’nikmalari orqali, ko’nikmalar (nazariy bilimlarga asoslangan va pedagogik masalalarni yechishga yo’naltirilgan bilimlar) esa, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi harakatlar majmuasi orqali aniqlanadi.

Hulasa qilib aytganda kasbiy kompetentlik tizimini shakllantirish holati, sifat va miqdoriy jihatidan o’zgarishlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo’lish uchun axborot sharoitlarini yaratish sifatida pedagogik monitoring xizmat qilishi mumkin. Pedagogik monitoring talabaning shaxsi haqida to’liq tasavvurga ega bo’lish maqsadida sosiologik, psixologik va bajaruvchilik monitoringini birlashtiradi. Talabaning shaxsini o’rganishga bunday majmuali yondoshuv, avvalambor, mavjud real o’quv imkoniyatlarni, ya’ni ta’lim olganlik darajasi, o’qitilishi, bilish va shaxsiy qiziqishlar, o’qish ma’nosi va sust o’zlashtirishning didaktik sabablarini o’rganish, talabalar va pedagoglarning ta’lim jarayoni bilan qoniqish darajasi, ta’lim oluvchilarning emotsional holati, o’zaro munosabatlar xarakteri va boshqalarni amalga oshirishga yo’naltiriladi. Demak, kompetensiya ta’lim oluvchining ta’limiy (yoki kasbiy) tayyorgarligiga oldindan qo’yilgan talablarga qaysidir darajada uzoqlikni nazarda tutsa, kompetentlik esa, tayyor bo’lgan shaxsiy sifatlarni nazarda tutar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.K.Markova, B.Nazarova “Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari”

2. https://natscience.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2982

3.https://hozir.org/xusnidinova-gulnoza-zoxidjon-qizining-bolajak-oqituvchilarni-k.html?page=2

DIQQAT BARQARORLIGI VA DIQQAT BUZILISHLARI HAMDA UNING BELGILARI

Pardayev Obidjon Hamza o’g’li
Samarqand viloyati Kattaqo’rg’on tumani
74-maktab Amalyotchi psixoligi

Annotatsiya: Ushbu maqolada diqqat haqida umumiy tushuncha, diqqat barqororligini taminlovchi omillari, diqqat buzilishlarining turlari va uni qanday bertaraf etish yollarini keltirib o’tamiz.

Kalit so’zlar: Diqqatning inertligi, simultan , konsentratsiya , aprozeksiya.

Biz dunyoga kelganimizdan boshlab olamga teran nigoh bilan qarab, har bir ovozga , qimirlagan bizga notanish narsalarga u nima ekanligini bilish uchun bor diqqatimizni qaratamiz va shu zayilda olamni tanishni boshlaymiz. Boshida qiziquvchanligimiz hamda begona narsalarning barchasini bilishga harakat qilganimiz tufayli diqqatimiz beqaror, tez bo’linuvchan bo’ladi bu aynan bolalik chog’larimizga to’g’ri keladi, biz buni psixologiyada Ivan Pavlovich Pavlov tabiri bilan “bu nima gap” refleksi deb ataymiz . Yosh davrlar xususiyatidan kelib chiqqan holda bu diqqatning bolalarga xos holatidir.

Xo’sh, diqqat deb o’zi nimaga aytiladi?

Psixologiya fanida har xil ta’rif beriladi, uni izohlashda esa psixologlar turli nazariyalarga asoslanadilar.

Diqqat – bu ongni bir nuqtaga to’plab, muayyan obektga aktiv (faol) qaratilishiga aytiladi

Ivanovning fikricha biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qilgan har bitta narsa , o’y, fikr va rejalarimiz hamda har bitta qilgan ishimiz va hodisalar diqqatning obekti bo’la oladi .

Shuni aytish joyizki diqqat vujudga kelishida ong bir nuqtaga to’planadi hamda bu ong doirasining torayishini vujudga keltiradi. Bunday torayish natijasida ong doirasi yanada yorqinlashadi. Agarda miyani ko’rish imkoniyati paydo bo’ganda huddi shu jarayon vaqtida miyamiz ichida kichkina nurlarni uning markazida kattaroq nurni ko’rishimiz mumkin edi .Olim I.P.Pavlov fikri bilan aytganda biror bir yangi g’oya tug’ilayotgan yoki yaratayotgan inson miyasini kuzataigan bo’lganimizda kichkina bir yorqin nurning u yoqdan bu yoqqa yurganini ko’rgan bo’lardik.

Diqqat bo’inuvchanlik xususiyatiga egadir, diqqatimizni yo’naltirayotgan obektga maksimal 3-5 daqiqa qarata olishimiz mumkin shu orada diqqat bir va undan ko’p martta bo’linishi mumkin bu jarayonni biz sezmay ham qolamiz. Simultan bo’linish diqqatning barqaror ishlashiga yordam beradi.

Ayrim odamlarning fikri tez chalg’iydigan bo’ladi – bu diqqat barqarorligi yetishmasligi bilan bog’liq holatdir. Diqqatning ma’lum vaqt oralig’ida saqlanishi diqqatning barqarorligi deb ataladi. Agarda biror bir mashg’ulotga e’tibor bilan kirishilsa ushbu jaraoyon kuzatiladi. Bu xususiyat inson qiziqishlari va kasbiga bog’liq ham bo’ladi . Shuncha vazifalarni uddalashda diqqatning faqatgina o’zi emas boshqa kognitiv jarayonlar ham qatnashadi. Aytish mumkinki, diqqatning barqarorligi har qanday sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning eng muhim shartlaridan biridir. Ushbu bilish jarayoni insonning atrofdagi borliqni va unda sodir bo’layotgan jarayonlarni idrok etish jarayoni ravshanlashtiradi. Diqqatning barqarorligi – bu diqqatning kontsentratsiyaning davomini bilgilaydigan xususiyat hamdir. Bundan xulosa qilib diqqatning bir joyga to’planishida diqqat barqarorligi yetakchi rol o’ynaydi deyish mumkin.

Shuni ham ta’kidlash joizki, qabul qilingan ma’lumotlarning ishlashi va hajmini asosan ushbu omil belgilaydi. Diqqat qanchalik barqaror bo’lsa faoliay natijasi ham shunchalik samarali bo’ladi. Diqqatning barqaror yoki beqaror diqqat turiga kirishini tartiblab belgilab beruvchi birorta ham me’yor, ko’rsatkich yo’q va bunday omillarning bo’lishi ham mumkin emas. Bu vazifani diqqatning turi – ixtiyoririy, ixtiyorsizligiga qarab, bajarilayotgan ma’lum bir faoliyatning mazmun va natijasiga qarab turli xil baho berish mumkin.

Diqqatning barqaror bo’lishi bir qator shartlarga: diqqat obektining mazmundorligiga , faoliyatga , ish bajarilayotgan vaziyatga , odamning ruhiy holatiga va albatta , irodasi va qiziqishlariga bog’liq.

diqqat obekti qanchalik mazmundor bo’lsa , diqqat ham shunchalik kuchli va barqaror bo’adi. Diqqatning barqarorligi iroda kuchi bilan ham o’lchanadi ko’pincha, ixtiyorsiz (irodaviy) diqqatning barqarorligi ham faoliyat jarayonida irodaning kuchi bilan ushlab turiladi . Iroda kuchimiz

hamda qiziqishlarimiz uyg’unligida eng qiyin vaziyatlarda ham o’z faoliyatimizga diqqatimizni jamlab tura olamiz. Diqqatning rivojlanishi xususida L.C.Vigotskiy balalarda barqaror diqqat sust rivojlanganligini keltirib, bu ixtiyorsiz diqqat sifatida namoyon bo’ladi deb tushuntiradi.Bu jarayon 4,5 – 5 yoshga qadar saqlanib qoladi va bola uchun normal holat sanaladi.

Bizning tayanch qismimiz hisoblanmish diqqat doim ham biz istagandek va bir xil ishlayvermaydi, unda ham ayrim buzilishlar sodir bo’ladi.

1. **Parishonxotirlik** – diqqatning cheklangan obektlariga uzoq vaqt mobaynida qaratilib turilishining buzilishi . Bu buzilish asosan charchaganda , astenik xolatlarda kuzatiladi.

2. Olimning e’tiborsizligi (soxta parishonxotirlik) –diqqatni o’z xayollarida jalb bo’lishi. U biron bir g’oya bilan band bo’lgan , o’z kechinmalariga berilgan kishilarda kuzatiladi. Bu xolda bunday kishilar atrofidagi narsa, e’tibor bermaydilar. Ichki diqqatni yuqori intensivligi va qiyin o’zgarishi bilan belgilanadi

3. Qarilik parishonxotirligi – diqqat jamlashning sust intensivligi ko’chuvchanligining qiyinlashishi bilan belgilanadi.

4. Diqqatning chalg’ishi – diqqatning kuchi qobiliyati meyoridan ortib ketadi, buning natijasida bemorlar hech narsaga uzoq vaqt diqqatlariniqarata olmaydi.

5. Diqqatning inertligi – diqqatning patologik fiksatsiyasi, diqqatning bir obektdan ikkinchisiga o’tish mexanizminig buzilishi.

6. Aprozeksiya – diqqatning butunlay yo’qolib ketishi

Xulosa. Barcha narsaning kaliti takrorlash hamda mashqlantirish bo’lgani kabi bizning miyamizga o’tadigan barcha bilimlarning kaliti hosoblanadigan diqqatimizni ham doim mashqlantirib tursak bunday buzilishlarning ma’lum miqdorda oldini olgan bo’lamiz. Bunday kuchli buzilishlarning oldini olish hamda diqqat barqarorligini taminlashda bir necha xil usulllardan foydalansak bo’ladi. Masalan, aylananadan tashqariga chiqmasdan bo’yash- bu boshlang’ich kichik usul hisoblanadi, ammo diqqat barqarorligini ta’minlashda va diqqat buzilishlarning oldini olishda ma’lum miqdorda samara bera oladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. I.P.Pavlov “Umumiy Psixologiya” Toshkent – 2008
2. “Umumiy Psixologiya” o’quv qo’llanmasi
3. Arxiv.uz
4. Vikopediya
5. Ziyo.uz.com
6. G’oziyev.E.G’, Muhammedova.D.G’, Ilhomova.D.I, Rasulova.A.I, Mallaboyeva.N.M “O’quv qo’llanmasi” Toshkent – 2008
7. E.G’.G’oziyevich “Umumiy Psixologiya”

ПЕДАГОГНИНГ МАҲОРАТИ ВА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Қобилова Розия Рахматиллоевна,
Навоий шаҳар 10-умутаълим мактаб
Биология фани ўқитувчиси,
Рустамова Рисолат Очиловна,
Навоий шаҳар 10-умутаълим мактаб
Бошланғич таълим фани ўқитувчиси

Аннотация. *Мазкур мақола педагогнинг касбий фаолиятида муваффақиятни таъминловчи билимлар ва амалий фаолият усулларини комплекс равишда ўзлаштиришига қаратилган, компетентлик ёндашуви асосидаги касбий таълимни ташкил этиш ва ривожлантириш масалаларига қаратилган.*

Калит сўзлар: *касб, педагогика, методика, компетенция, компетентлик, компетентли ёндашув.*

Бугунги долзарб масалалардан бири бу педагогнинг касбий компетентлиги ва уларнинг касбий маҳоратидир. Шу боисдан ҳам кадрлар тайёрлаш миллий дастури замонавий педагог жавоб бериши керак бўлган талаблар комплексини белгилайди. Қуйидагилар мутахассиснинг педагогик ишга тайёргарлигининг зарур ва етарли даражасини таъминлайдиган асосий талаблар ҳисобланади. Зеро, давлатимиз томонидан таълимга қаратилаётган эътибор барча педагогларнинг ўзи устида ишлаши, тинмай изланиш олиб бориши ҳамда ўқув жараёнини замон талаблари даражасида, илмий асосда ташкил этишлари учун зарурий шароитларни яратиб бериш билан бир қаторда, таълим соҳасига ёш мутахассисларнинг келиб қўшилишига имконият яратмоқда, бу эса ўз навбатида таълим муассасаси педагоглар олдига янги вазифалар қўяди. Натижада педагогик маҳорат тўлақонли мазмунга эга бўлмай, уни эгаллаш қийин бўлиб қолиши мумкин. Хўш, педагогик маҳоратнинг ўзи нима? Уни қандай эгаллаш мумкин?

Педагогик маҳорат – бу ўқитувчи-тарбиячининг шундай шахсий (болажонлиги, хайрихоҳлиги, инсонпарварлиги, меҳрибонлиги, самимийлиги, назокати, ва ҳ.к) ва касбий (билимдонлиги, зукколиги, фидойилиги, ижодкорлиги ва ҳ.к) фазилатларини белгилайдиган хусусиятки, ўз ўқув фанини чуқур ва атрофлича билишида, педагогикпсихологик ва методик тайёргарлигида, ўқувчи-ёшларни ўқитиш, тарбиялаш ва ривожлантиришнинг оптимал йўлларини излаб топиб, амалий фаолиятига қўллашидир.

Шундай қилиб, педагогик маҳорат эгаси бўлиш учун ўқитувчи ўз ўқув фанини давр талаблари асосида билиши, педагогика, психология, методика фанларини мукаммал ўзлаштиришни ҳамда инсонийлик, меҳнатсеварлик ва фидойилик каби маънавий- ахлоқий фазилатларни ўзида таркиб топтириши лозим. Шуни алоҳида қайд қилиб ўтмоқ зарурки, педагоглик касби мураккаб ва маъсулиятли касбдир.

Ўқитувчи таълим жараёнида ўқитиш шаклларини оптимал даражада ташкил этишни, баркамол шахсни тарбиялаш назариясини турли янги ғоялар билан бойитишни пухта билиши лозим.

Замонавий мактаб ўз фаолиятини, тезкор ва шиддат билан ривожланиб бораётган жамият, фан- техника ва ишлаб чиқаришнинг янгича талабларига мос равишда, узоқни кўзлаган ҳолда, ўқувчиларга нафақат, билим кўникма ва малакаларини назарий асосда етказиш, балки мазкур БКМлар асосида уни шахсини ривожлаантириш , индивидуал сифатларини мақсадли йўналтириш унда келажакда шахсий, касбий ва ижтимоий фаолияти учун зарур бўлган таянч компетенцияларни шакллантиришга қаратиш керак. «Замонавий билим бериш учун аввало, мураббийнинг ўзи ана шундай билимга эга бўлиши керак», деганда ҳақ эди биринчи президентимиз И.А.Каримов. Зеро, донишмандлар таъкидлаганидек: «Ким ҳар қандай тўсиқларни енгиб, узоқ довонни кўзлаб интилмас экан, у киши узоққа бора олмайди».

Ўқитувчи ёш авлод қалби ва тафаккурига бевосита таъсир ўтказиш билан бирга, уларнинг маънавий эҳтиёжларини замон талаблари асосида янги босқичга кўтаради. Янгича фикр ва дунёқарашни шакллантиради.

Ҳозирги замон ўқитувчисининг асосий фазилатлари ўз касбига содиқлиги, эътиқодлилиги, ўз касбини севиши, болаларни жонидек азиз кўришидир. Мактабда таълим-тарбия ишининг

юқори савияда олиб борилиши фақат ўқитувчига, унинг касбий тайёргарлигига боғлиқдир.

Ўқитувчи шахсига қўйиладиган муҳим талаблардан бири шуки, у ўзи ўқиётган фанларни чуқур билиши, унинг методикасини яхши ўзлаштириб олган бўлиши зарур. Фанни ва унинг назариясини чуқур билиши, уни қизиқарли қилиб ўқувчиларга етказа олиши болаларни шу фанга бўлган қизиқишларини оширади, ўқитувчи обрўсини кўтаради. Ўқувчилар ўқитувчи билимини ва бу билимни болаларга етказа олиш имкониятларини қадрлабгина қолмай, балки унинг шу фанга бўлган қизиқишини, фидойилигини ҳам тақдирлашади.

Ўз хизмат хусусиятига кўра ўқитувчи ташкилотчилик фазилатига ҳам эга бўлмоғи лозим. Бунинг учун ўқитувчи ташаббускорлик ва ташкилотчилик қобилятига эга бўлиб, ҳар доим тетик, ғайратли, ўз кучи ва имкониятларига ишонган бўлмоғи зарур. Ташаббускор ва ғайратли ўқитувчи болаларни ўз орқасидан эргаштира олади.

Бола мактабда ўқир экан нафақат таълим -тарбия олади, балки шахс сифатида шаклланади ҳам. Юқорида келтирилган маълумотларга асосланиб айтиш мумкинки, ўқитувчининг педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш йўналишидаги билими, кўникма ва малакалари, қобилят ва имкониятларидан таълим-тарбия жараёнларини бошқаришда, ўқувчиларни фаолиятларини мувофиқлаштиришда қандай даражада фойдалана олиши, таълимий муҳитнинг шаклланганлиги уларнинг касбий компетентлигига боғлиқ бўлади.

Компетентлик таълим муассасаси ўқитувчиларининг маънавий дунёқараши, психологик-педагогик ва ташкилий-технологик салоҳияти, яъни унинг касбий имкониятлари салоҳиятини тасвирлайди. Шундай экан, педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришда компетентлик ўқитувчининг педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш йўналишидаги тушунчалар даражаси, унинг индивидуал қобилятлари ва малакаси, ўзини -ўзи ривожлантиришга ва узлуксиз мустақил таълим олишга бўлган мойиллиги, интилишлари, шунингдек, замонавий талаблар асосида ташкил этилаётган педагогик жараёнларнинг ҳолати ва самарадорлиги орқали аниқланади.

Таълим жараёнида сифатга эришишнинг турли йўллари ҳали ҳам изланмоқда. Бугунги кунда педагогик технологиялар ва турли хил методларни қўллаш яхши самара беради. Бироқ компьютер воситаларидан фойдаланиш ҳам анча натижали ҳисобланади. Аммо шунисини ҳам ҳисобга олиш керакки, технология ва методларни ишлатиш санъати ва қўллаш даражаси ҳам юқори бўлиши лозим.

Ўқитувчи ютуққа эришиши учун кўплаб турли методларни қўллаши эмас, балки шу метод орқали ўқув жараёнига янгилик олиб кириши ва шу янгиликлар билан ўқувчини «қуроллантириши» лозим. Юқоридагилардан кўриниб турибдики, таълим сифатини оширишда ўқитувчининг ўрни беқиёсдир.

Демак, ўқитувчи баркамол авлод таълим-тарбияси учун жавобгар шахс бўлиб, нафақат атрофдагиларга ўрнак бўлиши, шу билан бирга, педагогик маҳоратини намоён эта олиши, етук ўқитувчи сифатида малакали кадрлар тайёрлаш ишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: «Маънавият», 2013, 134-б.

2. Асадов Ю., Турдиев Н., Акбарова С., Темиров Д., Бабаджонов С. Ўқувчилар компетенциялаирнинг шаклланганлигини ташхислаш ва коррекциялаш методикалари. – Т.: 2016. 7-б.

TA’LIMDA INNOVATSION VA TEXNOLOGIK YONDASHUVNING MAZMUN-MOHIYATI

Quramboyeva Marhabo
Xorazm viloyati Hazorasp tuman
XTB ga qarashli 24-son umumiy
o’rta ta’lim maktabining Tarix fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ta’lim samaradorligi o’quvchi-talabaning erkin fikrlashi, o’zaro hamkorligi va zamonaviy pedagogik texnologiyaga asoslanadi. Maqolada ana shu narsalar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so’zlar: Yangi, Zamonaviy, Pedagogik, texnologik, Loyiha, O’qituvchi, Metod, Uslub, Ta’lim, Erkin fikr, O’zaro hamkorlik.

Yangi munosabatlarning o`ziga xos jihati an’anaviy ta’limdagidan farq qilib, o`quvchi-talabalarning mustaqilligi va o`quv faoliyatini taqiqlamasdan, balki belgilangan maqsadga yo`naltirish, o`quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, ularni faoliyatga ongli ravishda yo`llash, biror-bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki samarali tashkil etish orqali o`quvchi-talabalarda fan asoslarini o`rganishga bo`lgan qiziqishlarini orttirish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi va imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o`xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo`llaniladigan usul va metodlar to`plami tushunilib, qo`yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul metodlari majmuasi tushuniladi. Agar metod bilish yo`li, tadqiqot yo`li yoki biror faoliyatdagi ma’lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashni harakatlar, usullar majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiyaning ta’lim usuli, ma’lum ma’noda ta’lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi.

Pedagogik texnologiyani an’anaviy o`qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko`p. Pedagogik texnologiya an’anaviy metodikadan, avvalo ,maqsadlarning qo`yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi. Pedagogik texnologiya usuli tarkibiy qismiga ta’limning umumiy maqsadlari (o`qituvchi va talabaning maqsadlari)ni ishlab chiqish, ta’lim maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlarida o`tkazish, maqsadga erishish usullari kiradi.

Loyihalashtirish faoliyati o`quvchi-talabalar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shakllaridandir. Loyihalash metodi – o`qitishning tashkillashtirilishi bo`lib, o`quvchi-talabalar rejalashtirish va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko`rinishida bilim oladi. Loyihalashtirish metodini qo`llash natijasida loyiha (proyekt) ko`rinishidagi bilim o`zlashtiriladi. O`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, talabalarning birgalikda ta’lim olishlari amalga oshiriladi. Talabalarni hamkorlikda ta’lim olishlari, ta’lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi.

O`quv-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llashni taqozo etadi.

Pedagogika fani va amaliyotida turli xil yondashuvlar qo`llaniladi. Ular og`zaki, ko`rgazmali, tadqiqiy, izlanuvchan, tizimli, funksional, kompleks, texnologik, faoliyatli yondashuvlardir.

O`quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish pedagogdan ijobiy ishlashni talab etadi. Pedagog o`zida unga yordam beruvchi tashqi imkoniyatlar, ya’ni, nazariy-amaliy, o`quv qurollari va vositalari mavjudligi haqida to`liq ma’lumotlarga ega bo`lishi kerak. Pedagog o`zidagi mavjud ma’lumot va imkoniyatlar asosida qaralayotgan ta’lim yo`nalishi bo`yicha ma’lumotlar hamda ilg`or o`qitish uslublarini ko`zlagan maqsadga yo`naltirish qobiliyatiga ega bo`lishi lozim.

Pedagogda shakllangan bilim, ko`nikma, malaka, o`qitish vositalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar imkoniyatlarini maqsadga muvofiq yo`naltira olish qobiliyatlari mavjud bo`lib, u davlat ta’lim standartlari asosida ta’lim oluvchiga aniq maqsadini belgilab beradi. Bu esa, o`z navbatida,

pedagogik texnologiyalarni qo`llash rejasini ishlab chiqishga, ya’ni vazifalarini belgilab olishga olib keladi. Belgilangan maqsad va vazifalarni e’tiborga olgan holda ta’limning harakatchan modeli

yaratiladi. Modelni ishlab chiqish asosan tizimli yondashuv uslubi, maqsadlar tizimini yaratish va unga erishish ketmaketligiga asoslangan holda olib boriladi. Ta’lim modelini yaratish zamonaviy ta’lim texnologiyasining asosiy talablaridan biridir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» pedagogga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yuzasidan zamonaviy talablar majmuini belgilab beradi. Bir-biriga bog`liq bo`lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iborat, ya’ni:

− pedagogning ta’lim berish mahorati;

− pedagogning tarbiyalay olish mahorati;

− ta’lim-tarbiya jarayonida inson omilini ta’minlovchi shaxs fazilati;

− ta’lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Bugungi kunda O`zbekistonda jahon ta’lim maydoniga kirishga yo`naltirilgan yangi ta’lim tizimi qaror topmoqda. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o`quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o`zgarishlar sodir bo`lmoqda. Ta’limdagi yondashuvlar tarkibi o`zgarmoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o`rnatilmoqda. Ta’lim tizimi yangi axborotlar bilan ishlash qobiliyati ijodiy yechimining ta’lim dasturini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Ta’lim – pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo`lib, o`quvchi-talaba bilan o`qituvchi (pedagog) ning shaxsga yo`naltirilgan o`zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo`lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan takomillashuvining asosiy yo`nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

− o`quvchi-talabaning yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o`tishi, ya’ni o`zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o`tishi;

− o`rtacha o`quvchi-talabaga yo`naltirilganlikdan o`qitishning tabaqalashgan va individuallashtirilgan dasturlariga o`tish;

− o`quvchi-talabaning tashqi motivasiyasidan ichki ma’naviy tartibga o`tish.

Ta’limda zamonaviy didaktika va ta’lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g`oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishiga o`tilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o`qitish texnologiyalari o`rtasida bog`liqlik, amaliyotda davlat ta’lim tizimining yangi shakllarining aprobasiyasi, hozirgi zamon sharoitida o`tmishning pedagogik tizimlarini qo`llash muhim hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya paydo bo`lgunga qadar boshqa masalalar qatorida murakkab qurilma va jarayonlar o`rganiladigan ta’lim tizimi doirasida aynan ta’lim jarayonini yetarlicha samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Bu bo`shliqni pedagogik texnologiya pedagogning loyihalashtirilgan o`quv jarayoniga ijodiy yondashuvi uchun keng o`rin qoldirgan holda to`ldiradi. Pedagogik texnologiyaning o`ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o`quv maqsadlariga so`zsiz erishish o`quv jarayonida loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko`rsatmali sxemada o`z ifodasini topadi.

Maqsadga yo`naltirilganlik, jarayon natijalarining tashxisli tekshiruvi o`quv jarayonining barcha qirralarini qayta ishlab chiqish davriga mujassamlashtirish imkonini yaratadi. U asosan o`z ichiga quyidagilarni oladi:

− ta’limda umumiy maqsadning qo`yilishi;

− tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o`tish;

− o`quvchi-talabalarning bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;

− bajariladigan o`quv ishlari majmuasi (bu bosqichda teskari bog`lanish asosida zudlik bilan ta’lim jarayoniga tuzatish kiritish bo`lishi lozim);

− natijani baholash.

O`quv maqsadlarining to`liq standartlashtirilishining me’yori quyidagicha bo`lishi mumkin:

a) yuqori, ammo mutlaq emas;

b) mutlaq.

Birinchi holatda maqsadning murakkabligi tufayli uni to`liq kuzatuvchan xatti-harakatlar turiga aylantirish imkonini bermaydi, davr to`laligicha qayta ishlab chiqilmaydi. Ikkinchi holatda konveyrli jarayon bo`lgan ta’limning reproduktiv turi bilan ish yuritiladi.

O`quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihati – o`quv

jarayonining so`nggi natijalariga yo`naltirilganligini kuzatish mumkin.

Umumiy ko`rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

− identifikasiyalangan o`quv maqsadlarini ishlab chiqish;

− o`quv maqsadlari taksonomiyasi;

− o`quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish;

− maqsadga erishish usullari;

− erishilgan o`quv maqsadlarini baholash.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo`li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o`zaro aloqani o`rnatishdir. O`zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o`quv jarayonini to`liq qamrab oladi. O`qituvchi (pedagog) o`z oldiga o`quvchitalabalar o`quv materialining mazmunini tushunib, o`zlashtirib, ma’lum bilimlarni egallab, amaliyotda qo`llashga o`rgansin degan maqsadni qo`yadi.

Pedagogik maqsadga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo`lgandagina, o`qituvchi (pedagog) o`zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlari maqsadga muvofiqligiga yoki aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

M.V.Klarin fikri bo`yicha o`qituvchi (pedagog)lar tomonidan maqsadlarni belgilashning o`ziga xos usullari quyidagicha:

1. O`quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash.

2. Maqsadni o`qituvchi (pedagog) faoliyati orqali aniqlash.

3. O`quvchi-talabaning intellektual, emotsional, shaxsiy rivojlanish ichki jarayonlari va qonuniyatlari orqali o`quv maqsadini qo`yish.

O`qitishning maqsadi ta’lim mazmuni, o`qituvchi (pedagog)ning yoki o`quvchi-talabaning faoliyati orqali belgilash ta’limda kutilayotgan natijalar haqida aniq taassurotga ega bo`lishga imkon bermaydi.

Umuman olganda, ta’lim jarayonida vazifalarni o`lchash, aniqlash, o`qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo`lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya’ni ta’lim maqsadi shunday qo`yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo`lsin.

Mashg`ulot mazmuni deganda, talaba o`qitish jarayonida egallashi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar hajmi hamda xarakteri tushuniladi. Mashg`ulot mazmunini loyihalashga kirishilganda pedagogik tizimning birinchi elementi - maqsad bilan o`zaro farqlanadigan tomonlarini hisobga olish kerak bo`ladi.

Pedagogik tizimning maqsadini belgilashda, uning talabalar o`rganishi lozim bo`lgan ro`yxati keltiriladi va ular mashg`ulot maqsadini aniqlash uchun xizmat qiladi. Mashg`ulot mazmunini saralashda ma’lumotlarning umumiy hajmidan asosiy qismi ularga yetkaziladi. Dasturda mashg`ulot materiallari tushunarli tarzda berilishi muhim. Buning uchun u ma’lum murakkablik darajasida bayon etiladi. Shu boisdan didaktikada “oddiydan murakkablikka” qoidasi mavjud. Bu qoidaga mashg`ulot mazmunini izchil va ketma-ket yoritishda rioya qilinadi.

Dastur o`qitish darajasi ilmiy-nazariy va siyosiy jihatdan qanday bo`lish kerakligini, talabalarda dunyoqarashning qaysi qirralarini shakllantirish zarurligini ko`rsatsa, darslik bu muammolarni aniq tushuntirib beradi. Mashg`ulot mazmuni ma’lum qonuniyatlar asosida didaktik tayyorlanmas ekan, uni belgilagan vaqt davomida egallash murakkab kechadi, ba’zan bu mazmun talabalarning o`zlashtirish qobiliyatiga mos kelmay qoladi. Shuning uchun ularning bilimlarni egallashini osonlashtirish maqsadida mashg`ulot mazmuniga nimadir kiritish yoki pedagogik texnologiya to`plagan boshqa bir usullarni taklif etish kerak bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma’naviyat, 2008. – B. 173.

2. Karimov I.A. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar hamda o`rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to`g`risida. // Xalq so`zi, 2012. 29 may, № 10.

3. O`zbekiston Respublikasining «Ta’lim to`g`risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.

4. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo`llari. - T., Nizomiy nomndagi TDPU, 2009.

5. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” T.:2008

6. S.Usmonov. “Pedagogik texnologiya asoslari” T.:2004

7. Fuzailova G.S, Rahmatullaeva O.R.“Tarix fanini kasbiy sohalarga yo`naltirib o`qitish metodikasi”. Uslubiy qo`llanma. – T., TDPU, 2012.

8. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy oliy o`quv yurtidagi zamonaviy ta’lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo`llanma /“Zamonaviy ta’lim texnologiyalari” turkumi. - T.: TDIU, 2009.

COMPARATIVE AND ANALYTICAL STUDY OF SOME SAMPLES FROM FOLK ARTICLES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE

Kutlimuratova Surayyo Shamuratovna
English teacher, 19th IDUM, Urgench, Khorezm region
Sabirova Adolat Maksudovna
English teacher, 19th IDUM, Urgench, Khorezm region

Annotation: *This article examines several proverbs and their comparative analysis which exsist in various languages, in particular , in English and in Uzbek languages.*
Key words: *Method, traditional, untraditional, logical, dialectic, comparativ*

In today’s world, learning a foreign language is becoming a necessity. In particular, English has become a world language, an international language, which has significantly increased the demand for learning this language. It is no secret that learning a language other than one’s mother tongue is not just about memorizing the exact translation of words in that language. After all, in the process of learning a language, the student has the opportunity to get acquainted with the life of the people who speak this language. An example of this is the proverbs of the people, because the proverbs embody the life experiences of ancestors, their attitude to society, history, positive qualities.

Proverbs are a genre of folklore that is short, figurative, grammatically, and logically complete. This genre is also available in a variety of other languages, and translating them directly from one language to another can lead to a departure from the original meaning of the proverb. For this reason, it is advisable to compare them with a variant available in another language. Below we compare a number of articles in English and Uzbek.

Proverb — a brief popular saying that gives advice about how people should live or that express a belief that is generally thought to be true.

Winter’s thunder is summer’s wonder.

There is an acceptable version of this proverb in Uzbek: “Eat winter grief in summer”.

Although proverbs often have two different meanings because they have a figurative meaning, they can be studied as meaningful proverbs because they express the same idea.

* Fools make feasts and wise men eat them.

This proverb literally means, “A fool gives a feast, and a wise man is a guest at a feast.” In Uzbek, it can mean the following article:

The mind eats short pand, the mind is deep sugar.

* A bird in hand is worth two in the bush. (One of the two birds caught in the bush is preferable.)

Cash is better than butter.

* The taste of the kitchen is better than the smell /

Donkey meat is unclean,

His work is honest.

Are there proverbs whose exact translation has the same form and meaning as a proverb in a second language:

* Better late than never

At least it’s better late.

* Burn not your house to rid it of your mouse.

Do not burn the blanket with bitterness.

Learning and memorizing proverbs in different languages and being able to apply them at the right time increases a student’s literacy and helps language learners to become more familiar with life.

References:

1. http://Methodology.ru
2. T.Mirzayev, A.Musoqulov, etc. Uzbek folk proverbs. — Tashkent: Sharq, 2012

SAVOD O‘RGATISH DAVRINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Radjapova Xilolaxon O‘ktamovna
Farg‘ona shahar 37- maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sing o‘quvchilariga o‘qish va yozishni o‘rgatishda savod o‘rgatish davrining o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: tovush, harf, bo‘g‘in, savod o‘rgatish, analitik-sintetik tovush metodi, o‘qish va yozish ko‘nikmasi, nutqqa oid malaka.

Til jamiyat a’zolarining bir-biri bilan o‘zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta’sirchan ifodalanadi. Demak, kishilarning o‘zaro munosabati, his-tuyg’ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini chuqur o‘rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. K.D.Ushinskiy boshlang’ich maktab o‘quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. Ona tili boshqa fanlarni o‘qitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o‘rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg’otishda ham alohida o‘rin tutadi.

Maktabda o‘qitish elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishdan boshlanadi. “Alifbe”ga asoslangan holda qisqa muddatda o‘quvchilar o‘qish, yozishga o‘rgatiladi, so‘ng o‘qish va yozish ko‘nikmasi takomillashtiriladi, bora-bora malakaga aylantiriladi. O‘qish va yozish malakasi nutqqa oid malaka hisoblanadi. O‘qish va yozish malakasi nutq faoliyatining boshqa turlari bilan ham bog’liq. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha marta takrorlanishi mumkin.

Yozuvda o‘quvchi tovushni harfga, o‘qishda esa harfni tovushga aylantirishdek murakkab aqliy faoliyatni bajaradi. Bu faoliyat doimiy ravishda yuz berishini nazarda tutib, o‘qish va yozish parallel olib boriladi. O‘qituvchi savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga tovushlar haqida ma’lumot berishda o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Savod o‘rgatish analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi. Bu metodga dastlab pedagog olim Ushinskiy tomonidan asos solingan. Bu metodda so‘z bo‘g’inga ajratiladi, bo‘g’indan kerakli – o‘rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o‘rganilgan harf bilan sintezlanadi.

Savod o‘rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi. Savod o‘rgatishda oldin so‘z boshida keladigan **e** tovushi so‘ng undoshdan keyin keladigan **e** tovushi o‘rgatiladi. **O** harfi o‘zbekcha, umumturkiy so‘zlarda quyi keng, lablangan **o** tovushini ifodalaydi. Ruscha – internasional so‘zlarda urg’usiz bo‘g’inda **a** tarzida (kalxoz), **o‘** tovushi kabi (to‘nna), qisqa **i** tarzida (rektir) talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unlili so‘zlar savod o‘rgatish davridan so‘ng o‘quv jarayoniga kiritiladi. O‘zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Shulardan 3 tasi harf birikmasi. 24 ta undosh tovush 23 ta undosh harf bilan belgilanadi. Undoshlarni o‘rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslanadi.

Alifbo davri sonor – ovozli (ovozdor) tovushlarni o‘rgatishdan boshlanadi. Lekin **ng** sonor undoshi **n** va **g** undoshi tovush harfi bilan tanishtirilgach o‘rgatiladi. Harf birikmalarini o‘rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda ular alifbe davrining oxirrog’ida o‘rganiladi. **J** harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Savod o‘rgatish jarayonidayoq harfning 4 xil shakli (bosma, yozma, bosh va kichik) o‘rgatiladi.

O‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish bo‘g’in asosida olib boriladi. O‘qishning dastlabki bosqichida orfografik o‘qishdan foydalanilsa, sekin-asta orfoepik o‘qish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bo‘g’inlab o‘qishga o‘rgatish uchun so‘zni bo‘g’inga bo‘lish, bo‘g’in hosil qiluvchi tovushni aniqlash, ochiq-yopiq bo‘g’inlarni farqlashga o‘rgatish muhim sanaladi.

O‘qish ham yozish ham murakkab nutq faoliyati. U kichik yoshdagi o‘quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi. Kichik yoshdagi o‘quvchini o‘qishga o‘rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o‘qish paytida bitta harfni ko‘radi, uni bilish uchun oldingi ko‘z oldiga keltirilgan rasmlarni yo boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o‘qituvchi aytishga yo‘l qo‘ymaydi, ikkinchi harfni eslab qo‘shguncha birinchisi esdan ko‘tariladi, yoki ularni qo‘shib bo‘g’in, bo‘g’indan so‘z hosil qilguncha o‘qish jarayoni sustlashadi.
2. Ko‘pincha bola o‘qiyotgan qatorni yo‘qotib qo‘yadi, harfni, bo‘g’inni, so‘zni qayta

o‘qishga to‘g’ri keladi. O‘quvchining diqqati kengaygan sari bo‘g’in va so‘zni butunicha idrok eta boshlaydi.

3. O‘qishni endi o‘rganayotgan bola o‘qiyotgan matn mazmunini o‘zlashtirmaydi, chunki so‘zni qanday o‘qishga kuch beradi-da, so‘z ma’nosiga e’tibor bermaydi. Darslikdagi rasmlar, o‘qituvchining savollari, ko‘rgazmali qurollar ongli o‘qishlarini ta’minlaydi.

4. Tajribasiz kitobxon so‘zni birinchi bo‘g’iniga yoki rasmga qarab topadi. Bu xato o‘qishga olib keladi. Bu xatoning oldini olish uchun so‘z bo‘g’inlab o‘qitiladi, so‘zni bo‘g’in-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush-harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi.

O‘qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o‘quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkurini va nutqini o‘stirishga katta e’tibor berish kerak.Savod o‘rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o‘stirish, to‘g’ri va aniq talaffuz qilishga o‘rgatish, tovushni ajratish ko‘nikmasini o‘stirish muhim sanaladi.

Yozuvga o‘rgatish o‘quvchilar ruchkani to‘g’ri ushlash, daftarni to‘g’ri qo‘yish, harfni yozishda yozuv chiziqlari e’tibor bilan boshlanadi. Ular bo‘ylab qo‘lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga ulashi, qatorga sig’ish-sig’masligi mo‘ljallanishi lozim. Bular o‘quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, barmoq va yelka muskullari charchaydi, bular darsda ikki-uch marta fizkultura mashqlarini o‘tkazishni taqozo qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Q. Abdullaeva va boshq. Savod o‘rgatish metodikasi. -T.: O‘qituvchi, 1996.
2. A. Rafiev. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi.-T.: 2003.
3. A. G‘ulomov. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. -T.: O‘qituvchi, 1992.

“HARBIY ISH ASOSLARI”MODULINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Rafiqov Ramazon Abdurasul o‘g‘li
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti 1-bosqich magistranti.
+998914194656
ramazon@bk.ru

Anatatsiya: O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy bilim yurtlari va fuqaro oliy ta’lim muassasalari harbiy kafedralari oldida o‘quv-tarbiyaviy jarayon sifatini xalqaro andozalar darajasiga ko‘tarish, ta’limda ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish, qobiliyatli o‘smirlarni saralab olish, zamonaviy xorijiy ta’lim metodlari va texnologiyalarini milliylashtirish, harbiy oliy o‘quv yurtlarining kadrlar potentsialini tarbiyalash va shakllantirish, yuqori malakali xorijiy mutaxassislar bilan raqobatdosh ofitser kadrlar tayyorlash, yangi o‘quv adabiyotlari, moddiy-texnik baza, zamonaviy jihozlar va zamonaviy ta’lim texnika vositalari bilan mustahkamlash hozir kunda ham ustivor vazifalardan bo‘lib turibdi.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, moddiy-texnik baza,burch, texnika, rivojlantirish, texnologiya.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish hamda uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarishga davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi sifatida katta e’tibor berib kelmoqda.

Uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi sifati har qanday davlatning zamon talablariga hamohang ravishda innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi va muhim omil sanaladi. Fan texnika va texnologiyaning tobora taraqqiy etib borayotgani ta’lim sohasidagi tegishli o‘zgarishlarni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Bu esa o‘z navbatida pedagog kasbining yanada murakkablashuvi, mas’uliyati va vazifalarining ortishiga olib keladi. Chunki ommaviy ta’limning bugungi sharoitida yangi raqamli avlod bilan ishlash, ularni rivojlantirish, jahon talablariga mos qilib kasbga tayyorlash zamonaviy o‘qituvchidan yuksak texnologik bilim, salohiyat va mehnatni talab qiladi.

Harbiy ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ya’ni hozirgi kunda ta’lim jarayonida bo‘lgan texnologiyalarni harbiy ta’lim jarayoniga adaptatsiyalash masalasi ham kun tartibida turibdi. Gap shundaki, harbiy ta’limning o‘ziga hos tomonlari, uning amaliy mashg‘lotlarida qo‘llaniladigan tushuntirish, ko‘rsatmalilik, mashq qilish kabi metod va usullari xozirgi kunda ham amalda muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda, shuningdek, harbiy ta’lim mashg‘ulotlari nazariy, amaliy, ko‘rgazmali, taktik, taktik-saf, nazorat shakllaridan iborat ekanligi, ularning aksariyat qismi amaliy bo‘lib O‘zbekiston Respublikasinin Qurolli Kuchlari Nizomlari talablariga binoan olib borilishi, otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarini tashkil etish va olib borilishida o‘quv va jangovar qurollar bilan ishlash bo‘yicha ko‘rsatma va yo‘riqnomalar talablariga qa’tiy amal qilinishi, shuningdek mashg‘ulotlarning aksariyat qismi o‘quv-moddiy bazalar bilan chambarchars bog‘liqligi, harbiy ta’lim mashg‘ulotlarining o‘ziga hos tomonlarini nomoyon etadi.

Harbiy ta’lim berishni mantiqiy ketma-ketlik bilan aniq va puxta olib borish uchun keys usulidan foydalanishda mashg‘ulot raxbari keys usulini qo‘llashga doir yaxti bilimga ega bo‘lishi lozim.

Olingan axborot materiallari, va keys stadi bo‘yicha yozilgan asarlar ma’lumotlari bu texnologiyani harbiy ta’limda ham muvaffaqiyat bilan qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi. Ularning ayrimlarini keltirish bilan fikrimizni asoslashga harakat qilamiz.

A.A. Abduqodirov, F. A. Astanova, F.A. Abduqodirovalar keysni yaratishning 12 bosqichini ko‘rsatadilar:

1. Keysning didaktik maqsadlarini shakllantirish.
2. Muammoli vaziyatni aniqlash.

3. Matnga joylashtiriladigan asosiy tezislardan iborat keysning dasturiy xaritasini yaratish.
4. Keysning dasturiy xarita tezislariga aloqador institutsional tiziminiii zlash(korxona, idora vab.)
5.Keysning dasturiy xarita tezislariga nisbatan institutsional tizimda axborot yig‘ish.
6. Ta’lim muassasasining faoliyatini aks ettiradigan vaziyatning modelini yaratish.
7. Keys jarini tanlash.
8. Keys matnini yozish.
9. Keysning to‘g‘riligi va samaradorligini tashxislash.
10. Keysningoxirgi variantini tanlash.
11. Keysni amaliyotga joriy etish.
12.Keysdan foydalanish metodika sini ishlab chiqish.

Yuqoridagi bosqichlar ishlab chiqarishda ham, ta’lim jarayonida ham muammolarni hal qilishda qo‘llanilishi mumkin, shu jumladan, harbiy ta’limda ham. Buni tubandagicha tavsif qilish mumkin:

Axborot tizimlarida keysi yechishning turli metodlar integratsiyalanishi to‘g‘risida fikr yuritiladi:

Modellashtirish. Bunda vaziyat modeli tuzilmasi ishlab chiqiladi.

Sistem tahlil. Tizimli tasavvurlar va vaziyat tahlili.

Maqsadli eksperiment. Vaziyat to‘g‘risida uni aqliy qayta qurish vositasida bilim olish usuli.

Tasvirlash metodi. Vaziyatning tasvirini yaratish.

Muammoni aniqlash.

Tasniflash metodi. Vaziyatni tashkil etuvchi xususiyatlar, tomonlarning tartibga solingan ro‘yxatini tuzish.

O‘yinli metodlar. Turli harakat variantlarini taqdim etish.

Aqliy hujum. Vaziyatga nisbatan g‘oyalar ishlab chiqish.

Munozara. Muammo va uning yechilishi bo‘yicha fikr almashish.

Ta’limiy keyslarning o‘ziga xosligi uning asosini o‘quv vaziyatlari tashkil etishidir. Ta’limiy “Keys-stadi” texnologiyasiga qo‘yiladigan talablar:

- mavzu dolzarb va bir nechta yechimlarga ega bo‘lishi;
- tanlangan matn o‘quv mashg‘ulotining maqsadiga mos kelishi;
- tadqiq qilinayotgan muammoni hal etish uchun axborotning yetarli bo‘lishi.

Ko‘rsatib o‘tilgan bosqichlar ishlab chiqarishda ham, talim jarayonida ham muammolarni hal qilishda qo‘llanilishi mumkin, shu jumladan, harbiy ta’limda ham.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovan, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2016-yil.

2.O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida »gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi qonuni (2020-yil 24 sentiyabr).

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (2019-yil 8 oktiyabr PF-5847 son).

4.A.Sotiboldiyev, A. Karimjonov «Xarbiy pedagogika» «Toshkent» 2004 y.

5.Harbiy psixologiya “O‘zbekiston Respublikisi Mudofaa Vazirligi “Toshkent” Fanlar akademiyasi nashryoti 2004-yil.

6.Sotvoldiyev Abdulhoshim Yuldashovich Chaqiruvga qadar harbiy ta’limni

7.«Chaqiriqqacha harbiy talim » fakultetlarida harbiy tayyorgarlik. Dadaboyev Sh.N Toshkent 2007-yil.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISI VAZIFALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rashidova Nargiza Haydaraliyevna,
Navoiy shahar 10-umumta’lim maktab
Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi
Ibotova Zarifa Najmiddinovna
Navoiy shahar 10-umumta’lim maktab
Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi vazifalari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi, o‘quvchi, istedod, ta’lim-tarbiya, dars, boshlang‘ich, sinf, maktab, qobiliyat.*

«Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilmfan va ta’limtarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq...»

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Bugun shunday globallashuv jarayonida yurtimizda ta’lim va yoshlarga bo‘lgan e’tibor ham keskin jadallashdi.

Shunga ko‘ra Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida «Ta’lim va tarbiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo‘lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini egallashini ta’minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi»deb ta’kidlaganlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Shuningdek, konsepsiyaga doir o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarni bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, PIRLS,TIMSS va boshqa dasturlarda ishtirok etish nazarda tutilgan. Bugungi kunda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o‘quvchining muayyan intellektual salohiyatining to‘liq yuzaga chiqishiga olib keladi. O‘qituvchi ta’lim samaradorligiga xizmat qiladigan ijobiy tajribalarni o‘rganmay turib, biron-bir muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Davr bizdan mustaqil fikrlovchi, o‘z xalqi, Vatani manfaati yo‘lida fidokor, o‘z kasb-kori bo‘yicha yuksak malakaga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashni kutmoqda.Barcha turdagi hunar egalaridan tashabbuskorlik, omilkorlik, mahorat, raqobatbardoshlilik, bilimdonlik, kreativlik, davr talablariga moslasha olish kabi umumiy sifatlar talab qilinmoqda.

O‘qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun - qoidalar, umumlashtirilgan metodik g‘oyalar bayon etiladi. Darsning bilim berishdagi mahoratini, uning mas’uliyatini sezgan har bir ilg‘or pedagog mashg‘ulotga puxta tayyorlanib, uni mazmunan boyitadi, tinmay izlanib, o‘qitishning yangi usullarini yaratib, maktab ta’limida qo‘llashga aytiladi.

Har bir o‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rar ekan, unga yengil - yelpi, yuzaki qaramasdan,

balki uning mas’uliyatini bilgan holda sidqidildan yondashishi kerak. Bu mas’uliyat, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan talab qilinadi. Chunki bolalardagi ilk poydevorni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari quradilar. Berilgan ta’lim, qurilgan poydevor qanchalik mustahkam bo‘lsa, kelajakka ishonch shunchalik ortaveradi. Yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash, ilmli, zukko, ma’naviyatli qilib tarbiyalash esa o‘qituvchi va murabbiylar qo‘lidadir. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi ilm berar ekan, avvalo, bolalarni sevib, ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalab, o‘z fanini chuqur bilgan holda sidqidildan dars o‘tmog‘i kerak. Agar dars shunchaki ish emas – muomala, mashg‘ulot emas - san’at, jadvaldagi soatlar emas - hayot deb qaralsa, unda pedagog o‘z-o‘zidan tez-tez darsga nima uchun borayotganlgini so‘rab, bolalarning oldiga borayotganligini qalbdan his etishi lozim. Dars berish - bu, inson qalbiga yo‘l topish demakdir. Bunda so‘zdagi axloqiylik - haqiqat, amaldagi axloqiylik esa - adolatligini bilmoq zarur. Shuni ham unutmaslik kerakki, har bir, hatto, ko‘p yillab charxlangan dars ham nimasi bilandir yangi, birinchidir.

O‘qituvchi yoshlarga ta’lim - tarbiya beruvchi insondir. O‘qituvchida o‘qituvchilik kasbiga xos layoqat, qobiliyat bo‘lmog‘i darkor. Avvalo, u bolalarni sevishi, ijodkor, ishbilarmon bo‘lishi, ma’naviy barkamol bo‘lishi, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, o‘qituvchi har bir o‘quvchisi ulg‘ayib yaxshi odam bo‘lishiga chin ko‘nglidan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishga ko‘maklashadigan asosiy kuch bo‘lishi talab etiladi.

Shu yo‘l bilan qirq besh daqiqa darsni yaxshi bir asar yanglig‘ o‘z o‘quvchilari ongiga singdiradi. Bunday fidoyi ziyobaxsh qalb egalari shaxsiy ijodiy jarayonini boyitishga munosib hissa qo‘shadilar. Shu tariqa har bir ijodkor o‘qituvchi o‘zining haqiqiy muallimlik mahoratini yaratadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishni pedagogik ta’limning tarkibiy qismiga aylantirishda o‘qituvchi ma’naviy-axloqiy qiyofasi yetakchi o‘rin tutadi. Binobarin, o‘qituvchi faoliyatining ana shu yo‘nalishi uning pedagogik bilimi va mahorati bilan uyg‘unlashib borishi lozim. Shu sababli o‘qituvchilarni tayyorlash mazmuni ularning professional madaniyati bilan uzviy bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ona tilini chuqur va to‘la bilishi lozim, rivojlangan nutq madaniyatiga ega bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida xorijiy mamlakatlar ish tajribalarini o‘rganish va eng yaxshilaridan foydalanish uchun o‘z xalqining etnik madaniyati va psixologiyasi, o‘tmish ajdodlar tomonidan ishlab chiqilgan xalq axloq-odobi asoslarini, u yoki bu milliy madaniyatning o‘ziga xos tomonlarini bilishi, musiqiy va adabiy xalq og‘zaki ijodidan xabardor bo‘lishi kerak. Shuningdek, u o‘zini ma’naviy va jismoniy jihatdan muntazam ravishda takomillashtirib borishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi quyidagi o‘z kasbiga yot bo‘lgan shaxsiy qusurlarni, ya’ni kasbiy loqaydlik, bola tarbiyasiga va ularning taqdiriga befarqlik, tajanglik, yengiltaklik, shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarish kabilarni yenga bilishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi shunday pedagogik fazilatlarni o‘zida mujassamlantirgan bo‘lishi kerak, ular quyidagi masalalarni hal qilishga yordam berishi kerak.

Birinchi navbatda, o‘quv faoliyatini shunday tashkil qilish kerakki, bunda o‘quvchining shaxsi kamol topsin, shuningdek, hozirgi davrda boshlang‘ich ta’lim oldiga qo‘yiladigan vazifalar aniq bo‘lsin;

Ikkinchidan, kichik maktab yoshidagi bolalarning ruhiy-fiziologik holatlarini bilsin;

Uchinchidan, o‘z bilimlarini, psixologik-pedagogik tayyorgarligini oshira borib, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning to‘liq o‘rganishi, bolalar bilan, ularning otaonalari bilan yaxshi muomalada bo‘lishi zarur. Bolalarni o‘yin vositasida tarbiyalay bilishi kerak. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kamol toptirishda ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligini doimiy va izchil amalga oshirish lozim; boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bilish imkoniyatlarini kengaytirib borishi kerak;

To‘rtinchidan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bilimining mazmuni hamda o‘qitishining shakl-usullari jamiyatdagi insonparvarlik va demokratik g‘oyalarga mos bo‘lishi kerak. Bular esa o‘qituvchilarning o‘quvchilarga bo‘lgan munosabatida qandaydir avtoritar xarakterdagi ish metodidan voz kechishga olib keladi hamda o‘qituvchi shaxsining obro‘sini oshiradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o‘z - o‘zini tarbiyalash, o‘z ustida ishlash faqatgina o‘qituvchi faoliyatida emas, balki butun bir shaxs faoliyatida namoyon bo‘lishi kerak. Agar shaxs izlansa, o‘z qobiliyatlari ustida ishlasa, o‘zidagi yaxshi fazilatlarni kamol toptirsa, uning obro‘si, mavqei ham shu darajada yuksaladi, doimo el nazarida bo‘ladi. Uni hech kim uloqtirib yo chetga chiqarib qo‘ya olmaydi. Shuning uchun o‘qituvchi doimo izlanishda bo‘lishi, fanga yangiliklar

olib kirishga intilishi, oʻzining odobi, kasbiy sifatalri bilan boshqalarga oʻrnak boʻlishi darkor. Oʻz ustida ishlaydigan ijodkor oʻqituvchilarning obroʻ - e’tibori, martabasi ulugʻ boʻladi. Ular doimo el nazarida, hurmatida boʻladi. Xalq hurmatida, e’tiborida boʻlishining oʻzi eng katta baxtdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – Oʻzbekiston ovozi. – 2016. – 8 dekabr.
2. S.T.Turgʻunov, B.X.Danyarov, M.A.Umaraliyeva «Oʻqituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish» .
3. Jumaev A. Ijtimoiy faol oʻqituvchi shaxsi shakllanishining pedagogik-psixologik omillari. Uslubiy qoʻllanma. – Toshkent: Sharq, 2008.

Internet manbalari: www.ziyonet.uz, www.pedagog.uz

INGLIZ TILI FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARGA QO’YILADIGAN TALABLAR

Rizayeva Gulnaz Absamatovna
Navoiy viloyati Navoiy shahridagi
5-IDUM ingliz tili o`qituvchisi
Eshmurodova Nafosat Qahramonovna
5-IDUM ingliz tili o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada ingliz tili fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va bu jarayonga qo`yiladigan talablar haqida to`xtalib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** sinfdan tashqari ishlar, ommaviy, guruhlarga bo`linib ishlash, individual shakllar, yozma ish, tarjimonlar bellashuvi….

Ma’lumki, o‘quvchilarning asosiy vaqti maktablarda ta’lim-tarbiya olish bilan o‘tadi. Kelajakka qadam ham aynan maktab davridan boshlanadi. Agar biz maktabda har bir o‘quvchini bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etilishida ko‘makdosh bo‘lsak, ota-ona bilan bu borada birlashsak, oqil-u dono, yurt koriga yaraydigan yoshlar – kelajak bunyodkorlari taqdiriga daxldor bo‘lamiz.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga, aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatdir.Dars va sinfdan tashqari ishlarning o‘zaro bog‘liqligi, darsda hosil qilingan ko‘nikma va malakalar sinfdan tashqari ishlar vaqtida rivojlantiriladi. Bu ishlarni tashkil qilish va o‘tkazishda yangi o‘quv materialni - til va nutq hajmini ko‘paytirib yubormaslik kerak. Bu qiziqishni susaytirib yuborishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishda ishlatiladigan material o‘quvchilar uchun qiziqarli, axborotga boy va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan bo‘lishi kerak. O‘quvchilar tomonidan ular o‘zlari erkin tanlab olgan ishlarni bajarishi shartligi, sinfdan tashqari ishlarni bir maqsadga qaratilganligi va doimiyligi; vaqt kabi faktorlar ham muhim rol o‘ynaydi.





Guruh bo`lib tadbir va kechalar o`tkazish 1 yilda 2 martadan oshmasligi kerak. Dastur tuzish, instsenirovka – sahnalashtirish, ashula, intermediyalar sahnalashtirishni oldindan rejalashtirib olish zarur. Til materiali o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi kerak.

Chet tillaridan tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

a) ifodali o‘qish(she’r, hikoya, latifalar);
b) mavzular bo‘yicha tayyorgarliksiz hikoya qilib berish ;
c) rasmlarni tasvirlash;
d) tarjimonlar bellashuvi;
e) yozma tarjima bellashuvi.

Umumiy o‘rta ta`lim maktablarida chet tili o‘qitishning maqsadi va har bir sinfda shunga mos malaka va ko‘nikmalar hosil qilishga qo‘yilgan talablarni yaxshi bilamiz. Har bir sinf uchun

belgilangan dastur materialini, darslikning tuzilishini va boshqa o‘quv qo‘llanmalarini , o‘qitishning shart-sharoitlarini, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, psixologik qonuniyatlarni, nutqiy malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish bosqichlarini yaxshi bilgan, anglagan holda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish rejasi tuzib olinishi lozim.

Sinfdan tashqari ishlar rejasini tuzar ekanmiz, yuzaga keladigan, kelishi mumkin bo‘lgan fonetik, grammatik va lug‘aviy qiyinchiliklarni aniqlashi kerak. Ya’ni “Sinf o‘quvchilarini ingliz tilida yaxshiroq gapirishga o‘rgatish”, “O‘quvchilarni tinglab tushunishga o‘rgatish”, yoki “O‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini o‘stirish” kabilar aniq maqsad qo`ymasligimiz kerak. Ghunki ularni ayrim bir mashg`ulotda bajarsak, ayrim mashg`ulotlarda bajarib bo`lmaydi. Shuning uchun qo‘yiladigan vazifa aniq bo‘lishi lozim. Masalan:

- O‘quvchilarni quyidagi so‘zlarni ma’nosini eshitib tushunishni va og‘zaki nutqda qo`llashga o‘rgatish kabi maqsadga dars yakunida erishish mumkin.
- Quyidagi affikslarni ishlatib gaplar tuzishga va ularni nutqda qo‘llashga o‘rgatish;
- O‘quvchilarni quyidagi so‘zlarni lug‘atdan topishga o‘rgatish;
- O‘quvchilarni internatsional so‘zlarni o‘qib yoki eshitib tushunishga o‘rgatish;
- Tekstni o‘qiyotganda notanish so‘zlarni kontekst yordamida tushunishga o‘rgatish;
- Fellarni Perfect zamonidagi shakllarini berilgan nutqiy vaziyatlarida qo`llashga o`rgatish kabi maqsadlarga ayrim bir mashg`ulotda erishish mumkin.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta`kidlab o`tganidek: “Agar bolalar mustaqil fikrlashni o`rganmasa, berilgan ta`lim samarasi past bo`lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo mustaqil fikrlash ham katta boylikdir”. Biz o`quvchilarga mana shu boylikni hadya etuvchi shaxslar ekanligimizni unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Kakimov”Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” asari “Ma’naviyat” 2008.
2.O`qituvchi nimalarni bilishi kerak?” (Metodik qo`llanma Toshkent – 2016)
3.ziyo.net va internet manbalari

MAKTAB O’QUVCHILARINI KASBGA YO’NALTIRISHNING AYRIM JIHATLARI

Ro’zimova Matluba O’ktamovna
Xorazm viloyati Tuproqqal’a tumani
XTB qarashli 1-IDUM amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: O’sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo’naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimiznung ota-onalari hamda ta’lim muassasalarining o’rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o’qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Bu maqolada o‘quvchilarni kasbga to’g’ri yo‘naltirishdagi ayrim muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: amaliyotchi psixolog, o’quvchi, kasb tanlash, ta’lim, hamkorlik, kasb-hunar, tashxis, jamiyat, tanlov, maktab.

Ma’lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog’liq. Zero, jamiyatimizning ma’naviy yangilanishida, ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo’shilishini ta’minlaydigan demokratik xuquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o’ynaydi.

Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma’rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo’lgan yoshlarga ta’lim berish ularni o’qitish bilan bog’liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o’ylantirib qo’yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxasis kadrlarga muxtoj bo’lib boraveradi.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o’ta muhim bosqichi bo’lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog’lik emas, u ma’lum yoshga kelib o’z o’zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko’nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta’siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo’lish talab qilinadi. Shuning uchun xam o’quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko’nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo’llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta’minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to’siqlarni oldini olgan holda o’quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo’llash imkoniga ega bo’lamiz.

O‘quvchilar kasb hunarga yo’naltirishda, ularning qiziqishlariga asoslangan holda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to‘garaklar, treninglar alohida o‘rin egallaydi. Ularning qiziqishlarini anonim so’rovnomalar olish orqali ham bilib olish mumkin.

Maktab psixologlari o‘z ish faoliyatida pedagogik-psixologik tashxisga alohida o‘rin ajratishi lozim. Pedagogik-psixologik tashxis jarayonida o‘qituvchi, maktab rahbariyati, psixologi, o‘quv-ishlab chiqarish muassasasi hamda kasb-hunar maktablari mutasaddilari bilan hamkorlikda har bir o‘quvchining tanlagan kasbi bilan shaxsiy sifatlari orasidagi mutanosiblikni aniqlashi kerak.

Maktab psixologi o‘quvchilarni kasbga yo‘llashga oid faoliyatini sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari, maktab rahbariyati va psixologi, ota-onalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar maktablari ma’muriyati faoliyati bilan mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi kerak.

O‘quvchilarni munosib kasb-hunarga yo‘naltirish maqsadida, maktab o‘qituvchilari, firmalar, ishlab chiqarish korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb-hunar maktablari hamda tashxis markazlari hamkorligini yo‘lga qo‘yish kerak. Bunday hamkorlik natijasida o‘quvchilar orasida ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo‘lgan kasblar targ‘ibotini amalga oshirish imkoni paydo bo‘ladi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo’yicha maktab amaliyotchi psixologi o‘z kasbiy faoliyati jarayonida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

– o‘quvchilarni jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan kasb-hunar turlari bilan tanishtirish;

– kasblarning demogratik xususiyatlari haqida ma’lumot berish;

– o‘quvchilarni kasbga yo‘llash bo‘yicha pedagogik-psixologik xarakterdagi maslahatlar uyushtirish;

– o‘quvchilarda ularning shaxsiy sifatlarini hisobga olgan holda muayyan kasblar bo‘yicha barqaror qiziqishlarni shakllantirish;

– o‘quvchilarni o‘z kasbiy faoliyati natijasida shuhrat qozongan mashhur shaxslar va ularning jamiyat va insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari bilan tanishtirish;

– o‘quvchilarga kasblarning jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy jihatlarini rivojlantirishdagi o‘rni haqida malumot berish;

– o‘quvchilarning ota-onalari bilan ularning farzandlarini munosib kasbga yo‘llash bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish;

– o‘quvchilarni noto‘g‘ri kasb tanlashning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish;

– o‘quvchilarda dastlabki umummehnat va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish va sinab ko‘rishlari uchun qulay sharoitlar yaratish;

– o‘quvchilarni to‘g‘ri kasbga yo‘llash maqsadida, ularning shaxsiyati, mehnat turi va kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganish;

– o‘quvchilarni kasbga yo‘llash jarayoni samaradorligini ta’minlash maqsadida, maktabda muayyan kasblar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida hikoya qiluvchi ko‘rgazmalar, anjumanlar, uchrashuvlar tashkil etish;

– o‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy qiziqishlarini aniqlash maqsadida muntazam pedagogik-psixologik tashxis o‘tkazish va h.k.

Kasb tanlashda maktab amaliyotchi-psixologining olib borayotgan targ’ibot tashviqot ishlarining o’z ahamiyati bor. Chunki barcha o’quvchilar ham kasb tanlashda aniq bir fikrga kela olmaydi, ikkilanishadi, yonidagi sinfdoshlarining, ota-onasining tanlovlariga ko’ra harakat qilishadi. Mana shunday vaziyatda maktab amaliyotchi-psixologi ularga kerakli yordamni berishi zarur bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O‘zMU, 2003. 156-b

2. Yusupova F. I. O‘quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari.

3. Internet saytlari.

AMALIY FANLARNING SHAXS RIVOJLAISHIDAGI O`RNI. TASVIRIY SAN`AT VA MUSIQA FANLARI O`RTASIDAGI BOG`LIQLIK

Ernazarova Gavhar,
Navoiy viloyat Navoiy shahar
2-umumiy o`rta ta`lim maktabi
musiqa madaniyati fani o`qituvchisi
Toirova Nargis Raimovna
tasviriy san`at va chizmachilik fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaliy fanlarning bola rivojlanishidagi o’rni hamda dars o’tish jarayonida tasviriy san`at va musiqa fanlari o`rtasidagi bog`liqlikni aks ettirish orqali o’quvchilarni dars jarayoniga qiziqtira olish haqida ma‘lumotlar berilgan .

Kalit so’zlar: tasviriy san’at,dars,rasm,buyumlar yasash, applikatsiya, tasvir….

Musiqiy asarni o`rganish, rasm chizish, loydan buyumlar yasash, applikatsiya - bu amaliy faoliyat turlari bo’lib, ularning asosiy vazifasi tevarak-atrofni obrazli aks ettirish va obrazlar bilan xayolan birga bo`lish hisoblanadi. Masalan, shoirning she’ri, bastakorning musiqasi, rassomning yaratgan asari. Tasviriy va musiqiy va badiiy faoliyat maktab yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Bolalarda tasviriy san`at obrazli tasavvur shakllanadi, ular ertak va she’rdagi obrazlarni o’zlaricha tasvirlab, unga nisbatan munosabatlarini bildirishga intiladilar. Bunda tasviriy faoliyat mashg’ulotlari qo’l keladi, bu mashg’ulotlar davomida o`quvchilarning nutq boyligini o’stiriladi, obrazli ifodalari boyitib boriladi.Tasviriy faoliyat va musiqaning uzviy bog’liqligi ham bolalarning estetik, ijodiy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Boshlag`ich sif o`quvchilariga musiqali asarni tasvirlab berish taklif etilsa, bu taklif ularda jonli qiziqishni uyg’otadi. Bu bolalarda ijodiy izlanish, mustaqillik kompozitsiyasini tuzish qobiliyatlarini o’stiradi. Bolalarning tasviriy faoliyatlarini tasviriy san’at asarlari bilan uyg’unlashtirib olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar tasviriy san’at namunalarini kuzatib borar ekanlar, ular rassomlarning ijodi bilan kengroq tanishib qolmay, surat chizishda mazmun, rang, shakl tanlashda muhim ko’nikmalarni egallab oladilar, san’at go’zalligini, boyligini ko’ra bilishga o’rganadilar. Maktab badiiy ta`limini rivojlantirish amaliy fan o`qituvchilarining kasbiy faoliyati va kasbiy madaniyatini yanada oshirishni talab qiladi. Amaliy san`at orqali zamonaviy insonni tarbiyalash asosiy o`rinni egallaydi. Bu tarbiya ona qornida boshlanib, maktabda ushbu rivojlanish fanlar – musiqa, rang-tasvir va adabiyot bilan hamohang go`zallikni ko`rish, qadrlash, yaratish, eng muhimi, tushunish qobiliyatini uyg`otadi.

Musiqa va tasviriy san`at fanlarini hamkorlikda o’qitishning asosiy g’oyasi – birgalikda o`qitish, birgalikda o`rganishda o`z ifodasini topadi.

O’quv shiori: “Boshqalarga yordam berish, biz o’zimizni o’rganamiz!”

Hamkorlikda o’qitish usulida ko’plab variantlar mavjud, biz o’zimizga eng mosini tanlaymiz. Tajribamiz bilan bo`lishamiz:

Tasviriy san`at darsida “Birgalikda o’rganish” hamkorlikda o’qitish usulidan foydalandim. Birgalikda o’rganamiz uslubining xususiyatlari nimada?

Sinf 3-7 kishidan iborat guruhlarga bo’linadi. Guruhlarni tuzishda har bir o`quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olishga va shunga mos ravishda har bir guruh uchun vazifalarni ishlab chiqishga e’tibor berdim.Har bir guruh bitta topshiriqni oldi. Alohida guruhlar va umuman barcha guruhlarning birgalikdagi ishi natijasida barcha materiallarni o’zlashtirish va amaliy vazifani amalga oshirishga erishdim.Bunda albatta musiqa ham hamohang bo`ldi.

Yana bir usul - Loyihalar usuli. Hamkorlikda o’qitish texnologiyasi bizga o’quvchining shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda uning shaxsiyatiga yo’naltirilgan ta’lim jarayonini qurishda yordam beradi. Bunday holda, o’quv jarayoni markazida o`quvchi , uning bilimi va ijodiy faoliyati turadi. Bunday ta’lim jarayonida o’qituvchining o’rni nihoyatda mas’uliyatli, ammo an’anaviy o’qitishda bu usuldan foydalanolmaymiz . Bunday mashg’ulotlarning asosiy maqsadi o’quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini, axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishdir, shunda sinf o`quvchisi o’zini o’zi anglash qobiliyatiga, mustaqil fikrlashga va o’zi uchun muhim qarorlarni qabul qilishga qodir. O’z yutuqlari va imkoniyatlarini etarlicha baholash,

o’z-o’zini rivojlantirish borasida kerakli xulosalar chiqarish qobiliyatini o’rgatish kerak. Bunda ma`lum bir musiqani qo`yib, shu musiqa ta`sirida ma`lum mavzuda tasavvuridagi rasm loyihasi ishlanadi.

Darslarda qo’llaniladigan usullar san’at va musiqaning o’ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Avvalo, biz cheklashlar tizimida erkinlik usulidan foydalanishimiz lozim. Agar sinfda rangni (sovuq, issiq yoki 3 rangda) yoki tarkibni (faqat “bezak va fantaziya” yoki “yaxshi ertak qahramonlari obrazi”) cheklash talablari qo’yilgan bo’lsa, unda ish natijasi faqat ushbu cheklovga muvofiqligi bilan baholanadi. Har bir darsning cheklanishlarini aniq bajarish va ularning doimiy almashinuvi bolada har qanday ishini ongli ravishda boshqarish qobiliyatini shakllantiradi, ijodiy irodani intizomli, maqsadga muvofiq qiladi.

Tasviriy san’at va musiqa darslarida bolalarning ijodiy rivojlanishini amalga oshirishda axloqiy-estetik tarbiya muammolarini hal qilishi kerak. Shuningdek, san’at ma’naviy aloqani nazarda tutadi, faqat o’qituvchi va o`quvchining hamkorligi va birgalikda ijodi natija beradi. Amaliy san`atni ehtirosning o’ziga xos hissiy muhitini yaratmasdan tasavvur qilib bo’lmaydi. Shuning uchun biz o’quvchilar bilan jonli muloqotlar, musiqa, vizual tasvirlar, she’riy matn, o’yin vaziyatlaridan foydalanib darslarni tashkil etsak, albatta o`z oldimizga qo`ygan maqsadimizga erishamiz. Shu o`rinda musiqiy mashg`ulotlar jarayonida o`quvchilarning ijodiy faolligini ta`minlash ham alohida ahamiyatga molik. Zero, zerikarli va bir xillik sinfda jonli hissiyot holatini vujudga keltira olmaydi. Fanlararo integratsiya orqali o`quvchilarni yanada faollashtirish va ularni tafakkurini o`stirish biz amaliy fan o`qituvchilari zimmasida ekan, o`quvchimizni fanning yuqori cho`qqisini zabt etishlari uchun doimiy izlanishda bo`laylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.”Gumanitar fanlar metodologiyasi” Toshkent- 2017
2.”Fanlararo integratsiya” Navoiy -2021
3. Internet ma`lumotlar

FIZIKA VA KIMYO DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Sa’ dullayeva Bibirobiya Zarifboy qizi
Xonqa tuman 22-maktab fizika fani o qituvchisi
Hayitova Gulhayo Bog’ibek qizi
Xonqa tuman 32-maktab kimyo fani o’qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika va kimyo fanini o’qitishda hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari hamda fizika va kimyo fanini o’qitishda interfaol metodlar va ulardan samarali foydalanish usullari haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Web grafikli kalkulator, geometrik shakllar, matematik

Bugungi kunda mamlakatimizda bo`layotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ta’lim- tarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar “Milliy dastur”imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun o`qituvchisini yanada ko`proq mehnat qilishga, izlanishga da’vat etmoqda. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo‘lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o‘rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bog‘liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug‘ ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog‘liqdir.

Hozirgi kunda matematika darslarida foydalaniladigan inrefaol metodlardan ba’zilarini ko’rib chiqamiz.

“Fikriy hujum” metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

“6x6x6” metodi. yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi.

“Klaster” metodi. Klaster (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi juda katta. Bugungi kunda imnterfaol metodlar o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshkaraev, K., Norimbetova, Z. (2020). Methodological recommendations for organizing and holding mathematical circles. European Scientific Conference,248-250.
2. Norimbetova, Z. A. (2020). Axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida geometriya fanini o’qitish metodikasi (10-11-sinflar misolida). Science and Education, 1(7).
3. Narimbetova, Z. A. (2020). Matematika fanida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o’quvchilar tafakkurining rivojlantiruvchi omil. Academic research in educational sciences, 1(3), 1253-1261.

O’QUVCHILARDA BOSH HARFLAR IMLOSINI O‘QITISHDA TAHRIRLASH USULIDAN FOYDALANISH

Sadikova Gulmira Baxtiyorovna
Toshkent shahar Olmazor tumanidag
191-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi
o’zbek tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bosh harflar imlosiga doir ko‘nikmalarni maktab yoshidan singdirib borishimiz lozimligi, xususan bir mavzu doirasida chekalanib qolmay, har bir mavzu, har bir fan nuqtayi nazaridan o‘quvchining imloviy xatolari o‘qituvchi nazoratida o‘rganib borilishi kerakligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o‘quvchiga qoidani yodlatib, mashq bajartirish emas, balki ko‘rish hamda uning to‘g‘ri variantini o‘quvchining o‘zi yaratishiga erishish eng samarali usul deb topilgan.

Kalit so‘zlar: bosh harflar imlosi, eshitib tushunish, mantiqiy fikr, tafakkur, tasniflash, izchil yondashuv.

Annotation. The spelling of the capital letters in the article is accepted through the study of the final points, one has to understand a specific topic, each topic, the ability to draw attention from the point of view of each subject improves the control of the learner. Experience does not have to be done by memorizing the rule of thumb, but at the same time, it helps to improve the quality of work and skills.

Keywords. capital spelling, meeting concept, logical thinking, thinking, classification, consistent approach.

Bilamizki, yozma savodxonlik masalasi uzoq yillik tarixga ega bo‘lib, (“Ustodi avval” (Saidrasul Saidazizov. Toshkent – 1900, 1902), “Adibi avval” (Munavvarqori Abdurashidxonov. Toshkent – 1907), “Adibi soniy” (Munavvarqori Abdurashidxonov. Toshkent – 1907), “Kitob ul – atfol” – “Bolalar uchun kitob” (Mahmudxo‘ja Behbudiy. Samarqand – 1908, 1914), “Birinchi muallim” (Abdulla Avloniy. Toshkent – 1911), “Ikkinchi muallim” (Abdulla Avloniy. Toshkent – 1912), “Turkcha qoida” (Fahriddinov Muhammadamin. Toshkent – 1913), “Savod” (Xevalik muallim Muhtor Bakr. Qozon – 1913), “Ta’limi avval” (Rustambek Yusuf o‘g‘li. Toshkent – 1912, 1914), “Turkiy alifbe” (Muhammadxon Abdulholiq o‘g‘li. Qo‘qon – 1916), “Rahbari soniy” (Abdullaxo‘ja Saidmuhammadxo’jayev, 1916), “Birinchi yil” (Saidrizo Alizoda. Samarqand – 1917), “Rahbari avval” (Fahriddinov Muhammadamin. Toshkent – 1917) kabi kitoblar shular jumlasidandir. Bunday kitoblarda yozuvni isloh qilish masalalarini ko‘rish maqsad qilinmagan bo‘lsa-da, ularni (kitoblarni) yaratish, shular asosida savod chiqarish, to‘g‘ri yozish va to‘g‘ri o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida imlo qoidalarini mukammallashtirish, alifboni o‘zbek tili xususiyatlariga moslashtirish, tinish belgilari tizimini va qoidalarini shakllantirish zarurati borligi sezila borgan [1; 6-b.]. Bugungi kunda ham savodxonlik har bir fuqaro, har bir pedagog, har bir ziyoli insonning madaniyatlilik belgilaridan biridir. Yozma nutqning shakllanishi inson fikrlashining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu nutq orqali og‘zaki nutqimizni ham rivojlantira boramiz. Imlo savodxonligi orqali yozma nutqimizni baholaymiz. “O‘zbek tilining imlo qoidalari” kitobida yozma nutqimizning ma’lum tartib-qoidalari berilgan. Ammo yozma savodxonligimizda ko‘plab xato va kamchiliklarni kuzatishimiz mumkin. Darsni tashkil etish va o‘qitish bola psixologiyasi bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, o‘quvchining yoshi va shaxsiy xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning darsga tayyorlanish jarayonidagi holatlarini e’tiborga olib darsni boshlashi zarur. Bunday vaziyatda o‘quvchining darsga diqqatini jalb etish, e’tibor markaziga mavzuga oid tushuncha hosil qilish, tafakkur ko‘lamini kengaytiruvchi savol va topshiriqlar bilan murojaat qilish maqsadga muvofiq. Bosh harflar imlosiga doir mavzular akademik litsey darsligida hamda 6-sinf “Atoqli otlar” mavzusida qisman berib o‘tilgan. Bolada bosh harflar imlosiga doir ko‘nikmalarni maktab yoshidan singdirib borishimiz lozim. Xususan, u aynan bir mavzu doirasida cheklanib qolmay, har bir mavzu, har bir fan nuqtayi nazaridan o‘qituvchi nazoratida o‘rganib borishi lozim. O‘quvchining diqqatini jamlash maqsadida har bir mavzuni boshlashdan oldin “Aqliy hujum” metodidan foydalanib, og‘zaki tarzda noodatiy savol va topshiriqlar berib borishimiz samarali usul. Beradigan savol va topshiriqlarimizni “O‘zbek tilining imlo qoidalari”dagi kitobdan har bir mavzuga moslab tuzib chiqsak, imlo savodxonligimizni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, atoqli otlar

- Savol: Diqqat qiling! Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning imlosidagi farqni izohlang.

1. Go‘zal opasi bilan kutubxonaga bordi.

2. Uning qarshisidan go‘zal qiz shoshib o‘tib ketdi.
3. Yakshanba kuni negadir mashinalar qatnovi kamayadi.
4. Dadam bilan yakshanba kuni toqqa chiqamiz.

Bu topshiriq orqali o‘quvchiga Atoqli otlar va so‘z boshida kelgan har qanday so‘z bosh harf bilan yozilishi kerakligini tushuntirish maqsad qilingan. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” [2; 21-23-b.]da “Bosh harflar imlosi”si uchun alohida qonun-qoidalar kiritilgan bo‘lib, unga ko‘ra quyidagi holatlarda bosh harflardan foydalanishimiz kerakligi aytib o‘tilgan:

1. Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi.
2. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan yoziladi.
3. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi.
4. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san’at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, transport vositalari, sport inshootlariga qo‘yilgan nomlar bosh har bilan boshlanadi.
5. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi.
6. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi.

Davlatlarning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi.

Bu va boshqa holatlarda biz so‘zlarni bosh harf bilan boshlaymiz. Bu holat faqat yozma nutqimiz uchun xos bo‘lib, yozma nutqimizda qo‘llaniladigan barcha yo‘nalishlarda ahamiyatlidir. Kishilar o‘rtasida yo‘l qo‘yiladigan xatolarning ko‘pchiligi ham aynan imlo xatolar bilan bog‘liq. Masalan, biz kuzatuvimiz davomida maktab yoshidagi bolalarning ona tili, adabiyot, tarix, geografiya kabi fan daftarlarining muqovasini tekshirib chiqdik. Ularning ko‘pchiligida bosh harflar imlosi bilan bog‘liq xatolar kuzatildi. O‘quvchilar, eng avvalo, daftar muqovasida yozilishi kerak bo‘lgan ma’lumotni yozishda xatoga yo‘l qo‘yishadi. Ya’ni, fan, fakultet nomini kichik harf bilan yozish hollari ko‘p uchraydi. Shuningdek, 5-6 sinflar orasida o, u, s, z, o‘ harflarini qo‘llash bilan bog‘liq xatolik ham kuzatiladi. Ular bu harflarni yozuvda katta va kichik ko‘rinishlarini so‘z o‘rtasida (ko‘pincha ikkinchi harf bo‘lib kelganda) bir xil usulda qo‘llab yozganlar: “Doston” so‘zini “DOston”, “Zumrad” so‘zini “ZUmrad”. Bu holat to‘g‘ridan to‘g‘ri husnixat bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, uni vaqtida to‘g‘irlamasak, bosh harfalar imlosi bilan bog‘liq xatolarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, nazorat diktantlari, insho, bayon yozganlarida ham bosh harflar imlosiga doir kamchiliklarga guvoh bo‘lamiz. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun o‘quvchilar bilan bosh harfalar imlosiga doir topshiriqlarni boshqa mavzular doirasida integratsiya orqali bog‘lab, ishlab chiqishimiz kerak, degan xulosaga keldik. Chunki aynan bosh harflar imlosiga doir mavzu akademik letsiy darsligida va 6-sinf darsligining atoqli otlar mavzusida qisman berilgan. Shu jarayonlarni inobatga olib, o‘quvchilarga har bir bo‘lim yakunida bo‘ladigan mustahkamlash darslari va nazorat darslarida quyidagi topshiriqni qo‘llashlarini tavsiya etaman:

Bu jarayon ikki bosqichdan iborat bo‘lib, audiomatn orqali ikkita topshiriq uzviylikni uzmagan holda ketma-ketlikda olinadi. O‘quvchiga audiomatn qo‘lyozmasi har bir topshiriq oldidan tarqatma shaklda beriladi

Kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, bosh harflar imlosi bo‘ladimi yoki boshqa grammatik hodisalarni o‘rganishmi, dastlab qoida yodlatiladi, keyin mashq bajartiriladi. Bu mutlaqo noto‘g‘ri yondashuv. Yuqoridagi kabi tahrirlash usulini qo‘llab, ya’ni real vaziyatdagi xatolarni ko‘zi bilan ko‘rish hamda uning to‘g‘ri variantini o‘quvchining o‘zi yaratishiga erishish eng to‘g‘ri yondashuvdir.

Xulosa o‘rnida M.Mirtojiyevning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: “Tilshunoslar metodikani, metodistlar til qonuniyatlarini bilmaydi. Shunisi yomon. Masalan, qoidani yodlatish kerak emas, nutq qaysi qonuniyat doirasida ketayotganini anglatish zarur. Darsliklarda qoida o‘qitilib, ortidan misol berib ketilaveradi. Bu – noto‘g‘ri. Misoldan qonuniyat yaratish kerak. Darsliklarda bu hisobga olinmaydi. Bolaning o‘zi bajarib ko‘rishi, o‘zi misoldan qoidani chiqarishi kerak” [3].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2007.
2. Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – T.:O‘qituvchi, 2003. – 240 b.
3. http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ona-tili/davr-va-ona-tili-talimi-muammolari-davra-suhbati.html

TARIX VA HUQUQ DARSLARIDA INTERFAOL USULLARNI QO’LLASH.

Saidov Nurmuhammad Bahriddin o’g’li
Qashqadaryo viloyati Muborak tuman
21-sonli maktabning tarix huquq fani o’qituvchisi.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada tarix va huquq fanlarining ahamiyati va o’rni, fanni o’rganishda interfaol usullarning ahamiyati haqida ma’lumot berilgan.
KALIT SO’ZLAR: ta’lim-tarbiya, yosh avlod, jadidchilik, o’tmish, kelajak avlod.

O`sib kelayotgan yosh avlodni o`z ona vatanimiz tarixi bilan tanishtirish, ularni vatanimiz ozodligi uchun kurashgan tarixiy qahromonlarimizni, bevosita ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo`shib, hozirda jahonni juda ko`plab davlatlariga nomlari tarannum etilgan buyuk mutafakkirlarimizni nomlarini kelajak avlodni ongu shuuriga singdirish lozim. Chunki, kelajak avlodlarimiz ertangi kunimizni bunyodkori, bir so`z bilan aytilganda kelajakni vorislari hisoblanadi. Darhaqiqat, ushbu so`zlar ko`p bora takidlangan. Ona zaminimizni boy va o`chmas tarixini o`rganishda asosiy tayanch vazifani tarix fanni bajaradi. Shuning uchun ham mashhur o`zbek taraqqiy parvari,jadidchilik harakatining namoyondasi Abdurauf Fitrat shunday yozgan edi:”Tarix millatlarning o`tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o`rgana turg`on ilmdir’’. Bizga ma’lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko’rsatuvchi „Ko’zgu” desak bo’ladi va bu ko’zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o’z kelajagini belgilab olishi mumkin.

Xuddi shunday huquq fani ham juda katta ahamiyatga ega bo’lgan fan hisoblanadi. Huquq jamiyat hayotining turli sohalari – iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy sohaga, madaniy-ma’naviy munosabatlarga ta’sir etadi va shu tariqa iqtisodiy, siyosiy va tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi. Shunday ekan o’z huquqlarini yaxshi bilmagan insonning kelajagi ham porloq bo’lmaydi.

Maktabda tarix va huquq fanini o’qitish orqali o’quvchilarda o’zlari mustaqil va ijodiy fiklashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o’stirishga, eng asosiysi ma’naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim.

Ta’lim-tarbiya jarayonida mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun bugungi kunning pedagog hodimlari har bir darsda qiziqarli, samarali bo’lgan yangi pedagogik texnalogiyalardan foydalanish kerak.Bizga ma’lumki, tarix fanining asosini ma’lumotlar tashkil etadi. Ularni to’liq eslab qolishi o’quvchilar uchun bir oz qiyinchilik tug’dirishi mumkin (ayrim past o’zlashtiruvchi o’quvchilar). Bu kabi ma’lumotlarni o’quvchilar xotirasida bir umrga esda qolishi, turli xil sahnali ko’rinishlar, qiziqarli o’yinli usullar, krossvordlar, guruhlar bilan ishlash, baxs munozaralar olib borishiga bog’liq. Men o’z darslarimda o’quvchining alohida xususiyatlariga e’tibor berishga,ko’proq o’zim yaratgan turli usullardan foydalanilgan holda yoritishga harakat qilaman.

“Mavzuga zamin”usuli

Maqsad: O’quvchilarni o’tilgan mavzuni mustahkamlashdan oldin, shu mavzu bo’yicha o’quvchilarni darsga tayyorlash ya’ni zamin hozirlash.Bizga ma’lumki o’quvchilar mavzuni o’qituvchi tushuntirib berishi chog’ida va o’zi darslikdan o’qib o’zlashtirishi mumkin. Lekin bu degani sinfda hamma o’quvchilar o’zlashtira oladi degani emas. Chunki hamma o’quvchilarning xotirasi, fikrlash doirasi birdayin bo’lmaydi. Shuning uchun ularga turli xil o’yinlar, sahnali ko ’rinishlar, baxsmunozaralar orqali darslar tashkil qilinsa,sinfdagi uncha yaxshi o’zlashtira olmaydigan o’quvchilar ham mavzu haqida tushuncha hosil qilibgina qolmasdan,mustahkamlab oladi. Dars jarayonida o’tilgan mavzuni mustahkamlash chog’ida, avvalombor, o’quvchilarni darsga tayyorlab olishi kerak.Yaxshi dars o’tilishi,o’quvchilarning yaxshi o’zlashtira olishi eng birinchi navbatda o’qituvchi o’quvchilarni o’ziga jalb qilishi,o’tilgan mavzuni dab durustdan boshlab,ularga o’tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar berishdan emas, aksincha o’quvchilarni o’tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishiga bog’liq.

QO’LLASH BOSQICHLARI BO’YICHA TAVSIYALAR:

1. Bu usul ko’proq o’quvchilarni darsga tayyorlab olishi,o’tilgan mavzuni takrorlab,mustahkamlashga za min hozirlash uchun ishlatiladi.

2. Bu usul 5-11 sinflarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq.

3. Guruhlar belgilanadi. O’quvchilar guruhlarga 5-7 kishidan bo’linishlari kerak.Guruhlarga bo’lish chog’ida guruhlarning kuchlari teng bo’lishiga ahamiyat berish lozim. Har bir guruhga 2-3

ta yaxshi o’zlashtira oladigan o’quvchilarni va unga yaxshi o’zlashtira olmaydigan o’quvchilarni joylashtirib bo’lish kerak.

Bu metodni huquq va tarix darslarida qo’llash samara beradi.

“T.A.R.I.X.”usuli

Maqsad: “T.A.R.I.X.”-bu usul quyidagi jadval asosida to’ldiriladigan jamoa o’yinli usulidir. Ya’ni “T.A.R.I.X.” usuli quyidagi so’zlarning bosh harflaridan olingan bo’lib, Ttest savollar, A-anagrammalar, R-raqamlardagi voqealar, I-ikki tarixiy jarayonni solishtirish, X-xulosa kabi qismlardan iborat bo’lib,bu jadvalni guruh bilan birgalikda to’ldirish orqali o’quvchilar mavzuning asosiy mazmuni keltirib chiqarishadi.

Bulardan tashqari har bir mavzuda uchraydigan yangi atamalarni o’quvchilar yodda saqlab qolishi uchun quyidagi o’yin – usullardan foydalansa natija samarali bo’ladi.

“ ZANJIR” usuli.

O’quvchilar katta guruhlarga bo’linadi. Zanjir usuli aytilgan atamani takrorlamaslik sharti bilan boshlanadi. Bunda o’quvchining ziyrakligi va topqirligi sinaladi. Huquq darslarida huquqiy tushuncha va atamalarniyodda saqlashda qo’l keladi.

Tarix va huquq fanlari o’tmish voqealarini va huquqiy munosabatlarni o`rganish bilan birgalikda, bugungi kun bilan hamnafas bo`lishda bosh yetakchilik vazifasini bajaradi. SHunday ekan o’quvchilarni bu fanlarga bo’lgan qiziqishini oshirish, fan mazmunini to’liq tushinib olishi uchun turli metod va o’yinlardan foydalanilsa natija samarali bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyatlar

1. Umumta’lim fanlar metodikasi.Jurnal 2018 yil 3-son
2. Tolipov O’.Q, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.(o’quv qo’llanma.)T;Fan 2006.

MAKTABLARDA ADABIYOT FANI TO’GARAKLARIDA MAQOLLAR TAHLILI BO’YICHA KO’RSATMALAR

Sanoqulova Dilnoza Ravshan qizi
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
191-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi
o’zbek tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot to‘garaklari ishi haqida tavsiyalar beriladi. Xususan, o‘zbek xalq maqollarini adabiyot to‘garaklarida o‘rganish bo‘yicha kuzatishlar bayon qilingan. Maqollar tahlili bo‘yicha metodik izlanishlar ilmiy dalillar bilan keltiriladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi, maqollar, adabiyot to‘garaklari ishi.

Annotation. This article provides recommendations for the work of literary circles. In particular, observations on the study of Uzbek folk proverbs in literary circles are described. Methodological research on the analysis of proverbs is based on scientific evidence.

Keywords: Uzbek literature, folklore, proverbs, work of literary circles.

Ma’lumki, maqollar xalq og‘zaki ijodining bebaho boyligi sanaladi. Ular o‘zining qisqa shakli va chuqur ma’nosi bilan har birimiz nutqimizda qo‘llaydigan bebaho vositaga aylangan. Maqol janri o‘z xususiyatiga ko‘ra xalqaro janr sanaladi. Ya’ni u dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida uchraydi. Ana shu holatdan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrda 2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi 220-son qarorida xalq og‘zaki ijodini o‘rganish, folklorshunoslik taraqqiyotini ta’minlash bilan bog‘liq bir qator tadbirlar belgilangan. Mazkur tadbirlarning hayotga tatbiq etilishi xalq og‘zaki ijodini o‘rganish sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu borada davlatimiz Prezidenti Istiqlol mafkurasi g‘oyalarini yaratish jarayonida har qanday siyosat va shaxsiy manfaatlardan ustun turadigan folklor merosidan foydalanish zarurligiga alohida to‘xtalib “Yurtimiz yoshlarini o‘zbek folklorining hayotbaxsh qadriyatlaridan bahramand etish ularni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega” [3] deb ta’kidlaganlar. Folklor janrlari sirasiga esa tarbiyaning asosiy vositasi hisoblangan, kishilarni hayot voqeliklaridan chiqarilgan xulosalar orqali tarbiyalovchi xalq maqollari ham kiradi. Shu sababdan ham yurtimizda olib borilayotgan ta’limning negizida tarbiya yotadi. Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy tarbiya jarayoniga to‘xtalar ekan shunday deb yozadi: “Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmog‘i lozimdur” [1]. Ushbu fikrlarning o‘zi tarbiya jarayonining mohiyatini ochib beruvchi dalil vazifasini o‘taydi.Shuningdek, ulug‘ rus yozuvchisi L. N. Tolstoy ham maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqin ekanligi haqida to‘xtalib: “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko‘raman”, [7] deb yozgan edi. Adib M. Sholoxov esa “Maqol qanotlanib asrlardan asrlarga, avloddan avlodga ko‘chib yuradi va bu xalq donishmandligi parvoz qilayotgan ufqning nihoyasi ko‘rinmaydi”, deb xalq maqollarining inson hayotida bitmas-tuganmas xazina ekanligini alohida ta’kidlaydi.

O‘zbek folklorshunoslari, jumladan, Sobirjon Sodiqov maqollarning paydo bo‘lish jarayonini: “Xalqning qalbida ibratli fikr, hayot haqidagi xulosalar “pishib” yetilib turgan bo‘ladi. Ko‘pni ko‘rgan, zukko va gapga chechan bir odam uni bir necha so‘z vositasida yuzaga chiqaradi. Shu tariqa maqol paydo bo‘ladi” , – deb izohlaydi. Haqiqatan ham, aslida avval og‘zaki nutqda paydo bo‘luvchi maqollar og‘zaki nutqimizda keng qo‘llaniladi. Ular nutqimizni ixcham va ravon,teran va mazmunli bayon qilishga yordam beradi. Zero, “So‘z ko‘rki – maqol”, degan gap ham bejiz emas. “Maqollar nutqqa chehradagi qora xoldek, uzukka qo‘yilgan ko‘zdek yarashadi”, [6] O‘zbek tilida maqollar turli davrlarda turli nomlar bilan atalib kelingan. Mahmud Koshg‘ariy “Devon”ida turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim o‘zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda. Masalan, ushbu asarda keltirilgan “Kishi olasi ichtin” (Odam olasi ichida bo‘ladi), “Alp yag‘ida, alchaq jo‘g‘ida (Botir dushman bilan to‘qnashganda, yuvosh esa majlisda sinaladi), “Alp cherikda, bilga tirikda” (Botir jangda, dono esa majlisda sinaladi) singari maqollar hozirgi vaqtda ham ishlatiladi. O‘zbek adabiyotining mumtoz davriga kelib esa

maqol ma’nosida “masal” atamasining keng istemolda bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Mumtoz adabiyotdagi she’riy asarlarda maqol qo‘llash san’atining “irsoli masal” deb atalishi ham bejiz emas. Bugungi kundagi maqol atamasi XX asrdan boshlab o‘zbek paremiologiyasidagi turg‘un atamaga aylandi va janrga eng munosib nom sifatida qo‘llanilmoqda. O‘zbek tadqiqotchilari tomonidan esa 1924-yildan boshlab maqollar to‘plab, nashr etila boshlandi. Biroq bu nashrlarning ayrimlarida maqollarni berishda jiddiy nuqsonlar ham ko‘zga tashlanganini ham qayd etib o‘tish lozim. Bu holat folklorshunoslarimiz e’tiboridan chetda qolmadi. Bu borada filologiya fanlari doktori Jabbor Eshonqulning “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida e’lon qilingan “Maqol egasiz emas” maqolasini eslatish maqsadga muvofiqdir. Maqolada mazkur to‘plamning kamchlik va nuqsonlari haqida so‘z boradi. Jumladan, muallif shunday yozadi: “O‘zbek xalq maqollari. 65 mavzuda maqollar guldastasi” kitobida xalq og‘zaki ijodi va folklorshunoslarimiz mehnatiga bepisand qaralganiga guvoh bo‘lamiz. Har bir sahifadagi xatolar, kitob mavzulariga maqollar noo‘rin kiritilgani, mazmuniga qaramay qo‘shib yuborilgani ham shundan dalolat beradi”. Bu fikrlarni o‘qib mazkur to‘plamni tayyorlashda anchayin e’tiborsiz yondashilgani ma’lum bo‘ladi. Maqolada mazkur to‘plamdan keltirilgan maqollarning buzilgan shaklini o‘qib bunga yana bir bor amin bo‘lasiz: “Igna yo‘qotgandan sigir yo‘qotgan gumonsirar” maqolini o‘qib, beixtiyor igna yo‘qotgan odamdan nega sigir yo‘qotgan odam gumonsirashi kerak, deb o‘ylanib qolasiz. Bunda mantiqsizlik shundoq ko‘rinib turibdi. Aslida esa bu maqol quyidagicha: “Igna o‘g‘irlagandan sigir yo‘qotgan odam gumonsirar” [2]. Bu maqolada keltirib o‘tilgan kamchliklar muallif tomonidan keyingi nashrlarda tuzatilsa va maqol to‘plamlarini nashrga tayyorlovchilar ushbu jihatlarga e’tibor qaratsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Maqollarni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, to‘g‘ri va ongli o‘qish malakalarini takomillashtirish, maqoldagi har bir so‘zning va yaxlit maqolning ma’nosini to‘liq idrok etishga erishishdir. O‘quv mashg‘ulotlari jarayonida maqolning mazmunini o‘rganish va yod olishdan tashqari, uning matnidagi izohtalab so‘zlar, birikmalar ustida lug‘at ishi o‘tkazish, badiiy til vositalari, ko‘chma ma’noli, qarama-qarshi ma’no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so‘zlar ma’nosi yuzasidan ish olib borish ham talab etiladi. O‘quvchilar o‘qilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli so‘zlarni o‘zi mustaqil topa olish ko‘nikmasini egallashi, ular yordamida o‘qilgan asarlar yuzasidan to‘g‘ri hukm chiqarishga o‘rganishlari zarur. O‘quvchilarga maqollarni mavzu bo‘yicha guruhlab o‘rgatishda o‘qish mavzulariga asoslaniladi. Bunda maqol mazmuniga mos asarlar nomini keltirish, uning mazmun va g‘oyasini maqol bilan bog‘lash kerak. O‘quvchilar o‘qigan maqollariga darslikdan mos asarlarni tanlab, maqolning ma’nosi bilan asarda aytilayotgan fikrning bog‘liqligini izohlab beradilar. Masalan, “Elidan ayrilgan yetti yil yig‘lar, Vatandan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar”, “Begona tuproq – devona tuproq” maqollariga Bobur haqidagi “Hidi, tilimi va mazasidan” asarini misol qilib keltirish mumkin. O‘zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asari yillar oshgan sari har gal o‘quvchini qaysidir jihati bilan sergaklantiradi. Mazkur asardagi Anvar obrazi haqida adabiyot ixlosmandlari yaxshi bilishadi. “Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom ber”, “Intilganga tole yor” maqollarining ifodasi sifatida bolaligidan tirishqoq va zakiyligi, nozikta’bligi bilan atrofdagilar e’tiboriga tushgan, o‘z so‘zida sobit tura oladigan, yuqori martabaga erta erishgan Anvar timsolini keltirish mumkin. “Jasur qiz” ta’rifini olgan Ra’no haqida ham maktab darsliklarida ilk tasavvurlarga ega bo‘lganmiz. Zamonasining zulmi yoxud zayli qurboniga aylanmay, o‘zining shijoati bilan muhabbati va kelajagi yo‘lidagi harakati, aytish joiz bo‘lsa, tahsinga sazovordir. “Odob bilan baxt topilar, Sabr bilan taxt”, “Yaxshi qiz yoqadagi qunduz” kabi maqollarda tariflanganidek bugungi kunda yoshlarimizga ibrat bo‘la oladigan vafodorlik, pokdomonlik, go‘zallik, halollik, oliyjanoblik fazilatlari Ra’noning xulqi, fe’l-atvoriga xos. Xuddi shunday G‘afur G‘ulomning turfa hangomalarga boy “Shum bola” qissasidagi Qoravoy uyidan ketib qolib, o‘zining topqirligi, zukkoligi, sho‘x-shaddodligi tufayli turli sarguzashtlarni boshidan kechiradi. Shum bola bir gal o‘g‘rilarga, bir gal har bir gapga “Innaykeyin?” deb javob qaytaruvchi boyga, bir gal giyohvand mullalarga duch keladi. Axiyri oila sog‘inchi uni o‘z uyiga yetaklab boradi. Musofirchilikning shuncha qiyinchiliklariga qaramay, Qoravoy taslim bo‘lmadi, oldinga intilib yashadi. “Musofir bo‘lmaguncha, musulmon bo‘lmaysan”, “Baxt yalqovga begona”, “Gado arazlasa, to‘rvasiga ziyon”, “To‘g‘ri so‘z tosh yorar, egri so‘z – bosh”, “O‘ylamay qilingan ish, Boshga keltirar tashvish” kabi maqollar Qoravoy hayotidan hikoya qiladi.

Maqollarni o‘rgatish o‘qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g‘oyaga, keltirilgan obrazlarga mos

maqol ustida qanday mashq uyushtirishni rejalashtirib olish lozim. Maqollar orqali o‘quvchilar ongiga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilm olishga qiziqish, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, o‘quvchilarni ko‘rgan-bilgan, eshitgan, o‘qiganlari yuzasidan xulosa chiqarishga, o‘z nutqida maqollardan foydalanishga o‘rgatish kerak. Bundan tashqari, “Eling senga cho‘zsa qo‘l, Unga doim sodiq bo‘l” maqolining ma’nosini tushuntirishda shu bo‘limdagi asarlardan, bolalar uchun davlatimiz tomonidan yaratib berilgan sharoitlardan misollar keltirish ham mumkin bo‘ladi. Demak, hech ikkilanmay aytish mumkinki, xalqimizning bacha fazilati, falsafasi, duynoqarashi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati o‘zbek xalq maqollarida aks etgan. Prezidentimiz ta’kidlaganidek “yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yetuk mutaxassis yoshlarimiz” [5] ni ma’nan yuksak qilib tarbiyalamay turib bu vazifani amalga oshirib bo‘lmaydi. Zero, “Milliy mafkura, avvalambor, o‘zligimizni, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo‘yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart”. [4]. Chunki mafkura o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi ko‘prik ekanligini unutmasligimiz lozim. Bu borada bizga xalq og‘zaki ijodi durdonalari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Eshonqulov J. Maqollar egasiz emas, O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2014- yil 4- aprel, № 14, B.4.

2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008. – B. 31

3. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. T: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004, 116-б.

4. Каримов И. Жамиятимиз мафкураси халқни халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. “Тафаккур”, 1998, 2-сон,8-б.

THE WAYS OF INCREASING FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN PRIMARY CLASSES

Satibayeva Maftuna Khakimovna
EFLT of secondary school №36
Ferghana city

Annotation. ***This article is devoted to the problems and the ways of increasing foreign language teaching in primary classes. Besides article is connected with secondary school practice.***

Key words: ***primary classes, approach, STEM, natural approach, grammar drilling, vocabulary checks, generating competition***

Yosh avlodning ijtimoiylashuvining muvaffaqiyati ko’p jihatdan uning ijtimoiy muhitiga, bolani o’rab turgan shaxsni shakllantiruvchi makonga bog’liq. Bugungi kunda zamonaviy maktab, bitiruvchilarni axborot va bilim ishlab chiqarishning asosiy mahsuloti bo‘lgan axborot jamiyati hayotiga tayyorlashi kerak. Zamonaviy maktabning birinchi vazifalaridan biri bolalar maktabda allaqachon o’z imkoniyatlarini ochib berishlari, yuqori texnologiyali raqobat dunyosida hayotga tayyorgarlik ko’rishlari uchun shunday ta’lim sharoitlarini yaratishdir. Maktabda ta’lim asoslanishi kerak bo’lgan asosiy ustuvor yo’nalishlar o’quvchilarning AKT savodxonligini rivojlantirish va ta’limning barcha bosqichlarida AKT - kompetentsiyani shakllantirishdir.

Bugungi kunda informatika fani umumta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib, u yaxlit dunyoqarashni, dunyoning tizimli-axborotli manzarasini, o‘quvchilar shaxsining ta’lim va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish kabi muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy maktabda informatika kursi dunyoning axborot manzarasini shakllantirishni ta’minlaydi, tabiat, jamiyat va texnologiyadagi axborot jarayonlarini tizimli ravishda ko’rib chiqadi. Bunda o`quvchilar tafakkurini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. O’quvchilar ilmiy bilishning zamonaviy usullarini o‘zlashtiradilar, tizimli va ijodiy fikrlashni shakllantiradilar. Shu asosda maktabda informatika o‘qituvchisi sifatidagi faoliyatning asosiy maqsadi, ya’ni axborot jamiyatida yashashga qodir shaxsni shakllantirishga ko‘maklashishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

- o’quvchilarning axborot madaniyati elementlarini shakllantirish uchun sharoit yaratish;
- o’z-o’zini tarbiyalash va o’z-o’zini rivojlantirish ko’nikmalarini egallash uchun sharoit yaratish;
- informatika va AKTni o‘qitishning boshqa fan yo‘nalishlari bilan integratsiyalash;
- o’quvchilarning iqtidorini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratish.

Mavzu bo’yicha o’quvchilar bilan ishlashni tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Informatika fanini o‘qitish jarayonida an’anaviy o‘qitish usullari bilan hal qilish juda qiyin bo‘lgan muammolar maktab o‘quvchilarining informatika va axborot texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar darajasidagi farqdir. Shuning uchun informatika darslarini o’tkazishning eng samarali shakllarini izlash kerak. O’qituvchilik amaliyotida quyidagi dars shakllaridan foydalanish lozim:

Tadqiqot dars. Misol tariqasida “biologik jarayonlarni modellashtirish” darsini keltirish mumkin. Modellashtirishning maqsadi inson bioritmlarini o’rganish va tahlil qilish asosida turli tadbirlar uchun qulay va noqulay kunlarni bashorat qilishdir. Hisob-kitoblar asosida bioritmlar diagrammasi tuziladi.

Dars - multimedia bilan birga ma’ruza. Masalan, “Kompyuter tarmoqlari” mavzusida. Nazariy material o’qiladi, u taqdimot bilan birga keladi, bolalar uni tinglaydilar va yozadilar. Ko’pincha bunday darslarda darsni tushuntirish jarayonida yuzaga keladigan har qanday masalalar bo’yicha o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida dialog boshlanganda dars-suhbat elementi mavjud bo’ladi.

Dars - amaliyot. Bunday darsda sinfdagi barcha o’quvchilar uchun kompyuterda bajariladigan umumiy topshiriq beriladi. Seminarga tayyorgarlik va amalga oshirish bir yoki ikkita darsda amalga oshiriladi. Bunday ishlarning maqsadi o’quvchilarning amaliy ko’nikmalarini, malakalarini, aniq muammolarni hal qilishda bilimlarni qo’llash qobiliyatini tekshirishdir. O’quvchilar materialni o’rganish jarayonida amaliy ish uchun topshiriqlar oladilar.

Dars - o’yin. Bunday darslar 5-6 sinflarda o’tkaziladi. Misol tariqasida algoritmlash bo’yicha darslarni keltirish mumkin. O’quvchilar ijrochi bilan o’ynoqi tarzda ishlaydi, unga bajarishi va maqsadga erishishi kerak bo’lgan buyruqlarni beradi.

Ikkilik dars fanlararo aloqalarni amalga oshirish va mavzularni birlashtirish shakllaridan biridir. Bu noan’anaviy dars. Mavzu bo’yicha darsni bir nechta fan o’qituvchilari olib boradilar. Bunga modellashtirish bilan bog’liq mavzular misol bo’la oladi. Kompyuter modelini yaratish kerak bo’ladi. Darsni fizika va informatika o`qituvchisi olib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Avliyoqulov N. Zamonaviy o’qitish texnologiyalari. — T.: 2001

2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O ‘quv uslubiy qo’llanma// Ta’limda innovatsion texnologiya seriyasi. — T.: 2010.

3. https://infourok.ru/metody-i-formy-obucheniya-na-urokah-informatiki-kak-sredstvo-formirovaniya-lichnosti-sposobnoj-zhit-v-usloviyah-informacionnogo--4276146.html

TABIIY FANLARNI O’QITISHDA INTERFAOL METODLAR

Tinishova Uralay Sherali qizi
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
9 – maktab kimyo fani o’qituvchisi
Agamuratov Atamurat Charyarovich
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
9 – maktab fizika fani o’qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada tabiiy fanlarni o’qitishda interfaol metodlar haqida yoritilgan.
Kalit so’zlar: interfaol metodlar, uchta to’g’ri bitta noto’g’ri metodi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o’qitishning zamonaviy metodlari keng qo’llanilmoqda. O’qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o’qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasining ko’tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirilib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo’naltiruvchi matn, loyiha, rolli o’yinlar kabi metodlarni qo’llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda- ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo’lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo’llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Uchta to`g`ri va bitta noto`g`ri

Ta’rifi

Har bir ishtirokchi bir varaq qog`ozda o`rganilayotgan yoki o`rganilgan mavzu bo`yicha uchta to`g`ri fikr va bitta noto`g`ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juftliklarga to`planadilar, varaqlar bilan almashadilar va qaysi fikr noto`g`ri bo`lgan ekanligini aniqlaydilar.

Foydalanish doiralari

Uy ishini tekshirish vaqtida, tabiiy va aniq fanlarda mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

Afzalliklari

Kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko`nikmasini ishlab chiqadi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o`rgatadi, o`qituvchiga o`quvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

Qiyinchiliklari

Materialni o`zlashtirib ololmagan bolalar topshiriqni uddalay olmasliklari xavfi bor. O`qituvchiga fikrlar aniqligi va to`g`riligini kuzatish, mashqni o`tkazish uchun vaqtni mo`ljallab olish qiyin, chunki o`quvchilarda ko`pincha fikrlarni aniq ifodalash ko`nikmasi mavjud bo`lmaydi.

Yelpig’ich» texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko’ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o’rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo’yicha biryo’la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o’z g’oyalari, fikrlarini yozma va og’zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«Yelpig’ich» texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qantashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

«Yelpig’ich» texnologiyasi mavzuni o’rganishning turli bosqichlarida qo’llanilishi mumkin:

-boshida: o’z bilimlarini erkin faollashtirish;
-mavzuni o’rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;
-yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.V. Skorcheletti. Teoreticheskaya elektroximiY. XimiY. 1969 g 608 s.
2. Grilixe S.Y. Obezjirovaniye, travleniye,I polirovaniye metallov.L: Mashinostroyeniye, 1976 g. 208s.
3. Kadaner L.I. Spravochnik po galvanostechii. Kiyev. Texnika. 1976 g.

QIROL ARTUR HAQIDAGI AFSONADA KAMELOT QASRI TASVIRI

Tojiyeva Matluba Mahmud qizi,
Navoiy viloyati, Karmana tumani
17-maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi
Telefon: 998 913333001

Annotatsiya: Maqolada ingliz afsonalaridan eng mashhuri bo‘lgan “Qirol Artur haqidagi afsona” va unda tilga olinadigan Kamelot qasrining tasviri haqida bayon etilgan.

Kalitso‘zlar: Angliya mifologiyasi, utopiya, ritsarlar, Artur irfanlari, Artognov yozuvi, davra suhbati.

Kamelot qadimgi Angliya mifologiyasi va ingliz adabiy an’analaridagi muhim shaxs bo‘lgan afsonaviy qirol Arturning qal’asi edi. Kamelot haqida biz bilgan narsalarning aksariyati hayoliydir, garchi ba’zi “faktlar” turli manbalarda takrorlangan. Garchi Artur afsonalari birgalikda Britaniya masalasi sifatida tanilgan bo‘lsa-da, Artur ismli imperator birinchi Uels matnlarida paydo bo‘ladi.

Qirol Artur o‘z xalqini birlashtirgan, bosqinchilarni o‘z yurtidan quvib chiqargan va tinchlik imperiyasini yaratgan qorong’u davr hukmdori edi. Uning Kamelot deb nomlangan utopiyasi hayollarda abadiy saqlanib qolgan.

Kamelot tepalikdagi porloq shahar edi, u yerda tenglik va adolat hamma narsadan ustun turardi. U yerda qattiq zirhli va muloyim yurakli doimo tayyor ritsarlar ritsarlik qoidalarini saqlashga va’da berishgan. Davra suhbati ritsarlari sifatida tanilganular davlat masalalarida teng so‘zlarga ega bo‘lib, o‘z suverenlari nomidan sadoqat va xayriya va’da qilganlar. Bu beshinchi asrda sir, sehr va go‘zallik olami edi. Sehrgar Merlin zallarni ta’qib qilib, Arturga sehrlik uchlarni berdi. Bog’lar va bog’lar orasida qo‘shiqchilar va shoirlar quvnoq va musiqa ijro etishardi. Lordlar va xonimlar Muqaddas Grailga sajda qilishgan, Kamelot orzusini saqlab qolishgan.

Ayrim manbalarda hikoya shunday davom etadi. Kamelot va uning qiroli haqida yuzlab ertaklar yozilgan – bularning barchasi Artur irfanlari deb nomlanuvchi ulkan adabiyot siklining bir qismidir. Artur va Kamelot haqidagi kitoblar va filmlar, ertaklar ishlanib, namoyish etildi. Robin Gudning ertaklari yoki Shangri-La tog’ utopiyasi singari, afsonalar tarixiy faktlarning tayanch toshlaridan yig’ilgan fantastikadir. Ideal qirollik Kamelot haqiqatan ham mavjudmi? Tarixchilar, arxeologlar, xarita yaratuvchilar va til bo‘yicha mutaxassislar uzoq vaqtdan buyon ushbu qimmatbaho haqiqatni izlashadi. Ularning javobi, shuncha yillardan keyin ham ha, ham ehtimol.

Kamelot - adabiy joy

Uaytning “Bir martavakelajakqirol” kitobi (1958) va “Kamelot” filmi (1962)tasavvurmahsulimi? Ammo hikoyalar qayerdan paydo bo‘ladi?

Qirol Artur va uning saroyining abadiy tasvirlari 1860-yillarda Alfred Lord Tennison tomonidan “Qirolning dillari” she’rida yaratilgan. Ammo Tennison Kamelotni ixtiro qilmagan. U o‘z she’rini XV asrda ser Tomas Malori tomonidan yozilgan “Arturning o‘limi” (Le Morted’Artur) asari asosida yozgan va Malori o‘z hikoyasini Kretyen de Troyesning 12-asrdagi Lanselot asaridan oldin yozgan, unda Kamelot haqida birinchi eslatma mavjud: “Qirol Artur ... Kamelotda o‘sha kunga mos keladigan barcha ulug’vorlik bilan eng ajoyib sudni o‘tkazdi.” Shunday qilib, adabiy joy tug’ildi. Haqiqiy joymi?

Ammo hech qachon haqiqiy, tom ma’noda, tarixiy Kamelot bormi?

Agar shunday bo‘lsa, o‘sha oltinshohlikqayerdaedi?

Ba’zi tarixchilarning aytishicha, Kamelot Shotlandiyada Kamelon deb nomlangan joy bo‘lgan ekan. Ammo Artur izidan yurgan arxeologlarning ko‘pchiligi Angliyada izlanishgan. Kornuolldagi qal’a xarobalarida Artognov yozuvi tushirilgan tosh topilgan. Arturga yaqin – lekin yetarlicha yaqinmi? Vinchesterso boride katta davra stoli topilgan. Ammo u Artur yashagan vaqtdan yuzlab yillar o‘tib qilingan. Glaston beriabbatligida Arturning kattaligidagi erkakning suyaklari topilgan, ammo ularning suyaklari uniki ekanligini hech kim isbotlayolmagan. Agar Kamelot haqiqiy joy bo‘lsa, uning izlari qolmaydimi?

Kamelot biz yaratishga intilayotgan mukammal jamiyatning metaforasiga aylandi. Yozuvchi Devid Day aytganidek, “Kamelotningutopikidealidainsoniyat har doim umid xabarini ko‘radi: tasavvur qilgan narsa ... bir marta qurilgan bo‘lsa, yana qurishimiz mumkin”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1860-yillarda Alfred Lord Tennison tomonidan “Qirolning dillari”
2. Uaytning “Bir marta va kelajak qirol” kitobi (1958)
3. XV asrda ser Tomas Malori tomonidan yozilgan “Arturning o‘limi” (Le Morted’Artur)
4. Devid Day

5.Sommer, Heinrich Oskar, The Vulgate Version of the Arthurian Romances: Lestoire de Merlin, Carnegie Institution, 1916, p. 19

6. Lacy, Norris J.; Ashe, Geoffrey (1991). “Camelot”. In Lacy, Norris J. (ed.). The New Arthurian Encyclopedia. Garland Reference Library of the Humanities. Vol. 931. New York & London: Garland Publishing, Inc. pp. 66–67. ISBN 0-8240-4377-4.

7, “Camelot”. From the Camelot Project. Retrieved October 9, 2008.

8.”Arthurian Name Dictionary”. www.celtic-twilight.com. Archived from the original on 2015-01-02.

.

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARNING TA‘LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Tojiyeva Saida Abdurasulovna,
Navoiy shahar 10-umumta’lim maktab
Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi
Rasilova Laylo Nasrulloyevna
Navoiy shahar 10-umumta’lim maktab
Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqola boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarga misollar o‘rgatishda didaktik o‘yinlarga bag‘ishlangan. Didaktik o‘yinlar ta‘limning ko‘rgazmaliligini, o‘qituvchining nutqini va bolalar harakatini o‘z ichiga olishi tajribalar asosida yoritib berilgan.*

Tayanch so‘zlar:*. Didaktik, ta‘limiy, tarbiyaviy, o‘quv,bolalar, mashq.*

Bolalarga o‘yinni o‘rgatishdan muayyan ta‘limiy maqsad nazarda tutiladi. O‘yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O‘yin o‘tkazilish shakllari va usullari ta‘limning boshqa turlaridan farq qiladi. Didaktik o‘yin usullariga takrorlash va o‘zgartirish, unga turli yangiliklar kiritish imkoni bor. Masalan, biz «Jimjitlik» o‘yinining 5-7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko‘proq takrorlab o‘tkazdik, «Nima o‘zgardi?» turidagi o‘yin 5 xil turli ko‘rsatmali material bilan o‘tkazildi. Natijada o‘yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo‘lishiga hamda o‘yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi.

Didaktik o‘yinlar o‘zining shakli jihatidan, asosan, bog‘chada o‘ynaladigan ijodiy o‘yinlardan ham, o‘qituvchi o‘zi hikoya qilib berish yo‘li bilan tushuntiradigan va o‘quvchilarni birma-bir so‘rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o‘yinlardan ham har tomonlama farq qiladi. Didaktik o‘yinlar o‘qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g‘olib chiqish maqsadida jon-dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o‘yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlar ta‘limning ko‘rgazmaliligini, o‘qituvchining nutqini va bolalar harakatini o‘z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko‘rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug‘iladi. Bu esa o‘qituvchining aytganlarini bolalarning o‘ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya‘ni didaktik o‘yin qoidalarini o‘zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik o‘yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o‘yin vaqtida zo‘r qiziqish bilan harakat qiladilar.

Didaktik o‘yinlar bolaning his-tuyg‘usiga ta‘sir etib, unda o‘qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o‘yinda zo‘r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O‘yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o‘quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o‘yinda ko‘pchilik bolalar yoki butun bir sinf o‘quvchilari ishtirok etadi. Masalan, «Doiraviy misollar» o‘yinida hamma bolalar masala yechadi, «Zanjircha»da 10 nafar, «Do‘koncha»da 8–12 nafar bola, «Narvoncha»da esa hamma o‘quvchilar masala yechadilar. Bundan tashqari, o‘yin jarayonida hatto bolalardan ba’zi birlari ishtirok etmasa ham, ular o‘yinda imo-ishoralar bilan qatnashadilar. Masalan, ko‘zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar, «Eng yaxshi hisobchi», «Kim aniqroq va tezroq» kabi o‘yinlarda o‘z o‘rtoqlarining misolni qanchalik to‘g‘ri-noto‘g‘ri yechayotganlarini kuzatib boradilar. Bu esa o‘qituvchiga o‘quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo‘lish imkonini beradi. Didaktik o‘yinlar o‘tkazilish jarayonida bolalarning o‘zlarini mustaqil boshqara olishga o‘rganishlarini ta‘kidlab o‘tish lozim.

Didaktik o‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar hamjihatlik va intizomlilik, o‘yin jarayonida bolalarda tevarak-atrof haqida to‘g‘ri tushuncha paydo bo‘ladi. «Do‘koncha», «Nimani taqillatdim?», «Teatr», «Bolalar bog‘chasida», «Mehmondorchilikda» kabi o‘yinlarda bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, narsalarning sifatini, og‘irlik o‘lchovi, narx-navolar va boshqalarni bilib

oladilar, ularda fazoviy tasavvurlar mustahkamlanadi. Didaktik o‘yinlar, o‘qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o‘qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do‘stga ham aylanadi. Bu esa, ayniqsa, dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o‘yinlar bolalarda o‘qituvchi va o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘tkaziladigan o‘yinlar bolalarning bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazish vositasidir. «Bo‘g‘inlar», «Sanayver», «Qiziqarli kvadratlar» kabi o‘yinlardan esa qo‘shimcha mashg‘ulotlarda unumli foydalaniladi. Bolalar jon-dillari bilan darsdan keyin qolishga rozi bo‘ladilar va o‘zlariga berilgan topshiriqni tezda bajaradilar.

O‘quvchi didaktik o‘yinlar sifatida har qadamda didaktik mashqlardan foydalanadi. Ular orasidagi farq shundaki, didaktik o‘yinda g‘oliblar, albatta, bo‘lishi kerak, didaktik mashqlarni bajarishda esa bu talab shart emas.

Avval, birinchi qatordagi partadan ikki o‘quvchi chiqib, misollarni tez yechadilar va natijalariga qarab chap yoki o‘ng qatorga o‘tiradi. Keyin bu o‘yin takrorlanadi va boshqa qatordagi partada o‘tirgan o‘quvchilar bajaradi. Bu ishni didaktik mashq sifatida bajarish mumkin. Bu vaqtda faqat chap tomonda yoki o‘ng tomonda yozilgan misollar ishlanadi. O‘qituvchi bu misolni (30–15+13–8–40–2) o‘quvchilar ketma-ket bajarishga ulguradigan tarzda sekinlik bilan o‘qiydi, keyin natijasini aniqlaydi va doskaga yozib qo‘yadi.

Darsda o‘yinqaroqlik qilib o‘tiradigan va o‘qituvchini bitta dars davomida 10–15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o‘yin o‘tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning xulq-atvori tamoman o‘zgarib ketadi. Ular darhol o‘zlarini tutib oladilar, o‘qituvchining o‘yin qoidalarini ko‘rsatib berishini kutib o‘tirmaydilar ham, qoidalarni o‘zlari mustaqil bajaradilar. Didaktik o‘yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtni iloji boricha tejay bilish xislatlari tarbiyalanadi.

Didaktik o‘yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o‘yinning takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi.

Didaktik o‘yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. Masalan, «Doiraviy misollar» o‘yinida oltita misolning hammasini yechish kerak, aks holda, oxirgi sonning birinchisiga to‘g‘ri kelishkelmasligini bilib bo‘lmaydi. Ana shuning o‘zi bolalarni faollashtirib yuboradi va ular misolni yechmay qo‘ymaydilar.

Xulosa shuki, didaktik o‘yinlar, o‘qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o‘qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do‘stga ham aylanadi. Bu esa, ayniqsa, dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o‘yinlar bolalarda o‘qituvchi va o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov. I.A. ─ «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch». ─ T.: Ma’naviyat. 2008.
2. X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, U. Shermatova. 4-sinfda ona tili darslari. ─ T.: O‘qituvchi, 2003
3. R. Ikromova, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili (4-sinf uchun darslik). - T.: O‘qituvchi, 2014.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARGA HIKOYA O‘QITISH METODIKASI

To‘rayeva Nodira
Buxoro viloyati Qorako‘l tumani
10-son maktabning boshlang’ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang’ich sinflarda hikoya o’qitish metodikasi va hikoyalarning o’quvchilar ongiga ta’siri haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so’zlar: boshlang’ich sinf, hikoya, o’qish, asar, sujet, matn, hayot, tahlil.

Boshlang’ich sinflarning o’qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo’lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o’qib o’rganiladi. O’qish darsliklariga, asosan, hikoya, she’r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop asarlar ham o’qitiladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, ularning o’quvchilarga ta’siri ham har xil bo’ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o’ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she’riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she’r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoqlar predmet, voqea-hodisalar o’rtasidagi o’xshashlikni taqqoslash orqali o’zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. SHunga ko’ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o’qishda o’qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi. Biz quyida hikoya o’qitish metodikasi bilan tanishamiz.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo’lib, unda kishilar hayotida ma’lum bir voqea hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. “*Hikoya ko’pincha kishi hayotida bo’lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroqdir*”. Hikoya mazmunan boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o’quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko’rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog’lab olib boriladi.

Boshlang’ich sinflarda hikoyani o’qishga bag’ishlangan izohli o’qish darslarida o’qilgan hikoya mazmunini ochish, lug’at ustida ishlash, o’qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So’roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o’rtasidagi bog’lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o’qish darsida o’quvchilar tushunmaydigan so’z va iboralar ma’nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. Hikoyani o’qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o’quvchilar nutqini o’stirish markaziy o’rin egallaydi. Hikoya o’qib bo’lingach o’quvchilar o’ylashi, o’z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O’qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta’sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya sujeti voqeaning yo’nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g’oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalanildi.

Badiiy asarni tahlil qilishda sujetni to’liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o’ziga tortadi. Lekin hikoya janri ham hayotiyligi bilan o’ziga xos. Hikoyada voqea tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog’liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O’quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf “o’qish kitobi”dagi “Ilmli ming yashar” (Nurmat Maqsudiy), “Xazonchinak” (O’.Hoshimov), “Qo’shterak” (A.Irisov) va boshqa qiziqarli hikoyalar ana shular jumlasidan.

Hikoyalar mavzu jihatidan xilma-xil bo’lib, qahramonlarning xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi. Hikoya biror bir davr bilan bog’liq bo’ladi. O’quvchilar qahramonlarning ma’naviyatlariga bo’lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong’u tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo’la boshlaydilar. Ularda go’zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka

nisbatan nafrat tuyg’usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o’qitish metodikasi.
2. U.Masharipova. O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma.

O‘QUVCHILARGA SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA GRAMMATIK – ORFOGRAFIK BILIMLARNI AMALIY O‘ZLASHTIRISH

Toshboyeva Munosib Baxromjon qizi
O’sarova Gulmira Mirzavaliyevna
Namangan tumani 30- sonli maktabning
Boshlang‘ich sinf o’qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada savod o’rgatish davrida grammatik-orfografik bilimlarni amaliy o’zlashtirish haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so’zlar: propedektiv mashqlar, grammatik tushuncha, orfografik qoida.

Savod o’rgatish davridayoq bolalar grammatika va imlodan ayrim materiallarni amaliy o’zlashtira boradilar, ya’ni ularga mavzu tushuntirilmaydi, nazariy ma’lumot berilmaydi. Bolalar og’zaki va yozma nutqni o’zlashtirish va yozma mashqlarni bajarish bilan o’quv yilining ikkinchi yarmida yoki keyingi sinflarda o’rganiladigan mavzularni o’zlashtirishga tayyorlanadilar.

Savod o’rgatishning birinchi oylaridayoq bolalar Omon, Tolib, Lola, Naima kabi juda ko’p ismlarni o’qidilar va kishilarning ismlari bosh harf bilan yozilishini amaliy o’zlashtira boradilar. Bu bilan ular keyinroq kishilarning ismi bosh harflar bilan yozilishiga doir imlo qoidasini o’zlashtirishga tayyorlanadilar.

Til-dil, olti-oldi kabi so’zlarni mashq qilish jarangli va jarangsiz undoshlarni o’zlashtirishga, son-sana, gul-gulchi-guldon-gulzor, bog’-bog’bon kabi so’zlarni o’qishni mashq qilish esa bolalarni “O’zakdosh so’zlar” mavzusini o’zlashtirishga tayyorlaydi.

Propedevtik mashqlar tizimi boshlang’ich sinflar grammatika va imlo dasturining bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilishiga mos keladi. Amaliy ishlar natijasida bolalarda ma’lum nutq tajribasi, til qoidalarini, so’zni, uning tarkibi va yasalishini, boshqa so’zlar bilan bog’langanda o’zgarishini kuzatish tajribasi to’plana boradi. Mana shu tajribalar asosida o’quvchilar nazariy umumlashmalarni o’zlashtiradilar, ular asosida esa grammatik tushuncha va orfografik qoidalari shakllanadi. Gap ustida ishlash, fikr almashish, aloqa-aralashuv gap vositasida amalga oshiriladi, shuning uchun ham gapni o’qishga, gap tuzishga, gap mazmunini aniqlashga, gapni to’g’ri yozishga oid amaliy bilimlar savod o’rgatish davridan boshlab shakllantiriladi.

O’quvchilarda nutq, uning og’zaki va yozma shaklida bo’lishini nutqning gaplardan hosil bo’lishi va gap haqida amaliy tushuncha darslikdagi mazmunli rasmlar asosida hosil qilinadi. Buning uchun o’qituvchi rasm yuzasidan 3-4 so’zli savollar tuzib keladi. O’quvchilar javobidan nima hosil bo’lgani (hikoya, og’zaki nutq) aniqlanadi. So’ng o’qituvchi xattaxtada hikoyaning nusxasini chizilganini aytadi. O’quvchilar nusxalarni kuzatadilar. O’qituvchi birinchi nusxa 1-berilgan savolning javobi ekanini aytadi. So’ngra o’quvchilarga nechta savol berilgan va nechta javob olinganini aniqlash topshirig’i beriladi. Ularga “Chiziqning boshi nima uchun burchakli? Oxiriga nima qo’yilgan?” kabi savollar bilan murojaat qilinadi. Ularga “3 ta savol – 3 ta gap berilgan edi, shuning uchun 3 ta javob – 3 ta gapning nusxasi chizilgan” deyishadi. O’quvchilarning javobini hisobga olgan holda gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan ko’rsatilishi, oxiriga gapning tugaganligini bildiruvchi tinish belgisi-nuqta qo’yilgani tushuntiriladi. O’quvchilarning javobini tartiblashtirib va to’ldirib, quyidagicha xulosa chiqariladi. Demak, nutqimiz gaplardan tuzilgan ekan. Nutqda 2, 3, 4 ta va undan ham ko’p gap bo’ladi. Gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan belgilanadi, gapning tugagan joyiga nuqta qo’yiladi.

Navbatdagi darslarda gapning boshqa xususiyatlari o’tilayotgan mavzu va rasmlarga bog’liq holda o’rgatib boriladi.

Umuman, xat-savod o’rgatish jarayonida o’qish va yozuv darslarida gap, gapning so’zlardan tuzilishi gapda so’zlarning alohida alohida yozilishi gapning oxiriga mazmuniga qarab nuqta, so’roq, undov belgisi qo’yilishi, gapning birinchi so’zi bosh harf bilan yozilishi haqida amaliy tushuncha beriladi.

Gap yuzasidan quyidagicha mashq turlaridan foydalanish mumkin:

-o’qituvchi va o’quvchilardan biri aytgan gapni o’quvchilarning xattaxtada chizma shaklida tasvirlashi va tushuntirishi;

-o’qituvchi tavsiya qilgan gap chizmasini o’quvchilarning izohlashga va unga mos gap tuzishi. Bunda o’qituvchi tuzadigan gap alifbe va yozuv daftarlaridagi rasmlar asosida bo’ladi;

-berilgan mazmunli rasm asosida tuzilgan hikoyadan o’rganilayotgan tovush-harf qatnashgan so’z bor gap ajratib olinib, uning chizmasi xattaxtada chizdiriladi. Shundan so’ng o’sha so’z bo’g’in -tovush jihatdan tahlil qilinadi;

-rasm asosida tuzilgan hikoyadan istalgan gapning chizmasini xattaxtada ifodalash. Bunda o’quvchilarning gapni bir butun holda xotirasida saqlagani, gapga xos xususiyatlarni ongli o’zlashtirgani aniqlanadi. Bu jarayonda bir necha o’quvchiga bir necha gap chizmasi chizdirilishi mumkin;

-hikoyada berilgan chizmaga mos gapni ajratib olish va izohlab berish;

-hikoyadagi har bir gapning nusxasini chizdirish. Hikoya dastlab 2-3, so’ng 4-5 gapli bo’lishi zarur. Tuzilgan hikoyani o’qituvchi qayta aytib turadi, o’quvchilar bittadan uni xattaxtada ifodalaydi. Hikoyaning nusxasi shu tariqa xattaxtada o’z ifodasini topadi.

Yuqoridagi mashqlar savod o’rgatish darslari davomida izchil uyushtirib boriladi. Bu xil mashqlar o’quvchilar tomonidan yo’l qo’yiladigan tipik xatolarni xatolarning (gap chegarasining farqlamaslik) oldini olish imkonini yaratadi.

O’quvchilar gapning ohangiga, to’ztamlariga e’tibor berib, uni chegaralab olishga o’rganadilar.

So’z ustida ishlash. Bu yo’nalishda quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

1. So’zning to’gri, adabiy-arfoepik talaffuzi va o’qilishini o’rgatish.
2. So’z ma’nolarini tushuntirish.
3. O’quvchilar nutqiga yangi so’zlarni kiritib borish ya’ni lug’atini boyitish.
4. So’zlarni adabiy jihatdan to’g’ri qo’llashga o’rgatish.
5. Berilgan so’zni imlo jihatdan to’gri yozishga o’rgatish.

Bu jarayonda mazmunli rasm asosida yoki predmetlarning o’zi yordamida har bir aytilayotgan nom so’z ekanligi tushuntiriladi, “so’z” tushunchasi shakllantiriladi. Bu o’rinda gapning so’zlardan tuzilishi aytib o’tiladi. “Bo’g’in” mavzusi o’tilganda so’zlarning bo’g’inlarga bo’linishini bilib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarova R. va boshqalar. Savod o’rgatish
2. Gaffarova T. va boshqalar. 1-sinfda o’qish darslari.
3. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o’qitish metodikasi.

OILALARDAGI IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Jumamurotova Iroda Buvaxonovna
Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi
7-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi
Karimova Sevara Jumanazarovna
Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi
22-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilalardagi ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirish bo‘yicha ota-ona va pedagogik jamoa uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: oila ,muhit ,ota-ona, pedagogik jamoa, maktab, sog‘lom turmush tarzi, voyaga, yetmaganlar, oila va mahalla hamkorligi.

“Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va taasvvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar-yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.Maktab oiladan keyingi eng muhim ijtimoiy muhit hisoblanib,pedagogik jamoaning asosiy vazifalaridan biri biri–o‘quvchilar o‘rtasidagi salbiy holatlar va noijtimoiy xulqning oldini olishdan iborat.Maktabda ota-onalarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ularni qiziqtirgan masalalar yuzasidan maslahatlar berish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, oiladagi tarbiyasi qiyin o‘smirlarni tuzatishda nizoli vaziyatlarga oid va boshqa ko‘pgina masalalar bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda ota-ona va bolalar o‘rtasidagi ziddiyat va muammolarni oldini olish, bir-birin tushinish, oilada iliqlik yaratish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Yosh davrining har bir bosqichida ham o‘tish davri kechadi. Ayniqsa, ko‘pchilik o‘smirlarda bu davrdagi o‘tish jarayoni juda sezilarli darajada ko‘zga tashlanadi. Oddiy odamlarning qarashida o‘tish davri faqat o‘smirlik yoshidagina kuzatiladi, degan fikr ilgari surib kelingan. Aslida esa, har bir davrning o‘tish jarayoni bo‘ladi. Lekin bu jarayon har kimda va har o‘tish davri turlicha ko‘rinishda bo‘ladi. Shuningdek, o‘smirlik davrida bu ko‘rinish yuqori darajada bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalarga turlicha bosim o‘tkazmasdan, ularning fikrlari, qarashlari inobatga olingan holda yondoshishni talab etadi.Shuning uchun o‘smirlarda kuzatiladigan og‘ir o‘tish davri muammolarining oldini olish va uni bartaraf etish maqsadida ota-onalar yig‘ilishlarida ma’ruzalar, trening mashg‘ulotlari va korreksion mashg‘ulotlar bilan ishtirok etish zarur. Treninglar orqali ota-onalarning bola tarbiyasida yo‘l qo‘yayotgan xato va kamchiliklarini ko‘rsatishlari lozim. Shuningdek, ijtimoiy psixologik himoyaga muhtoj o‘quvchilarning ota-onalariga psixologik maslahat ishlarini tashkillatirishlari kerak.Ushbu nuqtai-nazardan maktab pedagogik jamoasining hamkorlikdagi ishlarni tashkillashtirishlari yuzasidan quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. O‘quvchilarning ijtimoiy malakasi, ijobiy qiziqishlarini rivojlantirish va bo‘sh vaqtlarini tashkillashtirishga yordamlashuvchi tadbirlarni o‘tkazish.
2. Huquqbuzarlik, dars qoldirish, o‘zlashtirmaslik muammolari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazish (tashxis qo‘yish va boshqalar.).
3. Mutaxassislarni jalb qilgan holda ijtimoiy, tibbiy, psixologik-pedagogik yordamga muhtoj bolalar va oilalarni aniqlash
4. Ota-onalar va o‘quvchilar o‘rtasida huquqiy tartib masalalari bo‘yicha tushuntirish ishlarini kuchaytirish.
5. Maktabda oila va mahalla hamkorligida o‘smirlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy profilaktika ishlarini takomillashtirish.
6. Farzandining o‘qishi va tarbiyasida muammolar bo‘lgan oilalarga yordam berish.
7. Bolaning davomati va o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan sabablarni bartaraf etishga ko‘maklashish.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, sinf rahbarlari ijtimoiy psixologik muammolari mavjud bo‘lgan bolalarning oilaviy ahvolini o‘rganishi, maktab bilan ota-ona o‘rtasida uzviy aloqani o‘rnatishi, o‘quv fanlari o‘qituvchilari bilan aloqani mustahkamlashi, o‘quvchining

darsga qatnashini kuzatishi, darsdan tashqari faoliyatini nazorat qilishi, turli so‘rovnomalar, savol-javoblar o‘tkazishlari orqali tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishlash dasturi va rejalarini belgilab olishlari lozim.Psixolog maktab shifokori bilan hamkorligida bolaning tibbiy varaqasi bilan ham tanishishi, agar bola sog‘lom bo‘lsa, maktab va oila tarbiyasiga bo‘ysunmasa, psixolog bola bilan individual ishlash rejasini tuzishi, salbiy burilish va og‘ishlarni aniqlashi va uni bartaraf etish uchun testlar, so‘rovnomalar, metodikalarni o‘tkazib, shu asosda tegishli maslahat, tavsiyalar beradi.

1. O‘quvchilarning o‘zlashtirmaslik va darsga kelmasligining oldini olish bo‘yicha ishlar Agar o‘quvchi biron bir sababga ko‘ra o‘quv dasturining ma’lum qismini o‘zlashtira olmasa, unda keyingi materialni ham o‘zlashtira olmayman degan ruhiy noqulaylik paydo bo‘ladi, darsda o‘zini keraksizday his qiladi, zerikadi va “ko‘chadan topgan do‘stlari”, o‘zi kabi bolalardan yupanch istaydi. Pirovardida, bu o‘quvchi jinoiy muhitning o‘ljasi bo‘lib qolishi mumkin.Agar o‘quvchi bir kun dars qoldirsa va bunga o‘z vaqtida chora ko‘rilmasa, ushbu o‘quvchida jazolanmaslik tuyg‘usi paydo bo‘ladi. U bo‘sh vaqtini bozorda, kompyuter klublarida o‘tkaza boshlaydi, oson pul topish ilinjida daydilik va tilanchilikka ham qo‘shilishi mumkin. Bunday o‘smirni giyohvandlik va jinoiy faoliyatga jalb etish juda ham oson bo‘ladi.

2**. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkillashtirish.**O‘quvchilarni keng ko‘lamda sport bilan shug‘ullanish, badiiy ijodiyot, to‘garaklarga jalb etish-bolaning ijodiy tashabbuskorligini rivojlantirish, bo‘sh vaqtini faol va foydali o‘tkazish, qonunga bo‘ysunishni shakllantirishga yordam beruvchi tarbiyaviy faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

3. Sog‘lom turmush tarzi targ‘iboti. Hozirgi vaqtda o‘quvchilarning jismoniy holati bir qancha sabablarga ko‘ra tashvishlidir. Ekologiyanig yomonligi, noratsional ovqatlanish, kam harakatlilik. o‘z sog‘ligiga bo‘lgan e’tiborsizlik – bolalarning jismoniy sog‘ligiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

4. Huquqiy tarbiya. Voyaga yetmaganlar va ular ota-onalarining huquqiy masalalarga alohida e’tibor qaratishi bolalarda o‘z xatti-xarakati uchun mas’ullikni kuchaytiradi.

5. O‘quvchilarning ekstremistik tashkilotlarga kirib ketishining oldini olish.O‘quvchilarni ekstremistik tashkilot va guruhlarga kirib qolishining oldini olish bo‘yicha ishlar olib borish zarur. Sport musobaqalari o‘tkazilayotgan vaqtda ommaviy tartibsizliklar va bezorilik harakatlarida ishtirok etishga, millatlararo va dinlararo nizolarni targ‘ib etuvchi adabiyotlarni tarqatishga ko‘pincha yuqori sinf o‘quvchilari jalb etilmoqda.

6. Ijtimoiy–xavfli sharoitdagi o‘quvchilar va oilalarni aniqlash bo‘yicha ishlar.Ijtimoiy-xavfli sharoitdagi voyaga yetmagan – bu 18 yoshgacha bo‘lgan, hayoti va sog‘ligiga xavf tug‘diruvchi, uning tarbiyasi va yashash talablariga javob bermaydigan sharoitda yashovchi shaxs bo‘lib, u yoki qonunni buzadi, yoki jamiyatga zid bo‘lgan harakatlarni amalga oshiradi.

Ijtimoiy-xavfli sharoitdagi oila – bu ijtimoiy-xavfli sharoitdagi bolalarga ega bo‘lgan, shuningdek, ota-onalar yoki voyaga yetmaganlarning qonuniy vakillari ta’lim, tarbiya berish, ularni boqish borasida o‘z majburiyatlarini bajarmayotgan, ularning xulqiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan yoki bolalarga shafqatsiz munosabatda bo‘ladigan oilalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davletshin M.G., Shoumarov G‘.B. Zamonaviy o‘zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari // O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalari qisqacha bayoni. – Toshkent, 1993. – B. 3 – 7.

2. Dushanov R.X. Qirg‘iz oilalarining ijtimoiy, etnopsixologik xususiyatlari: Psixol. fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2006.

3. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. – Toshkent, 2000.

ADABIY TAHLILNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Umarova Nigora Zuxridinovna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
191-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi
o’zbek tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada g‘arb adabiy metodikasida qo‘llanuvchi “Tahlilgacha”, “Tahlilda” va “Tahlildan so‘ng” deb nomlanuvchi metodik yondashuvlar xuddi shunday milliy metodika usullari bilan chog‘ishtiriladi. Ularning mushtarak jihatlari Behbudiyning “Padarkush” dramasi tahlili orqali ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: adabiyot o‘qitish metodikasi, g‘arb va milliy metodikasi xususiyatlari, Behbudiy, “Padarkush” dramasi, tahliliy yondashuv.

Annotation. In this article, the so-called “Before Analysis”, “In Analysis” and “After Analysis” methodological approaches used in Western literary methodology are compared with similar national methodological methods. Their commonalities are revealed through the analysis of Behbudi’s drama “Padarkush”.

Keyswords: The methods of teaching literature, features of western and national methodology, Behbudiy, “Padarkush” drama, analytical approach

“Metodika” – bu vaqtni tejash malakasi, o‘quvchi kuchlarini oqilona sarflash, o‘quv materialidagi asosiy va bosh narsani topish malakasi, jamoa mehnatini tashkil qilish san’ati, bu o‘quvchilardagi xilma-xil individualliklarga tayanadigan ta’sir tizimidir” (M.A.Ribnikova) [1. 5-bet] Ma’lumki, adabiyot insonni, uning ruhiyatini, his-tuyg‘ularini tarbiyalashda muhim vosita sanaladi.O‘qilayotgan asar kishiga kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatib, hissiy va aqliy zavq bergandagina u o‘zining boshqa vazifalarini ham bajara oladi. (Qozoqboy Yo‘ldoshev) [2.37-bet] Go‘yo oq qog‘ozdek bo‘lgan bolajonlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, ularning olamiga ehtiyotkorlik bilan ijobiy ma’noda ta’sir o‘tkazish doim ham oson kechmaydi. Bunda o‘qituvchi mahorati, dars o‘tish ilmi, fan bo‘yicha bilimi asosiy o‘rinda turadi. Darsni to‘g‘ri tashkil qilish, berilgan mavzuni o‘zlashtirishda samarali vositalardan foydalanish talab qilinadi. G‘arb metodikasida foydalanib kelinayotgan o‘qishgacha jarayon (pre-readingactivities), o‘qish davomidagi jarayon (while reading activities) hamda badiiy asarni o‘qib bo‘lgandan keyingi jarayon (post-reading activities) bilan tanishib chiqamiz. Pre-reading – asarni o‘qishgacha bo‘lgan jarayon, ya’ni bunda o‘quvchi yoki talaba asar muallifi haqida yoki asarning qisqacha mavzusi haqida o‘qigan, eshitgan bo‘ladi. G‘arbda bunga juda katta ahamiyat beriladi. Agaro‘quvchining ilmiy salohiyati, qiziqishi yuqori bo‘lsa ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar bilan tanishgan bo‘lishi ham mumkin. To‘g‘risi, bu hali o‘zimizda unchalik qo‘llanmagan usul. Maktabda ham, kollej yoki litseyda ham foydalanilmagan. Bizning metodikamizda o‘qishdan oldin (pre-readingga o‘xshash) jarayonidagi savol-topshiriqlar bor. Biz oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirib hamda metodika darsida buni o‘rgandik. Ta’lim jarayonida boshqa mamlakatlar foydalanayotgan usullardan foydalanish o‘zbek o‘quvchilariga nechog‘li foyda berishini sinab ko‘ramiz. Ishonamanki, bu o‘z samarasini beradi. Kelgusi faoliyatimizda foydalansak bemalol bo‘ladi. Pre-readingni o‘quvchi, talabalarga foydasi shundaki, bu o‘quvchida o‘ziga bo‘lgan ishonchni his qildiradi, chunki ular oldindan qanchadir bilimga ega bo‘ladi. Asarni o‘qishgacha bo‘lgan jarayonda ma’lumotlar bilan tanishish samarali natija beradi. Bunda ko‘proq muallif haqida, ijodkor yashagan davr, muhit va o‘sha ijodkor asosan qaysi usulda ijod qiladi, bu asar bilan nima demoqchi shu taraflariga e’tibor berib ishlansa, savol va topshiriqlar berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shular orqali asarning tushunilishiga zamin yaratiladi. Keling, Behbudiyning “Padarkush” dramasiga pre-reading, while-reading va post-reading bo‘yicha savol va topshiriq ishlab chiqib, o‘quvchiga qanchalik tushunarli va asarning o‘qitilishi qanchalik samarali bo‘lishini sinab ko‘ramiz.

1.Asarni o‘qishdan oldin (Pre-reading activities);

A) Asarning asosiy g‘oyasi va asosiy g‘oyaga yondosh g‘oyalarni topishga yo‘naltiradigan savol va topshiriqlar. O‘quvchilarni shu g‘oyani tushunishga tayyorlash uchun qanday savol va topshiriqlar ishlab chiqish mumkin?

1.Shu paytga qadar jadid adabiyoti, ma’rifatchilik harakati degan tushunchalar haqida eshitgansiz. Nima deb o‘ylaysiz nega XX asrga kelib bu yurtimizda faol tus oldi? Vaholanki

Yevropa mamlakatlarida bu ancha ilgari mavjud edi-ku.

2.“Padarkush” dramasi yaratilgunicha Behbudiyni yirik asarlari ko‘p bo‘lmagan. Ungacha u ko‘proq olim, ma’rifatparvar adib, faol jurnalist sifatida faoliyat olib borgan. Endi ayting-chi yurtga ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng yoyish, xalqqa ta’sir o‘tkazish uchun qaysi sohada faoliyat yuritish ko‘proq natija beradi?

3. Behbudiy “Padarkush”ni nega aynan drama shaklida yozgan deb o‘ylaysiz? Nima uchun buni hikoya yoki shunga o‘xshash janrlarda yozmadi?

B) Boshqa fanlardan (tarix, tasviriy san’at, psixologiya va hokazo) qanday ma’lumotlar asarni tushunish uchun zarur yoki asarni tushunishga yordam beradi deb o‘ylaysiz? Bu ma’lumotlarni o‘quvchiga qanday yetkazasiz?

Izoh: Albatta har bir badiiy asarni tahlil qilyotganimizda turli fanlarga, sohalarga integratsiya qilib o‘rgansak bo‘ladi. Bu bolani dunyoqarashini kengaytiradi, fikrlashga undaydi. “Padarkush”ni aynan tarix hamda psixologiyaga bog‘lashni tavsiya qilardim.

1.Siz tarixda padarkush bo‘lgan, ya’ni o‘z padari qotiliga aylangan kimsalar haqida eshitganmisiz? Ular haqida o‘qiganingizda qalbingizda qanday kechinmalarni o‘tkazgansiz?

2. Jadidlar jamiyatni rivojlantirish omili sifatida birinchi galda ma’rifat ekanligini yaxshi angladilar va bularni yana qaysi jadid ma’rifatparvarlari misolida ko‘rishimiz mumkin?

3.Ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmaydi. Zamon va dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar bilan tanishish ham muhim. Millat uchun oyna kerak. Sizningcha, bu “oyna” nima bo‘lishi mumkin?

2. Asarni o‘qish davomida (While reading activities)

A) Asarning muhim tugunli nuqtalarini aniqlang. Shu nuqtalarini o‘quvchilar yaxshiroq tushunishlari uchun qanday savol va topshiriqlar berasiz?

1. Boyning bola tarbiyasiga munosabati qanday? Uning bolasiga bee’tibor bo‘lishiga nimalar sabab deb o‘ylaysiz?

2. Sizningcha, Domulla va Boy o‘rtasidagi bo‘lgan suhbatning kulminatsion joyi, nuqtasi qayerda?

3. Toshmurodning o‘z uyiga o‘g‘irlikka tushishiga kim sababchi?

4. Boyning beparvoligi qaysi o‘rinlarda, qanday xatti-harakatlari orqali ochib berilgan?

5. “Padarkush” dramasida Ziyoliva Domulloning birlashtiruvchi va farqli tomonlarini sanang.

6. Agar Boyning uyi bilimsizlik, jaholat maskani bo‘lsa, pivoxona qanday ramziy ma’noga ega?

7. “Padarkush” dramasida ilgari surilgan jiddiy muammolar, ya’ni ta’lim va tarbiyani asosiy kuch deb bilish, xalqni jaholat, qoloqlikdan qutqarish kabi munosabatlar sodda va ta’sirli ifodalangan. Siz bunga qanday fikr bildirasiz?

8. Behbudiy o‘z dramasini yaratishda tarixiy voqealardan foydalanishdan ko‘ra ko‘proq nimalarga urg‘u berdi?

9. Boy va Domullo o‘rtasidagi suhbat ular o‘rtasida qarama-qarshilikka sabab bo‘ladi va nima sababdan Boy farzandining ilmsizligi qanday oqibatlarga olib kelishi haqida Domullodan so‘rab ham ko‘rmaydi?

10. Turkistonidagi ilmsiz hayot, qorong‘u turmush va qoloq fikrlaydigan aholining qarashlari nima sababdan Ziyoli yoki Domulloga o‘xshash insonlar tarafidan jon kuydiribaytilsa ham ularga unchalik ta’sir etmay qoldi?

B) O‘qish davomidagi topshiriqlarda kognitiv qobiliyatlarning qaysi bosqichlarini va qanday qilib qamrab olasiz?

1.Birinchi pardada asosiy obraz bo‘lib, barcha personajlarni o‘z atrofida to‘play olgan obraz qaysi?

2. Ikkinchi pardadagi yetakchi, o‘ziga xos bo‘lgan obraz qaysi va siz uni sheriklariga g‘oya beruvchi sifatida baholay olasizmi?

3.Ilmsizlik, jaholat oilaga baxtsizlik olib kelishi qaysi o‘rindagi dialoglarda ta’sirli aks ettirilgan?

4. Dramadagi bir-biriga o‘xshash (xarakter, dunyoqarash va boshqa jihatdan) qahramonlarni bir guruhga ajrating. Ular qaysi xususiyatiga ko‘ra bitta tipga kiritilganini izohlang.

5. Behbudiy dramasidagi majoziylik nimalarda o‘z aksini topgan?

6. Dramada bir inson fojiasi orqali millat fojiasi qay tarzda ochib berilgan?

7. Olimi diniy hamda olimi zamoniy so‘zlarini izohlang. Sizningcha, qaysi biri ustunroq?

8. Boy va Ziyolio‘rtasidagi suhbatni Boy va Domullo o‘rtasidagi muloqot bilan solishtiring.

9. Behbudiy Xayrullaning maoshi bilan Lizaning kelishi uchun kerak bo‘lgan pul o‘rtasidagi

tafovutninega bu qadar katta qilib belgilagan?

10. “Padarkush” dramasidagi Boybuchchaning ruhiy holati haqida qanday fikrdasiz?

3. Asarni o‘qishdan keyin (Post-reading activities):

Izoh: Asar tahlil qilishning kulminatsion nuqtasi bu asarni o‘qib bo‘lgandagi o‘quvchining ruhiy holati, his-tuyg‘ulari va xulosalari bilan belgilanadi

Badiiy asarni tahlil qilish asarni boshdan oxirigacha syujetini hikoya qilib berish degani emas. Badiiy asarni tushunish insondan katta tafakkurni talab etadi. Buning uchun o‘quvchining bilim bazasini faollashtirish, uni amaliyotga tadbiq etish zarur. O‘qituvchidan talab etiladigan narsa shuki, badiiy asar yuzasidan tuziladigan savol va topshiriqlarga jiddiy yondoshish kerak.Bu bolani badiiy asarga qiziqtirish, berilgan adabiyotdagi parchadan tashqari asarning to‘liq shakli bilan tanishishga undashda ham muhim hioblanadi. “Bolaning mustaqil fikrlashi har doim e’tiborda bo‘lishi lozim” (Qunduz Husanboyeva) [3. 15-bet] Bundan tashqari bu jarayonlar o‘quvchilarning dunyoqarashiga ta’sir etadi va ularda matndagi voqealarni oldindan ko‘ra bilish qobiliyatini rivojlantiradi. Fikrimizcha, g‘arb adabiyot o‘qitish metodikasida ustuvor metodlardan bo‘lgan yuqoridagi uch usul u yoki bu shaklda bizda ham mavjud. Faqat nomlashda va yondashuvda ayrim o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanadi. Biz metodik mushtarak jihatlarni “Padarkush” dramasi tahlili orqali ochib berishga intildik. Ta’kidlash joizki, taniqli olimlarimiz – Ulug‘bek Dolimov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Boqijon To‘xliyev, Qunduz Husanboyeva, Safo Matjon, Marg‘uba Mirqosimova, Roza Niyozmetova, Zulxumor Mirzayeva kabi ko‘plab metodist-olimlarimiz biz tilga olgan muammolar bo‘yicha ko‘p mulohazalar bildirganlar. Bizning kuzatishlarimiz bularning barining jamuljamidan chiqarilgan kichik bir kamtarin xulosalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R.Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Баркамол-файз-медиа, 2018 – 352 б.

2. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1967. – 448 б.

3. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O`QITISHDA INTEGRATSION VA INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH

Umirova Zuhra Ismailovna
Navoiy viloyati Navoiy shahridagi
5-IDUM informatika va axborot
texnologiyalari fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola informatika fanida integratsiyalashgan darslardan foydalanish, uning afzalliklari, imkoniyatlari, integratsiyalashgan darslarning tarkibiy qismlari va informatikaning fanlararo aloqalari haqida yozilgan.

Kalit so`zlar: informatika va fanlarning integratsiyasi, integratsiyalashgan darslar, integratsiyalashgan darslarning tuzilishi, taqdimotlar, vazifalar.

Hozirgi kunda kompyuterlashtirish va axborotlashtirish davrida farzandlarimiz o’z hayotlarini yengillashtirish uchun har doim va hamma joyda kompyuterdan foydalanishlari kerak. Umumta’lim maktabining vazifasi o’z bilimlarini hayotiy va ziyatlarda qo’llay oladigan o`quvchini tayyorlashdir. Shu nuqtai nazardan, axborot texnologiyalari nafaqat o’rganish ob’yekti, balki o’rganish vositasi va ish muhitiga aylanib bormoqda. Bugungi kun o’quvchisi predmetlar bo’yicha olingan bilimlar bir-biri bilan chambarchas bog’liqligini va kundalik hayotda foydali bo’lishi mumkinligini anglay oladigan o`quvchilardir. Fanlarni bir-biri bilan bog`lab integratsiyalab, tashkil etish aniqlik va amaliy dastur bolalarga yoqadi, materialni chuqurroq o’zlashtirishga imkon beradi. Integratsiya 1980-yillarning boshlarida pedagogikaga kirib keldi. O’qituvchilar tomonidan ushbu atamani qabul qilish o’tgan o’n yilliklarda ta’limning integratsion jarayonlarini rivojlanishi bilan tayyorlandi va bu fanlarni bir-biriga chuqur kirib borishiga olib keldi. Ayniqsa, matematikaning, fizikaning va informatikaning bilimlarning boshqa sohalariga kirib borishi ilmiy-texnik taraqqiyot, kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog’liq edi. Integratsiya — ma’lum bir sohada umumlashtirilgan bilimlarning bitta o’quv materialida iloji boricha chuqur birlashmasidir. Integratsiya natijasi-har bir komponentning asosiy fazilatlarini saqlaydigan yangi haqiqatdir. Integratsiyalashgan darslar o`quvchiga u yashayotgan dunyo, hodisalar va narsalar o’rtasidagi munosabatlar, yordam berish, moddiy va badiiy madaniyatning xilma-xil dunyosi borligi haqida juda keng va yorqin tasavvur beradi. Asosiy urg’u ma’lum bilimlarni o’zlashtirishga emas, balki turli xil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.Birlashtirilgan – integratsiyalashgan darslar o’quvchilarning ijodiy faoliyatini majburiy rivojlantirishni ham o’z ichiga oladi. Bu bizga barcha o’quv predmetlarining mazmunidan foydalanish, atrofdagi hayotning hodisalariga murojaat qilgan holda ilm-fan, madaniyat, san’atning turli sohalaridan ma’lumotlarni jalb qilish imkonini beradi.

Integratsiyalashgan darslar o’quvchilarning salohiyatini rivojlantiradi, atrofdagi haqiqatni faol bilishga, sabab-ta’sir munosabatlarini tushunish va topishga undaydi. Mantiq, fikrlash, muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. Dars davomida turli xil ish turlaridan foydalanish o`quvchilarning e’tiborini yuqori darajada ushlab turadi, bu esa darslarning yetarli samaradorligi to’g’risida gapirishimizga imkon beradi.Bunday darslar muhim pedagogik imkoniyatlarni beradi, charchoqni yo’qotadi, turli xil ishlarga o’tish orqali o’quvchilarning haddan tashqari yuklanishini kamaytiradi, bilimga bo’lgan qiziqishni keskin oshiradi va o’quvchilarning tasavvur, diqqat, fikrlash, nutq va xotirasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday darslar, shuningdek, mavzular o’rtasidagi aloqani vizual tarzda namoyish etish, nazariy bilimlarni amalda qo’llashga o’rgatish, kompyuter bilan ishlashni o’rgatish, o’quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni o’z-o’zidan bilim olishga undashga imkon beradi.Har bir talaba faol ishlaydi, bolalarda qiziqish, bilimga bo’lgan qiziqish rivojlanadi. Integratsiyalashgan darsni yaratishda birinchi bo’lib bu mavzular bo’yicha o’quv dasturlarini kelishish: matematika va informatika, umumiy tushunchalarni muhokama qilish va shakllantirish, o’qish vaqtini kelishi bolish va o’qituvchilarning o’zaro maslahatlashuvlari bo’lib o’tadi.

Endi esa informatika fanini innovatsion usullardan foydalanib tashkil etishga e`tabor qaratamiz.

5-sinflar uchun “MyART” usuli.MyART-”Mening san’atim” yoki “Mening ijodim” usuli o’quvchilarning yashirin iqtidorini namoyon qilish va uni rivojlantirishga qaratilgan. Bu usulni Paint.net yoki Scratch dasturi mavzularida ishlatish mumkin.

Misol uchun Paint.net dasturi bo’limi yakunida “Mening oilam shajarasi” yoki “Men o’rgangan dasturlar shajarasi” mavzusida rasm ishlash topshirig’ini berish mumkin..



“Formulani top” o’yini, yani Word dasturida formulalar yozish mavzusida boshqa fanlar bilan integratsiya ya’ni bog’lanish hosil qilish uchun ishlatish mumkin.

Bosim formulasi — p=Tezlik formulasi —V=

Mexanik ish formulasi — A=F · sZichlik formulasi — ρ=

Bu usulda o’qituvchi formulalarni yaxshi bilishi lozim, chunki o’quvchilar xatolarini topa bilishlari lozim.

“Tematik izlanish” usuli. Bu usul ma’lum bir mavzular bo’yicha ma’lumotlar izlash usulidir. Bunga ko’ra o’quvchilarga qo’shimcha ravishda uyda mustaqil ma’lumotlar to’plab kelish vazifasi beriladi va keying darsda mavzu mustahkamlanadi. Misol uchun:”Elektron pochta” mavzusida:” Eng birinchi yaratilgan electron pochta” yoki “Axborotlarni himoyalash” mavzusida “Birinchi bo’lib yaratilgan virus” kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Informatika darslarini integratsion va innovatsion usullardan foydalanib tashkil etish - o`quvchilarni axborot olami sirlaridan voqif etishda biz informatika va axborot texnologiyalari fani o`qituvchilariga eng katta ko`makchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.”Yangi axborottexnologiyalaridavridata’lim” Toshkent - 2019

2.”Pedagogiktexnologiyalar”Toshkent2008.Kitob.uz.vainternettarmoqlaridagima`lumotlardan foydalanildi.

XALQ AMALIY BEZAK SAN’ATIDA NAQQOSHLIKNING O’RNI

Urazbaeva Baxor Davletbaevna
Qoraqalpog’iston Respublkasi Nukus shahar
27- sonli umumta’lim maktabining
texnologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Xalqimizning ko’p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. Ona diyorimizda vujudga kelib, gullab yashnagan amaliy san’at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar ekanmiz, xalqimiz amaliy bezak san’atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya’ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi bo’lamiz.

Kalit so’zlar: naqqoshlik, amaliy bezak, san’at, ijod, fan, simmetriya, ritm

Mamlakatimizda kompetenciyaviy yondashuvga asoslangan standartning joriy etilishi umumta’lim maktab o’qituvchilarining oldiga katta vazifalarni qo’ymoqda. Ushbu vazifalarni bajarish uchun o’quvchilarni ilmli, bilimli, ma’lumotlarni tez qabul qila oladigan etib ta’rbiyalashimiz za’rur. Shuning uchun o’qituvchilar dars jarayonini har xil usulda tashkil etishi kerak. Darslarda nazariy ma’lumotlar amaliyot bilan bog’liq holda etkazilishi samarali hisoblanadi. Amaliy bezak san’ati haqida tushunchalar berilsa, nazariy ma’lumot bilan birga, rang xususiyatlari haqida, ularni ijodiy ishda foydalanish haqida amaliy bajarib borish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy san’atning ifodaviy vositalari uning xususiyatlariga qarab turlicha bo‘ladi. Amaliy san’atda ritm, simmetriya, shakl va rangdan asosiy tasviriy vosita sifatida foydalaniladi. Masalan, naqqoshlikda asosiy vosita sifatida rang muhim rol o‘ynasa, yog‘och o‘ymakorligida yog‘och, miskarlikda sariq va qizil mis metall, kulolchilikda loy, kashtachilikda ipak iplar, zardo‘zlikda baxmal bilan zar iplardan asosiy tasviriy vosita sifatida foydalaniladi. Ularning barchasi uchun xos bo‘lgan asosiy vosita – bu kompozitsiya. Amaliy bezak san’ati juda qadim zamonlarda paydo bo‘lib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlandi. Amaliy san’at naqqoshlik, ganchkorlik va badiiy bezakning boshqa ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

Qadimdan ota-bobolarimiz naqqoshlik san’ati bilan shug‘ullanib, shuhrat qozonishgan. O‘zbek ustalari faqat uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan cheklanib qolmay, balki uy-joy va jamoat binolarining devor va shiftlarini ham mohirona bezab kelganlar. San’atning bu turida har bir xalq o‘zicha ijod qiladi. Masalan, rus amaliy san’atida tekislangan yog‘ochga usta o‘simlik shaklidagi naqsh rasmini tushiradi, keyin unga maxsus bo‘yoqlar beradi. U bir oz quriganidan so‘ng bo‘yog‘i o‘chib ketmasligi uchun ustidan bir necha bor tiniq lok surtiladi. O‘zbek ustalarining ish uslubi boshqacharoq. Eskiz asosida duradgor tayyorlagan yog‘och qutichaga yelim surtiladi. Jilvir qog‘oz bilan tozalangan materialga bronza rang beriladi. Bronza ustidan ulgi asosida kompozitsiya tasviri tushiriladi. Uning ustiga qora bo‘yoq surtib, naqsh ishlanadi. Naqshlar o‘chib ketmasligi uchun bir necha bor toza lok surtiladi. Naqqosh ustalardan A. Qosimjonov, Y. Raufov, T. To‘xtaxo‘jayev, A. Boltayev, S.Norqo‘ziy ev va J.Hakimovlar san’atning bu turida samarali mehnat qilib, shuhrat qozonishgan. Amaliy san’at turlarida simmetriya muhim rol o‘ynaydi. Simmetriya deyarli hamma janrlarda ishlatiladi va uni amaliy ko‘rish mumkin. Simmetriya so‘zi – aynan o‘xshashlik (lotin. iden so‘zidan olingan bo‘lib, o‘shaning o‘zi, aynan ma’nolarini ifodalaydi) degani. Aynanlik o‘zaro bir-biriga to‘la muvofi qligini ifodalaydi. Simmetriyaning bir necha turlari mavjud bo‘lib, ularning ichida eng soddasi aks simmetriya hisoblanadi. Simmetrik kompozitsiyaning alohida bir ko‘rinishi esa naqshlardir.

Tasvirni o‘q bo‘ylab biroz surilsa, naqshning barcha elementlari bir-birining ustiga tushadi. Amaliy bezak san’atida bunday simmetriyaning ikki turi ko‘p tarqalgan. Ular tasmali, halqali va aylana (masalan, likopcha cheti naqshi) naqshlardir. Naqqoshlikda simmetriyalar ko‘p ishlatiladi. Simmetriya – yunoncha so‘z bo‘lib, «symmtria» – o‘lchovdoshlik degan ma’noni bildiradi. Simmetrik – biror narsa, naqshning markaz chizig‘i (o‘q chiziqqa)ga yoki tekislikka nisbatan aynan muqobil joylashuvi, o‘zaro o‘xshashlik. Naqqoshlikda simmetriya turlari mavjud. Ko‘zguda aks etgan simmetriyani ko‘zgusimon simmetriya deyiladi. Ko‘zgusimon simmetriya amaliy san’atda muhim o‘rin tutadi. Amaliy san’atda bezaklarning ko‘pchiligi ko‘zgusimon simmetriyaga asosan ishlanadi.

Kompozitsiyadagi takrorlanish ritm naqsh kompozitsiyasidagi bir butunning tarkibiy qismini

bir necha marta davriy takrorlanishidir. Ritmning turli-tumanligi har xil sharoitda elementlarning shakli va orasidagi masofaning kattaligiga bog‘liq. Davriy takrorlanishning uch ko‘rinishi mavjud: oddiy takrorlanish, murakkab takrorlanish, juda murakkablashgan takrorlanish. Oddiy takrorlanish bitta element takrorlanishidan hosil bo‘ladi. Murakkab takrorlanish ikkita har xil elementlarning ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil bo‘ladi. Juda murakkablashgan takrorlanish bir necha elementlarning ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil bo‘ladi.

Demak, umumta’lim maktablarida texnologiya darslarida milliy hunarmanchilik va amaliy bezak san’ati bo’yicha o’quv dasturlarida o’quvchilarning o’zlashtirishi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalari belgilab berilgan, bular barchasi dars jarayonida o’qituvchining mahorati va kasbiy bilimi ila innovacion texnologiyalar orqali etkazib beriladi. Shuning uchun fan o’qituvchilari o’z ustida tinmay izlanishini, qo’shimcha ma’lumotlar orqali bilimlarini oshirib borishi talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Bulatov S.S., Shabaratov P.P., Rasulov M.A. Naqqoshlik. Toshkent, 2010
2. . Sharipov Sh va boshqalar. Texnologiya.6-sinf. Sharq, 2017
3. Sharipov Sh va boshqalar. Texnologiya.7-sinf. Sharq, 2017

BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’QUVCHILAR NUTQINI O’STIRISH.

Usmanova Tolkin Utegenovna
Zarafshon shahar 9-umumiy o’rta ta’lim maktabining
boshlang’ich sinf o’qituvchisi
Abdullayeva Gulzina Kenjabekovna
Zarafshon shahar 9-umumiy o’rta ta’lim maktabining
boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya. Nutq deganda so’zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Aslida - chi, nutq – bu insonnning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo’lib hisoblanadi. Odamning ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar o’rtasida o’zaro fikr almashinuv vositasi sifatida vujudga kelgan spetsifik funksiyasi.

Kalit so’zlar. K.B. Barxin, B.I. Sokolov M.A. Ribnikova, Til qonunlari, Aktiv nutq, signalizatsiya, spetsifik funksiya.

Inson tashqi olamdagi predmetlar va hodisalarni sezgi organlari yordamida va nut vositasida idrok etadi. So’z signalizatsiyasi, ya’ni nutq tufayli odam borliqni umuman, fikran idrok etishi mumkin. Nutq organlari, odam organizmining nutq tovushlari hosil bo’lishida qatnashadigan turli qismlari. Aktiv nutq organlariga til, lab, yumshoq tanglay, passiv nutq organlariga esa tishlar, qattiq tanglay, burun bo’shlig’i kiradi.Nutqning tashqi va ichki, og’zaki va yozma turlari bor. Tashqi nutq asosan aloqa bog’lash maqsadlariga xizmat qiladi, shuning uchun u tinglovchilarga tushunarli qilib tuziladi. So’zlanmaydigan va yozmaydigan ichki nutq, ya’ni o’zi uchun bo’lgan nutq ong? O’zini bilish, tafakkur jarayonlarida g’oyat muhim ro’l o’ynaydi. Yozma nutq (xat yozish va o’qish) funksional jihatdan ichki nutq (yozilajak narsani ichida inchirlash, tovush chiqarmasdan o’qish) bilan chambarchas bog’liqdir.Ma’limki, so’zlashuv tili nutq o’stirishning dastlabki boshqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi. So’zlashuv tili esa o’qilgan matnlarni og’zaki hikoya qilishda namoyon bo’ladi. So’zlashuvga o’rganish barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o’qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak. Kichik yoshdagi maktab o’quvchilariga ma’naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. Ona tili, shu jumladan, o’qish nutq o’stirish ta’lim – tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir.

O’quvchilarning og’zaki va yozma nutqlarini me’yorlashda, ularning mutanosibligini ta’minlashda, milliy tilning tabiati va o’ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya’ni qiroat bilan o’qishning amaliy ahamiyatini o’stirish, adabiy til me’yori va mezonlariga rioya qilish, o’qish, o’qish metodlarini takomillashhtirish yo’llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur.Adabiy til tushunchasi keng qamrovli, ko’p qirrali hodisadir. Adabiy til taraqqiyoti barqarorligini ta’minlashda bolalarning yoshlikdan nutq madaniyatlarini tarkib toptirish va tarbiyalash lozim.

Til qonunlarning ta’limga tatbiqi munosabati bilan bolalarni o’qishga o’rgatishdagi usullarni to’g’ri qo’llashi (ko’rgazmalilik, tarqatib berilgan topshiriqli qog’ozlar bilan ishlash yo’llarini bilish) usullari takomillashtiriladi.O’quvchilarning bilish faoliyatlarining o’ziga xos taraqqiy etishini hisobga olish, ayniqsa, ularning ruhiy, fiziologik xususiyatlari bilan bog’liq bo’lgan ishlarga yetarli ahamiyat qilish lozim. Ularga nisbatan e’tiborni kuchaytirish, mehrli va hamisha shirinsuxan bo’lish zarur.Bola shaxsi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda nozik his-tuyg’ularga boy bo’lib, o’qituvchi ana shu tuyg’ularni ilg’ashi. Bola ruhiyatini ko’rsatishi, ta’lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasiga alohida e’tibor berishi zarur.

O’qituvchining turli fanlarni o’qitishdan maqsadi o’quvchilarning nutq madaniyatini, nutq ko’nikmalrini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o’z ichiga oladi. O’qituvchi nutqi o’quvchilar uchun namunadir. O’quvchilarning nutqi ravon, tushunarli bo’lishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga e’tibor berish zarur.

Nutq ichki va tashqi ko’rinishiga ega. Ichki nutq odamning o’z ichiga gapiradigan passiv nutqi bo’lib, u ikinchi kishining ishtirokini talab qilmaydi. Shuning uchun bu nutq o’z – o’ziga qaratilgan sanaladi, uni nazorat qilib bo’lmaydi. Ichki nutq og’zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqlarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo’lgan faol nutq bo’lib, u og’zaki va yozma ko’rinishiga ega.Yozma nutqning og’izaki nutqdan yana bir farqi shuki, yozma nutqni ko’ramiz va o’qiymiz. Yozma nutqning muvaffaqiyatli chiqishi uchun yig’ilgan materialni

sistemalashtirish, reja tuzish, ishning homaki nusxasini tayyorlash, matn ustida qayta ishlab takomillashtirish va oqqa ko’chirish zarur. To’g’ri va ifodali gapirish har bir o’qimishli kishi uchun hayotiy zaruriyat bo’lib qolgan hozirgi davrda o’quvchilarning nutqini o’stirish muammosi o’quv-tarbiya tizimining eng dolzarb masalalaridan biri deb qaralmog’i kerak. Shuning uchun ham olimlar K.B. Barxin, B.I. Sokolov M.A. Ribnikova vaboshqalarning metodik asarlarida o’quvchilarning og’izaki va yozma nutqini o’zaro muvofiq holda o’stirish masalalariga alohida e’tibor berilgan. Olimlar tomonidan maktabda o’qitish jarayonida ro’y berayotgan quyidagi kamchiliklar tanqid qilinadi:

1. O’qituvchilarning ko’pchiligi og’zaki nutqning hayotiy ahamiyatini hali ham yetarli tushunmayaptilar. Shuning uchun ular maktab maxsus og’zaki nutq o’stirish mashqlari o’tkazishga muhtoj emas, deb hisoblab xato qilmoqdalar. Bunday o’qituvchilar, o’quvchi mukammal, bexato yozishni o’rganib borsa, ularning nutqi o’z-o’zidan o’sib boradi, deb hisoblab amalda og’zaki va yozma nutqning aloqadorligini unutib qo’yadilar.2. O’quvchilarning nutqi mazmun juhatdan nihoyatda kambag’al va qator kamchiliklarga ega. Chunki yuqori sinflarda o’qituvchi nutq masalasiga e’tibor bermaydi. Boshlang’ ich sinf o’quvchilari nutqida o’stirishda yod oldirish, so’zlarning ma’nosini tushuntirish yoki qayta hikoya qildirish kabi usullardan foydalanibgina qolmay, balki ular uchun qiziqarli faoliyat bo’lgan o’yinlardan foydalanish, ayniqsa, ko’zlangan maqsad, yuqori natijalarni qo’lga kiritishda katta yordam beradi. Chunki o’yin kichik maktab yoshidagi o’quvchilar faoliyatida asosiy o’rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar.2000 yil
2. Boshlang’ich ta’lim. 2007. 9-soni
3. www.ziyouz.com

MATEMATIKA DARSLARIDA MUAMMOLI TA’LIM.

Voxidova Madina Ravshanovna
Navoiy viloyat Zarafshon shahar
11 MFCHO’IDUM o’qituvchisi
Jalilova Xurshida Shavkatovna
Navoiy viloyat Zarafshon shahar
11 MFCHO’IDUM o’qituvchisi

Annotatsiya. Umumta’lim maktablari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi muhim o’zgarishlarga hamisha o’z munosabatini bildirib keldi. Jamiyat taraqqiyotining har bir davri uchun ta’lim nazariyasi rivojining ma’lum bir mazmuni mos keladi. Boshqacha aytganda, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichiga mos ravishda o’qitish dasturlarining mazmuni, tarbiya prinsiplari, o’quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning forma va metodlari hamda ta’lim muddatlari mos keladi.

Kalit so’zlar. Aksioma, produktiv, reproduktiv, muammoli ta’lim, teorema, izohli-illyustrativ metod, metod, forma.

Pedagogika kursidan ma’lumki, ta’lim metodini aniqlashtirish jarayoni o’quvchi bilan o’qituvchining o’zaro munosabatlari prinsipidan kelib chiqadi, bunda o’qituvchi o’quvchilarga bilimlarni bayon qilishi, ana shu bilimlarga erishishdagi o’quvchilarning shaxsiy faoliyatlarini uyushtirishi hamda tushuntiriladigan mavzu materialini o’qituvchining o’zi qanday bayon qilish nuqtayi nazaridan yondashiladi. Og’zaki ko’rsatmalik ta’lim jarayonida o’quvchilar o’qituvchining tushuntirishi orqali bilimlarni ongli ravishda o’zlashtiradilar hamda ularni amalda qo’llash malakalari hosil bo’ladi. Asta-sekin umumta’lim maktablarining mazmuni tubdan o’zgartirildi, ya’ni ta’limni maktabning maqsad va vazifalariga mos keladigan yangi, ancha takomillashgan izohli-illyustrativ metodi vujudga keltirildi. Izohli-illyustrativ ta’limda o’rganilayotgan obyekt mohiyati izohlanadi, hayotiy dalillar bilan bog’lanadi hamda o’qituvchining ana shu o’rganilayotgan obyektga nisbatan ko’rsatadigan misol va xilma-xil ko’rgazmali qurollari orqali tasdiqlovchi xulosasi bilan yakunlanadi. Izohli-illyustrativ ta’limda o’qituvchi dalillarni o’zi bayon qilib beradi, o’zi ularni tahlil qiladi va yangi tushunchalarning mohiyatini tushuntiradi, ya’ni teorema, qoida va qonunlarni o’zi ta’riflaydi. Izohli-illyustrativ ta’lim metodi umumta’limiy maktablarimizda qo’llanish darajasiga nisbatan an’anaga aylandi va hozirda ham qo’llanilmoqda. Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida izohli illyustrativ ta’lim metodi o’quvchilaming fikrlash qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi, ulami o’rganilayotgan mavzu materialini puxta bilishlariga bo’lgan ehtiyojlarini qanoatlantira olmaydi hamda fanga bo’lgan qiziqishlarini yuqori darajada shakllantira olmaydi. Shuning uchun ham 1960-yilning boshlaridan boshlab, maktablarimizda ta’lim jarayonini jadallashtirish g’oyasi keng tarqalib, ta’limning yangi metodi — muammoli ta’lim metodi vujudga kela boshladi. Ta’lim metodlarining turini aniqlash o’quv jarayonini tashkil qilish prinsiplarini o’zigagina emas, balki aqliy faoliyat xarakteriga ham bog‘liqdir, bu esa o’z navbatida fikrlashning reproduktiv va produktiv turlarini o’zaro qo’shib olib borish bilan belgilanadi. Izohli-illyustrativ ta’lim jarayonida barcha bilimlar, ko’nikmalar va malakalar o’zlashtirishning reproduktiv metodi asosida amalga oshiriladi, ya’ni o’quvchilar fanning tayyor natijalarini, tayyor faoliyat usullarini o’zlashtiradilar, bu esa ularda xotira va reproduktiv fikrlash malakalarini shakllantiradi. Faqatgina produktiv ijodiy fikrlash malakalari o’rganilgan nazariy mavzu materialiga bog‘liq bo’lgan masala yoki misollami yechish davomida egallanadi, xolos. Biroq reproduktiv fikrlash natijasida to’plangan ma’lum hajmdagi bilim va malakalar o’quvchilaming mustaqil bilish hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yetarli bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ta’limning jadallashtirish g’oyasini har xil yo‘nalishlari turli olimlar (M.A. Bankov, M.A. Danilov, M. Maxmutov, Yu.K. Babanskiy va boshqalar) tomonidan eksperiment qilinib ko‘rildi va nazariy jihatidan isbotlandi. O’tkazilgan eksperiment va kuzatishlar natijasida ta’lim jarayonida o’quvchilaming bilish faoliyatlarini jadallashtirish hamda ularning intellektual imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish umumiy qonuniyatlari ishlab chiqildi. Bu qonuniyatlar quyidagilardan iborat: 1. O’rganilayotgan mavzu materiallari yuzasidan muammoli savollar sistemasini tuzish. 2. Tuzilgan muammoli savollar sistemasi asosida suhbat metodi orqali tushuntiriladigan mavzu materialini o’rgatish va uning tub mohiyatini ochib berish. 3. Muammoli savollar asosida izlanish xarakteridagi o‘quv vazifalarini

qo’yish. Yuqoridagi bosqichlar asosida o’quv materiali tushuntirilganda o’quvchilar o‘zlari darrov tushunib yetmaydigan fakt va tushunchalarga duch keladilar, natijada o’rganilayotgan mavzu materiali bilan o’quvchilar orasida muammoli vaziyat hosil bo’ladi. O‘rganilayotgan obyekt (bilishga doir nazariy material yoki masala) bilan o’rganuvchi subyekt (o’quvchi) orasidagi o’zaro harakatlarning o‘ziga xos bo‘lgan turiga muammoli vaziyat deyiladi. Muammoli vaziyat — bu o’quvchilarni o’rganilayotgan mavzu materialidagi fakt va tushunchalarning qanday hosil bo’lishini bilmaslikdan ham ana shu mavzu materialining tub mohiyatini olib beruvchi matematik tushuncha, aksioma va teoremalarni o’rganilayotgan mavzu materialiga tatbiq qila olmaslik paytida vujudga keladigan intellektual qiynalishdir. Muammoli vaziyatning roli va ahamiyatini aniqlash o’quvchilarning tez fikrlash faoliyatini psixologik, pedagogik qonuniyatlarini hisobga olish asosida o’quv jarayonini qayta qurish muammoli ta’limning asosiy g’oyasini belgilab beradi. Muammoli ta’limda bilimning deyarli katta qismi o’quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchilar tomonidan muammoli vaziyatlami mustaqil hal qila bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish asosida hosil qilingan dars jarayoni muammoli ta’lim deyiladi. Yuqoridagi mulohazalardan muammoli ta’lim nazariyasi o’quvchi intellektual imkoniyatlarini ochib beruvchi rivojlantiruvchi xarakterdagi ta’lim tashkil qilishning psixologik, pedagogik yo’llari va usullarini tushuntiradigan ta’lim jarayoni ekanligi ko’rinadi. Maktab matematika kursida o’rganiladigan nazariy mavzu materiallari masala va misollami ularning mazmuniga ko’ra muammoli hamda muammoli bo’lmagan turlarga ajratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Azlarov T., Monsurov X. Matematik analiz. -T.: «0‘qituvchi». 1986.
2. Kollogarov A. N. Tahriri ostida. Algebra va analiz asoslari. 10—11 sinflar uchun darslik. -T.: «0‘qituvchi». 1992.
3. www.ziyouz.com

TA’LIMNI TEXNOLOGIYALASHTIRISH VA PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHGA O‘RGATISH

Xaitova Nilufar Dilmuratovna,
Navoiy shahar 10-umumta’lim maktab
Boshlang’ich sinf o‘qituvchisi
Ortiqova Laylo Rizoqulovna,
Navoiy shahar 10-umumta’lim maktab
Ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada muallif o‘qitish jarayonini texnologiyalashtirish va pedagog kadrlarning innovatsion texnologiyalardan foydalanish mahoratini oshirishning dolzarb jihatlarini nazariy asosda yoritib bergan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, texnologiya, mahorat, ta’lim jarayoni, moddiy, ba’za, jarayon, tizim.*

Respublikamizda ta’lim sohasiga innovatsion texnologiyalar, o‘qitishning interfaol usullari joriy etilayotganligi, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish va ijodiy tafakkurining shakllanishiga xizmat qiladigan yangicha yondashuvni vujudga keltirdi. Mamlakatimizda ta’limning barcha yo‘nalishlariga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ta’lim sohasini tizimli ravishda texnologiyalashtirishga zamin yaratmoqda desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: «Maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarini qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur»ligi ta’kidlab o‘tildi va bu asosiy vazifa sifatida yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan eng muhim yo‘nalishlardan biri ekanligidan dalolat bermoqda.

O‘quvchi yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ta’lim tizimining ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi.

Shunning uchun, ta’lim tizimining moddiy-texnik ba’zasini boyitish va zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlashni davrning o‘zi taqoza etmoqda. Ta’limga texnologiyalarni joriy etish, o‘qitishning sifat-samaradorligini ta’minlash, qisqa vaqt ichida ko‘proq ma’lumot yetkazish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi axborot almashishni tezlashtirish imkoniyatini beradi.

Ta’limni texnologiyalashtirish ta’lim jarayoniga texnologiyalarni qo‘llash asosida o‘qitshdan ko‘zlangan maqsadlarga erishishning muhim yo‘nalishlari hamda eng maqbul yo‘llari mutanosibligida qo‘llanuvchi samarali texnik vositalar uzviyligidagi aniq g‘oya va konsepsiyalar majmuiga bog‘liq bo‘lgan pedagogik jarayondir. Ta’limni texnologiyalashtirish, uning mazmunini boyitish va samaradorligi, o‘quv-tarbiya jarayonining didaktik ta’minoti, innovatsion texnologiyalar bilan ta’minlaganlik darajasiga qarab belgilanadi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan: «… pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur», degan g‘oya ta’limni texnologiyalashtirish, sohaga innovatsiya va xorijiy tajribalarini joriy etishga, professor-o‘qituvchilarning salohiyatini oshirishga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratib berish davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Har bir o‘qituvchi-pedagogning mahorati uning ichki tuyg‘usi, hissiyotlari va intellektual salohiyati hamda innovatsion texnologiyalardan qay darajada foydalana olishi asosida shakllantirib borish bilan bir qatorda, ular tajribali kasbdoshlari va xorijiy pedagoglarning tajribalarini o‘rganish, ularni amaliyotga tatbiq etish, o‘z faoliyatini tanqidiy baholash orqali kamchiliklarini bartaraf etish, o‘zining metodik jihatdan muntazam takomillashtirib borish ta’lab etiladi. O‘qituvchi-pedagogning mahoratini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlaridan ya’na biri, mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va interfaol usul, yangiliklarini uzluksiz tarzda kuzatib borishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi globallashuv davri va axborot asrida o‘qituvchi mahoratiga ta’sir etuvchi omillardan biri, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish muhim hisoblanadi.

Zero, bugungi kunda ta’lim sohasidagi yangilanishlarni texnikalarsiz tassavvur etish qiyin.

Masalan, oddiygina kompyutersiz. Kompyuter didaktik vositalarni tayyorlash va ularni tinglovchi yoki o‘quvchilarga yetkazib berishdek keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi xulosalarimizdan kelib chiqib, o‘qituvchi-pedagoglarga, jumladan, o‘quvchilarga ham axborot komunikatsion texnologiyalardan foydalana olish borasidagi bilm va malakalarini muntazam oshirib borishlarini tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil 24-yanvar.

2. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: «O‘zbekiston», 2017.

ЎЗБЕК ТИЛИДА ИНТЕРНЕТ МАТНИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

Хамидова Муяссар Рустамовна,
Салаева Нилуфар Ибрагимовна,
Навоий шаҳар 10-умутаълим мактаб
Она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Аннотация. *Мақолада ахборот-қидирув тизимларининг лингвистик қўллаб-қувватлаши ўрганилмоқда, чунки тил воситалари ахборот излаш тизимининг материалларини лингвистик қўллаб қувватлашнинг асоси ҳисобланади.*

Калит сўзлар: *компютер тилшунослиги, вирусларни ўрганиш, амалийлик, virtual дунё, компютерлаштириш, ахборот-коммуникация технологиялари.*

Бугунги кунда дунё компьютер лингвистикаси табиий тил имкониятларини компьютер тилига ўтказиш ҳамда у билан боғлиқ масалаларни компьютер технологияси ёрдамида ҳал қилиш каби муаммолар тадқиқи билан шуғулланмоқда. Компьютер технологиялари орқали мулоқотни амалга ошириш иқтисодий тежамкор ва тезкор алоқа воситаси эканлиги бу йўналишда компьютер лингвистикаси фанининг тараққиёт истиқболини белгилаш билан бирга, янги илмий муаммоларнинг туғилишига ҳам сабаб бўлмоқда.

Жаҳон фанида янги йўналишлар, янги соҳалар юзага келди. Бу йўналишлар виртуаллик ва виртуал воқелик (Интернет виртуал макони)ни ўрганишга қаратилиб, «вируалистика» деб номланади. Бугунги кунда виртуал лингвистика хусусида гапириш, интернет-коммуникация маконида тил ва инсон муаммоларини ўрганиш вақти келди [1]. «Халқаро ўргимчак тўри» бугунги кунда мулоқотнинг энг тезкор усулига айланиб, катта миқдордаги ахборотни сақловчи хазинага айланди. Йилдан йилга, кундан-кунга Интернетга бўлган эҳтиёж билан бирга ахборот ҳам кенгайиб бормоқда. «Яндекс» тармоғи ахборот беришича, статистик сўровномага асосан бир ойда мулоқот қилувчилар «чат»да - 1664 215 та, «майл почтаси»да - 1312161, «кун ахбороти»ни кўрувчилар - 419763, «онлайн фильмлар» намойишни кўрувчилар - 2 994061та ташкил этади.

Мамлакатимиз мустақиллигининг дастлабки йилларидан бошлаб, жамиятнинг барча соҳаларида изчил ислоҳотлар амалга оширилиб, илм-фанни жадаллик билан ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилди. Бошқа соҳаларда бўлгани сингари ўзбек тилшунослигида ҳам бошқа фанлар кесимида янги йўналишлар вужудга келди.

Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясида «…таълим тизимини такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш»[2]га алоҳида эътибор қаратилган. Шу маънода Интернет тизимидаги ижтимоий тармоқлар, илмий-техникавий матнлар ва турли форум, конференцияларда ёзма ва оғзаки мулоқотни ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Бу эса, Интернет матнини қиёсий, типологик, лингвомаданий нутқтаи назардан таҳлил этиш заруратини долзарб масала қилиб қўяди.

ХХ асрнинг охири ХХI асрнинг бошларида замонавий ахборот технологиялари ютуқлари, қатор янги коммуникатив соҳаларнинг юзага келиши Интернет матнларининг ўрганилишига сабаб бўлмоқда. Жаҳон тилшунослигида бу соҳада бир қатор ишлар амалга оширилган. Жумладан, А.Г.Абрамова, Е.Е.Анисимова, Н.Г.Асмус, М.Б.Бергельсон, Л.Ю.Иванов, В.В.Казяба, Й.Пилатова, Л.Воробил кабилар Интернет мулоқотининг тил хусусиятлари, Е.С.Андреев, О.С.Андреева, А.Е.Баранов, Ю.Будовская, И.С.Шевченко каби олимлар социолингвистик, В.Н.Ковалев, П.Е.Кондрашов психолингвистик хусусиятларини К.В.Турнер, П.Ссоллон, С.Ссоллон, Г.Лавер, Е.Ф.Тарасов, Л.П.Крысин, Г.А.Орлов, А.Н.Баранов, Н.Е.Богуславская, И.А.Гиниатуллин, Т.В.Матвеева, М.В.Китайгородская, Ҳ.Ҳ.Розанова, Е.П.Захарова, Т.О.Багдасарян, К.Ф.Седов каби олимлар интернет дискурсининг прагмалингвистикаси ва риторикаси, Т.О.Багдасарян, В.И.Карасика, Т.С.Брыжиной, О.А.Могилевской каби олимлар Интернет типлари ва жанрларининг коммуникатив хусусиятлари (масалан, юмористик, ахборот-коммуникацион) хусусида илмий тадқиқот ишларни амалга оширганлар.

Интернет бу ягона стандарт асосида фаолият кўрсатувчи жаҳон глобал компьютер тармоғидир. Республикамизда миллий Интернет-сегментини ривожлантириш бўйича ишлар

ЎзР Вазирлар Маҳкамасининг «Компьютерлаштиришни янада ривожлантириш ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш чоратадбирлари тўғрисида» 2002 йил 6 июндаги 200-сон қарори билан тасдиқланган «20022010 йилларда компьютерлаштириш ва ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш дастури»га асосан амалга оширилмоқда.

Интернет тармоғидан абонетларга веб-ҳужжатларни ўқиш, электрон почта, файл узатиш ва қабул қилиш, мулоқотда бўлиш, тармоқда ҳужжатларни сақлаш ва улар билан ишлаш хизматини кўрсатиш, ахборотларни алмашиш, масофавий таълим олиш, конференциялар ўтказиш, веб-сайтларни ташкил этиш, электрон почтани жорий қилиш, мулоқот ўрнатиш ва шу каби мақсадларида фойдаланилади.

Интернет орқали ўзаро мулоқот деганда икки ёки ундан ортиқ фойдаланувчиларнинг бир вақтнинг ўзида, бир-бирлари билан интернет тармоғи орқали алоқа ўрнатилиши тушунилади. Бундай мулоқот жараёнида фойдаланувчиларнинг жойлашув ўрни аҳамиятга эга эмас, яъни фойдаланувчилар қаерда бўлишларидан қатъий назар Интернет тармоғи орқали мулоқот ўрната оладилар. Бундай сўзлашувларни амалга ошириш учун махсус дастурлар бўлиши талаб қилинади. Бундай дастурларга Skype, Mail Agent, Google Talk, ISQ дастурлари киради.

Интернет орқали сўзлашув жараёнида микрофон ва эшитиш қурилмасини компьютерга улаб келтирилган дастурлар ёрдамида фойдаланувчилар мулоқот қилишлари мумкин. Бунда Интернет орқали мулоқот жараёни фойналанувчига тезкорлиги, арзонлиги хамда сифатлилиги билан қулайликлар яратиб беради.

Ахборот сайтлари томонидан таклиф қилинаётган ёки ушбу ахборот сайтидан фойдаланиш оқибатида пайдо бўлаётган барча шарҳлар, ўзаро алоқа, таклиф ва фикрлар ахборот сайтининг шахсий мулки ҳисобланади ва булардан ахборот сайти томонидан исталган ерда ва исталган мақсадда дунёнинг исталган ерида сизнинг рухсатингизсиз ҳам фойдаланиш мумкин. Шунинг учун сайтларда маълумотларни киритишда ёки материалларга изоҳлар киритишда, изоҳлар қолдиришда бировнинг нафсониятига тегадиган маълумотларни, ҳар хил ножўя сўзларни ёзишдан эҳтиёт бўлиш, ахборотдан фойдаланиш маданиятига риоя қилиши лозим.

Адабиётлар:

1. Краснова И.В. Язык компьютерных диалогов: нормативно-етический аспект (на материале русскоязычных чатов). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Кемерово, 2012.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.
3. Кутузов А.Б. Модель функционирования терминологического сленгизма в дискурсе сетевых форумов // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Тюмень, 2006.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI USULLAR

Xoliqova Manzura Eshpulatovna
Zarafshon shahar 4-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar savodxonligini oshiruvchi usullar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: savodxonlik, mosini tanla, charxpalak, rasmlar tilga kirganda…

Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm,
Eng katta meros - bu yaxshi tarbiya,
Eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir!
Sh. Mirziyoyev

Inson paydo bo‘libdiki, ta’lim-tarbiya paydo bo‘lgan. Ta’lim-tarbiya paydo bo‘libdiki ustoz-murabbiylarga xos bo‘lgan sifatlar hamda talablar ortib borgan.

Ushbu tavsiya umumta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim darslarida o‘quvchilar savodxonligini oshirish uchun mo‘ljallangan. Bunday usul, o‘yinlarni o‘z ichiga olgan va ushbu tavsiya o‘quvchilarning barcha fanlarga oid bilimlarini mustahkamlashda va ularni mukammal o‘rganishga, o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Quyida shunday usullardan bir nechtasini taqdim etishni joiz topdim:

“Rasmlar tilga kirganda..” usuli. Bunda o‘quvchilarga aynan bir rasm turli ko‘rinishlarda taqdim etiladi. Ular shu rasmlardan o‘z fikrlarini bayon qiladilar.

“Mosini tanla” usuli. Bunda o‘quvchilarga jadval asosida gaplar beriladi. O‘quvchilar nuqtalar o‘rniga mosini topib o‘z topqirliklarini ko‘rsatadilar.

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlardan mosini toping.

Berilgan gap	Sifat
1.O‘qituvchimiz ... (mehribon, mohir, maqtanchoq) inson.	**Mehribon**
2. Do‘stimni hurmat qilaman, chunki u ... (odobli, saxiy, yalqov) bola.	
3. Aziz sinfimiz sardori, u ... (intizomli, o‘jar, tirishqoq) o‘quvchi.	
4.O‘quvchilar doimo … (tartibli, yalqov, aqlsiz) bo‘lishi lozim.	

“CHARXPALAK” usuli. So‘zlar ma’nosini farqlash va taqqoslash maqsadida ushbu usuldan foydalanish mumkin. Quyida tutuq belgisining farqlash tomonlari ko‘rsatilgan.

	So’zlar	O’quvchi ismi	Munosabat
1	Ma’naviyat , ma’no,sa’va		
2	She’r , fe’l , Ra’no		
3	Qat’iyat , jur’at, ya’ni		
4	Ba’zan , sun’iy , sur’at		
5	Mas’uliyat , da’vogar , a’lo		
6	Ma’rifat, ta’til, ta’na		
7	Ju’ziy , mash’um , ma’yus		
8	Ma’lum , e’tiqod , san’at		
9	E’tirof , e’lon , in’om		
10	Ta’zir , a’yon , shu’la		
11	Qit’a, ne’mat , me’mor		
12	Ba’zida , ta’sis, bee’tiqod		

“CHARXPALAK” usuli. Taqqoslang.

	So`zlar	O`quvchi ismi	Munosabat
1	Manaviyat , mano, sava		
2	Sher , fel , Rano		
3	Qatiyat , jurat, yani		
4	Bazan , suniy , surat		
5	Masuliyat , davogar , alo		
6	Marifat, tatil, tana		
7	Juziy , mashum , mayus		
8	Malum , etiqod , sanat		
9	Etirof , elon , inom		

“ESSE”

“Men do‘stimga ishonaman”.
Bu qismda esse mavzusi tanishtiriladi.
Masalan: Ushbu esseda ixtiyoriy mavzu (do‘stga bo‘lgan ishonchni atrofdagi insonarga ta’siri)ni muhokama qilamiz.

Ma’lumki, inson har doim o’sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta’sir etuvchi omillarnig ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to’g’ri tushunishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’naviyat – qalbim quyoshi. Toshkent - 2013
2. Ma’rifat. “Dars muqaddas” tavsiyasi. 2011-yil, 9-noyabr
3. Internet saytlari

INGLIZ FOLKLORIDA ROBIN GUD TARIXIY VA AFSONAVIY OBRAZI

Xudoyorova Nafisa Baxtiyor qizi
Navoiy viloyati Yuridik Texnikumi ingliz tili fani
o’qituvchisi, NDPI 1-kurs magistranti
Telefon:998975599434

Annotatsiya: Maqolada ingliz xalq ertaklaridagi mashhur tarixiy va afsonaviy obrazlardan biri hisoblangan Robin Gud timsolining tarixiy va badiiy talqini bayon etiladi.

Kalit so’zlar:,,qaroqchilar”, ,,kambag’allar’’, Nottingem, botir, dovyuraklik, mardlik, jasurlik va mehnat

Ma’lumki, ingliz folklori Angliyaning hududlariga tegishli bo’lgan an’anaviy folklor namunalari hisoblangan mif va afsonalardan iborat. Ularning madaniy tarixiy ildizlari Kelt, Xristian va Nemis xalq og’zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. XVI asr renessans davri mobaynida ingliz folklori o’zining hududi bo’ylab rivojlanishni boshlaydi. Ingliz folklori namunalari asosini an’anaviy Robin Gudva Artur haqidagi singari tarixiy afsonalar tashkil etadi. Bunday afsonalar ingliz xalqi tomonidan tarixdagi voqealarni o’zida aks etib, tarbiyaviy va ta’limiy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Ingliz folkloridagi mashhur obraz, Robin Gud timsoli kambag’allarga moddiy va ma’nan yordam berish uchun boylarni talon-taroj qilib Angliyaning afsonaviy qaroqchisiga aylangan. Ingliz folkloreshunosligida bu timsol o’rmonda ov qilish va qonunbuzarlar bilan ziyofat qilish hamda muhtojlarga yordam qilishi – buyuk va oliyjanob sarguzashtsevar sifatida tilga olinadi. Robin Gud dastlab ingliz folklorida tasvirlangan va keyinchalik adabiyot va kinoda tasvirlangan afsonaviy qahramon qonunbuzar hisoblangan. Afsonaga ko’ra u juda mohir kamonchi va qilichboz bo’lgan.

Robin Gud eng qadimgi ilk manbalar Uilyam Lenglandning 1377-yilda yozgan ,,Pirs Plowman’’ nomli asarida bo’lib, 1300-yillar oxiridagi bu va boshqa havolalar shuni ko’rsatadiki, Robin Gud o’sha paytda mashhur afsona sifatida yaxshi tanilgan. Bundan tashqari Robin Gud ingliz folklorida boylarni talan-taroj qilgan va bu talon-tarojlar evaziga kambag’allarni moddiy jihatdan ta’minlab ularga pul bergan oilyjanob obraz sifatida tilga olinadi. Tarixan ushbu obraz tog’risidagi afsona Shotlandiya tarixchisi Jon Major tomonidano’ylabtopilgan.

Uzoq yillar oldin Angliya yovuz va ochko’z shahzoda Jon tomonidan boshqarilgan. O’zining hukmronlik davrida u xalqiga shafqatsizlarcha soliq soladi.

Bunday soliqlar xalq ichida qochqinlarning paydo bo’lishiga olib keladi. Ularning orasida eng mahoratlisi va mashhuri Robin Gud va kichik Jon sanaladi. Ular soliqdan tushgan daromadni Sherifdan tortib olib o’zining kambag’al va qashshoq xalqiga qaytarib beradi.

Robin Gud afsonada mard, jasur, dovyurak va mehribon inson sifatida tilga olinishini quyidagi afsona voqealaridan ham bilishimiz mumkin. Masalan, Nottingem sheriff soliq yig’ayotgan paytda Bunni xonim o’g’li Skippiga tug’ilgan kunida sovg’a qilgan tangani ham oladi. Mana shu vaziyatda Robin GudkichkinaSkippitug’ilgankunidasovg’alarsizo’tishikerak deb o’ylamaydi, shuninguchun u o’ziningkamon, o’qinivakattashlyapasinisovg’aqiladi. Bu Robin Gudningmehribonligivamardligidandalolatberadi.

Robin Gud mashhur ingliz qahramoni sifatida xalq ertaklarida va balladalarida uchrab, afsonalarga ko’ra, u do’stlari bilan Shervu do’rmonida boylarni talon-taroj qilib, ulardan olgan moddiy boyliklarni kambag’allar bilan saxiylik bilan baham ko’rgan, ularga g’amxo’rlik qilib mehribonchilik ko’rsatgan. Qahramon haqidagi balladalar asosan XIV asrda yaratilgan bo’lib, ularning asosida ko’plab kitoblar yozilgan hamda ko’plab filmlar suratga olingan. Bu qahramon haqidagi afsona, ballada, hikoya va kinofilmlarni yosh avlodga tarbiyaviy jihatdan o’rgatish orqali obraz timsolidagi ijobiy sifatlarni ularda shaklantirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Robin Hood – The Facts and the Fiction » Updates”. Archived *from the original on 3 April 2019. Retrieved 4 May 2020.*

2.”Robin Hood and the Potter”. Lib.rochester.edu. Archived from the original on 14 February 2010.

3.Rennison, Nick. Robin Hood: Myth, History and Culture (Oldcastle Books, 2012).

ТАЪЛИМ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ – ИСЛОҲОТДА МУҲИМ ОМИЛ

Хусанова Дилафрўз Умиркуловна,
Навоий шаҳар 10-умумтаълим мактаб
“География ва иқтисодиёт асослари” фани ўқитувчиси
Бобожонова Зарина Анвар қизи
Навоий шаҳар 10-умумтаълим мактаб
Физика фани ўқитувчиси

Аннотация. *Ушбу тезисларда ҳозирги кундаёшларни илм-фанга кенг жалб қилиш, таълим тизимида янги, инновацион технологияларни ўзлаштириш асосида ўқувчиларнинг билим даражасини босқичма-босқич фаоллаштириш билан боғлиқ масалалар хусусида фикр юритилади.*

Калит сўзлар: *таълим, ислоҳот, маърифат, баркамоллик, Президент мактаби, педагог мавқеи.*

Мамлакатимиз ҳаётининг барча жабҳаларида тобора кенг қулоч ёйиб бораётган «Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари» тамойили таълим ислоҳотлари жараёнларини ҳам тўла қамраб олди. Ислоҳотларнинг кенг қамровлилиги, мамлакатимиз интеллектуал салоҳиятини ривожлантиришга қаратилган ўзгаришлар жаҳон ҳамжамиятининг эътиборини тортмоқда. Кейинги уч йилда Ўзбекистон Президентининг таълим-тарбия масалаларига бағишланган асарлари, Фармон ва Қарорларида ташаббускор, креатив, инновацион фикрлайдиган, малакали янги авлод кадрларини тарбиялаш ғояси устувор бўлиб, унинг асосида юртимизда боғчадан бошлаб олий ўқув юртигача – таълимнинг барча бўғинларида ислоҳотлар самарасини таъминламоқда. Бунда асосий эътибор фуқароларнинг, айниқса, ёш авлоднинг билимини ошириш, илммаърифатли, юксак маънавиятли қилиб тарбиялашга қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2019 йилнинг ўзида қабул қилинган иккита қарор юртимизда таълимни юксалтиришда чексиз имкониятлар яратди.Ушбу қарорлар педагог кадрларнинг янги авлодини қарор топтиришга қаратилган саъй-ҳаракатлар натижаси, ҳақиқатан ҳам юртимизда учинчи ренессанс даврига пойдевор қўйила бошлаганининг амалий ифодасидир.

Давлатимиз раҳбарининг 2019 йил 30 августдаги «Ёшларни илм-фан соҳасига жалб этиш ва уларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори иқтидорли ёшларнинг ташаббусларини қўллабқувватлаш борасида амалга оширилаётган ишларни янада жонлантириш, олимларнинг ёш, янги авлодини шакллантириш, мамлакат илм-фанининг халқаро миқёсдаги рақобатбардошлилигини таъминлаш, мавжуд илмий мактаблар салоҳиятини янада мустаҳкамлаш ҳамда уларнинг инновацион салоҳиятини ривожлантиришга йўналтирилган катта воқеа бўлди. Қарорга асосан ташкил этилган Ёшлар академияси энг иқтидорли ёшларни ўзига жалб қилиб, ўсиб келаётган янги авлоднинг илмий иқтидорини намойиш қилишга қулай имконият яратди.

Ёшларнинг илм-фанга мойиллигини қўллаб-қувватлаш маънавий қадриятларнинг барқарорлиги ва таъсирчанлигини таъминлабгина қолмай, мамлакатнинг келгуси тараққиётига тагзамин яратади, шу боисдан юртимизда «илм-фанга интилиш ва унинг жозибадорлик муҳитини шакллантириш»[1]таълим соҳасининг устувор вазифаларидан бири сифатида қўйилганлиги бежиз эмас.

Давлатимиз раҳбарининг 2019 йил 9 сентябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактабларни ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори эса иқтидорли ёшларни аниқлаш, танлаш, ўқитиш ва тарбиялаш, ёш истеъдодларни янада қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш, дарсликлар ва ўқув-услубий қўлланмаларни тайёрлаш ва нашр этишдаги муаммоларни бартараф қилиш ишларини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, шунингдек, умумтаълим муассасалари фаолиятини бошқариш ва

1 Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни//»Халқ сўзи», 2019 йил 30 октябрь.

ташкил этишнинг махсус тизимини яратишга қаратилган муҳим ҳужжат сифатида тарихда қолади.

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев 2019 йилнинг 10 сентябрида Тошкентда иш бошлаган Президент мактабига ташриф буюриб, фахрий меҳмонлар китобига дастхат ёзган эди. Унда Юртбошимизбугунги кунда мактаб таълимини ривожлантириш умуммиллий мақсадга, умумхалқ ҳаракатига, бутун жамиятнинг устувор вазифасига айланганлигини таъкидлаб,шундайсўзларнибаёнқилди:«ЯнгиЎзбекистонимизниюксактараққиётбосқичига кўтаришдек эзгу ниятимизга янгича ва мустақил фикрлайдиган, ўз Ватанини жондан ортиқ севадиган, унинг ёруғ келажаги учун садоқат билан хизмат қиладиган, фидойи ёшларни тарбиялаш орқали эришамиз. Ана шундай садоқатли ва баркамол кадрларни тайёрлаш мақсадида республикамизнинг ҳар бир ҳудудида мутлақо замонавий шаклдаги таълим муассасалари – Президент мактабларини ташкил этдик. Мен ишонаманки, бу масканлар жонажон Ўзбекистонимизнинг эртанги тақдирини ўз қўлига олишга, глобаллашув даврида кескин беллашув ва рақобатларда ғолиб бўлишга қодир шахсларни – янги Хоразмийлар, Фарғонийлар, Берунийлар, Улуғбекларни тарбиялаб етиштиради»[1].

Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактабларда халқаро ташкилотлар ва экспертларни жалб қилган ҳолда педагогик кадрларини танлаш, тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишнинг илғор ва шаффоф ташкилий-ҳуқуқий механизмларини жорий этишга алоҳида аҳамият берилмоқда.

Юртимизда ўқитувчига нисбатан ҳурмат муҳитини яратиш бобида ҳозиргидек амалий ишлар қилинган эмас. Давлатимиз раҳбарининг ушбу шарафли касб соҳибларига бўлган ғамхўрликлари боис бугун ўқитувчининг мавқеи ортиб, жамиятдаги энг обрўли инсонга айланиб бормоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ҳузурида 2019 йил 23 август куни Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ва жамиятда ўқитувчи мавқеини ошириш масалаларига бағишлаб ўтказилган видеоселектор мажлисида «Бу касбнинг обрўсини фақат ўқитувчининг ўзи фидокорона меҳнати, ўз устида тинимсиз ишлаши, бошқаларга ўрнак бўлиши билан ошира олади. Биз энди жамиятимизда ўқитувчиларни «сиз»лаб, уларнинг шаъни ва ҳурматини бошимизга кўтарадиган, уларни том маънода келажак бунёдкорлари, деб улуғлайдиган муҳитни яратишимиз зарур»[3], деб алоҳида таъкидлангани бунинг амалий ифодасидир.

Хулоса сифатида қайд қилиш мумкинки, бугун таълим тизимида энг янги, инновацион технологияларни ўзлаштириш ва уларни таълим жараёнига кенг жорий қилиш асосида ўқувчиларнинг билим даражаларини босқичма-босқич фаоллаштириш, мустақил изланиш мотивациясини шакллантириш орқали соҳани янги босқичга олиб чиқиш сари жадал ҳаракат бошланди. Айнан таълим олувчиларнинг эгаллаган билим, кўникма, малака ва компетенциялари даражасини баҳолашнинг халқаро мезонлари ёрдамида талаба ва ўқувчилар фаолиятидаги бўшлиқларни бартараф этиш мумкин бўлади. Таълимнинг ҳозирги даврдаги мақсадларини аниқ белгилаш, унга эришиш, ўқувчи эгаллаган билим натижаларини ташхислаш таълим тизимини ривожлантиришнинг муҳим омилидир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни//»Халқ сўзи», 2019 йил 30 октябрь.

2. Ўзбекистонда учинчи Ренессанс даврига пойдевор қўйилди//»Халқ сўзи», 2019 йил 11 сентябрь.

3.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ҳузурида 2019 йил 23 август куни Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ва жамиятда ўқитувчи мавқеини ошириш масалаларига бағишлаб ўтказилган видеоселектор мажлиси// «Халқ сўзи», 2019 йил 24 август.

1 Ўзбекистонда учинчи Ренессанс даврига пойдевор қўйилди//»Халқ сўзи», 2019 йил 11 сентябрь.
[3]«Халқ сўзи», 2019 йил 24 август.

BOSHLANG’ICH SHINFLARDA ONA TILI, O’QISH, MATEMATIKA FANLARINI O’QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA ULARNI DARS JARAYONIDA QO’LLASH

Yo’ldasheva Zaynab Erkinboyevna
Urganch shahar 19-son IDUMning
boshlang’ich sinf o’qituvchisi
Jumamurotova Farog’at Baxramovna
Urganch shahar 19-son IDUMning
boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolaning mazmun-mohiyati quyidagicha, ta’lim sohasida bugungi kundagi olib borilayotgan islohatlar, pedogoglar zimmasidagi mas’uliyat, boshlang’ich shinflarda ona tili, o’qish, matematika fanlarini o’qitishda zamonaviy metodlar va ularni dars jarayonida to’g’ri qo’llashda taklif va tavsiyalar.*

Kalit so’z: *boshlang’ich sinf, savodxonlik, matematika, “To’g’ri yo’l”, ona tili, o’qish, qiziqarli metod*

Zamon bilan hamnafaslikda ildam qadam tashlash uchun eng so’nggi yangiliklardan doimo xabardor bo’lish lozim. Bugungi davr texnika davriga aylanib ulgurgan bir paytda, internet, mobil telefon, kompyuter har bir xonadonda turmush tarzining bir bo’lagiga aylanib ulgurmoqda. Mana shunday zamon avlodlarini voyaga yetkazish va ularga ta’lim-tarbiya berish esa murakkablashib bormoqda. Oddiylik bilan chegaralanib qolish, yoshlarni allaqachon qiziqtirmay qo’ygan. Shu bois, yangiliklar yaratish, izlanish va harakatda bo’lish bugungi kunning talabiga aylandi.

Barcha sohalar singari, ta’lim sohasida ham keyingi yillarda juda katta o’zgarishlar kuzatilmoqda. Chet davlatlari bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar samarasi o’laroq, sezilarli darajada yuksalishga erishilmoqda desam adashmagan bo’laman. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan bir qancha qarorlar, ta’lim sifatini oshirishga, yanada takomillashtirishga xizmat qilib kelmoqda.

Bolaning maktab dunyosiga kirib kelgan kunidan qo’llaridan tutib, qoqilmasdan keyingi bosqichga o’tib olishida boshlang’ich sinf o’qituvchilari asosiy ro’l o’ynaydi. Shu sababli, ular zimmasiga katta mas’uliyat yuklatiladi. O’quvchi bu dargohda dastab qalam ushlab yozishni, o’qishni, matematik savodxonlikni o’rganadi. Ona Vatanga mehr qo’yishda, bizni o’rab turgan tabiat bilan tanishishda asosiy vositachi o’qituvchi hisoblanadi. Har bir oila farzandi har xil fe’l atvorga ega. Har bir oilaning tarbiyasi bo’lakcha. Sinfda 25 o’quvchi bo’ladigan bo’lsa, ular o’rtasida do’stona munosabatni shakllantirish, inoqlikka, birdamlikka, zukkolikka o’rgatishda pedogogik mahorat talab qilinadi. Dars jarayonida nazariy tushunchalarni hayotiy misollar bilan boyitib borish bilimlarning o’quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga katta yordam beradi. Bugungi kunda dars jarayonini samarali tashkil qilishda juda ko’p zamonaviy metodlar bor. Shunchaki, metodlarni mavzuga moslagan holda tashkil qilish o’qituvchining epchilligiga bog’liq. “Rolli o’yin”, “Fikrlar hujumi”, “BBB”, “Yumaloqlangan qor”, “Bumerang”, “Sinkveyn”, “FSMU” kabi texnologiyalarni dars jarayonida qo’llash yaxshi natija beradi. Ayniqsa, matematika darslarida “Aqliy hujum” usulini mavzularni mustahkamlashda, “Top top” usulini karralarni o’rgatishda, “Kimda bor” usulini shakllarni taqqoslashda, “SWOT” usulini minglik, yuzlik, o’nlik, birliklarni o’rgatishda qo’llash mumkin. Bu kabi usullar o’quvchida matematik tushunchalarni yaxshi o’zlashtirishda, dastlabki bilimlarni mustahkam egallashda yordam beradi. O’rgatilgan har bir nazariy tushuncha bilan birgalikda misollarni hayotiy olish va o’quvchining turmush tarzida uchraydigan hodisalarga bog’lash xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishga sabab bo’ladi.

Ona tili, o’qish darslarida esa matematikadan farqli, og’zaki va yozma nutqni shakllantirishga qaratiladi. Darslarda ko’proq o’quvchini gapirtirish, fikrini erkin bayon qila olishga, ravon, so’zlarni bexato talaffuz qilishga o’rgatish fanning asosiy maqsadi hisoblanadi. Mustaqil ravishda ertak kitoblar, hikoyalar o’qish, ko’proq she’r yod olishga o’quvchini unday olish o’qituvchi mahoratga bog’liq. Qiziqish uyg’otish uchun har bir darsni shunchaki, nomigagina tashkil qilmasdan, yangiliklar, kutilmagan vaziyatlar asosida olib borish o’quvchiga ham zavq bag’ishlaydi, ham fanga nisbatan mehr uyg’otadi. Men, asosan, darslarni tashkil qilishda qiziqarli metodlarni o’zim yaratishga va har bir darsim takroriy bo’lmasligi uchun harakat qilaman. Matematika, o’qish va ona tili darslarida ham barobar yaxshi natija beradigan qiziqarli mashg’ulotdan foydalanishni

tavsiya qilaman.

“To’g’ri yo’l” mashg’uloti o’quvchilarni zukkolikka, bilimlarni mustahkamlashga, aqlini charxlashga o’rgatadi.

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi:

1. O’quvchilar bir nechta guruhlarga bo’lib olinadi, har bir guruhga mavzuga mos nom tanlanadi;
2. Botmon qog’ozga bir nechta yo’llar va bu yo’llarga savollar asosida tuzilgan to’siqlar qo’yiladi. Savollarning javobi ham yo’ldagi doirachalarda aks etgan bo’ladi;
3. Guruhlar galma galdan chiqib, yo’ldagi to’siqlarga ilingan savollarga javob izlashadi, to’siq ortida ikkita yo’l va shu yo’llardagi doirachalarga to’g’ri va noto’g’ri javoblar yozilgan bo’ladi;
4. O’quvchi to’g’ri javobni topsa manzilga bora oladi, noto’g’ri javobni topsa yo’ldan adashadi;
5. Mashg’ulot shu tarzda davom etadi;
6. Guruhlarning manzilga tez va aniq bora olganligiga qarab rag’batlantiriladi.

“To’gri yo’l” mashg’ulotini ona tili darslarida so’z turkumlari, gap bo’laklari, takrorlash darslarida qo’llash, matematika darslarida shakllarni o’rgatish, taqqoslash, ko’paytirish, ayirish va bo’lish amallarini bajarishda, o’qish darslarida ertaklarni mustahkamlashda qo’llash tavsiya qilinadi.

O’qituvchining mahorati o’quvchining egallagan bilimi va tarbiyasi bilan baholanadi. Uning ko’zgudagi aksi ta’lim berayotgan o’quvchilari hisoblanadi. Shu boisdan, ta’lim va tarbiya berishdagi har bir daqiqamiz bizga kelajakdagi yosh avlodni borar manzilini belgilab berishini chuqur his qilgan holda, astoydil harakat qilishimiz lozim. Zero, kelajak yosh avlod istiqboli bilan belgilansa, ularni yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalash, biz, aziz ustozlar, qo’lida. Mana shunday, mashaqqatli yo’lda sinmas iroda va kuch-g’ayrat hech birimizni tark etmasin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini targ’ib qilish bo’yicha komissiya tuzish to’g’risida. / “Xalq so’zi” gazetasi, 2017-yil 13-yanvar
2. Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarini shakllantirish nazariyasi. – T.: “Ilm-Ziyo”, 2005
3. Ziyo.net

МЕДИАТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ МЕХАНИЗМИ

Ёрқулова Маржона Шухратовна,
Навоий давлат едагогика институти
Инглиз тили ва адабиёти таълим йўналиши
2-босқич магистранти
Илмий раҳбар: Ахмедова Малоҳат Эргашевна

Педагог олимлар медиа таълим хорижий тилларни ўрганишнинг хусусиятларини инобатга олган холда ўқувчиларда тушунарли, эсда қоларли бўлишини таъминловчи таълим усули эканини эътироф этганлар.

Ўқувчи ўқитувчининг оғзаки маърузасидан кўра кўргазмали воситалардан фойдаланиб тушунтиришидан кўпроқ таъсирланар экан. Ана шунда улар етказилаётган мавзуни кўпроқ ёдида сақлаб қолади. Ўқувчиларда бундай дарсларга нисбатан қизиқиш юқори даражада бўлади.

Демак, хорижий тилларни ўқитишда бундай илғор усулдан фойдаланиш фойдадан холи бўлмайди. Медиа таълим педагогикадаги янги йуналиш бўлиб, телевидения, Интернет сайт ва порталлари оркали аудио-видео материаллар ва мультимедиа воситалари асосида ўқитишга асосланади.

Мультимедиали воситалар деганда бир вақтнинг ўзида харакатланадиган тасвир, видеофильм, анимацияли график образлар, матнли товушлар уйғунлигида амалга ошириш имконини берувчи интерфаол воситалар тушунилади. Мультимедиали ўқув материали босма материал, товушли, видеоли ва анимацион элементларни ўзида мужассамлаштирган ўқув материалидан иборат бўлиб, табиийки, бу атама компьютер хотирасидаги ёки дисклардаги маълумотларга нисбатан ишлатилади. Электрон таълим ресурслари борасида унумдорликни ошириш максадида педагог- кадрлар уларга расмлар, фотосуратлар, товушли фрагментлар ва албатта, анимация ва видео киритишга харакат килади. Ресурс ва технологияларга мувофиқ тавсифланувчи замонавий сўз “мультимедиа” таълимда кенг ёйилди ва педагоглар томонидан ўз ишларини амалга оширишда кенг фойдаланилмокда. Мультимедиа тизимларининг юзага келиши инсон фаолиятининг кўпгина жабхаларида инқилоб ясади.

Мультимедиа технологиялари узининг энг кенг қўлланилиш соҳаларидан бирини таълим доирасида қўлга киритди. Мультимедиага асосланган ахборотлаштириш воситалари бир катор имкониятлари билан таълим самарадорлигини сезиларли оширишга кодир бўлиб колди. Шуни тушиниш муҳимки, бошқа кўпгина сўзлар каби “мультимедиа” сўзи ҳам бирваракайига бир неча турли маъноларга эга.

Мультимедиа - ишлаб чикариш тартиби, турли типдаги ахборотларни кайта ишлаш воситаларини ишлатиш ва татбик килишни тавсифловчи технологиялар, турли типдаги ахборотларни қайта ишлаш ва такдим этиш технологиялари асосига қурилган ахборот ресурси; турли типдаги ахборотларни кайта ишлаш ва такдим этишга боғланган холда ишлайдиган компьютер дастурий таминоти; турли типдаги ахборотлар билан ишлашга имкон берадиган компьютер аппарат таъминоти.

Анъанавий статик визуал (матн. графика), шу билан бирга динамик (нутқ мусиқа аудио-видеофрагментлар, анимация ва хк.) характерли турли типдаги ахборотларни ўзида бирлаштирувчи ахборотнинг ўзига хос умумлаштан куриниши. Демак, кенг маънода “мультимедиа” термини фойдаланувчига (бир вақтнинг ўзида хам мутоала қилувчи ҳам эшитувчи, хам кузатувчи бўлган) янада самарали таъсир кўрсатиш максадига йўналтирилган турли хил дастурий ва техник воситаларни кўллайдиган ахборот технологиялари спектрини ифодалайди.

Мультимедиа воситалари ва технологиялари аудиовизуал ахборотларни замонавий кайта ишлаш усулларини татбиқ қилиш билан таълимни унумдорлигини ошириш ва таълим олувчиларнинг ўқишга бўлган қизиқишини янада орттириш имкониятларини яратади. Ахборотлаштириш воситаларида мультимедианинг қўлланилиши туфайли график, товушли ва видеоли ахборотларни бир вақтда таъсир кўрсатиши ҳисобига бундай воситалар катта таъсир кучига эга бўлиб, кўнгилочар воситалар саноатида, турли хил идоралар касбий амалиётида, уйда бўш вақтда, таълимда фаол тарғиб этилади.

Мультимедиада интерактивлик - хорижий тилни ўрганувчи қабул килинган ахборот натижасида берилган топшириқни бажариши ва унга ресурснинг ўқитувчининг муносабати сифатида тескари (қайта) алоқа билдириш холатини англатади. Интерактивликни қўллаш мультимедиа воситасини ижобий томонларидан бири хисобланади.

Мультимедиа технологиялари ахборотларни кўпгина кўринишларини маъно жиҳатидан ва ўзаро монандлик асосида бирлаштиришга имкон беради. Бу эса компьютер ёрдамида ахборотни таълимда тез-тез фойдаланиладиган қуйидаги хилма-хил шаклларда тақдим қилишга имкон беради: сканерланган фотосуратлар, чизмалар, хариталар ва слайдларни ўз ичига оладиган тасвирлар; товуш ёзуви, товушли эффектлар ва мусика; видео, мураккаб видеоэффектлар; анимация ва аннимацияли ўхшатишлар. Кўпинча диалогда икки томон иштирокидаги ахборот алмашинуви назарда тутилади. Фанда диалогнинг кенгроқ тушунчаси учрайди, унинг асосий аломати сухбатдошларни нутқий хабарлари алмашинуви эмас, балки бир неча фикрларни мавжуд бўлиши хисобланади. Таълим берадиган мультимедиа ресурси билан ишлашнинг муаммаллик кўрсаткичи деб ўқитувчи билан битта таълим олувчи диалогига мувофиқ келувчи ягона ўзаро алоқани ҳисоблаш мумкин. Диалогни тавсифлайдиган асосий психологик омиллар сифатида куйидагиларни келтириш мумкин:

• Диалог куришнинг умумпсихо логик тамойиллари;

• Мулокот жараёнини ташкил килиш;

• Тилшунослик нўқтаи-назаридан (мулокот тилини танлаш, хабар матнини тузиш, унинг шакли, улчами ва х к);

• Мулокотнинг модаллиги (ахборопш баён килиш ва таълим олувчилар жавобининг тури);

• Мулокотнинг мазмуни жихати.

Мультимедиа воситаларининг интерактивлиги ўқитувчи ва таълим олувчилар томонидан таълим жараёнига таъсир этиш имкониятларининг кенг доирасини ва ўқув материаллари таркибини тўлдириш кўзда тутади.

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH: O’TMISH VA BUGUN

Yulchiyeva Umida Muradullayevna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
191-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi
o’zbek tili fani o’qituvchisi

Annotation. The article discusses the history, current status, problems and solutions of teaching Uzbek as a foreign language. There are also some statistical data, analysis, and practical suggestions, which help to reveal current status of Uzbek language as a second or foreign language. Moreover, article informs about condition of teaching materials, some online platforms, level of language proficiency, collection and enrichment of resources.

Keywords: foreign language, second language, teaching methods, history, current status.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilini xorijy til sifatida o‘qitish tarixi, hozirgi holati, u bilan bog‘liq muammo va yechimlar xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, o‘zbek tilini xorijiy yoki ikkinchi til sifatida o‘qitishning joriy holatini ochib berish uchun bir qancha statistik ma’lumotlar, tahlil va amaliy yechimlar keltirib o‘tiladi. Bundan tashqari maqolada o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish materiallarining holati, onlayn platformalar, til bilish darajasi, resurslarni boyitish choralari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Xorijiy til, ikkinchi til, o‘qitish metodikasi, tarixi, hozirgi holati.

Yer yuzida tillarning yo‘qolib ketishi, yoki aksincha takomillashib taraqqiy etishi o‘sha til egalarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy holati bilan bevosita va bilvosita bog‘liqdir. Muayyan xalq elat yoki davlat sifatida jahon shohsupasida balandroq ko‘tarilib, mavqeyi, obro-e’tibori, nufuzi ortib borar ekan, o‘sha xalqning ona tili ham jamiyat va davlatga homahang tarzda har tomonlama muhim ahamiyat kasb etib boraveradi. Xususan, mustaqil O‘zbekistonning dunyo hamjamiyati oldidagi nufuzi yildan-yilga ortib boravergani sayin, biz bilan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hamkorlik qilish istagini bilduruvchilar miqdor va makon jihatidan ko‘payib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida jahon miqyosida o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tiborda ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. O‘zbek tilini xorijiy yoki ikkinchi til sifatida o‘rganish harakatlari bir necha yillardan buyon u yoki bu shaklda yuzaga kelib, takomillashib bormoqda. Bu jarayonlarga xalqimiz boshidan kechirgan tarixiy jarayonlar, siyosiy va iqtisodiy omillar o‘z ta’sirini o‘tkazib kelgan va bu haligacha davom etmoqda.

O‘zbek tilini ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o‘qitish o‘zining navbatdagi bosqichiga o‘tgan asrning o‘rtalarida ko‘tarilgan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Mavjud manbaalarni tahlil qilsak, o‘tgan asrning 60-yillarida Amerikaliklar tomonidan o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganish uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan. Bu darslik va qo‘llanmalarni tuzishda o‘zbek tili mutaxassislari ishtiroki yuqori bo’lmaganligi bois, ularda xato va kamchiliklar seziladi. Lekin o‘sha yillarda o‘zbek tilshunoslari tomonidan bu borada deyarli hech narsa qilinmagan edi. O‘tgan asr o‘rtalaridan yangi asr boshlarigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida o‘zbek tilini ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o‘qitish uchun bir qancha darslik va qo‘llanmalar xorijlik va mahalliy mutaxassislar tomonidan ishlab chiqildi va amaliyotda foydalanildi. O‘tgan yillar mobaynida dunyoning turli davlatlarida mamlakatshunoslik, til va tadqiqot markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu markazlarda va bir nechta xorijiy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili bilan bog‘liq tadqiqot va izlanishlar olib borish va uni xorijiy til sifatida o‘qitish faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

XXI asr boshlariga kelib bu jarayonlar o‘zining yangi bosqichiga ko‘tarildi. Oradan salkam chorak asr vaqt o‘tdi va bugungi kunga kelib chet elliklar tomonidan o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan intilish, qiziqish toboro ortib bormoqda. Hozirgi kunda bir qator davlatlar, xususan, Koreya, Yaponiya, Hindiston, AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoyda mamlakatshunoslik doirasida O‘zbekistonni o‘rganishga e’tibor qaratgan ilmiy tadqiqot markazlari mavjud. O‘zbek tili Amerika Qo‘shma SHtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, SHvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston kabi davlatlarning oltmishga yaqin universiteti va yuzdan ortiq maktablarida o‘rganilmoqda. Hozirgi kunga kelib o‘zbek tili va madaniyatini o‘rgatuvchi, tadqiq etuvchi oliy ta’lim muassasalari, markazlar va assotsiatsiyalar soni 60 dan ortiq. Xususan, Amerikaning 8 ta shtatida Arizona, Indiana, Texas, Michigan, Ogayo, Nyu-York, Yaponiyaning

8 ta universitetida, Koreyaning Busan, Kyokl universitetlarida, Germaniyaning 4 ta oliy ta’lim muassasasida, Xitoyda, Hindistonda, Turkiyada 18 ta, Qozog‘istonda va boshqa qardosh xalqlarda xorijiy til sifatida o‘qitilishi o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqishni yanada orttirmoqda. O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish ishtagidagi xorijlik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko‘paymoqda.O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari uzoq yillardan buyon tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lganligiga qaramay, bu boradagi muammolar hali o‘z yechimini topgani yo‘q [2, 51-bet].

Bugungi shiddat bilan ketayotgan globallashuv davrida o‘zbek tilini ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o‘qitish bo‘yicha mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olgan holda zamon va ilm fan talablariga javob beruvchi tizimli ishlarni amalga oshirish tilshunoslarimiz va soha mutasaddilari oldida turgan dolzarb vazifa sanaladi. Yaqin kelajakda bajarilishi kun tartibida turgan vazifalarga o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning A1 A2, B1 B2 darajadagi izchillik asosida tuzilgan dasturlarini hamda tizimli dastur asosida qardosh tillar va noqardosh til egalariga til o‘rgatish darsligini ishlab chiqish, shuningdek, til o‘rgatishga yordamchi vositalar bo‘lib xizmat qiladigan elektron resurslar, o‘zbek tilining milliy korpusi va universal grammatikasini yaratish hamda o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish metodikasini ishlab chiqish kabilarni kiritishimiz mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, o‘zbek tili bilimini baholash tizimini yaratish va daraja sertifikati berishni joriy etish, mustaqil ta’lim tizimini shakllantirish, xorijiy til sifatida o‘qitish bo‘yicha maxsus metodika asosida, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida onlayn darslar va platform yaratish hamda o‘zbek madaniyatini targ‘ib etuvchi videoroliklarni yaratish va ularni keng miqyosda targ‘ib etish kabilar yuqoridagi maqsad va vazifalarning izchil mantiqiy davomi hisoblanadi. Yuqorida sanab o‘tilgan ishlarning ba’zilarini bajarish uchun qo‘l urilgan. Lekin ular nihoyasiga yetmay qolgan yoki qoniqarsiz holatda. Masalan: o‘zbek tilini masofaviy tarzda o‘rganish yoki mustaqil o‘qish uchun pulli va tekin onlayn sayt lar ishlab chiqilgan. Ammo ularning aksariyati talab va takliflardan kelib chiqib rus, ingliz va boshqa millat vakillari tomonidan yaratilgan.

Masalan: teachyourselfuzbek.com sayti muallifi amerikalik xavaskor til o‘rganuvchi Brain Greko bo‘lib, u saytda joylashtirgan elektron resurslar talabga javob bermaydi va xorijlik til o‘rganuvchida noto‘g‘ri tushuncha, tasavvur va chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Bu saytning talabga javob bermasligiga sabab esa o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish uchun muvofiq keluvchi resurslarning mavjud emasligi hamda sayt muallifining o‘zbek tili mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlamaganligidir. Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilini xorijiy tilsifatida o‘qitish borasida yuzaga kelgan ehtiyoj “bo‘shlig‘” ini xorijliklarning o‘zi to‘ldirishga harakat qilyapti. Tabiiyki, ular o‘zbek tilining real muhitini his qila olmaganligi bois chalkashlik va xatolarga yo‘l qo‘yishmoqda. Ana shu holatlarga chek qo‘yish uchun o‘zbek tili posponlari va mutaxassislari yuqorida sanab o‘tilgan ustuvor vazifalarni birdamlik va tirishqoqlik bilan amalga oshirishi davr talabiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barak, M. (2017). Science teacher education in the twenty-first century: A pedagogical framework for technology-integrated social constructivism. Research in Science Education, 47(2), 283-303. doi: https://dx.doi.org/10.1007/s11165-015-9501-y

2. Ergasheva G. Global ta’lim va milliy metodika masalalari O‘zbek tilini ikkinchi sifatida o‘qitish: muammo va mulohazalar., Toshkent,. 2019.51.

3. Ergasheva G.. Issues of creating an online platform for teaching uzbek language as a foreign language. India. Academia.2020. 4. Marin, V., Sampedro, B. E., & Vega, E. (2017). Percepciones de los estudiantes universitarios sobre las plataformas de formacion. estudio de caso [Perceptions of University Students about Training Platforms. Case Study]. Revista Iberoamericana De Educacion a Distancia, 20(1), 283-303. doi: https://dx.doi.org/10.5044/ried.20.1.16518.

5. Sakayeva L. , Baranova A. Методика обучения иностранным языкам, Kazan 2016.

802-SONLI BUYRUQ DAVLAT STANDARTLARI

Yunusova Nilufar Musurmonovna
Quvasoy pedagogika kolleji

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta`lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to`g`risida”gi 802-sonli Qarori muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: ta`lim, qaror, tamoyil, maktabgacha ta`lim, tarbiya.

KIRISH

Mazkur davlat standartining asosiy maqsadi maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Davlat standartining maqsadi maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish hisoblanadi. Uning vazifalari qatorida ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etish ham bor.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standartida quyidagilar nazarda tutilgan:

- davlat standartining maqsadi va asosiy vazifalari;
- maktabgacha ta’limning namunaviy o‘quv rejasi;
- davlat standartini joriy etish va uning talablariga rioya etilishini nazorat qilish;
- davlat standarti komponentlari, xususan:

- ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari;
- maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat o‘quv dasturi;
- davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar to‘plami, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsiya vositalari bilan jihozlash normalari.

Davlat standartining asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi:

- tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;
- har bir bolaning, shu jumladan jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirish imkoniyatining tengligi;
- davlat standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga mosligi;
- maktabgacha ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi;
- maktabgacha ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;
- maktabgacha ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanganligi;
- xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Davlat talablarining maqsadi — mamlakatda o’tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg’or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Davlat talablarining asosiy vazifalari quyidagilar iborat:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarini joriy etish;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlashdir.

XULOSA VA MUNOZARA

Davlat standartining asosiy tamoyillari bo‘lgan tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi, har bir bolaning, shu jumladan jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirish imkoniyatining tengligi, davlat standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga mosligi, maktabgacha ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi, maktabgacha ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi, maktabgacha ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanganligi, xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish kabilar ham bolalarimizni ham jismonan ham ma’nan va aqlan yetuk shaxslar bo‘lib yetishishiga zamin hozirlaydi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

www.lex.uz
www.norma.uz
www.xs.uz
www.lib.ru

INTERFAOL METODLARNING O’QUVCHILARDA OG’ZAKI VA YOZMA HISOB MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Yusupova Madina Shavkatovna
Xorazm viloyati urganch shaxar
19-IDUMning boshlangich ta’lim fani o’qituvchisi
Otaqulova Ikbol Muminovna
Xorazm viloyati urganch shahar
19- IDUMning boshlang’ich ta’lim fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada ta’lim texnologiyalari va interfaol metodlarning o’quvchilarning og’zaki va yozma hisob malakalarini rivojlantirishdagi ahamiyati, darsda o’quvchilar faolligini oshirib ular orasida do’stona muhitni yuzaga keltiruvchi omil ekanligi,ularning komil inson bo’lib yetishishlarida hayotiy ko’nikma va axloqiy sifatlarning shakllantirishdagi o’rni va mohiyati yoritib berilgan.*

Kalit so’zlar: *innovatsion metodlar, interfaol, “Matematik domino” texnologiyasi, “Hozirjavob qalpoqchalar” metodi, kreativlik, Kenguru, PIRLS.*

O’sib kelayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash azal- azaldan milliy pedagogikamiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo’lib kelgan. Bu mas’uliyatni ado etish esa birinchi navbatda boshlang’ich sinf o’qituvchilari zimmasiga yuklangan. Barchamizga ayonki, boshlang’ich sinf o’qituvchisi o’z kasbining chin fidoyisi, bilimdoni, jonkuyar, ijodkor ustoz bo’lsagina, Vatanimiz kelajagi bo’lgan yosh avlod ta’lim- tarbiyasining poydevori pishiq va mustahkam bo’ladi.

Poydevor qanchalik mustahkam bo’lsa, imoratning umri shunchalik uzun bo’lganidek, o’quvchilarga 1- sinfdayoq puxta bilim berilsa, shu o’quvchi keyinchalik har qanday murakkab dasturlarni qiynalmay o’zlashtira oladi. Buning uchun shu poydevorni yaratuvchisi ya’ni boshlang’ich sinf o’qituvchisi tinmay o’z ustida ishlashi, izlanishi kerak bo’ladi. Boshlang’ich ta’limning muhim jihatlaridan biri o’quvchilarda og’zaki hisoblash malakalarini shakllantirishdan iborat.

Hammamizga ma’lumki, 2019-yil umumiy o’rta ta’lim maktablarining 3-sinflari uchun matematika fanidan yangi, avvalgiga qaraganda bir muncha murakkab mavzularni o’z ichiga olgan darslik joriy qilindi. Lekin, biz bilamizki, o’quvchilarning hammasi ham iqtidorli emas. Bu darslikda berilgan materiallarni sinfdagi barcha o’quvchilar birdek o’zlashtira olishmaydi. Darslikdan o’rin olgan murakkab tenglamalar, fazoviy jismlar va geometrik mazmundagi masalalar, kasrlar va murakkab masalalar bilan biz o’quvchilarni 4- sinfda tanishtirar edik. Noto’g’ri kasrlar, o’nli kasrlar va ular ustida amallar bajarish mavzulari esa yuqori 5- sinf dasturidan joy olgan edi.

Ushbu mavzularni o’quvchilar yaxshi o’zlashtirishlari uchun o’quvchilarning mantiqiy fikrlashi, dunyoqarashi, ularning tafakkurini kamol toptirish, og’zaki hisob malakalarini rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratish lozim.

O’quvchilarning og’zaki hisoblash qobiliyatlari yuqori darajada bo’lishi esa darslarni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib tashkil etish, ilg’or metod va usullar, hisoblashning oson va qulay usullari yordamida, o’yinlar orqali o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishlarini orttirishga erishishga bog’liq.

Men o’z darslarimda o’quvchilarimning og’zaki hisob malakalarini rivojlantirishda quyidagi pedagogik texnologiyalardan va usullardan foydalanaman.

“ Matematik domino “ texnologiyasi.



Bu texnologiyadan yakka tartibda ham, kichik guruhlarda ishlashda ham qo’llab musobaqa tarzida foydalanish mumkin. Bu metod o’quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlashga o’rgatib,

ularda do’stona munosabatlarni shakllantirib, faollikka undaydi, o’quvchini o’z- o’zini fikrlashga majbur etishga chorlaydi. Topshiriqni bajarib,“Finish”ga birinchi bo’lib yetib kelgan o’quvchi yoki guruh g’olib hisoblanadi. Ushbu metoddan barcha sinflarda va barcha fanlardan foydalanish mumkin**.**

“Hozirjavob qalpoqchalar” metodi.

Bu metoddan barcha fanlarda foydalanish mumkin. Ayniqsa, matematika fanida masalalarni yechish jarayoniga juda mos keladi. Masalalarni yechishning bosqichma- bosqich amalaga oshirilishi, a’lo natijalar garovidir. Bu metoddan ayni shu maqsadda foydalaniladi. Bunda qalpoqchalarning soni 6 ta bo’lib, ranglari har xil, oq, qizil, qora, sariq, yashil va ko’k ranglarda bo’ladi. Har bir qalpoqcha o’quvchilar zimmasiga ma’lum bir vazifani yuklaydi. Qalpoqni kiygan o’quvchi o’sha qalpoqqa tegishli bo’lgan shartni bajarishi lozim bo’ladi.

1. Oq qalpoqchani kiygan o’quvchi masalaning shartini o’qiydi.

2. Qizil qalpoqchani kiygan o’quvchi masalada nima haqda gap ketayotganligi haqida fikr bildiradi.

3. Qora qalpoqchani kiygan o’quvchi masalada nimalar ma’lum, nimalar noma’lum ekanligini aniqlab beradi.

4. Sariq qalpoqchani kiygan o’quvchi masalaning qisqa shartini tuzadi va chiqib xattaxtaga yozadi.

5. Yashil qalpoqchani kiygan o’quvchi masalaning yechimini aytadi va yozadi,

6. Ko’k qalpoqchani kiygan o’quvchi esa masalaning javobini aytadi va yozadi.

Bu metod o’z nomi bilan o’quvchilardan hozirjavoblikni talab qiladi. Ushbu metoddan foydalanilganda sinfdagi har bir o’quvchi “Balki, qalpoqni kiyish menga topshirilar?” degan fikr bilan qalpoqlardagi har bir savolga tayyor bo’lib turadi. Shu orqali sinfdagi barcha o’quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi oshiriladi.

Ushbu metod “Algoritm” metodining davomchisi bo’lib, o’quvchilarning masala yechish malakalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Har bir qalpoqcha qanday vazifani bajarishi o’quvchilar ongida muhrlanib qoladi. Bu esa masalani bosqichma- bosqich, tahlil qilib bajarish ko’nikmasini hosil qiladi. Bu esa ayni damda masalani tez, oson va to’g’ri yechishning garovi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablari matematika dasturiga taalluqli masalalar boshlang’ich sinflardayoq shu darajada mustahkam o’zlashtirilishi kerakki, o’quvchilar ongida uzoq vaqt saqlanib qolsin.Shu bois boshlang’ich sinf o’qituvchisi ayniqsa birinchi va ikkinchi sinflarda mas’uliyatni har qachongidan ko’ra chuqurroq his qilishi, hamda qunt va sabr bilan ishlashiga tog’ri keladi.

Yuqoridagi metodlar o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishlarini oshirish va mavzularni chuqur o’zlashtirib, uzoq vaqt bolalar yodida saqlanib qolishida, ularning og’zaki va yozma hisob malakalarini rivojlantirishda, kreativlikka o’rgatishda, motivatsiya berishda, o’quvchilarni xalqaro yo’nalishdagi Kehguru va PIRLS tanlovida ishtirok etish malakalarini hosil qilishda turtki bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ishmuhamedov R,Abduqodirov A, Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar.Amaliy tavsiyalar.-T.:”Iste’dod jamg’armasi,2008.-180-b.

2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.-T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011.- 275 b.

3. Matematika darsligi 3- sinf S.Burxonov, O’.Xudoyorov,Q.Norqulova, N. Ro’zikulova, L.Goibova Abdurahmonova, L. O’rinboyeva “SHARQ” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyatinToshkent- 2019.

4. WWW. Google. com

СКАЗКОТЕРАПИЯ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.

Ачилова Лайло Фахриддиновна
учитель начальных классов СШ №1 с УИИЯ
Навоийской области, г. Зарафшана.

Введение. На сегодняшний день современное общество ставит завышенные требования к уровню развития человека и личности. Это связано со сложными условиями роста социальной конкуренции, в которых современному человеку просто необходимо творчески мыслить, применять накопленные знания и навыки только с креативной стороны. Из этого следует, что проблема формирование творческого мышления младших школьников носит и социальный характер.

Изложение основного материала. Сказка представляет собой один из любимейших жанров детей, которая также является и уникальным средством, создающим благоприятные условия для развития творческого мышления у детей. В ходе анализа сказка требует от ребенка определенного рода рассуждений, тем самым косвенно осуществляется обучение и развитие младшего школьника. Еще великим нашим соотечественником В.А.Сухомлинским было отмечено, что сказка является свежим ветром, раздувающим огонек детской мысли и речи, так как ребенку свойственно мыслить образами, а в свою очередь клетки детского мозга могут функционировать только притом условии, когда образ выступает объектом восприятия и осмысления.

Анализируя содержание сказки и установление младшим школьником связи содержания, младший школьник учится мыслить, находить поучительный аспект. Именно поэтому сказкотерапию можно рассматривать и как инструмент развития, так как в процессе придумывания, слушания и обсуждения сказки у младшего школьника развивается основные механизмы принятия и поиска решений.

Сказкотерапия- это воспитательная система, предметом которой является процесс воспитания внутреннего мира младшего школьника. Сказкотерапия включает в себя ряд задач таких как: гармонизация внутреннего мира младшего школьника, развитие способности преодолевать страхи и трудности, снижение уровня тревожности и агрессивности, выявление и развитие творческих способностей, формирование умения выражать эмоции. Для сказкотерапии характерно выполнение таких функций как: креативная, социализирующая, терапевтическая, культурно-этническая и эмоциональная.

Развитие творческого мышления путем применения сказкотерапии на уроках в начальных классах напрямую связано с нравственной составляющей сказки. Именно по этой причине одним из важнейших условий развития творческого мышления младших школьников является эмоциональные переживания ребенка. Задача перед учителем на данном этапе состоит в том, чтобы быть готовым принять любые эмоциональные реакции ученика, достучаться до глубины его души.

На уроках в начальной школе обычно используют дидактические сказки, которые создаются учителями для систематизации учебного материала. В этом случае используемые символы и зачастую понятия одушевляются, зачастую это могут быть цифры, буквы и арифметические действия, создается иллюзорный воображаемый мир, в котором обитают герои сказки. Дидактическая сказка позволяет скомпоновать и преподнести почти весь учебный материал, поставить проблемные ситуации и т.д. Сказка ставит перед младшим школьником нравственные проблемы и побуждает их решить. Каждый персонаж сказки имеет определенный моральный оттенок и совершает определенные поступки, в свою очередь помогая младшему школьнику усвоить информацию, необходимую в его дальнейшей жизни.

Литература:

1. Вачков И.В. Сказкотерапия: Развитие самосознания через психологическую сказку. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.; Ось-89, 2007. - 144 с.
2. Венгер Л.А., Венгер А.Л. Домашняя школа мышления. -М.:Знание, 1984.- 400с.
3. Немов Р.С. Психология: Учеб. для студ. высш. пед. учеб. Заведений: 4-е изд. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2003. - Кн. 1: Общие основы психологии. - 688 с.

КРИТЕРИИ ОЦЕНИВАНИЯ И ОБЪЁМ ДИКТАНТОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Зайнутдинова Феруза Аъзамхужаевна,
Учитель русского языка школы №32, г.Ташкент
Ходжиева Дилафруз Туймуродовна,
преподаватель кафедры русского языка и литературы НавГПИ

Наблюдения свидетельствуют, что роль диктантов при обучении русскому языку значительна. Эффективность его достигается тем, что ученик, молча произносит звуки, учится соотносить звуки и буквы и чувствовать звук как фонему. Диктант требует усиленного внимания, которое определяет скорость и точность образования навыков. Это и дает основание рекомендовать диктант как один из основных видов работы при обучении правописанию.

По основной цели проведения все диктанты делятся на обучающие и контрольные. Главная задача обучающих диктантов – научить учащихся правописанию, основная задача контрольных диктантов – проверить уже усвоенные знания и освоенные способы орфографического действия.

Количество и объём *контрольных диктантов* для каждого класса определены Государственными образовательными стандартами непрерывного обязательного образования Республики Узбекистан (Требования к содержанию обучения и уровню подготовленности выпускников по русскому языку и литературе (с русским языком обучения) в системе непрерывного обязательного образования Республики Узбекистан).[1]

Предметом постоянного внимания учителя на всех этапах обучения является развитие у школьников навыков грамотного письма.

Примерное количество слов в словарных диктантах: 1 класс – 6-8-слов, 2 класс – 10-12 слов, 3 класс – 14-16 слов, 4 класс – 18-20 слов.

Количество слов в текстах, предназначенных для контрольных диктантов: 1 класс – в конце учебного года – 15-20 слов; 2 класс – 35-40 слов; 3 класс – 45-55 слов; 4 класс – 75-80 слов.

В начальных классах орфография не выделяется в качестве специального раздела программы. Орфографические правила включены в грамматические темы, связанные с изучаемым орфографическим материалом.

Количество слов в диктанте в 5-9 классах

Класс	Количество слов в словарном диктанте	Количество слов в связном тексте	Количество орфограмм	Количество пунктограмм	Количество слов с непроверяемыми или труднопроверяемыми написаниями
5	15-20	90-100	12	2-3	не более 5
6	20-25	100-110	16	3-4	не более 7
7	25-30	110-120	20	4-5	не более 7
8	30-35	120-130	24	10	не более 10
9	35-40	130-140	24	15	не более 10

Критерии оценивания диктанта

Отметка	Критерии оценки диктанта
«5»	Выставляется за безошибочную работу, а также при наличии в ней 1 негрубой орфографической или 1 негрубой пунктуационной ошибки.

«4» Выставляется при наличии в диктанте 2 орфографических и 2 пунктуационных ошибок, или 1 орфографической и 3 пунктуационных ошибок, или 4 пунктуационных при отсутствии орфографических ошибок. А также в случае, если допущены только 3 однотипные орфографические ошибки.

«3» Выставляется при наличии в диктанте 4 орфографических и 4 пунктуационных

1 Государственный образовательный стандарт непрерывного обязательного образования Республики Узбекистан. Т., 2017. - С. 14

ошибок, или 3 орфографических и 5 пунктуационных ошибок, или 7 пунктуационных при отсутствии орфографических ошибок.

«2» Выставляется за диктант, в котором допущено до 7 орфографических и 7 пунктуационных ошибок, или 6 орфографических и 8 пунктуационных ошибок, 5 орфографических и 9 пунктуационных ошибок,

8 орфографических и 6 пунктуационных ошибок. «1» При большом количестве ошибок, т.е. свыше 14 ошибок.

В психолого-педагогических исследованиях познавательный интерес определяется как потребность ребенка в знаниях, ориентирующих его в окружающей действительности. В подростковом возрасте проявляется творческая активность.Первым двигателем познавательных процессов у детей является любопытство. Любопытство побуждает ребенка к вопросам, создает ориентировку в окружающем мире, сосредотачивает умственную деятельность на определенной области и перерастает в любознательность. Для развития любознательности необходимо обучение и воспитание. Для развития познавательной потребности необходим постоянный переход от уже знакомого предмета на новый, еще неизвестный ребенком. В основе развития потребности в знании, лежит неудовлетворенность уже имеющимися знаниями и стремление к приобретению новых. Это во многом зависит от воспитания ребенка:

1. Ребенку предоставляют последовательно для восприятия и изучения в доступной ему форме(ощупывание,рассматривание)разнообразные предметы. Это способствует аналитико-синтетической деятельности мозга, тренировке познавательных процессов (ощущения, восприятия, памяти, мышления, речи, воображения), накоплению индивидуального опыта.

2. Ребенок предоставлен сам себе. Деятельность взрослого сводится только к удовлетворению его витальных потребностей. Такие условия воспитания не будут способствовать развитию познавательной потребности ребенка.

Основным источником побуждения младших школьников к труду, умственной деятельности является интерес. Для формирования познавательного интереса учитель руководствуется основными правилами:

-необходимо переходить от естественных интересов к прививаемым;

-объект, предлагаемый детям для изучения, не должен быть для них ни -совершенно новым, ни уже хорошо известным;

-материал целесообразно «группировать вокруг одного стержня. Самостоятельно открывать новые знания позволяет технология проблемно-диалогического обучения, основная особенность которой заключается в том, что новые вычислительные приемы не даются в готовом виде. Дети открывают их сами в процессе самостоятельной исследовательской деятельности. При ознакомлении учащихся с новым вычислительным приемом используются такие подходы постановки учебной проблемы:

-столкновение мнений учащихся при выполнении задания;

-предложение задания не сходного с предыдущим;

-задания сходного с предыдущим, но с ошибочным его выполнением;

-прием «актуальность», связанный с пониманием практической значимости знания.

Учебные вопросы выполняют следующую функцию:

1. Информационную (получение обратной информации от учащихся).

2. Организационную (упорядочение деятельности учащихся: например вовремя заданный вопрос может не только подтолкнуть мысль детей в нужном направлении, но и приостановить ошибочные действия).

3. Контролирующую (организация контроля за процессом обучения).

4. Мотивационную (использование технологии деятельностного метода обучения, создание познавательного интереса у учащихся и положительного мотива деятельности).

5. Стимулирующую, которая зависит от разных уровней функционирования психики учащихся.

В зависимости от логической структуры выделяют уточняющие (Верно ли, что длина ломаной равна сумме длин ее звеньев?), восполняющие, связанные с получением новых знаний (Как узнать длину ломаной?). По характеру вопросы бывают нейтральными (Как узнать, на сколько одно число большедругого?), благожелательными (Помогите герою определить, какие углы прямые), провокационные (Правильно ли Катя написала условие задачи?). По управлению познавательной деятельностью учащихся вопросы бывают отдаленно-ориентирующие (Почему ты выбрал это действие?). определенно-направляющие, которые помогают выяснить, например, какие слова в условии задачи указывают на выбор действия, наводящими, подсказывающими. Формирование познавательного интереса влечет за собой и использование информационных технологий на уроке. Зачем человеку нужен поиск? Он необходим для того, чтобы извлекать из окружающей среды нужную информацию, которую надо добывать, потому что она не лежит на поверхности. Достаточно материала поискового характера заложено в основу учебника математики, где задания по характеру познавательной деятельности подразделяются на репродуктивные (воспроизведение учебного материала, его применение в знакомой ситуации, действие по образцу) и продуктивные (применение знаний в незнакомой ситуации, задания с элементами поисковой и исследовательской деятельности). Например, Математика, 1 класс: прочитай ряд чисел и вставь пропущенные числа; реши примеры и раскрась картинку в соответствии с цифрами; Тема «Памятники архитектуры» – составление задач с использованием материала краеведческого характера. Тема «Старинные меры » -Герасим из рассказа «Му-му» -богатырь двенадцати вершков роста. Вычислить рост Герасима.

На уроке должно быть комфортно не только способным детям, но и слабым ученикам. На помощь приходят самые популярные и доступные уроки – путешествия, уроки – исследования, нестандартные уроки, как правило интегрированные, так как именно интегрированные уроки повышают мотивацию, формируют познавательный интерес. способствуют формированию целостной картины мира;

-способствуют устной и письменной речи;

-способствуют развитию эстетического восприятия, воображения;

-способствуют снятию напряжения, перегрузки.

Познавательная деятельность – это умственный труд, связанный с напряжением интеллектуальных сил человек. Этому необходимо учить ребенка с детства.

Использованная литература

1. Щукина Г. И. Роль деятельности в учебном процессе: Кн. для учителя. М.: Просвещение, 1986.

2. Маклаева Э.В. Формирование познавательного интереса у детей младшего школьного возраста в процессе обучения решению текстовых задач.

3. uzedu.uz

4. academiasciense.uz

АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ СОЦИАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ КАРТИНЕ МИРА

Хожиматова Муборак Адиловна
учитель русского языка и литературы школы
Андижан Шахар 13
Тел: +998914991117

Аннотация: В статье рассматривается аксиологический аспект социальных ценностей в пословичной картине мира. Для получения общего представления об отражении ценностей и их иерархии в пословицах было проведено исследование русского и узбекского лексикографического материала.

Ключевые слова: аксиология, ценность, иерархия ценностей, антиценность, пословицы, пословичная картина мира.

Паремиологические единицы можно охарактеризовать в нескольких аспектах, прежде всего в семантическом, синтаксическом и прагматическом: «Наиболее общим основанием для классификации языковых явлений выступает трехмерная семиотическая модель, включающая семантику, синтактику и прагматику того или иного высказывания. Паремии включают синтаксические характеристики, состоящие из структурной организации (выявление того, что высказывание является универсальным суждением), семантические характеристики, сводящиеся к их содержательным признакам (соотношение первичных и переосмысленных образов), прагматические характеристики – к ситуативным признакам (интерпретация уместности использования речения в той или иной конкретной ситуации)» [2, 58]. В семантическом аспекте паремиологические единицы – это назидания, в которых требуется соблюдать определенные нормы общества или же дается информация о типичных причинно-следственных связях в поведении людей. Такие паремиологические единицы могут иметь образную или необразную форму и выражают коллективную мудрость народа или же индивидуально-авторские высказывания о важных или ярких характеристиках поведения людей [2, 60]. Например, в таких паремиологических единицах, как пословицы, в плане семантики передается многовековой опыт народа, отражаются особенности уклада его жизни, культуры, мировоззрения. Пословицы содержат бытовые, социальные, религиозные, эстетические взгляды народа, в которых запечатлелись особенности традиций, обычаев, нравов, поведенческие концепции и моральные установки [3, 382]. В структурно-синтаксическом аспекте паремиологические единицы есть выражающие универсальные истины предложения, которые построены по типу экзистенциальных высказываний либо предредписаний и содержат в прямом или подразумеваемом выражении кванторы всеобщности (все, каждый, никто, всегда, никогда и др.) [2, 59-60].

Паремиологическим единицам присуща фразеологичность и воспроизводимость.В прагматическом аспекте паремиологические единицы выступают как языковые единицы, обладающие прагматическими свойствами выражать «ситуативно-личностный смысл, который актуализируется в конкретной ситуации общения» [2, 60]. Например, пословицы в прагматических целях используются коммуникантами для обоснования ими своих точек зрения, для выражения прогнозов, сомнения, упрека, оправдания или извинения, утешения, издевки, злорадства, пожеланий, обещаний, разрешения, приказа и запрета, устоявшегося взгляда человека на природу и общество [2, 36]. Таким образом, по справедливому замечанию М.Р. Шаймардановой, весьма актуальными являются «научные изыскания, направленные на изучение пословиц с точки зрения речевых действий, особенностей использования паремий в коммуникации в вариативных типах дискурса и их связи с коммуникативными стратегиями говорящего» [4, 10-11]. В стилистическом плане паремиологические единицы, в частности пословицы представляют собой предложения с четкой ритмической структурой, характеризующиеся стихотворным размером и запоминаемостью. Такое свойство пословиц, как запоминаемость, реализуется при помощи эвфонических средств языка, к которым относятся логическое ударение, ритмика, рифма, звуковые повторы, акцентные слова, параллелизм в построении синтаксических конструкций и т.п., что в совокупности организует стихотворный размер пословиц и обеспечивает их запоминаемость.

Лингвокультурологический анализ паремиологических единиц, в частности, пословиц с компонентом зоонимом, является значимым при выявлении взаимосвязи языка и культуры, функции выражения зоонимами в составе пословиц мировоззрения народа, его мышления, ценностей, так как зоонимы присущи языку каждой нации и отражают положительные и негативные ситуации, свойственные поведению человека [3, 129].

Анализ паремиологических единиц, в особенности пословиц, в когнитивном аспекте «позволяет обнаружить тот фундамент, на котором базируется мировоззрение человека, его ценностные ориентиры и приоритеты, и в то же время – стереотипы, коренящиеся в сознании личности» [3, 67], выявить обладающие первостепенной важностью для общества структуры знаний, так как пословичный фонд являет собой фрагмент культурной традиции [1, 35]. Таким образом, как видно из обзора аспектов изучения паремиологических единиц, в том числе и пословиц, выделяются такие актуальные темы их исследований, как выявление их национально-культурной специфики, сопоставление значения и смысла, анализ модальности и оценочности в них.

Литература:

1. Бурмистрова Л.В. Структурные и прагматические характеристики комических пословиц: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – А., 2017.
2. Павлищева Я.А. Фразеология как источник гендерных стереотипов (на материале английского языка). // Філологія. – Миколаїв, 2014. – № 209.
3. Шаймарданова М.Р. Прагмалингвистический анализ гендерно-маркированных паремий: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Казань, 2015.

ЎҚИТУВЧИ НУТҚИ - ҲАМ КАСБИЙ, ҲАМ ҲАЁТИЙ ЗАРУРАТ

Эргашева Мунира Умрзоқовна,
Навоий вилоят Кармана тумани
22-умутаълим мактаб
Математика фани ўқитувчиси,
Зиятова Гавхар Амировна,
Навоий шаҳар 10-умутаълим мактаб
Технология фани ўқитувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада дунёда кенг ривожланаётган соҳалардан бири педагогик риторика ҳақида фикр билдирилган. Бунда бўлажак мутахассисларни мустақил ижтимоий муносабатларга тайёрлаш, ўз она тилида, хорижий тилларда юксак мулоқот маданиятини шакллантириш борасида ўқитувчининг риторик компетентлигини ошириш хусусида қарашлари келтирилган.

Калит сўзлар: педагогик риторика, нотиқлик, нутқий компетентлик, коммуникатив муносабатлар, риторик компетентлик, касбий фаолият, педагогик мулоқот.

Бугунги кунда дунёнинг кўпгина мамлакатлари таълим тизимида бўлажак мутахассисларнинг нутқий компетентлилигини шакллантириш, миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида ривожлантириш, ўқитувчи нутқини ўрганиш мақсадида педагогик риторика фани ўқитилмоқда. АҚШ, Хитой, Япония, Россия каби мамлакатларда риторикага давлат даражасида эътибор қаратилган. Жумладан, АҚШда Дейл Карнеги фаолияти ва у асос солган Инсон муносабатлари ва нотиқлик санъати институти фаолияти, Россия таълим тизими барча босқичларида риториканинг мустақил ўқув фани сифатида жорий қилингани, халқаро ва мамлакат даражасида конференцияларнинг ташкил этилаётгани, риторика тарихи, назарияси ва амалиёти бўйича монография, дарслик ва ўқув-методик қўлланмаларнинг чоп этилаётгани ушбу мамлакатларда замонавий коммуникатив муносабатларга ёш авлодни тайёрлаш ишларига алоҳида эътибор қаратилаётганидан далолат беради. Республикамиз таълим тизимида ҳам бўлажак мутахассисларни мустақил ижтимоий муносабатларга тайёрлаш, уларда ўз она тилида, хорижий тилларда юксак мулоқот маданиятини шакллантириш, маданиятлараро толерант фуқарони тарбиялаш масалаларига катта эътибор қаратилмоқдаки, бу узлуксиз таълим тизимида риторик билимларни татбиқ этиш, бўлажак мутахассисларнинг коммуникатив ва риторик компетентлилигини шакллантириш ва ривожлантириш, жамиятимиз аъзоларида риторик маданиятни қарор топтириш каби вазифаларни амалга оширишни тақозо этади.

Биринчи Президентимиз И.А.Каримов: «Ўз фикрини мутлақо мустақил, ўз она тилида равон, гўзал ва лўнда ифода эта олмайдиган мутахассисни, авваламбор, раҳбар курсисида ўтирганларни бугун тушуниш ҳам, оқлаш ҳам қийин», - деб таъкидлаган эди ўзининг нутқларидан бирида.

Президентимизнинг бу фикрларида айнан риторика фани олдидаги вазифалар ифода этилганига гувоҳ бўламиз. Педагогик риторика умумий риториканинг суд риторикаси, сиёсий риторика, академик риторика, диний риторика, дипломатик риторика каби йўналишларидан бири бўлиб, унинг умумий қонуниятлари, категорияларидан фойдаланади.

Шундай экан, педагогик риторика бўлажак ўқитувчининг коммуникатив ва риторик компетентлигини шакллантириш муаммосини ҳал қилиб, турли хил коммуникатив вазиятларда мулоқот одобига нисбатан талаблар тўғрисидаги риторик билимларни бериш, коммуникатив (риторик) кўникмаларни ҳосил қилиш, ўқитувчи касбий фаолиятига хос бўлган коммуникатив нутқий вазият ҳамда педагогик мулоқотнинг ўзига хос хусусиятларини англатиш, касбий аҳамиятга молик матнларни яратиш ва таҳлил қилиш каби масалаларни ўрганади.

Педагогик риторика ўз навбатида «педагогнинг касбий оммавий нутқини яратиш қонуниятлари ва самарадорлиги шартлари тўғрисидаги билимлар соҳасидир». Ўқитувчи ўз фаолиятини бажарар экан, турли нутқий актларга дуч келади. Бўлажак ўқитувчиларни самарали мулоқот технологияси ва техникасига тайёрлаш борасида нутқий актлар алоҳида аҳамият касб этади, уларни ўзлаштириш, амалиётга татбиқ этиш ушбу жараён

самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Касбий хусусиятлар орасида ўқитувчининг бошқалар билан мулоқоти алоҳида мазмун касб этади. Мулоқот - одамлар ўртасида биргаликдаги фаолият эҳтиёжларидан келиб чиқадиган боғланишлар ривожланишининг кўп қиррали жараёнидир.

Педагогик мулоқот - бу мулоқот турларидан бири бўлиб, педагогик фаолиятда юзага келади. Педагогик мулоқотда таълим психологияси, тарбиянинг психологик асослари, ўқитувчи ва ўқувчи муносабатлари, ўқитувчи психологияси, мактабларда таълим - тарбия жараёнларини бошқариш муҳим ўринни эгаллайди. Яъни, ўз фикрларини аниқ ифодалай олиш, ўз устида тинмай ишлаш, ўқувчи-талабаларнинг қалбида билимга чанқоқлик ҳиссини уйғотади. Ўқитувчилар касб ахлоқининг жамият ҳаётида тутган ўрни ёш авлоднинг хат-саводини чиқариш, уларга замонавий илм сирларини ўргатиш, ёшларга таълим-тарбия бериш ва шу асосда уларда меҳнатсеварлик, инсонпарварлик фазилатларини тарбиялаш, умуминсоний қадриятларни эъзозлаш, Ватанни муқаддас деб билиш каби туйғуларни шакллантириш билан белгиланади. Бунинг учун эса ўқитувчининг юксак ахлоқий фазилатларга эга бўлиши билан бирга юксак нутқ маданияти соҳиби бўлиши ҳам касбий, ҳам ҳаётий заруратдир.

Педагогнинг намунавий мулоқотини юзага келтирувчи омиллар сифатида мавзу доирасида чуқур билимга эга бўлиши, нутқий вазиятни ҳисобга олиш, нутқни бойитиш ва безатиш, ортиқчаликка йўл қўймаслик, тежамкорлик, риторик сўроқ ва риторик мурожаатлари, ташқи қиёфаси, ўзини тута билиши, имо-ишора, қўл ва гавда ҳаракати, нотиқ ва аудитория ўртасидаги алоқа, самимият, оҳанг, ифодалилик инобатга олинади. Ана шундай омиллар ўқитувчи мулоқотини безайди ва педагогик идеал даражасига кўтаради.

Хуллас, ўқитувчи нутқини ўрганиш, жонли сўзлашув ва ёзма тилининг ўзаро муносабатларини ўрганиш, нутқида қўлланилган тил бирликларининг ўзига хослигини очиш, тилшуносликда тутган ўрнини аниқлаш муҳим аҳамиятга эга. Бу эса, ўқитувчи нутқини семантик-стилистик ва лингвомаданий таҳлил этиш заруратини долзарб масала қилиб қўяди.

Адабиётлар:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Тошкент, 1997.
2. Педагогическая риторика: учебник для студ. учреждений высш. проф. Образования. [Л.В.Ассуирова, Н.Д.Десяева, Т.И.Зиновьева и др.]; под ред. Н. Д. Десяевой.- 2-е изд.,стер.- М.: Академия, 2013. 6 с.
3. Нурманов А.Т., Исақов Ж.А.Педагогик риторика истиқболлари // Илмий хабарнома, АДУ, №2, 2016.

UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O’QUVCHILARNI MA’NAVIY-MA’RIFIY TARBIYALASHNING O’ZIGA XOS USULLARI

Choriyeva Sadoqat Ochilovna,
Qulmurodova Dildora Muzaffarovna
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog’ tumani
8-maktab o’qituvchilari

Annotatsiya. Mazkur maqolada o’quvchi yoshlarning ma’naviy bo’shliqlarini to’ldirish, ularning tarbiyasida milliy merosimiz, an’analarimizning o’rni va ahamiyatiga alohida to’xtalib o’tilgan.

Kalit so’zlar. Tizimlilik,uzviylik, davomiylik, madaniyat, qadriyat, urf-odatlar, mustaqillik, “Aqliy hujum”, “Guruhlarda ishlash”, “Debatlar”, “Bahs-munozara”, “Ekskursiya”, “Mo’jizalar maydoni”.

Farzandlarimiz yuragida ona-Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog’lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo’lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur’’,-deb ta’kidlagan edi.

O’quvchi-yoshlar ma’naviyatini g’oyaviy bo’shlikka yo’l qo’ymaslik uchun, avvalom bor, mafkuraviy immunitetni shakllantirish va uning ma’no – mohiyatini yoshlar ongiga, qalbiga sindirishimiz zarur. Milliy istiqlol g’oyasi asosida marifiy tarbiya, ogohlik bilim va falsafiy tafakkur, jaholatga qarshi marifat hisoblanadi

2010-yil birinchi Prezidentimiz tomonidan “Barkamol avlod” yili deb e’lon qilindi.Bu esa biz pedagog kadrlar oldiga o’quvchilarda mafkuraviy immunitetini shakillantirishda, ularning bilimi va tafakkurini, dunyqarashini kengaytirish, ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasiga e’tibor berish, yurtimiz tarixini o’rgatish, milliy mafkuraning ma’no-mohiyatini yoshlar qalbiga chuqur singdirish, hur fikrlilik, o’zligini, milliy qadriyatlarni anglashga o’rgatish kabi yuksak va mas’uliyatli vazifalarni qo’ydi.

Yoshlarimiz chetdan suqulib kirayotgan yot g’oyalarga qarshi kurashishlari uchun tafakkur,bilimga ega bo’lishlari yuksak milliy mafkuramiz ma’no-mohiyatini chuqur bilishlari kerak.

Shunday ekan, hozirgi mafkura poligonlarda avj kurash olgan davrda, o’quvchilarimizning bilim va tafakkuri, dunyoqashlarini kengaytirish, davlatimiz ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini o’ta ta’minlashi zarurdir.

O’quvchilarni ma’naviy-ma’rifiy tarbiyalash tizimlilik,uzviylik, davomiylikni talab etadi. Lekin ular har qanday vaziyatda buyuk tariximiz, madaniyatimiz, qadriyatimiz, urf-odatlarimiz, mustaqilligimiz g’oyalari asosida shakllanishi, rivojlanishi kerak.

Umumiy o’rta ta’lim maktab ta’lim tarbiyasining asosiy maqsadi – jamiyatda o‘quvchi yoshlardan yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy tarixiy va madaniy merosimiz, milliy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g’oyalariga sadoqat tuhida keng fikrli, sog’lom, jismoniy, aqliy va ma] naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash va shakllantirish.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib hozirgi paytda o’qituvchi quyidagi jihatlarga asosiy e’tiborini qaratishi lozim.

- o‘quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xalqimiz boy tarixi madaniy va ma’naviy merosi asosida ularni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, iymon-e’tiqod, mehr-shafqatlilik kabi insoniy fazilatlarga ega bo’lgan barkamol avlodni tarbiyalash;

-Vatanga muhabbat, O’zbekiston respublikasi Prezidenti ,Konstitutsiyasi va Davlat ramzlariga sadoqat hislatini tarbiyalash;

-o’quvchilarimiz ongiga ona- Vatanga, buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg’ularini singdirib borish;

-islomdagi mavjud yuksak ma’naviy umuminsoniy qadriyatlarning madaniyat va ma’naviyatning rivojlanishidagi o’rnini yoritish;

-o’quvchilarda milliy g’urur tuyg’usini tarbiyalash;

-o’quvchilar ongiga mustaqillik mafkurasi va milliy g’oyani singdirish.

O’qituvchi yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishga kirishar ekan, har bir darsning mazmuniga, maqsadiga, o’tish texnologiyalariga, o’qituvchilarga faollik sufatlarida mustaqil fikrlash va o’z fikrini bayon eta olish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o’qituvchidan yuksak mahorat va bilim talab etiladi. Ushbu jihatlarni amalga oshirish hamda qiziqarli va mazmunli o’quv mashg’ulotlarni, shuningdek, darsdan tashqari tashkil etiladigan turli xil tadbirlar, tarbiyaviy soatlarda samarali va mazmunli tashkil etish uchun yangi, ilg’or pedagogik texnologiya asosida o’qitishning turli shakllari: masalan, “Aqliy hujum”, “Guruhlarda ishlash”, “Debatlar”, “Bahs-munozara”, “Ekskursiya”, “Mo’jizalar maydoni” kabi usullardan foydalangan holda tashkil etilgan dars ko’zlangan maqsadga olib kelishi mumkin. Buning uchun esa har bir mashg’ulot o’z shakli va mazmuni jihatidan to’g’ri tashkil etilishi lozim.

Ta’lim tizimi milliy istiqlol g’oyasini jamiyat hayotiga singdirishda muhim bo’g’in va vositadir.

O’tish davrning murakkab vazifalarini amalga oshirayotgan bugungi kunda ysh avlodning ongi va qalbiga milliy istiqlol g’oyalarini mustahkam singdirilishi provard maqsadlarimizga erishishimiz uchun muhim omil bo’ladi. O’quvchi yoshlarimiz, Vatanimizning jasur, mard, dovyurak egasi, uning iymonli, e’tiqodli va mustaqil fikrlovchi, har qanday tahdid va yot mafkuralarga immunitetli va barkamol avlod bo’lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ma’naviyat yulduzlari. T.2005.
2.Falsafa lug’ati. A.Saidov. T. 2014

MA’NODOSH VA ZID MA’NOLI SO‘ZLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA MUHAMMAD YUSUF SHE’RLARIDAN FOYDALANISH

Otajonova Shirinoy Narimbayevna,
Botirova Salomat Karimovna
Buxoro viloyati Shovot tumani
38-son umumta’lim maktab
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya.*Mazkur maqolada Muhammad Yusuf tanlagan mavzular mohiyatiga mutanosib tarzda tilning barcha fonetik, lug‘aviy, grammatik vositalaridan, jumladan: ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlardan yuksak mahorat bilan foydalanish san’ati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar:*ma’nodosh so‘zlar, zid ma’noli so‘zlar, tashbeh, tazod, tardu aks, aksi noqis, antiteza, kontrast.*

Integrativ yondashuv yani, adabiyot va ona tili fanlarini o‘zaro integratsiyalash. Misol: ona tili darsida ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlar mavzusini o‘tishda adiblar ijodidan foydalanish mumkin. She’rlarni o‘qir ekanmiz, ulug‘lardagi bizni hayratga solgan, ta’sirlantirgan, havasimizni uyg‘otgan sifatlar asta-sekinlik bilan «yuqa» boshlaydi. Hayrat va havas ta’sirida shoir yoki yozuvchi shaxsidagi o‘quvchi tuyg‘ularini junbushga keltirgan fazilatlar hech qanday tashqi zo‘riqishlarsiz, pand-nasihatlarsiz kitobxon shuuridan, ruhiyatidan joy ola boshlaydi. Kitobxon har qanday muallifning «men»i bilan bog‘liq sifatlarni uning yozganlaridan topa bilishi, jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun ma’nodosh va qarama qarshi so‘zlardan shoir qanday ustalik bilan foydalana olgan, ko‘ramiz.

Bir umumiy ma’noni ifodalovchi so‘z yoki qo‘shimchalarga sinonimlar (ma’nodosh so‘zlar) deyiladi. O‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lgan so‘z va qo‘shimchalar sinonimlar uyasi yoki sinonimlar qatori deyiladi.[1]

Bekastu benavolar necha,
Oyoq tovushidan tosh qottim.
Sumalagim qaynagan kecha,
Itdek qozon qo‘riqlab yotdim…
Bemajol bemador edi –
Qo‘shnimdan holso‘rolganim yo‘q.
Mozoriga borolganim yo‘q…
Zamon **yomon,** zamon **tor** edi.

Bekas - kimsasiz, tanho, hech kimi yo‘q so‘ziga «tu» undalmani qo‘shib, bechora, faqir, miskin ma’nosidagi – **benavo** so‘zi bilan sinonim qator yaratildi. **Bemajol, bemador** so‘zlari bu o‘rinda o‘z ma’nosida qo‘llangan. Ushbu misralardagi ***b*** undoshi, aniqrog‘i ***be-*** old qo‘shimchasi ya’ni yuklamasi takroriga asoslangan alliteratsiya ma’no ustiga qo‘shimcha she’riy “bo‘yoq”, tegishli ohang, joziba berish hamda «kuchi», «darmoni kam» «holdan toygan» kabi tushunchalarni uslubiy jihatdan ta’sirchan, shoirona ifodalash vazifasini bajargan. Misralar so‘ngida **yomon - tor** (tarqoq, tartibsiz holda kelgan; parokanda; yo‘q qilish degan ma’nolarda) so‘zlari sinonim bo‘lib kelib, kitobxonni «yaqin va olis moziy»ga qaytaradi. Avval, Usmon Nosirni sotib, keyin faryod ko‘targan, Qahhorni qand kasal, Oybekni soqov qilgan, Qodiriy qo‘lidan o‘pib, keyin chohga itargan zamon dasti «bo‘ronlaridan» habar beradi.

Bunday go‘zal, betakror ma’nodosh so‘zlar shodasini E.Vohidov, K.Yashin ijodida ham ko‘plab uchratamiz.

G‘azal ham bo‘lurmi buncha **dilrabo,**
Bunchalar **serishva,** bunchalar **sernoz.** (E. Vohidov.) Yoki:
Unganman qip-qizil bahor qo‘ynida, **g‘am-alam**, qayg‘uga ulfat emasman.
(K.Yashin)

1 Nurmonov.A., Sobirov.A., Qosimova. N., 1-2-3-kitoblar.Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, «Ilm ziyo», 224-bet. 14

Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 431 б.

Nutqimizda, she’riyatda lug‘aviy (leksik) antonimlardan foydalanish fikrni ta’sirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy adabiyotda zid ma’noli so‘zlarni birbiriga zidlash asosida badiiy san’at hosil qilinadi. Badiiy adabiyotda tazod san’ati deyiladi.

Bunday san’at namunalarini shoir ijodida ko‘plab uchratamiz.

Oh, mening ortimdan ovvora onam,
Bir parcha yuragi ming pora onam,
Har baloni **ko‘rgan** yorug‘ dunyoda,
Toshkanni **ko‘rmagan** bechora onam. («Onam» 29-b)

Uchinchi misradagi «**ko‘rgan**» so‘zini o‘qib yoshi bir joyga yetgan onaning boshidan kechirgan yaxshi-yomon kunlar ongimizda qad rostlaydi. Keyingi ezg‘in misrada «**ko‘rmagan**» so‘zi orqali shavqatsiz haqiqat bilan yuzlashasiz, bo‘g‘zingizga nimadir tiqilganday bo‘ladi, beixtiyor ko‘zingizda yosh aylanadi.

Tardu aks – mumtoz she’riyatda keng tarqalgan takrorga asoslangan lafziy san’atlardan biri bo‘lib, tardu aks arabcha – *«haydash, aks»,»teskari»* yohud *«almashtirish, o‘zgartirish»* degan ma’nolarni beradi[14]. Tardu aks *«teskari qilib takrorlash»* ma’nosini ifodalagan she’rning birinchi misrasida keltirilgan ikki so‘z yoki so‘z birikmasini keyingi misrada o‘rnini almashtirib qo‘llashdan iborat bo‘lgan she’riy san’atdir. Bu xil qaytariq natijasida mazkur so‘z yoki so‘z birikmasi ma’nolari yana bir bor ta’kidlanibgina qolmay, yangilanishi ham mumkin, ya’ni misra mazmuni takomillashib, takror qo‘llangan so‘zlar yangi ma’no kasb etishi mumkin[1]. U jilmayar ko‘zda yosh qalqib, Shivirlaydi lablari besass:

Saidadir farishta balki,
Farishtalar Saida emas! («Said Ahmad» 31-b)

Shunisi e’tiborga molikki, bu o‘rinda shakl va ma’no uyg‘unligi ham vujudga kelgan. Takror qo‘llangan bu ikki so‘z shaklan, ya’ni ohang jihatidan mos bo‘lib, mazmun jihatdan ham bir-biriga yaqin turadi.**Tardu aks**san’atining ikki ko‘rinishi mavjud bo‘lib, yuqoridagi misra **aksi noqis** (*«nuqsonli aks»)* – so‘z, so‘z birikmalarining ikkinchi misrada biroz o‘zgartirib takrorlanishi orqali hosil bo‘lishiga misoldir.

Xulosa, Muhammad Yusuf tanlagan mavzular mohiyatiga mutanosib tarzda tilning barcha fonetik, lug‘aviy, grammatik vositalaridan yuksak mahorat bilan o‘ziga xos uslubda foydalangan. Bugun shoir qalb navolarining bir pardasi haqida gapirdik, xolos. She’rlar shodasi bilan shoir hali ko‘plab «yuraklarni to‘kib qo‘yish»ga qodir. Bu esa ikkinchi umr!

Foydalangan adabiyotlar:

1. Nurmonov A., Sobirov., QosimovaN., 1-2-3-kitoblar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, «Ilim ziyo», 224-bet.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 431 бет.
3. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998. 89-bet.
4. Yusupov M., Xalq bo‘l elim. – T.: «O‘zbekiston» nashryoti, 2018-yil; 86-bet.

1 Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз Ҳофия. – Тошкент: ШарҚ 1998. - Б. 89.

ONA TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA ZAMOAVIY TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISHDA “UCHTA TOG’RI BITTA NOTO’G’RI METODI”NING AHAMIYATI

Umarova Dildora Abdumalikovna
Usmonova Navruza Isakjanovna
Farg‘ona viloyati Quvasoy shahri
7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda boshlang’ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan Jumladan “Uchta to’gri bitta noto’g’ri” metodidan foydalanishning afzalliklari, ushbu metodning ishlatish orqali erishish mumkin bo’lgan qulayliklar hamda o’quvchilarni bilim saviyasini oshirishda ushbu metodning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: “Qadam baqadam metodi”, “Sinkveyn metodi”, “Insert metodi” , ,“Svetafor”, “Panelli munozara metodi”, “Baxs – munozara va musobaqa usuli”, “Zigzag metodi”, “Zinama –zina metodi”, “Baliq skeleti metodi”, “Ta’lim tog`risida” gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida”gi qarori, AKT.

Zamonaviy ta’limni joriy etish bugungi kun davr talablaridan biridir. Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati ta’lim mazmuni va shaklini takomillashtirishga qaratilgan. Fan-texnika taraqqiyoti, jamiyatimizning demokratlashuvi, axborot miqyosining oshib borishi kabi omillar o`quvchining shaxsiy xususiyatlariga, jumladan idrok eta olish, tasavvur va fikrlash, aqliy qobiliyatlarining rivojlanishiga olib keldi. Zamonaviy ta’lim oldida turgan eng muhim vazifa o`quvchi shaxsining ilm olishga bo`lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Bugungi kun yoshlarini har tomonlama yetuk, mukammal, komil inson qilib tarbiyalash biz o`qituvchilarning muhim vazifalarimizdan biridir

Hozirgi zamon o`quvchi–yoshlar ta’limini zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Zamonaviy axborot komunikatsiya texnologiyalari va internetning beqiyos imkoniyatlari shu qadar takomillashib bormoqdaki, biz hatto tasavvurimizga sig`maydigan har qanday vazifani ham mana shu texnologiyalar bemalol bajarib kelmoqda. Prezidentimizning “Kompyterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot komunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to`g`risida” 2002-yil 30-maydagi PF-3080-sonli Farmoni zamonaviy axborot komunikatsiya texnologiyalari va internet berayotgan qulayliklarni bevosita ta’lim jarayoniga tadbiq qilish ishlarni jadallashtirdi.

Maktabgacha yosh davridayoq bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi bo`ladigan – o`quv faoliyatiga tayyorlangan bo`lishi lozim. Bunda bolada ma’lum bir tegishli masalalarning shakllangan bo`lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o`quv topshirigìni ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Bunday jarayonlar birinchi sinf o`quvchilaridan topshiriqda o`zi belgilagan o`zgarish, yangilik alomatlarini qidirib topa bilish va ulardan xayratlanishni, qiziqishni talab qiladi. Bunday topshiriqlar amaliy ishlarga aylantirilsa yoki o`yin tarzida bajarilsa, osonroq kechadi va bola o`zlashtiradi.

Bugungi kunda zamonaviy pedagoglar hamda metodistlar tomonidan o’qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish, o’quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida yangidan yangi pedagogik texnlogiyalar ishlab chiqilmoqdaki, ko’zlangan asosiy maqsad esa darslarni yuqori saviyali tarzda tashkil etishdan iboratdir.

Bugungi kunda darslarda ko’plab zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo’llanib elinmoqda. Masalan, “Qadam baqadam metodi”, “Sinkveyn metodi”, “Insert metodi” ,“Svetafor”, “Panelli munozara”, “Baxs – munozara va musobaqa usuli”, “Zigzag”, “Zinama –zina”, “Baliq skeleti” va boshqa ko’plab pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilgan bo’lib, o’qitishning samaradorligini oshirshga hizmat qilmoqda.

Hozirda keng qo’llanib kelinayotgan va yuqori samaradorlikka erishish imkoni beruvchi zamonaviy metod – “Uchta to’g’ri bitta noto’g’ri metodi”. Ushbu metodni qo’llash jarayonida barcha o’quvchilar darsning faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu orqali esa darsni barcha uchun birdek tadbiq etish imkoni paydo bo’ladi.

Ushbu metod orqali dars o’tilganda dars quyidagicha tashkil etiladi. Bu metod o’qituvchi tomonidan tushuntirib berilib uyga o’rganish uchun topshiriq qilib berilgan mavzu ustida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Ya’ni, har bir ishtirokchi bir varaq qog`ozda o`rganilayotgan yoki o`rganilgan mavzu bo`yicha uchta to`g`ri fikr va bitta noto`g`ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juftliklarga to`planadilar, varaqlar bilan almashadilar va qaysi fikr noto`g`ri bo`lgan ekanligini aniqlaydilar.

Ushbu metodni qo’llash natijasida o’quvchilarda, ayniqsa, boshlang’ich sinf o’quvchilarida kuzatuvchanlikni rivojlantirish, axborotni tanlab olish ko`nikmasini shakllantirish imkoni paydo bo’ladi hamda bolalarda sinchkovlik, xato topish va fikrlash qobilyatining yuqori darajada shakllanishida yordam beradi.

“Uchta to’g’ri bitta noto’g’ri metodi” qo’llash natijasida dars jarayonida dars materiallarini o`zlashtirib ololmagan bolalar topshiriqni uddalay olmasliklari mumkin. Oqituvchi esa ayni shu o’quvchilar bilan ishlashi lozim bo’ladi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda pedagoglar oldida turgan dolzarb masaladir. Zero, darsdan ko’zlangan maqsad – o’quvchini bilim ko’nikmasini shakllantirish. Buning uchun esa o’qituvchi dars jarayonini qiziqarli pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamarajab Tojiyev, Bo‘ri Ziyamuxamedov, Mavjuda O’ralova”PEDAGOGIK “TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORAT FANINING O’QUV MASHG‘ULOTLARINI LOYIHALASH” «Tafakkur-Bo’stoni», 2012.
2. N.X. Avliyakulov, N.N. Musaeva “PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA” «Tafakkur Bo‘stoni» Toshkent- 2012

ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИ – ҲУҚУҚИЙ МАЪНАВИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ АСОСИ

Абдирахматов Хабибулла Зиёдуллаевич
Қашқадарё вилояти, Яккабоғ тумани
85-сонли мактабнинг давлат ва
ҳуқуқ асослари фани ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчи ёшларнинг конституциявий саводхонлик даражаси, ҳуқуқий саводхонлик даражаси ва унга эришиладиган ютуқлари тўғрисида тавсиялар берилган.

Калит сўзлар. Ҳуқуқий онги, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, миллат, тил, дин,

Мамлакатимизда бозор иқтисодиётига асосланган очиқ демократик ҳуқуқий давлатни барпо этиш ва фуқаролик жамиятини қуриш олий мақсаддир. Бу олий мақсадга эришишга халқнинг, ёш авлоднинг – ўқувчи ва ёшларнинг ҳуқуқий онгини юксалтириш асосий масалалардандир. Ёш авлоднинг ҳуқуқий онги ва тафаккурини юксалтириш, юртимизда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг ижроси сифатида фаоллигини кўтариш тараққиётимизни таъминлашнинг муҳим омилидир.

Мамлакатимиз фуқароларининг, вояга етиб келаётган ёшларнинг ҳуқуқий маънавиятини юксалтирмай туриб, ҳуқуқий демократик давлат қуришдек олийжаноб мақсадларга эришиш душвордир. Бунинг учун биринчи навбатда аҳолига ўсиб келаётган ёш авлодга ҳуқуқий билим бериш, уларнинг том маънодаги ҳуқуқий онгини юксалтира бориш ниҳоятда зарурий масаладир.

Ёшларнинг ҳуқуқий онгини шакллантириш учун нималарга эътибор қаратиш зарур? Бу борада биринчи навбатда ҳар бир фуқаро, хусусан, ҳар бир ёш авлод асосий қонун Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг ҳар бир бўлими, боби ва моддаларини синчиклаб ўрганмоғи, мазмун-моҳиятини қалбига сингдирмоғи лозим бўлади. Ана шу объектив заруратни инобатга олиб “Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганишни ташкил этиш тўғрисида”ги Фармойиши қабул қилинди. Бундан кўзланган мақсад Конституциясининг жамиятдаги ўрни мазмун-моҳиятини халқ оммаси, хусусан, ёш авлоднинг онгига сингдириш, уларда ҳуқуқий маънавиятни шакллантириш, ҳуқуқий саводхонлигини оширишдан иборат эди. Бош қомусимиз- конституциясимизни шунчаки ўқишгина эмас, ундаги инсон манфаатларини, ҳақ-ҳуқуқларини ҳимоя қилишга йўналтирилган кўрсатмалар, йўл-йўриқлар ҳар бир ёш авлод учун ҳаётий зарурат эканлигини улар англаб етмоғи зарур.

Токи, униб –ўсиб келаётган ёш авлодимиз Конституциясининг маъно – мазмунини, у халқимизнинг истиқлол йилларида эришган улкан тарихий ютуғи эканини теран англаб етсин. Токи, Конституция биз учун нафақат муҳим ҳаётий қўлланма, балки ғурур-ифтихор, керак бўлса шу заминда истиқомат қилаётган, миллати, тили, динидан қатъий назар, барча инсонлар учун мустаҳкам бир ҳимоя эанлигини ҳис қилиб яшашимиз керак.

Кўринадики, ёшлар ҳуқуқий маънавиятининг шаклланишида Конституциямиз асосдир, чунки мамлакатимизда қабул қилинаётган барча қонунлар, меърий ҳужжатлар ҳамда амалдаги ҳуқуқий тизимлар фаолияти бош қомусимиз- Конституцияга асосланади. Демакки, ҳуқуқий онг, ҳуқуқий маънавият шаклланишининг асоси Конституциядир.

Конституциямиз ёшлар учун туганмас билимлар хазинасидир. Ҳажми кичик бўлса-да, олам-олам нодир билимларни, маъно ва мазмунни ўзмда мужассамлаштирган, ниҳоятда мукаммал Конституциямизни мутолаа қилиш, ҳар бир ёшнинг тафаккурини бойитади, ҳуқуқий-фалсафий дунёқарашини кенгайтиради, ҳуқуқий маънавиятини юксалтира боради. Бинобарин, сиёсатшуносликда Конституция ҳар бир давлатнинг юзи, обрў-эътибори ҳам дейилиши, бежиз эмас. Конституция давлатни давлат, миллатни миллат сифатида дунёга танитадиган ҳужжатдир. Конституция қоидалари доимо ҳукмронлик, биринчилик таъсис қудратига молик. Яратилаётган бошқа қонунлар конституциявий меъёрларга асосланади, меъёрий ҳужжатлар ҳам шу асосда ишлаб чиқилади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг бутун руҳи, моҳияти, мазмунига инсонпарварлик ғояси сингдириб юборилган. Инсоннинг, ҳар бир фуқаронинг ҳақ-ҳуқуқларини қонуний эҳтиёжларини ҳимоя

қилиш бош қомусимизнинг олий мақсадидир. Бугун эса инсон, унинг ҳаёти, эрки, шаъни, қадр-қиммати ва бошқа ҳуқуқ ҳамда эркинликлари муқаддас бўлиб, давлат ҳимоясидадир.

Конституциясининг барча моддаларида инсон ва фуқароларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш, ҳаётини яхшилаш, хавфсизлигини таъминлаш кўзда тутилганлиги билан ҳам халқимизнинг энг севимли ҳаётий асари сифатида ардоқлидир. Бинобарин, Конституцияни ўқувчи ёшлар меҳр билан ўқиб, мазмун моҳиятини тушуниши ва қалбига жо қилиши ҳар бирининг муқаддас бурчидир. Шунингдек, Конституциянинг ҳар бир моддасига эътиқод билан ёндашиш, уларни ҳурмат қилиш, қўйилган талаблар ўқувчи ва ёшлар томонидан бажарилиши ҳаётий эътиқодга айланмоғи зарур.

Ўқувчиларнинг ҳуқуқий маънавиятини амалга ошириш учун қуйидаги ишларни бажаришни тавсия этамиз:

-давлат ва ҳуқуқ асослари фанидан мутахассис муаллимларнинг дарс бериши;

-“Биз конституцияни биламиз” мавзусида ўқувчилар орасида танловлар ўтказиб бориш;

-қабул қилинган қонунларнинг Конституцияга қай йўсинда асосланганлигини таҳлил қила бориш;

- Конституцияга оид плакатлар ва ҳужжатли фильмлардан дарс жараёнида кенгроқ фойдаланиш;

-фанлар кесимида ўтилаётган дарслар мазмун-моҳиятига Конституциянинг мазунини сингдира бориш ва бошқалар.

Мухтасар қилганимизда, маънавият унсурлари орасида ҳуқуқий билим ҳам алоҳида аҳамият касб этади, ҳуқуқий онгни юксак ёшлар келгусида баркамол авлод бўлиб вояга етиши, шубҳасиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Маънавият юлдузлари..Т.2005.

2.Ҳуқуқий онг ва тафаккур. А.Саидов. Т.2017

ДАРС ЎТИШ ЖАРАЁНИДА ЎҚИТИШ ИНТЕРФАОЛ МАШҒУЛОТ ТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Бобожонов Жасур Худойберганович
Урганч шахар 3 сон мактаб 1 тоифа
жисмоний тарбия фани ўқитувчиси
Джуманиязов Темур Шавкатович
2 тоифа жисмоний тарбия фани ўқитувчиси

Аннотация: Педагогик мулоқат ўрнатиш учун замонавий, инновацион технологиялардан фойдаланиш эхтиёжи туғилди. Бу технологиялардан бири интерактив дарс усулларидир.

Калит Сузлар: Қор бурон, асалари галаси, галереяни айланиш, академик мунозара.

Интерфаол усул Дарсларни қизиқарли ермазмун, энг муҳими самарали қилиб ўтказишдир. Интерактив сўзи лотинча сўз бўлиб “интер” узаро, “ақт” мулоқат, яқинлик деган маънони билдиради. Бунда талабаларнинг билими ортади, шахсияти ривожланади ва ўқув жараёнининг махсулдорлиги кўпаяди. Маълумки яхши ўзлаштириш учун шунчаки тинглаб, ёзиб ўтириш етарли эмас, балки шу материл устида фаол ишлаш, ўйлаб кўриш мухокама қилиб чиқиш, ёрдамчи вазифалар бажариши керак.

Хозирги пайтда биз педагогларнинг асосий вазифамиздан бири ўқувчида мустақил шуғулланиш малакасини хосил қилишидир. Интерактив усулларидан фойдаланилганда ўқувчиларнинг барча психик жараёнлари идрок онг, диққат, хотира, сезги, ақл, тасаввур, тафаккури ишга тушиб, муаммони ечиш учун излашга, қидиришга, фикрини ривожлантиришга йўналтирилади. Бунда материални ўзлаштиришга бўлган эхтиёж, майл ортиб боради ва натижа ҳам самарали бўлади. Интерактив усуллар амалий машғулот вақтида ўтказиб, маъруза билимларини чуқурлаштириш, кенгайтириш, аниқлаштириш мусаҳкамлаш ва ривожлантириш учун мулжалланган.

Интерфаол усулларга қуйидагилар киради: Қор бўрон, асалари галаси, мия хужуми, можаро методи, думалоқ стол, галереяни айланиш, стол ўртасидаги ручка, муаммоларни ҳал қилиш методи, ўн босқичли интервью, академик мунозара. Интерфаол машғулотларининг афзалликлари: Қатнашчиларга ўз ғоялари ва фикрлари билан кўпроқ ўртоқлашиши уларнинг бир биридан ўрганиши учун имкон беради. Кичик гурухларда қатнашчилар катта гуруҳда айтишлари мумкин бўлган фикрлардан бошқача фикрларини айтишлари мумкин. Диққат марказини педагогдан қатнашчиларга кўчиради. Қатнашчиларни ўз устларида кўпроқ масъулият олишга мажбур қилади.

Можаро методи; Ахлоқий тарбия мавзуси бўйича муаммоли вазият кўринишидаги топшириқ берилади. Шу топшириқни таҳлил қилиб, тез қарор қабул қилиши зарур. Ёки психологиядан диққат мавзуси бўйича турли муаммоли вазиятлар берилиши мумкин. Бу метод ўқувчиларга тез фикирлашни ва фавқулодда вазиятларда ишлашни ўргатади.

Думалоқ стол методи: топшириқ ёзиб қўйилган қоғоз вараги давра бўйлаб ўтказилади. Хар бир ўқувчи ўзининг жавоб вариантини ёзиб қўяди ва варақни бошқа ўқувчига узатади. Жавоблар тугагач, мухокама бўлади. Нотўғри жавоблар ўчирилади, тўғри жавоблар сонига қараб ўқувчилар баҳоланади.

Уч босқичли интервью: гурух 3га бўлинади: педагог уқувчи эксперт. Хар бир гуруҳ шу ролларини эгаллайди. “Ўқитувчи” гуруҳи мавзу бўйича савол ва топшириқлар бериши, “Уқувчи” гурухи жавоб бериши, “эксперт”гурухи уларни бахолаши зарур. Эксперт уч бўлимга бўлиб баҳолайди: Нималар тўғри қилиди. Нималар нотўғри қилинди. Қандай қилиш керак эди. Бу метод ўқувчиларга сўраб сариштириш, педагогик мулоқот обиб бориш, билим ва малакаларни текшириш ва бахолашни ўргатади.

Ручка стол ўртасида: Гуруҳга топшириқ берилади. Ҳар бир ўқувчи ўз жавоб вариантини варақ қоғозга ёзиб, уни қўшнисига узатади, ўз ручкасини столнинг ўртасига суриб қўяди. Жавобни билмайдига ўқувчи қоғозни кейингисига узатиб ручкасини ўзида олиб қолади. Жавоб вариантлари ёзилган қоғоз ўқтувчига берилади ва биргаликда муҳокама қилинади. Бу методда ўқтувчи машғулотга ким тайёр, ким тайёр эмаслигин кўриб туради. Масалан: Тарбия усулларини белгилаб беринг.

Галереяни айланиш методи: Кичик гуруҳга битта муаммо таклиф этилади. Ҳар бир гуруҳ

10 мин давомида ўз фикрларини ёзадида, жавоб ёзилган варақларни иккинчи гуруҳ билан алмаштиради. Кейинги гуруҳ олдинги гуруҳнинг жавобларнин баҳолаши ва жавоб тўлиқ бўлмаса, ўз жавоби билан тўлдириши керак.

Қор бўрон методи: Бунда икки гуруҳ ўқувчилари бир муаммо ёки вазиятни муҳокама қилиб энг кўп миқторда тўғри жавоблар олиш кўзда тутилади. Ҳар бир тўғри жавоб юмалоқланган қор куринишида ўша гуруҳга балл тариқасида ёзиб қўйилади. Энг кўп балл олган гуруҳ аъло бахоланади.Критик вазиятни таҳлил қилиш: Бирор бир ташвишли муаммоли вазият муҳокама қилиниши кўзда тутилади. Бунда нимани бошқача қилиш керак эди. Нима учун бу хатога йул қўйилди. Хатони такрорламаслик ёки тузатиш учун нималар қилиш лозим, деган масалалар кўриб чиқилади.Хулоса қилиб айтадиган бўлсак ҳар бир метод ўқувчини фаоллаштиришга йуналтирилган. Ҳар бир методдан унумли фойдаланилса дарслар самарали ва сермазмун бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1) Толипов У.Қ Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари Бухоро, 2008.

2) Мажитова Ш.Инновационнқе педагогические технологии. Т.,2006.

3) Ишмухаммадов Р.,Абдуқодиров А, Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар Т., истеъдод 2008.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ОВЛАДЕНИЯ ГРАММАТИЧЕСКИМИ НОРМАМИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Зайнутдинова Феруза Азамхужаевна,
Учитель русского языка школы №32,
Ташкентская область, р. Сергели

Аннотация. *В данной статье предложена организация комплексной работы по формированию и совершенствованию речевых навыков школьников.*

Ключевые слова: *речевая культура, речевой навык, совершенствование, метод, прием, грамматический класс.*

Школьники довольно часто допускают ошибки в произношении слов, постановке ударения, словообразовании, словоизменении, употреблении слов, что свидетельствует о достаточно низком уровне их речевой культуры. Это, в свою очередь, создает предпосылки для поиска новых эффективных методов и приемов, направленных на совершенствование культуры речи учащихся[1].

При изучении имени существительного рассматриваются различные методы как одной из сложных частей речи, играющей важную роль в организации текстового пространства. Этот грамматический класс слов имеет большое количество форм, употребление которых в речи вызывает трудности, связанные как с семантикой существительных, так и с их образованием, с употреблением в ходе продуцирования высказывания.

Наиболее часто встречаются грамматические ошибки, связанные с неправильным употреблением форм рода, числа и падежа имен существительных, с выбором управляемого и согласуемого слова в структуре словосочетания, нарушениями в согласовании главных членов предложения и т.д.

Поэтому, в целях совершенствования речевой культуры школьников в процессе овладения грамматическими нормами русского языка, при изучении имени существительного необходимо развивать следующие умения: умения образовывать формы рода, числа, падежа имени существительного и употреблять их в речи; умение выбирать правильную падежную, предложно-падежную форму управляемого слова; умение согласовывать определение с определяемым словом в словосочетании; умение согласовывать главные члены предложения.

Отбор языкового материала для заданий должен осуществляться с учетом принципа доступности данной лексики.

Важным условием эффективности работы по совершенствованию речевой культуры школьников является ее систематичность. В ходе изучения категории рода имени существительного для формирования умений образовывать формы рода и употреблять их в речи учащимся можно предложить следующие задания:

1. Подберите и запишите к существительным мужского рода (где это возможно) соответствующие существительные женского рода.

Учитель, санитар, чемпион, массажист, секретарь, ученик, адвокат, бригадир, доктор, врач, генерал, защитник, директор, солист.

2. Определите род существительных. Составьте словосочетания, подобрав подходящие по смыслу прилагательные.

Тюль, пони, внук, кенгуру, девочка, шампунь, доярка, жена, бра, заяц, львица, такси, мороженое, орел, жюри, рояль, интервью, художник, нож, канал, капуста, тарелка, пальто, путь, леди, билет, соловей, кофе, адвокат, колокольчик, судья.

Следующую группу заданий использовать при изучении категории числа имени существительного. Они направлены на развитие умения образовывать формы множественного и единственного числа и употреблять их в речи.

1. Поставьте данные существительные в форму множественного числа родительного падежа.

Автор, абрикос, выбор, директор, ботинок, свадьба, яблоня, цапля, катер, лекарь, грузин,

1 Аванесов Р.И. Из истории русского вокализа //Из истории отечественной фонологии / Под ред. А.А. Реформатского. М., 2010. -178 с.

осетин, ладонь, зеркало, шорты, оратор, отпуск, офицер, порт, профессор, редактор, сторож, трактор, фельдшер, пастель, шофер, басня, гранат, брызги, баклажан, банан, няня, томат, кухня, якорь.

2. От данных существительных образуйте форму единственного числа, именительного падежа.

Близнецы, ботинки, макароны, туркмены, брюки, брызги, гектары, брови, валенки, варежки, войска, волосы, казаки, румыны, кавычки, коньки, лыжи, носки, дрова, овощи, перчатки, родители, отруби, ясли, мемуары, тапки, туфли, усы, уши, будни, каникулы, бусы, фрукты, чулки.

Для развития умений выбирать правильную падежную форму управляемого слова в словосочетании, согласовывать главные члены предложения Предлагаются следующие задания:

1. Раскройте скобки и поставьте существительные в правильную падежную форму.

Занятия на (дом). На (дом) висит флаг. Читали о фруктовом (сад). Гуляли в (сад). Встретиться на (мост). Говорили о (мост). На столе стоит стакан (чай). Выпить (чай). Насыпать (сахар) в стакан.

2. Составьте сочетания со следующими существительными, используя предлоги согласно, благодаря, вопреки.

Помощь, приказание, желание, совет, умение работать, намерение врагов, интересы школьников.

3. Составьте словосочетания со следующими существительными, используя подходящие по смыслу предлоги (с, на, из, в):

…юг –…юга, … побережье –… побережье, … Киев –… Киева, …город – …города, … школу –…школы, …сад –…сада, …дерево –… дерева.

Эффективным приемом, позволяющим изучить и закрепить слова, которые вызывают трудности у школьников при образовании форм рода, числа, падежа, является применение опорных таблиц-помощников. Учитель может расположить их в грамматическом уголке «Учимся говорить и писать правильно». Для составления таблиц используются справочные материалы о трудных случаях употребления имен существительных. Слабо успевающим детям следует предложить таблицы-памятки, включающие материал, актуальный для изучаемой на данный момент темы (например, правильные формы слов, которые вызывают затруднения, и т.д.)[1].

Таким образом, системное и целенаправленное применение заданий подобного характера будет способствовать развитию памяти, внимания детей, будет содействовать формированию у школьников интереса к языку, активизации умственной деятельности, что в целом будет эффективно для совершенствования речевой культуры школьников в процессе изучения грамматических норм русского литературного языка.

Литература:

1.Аванесов Р.И, Сидоров В.Н. Очерк грамматики русского литературного языка. 4.1. М., 2005. - 122 с.

2. Артёмов В.А. Психология речи. М., 1999. - 104 с.

1 . Аванесов Р.И. Историческая грамматика русского языка. М., 1997. -103 с.

БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА “АТРОФИМИЗДАГИ ОЛАМ” ВА “ТАБИАТШУНОСЛИК” ДАРСЛАРИДА ТАЪЛИМ –ТАРБИЯ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Норова Чарос Рустамовна,
Соатова Гулруҳ Салимовна
Қашқадарё вилояти, Яккабоғ тумани
8-сонли мактабнинг бошланғич синф ўқитувчилари

Аннотация. Мазкур мақолада бошланғич синф ўқитувчисининг “Атрофимиздаги олам” ва “Табиатшунослик” дарсларини намунали ташкил қилиш тўғрисида тавсиялар берилган.

Калит сўзлар. Суратлар, диафилмлар, диапозитивлар, мултимедиалар, моделлар, макетлар, муляжлар.

Болаларнинг атрофдаги оламни мунтазам ўрганиб боришларига асосланиб, кичик ёшдаги ўқувчиларда табиат тўғрисида, ўз жойи ва барча мамлакатнинг табиий бойликлари тўғрисида бир бутун тасаввур шаклланиши керак. Ўқувчилар Ватанимизнинг табиий бойликларидан одамлар ўзларининг меҳнат фаолиятларида қандай фойдаланаётганликлари билан танишишлари зарур. Бунда болаларга одамлар меҳнати атроф табиат билан чамбарчас боғлиқ эканлигини кўрсатиш ғоят муҳимдир.

Шу талабларга кўра кичик ёшдаги ўқувчиларга:

-жонли ва жонсиз табиат тўғрисида аниқ билимлар бериш, уларнинг ўзаро боғлиқлигини очиб бериш;

-одам, одам организми ва унинг саломатлигини сақлаш тўғрисида маълумотлар бериш;

-табиатда кузатишлар ўтказиш ўқуви ва кўникмалари билан қуроллантириш;

-табиатдан оқилона фойдаланиш ва унинг бойлигини купайтиришга қаратилган инсоннинг меҳнат фаолияти билан таништириш;

-жонажон табиатга муҳаббат, уни муҳофаза қилишга интилишни тарбиялаш.

Инсон табиат жисмлари ва ҳодисалари оламида яшайди, улар билан ҳар куни мулоқотда бўлади. Атроф оламда ўзини тўғри тушуна билиш учун одамлар айрим жисм ва ҳодисани (дарахт, тош, ҳайвон ва ҳоказо) ҳам, бир-бирига боғлиқ бўлган жисм ёки ҳодисалар комплексини (кўча, парк, хиёбон, сурат ва ҳоказо) ҳам қабул қила олиш керак.

Қабул қилиш – одам томонидан атроф олам жисмлари ва ҳодисаларини бевосита таъсир қилишда акс эттирилишидир. Кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларининг қабул қилиниши ривожлантириш устида доимо иш олиб бориш керак, токи у мақсадга йўналган ва ташкил қилинган жараёнига айлансин. Сезгили қабул қилишнинг ривожланган бўлишида табиатшунослик дарсларида табиатшунослик тасаввурлари ва тушунчаларини тўғри шакллантириш мақсадида қўлланиладиган кўргазмали қуролларга катта ўрин ажратилади. Табиатшунослик бўйича ўқув қуроллар ғоят хилма-хилдир. Улардан бир хиллари (табиий жисмлар ва уларнинг кўргазмали тасвирлари) дарсларда ўрганиш объект ҳисобланади, бошқалари хизмат кўрсатувчи ролини ўйнайди – уларни ўрганмайдилар. Дарсларда ўрганиш объектлари ҳисобланган қуроллари иккита гуруҳга: табиий жисмлар ва ўқитиш учун махсус тайёрланган. Жисм ва ҳодисаларнинг тасвирларига ажратиш мумкин. Табиий жисмларга тоғ жинслари, металлар, тупроқ намуналари, ўсимликлар, ҳайвонлар киради. Кўргазмали қуроллар сатҳли (суратлар, диафилмлар, диапозитивлар, мултимедиалар) ва ҳажмли (моделлар, макетлар, муляжлар)га ажратилади. Униси ҳам, буниси ҳам ҳаракатсиз ва ҳаракатгача бўлиши мумкин.

Табиатшуносликни ўқитиш учун, айниқса, табиий жисмлар керак, чунки улар ўқувчиларда табиат жисмларини бевосита қабул қилиш асосида тасаввур ва тушунчалар ҳосил қилишда имкон беради (ҳар бир ўқувчи табиий материал билан мустақил ишлай олиши учун уни етарли миқдорда – ўқувчилар сонига қараб тўплаш керак).

Қабул қилиш учун тери сезгиси, ҳид билиши, маза сезишни талаб қилмайдиган йирик жисмларни ўқитувчи узоқдан туриб намойиш қилади.

Нарсани ҳамма ўқувчилар яхши кўришлари учун уни синф тахтасига ўрнатилади ва ўқитувчи столи устидаги баландликка қўйилади.

Тирик ҳайвонларни намойиш қилиш ўқувчиларда фақат уларнинг ташқи кўринишинигина эмас, балки ҳаракатни, қилиқларини, чиқарган овозини ва ҳоказоларни қабул қилишга

имкон беради, бу болалар онгида анча тўлиқ ва равшан тасаввурлар ҳосил бўлишини таъминлайди. Кузатишларда яхшироқ раҳбарлик қилиш учун ўқитувчилар олдида улар эътиборини кузатилаётган нарсанинг характерли хусусиятларига (катта-кичиклиги, шакли, ранги, асосий қисмлари, ҳаракатланиш усули ва ҳоказо).

Табиатшуносликни ўқитишда ўқитувчи ўқувчиларга уларни ҳали кўрмаган кўпгина жой ва ҳодисалар тўғрисида маълумотлар беради. Бироқ энг жозибали ва қизиқарли ҳикоя, агар у яхши кўргазма кўрсатмаса, етарли тўлиқ ва ёрқин тасаввурлар бера олмайди. Ўқитувчи қайси турдаги кўргазмали қурол билан ишламасин, унинг мақсади кўргазманинг табиатшунослик билимларининг манбаи сифатида ундан фойдалана олиш ўқувини ҳосил қилишдир.

Дарснинг тузилиши ва кўргазмали қуролнинг мазмунига қараб, ундан ҳар хил фойдаланилади. Кургазмадаги сурат ўқитувчи ҳикоясининг тасвирланиши бўлиб хизмат қилиши мумкин. Такрорлаш – умумлаштириш дарсларида кўргазмали суратлардан ташқари илгари нотаниш бўлган китоб, журнал ва газеталарнинг суратларидан фойдаланилади, бу материалнинг ўзлаштирилишини текширишда ёрдам беради. Бу эса “Атрофимиздаги олам” ва “Табиатшунослик” дарсларида кўргазмали қуроллар билан ишлашда уларнинг мазмунидан тўғри фойдаланиш, болаларнинг кузатишларига тўғри раҳбарлик қилишни талаб этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Тўгарак машғулотлари учун методик тавсиялар. Жумаева.М.Т.2017.

2.Ишмуҳамедов.Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. -Т.2004. 3 бет.

3. С.Расулов Бошланғич экология.–Т.2018.

СОҒЛОМ ЭКОЛОГИК МУҲИТ – БАРКАМОЛ АВЛОД ИСТИҚБОЛИ

Расулова Салтанат Панжиевна
Қувондиқова Сабо Собировна
Қашқадарё вилояти, Яккабоғ тумани 8-сонли
мактабнинг биология фани ўқитувчилари

Аннотация. Ушбу мақолада асосан экологик маданиятни ёшларда шакллатиришга доир кўрсатмалар берилган.

Калит сўзлар. Ўсимлик, ҳайвонот дунёси, экологик тарбия, табиий ресурслар, биосфера, техникалаштириш, индустрлаштириш, интеллектуализация.

Бугунги кунда дунё тамаддуни қиёфасини белгилайдиган етакчи хусусиятлардан бири, шак-шубҳасиз, ер юзи бўйлаб тобора кенг ёйилиб бораётган экологик муаммолар жараёнидир. Инсониятнинг кейинги вақтларда табиатга кўрсатаётган зуғумини энг бешафқат кучлар билан тенг қўйиш мумкин. Айниқса, ўтган XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб экологик фалокатлар сони кўпайиб, инсоният таъсирида улар янада хатарли тус олмоқда. Табиатга нисбатан қилинган хатти-ҳаракатлар ўз салбий натижаларини бериб, инсониятни ҳалокат ёқасига келтириб қўйди.

Дунё ҳамжамиятини олдида турган муаммоларнинг ечимини топиш ҳар галгидан ҳам муҳим ва долзарб вазифа бўлиб қолмоқда. Ҳозирги пайтда экологик инқироз ҳолатидан чиқиб кетиш борасида турли хил қарашлар ва таклифлаар билдирилмоқда. Хусусан, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, биосфера мувозанатини сақлаш учун меъёрий истеъмол қилиш, ер курраси аҳолисининг ўсиб бораётган моддий ва маънавий эҳтиёжларини мувофиқлаштириш, табиатдан экстенсив фойдаланиш концепциясини алмаштириш, инсоният ҳаётини экологиялаштириш ғоялари илгари сурилмоқда. Жамият ҳақида экологик барқарорликни таъминлайдиган мезонлари таркибидаги маънавий-маданий кўрсаткичлар ва таълим тарбия жараёни асосий аҳамият касб этмоқда.

Бугунги куннинг муҳим хусусияти бўлган: техникалаштириш, индустрлаштириш, интеллектуализация жараёнларини экологик эҳтиёжлар асосида инсонпарварлаштиришни тақозо қилмоқда. Айни пайтда, эҳтиёжлар муросасини оқилона ташкил қилишни, инсон ва ижтимоий институтлар экологик фаолиятларини мувофиқлаштиришни кун тартибига қўймоқда. Бундай ёндашув инсон ва ёшларнинг табиатга муносабатини тубдан ўзгартириб, янги қадриятлар тизимини, янги дунёқараш типини ва амалий фаолият йўналишини юзага келтиради. Баркамол авлоднинг табиатга оқилона муносабати ғоясининг амалий самараси экологик дунёқарашнинг шаклланишида муҳим аҳамият касб этади.

Ёшларнинг экологик муносабатини шакллантириш ва баркамол авлод қилиб тарбиялаш ёшларга доир давлат сиёсатининг устувор йўналиши бўлиб, бу борада барча назарий ва амалий шарт-шароитлар яратилган. Мамлакатимизда бугун таълим-тарбия соҳасида, маънавий-маърифий ва экологик тарбия соҳасида ҳам кўплаб ишлар амалга оширилмоқда. Айни пайтда, мактабларга, айниқса, қишлоқ мактабларига эътибор кучайтирилмоқда. Айнан туманларда ихтисослашган мактабларнинг кўпайиши бунинг яққол далилидир.

Бугун давлат бюджети ҳаражатлар қисмининг 50 фоиздан кўпроғи мумлакатимизда фақат таълим-тарбия ва соғлиқни сақлаш соҳаларини ривожлантиришга йўналтириляпти. Мана шундай замонавий таълим масканлари барпо этилаётган шароитда ёш авлоднинг табиат ва атроф муҳитга бўлган гуманистик салоҳиятини шакллантириш бугунги таълим тизими борасида олиб борилаётган долзарб вазифалари қаторига киради.

Экологик тарбия масаласи, айниқса, ҳозирги бозор иқтисодиёти муносабатлари жараёнида ниҳоятда муҳимдир. Чунки корхона ва ишлаб чиқариш ташкилотлари ўз даромадларидан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқариш базасини кенгайтиришни ва янгилашни асосий вазифа деб биладилар. Бу вазифага эса илмий-техника тараққиётига, унинг сўнгги ютуқларига суянмай туриб эришиш мумкин эмас.

Экологик муаммоларни ҳал этишда, аҳоли ўртасида экологик онгни такомиллаштиришда республикамиз президентининг асарларида ҳам фикрларни ўқишимиз мумкин. Экологик муаммоларнинг келиб чиқиш сабаблари ва оқибатлари, уларнинг кишилар саломатлигига таъсири, иқтисодий зарари, табиий бойликлардан овилона фойдаланиш йўллари

батафсил ёритилган. Бунга кўра экологик таълим ва тарбиянинг бош мақсади – ўсиб келаётган ёш авлодга, фуқароларда атрофдаги табиий муҳитга нисбатан истеъмолчилик қарашларни бартараф қилиб, табиат билан уйғун, масъулиятли муносабатга тайёргарликни шакллантиришдан иборат.

Хулоса қилиб айтганда, барча инсонлар, айниқса ёшлар ва болаларни ўсимлик, ҳайвонот дунёси ва атроф-муҳитга меҳр-мурувват руҳида тарбиялаш – давлат аҳамиятига молик бўлган долзарб масаладир. Президентимиз эътироф этганидек – “...кенг кўламдаги экологик танглик таҳдидини барҳам топтириш, республика аҳолиси учун зарур шарт-шароитлар ҳамда экология жиҳатдан мусаффо ҳаётий муҳит яратиш имконини беради”. Республикамизда олиб борилаётган сиёсат тизимида соғлом экологик муҳитни яратиб, баркамол авлоднинг камол топиши – келажагимиз истиқболи бўлиб хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Тўгарак машғулотлари учун методик тавсиялар. Жумаева.М.Т.2017.

2.Ишмуҳамедов.Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. -Т.2004. 3 бет.

3. С.Расулов Бошланғич экология.–Т.2018.

ЎҚУВЧИЛАРНИ БАДИИЙ АСАРНИ ИФОДАЛИ ЎҚИШГА ЎРГАТИШДА НУТҚ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ

Раҳмонова Саида Исмоиловна,
Қашқадарё вилояти, Деҳқонобод тумани
35-сонли мактабнинг она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси,
Кенжаева Камола Эшмаматовна
Андижон вилояти, Андижон шаҳар 17-сонли мактабнинг
она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада она тили ва адабиёт фани ўқитувчиларининг ўқувчининг нутқ маданиятини ва ифодали ўқишини шакллантиришдаги вазифалари, услублар ва эришилиши керак бўлган натижалар ҳақида тавсиялар берилган.

Калит сўзлар. Нутқ урғу, рауза, оҳанг, темп, ритм, ифодали ўқиш, дикция, мутолаа, ибора, тасвирий воситалар.

Таълим-тарбия тизимида унинг ҳар бир бўғини муайян мақсадга йўналтирилгани каби она тили ва адабиёт дарслари ҳам ўқувчиларни эркин фикрлашга ўргатиш, мустақил мутолаага рағбат уйғотишига кўра алоҳида аҳамият касб этади. Ўрта мактабларининг она тили ва адабиёт дарсларида кўпинча ўқувчилар билимига эътибор берилади-ю, асарни ифодали ўқишига, унинг сўзи, маъно кенгликларига жиддий эътибор берилмайди. Ваҳоланки, биз аждодлардан авлодларга ўтиб келаётган бебаҳо бойликнинг ворислари сифатида она тилимизни асраб-авайлашимиз, уни бойитиш нуфузини янада ошириш устида доимий ишлашимиз зарур... Бир сўз билан айтганда, ўзбек тилини илмий асосда ҳар томонлама ривожлантириш миллий ўзликни, Ватан туйғусини англашдек эзгу мақсадларга хизмат қилиши шубҳасиз.Дарҳақиқат, сўнгги йилларда синовлар тест воситасида ўтказилаётганлиги туфайли, ҳаттоки фан олимпиадаларида шеърхонлик, китобхонлик, иншолар ёзиш орқали ўқувчилар нутқ маданиятини аниқлаш ишига талаб сусайди.

Ўқувчиларни ифодали ўқишга ўргатишда нутқ маданиятини шакллантиришга катта аҳамият бериш талаб этилади. Кўп китоб ўқиган ўқувчининг нутқи равон бўлади, унинг нутқида “анақа”, “анув” каби сўзлар учрамайди. Ўқувчилар бадиий асар ўқиётганида нутқнинг урғу, рауза, оҳанг, темп ва ритм каби унсурларига эътиборли бўлишлари талаб этилади.

Бизнингча, ифодали ўқиш жараёнида нутқнинг қуйидаги мезонларига эътибор бериш лозим:

-ўқувчиларнинг нутқини гўзал, равон бўлиши учун уларни лаббай устоз, марҳамат, узр, малол келмаса,калла каби мурожаат сўзларининг нутқий синонимларидан фойдаланишга одатлантириш;

-нутқнинг содда, аниқ ва мазмунли бўлишига эришиш;

-оғзаки ва ёзма нутқда халқ мақоллари, ибора ва тасвирий воситалардан кўпроқ фойдаланиш;

-бадиий асар қаҳрамонлари нутқини адабий тил меъёрларига мос қилиб бериш;

-ўқувчиларга ибора ва мақолларнинг маъносини тушуниб, уларни шарҳлай олишни, нутқ синонимларни ишлатишни ўргатиш;

-она тили дарсларида нотиқлик санъати бўйича сабоқ беришни кўзда тутиш;

-оғзаки ва ёзма нутқда имловий ва услубий хатоларга йўл қўймаслик.

Ўқувчиларни бадиий асарни ифодали ўқишда муваффақиятга эришишлари учун уларнинг идроки, хотираси, тафаккури ва нутқини устиришга жиддий масала сифатида қараши лозим. Айниқса, бошланғич синфларда савод ўргатиш даврида ўқувчиларни нутқ товушларини тўғри талаффуз қилишга, уларнинг эшитиш қобилиятларини ўстиришга, бўғин ёки сўз таркибидаги товушларни ажрата олиш кўникмасини оширишга алоҳида аҳамият бериш лозим. Ифодали ўқиш пайтида интонация – оҳанг ёрдамида асарнинг ғояси ва жозибасини тўғри, аниқ, ёзувчи ниятига мос равишда ифодалашга эриши жуда муҳимдир.

Тил ва тафаккурнинг бувосита боғлиқлиги инсон нутқида намоён бўлади. Нутқ ақлий фаолиятнинг алоҳида тури бўлиб, алоқа воситаси саналади. Ўқувчилар нутқ ёрдамида тушунча ва билимларни қиёслайди, таснифлайди, тизимлаштиради ва умумлаштиради.

Мукаммал даражада ривожланган нутқ ўқув фаолиятининг жадаллашувига хизмат қилади. Нутқи яхши ривожланган ўқувчигина ўқиш дарсларида фаол қатнашади, таълим олиш самарадорлиги ортади.

Ўқувчиларнинг ифодали нутқ асосларини эгаллашлари учун муҳим шартлар қуйидагилардан иборат:

1)нутқ жараёнида нафасни тўғри олиш ва тўғри тақсимлай билиш;

2)ҳар бир товушнинг тўғри артикуляцияси ва аниқ дикция (бурро гапириш) малакасини эгаллаш;

3)адабий талаффуз меъёрларини эгаллаш.

Бу шартлар фақат ифодали ўқишгагина эмас, балки ифодали нутққа, яъни ҳикоя қилишга ҳам таллуқлидир, шунингдек, ўқувчининг ҳар қандай оғзаки ҳикояси ифодали бўлиши лозим.

Демак, ўқувчилар бадиий асарни ўқишларидан олдин уларнинг талаффузига катта эътибор қаратиш ва тўғри талаффуз қоидаларини ўргатиш лозим. Шундагина ўқувчилар бадиий асарни ифодали ўқий олишлари мумкин. Ўқувчиларини ифодали ўқишга ўргатишда нутқнинг асосий воситалари – интонация, пауза, урғу ва шу кабилар устида қунт билан ишлашга ўргатишт она тили ўқитувчисининг эътиборида бўлмоғи зарур.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Она тили ўқитиш методикаси. Э.Жабборов. –Қарши.2000.

2.Ишмуҳамедов.Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. -Т.2004. .

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ АКТ САВОДХОНЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Ўрозова Райҳон Абдиалимовна,
Ризаева Дилдора Хакимовна
Қашқадарё вилояти,
Яккабоғ тумани 8-сонли мактабнинг
бошланғич синф ўқитувчилари

Аннотация. Ушбу мақолада ўқитувчининг таълим жараёнида инновацион ғоялардан фойдаланиш ва унинг самараси тўғрисида фикрлар мисоллар асосида берилган. Шу билан бирга АКТ саводхонлигига оид камчиликларга алоҳида тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар. Радио, телевидения, интернет, графиклар, диаграммалар, рангли тасвирлар, турли хил чизмалар, ахборот.

Бугунги глобаллашув замонида барча касб ходимларини саводхонлигини, ўз устида тинмай изланиш олиб боришлари, замонавий билим савиясига эга бўлиши давр талабларидан бири ҳисобланади.

Тараққий шу даражада шиддат билан ривожланиб бормоқдаки, бугунги янгилик эртанги кун учун янгилик бўлмай қолди. Шунинг учун ҳам давр талабларига ҳамоҳанг равишда тинмасдан изланиш олиб боришни талаб этади. Айниқса, педагог ходимларни компьютер саводхонлигини ошириш давр талабларига мос ўқувчиларни тарбиялаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси ХТВ нинг қатор буйруқлари ва шу буйруқлар ижросини таъминлаш юзасидан бир неча буйруқ ва чора-тадбирлар қабул қилиниши соҳадаги ишларни янада такомиллаштириш, яъни халқ таълими тизимида фаолият кўрсатаётган педагогларни тўлиғича компьютер саводхонлигига эришишга қаратилган эди.

Бу эса, ўқитувчиларни ўз фаолиятларида, яъни дарс жараёнида ахборот коммуникация технология воситаларидан самарали фойдаланишлари таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Ўқув йили номланиши фақат шу давр билан чекланиб қолмайди, балки шу даврдан бошлаб доимий равишда узлуксиз давом этиб боради. Натижада барча ўқитувчилар ўзларининг АКТ саводхонлик даражаларини мукаммаллаштириб бораверадилар. Ўқувчилар бу орқали ахборот олиш кўламини кенгайтириб борадилар. Ўқувчи ўз фаолияти давомида у ёки бу ҳолда ахборотни олиши ва фойдаланиши мумкин. Аввало, ахборот тушунчаси нима? – деган саволга жавоб топишимиз керак.

Ахборот – бу атама арабча сўз бўлиб, “Хабарлар мажмуаси” деган маънони англатади.

Ахборот сўзига қуйидагича таъриф бериш мумкин. Инсон ўз сезгилари билан идрок қила оладиган барча ҳодиса ва жараёнлар ҳақидаги маълумотлар мажмуасига ахборот дейилади. Ўқувчи ахборот олишни турли манбалардан олиши мумкин: китоб, турли хил чизмалар (лойиҳа, графиклар, диаграммалар, рангли ва манзарали тасвирлар) билан бир қаторда радио, телевидения ва интернет орқали олиш иконнятига эга;

-Турли хил ёзма матнлар – дарслик, қўлланма, илмий-бадиий матнлар, газета ва журналлар;

-Турли хил чизмалар – графиклар, диаграммалар, рангли тасвирлар;

-Турли хил товушлар – одамлар овози, жониворлар, қушлар овози, сунъий товушлар (телефон, радио, телевизор ва мусиқа овозлари);

-Турли хил видеолавҳалар – телевидения кўрсатувлари, инсон ўз кўзи билан кузатадиган воқеа – ҳодисалар;

-Телевидео филмлар ва бошқалар.

Ўқувчи оладиган ахборотлар унинг онгида қайта шаклланади ва ифодаланади, хотирасида мустаҳкам сақланиб қолади.

Фан-техника ютуқлари натижасида ахборот тизимининг янги усули, яъни компьютер яратилди. Компьютер сўзи инглизча сўз бўлиб, “ҳисобловчи” деган манони билдиради. Ҳозирги кунда компьютер ҳисоблаш воситаси бўлиб қолмай, турли маълумотларни олиш, сақлаш, тарқатиш воситасидир. Унинг имкониятлари ниҳоятда чексиз бўлиб интернет деб аталган бутун жаҳон тармоғи орқали дунёнинг исталган кутабхоналарида ўзлари учун

керакли бўлган зарур материаллардан фойдаланиш имкониятлари мавжуддир.

Бундай имкониятдан фойдаланиш учун болалар бошланғич синфларданоқ АКТ ларни ўрганиб, компьютер саводхонлигига эришишлари талаб этилади. Ўқувчилар компьютер билан танишиб, сияқонча, клавиатурадаги ҳарфлар жойлашиши, ёзиш, ҳисоблаш малакаларига эга бўлиб борадилар. Бунинг учун таълим маркази томонидан тайёрланган махсус тренажёрлардан фойдаланиш самараси фойда беради. Бугунги кунда ўқувчилар учун яратилган мултимедиа дарсларини ўқитувчи дарс жараёнида 5 – 10 дақиқа давомида намойиш қилиб бериши ҳам катта аҳамиятга эга. Ўқувчи бундай машғулотларни ўзлари бошқариб ўрганишлари ҳам уларнинг компьютер билан ишлаш малакаларини шаклланишига замин яратади.

Мултимедиа деганда турли шаклдаги турли шаклдаги маълумотларни файта ишловчи воситалар мажмуаси тушунилади. Бундан ташқари, ўқувчиларни мустақил шуғулланишлари учун электрон дарсликлар яратилган. Бунда айрим муҳим мавзулар баёни, ундаги машқлар, топшириқлар, тестлар мултимедиа орқали берилади. Бу ўқувчиларни мустақил ишлашга, бўш вақтларини мазмунли ва фойдали ўтқазиш имкониятини беради.

Юқоридаги вазифаларни амалга оширишда қуйидагиларга эътибор бериш керак:

1.Ўқитувчи ҳар томонлама АКТ саводхонлигига эга бўлиши.

2.Дарсларни замонавий тарзда моделлаштира олиши.

3.Ўқувчиларни фанга қизиқишларини уйғота олиши.

4.Билимларни чуқурлаштириш учун қўшимча маълумот ва ахборотга эга бўлиши.

5.Ўқувчиларни АКТ ларга жалб олишлари, уни эгаллаш ва унда доимий ишлашга бўлган эҳтиёжларини шакллантириб боришлари.

6.Ўқувчиларда мустақил ишлаш фаолияти ва ҳамкорликда фаолият кўрсатишлари кўникмаларини шакллантириш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Тўгарак машғулотлари учун методик тавсиялар. Жумаева.М.Т.2017.

2. Ишмуҳамедов.Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. -Т.2004. 3 бет.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Черняховская Людмила Анатольевна
учитель биологии школа 182
Чиланзарский район г. Ташкент
+998974105351

Аннотация

Результаты работы учителя оцениваются умениями его учеников, уровнем самодеятельности учащихся на уроке, отношением учащихся к предмету, учителю, друг к другу, воспитательной и развивающей подвижностью личности, возникшей в ходе урока. В результате моей работы в школе я пришла к выводу, что добиться хороших успехов в обучении можно только путем повышения интереса к своему предмету. Для этого я использую на уроках современные педагогические технологии, в том числе информационно-коммуникационные.

Ключевые слова: *информационно-коммуникационные технологии, успехи в обучении, дидактические функции*

Информационная технология обучения – это педагогическая технология, использующая специальные способы, программные и технические средства (кино-, аудио- и видео средства, компьютеры, телекоммуникационные сети) для работы с информацией. Как и все методы, методические приемы, средства обучения выполняют триединство дидактических функций, которые, в принципе, остаются неизменными в любом предметном обучении и выполняют триединые функции: обучение, развитие, воспитание в рамках предметной деятельности с учётом использования средств цифровых образовательных ресурсов (ЦОР) и методик информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). Использование ИКТ на уроках биологии позволяет повысить качество обучения предмету; отразить существенные стороны различных объектов, зримо воплотив в жизнь принцип наглядности; выдвинуть на передний план наиболее важные (с точки зрения учебных целей и задач) характеристики изучаемых объектов и явлений природы.

Сеть Интернет несет громадный потенциал образовательных услуг (электронная почта, поисковые системы, электронные конференции) и становится составной частью современного образования. Получая из сети учебно-значимую информацию, учащиеся приобретают навыки:

- целенаправленно находить информацию и систематизировать ее по заданным признакам;
- видеть информацию в целом, а не фрагментарно, выделять главное в информационном сообщении.

Использование ресурсов Интернета на уроке при изучении нового материала делает урок интереснее, повышается мотивация ученика к получению знаний. В Интернете можно найти тематические сайты по всем предметам школьного курса, задачники с подробными решениями, тесты, рефераты, модели различных опытов. Ни для кого из педагогов уже не секрет, что в качестве источника информации подавляющее большинство современных школьников используют отнюдь не литературные источники, а ресурсы Интернет. В этом есть большое преимущество, хотя бы в том, что ребята экономят личное время. Задача учителя научить учащихся правильно работать с найденной информацией, уметь ее структурировать, составлять к ней логические схемы, вопросы, выделять главное. Например, при изучении темы «Происхождение живого вещества» ребята получают предварительное задание найти информацию в Интернете. Задания могут носить как индивидуальные, так и групповой характер. Если время позволяет лучшие работы можно отметить и предложить ребятам выступить с сообщениями по своим темам, конечно же, такая форма это результат длительной целенаправленной работы с учащимися над информацией. При организации исследовательской деятельности ресурсы Интернет становятся незаменимыми при поиске теоретической информации, для ознакомления с другими исследовательскими проектами,

ну и, наконец, в Интернете можно найти информацию о проведении конкурсов и принять в таковых участие.

Электронные энциклопедии – являются аналогами обычных справочно-информационных изданий – энциклопедий, словарей, справочников и т.д. Для создания таких энциклопедий используются гипертекстовые системы и языки гипертекстовой разметки, например, HTML. В отличие от своих бумажных аналогов они обладают дополнительными свойствами и возможностями:

- они обычно поддерживают удобную систему поиска по ключевым словам и понятиям;
- удобная система навигации на основе гиперссылок;
- возможность включать в себя аудио– и видеофрагменты.

В последнее время широкую популярность приобрели информационные продукты компании «Кирилл и Мефодий». В их каталоге имеется большой выбор разработок, которые можно использовать на уроках биологии и экологии, а также для индивидуальной работы дома, в том числе и учащимся, и учителями. Ярким примером является «Большая энциклопедия». В ней для урока можно найти: справочные таблицы и схемы, различные интерактивы, в том числе классификации живых существ и растений, мультимедийные панорамы («эволюция жизни», «экосистемы Земли»), видеоприложения («жизнь диких животных»), фонотеку («голоса животных»), фотоальбомы «хищные звери»), Красную книгу и многое другое.

Литература

1. Сафонов, М. А. Практический курс методики обучения биологии: учеб.-метод. пособие для студ. вузов биол. специальностей. М. : Дом педагогики, 2011

2. Пономарева, И.Н. Общая методика обучения биологии: Учебное пособие для студентов педагогических вузов. М.: Издательский центр «Академия», 2007

O’QUVCHI SHAXSIDA IJOBIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Abdullayeva Gulnoza Abdullayevna
Bog’ot tumani 16-son Umumiy
o’rta ta’lim maktabi psixologi.
+99891433-34-03
yibrat@inbox.ru

ANNOTATSIYA: Maqolada o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonida ijobiy sifatlarni va yaxshi xulq-atvorni rivojlantirish orqali yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo’naltirishning psixologik asoslari ochib berilgan.

KALIT SO’ZLAR: Shaxs, barkamol shaxs, mafkuraviy soha, etakchilik, bilish sohasi, muloqotchanlik, o‘zini idora eta bilish, kuchlilik.

Bugungi kunda mamlakatimiz rivojlanishning yangi bosqichiga ko’tarilib borayotgan ekan ta’lim - tarbiya sohasida ham zamon talablaridan kelib chiqqan holda ish tutishni davrning o’zi taqazo qilmoqda. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo’yicha beshta muhum tashabbusning qabul qilinishi shular jumlasidandir. Hozirgi zamonaviy interfaol usullardan foydalanish orqali ta’lim – tarbiya olgan o’quvchilar kelajakdagi faoliyatlarida uddaburon, tashkilotchi, faol, ishbilarmon, qobilyatli har taraflama mukammal bo’lib shakillanadi.

Har bir bola o’z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Bolalarni tarbiyalashda ularning ana shu o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o’rganish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligiga mos keladigan maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko’rayotgan yoshlar uning ana shunday, xususiyatlarini bilishlari lozim. [1]

O’quvchi shaxsining xususiyatlari quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- ***mafkuraviy sohada*** — ilmiy dunyoqarash va e’tiqod, sotsial ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy faollik;
- ***etakchilikda*** - tashkilotchilik, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik qat’iylik va maqsadga intilish, vazminlik o’zini tuta olish;
- ***bilish sohasida*** – keng ilmiy saviya, ma’naviy ehtiyoj va qiziqish, yangilikni his qila bilish, bilimlarni oshirishga intilish.

Shaxsga xos ijobiy sifatlar faoliyat jarayonida paydo bo’ladi va rivojlanadi. Shaxsga xos sifatlar malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o’qish natijasi hisoblansa, ijobiy sifatlarning rivojlanishi uchun esa iste’dod, layoqat, zehn, ya’ni inson asab sistemasida anatomo-fiziologik xususiyat ham bo’lishi zarur.

Barkamol shaxsni tarbiyalash uchun o’quvchida ijobiy sifatlarni quyidagi turlari mavjud bo’lmog’i va tarbiyalanmog’i lozim:

1. Muloqotchanlik
2. Tashkilotchilik
3. Etakchilik
4. Faollik
5. O’zini idora eta bilish
6. Kuchlilik, zehnlilik.
7. Faoliyatga ijodiy yondasha bilish sifatlari[2]

O’quvchiga zarur fazilatlardan yana biri - maqsadga intilish. O’quvchi o’z oldiga aniq maqsad qo’ya olishi va uni bajarishga intilishi shart. Insonga xos intilishni ikki toifaga bo’lish mumkin: birinchisi, maqsadga intilish bo’lsa, ikkinchisi, mag’lubiyatdan qochish.

Ma’lumki, hech bir inson yuqorida aytilgan xislatlar bilan birga tug’ilmaydi. Bular inson yashash tarzining, ta’lim-tarbiyaning mahsulidir. Yoshlarda ijobiy sifatlarni va yaxshi xulq-atvorni rivojlantirish orqali yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo’naltirish talab etiladi. Bunda quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- O’quvchi shaxsiga xos ijobiy sifatlarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o’rganish;

- davlatimiz tomonidan yoshlarda ijobiy sifatlarni shakllantirish sohasida olib borilayotgan ishlarni tizimli tahlil qilish;
- yoshlarda ijobiy sifatlarni shakllantirishga ta’sir etuvchi turli ehtiyoj va omillarni o’rganish;
- o’quvchilar faolligini yanada oshirish orqali ularning yangi qirralarini yuzaga chiqarish.[3]

Yuksak ijobiy sifatlarga ega bo’lgan kadrlar jamiyat uchun ijtimoiy buyurtma hisoblanadi. Shunday ekan o’quvchilarda shaxsga xos ijobiy sifarlarni shakllantirish, milliy mafkurani shakllantirish bilan birgalikda olib borilishi lozim.

Tatqiqotlar natijalaridan shu narsa ma’lum bo’ldiki, o’quvchilarda sinfdan tashqari mashg’ulotlarda ijobiy sifatlarni shakllantirishda quyidagi tamoyillarga rioya etish muhimdir:

1. Sinfdan tashqari o’tkaziladigan ta’lim jarayonini aniq maqsadda tashkil etish, uning natijalarini xolis baholash, tarbiyaviy jarayonda tutgan o’rnini aniqlash, uni pedagogik va psixologik tahlil etish va baholash.
2. Bu jarayonni ilmiy, uzluksiz, izchil, tizimli asosda tashkil etish.
3. O’quv fanlarni o’qitishda ta’lim-tarbiya jarayonining (sinf va sinfdan tashqari mashg’ulotlar) uzviyligini ta’minlash.

O’quvchilarda ijobiy sifatlarni shakllantirish ta’lim - tarbiya jarayoniga uzviy va tizimli yondashishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Raximova D., Bekmurodov M. Liderlik va tashkilot madaniyati. -T.: “Akademiya”, 2006.
2. G’oziev E. Umumiy psixologiya. Toshkent – 2010. 542bet.
3. Ochilov M. O’qituvchi – qalb me’mori. – Toshkent: O’qituvchi, 2001.
4. www.Expert.psychology.ru
5. www. Ziyonet. uz

КОЛМОГОРОВ-ФИШЕР ТУРИДАГИ ТЕНГЛАМАЛАРНИ САҚЛАНИШ ҚОНУНИ АСОСИДА КЕЛТИРИБ ЧИҚАРИШ

Хушиева Қизларгул Қаршиевна
Сурхондарё вилояти Термиз шаҳар 11-сонли умумий ўрта
та’лим мактабининг математика фани ўқитувчиси.
Очилдийева Дилдора Хуррамовна
Сурхондарё вилояти Термиз шаҳар 11-сонли умумий ўрта
та’лим мактабининг математика фани ўқитувчиси.
Шокирова Шахноза Хасановна
Сурхондарё вилояти Термиз шаҳар 1-сонли умумий ўрта
та’лим мактабининг математика фани ўқитувчиси.

Аннотация. Мазкур мақолада тенгламани ўрганишдан асосий мақсад диффузия мавжуд бўлмаган шароитда кинематик равишда тарқалаётган тўлқинларга диффузия қандай таъсир кўрсатишини аниқлашдир. тенгламанинг тўлқин шаклидаги ечимлари кинематик ечимлар ҳақида маълумонлар таҳлил этилган.

Таянч сўзлар: детерменик версияси, чизиқсиз тенгламалар, инвариант-гурухли, фазовий текислик, табиий функциялар.

Бу тенглама тарихий ва педагогик нуқтаи назардан муҳим аҳамиятга эга. Мазкур тенглама (квадратли ўнг томон ўрнига кубли ночизиқли тенглама каби) Фишер томонидан (1937) диплоид кўпайиш жараёнига мувофиқ геннинг стохастик тарқалишининг детерменик версияси сифатида таклиф этилган эди.

Фишер тенгламаси диффузияли реакцияларга оид энг содда кўринишдаги чизиқсиз тенгламалардан бўлиб, унда бизни қизиқтирувчи тўлқин турларидан ҳеч бўлмаганда биттаси, яъни яккаланган фронт ҳосил бўлади. тенглама популяция ўсиши логистик моделининг энг оддий диффузион моделидир.

Мазкур тенгламани ўрганишдан асосий мақсад диффузия мавжуд бўлмаган шароитда кинематик равишда тарқалаётган тўлқинларга диффузия қандай таъсир кўрсатишини аниқлашдир. тенгламанинг тўлқин шаклидаги ечимлари кинематик ечимлар деб ҳам аталади.

Бу ерда c - тўлқин тезлиги. тенглама x ни $-x$ га алмаштиришга нисбатан инвариант бўлганлиги сабабли, c тезлик мусбат ёки манфий бўлиши мумкин; аниқлик учун c тезликни мусбат деб белгилайлик, у ҳолда x ўқининг манфий йўналиши бўйлаб тарқалаётган тўлқинни ифодалайди. ни га қўйсак $f(z)$ қуйидаги тенгламани қаноатлантирувчи функция бўлади.

$$Df''-cf'+kf(1-f)=0$$

бу ерда штрих z бўйича дифференциаллашни ифодалайди. Умуман айтганда, $u(x,0)$ функциянинг $x\to\pm\infty$ да ўзини тутиши, югурувчи тўлқиннинг вақт бўйича эволюциясида ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бу масала билан Маккин, Ларсон ва Файф и Маклеодлар махсус шуғулланганлар. $c\geq c_{\min}$ ҳол учун формадаги тўлқин ечимларнинг мавжудлигини кўрсатиш мақсадида, тегламанинг таҳлилига фазовий текислик услуби ишлатамиз (масалан, Минорский ёки Сансоне ва Конти китобларига қаралсин) ва ўз навбатида $0\leq f\leq 1$ оралиқда чегаравий шартларни қаноатлантирувчи узлуксиз ечим мавжуд эканлиги шартини қидирамиз. Натижада c учун чексиз соҳада хусусий ечимларни топиш масаласига келамиз. Тенгламани биринчи тартибли тенглама кўринишида ёзиб, унинг фазовий таҳлилига ўтамиз

$$f'=F,\ DF'=cF-kf(1-f)$$

(f,F) фазо текислигидаги траекториялар қуйидаги тенгламанинг ечимлари бўлади.

$$\frac{DF}{df} = \frac{cF - kf(1-f)}{DF},$$

бу тенглама текисликда иккита махсус нуқтага эга:(0,0) ва (1,0). тенгламанинг тўлқин кўринишдаги ечими $0 \le f \le 1$ кесмадаги, F нинг ҳосиласи мусбат бўлганда, (0,0) нуқтадан (1,0) нуқтагача траекториясига мос келади. Агар $0 < c < c_{\min}$ бўлса, (0,0) махсус нуқта турғун бўлмаган фокус бўлади, шу билан бир вақтда, c=0 бўлган ҳолда у марказ бўлади; бундай ҳолларда f нинг берилган шартларни қаноатлантирувчи ечимлари бўлиши мумкин эмас, чунки (0,0) нуқта яқинидаги ихтиёрий траекторияда f<0 бўладиган нуқталарни топиш мумкин. Иккинчи зарурий шарт шундан иборатки, (1,0) махсус нуқта “эгар” нуқтаси бўлади. (1,0) яқинида $f \approx 1$ ва бу ерда чизиқлаштирилган форманинг кўриниши қуйидагича бўлади:

$$\frac{dF}{df} \approx \frac{cF + k(f-1)}{DF},$$

бу эса барча $c \ge 0$ учун эгар нуқтасига тўғри келади, чунки k ва D – мусбат ўзгармаслар. Кўриниб турибдики, ҳар бир $c \ge c_{\min} = 2\sqrt{kD}$ учун $0 \le f \le 1$ кесмада $f = 0$ дан бошланиб $f = 1$ томон ҳаракатланувчи ягона $F > 0$ бўлган траектория мавжуд, бунда $F = 0$ бўладиган $f = 0$ ва $f = 1$ нуқталар бундан мустасно. Агар бошланғич шартлар (7.6) кўринишда бўлса, $c_{\min}$ – Фишер тенгламасининг ечими бўлган тўлкин тарқалиши тезлигининг ягона табиий қиймати бўлишини А.Н.Колмогоров, И.Г.Петровский ва Н. С. Пискуновлар исботладилар. Юқорида айтиб ўтганимиздек, ечимнинг катта вақт давомидаги хусусияти (ўзини тутиши) бошланғич шартларнинг чексизликда ўзини қандай тутиши билан чамбарчас боғлиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Арипов М.М., Мухамедиева Д.К. К решению обобщенного уравнения в задаче биологической популяции конвективного переноса //Международный научно-технический журнал Химическая технология. Контроль и управление, -Ташкент, № 3, 2014, с. 71-76,
2. Арипов М.М., Мухамедиева Д.К. Подходы к численному моделированию задачи реакции с диффузией типа Колмогорова-Фишера в двумерном случае Ташкент, №1-2, 2014, с. 21-26,

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000